O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

UNIVERSITY OF INNOVATION TECHNOLOGIES

Respublika kólemindegi ilimiy-ámeliy konferenciya materialları toplamı “Sanlastırıw sharayatında bilimlendiriw sisteması rawajlanıwınıń zamanagóy mashqalaları hám tendenciyaları”

Nókis, 24-aprel 2026-j.

Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami “Raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimi taraqqiyotining zamonaviy muammo va tendensiyalari”

Nukus, 24-aprel 2026-y.

I TO‘PLAM

3-Sho‘ba: Global ta’lim makonida pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb muammolari.

6-Sho‘ba: Ilmning raqamlashtirilishi sharayotida ijtimoiy fanlarning mintaqaviy muammolari.

7-Sho‘ba: Maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda zamonaviy ta’lim tendentsiyalari.

8-Sho‘ba: Filologik ta’limda raqamli lingvistika, media ta’lim va axborot texnologiyalarining imkoniyatlari.

NUKUS

2026

UDK:62:001
KBK:30+72 S 28

“Raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimi taraqqiyotining zamonaviy muammo va tendensiyalari” Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. I to‘plam. – Nukus 2026 – 581 b.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar jamiyatning deyarli barcha sohalariga jadal kirib kelmoqda. Xususan, ta’lim tizimida ham ushbu texnologiyalar muhim o‘rin egallab, o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish, interfaol o‘qitish metodlarini keng joriy etish va masofaviy ta’limni rivojlantirish imkonini bermoqda. An’anaviy ta’lim shakllari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan boyitilib, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish va ularning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga ko‘maklashmoqda. Raqamli texnologiyalar ta’lim tizimiga faqat o‘qitish jarayonini takomillashtirish uchun emas, balki axborotni yanada tezkor va qulay yetkazish, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish hamda ta’lim resurslariga kengroq imkoniyat yaratish maqsadida joriy qilinmoqda. Xususan, onlayn platformalar, sun’iy intellekt, virtual va kengaytirilgan reallik, masofaviy ta’lim dasturlari, elektron darsliklar hamda raqamli kutubxonalar zamonaviy ta’lim muhitining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Dunyo miqyosida ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiyalash bo‘yicha turli innovatsion yechimlar ishlab chiqilmoqda. Ushbu texnologiyalar nafaqat ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, balki individual yondashuvni kuchaytirish, har bir talabaning ehtiyojlariga mos ta’lim olish imkoniyatini yaratish uchun ham xizmat qilmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosida ishlovchi ta’lim tizimlari, o‘yinlashtirish elementlari (gamification) va adaptiv o‘qitish usullari bugungi kunda eng dolzarb yondashuvlardan biri sifatida qaralmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etishda muayyan qiyinchiliklar ham mavjud. Ta’lim muassasalarining texnik ta’minoti, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalari, internetga ulanish sifati va ma’lumotlarning xavfsizligi kabi omillar bu jarayonga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimiga samarali integratsiyalash uchun uzluksiz modernizatsiya, pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish va texnologik resurslardan optimal foydalanish strategiyalarini ishlab chiqish zarur. Ushbu to‘plamda raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta’lim jarayoniga ta’siri, ularning samaradorlik darajasi, joriy etishning muammolari va yechimlari, shuningdek, ta’lim tizimini innovatsion rivojlantirishda ushbu texnologiyalarning tutgan o‘rni atroflicha tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim muhitida raqamli texnologiyalarni qo‘llash va ularni o‘zaro integratsiyalash bo‘yicha ilg‘or tajribalar va istiqbolli yo‘nalishlar ham ko‘rib chiqiladi.

TASHKILIY QO‘MITA A’ZOLARI

A.M.A’zamov	Rektor, rais
A.T.Yuldashev	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, rais o‘rinbosari
I.I.Yusupov	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor
J.K.G‘afurov	Xalqaro hamkorlik aloqalari bo‘yicha prorektori
Sh.X.Madraximov	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
N.E.Xudayqulov	Moliya va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor
D.Q.Jumaniyazov	Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i
A.T.Kaipbergenov	Ilmiy-tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti boshlig`i
S.T.Kalmuratov	O‘quv ishlari bo‘limi boshlig‘i
R.R.G‘aniyev	Xalqaro aloqalar bo‘limi boshlig‘i
G‘.A.Sultanov	Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i
B.B.Joldasov	Talabalar orasida ijtimoiy ma`naviy muxit barqarorligini ta`minlashga ma`sul bo`lgan rektor maslahatchisi
B.A.Daumenov	Korrupsiyaga qarshi kurashish “Komplayens nazorat” tizimini boshqarish bo‘limi boshlig‘i
D.J.Janabayev	Rektorat tashkiliy xizmati bo`limi boshlig`i
O.A.Achilov	Registrator ofisi direktori
A.B.Urazimbetov	Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo`limi boshlig`i
N.O.Duysenbaev	Raqamli ta’lim texnologiyalar markazi boshlig‘i
B.N.Tlegenov	Ta`lim sifatini nazorat qilish bo`limi boshlig`i
A.R.Naurizbaev	Marketing va talabalar amaliyoti bo`limi boshlig`i
S.U.Izmatova	Hisob-kitob bo’limi xisobchisi
K.M.Bekimbetov	Innovatsion texnologiyalar va biznes fakulteti dekani
O.K.Zaripov	Innovatsion pedagogika fakulteti dekani
G.K.Izetayeva	Dasturiy injiniring va raqamli iqtisodiyot kafedrasi
J.T.Berdiyev	Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri
A.S.Shamshetov	Iqtisodiyot va moliya kafedrasi mudiri
M.Z.Aytimbetov	Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri
T.A.Nurabullaev	Maktabgacha va boshlang‘ish ta’lim kafedrasi mudiri
A.A.Yusupov	Filologiya kafedrasi mudiri
D.E.Rizamurotov	Devonxona va arxiv bo‘limi boshlig‘i
Sh.B.Saidahmadov	Matbuot kotibi
P.J.Kalxanov	Dasturiy injiniring kafedrasi dotsenti
D.K.Tureniyazova	Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
A.I.Bayniyazov	Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrasi assistenti

Mas’ul muharrirlar:

J.T.Berdiyev, D.Q.Jumaniyazov, P.J.Kalxanov, A.I.Bayniyazov, T.N.Yuldashev

“Raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimi taraqqiyotining zamonaviy muammo va tendensiyalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi 11-son buyrug‘iga asosan tashkillashtirildi hamda universitet Kengashining 2026-yil 18-apreldagi navbatdan tashqari 9-sonli bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya qilindi.

ZAMONAVIY TA’LIMNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

A’zamov Anvar Muzaffarovich
Innovatsion texnologiyalar universiteti rektori

Bugungi kunda ta’lim tizimini rivojlantirish masalasi mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida yoshlarning bilim va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni zamonaviy kasb va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan. Mazkur yondashuv zamonaviy global rivojlanish sharoitida ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni raqamli texnologiyalarni barcha sohalarga keng joriy etish, innovatsion rivojlanishni ta’minlash hamda raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda muhim dasturiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur strategiya doirasida ta’lim tizimini raqamlashtirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmonida mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish, ularni yangi bosqichga olib chiqish, strategik rejalashtirish tizimini takomillashtirish hamda barcha jarayonlarni keng ko‘lamda raqamlashtirish zarurligi alohida ta’kidlangan.

Mazkur hujjatda, xususan, rivojlanish jarayonlarini monitoring qilishni to‘liq raqamlashtirish, samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida boshqaruv tizimini joriy etish hamda ta’lim va inson kapitalini rivojlantirishga ustuvor e’tibor qaratilgan. Bu esa ta’lim tizimini nafaqat bilim beruvchi tizim sifatida, balki innovatsion taraqqiyotning muhim drayveriga aylantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 16-yanvardagi 11-son buyrug‘iga muvofiq, Innovatsion texnologiyalar universiteti tomonidan 2026-yil 24-aprel kuni “Raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimi taraqqiyotining zamonaviy muammo va tendensiyalari” mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilishi hamda ilmiy maqolalar to‘plami nashr etilishi rejalashtirilgan.

Hurmatli ishtirokchilar!

Ishonamanki, ushbu konferensiya doirasida ilgari suriladigan ilmiy g‘oyalar va takliflar ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadrli ilmiy anjuman ishtirokchilari, barchangizning ilmiy faoliyatingizga omad va zafarlar tilab, anjuman ishini ochiq deb e’lon qilaman!

3-SHO‘BA: GLOBAL TA’LIM MAKONIDA PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARINING DOLZARB MUAMMOLARI

YANGILANAYOTGAN O‘ZBEKISTONDA TALABALARNING MAFKURAVIY IMMUNITETINI RIVOJLANTIRISH

A’zamov Anvar Muzaffarovich – Innovatsion texnologiyalar universiteti rektori

https://doi.org/10.5281/zenodo.19666423

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda talabalarning mafkuraviy immunitetini rivojlantirish ning mezon va omillari hamda kompetensiyalari ilmiy asosda tahlil qilingan. Mafkuraviy immunitet talabalarning g‘oyaviy ta’sirlarga qarshi turish qobiliyati sifatida ko‘rib chiqilib, uning shakllanishida ta’limning ijtimoiy-pedagogik, psixologik va ma’naviy omillari muhim ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlab o‘tilgan. Shuningdek, talabalarning mafkuraviy immunitetini rivojlantirish mezon va omillari ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar. Mafkuraviy immunitet, g‘oyaviy-mafkuraviy bilim, g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim va tarbiya, g‘oyaviy-mafkuraviy faoliyat, ta’limda ma’naviy tarbiya, g‘oyaviy ko‘nikma, ijtimoiy faollik, g‘oyaviy-profilaktik bilim, milliy qadriyatlar, faol fuqarolik pozitsiyasi, axloqiy-ijtimoiy kompetensiya.

Abstract. This article scientifically analyzes the criteria and factors of the development of ideological immunity of students in Uzbekistan, as well as their competencies. Ideological immunity is considered as the ability of students to resist ideological influences, the importance of socio-pedagogical, psychological and spiritual factors of education in its formation is emphasized. The criteria and factors of the development of students' ideological immunity based on scientific and pedagogical approaches are also indicated.

Key words. Ideological immunity, ideological and ideological knowledge, ideological and ideological education and upbringing, ideological and ideological activity, spiritual education in education, ideological skills, social activity, ideological and preventive knowledge, national values, active citizenship, moral and social competence.

Kirish (Introduction). Hozirgi kunda shu narsa ravshanki, jahon miqyosida globallashuv jarayonlarining chuqurlashib borishi har bir davlat, millat va etnik guruh vakillariga, jumladan, yoshlar ongiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Bunda axborot oqimlarining tezlashuvi, ularni olish manbalarining turli-tumanligi turli g‘oyalar, mafkuraviy va madaniy oqimlarning keng tarqalishiga sharoit yaratib bermoqda.

Insonning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun dastlabki asos bo‘lib, u insonga o‘zini turli faoliyat turlarida amalga oshirishiga imkon beradi;

Insonning tashqi muhit bilan munosabatlarga kirishish va unda maksimal tezkor moslashish hamda unda ishlash qobiliyati, bu shaxsning ijtimoiy

munosabatlar tizimida normal amal qilishini ta’minlovchi, shaxsning ma’lum madaniy muhitda hayot faoliyatini amalga oshirishi uchun minimal zarur hisoblangan bilimlarning atomar darajasidir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq adabiyotlarni o‘rganish va tahlil etish shuni ko‘rsatdiki, 2016 yilgacha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarda g‘oyaviy-mafkuraviy immunitet masalasi falsafiy-pedagogik nuqtai nazardan keng o‘rganilgan. Jumladan, mafkura tushunchasi, milliy mafkuraning barkamol shaxsni tarbiyalashdagi ahamiyati, shaxs ma’naviyati va milliy tarbiya muammolari M.Quronov, milliy ma’naviyatimiz va mafkuramizning nazariy va tarixiy-tadrijiy masalalari M.Bekmurodov, ijtimoiy-milliy onglilik, faollik, milliy g‘urur hamda iftixor tuyg‘usini shakllantirishning asosiy manbalari bo‘lgan milliy g‘oyaning mohiyati I.Ergashev, X.Xudayberdiev, A.Qahramonovlar, ma’naviyat hamda mafkura tushunchalarining uzviy bog‘liqligi va aloqadorligi, mustaqillik va shaxs ma’naviyatini shakllantirish masalalari A.Ochildievlarning tadqiqot ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Pedagog olima Z.Qosimova o‘zining “Talaba-yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning pedagogik asoslari (Oliy o‘quv yurtlari ma’naviy-ma’rifiy ishlari misolida)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida “g‘oyalar haqidagi bilimlar”ni mafkuraviy ko‘nikmaning elementi sifatida talqin qiladi. Shuningdek, tadqiqotchi “mafkuraviy immunitet”, “mafkuraviy tarbiya” tushunchalarini keng qo‘llagan holda, “g‘oyaviy immunitet” atamasini hech bir o‘rinda ishlatmaydi. Aslida, g‘oyaviy immunitetni shakllantirish orqali mafkuraviy tahdidlarning oldini olish lozimligiga ishda alohida e’tibor qaratilmagan [2].

B.Mirzaolimov “Yoshlar ongida milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari (“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati misolida)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyada “g‘oyalar tizimi mafkurani yaratadi”, degan fikrga tayangan holda, mafkuraning aynanligini inkor etadi. Shu bilan birga, ularning o‘zaro aloqadorligi va o‘ziga xosligini e’tirof etgan holda, “g‘oyaviy-mafkuraviy ta’lim va tarbiya”, “g‘oyaviy-mafkuraviy bilim”, “g‘oyaviy-mafkuraviy faoliyat” tushunchalarini keng qo‘llagan [3].

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Yuqoridagi tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, pedagogik tadqiqotlarda g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni mafkuraviy immunitet va profilaktika bilan bog‘liqlikda talqin etishga alohida e’tibor qaratilgan. Milliy g‘oya zamonaviy talqinda sosial kapitalni, ya’ni “xalqni uyushgan harakatga keltiruvchi normalar, norasmiy qadriyatlar majmui”, degan ma’noga ham ega. Shu ma’noda milliy g‘oya va mafkura O‘zbekiston xalqining umumiy maqsadga erishish resurslarini ifodalaydi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ilmiy-pedagogik adabiyotlarda “g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlik” atamasi juda kam qo‘llanilgan. Respublikamizda amalga oshirilgan ayrim tadqiqotlarda mazkur tushunchaning qo‘llanilishiga guvoh bo‘lish mumkin. Dastlab mazkur pedagogik voqelik professor B.X.Xodjaevning ilmiy ishlarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish bilan aloqadorlikda subkompetensiya sifatida talqin qilingan [4].

D.Mamatqulovning “Malaka oshirish jarayonida umumta’lim maktab rahbarlarining mafkuraviy kompetentliligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida “mafkuraviy kompetentlilik” tushunchasi ilmiy iste’molga kiritilgan. Biroq tadqiqotchi tomonidan mazkur tushunchaga berilgan ta’rif alohida izohni talab etadi: “Mafkuraviy kompetentlilik – bu shaxsning mafkura sohasida chuqur bilimga egaligi va muayyan mafkura bo‘yicha kuchli e’tiqod (mafkuraviy immunitet)ning shakllanganligi hamda o‘z mafkurasidagi g‘oya va qarashlarni boshqa insonlarda ham shakllantira olishini ko‘rsatuvchi xususiyat hisoblanadi” [5]. Mazkur ta’rifda “mafkuraviy kompetentlik” tushunchasiga ta’rif berishda bilim, ko‘nikma va malaka talqini ustuvorlik kasb etgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Tadqiqot doirasida talabalarda g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning to‘rtta ustuni – faol fuqarolik pozisiyasi, mafkuraviy profilaktika, mafkuraviy pedagogika, hamkorlik pedagogikasiga asoslangan holda, uning emosionol-motivatsion, informasion-kognitiv, faoliyatga doir, aksiologik komponentlari aniqlashtirildi (1-rasmga qarang).

Dastlab talabalarda g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirishning to‘rt ustuniga to‘xtalib o‘tamiz.

1. Faol fuqarolik pozisiyasi. Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 29-moddasida “fuqarolik pozisiyasi” tushunchasi quyidagicha ifoda etilgan: “Har bir inson jamiyat oldida burchlidir, faqat shu holatdagina uning shaxsi erkin va to‘liq kamol topishi mumkin”. O‘z navbatida, “Har bir inson o‘z huquqi va erkinliklaridan foydalanishda o‘zgalarning huquq va erkinliklarini demokratik jamiyatda yetarli darajada bo‘lishini hamda hurmat qilinishini ta’minlash, axloq, jamoat tartibi, umum farovonligining odilona talablarini qondirish maqsadidagina qonunda belgilangan cheklanishlarga rioya etishi kerak” [4].

A.Akramovning fikricha, fuqarolik pozisiyasi – bu shaxsning o‘zini-o‘zi anglash orqali fuqaro sifatida jamiyatda tutgan o‘rnini munosib baholay olishi va uning hayotida faol ishtirok etishidir. Shaxsda fuqarolik pozisiyasini shakllantirish bevosita fuqarolik tarbiyasi doirasida amalga oshiriladi [5].

Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilan amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning muhim vazifalardan biri hayotiy faoliyat jarayonida faol fuqarolik pozisiyasini egallash, o‘zining harakatlari uchun to‘liq javobgarlikni o‘z ximmasiga olish hamda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etishga qobiliyatli fuqaroni shakllantirish zarur.

1-rasm. Talabalarda g‘oyaviy-mafkuraviy kompetentlikni rivojlantirish tuzilmasi



Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan asrab avaylash, mustaqillikni tinchlikni saqlash, zararli ta’sirga berilib ketmaslik ko‘nikmasini rivojlantirish; qarorlarni qabul qilishda demokratiya asoslari prinsiplardan to‘laqonli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish, ma’naviy va intelektual salohiyatli yetuklikka erishish darajasi oshib borgan sari ilmiy adabiyotlarga fuqarolik huquqlariga bo‘lgan qiziqish oshib boradi.

Talabalar mafkuraviy immunitetini rivojlantirishda ta’limning ta’siri, pedagogik shart-sharoitlarning aniq belgilanishi va muvofiqlashtirilgan faoliyat muhim omil hisoblanadi. Mazkur jarayonlar yoshlarni ijtimoiy faollikka undovchi va milliy qadriyatlar asosida barkamol shaxs sifatida yetishtirishga xizmat qiladi.

Yakuniy tavsiya sifatida, oliy ta’lim muassasalari va pedagoglar uchun mafkuraviy immunitetni rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks pedagogik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqligi ta’kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References).

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” farmon.

2. Shermuxammedov B.Sh. Yoshalar orasida milliy g‘oya targ‘iboti samaradorligini oshirish (“Kamolat” yoshlar ijtimoiy xarakati faoliyati misolida) ped. fan. dok... diss. Avtoreferat. -T.: 2016. -31b.

3. Akramova Sh.A. O‘smirlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish: Pedagogika fanlari nomzodi diss. -Toshkent, 2012. – 163 b.

4. Mirzaolimov B. Yoshlar ongida milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirishning pedagogik asoslari (“Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati misolida)” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi – Toshkent, 2005. – B. 156.

5. Muxsieva A. ilada milliy tarbiyani tashkil etishning metodik asoslari./Ped. fan. nom diss. -T.: -2005.

AKMEOLOGIYALÍQ PIKIRLEWDIŃ SOCIALLÍQ-MÁDENIY SISTEMASÍ HÁM ONÍŃ PEDAGOGIKALÍQ ÁHMIYETI

Aytımbetov Maxsetbay Zinatdin uli – Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti Pedagogika hám psixologiya kafedrası baslıǵı, p.i.b.f.d. (PhD), docent
Batirova Sevinch Ulug‘bekovna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19636813

Annotaciya: Maqalada akmeologiyalıq pikirlewdiń qáliplesiwinde sociallıq hám mádeniy ortalıqtıń tutqan ornı, bul boyınsha júrgizilgen tiykarǵı ilimiy izertlewlerdiń analizi berilgen. Akmeologiyalıq kózqaras subyektıń professional hám jeke rawajlanıwındaǵı eń joqarı shıńlarǵa ("akme") erisiw mexanizmlerin sociallıq-mádeniy sistema retinde úyrenedi. Analiz dawamında dástúriy hám zamanagóy akmeologiyalıq mekteplerdiń teoriyalıq tiykarları salıstırılǵan.
Tayanısh sózler: Akmeologiya, akmeologiyalıq pikirlew, sociallıq-mádeniy sistema, professional rawajlanıw, akme, subyekt optimallasıwı.
Annotation: The article provides an analysis of the role of the social and cultural environment in the formation of acmeological thinking and the main scientific research conducted in this area. The acmeological approach studies the mechanisms of achieving the highest peaks ("acme") in the professional and personal development of the subject as a socio-cultural system. During the analysis, the theoretical foundations of traditional and modern acmeological schools were compared.
Keywords: Acmeology, acmeological thinking, socio-cultural system, professional development, acme, subject optimization.

Jámiyetimizdiń intellektual potencialın arttırıw hám básekige shıdamlı kadrlar tayarlaw wazıypası akmeologiyalıq izertlewlerdiń jańa basqıshqa shıǵıwın talap etpekte. Akmeologiyalıq pikirlew shaxstıń kásiplik jetiskenlik nızamlılıqların túsindiriwshi oraylıq qubılıs bolıwı menen birge, ol belgili bir sociallıq-mádeniy kontekstte júzege keledi. Bul temanıń úyreniliwi bolajaq muǵallimlerdiń kásiplik strategiyasın qurıw, olardıń innovaciyalıq potencialın júzege shıǵarıw hám quramalı sociallıq jaǵdaylarda durıs qarar qabıllaw uqıplılıǵın dálillewde joqarı ilimiy-ámeliy áhmiyetke iye

Zamanagóy pánler sistemasında shaxstıń óz potencialın tolıq júzege shıǵarıwı hám kásiplik jetiwkenlikke erisiwi eń áhmiyetli máselelerdiń biri esaplanadı. Akmeologiyalıq pikirlew — shaxstıń óz múmkinshilikleri, ómirlik maqsetleri hám kásiplik rawajlanıw strategiyasın tereń, sanalı hám sistemalı analiz ete alıw uqıplılıǵı bolıp, ol adamnıń "akme" — joqarı rawajlanıw shoqqısına jetisiw procesinde qáliplesetuǵın arnawlı pikirlew túri bolıp tabıladı. Bul pikirlew shaxsqa "Qanday adam bolıwdı qáleymen?", "Kásiplik xızmette qanday nátiyjelerge erisemen?", "Óz múmkinshiliklerimdi qalay durıs baǵdarlawım kerek?" sıyaqlı sorawlarǵa juwap tabıwǵa járdem beredi.

Belgili psixolog Kurt Levinniń maydan teoriyasına muwapıq, insan minez-qulqın belgilewshi faktor — bul shaxs tárepinen ańlanǵan reallıq esaplanadı. Akmeologiyalıq pikirlew de dál usı pricipke súyenedi: shaxstıń kásiplik

rawajlanıwı onıń bul processti qalay túsiniwine hám qabıl etiwine baylanıslı. [1, 104]

Ananyev pikirinshe, "akme" basqıshına erisiw ushın tek kásiplik bilimlendiriw jeterli emes, bálki shaxstıń ómirlik strategiyaların sanalı túrde basqara alıwı (akmeologiyalıq pikirlewi) kerek, bul basqıshta adam tek mánisli nátiyjege erisip qoymay, bálki óziniń bar potencialın júzege shıǵaradı dep esaplaydı. [2, 154]

Maslow akmeologiyalıq pikirlewdi "joqarı mútájliklerdi" (metamotivaciya) qanaatlandırıw usılı retinde qaradı. Onıń kózqarasınsha, intellektual jetik adamlar hár qanday jaǵdayda dóretiwshilik hám ózin rawajlandırıw jolın tańlaydı. [3, 314]

Zamanagóy AQSH hám Evropa izertlewshileri akmeologiyalıq pikirlewdi refleksivlik ámeliyat túsinigine jaqınlastıradı. Olar pedagogtıń "akme"sine — úzliksiz kásiplik rawajlanıw (CPD - Continuing Professional Development) hám kritikalıq pikirlew arqalı erisiledi dep esaplaydı. Bunda oqıtıwshınıń óz qátelerin analizlep, jańa innovaciyalardı qabıllawı akmeologiyalıq pikirlewdiń baslı faktor retinde kórsetiledi. [4, 112]

Respublikamız alımlarınan Akademik R.X. Djuraev professional bilimlendiriw sistemasında akmeologiyalıq jantasıwdıń teoriyalıq tiykarların islep shıqqan. Onıń kózqarasınsha, akmeologiyalıq pikirlew — bul muǵallimniń óz kásibiniń ustası bolıwı ushın zárúr bolǵan akmeologiyalıq poziciyasın qáliplestiriwshi faktor dep esaplaydı. [5, 87-92]

Professor Sh. Shodmonova joqarı oqıw orınları studentlerinde akmeologiyalıq jantasıwdı qáliplestiriw máselelerin úyrengen. Ol akmeologiyalıq pikirlewdi óz-ózin rawajlandırıwǵa bolǵan ishki mútájlik hám kásiplik sıpatlardı úzliksiz jetilistiriw procesi dep bahalaydı. [6, 72-74]

Professor N. Ergashev akmeologiyalıq jantasıwdı shaxstıń jetiklik dárejesi hám basqarıw iskerligi menen baylanıstırıp úyrenedi. Onıń pikirinshe, akmeologiyalıq pikirlew shaxstıń krizisli jaǵdaylardan shıǵıw hám strategiyalıq maqsetlerge erisiw uqıplılıǵın belgileydi dep kórsetedi. [7, 76]

Joqarıdaǵı ilimiy izertlewlerdiń barlıǵı akmeologiyalıq pikirlew, pikirlew procesi sıpatında insannıń eń joqarı rawajlanıw shoqqısına akmege erisiwge qaratılǵanlıǵı menen túsindiriledi. Yaǵnıy, insan oy-pikirinde júz beretuǵın maqsetlerdi sanalı tańlaw, óz potencialın talqılaw, rawajlanıw strategiyasın qurıw, ózin-ózi jetilistiriw jolların izlew, kásiplik hám jeke ósiwdi ańlaw processlerin óz ishine aladı. Demek, ol iskerlikti akmege baǵdarlawshı pikirlew procesi esaplanadı.

Akmeologiyalıq pikirlew qábilet sıpatında insanda qáliplesiwshi jeke hám intellektual qábiletler jıyındısı esaplanıp, ol tómendegi qábiletlerdi óz ishine aladı: maqsetke baǵdarlanǵan pikirlew, refleksiv talqılay alıw, innovaciyalıq hám dóretiwshilik pikirlew, ózin rawajlandırıwǵa ishki mútájlik, ózin-ózi basqarıw, sociallıq-mádeniy beyimlesiwsheńlik. Bul qábilet tuwma emes - bilim, tájiriybe hám jeke ósiw arqalı qáliplesedi.

Akmeologiyalıq pikirlewdiń insannıń **eń joqarı jeke, kásiplik hám sociallıq rawajlanıw shoqqısına (akmege)** erisiw procesine tán bolǵan pikirlew usılın ańlatatuǵın tiykarǵı ózgeshelikleri bar.

Maqsetke bagdarlangan pikirlew - bul insannıń sana-seziminde maqsetti oraylıq ólshem sipatında tańlap, barlıq pikir, qarar hám háreketlerdi usı maqsetke jetiw ushın xızmet etetuǵın tárizde shólkemlestire alıw qábileti. Bunday pikirlew, maqsetti anıq kóz aldına keltiriwdi, oǵan jetisiw jolların jobalastırıwdı, hár bir iskerlikti maqset penen baylanıstırıp tallaw jasawdı, kerek bolǵanda strategiyanı qayta qarap shıǵıwdı, motivaciyanı turaqlı saqlawdı óz ishine aladı. Ol shaxstıń keleshekti aldın-ala kóre alıwı, iskerlikti jobalastırıwı, motivaciyasınıń turaqlılıǵı hám erki-ıqtıyarınıń bekkemligi menen tıǵız baylanıslı.

Konstruktiv tallaw jasay alıw — bul máseleni, jaǵdaydı yamasa iskerlik barısın sın kózqarastan emes, al unamlı nátiyje beriwge baǵdarlanǵan nátiyjeli usılda tallaw jasap, ondaǵı tiykarǵı sebeplerdi, imkaniyatlardı hám jetilistiriw jolların anıqlay alıw qábileti. Bunda pikirlewshi adam máselege bitarap hám obyektiv qatnasta boladı, jaman táreplerin emes, olardı saplastırıw jolların izleydi, bar resurslardı hám imkaniyatlardı kóre aladı, hár bir tallawdı rawajlanıw hám jaqsılanıwǵa baǵdarlaydı, sındı buzıwshı emes, al qurıwshı mazmunda alıp baradı. Hár qanday jaǵdaydı oń sheshim kózqarasınan kóre aladı.

Refleksiyalıq pikirlew - bul shaxstıń óz pikirlerin, sezim-tuyǵıların, qararların hám is-háreketlerin sanalı túrde talqılay alıwı, olardıń sebeplerin ańlap, nátiyjelerinen juwmaq shıǵarıp, keleshektegi xızmetin jetilistiriwge baǵdarlay alıwı esaplanadı. Refleksiyalıq pikirlew ózin-ózi baqlaw, ishki processlerdiń mánin túsiniw, óz pikir hám háreketlerine sın-unamlı baha beriw, ózin-ózi basqarıw hám rawajlandırıwdı támiyinlew processlerinen ibarat.

Innovaciyalıq-kreativ jantasıw - bul akmeologiyalıq pikirlewdi kórsetiwshi, shaxstıń máselelerdi sheshiwde, xızmetin rejelestiriwde hám óz rawajlanıwın támiyinlewde jańasha, ádettegidey emes hám dóretiwshilik sheshimler jaratıwǵa umtılıwı hámde usı jańa ideyalardı ámeliyatqa nátiyjeli engize alıw qábileti esaplanadı. Adam pikirleviniń bul ózgesheligi onıń sana-sezimiндegi bar stereotiplerdiń sheńberinen shıǵıp pikirlew, máselelerge alternativ, original sheshimler jaratıw, jańalıqlardı qabıl etiw hám olardan nátiyjeli paydalanıw, óz xızmetin úzliksiz jetilistiriwge umtılıw, dóretiwshilik pikirlewdi innovaciyalıq ámeliyat penen úylestiriw processleri arqalı kórinedi.

Ózin-ózi rawajlandırıw zárúrligi - bul akmeologiyalıq pikirlew sheńberinde shaxstıń **ishki motivaciyasına tiykarlanǵan, ózin úzliksiz jetilistiriwge hám eń joqarı jeke, kásiplik hám intellektual potencialǵa erisiwge umtılıwın bildiriwshi qásiyet.** Bul ózgeshelik shaxsta jańa bilim, kónlikpe hám tájiriybelerdi iyelewdi, óz xızmetin hám júris-turısın talqılaw hám jetilistiriwdi, kásiplik hám jeke ósiwi ushın sanalı joba dúziwdi, ishki motivaciyaǵa tiykarlanǵan turaqlı rawajlanıw jolın izlewdi xoshametleydi. Sebebi akmeologiyalıq pikirlew - bul shaxstıń **eń joqarı shoqqısına jetiwine baǵdarlanǵan oylaw procesi.** Usı proceste **óz-ózin rawajlandırıw zárúrligi** shaxstı úzliksiz túrde jańalıq izlewge, ósiwge, ózin jetilistiriwge iytermeleydi hám pikirlewdiń ámeliy mexanizmin támiyinleydi.

Sociallıq-mádeniy beyimlesiwsheńlik - bul akmeologiyalıq pikirlew sheńberinde shaxstıń hár túrli sociallıq hám mádeniy ortalıqlarǵa beyimlesip, olardıń qaǵıydaları, qádiriyatları hám talapları menen úylesip nátiyjesheń xızmet

kórsetiw uqıplılıǵı. Bul ózgeshelik shaxsta sociallıq hám mádeniy jaǵdaylardı durıs qabıl etiw hám olarǵa beyimlesiw, jámiyet hám topardıń qádiriyatları menen normaların esapqa alǵan halda qarar qabıllawdı, óz xızmetin túrli sociallıq kontekstlerge beyimlewin, jańa sociallıq hám mádeniy jaǵdaylarda nátiyjesheń birge islesiw hám innovaciyalıq sheshimler jaratıwdı támiyinleydi.

Sociallıq-mádeniy beyimlesiwsheńlik akmeologiyalıq pikirlewdiń áhmiyetli ózgesheligi bolıp, shaxsqa, sociallıq-mádeniy kontekstte ósiw imkaniyatın asırıw, quramalı sociallıq jaǵdaylarda nátiyjeli qararlar qabıl etiw, innovaciyalıq hám dóretiwshilik sheshimler tabıw imkaniyatın beredi.

Izertlew nátiyjeleri sonı kórsetedi, akmeologiyalıq pikirlew — bul shaxstıń tek ǵana intellektual qábileti emes, al onıń kásiplik hám jeke rawajlanıwınıń eń joqarı shoqqısı bolǵan "akme"ge jetiwin támiyinleytuǵın integrativ process bolıp tabıladı. Maqalada analiz etilgen barlıq ilimiy jantasıwlar bul pikirlew túrin iskerlikti strategiyalıq baǵdarlawshı mexanizm sıpatında tastıyıqlaydı.

Juwmaqlap aytqanda, akmeologiyalıq pikirlewdıń mánisi tómendegi tiykarǵı faktorlar menen belgilenedi:

Sanalı strategiya: Shaxstıń óz potencialın talqılay alıwı, anıq maqsetler qoyıwı hám keleshekti aldın-ala kóre alıwı onıń kásiplik rawajlanıw strategiyasın belgileydi.

Integrativlik qásiyet: Akmeologiyalıq pikirlew tuwma berilmeytuǵın, al bilim, tájiriybe hám úzliksiz jeke ósiw procesinde qáliplesetuǵın quramalı qábiletler jıyındısı (refleksivlik, konstruktivlik, kreativlik) esaplanadı.

İshki mútájlik hám motivaciya: Ózin-ózi úzliksiz rawajlandırıw zárúrligi shaxstı turaqlı jańalıq izlewge hám stereotiplerden shıǵıp pikirlewge iytermeydi, bul bolsa kásiplik kemallıqtıń ámeliy mexanizmin támiyinleydi.

Sociallıq-mádeniy beyimlesiw: Akmeologiyalıq pikirlew shaxsqa quramalı sociallıq ortalıqta óz qádiriyatların saqlap qalǵan halda, jańa jaǵdaylarǵa nátiyjeli sáykeslesiw imkaniyatın beredi.

Ásirese, bolajaq pedagoglar ushın akmeologiyalıq pikirlewdi qáliplesitiriw — bilimlendiriw sapasın arttırıwdıń baslı shárti bolıp tabıladı. Sebebi, óz "akme"sine umtılǵan ustaz ǵana studentlerdi dóretiwshilikke, refleksivlikke hám jetiskenlikke baǵdarlawǵa qábiletli. Sonday-aq, bul pikirlew usılı shaxstıń sociallıq hám kásiplik ortalıqtaǵı barlıq resursların bir orınǵa integraciyalaw arqalı onıń jámiyetlik mánisin asıradı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi:

1. Lewin, K. *Field Theory in Social Science: Selected Theoretical Papers*. New York: Harper & Brothers. – pp. 238-304.

2. Ананьев, Б. Г. О проблемах современного человекознания. – 2-е изд. – СПб.: Питер, 2001. – СС. 154-172.

3. Maslow, A. H. (1971). *The Farther Reaches of Human Nature*. New York: Viking Press. – pp. 299-340.

4. Day, C. (1999). *Developing Teachers: The Challenges of Lifelong Learning*. London: Falmer Press. – pp. 115-132.

5. Djuraev, R. X. *Professional bilimlendiriw sistemasında akmeologiyalıq jantasıw*. Tashkent: Fan va texnologiya. 2015. - 128 b.

6. Shodmonova, Sh. S. *Joqarı oqıw orınları studentlerinde akmeologiyalıq jantasıwdı qáliplestiriw máseleleri*. Monografiya. Tashkent: Ilim. 2012 – 164 b.

7. Ergashev N.S. *Basqarıw iskerliginde akmeologiyalıq jantasıw hám shaxs jetikligi*. Tashkent: Universitet. 2018 – 142 b. (Krizisli jaǵdaylar hám strategiyalıq maqsetler analizi).

8. Деркач, А. А. Акмеология: учебное пособие. – М.: Изд-во РАГС, 2004. – СС. 210-245.

TALABALARDA O’QUV FANLARINI O’ZLASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK FENOMEN SIFATIDA

Z.Sherimbetova- Innovatsion texnologiyalar universiteti professori, ps.f.d.

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636939

Annotatsiya. Maqolada talabalar o’quv fanlarini o’zlashtirishining pedagogik-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar, ta'lim metodlari, va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha keng olib borilayotgan tadqiqotlar, o‘quvchilarning motivatsiyasi, o‘qitish metodlari, va ta’lim texnologiyalari orqali ta’lim samaradorligini oshirish masalalari talqin etilgan.

Annotation. The article examines research conducted on the development of pedagogical and psychological characteristics of student’s mastery of academic subjects, educational methods, extensive research on the level of student’s mastery, student’s motivation, teaching methods, and improving the effectiveness of education through and educational technologies.

Kalit so‘zlar: talim psixologiyasi, ta'lim metodlari, mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash, motivatsiya, “o‘quv yutug‘i”, “ta’lim muvaffaqiyati”, “ta’lim samaradorligi”, “akademik muvaffaqiyat”, “o‘rganish samaradorligi”, bilim, ko‘nikma va malaka.

Key words: educational psychology, teaching methods, independent, critical, creative thinking, motivation, "academic achievement," "educational success," "educational effectiveness," "academic success," "learning effectiveness," knowledge, skills, and abilities.

Respublikamizning so‘nggi yillarida ta’lim sifatini oshirish va talaba yoshlarda yuksak bilim va iste’dodni rivojlantirish hamda faol fuqarolik jamiyatining shakllantirilishiga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari belgilanib, zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi: «Yoshlar uchun ochiq va sifatli o‘qitish tizimini qaror toptirish, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal bilim olishini ta’minlash, iqtidorli va iste’dodli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish» vazifalariga asoslanib, shaxsda o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi faollashtirish xususiyatini rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish imkoniyatlari yaratildi.

Jahonda talabalar o’quv fanlarini o’zlashtirishining pedagogik-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Harvardning ta’lim sohasi bo‘yicha ilmiy markazi talim psixologiyasi, ta'lim metodlari, va o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi bo‘yicha keng tadqiqotlar olib brogan (Harvard University, AQSH); Pedagogika va psixologiya sohasida Stanford universitetida olib borilayotgan tadqiqotlar, o‘quvchilarning motivatsiyasi, o‘qitishmetodlari, va ta’lim texnologiyalari orqali ta’lim samaradorligini oshirish masalalarini o‘rganishgan, (Stanford University, AQSh); Oksford universiteti talimdagi psixologik omillar va o‘quv fanlarini o‘zlashtirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan (University of Oxford, Buyuk Britaniya); o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zlashtirishni oshirishda pedagogik strategiyalar va psixologik omillarni o‘rganilgan (University of Cambridge, Buyuk Britaniya); talimda pedagogik-psixologik usullarning o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar (University of Melbourne, Avstraliya); talabalarning o‘qitish jarayonidagi psixologik va pedagogik xususiyatlari empirik jihatdan tahlil qilingan (University of Toronto, Kanada); ta’lim sifatini oshirish, o‘qituvchilarning professional rivojlanishi va o‘quv jarayonidagi kognitiv va emotsional omillarni o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan (University of Helsinki, Finlandiya); o‘quv fanlarini o‘zlashtirish va pedagogik yondashuvlarning samaradorligini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan (National University of Singapore, Singapur); o‘quvchilarning motivatsiyasi, o‘qitish jarayonida psixologik va pedagogik omillarni o‘rganish va texnologiyalarni ta’limda qo‘llash masalalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan (University of Hong Kong, Xitoy), pedagogik yondashuvlar va o‘quvchilarning kognitiv rivojlanish jarayonlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilgan (University of California, Berkeley, AQSh)

Jahonda talabalarning o‘zlashtirish darajasini oshirish uchun motivatsiya va metakognitiv yondashuvlar, ilm-fanga, ilmiy kashfiyotlarni rag’batlantirishga bo’lgan munosabatning kuchayishi, ilmiy duyonqarashi, psixologik muammolarni amaliy yechimini topish bo’yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda, jumladan, oliy ta’lim muassasasi o‘zlashtirish darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash orqali yangicha zamonaviy psixologik usullarni taklif etish, shaxsning individual-tipologik, hissiy-emotsional holatlari, intellektual xususiyatlari asosida ularning o’qitish sifatini yaxshilash imkonini beruvchi usullarni tadqiq etish orqali psixodiagnostik metodikalarning pedagogik-psixologik jihatlarini takomillashtirish kabilar shular jumlasidandir.

Zamonaviy sharoitda ta’lim jarayonining asosiy maqsadi shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo‘naltirilishi talab qilinmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning tarixiy rivojlanish yo‘lini tahlil qilganimizda, ularda yoshlar ta’lim-tarbiyasiga va ilm-fanga, yangi texnologiyalar rivojlanishiga beriladigan e’tibor nihoyatda ulkan bo‘lganini ko‘ramiz. Shu sababdan, mamlakatimiz davlat siyosatida ilm-fan rivoji, yoshlarning ta’lim-tarbiyasi va yetuk bilimli, malakali kadrlar yetishtirishga ustuvorlik berish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

“Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta’minlaydigan yosh avlodning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishi hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko‘lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim”.

Hozirgi vaqtda ta’lim tizimida o‘rganilishi lozim bo‘lgan masalalar qatoriga quyidagilar kiradi: ta’lim samaradorligini oshirish, “natijaga ega bo‘lish” tushunchasini ta’limning barcha bo‘g‘inlaridagi nisbatan mazmunini aniqlash; ta’lim maqsadlariga mos keladigan zamonaviy baholash vositalarini asoslash, tanlash, ishlab chiqish va joriy etish usullarini izlash, ya’ni ijobiy ijtimoiylashuv va zarur kompetensiyalar majmuasini rivojlantirish; talabaning o’zlashtirish darajasi darajasini, shuningdek, butun ta’lim davomida samaradorlik darajasining barqarorligini bashorat qilish mumkin bo‘lgan sharoitlarni yaratish kabi masalalar.

Avvalo, tadqiqot ishimizga doir asosiy tushunchalarni asoslashga harakat qilib va nima uchun “talabalar o’zlashtirish darajasiining psixologik determinantlarini tadqiq etish jarayoni” tadqiqot predmeti sifatida tanlanganligi haqidagi savolga javob beraylik. Shu munosabat bilan tadqiqotimiz maqsadlari uchun muhim bo‘lgan tadqiqotning asosiy tushunchalari va toifalari: “o‘zlashtirish”, “akademik”, “determinantlar” va boshqalarni ko‘rib chiqish, ularning tuzilishi va mazmunini ochib berishni lozim deb topdik.

Talabalar o’zlashtirish darajasi – ular egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarning to‘laligi, chuqurligi, ongliligi hamda mustahkamligi darajasini anglatuvchi pedagogik mezondir. O‘zbekistonda talabalar o‘zlashtirishini yuqori sifat darajasiga olib chiqish milliy ta’lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardandir. Chunki talabalarning intellektual rivojlanishi hamda kasbiy tayyorgarligi ularning o’zlashtirish darajasi darajalariga bevosita bog‘liq.

Ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan talablarning o‘zgarishi bilan “ta’lim natijasi” tushunchasining mazmuni ham o‘zgaradi. Ta’lim natijalari - bu talabalar o‘quv jarayonini tugatgandan so‘ng bilim, ko‘nikma va munosabatlar nuqtai nazaridan ma’lum ko‘rsatkichlarni namoyon qilishidir.

Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv natijalari joriy, oraliq va yakuniy ko‘rinishida bo‘lishi mumkin, ammo baribir “natija” atamasining o‘zi ma’lum bir ko‘rsatkichlarni anglatadi. Shuning uchun, biz tadqiqotimizda protsessual ma’noga ega bo‘lgan, ya’ni “o’zlashtirish darajasi” ga ega bo‘lgan o‘rganish samaradorligini, ta’limdagi muvaffaqiyatlarini, shuningdek, talabaning ta’limdagi muvaffaqiyatini tavsiflovchi va o‘rganish predmeti bo‘lgan bir nechta atamalarni: “o‘quv yutug‘i”, “ta’lim muvaffaqiyati”, “ta’lim samaradorligi”, “akademik muvaffaqiyat”, “o‘rganish samaradorligi” kabilarni ham tahlil qildik. Har qanday

talabaning o‘zlashtirishidagi muvaffaqiyati va uning o‘quv jarayonida erishgan yutuqlari ta’lim natijalarining belgilovchi ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim muassasalarida o‘quv samaradorligi nafaqat ta’lim natijalari bilan cheklanib qoldi, balki u faoliyat-amaliy, motivatsion, qimmatli va hissiy tomonlarga ega.

Bizning fikrimizcha, talabalarda o‘quv fanlarini o‘zlashtirish darajasini rivojlantirish ta’lim jarayonining uzviy qismi bo‘lib, bu jarayon pedagogik-psixologik fenomen sifatida talabalarning individual xususiyatlari va o‘quv jarayonidagi faoliyatlariga bog‘liqdir. O‘quv fanlarini o‘zlashtirish darajasi nafaqat talabaning bilim olish qobiliyatini, balki uning o‘z bilimlarini hayotda qo‘llash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Bu jarayon o‘quv materialining mazmuni, ta’lim usullari va pedagogning talaba bilan muloqot samaradorligiga bevosita bog‘liq. Talabalarning psixologik jihatdan motivatsiyasi yuqori bo‘lsa, o‘quv jarayonida ko‘proq ishtiyoq bilan qatnashib, o‘zlashtirish darajasini oshirish imkoniyati ortadi. Shu bilan birga, talabalarning bilim olish jarayonida o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega, chunki bu ularga mustaqil ravishda bilim olish va murakkab muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Talabalar zarur bilim va ko‘nikmalarni nafaqat majburiy o‘quv dasturini o‘zlashtirganda, balki fakultativ, ixtiyoriy fanlar shaklida o‘qitiladigan qo‘shimcha bilimlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish hamda faol va qo‘shimcha o‘qitishning boshqa usullari orqali ham olishlari mumkin. Yuqori darajadagi motivatsiya bo‘lmasa, bunday hajmni yengish va yaxshi o’zlashtirish darajasiga erishish qiyin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva B.S. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari: Monografiya. – T.: «Bookmany print» nashriyoti, 2021 y. – 162 b.

2. Сафоев Н.С. Психологические особбеиности националного самосознания студентческой молодежи. Афт. дис. док. пс. н. Т.: 2005 й., - 48 б.

3. Ионина О.С. Проявления индивидуалного стиля учебно-профессионалной деятелности студента / О. С. Ионина. – М.: - 2015. - № 212. - С. 16-20.

4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. -T.: Sharq, 2000.-78 B.

SPORTCHILARDA O‘ZINI-O‘ZI MUHOFAZA QILISHGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Elmuratova Aysulu Usaxovna - Innovatsion texnologialar universiteti professori, ps.f.d. (DSc)

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636432

Annotatsiya: Mazkur tezisda sportchilar guruhida o‘zini-o‘zi muhofaza qilish jarayoniga ta’sir etuvchi psixologik, jismoniy va ijtimoiy omillar tahlil qilinadi. Sport faoliyati yuqori xavf, kuchli raqobat, stress va jismoniy yuklama

bilan tavsiflanadi, bu esa sportchilarning xavfsizligini ta’minlash uchun o‘zini-o‘zi muhofaza qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni zarur qiladi. Tezisda sportchining psixologik barqarorligi, emotsional boshqaruv, stressga chidamlilik, motivatsiya darajasi, jismoniy tayyorgarlik, murabbiy bilan munosabatlar, jamoaviy qo‘llab-quvvatlash, sport muhiti talablari kabi omillarning o‘zini-o‘zi muhofaza qilish mexanizmlariga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sportchi, motivatsiya, o‘zini o‘zi anglash, stressni boshqarish, ko‘nikma, harakat, natija.

Annotation: This thesis analyzes the psychological, physical, and social factors influencing the process of self-defense in a group of athletes. Sports activity is characterized by high risk, intense competition, stress, and physical exertion, which requires the development of self-preservation skills to ensure the safety of athletes. The thesis highlights the influence of such factors as psychological stability of the athlete, emotional control, stress resistance, motivation level, physical fitness, relationships with the coach, team support, and requirements of the sports environment on the mechanisms of self-defense.

Key words: athlete, motivation, self-awareness, stress management, skill, effort, result.

Kirish. Sportchi talabalar o‘zini-o‘zi psixologik muhofaza qilish haqidagi bilim va tushunchalarini ijtimoiy tajriba, xulq-atvor motivatsiyasi hamda o‘z-o‘zini tarbiyalash va rivojlantirishga jiddiy yondashish asosida shakllantiradi. Agar bu yondashuv yetarlicha rivojlanmagan bo‘lsa, psixologik muhofaza tizimi ham to‘laqonli shakllanmaydi. Natijada, shaxsning ijtimoiy taraqqiyoti, faolligi va o‘z imkoniyatlaridan samarali foydalanish jarayoni cheklanadi. Shu bois, ushbu to‘sqinlik qiluvchi omillarni nazariy va ilmiy jihatdan o‘rganish va tahlil qilish asosiy maqsatimiz hisoblanadi.

Psixologik muhofaza – bu shaxsni ziddiyatli holatlarga tushib qolishdan saqlaydigan, o‘zini bilish va boshqara olish jarayonidir. Uning asosiy vazifasi inson ongiga salbiy ta’sir etuvchi omillarni bartaraf etish va shaxsning ichki barqarorligini saqlashga xizmat qilishdir. Psixologik muhofaza har qanday xulq-atvor shakllarida namoyon bo‘lishi va shaxsni noadekvat harakatlardan himoyalashga yordam berishi mumkin.

Ilmiy adabiyotlarda psixologik himoya mexanizmlarining turli shakllari, jumladan, perseptiv tizim, identifikatsiya, o‘zini adekvat boshqarish hamda ongli “menlik” tushunchalari haqida ko‘plab nazariy fikrlar ilgari surilgan.

Psixologik himoya tushunchasi dastlab freydizm doirasida ongsiz instinktiv holatlar (ayniqsa, jinsiy instinktlar) ustidan ongli “Menlik” (ichki senzura) orqali nazorat o‘rnatish jarayoni sifatida o‘rganilgan. Biroq, bizning fikrimizcha, psixologik himoya tushunchasi va uning mohiyati freydizmdan ancha avval Gippokrat, Ibn Sino va Beruniy tomonidan ham tadqiq qilingan.

J. Bruner tomonidan ilgari surilgan "yangi qarashlar" konsepsiyasiga ko‘ra, psixologik himoya insonning "perseptiv himoya" vositasi sifatida idrok qilinishi bilan uzviy bog‘liq. Bu nuqtai nazardan qaralganda, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro

munosabatlar, muloqot jarayonlari va ijtimoiy aloqalar psixologik himoyaning shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Shuningdek, psixologik muhofaza shaxs faoliyatida xulq-atvor motivlarini muvofiqlashtirish, ularni boshqarish va uyg‘unlashtirish jarayoni bilan ham bevosita bog‘liq. Bu masala V. E. Chudnovskiy tomonidan chuqur tadqiq etilib, shaxs xarakterining individual va guruh doirasidagi motivatsiyalarining shakllanishi va ularning amalga oshirilishi haqida ilmiy asoslar yaratilgan. Olimning ta’kidlashicha, shaxsning barqarorligi psixologik muhofaza vositasi sifatida tadqiq qilinadi va ushbu barqarorlik ikki asosiy jihatdan shakllanadi.

Birinchi jihat – shaxsning o‘z mavqeini saqlash, o‘z qarashlariga zid bo‘lgan omillarga qarshi turish va ularga moslashish qobiliyati bilan bog‘liq.

Ikkinchi jihat esa – shaxsning o‘z mavqeini mustahkamlash, faoliyat holatlarini o‘zgartirish hamda shaxsiy xulq-atvorini moslashtirish bilan bog‘liq. Shu bois, V. E. Chudnovskiy bu ikki jihatni turlicha talqin etib, birinchisini "mudofaa aspekti", ikkinchisini esa "hujumkorlik aspekti" deb ataydi va bu tushunchalarni empirik ma’lumotlar asosida asoslab beradi.

G‘arb psixologiyasida psixologik himoya ichki va tashqi "Men" o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan real "Men" ning shakllanishi sifatida talqin qilinadi. Bu nazariyada insonning xulq-atvori va xarakteriga oid psixoanalitik va neobixivoristik (xulq-atvoriy) qarashlar asosiy o‘rin egallaydi.

So‘nggi yillarda psixologiya sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, psixologik himoya shaxsning o‘z atrofidagilar bilan hamkorlikda yuzaga keladigan ziddiyatlarni qondirish jarayoni sifatida namoyon bo‘ladi. Shu boisdan, psixologik himoya muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz shakllarga ajratilishi mumkin.

- Muvaffaqiyatli psixologik himoya shaxsdagi ortiqcha asabiylik, zo‘riqish va bezovtalikni oldindan oldini olishga xizmat qiladi.
- Muvaffaqiyatsiz psixologik himoya esa ushbu zo‘riqish va asabiy holatlarning shaxs faoliyatiga salbiy ta’sirini bartaraf eta olmagan holatlarda kuzatiladi.

Sport faoliyati o‘z tabiatiga ko‘ra yuqori xavf, kuchli jismoniy yuklama, raqobat, ruhiy bosim va tezkor qaror qabul qilishni talab qiladigan jarayon bo‘lib, bunday sharoitda sportchining o‘zini-o‘zi muhofaza qilish mexanizmlarining shakllanganligi katta ahamiyatga ega. O‘zini-o‘zi muhofaza qilish — sportchining o‘z sog‘lig‘i, psixologik holati, xavfsizligi va faoliyat barqarorligini ta’minlashga qaratilgan ongli, ixtiyoriy va avtomatik harakatlar majmuasidir. Ushbu jarayonga bir qator psixologik, fiziologik va ijtimoiy omillar kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Stressga chidamlilik. Sportchilarda yuklama, musobaqa bosimi, murabbiyning talablari va raqobatning kuchliligi ruhiy stressga olib keladi. Stressga chidamlilik yuqori bo‘lgan sportchilar xavfli vaziyatlarda ham o‘zini yo‘qotmay, vaziyatni tez baholay oladi va o‘zini himoya qilishga qodir bo‘ladi. Stressni boshqara olmaslik esa jarohatlar, xatolar va ruhiy tushkunlikka sabab bo‘ladi.

Emotsional barqarorlik va o‘zini boshqarish. Emotsiyalarni nazorat qilish sportchining xavfsizligi uchun muhim. G‘azab, qo‘rquv yoki hayajonning haddan tashqari kuchayishi koordinatsiya buzilishiga, noto‘g‘ri harakatga va o‘zini nazorat

qila olmaslikka olib keladi. Emotsional barqarorlik esa sportchiga vaziyatni aniq baholash imkonini beradi.

O‘zini anglash va ichki nazorat lokusi. Sportchi o‘z imkoniyatlarini, kuchli va zaif tomonlarini yaxshi anglaganda, u o‘zini xavfli vaziyatlardan himoya qilishni samaraliroq yo‘lga qo‘yadi.

– Ichki lokusi kuchli sportchi: “Natijam o‘zimga bog‘liq” deb hisoblaydi → xavfsiz qarorlar qabul qiladi.

– Tashqi lokusi kuchli sportchi: “Hammasi tasodif” deb o‘ylaydi → xavfli holatlarga ko‘proq duch keladi.

Motivatsiya darajasi. Yuqori motivatsiya sportchining o‘z sog‘lig‘i va xavfsizligiga mas’uliyatli yondashuvini kuchaytiradi. Demotivatsiya esa charchoq, beparvolik va o‘zini asrash ko‘nikmalarining pasayishiga olib keladi.

2. Fiziologik va jismoniy omillar

Jismoniy tayyorgarlik darajasi. Sportchining jismoniy formasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uning harakatlar nazorati, koordinatsiyasi va reaktsiya tezligi shunchalik barqaror bo‘ladi. Bu jarohatlarning oldini olishda asosiy omildir.

Charchoq va tiklanish jarayoni. Doimiy charchoq sportchining xavfni baholash qobiliyatini pasaytiradi, konsentratsiyani buzadi. Tiklanish (uyqu, ovqatlanish, reabilitatsiya) yetarli bo‘lmaganda xavfli vaziyatlar soni ortadi.

Stress paytida mushaklar haddan tashqari taranglashadi, yurak urishi oshadi, bu esa harakat aniqligiga putur yetkazadi. Sportchining organizmi qanchalik barqaror bo‘lsa, u shunchalik o‘zini himoya qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

3. Ijtimoiy-psixologik omillar

Jamoa ichidagi hamjihatlik, do‘stona muhit sportchining ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi. Jamoa bosimi yoki ziddiyatli munosabatlar esa xavfli xatti-harakatlarga sabab bo‘ladi.

Murabbiy tomonidan beriladigan noto‘g‘ri topshiriqlar, haddan tashqari bosim, agressiv munosabat sportchi xavfsizligiga salbiy ta’sir qiladi. Aksincha, qo‘llab-quvvatlovchi, tushunadigan murabbiy sportchida ehtiyotkorlik, mas’uliyat va o‘zini himoya qilish madaniyatini oshiradi.

Sport etikasi, tartib-intizom, xavfsizlik qoidalariga amal qilinishi sportchilarda o‘zini muhofaza qilishni shakllantiradi. Qoidabuzarlikka ko‘z yumiladigan muhitda esa xavf ortadi.

Psixologik himoyaning ijtimoiy-psixologik qiymati shaxsning guruh a’zosi sifatida o‘zini adekvat his qila olishi, o‘zini to‘g‘ri baholashi, muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va ortiqcha bezovtalik, asabiylik hamda zo‘riqishlardan saqlanishi orqali namoyon bo‘ladi.

Umuman olganda, psixologik muhofaza imkoniyatlarini baholash uchun shaxsdagi hissiy faollik, o‘zini anglash, o‘ziga munosabat hamda o‘zini muvaffaqiyatli boshqara olish qobiliyatining faoliyat jarayonida qay darajada shakllanganligini tahlil qilish lozim. Shu bilan birga, psixologik muhofaza talabalarda o‘zini anglash, o‘zini boshqara olish, o‘zidan faxrlanish va o‘z imkoniyatlarini to‘la ishga solish qobiliyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Agar bu jarayon o‘z me’yorida shakllanmasa, psixologik himoyaning ijtimoiy ahamiyati haqida gapirish qiyin bo‘ladi.

Sportchi talabalar orasida psixologik muhofaza imkoniyatlarini tahlil qilish zarurati ham aynan shu jihatdan yuzaga kelgan. Shu bois, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish orqali psixologik muhofazaning samaradorligini belgilovchi mezonlar ustida fikr yuritish va tadqiqotlar olib borish muhim sanaladi.

Bizningcha, psixologik muhofaza samaradorligini belgilovchi mezonlar tizimi psixologiya tarmoqlari kabi ko‘p qirrali bo‘lishi mumkin. Masalan, psixologik muhofaza samaradorligini shartli ravishda quyidagi mezonlarga ajratish mumkin: ijtimoiy-psixologik mezonlar, tibbiy-psixologik mezonlar, pedagogik-psixologik mezonlar,va boshqa turli jihatlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTAR

1. Б.А.Ашмарин. Теорга и методика физического воспитания. Москва. 1979.

2. Л.Матвеев. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Москва. 1982.

3. Б.А.Ашмарин. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Москва.1984.

4. Филин В.П. Воспитана физических качеств у юних спортсменов. Москва., 1984.

5. Теория и методика физическая воспитания. Л.П.Матвеева А.Д.Новикова. Москва; ФиС.

6. Теория и методика физического воспитания. Под ред. Б.А.Ашмарина. М.,1987.

7. П.К.Благуш. К теорию тестирования двигательних способностей. Москва; ФиС, 1987

8. В.П.Филин, Н.А.Фомин. Основи юношеского спорта. Москва; ФиС. 1988

9. Б.А.Ашмарин. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании. Москва; Фи 1988

TALABALAR O’QUV FANLARINI O’ZLASHTIRISHINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Z.Sherimbetova – Innovatsion texnologiyalar universiteti professori, ps.f.d.
D.Ubbieva - Innovatsion texnologiyalar universiteti, Psixologiya talim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636892

Annotatsiya. Maqolada talabalarning ta’lim yutuqlarini baholash muammosi, talabalarning e’tibor, xotira va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligi, talabalarda o‘quv faoliyatini shakllantirish muammosining pedagogik-psixologik nazariyasi, talabalarning bilish faoliyatini shakllantirish, eng avvalo, ushbu faoliyatning subyekti sifatida talaba shaxsini shakllantirish va rivojlantirish muammosi, o‘qituvchilar oldida talabaning subektiv pozitsiyasini ta’minlovchi o‘quv jarayonini tashkil etish vazifalari tahlil etilgan.

Annotation. The article analyzes the problem of assessing student's educational achievements, the effectiveness of developing student's attention, memory and thinking abilities, the pedagogical - psychological theory of the problem of forming student's. Learning activities, the formation of student's cognitive activity, primarily the problem of forming and developing the student's personality as a subject of this activity, and the tasks of organizing the educational process that ensure the student's subjective position before teachers.

Kalit so‘zlar: o‘quv faoliyati, e’tibor, xotira va fikrlash qobiliyatlari, ta’lim samaradorligi, deadaptatsiya, mustaqillik va ijodkorlik.

Key words: learning activity, attention, memory and thinking abilities, learning effectiveness, readaptation, independence and creativity.

O‘quv faoliyatini shakllantirishga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilib, yechimlari ishlab chiqilgan bo‘lsada, o‘quv faoliyatining ishlash mexanizmlari va turli guruhlardagi talabalarni o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish jahon psixologiyasida dolzarbligicha qolmoqda.

Ta’lim tizimini yuksaltirish uchun izchil tadqiqotlar o‘tkazgan faylasuf Iogann Gerbart zamonaviy psixologiya vakillari tomonidan “pedagogik psixologiyaning otasi” deb ta’kidlanadi. Nemis olimi o‘z tadqiqotlarida o‘quvchi-talabaning mavzuga bo‘lgan qiziqishi ta’lim natijasiga katta ta’sir ko‘rsatadi, deb hisoblaydi va ta’lim beruvchilar (o‘qituvchilar) dars mashg‘ulotlarida qaysi turdagi ta’lim eng mos kelishini hal qilishda oldingi bilimlar bilan bir qatorda o‘quvchi-talabaning qiziqishini hisobga olishlari kerakligini, bu esa o‘zlashtirish yuqori bo‘lishiga, ta’limda muvaffaqiyat qozonishiga olib kelishini bayon qiladi.

Talabalarning ta’lim yutuqlarini baholash muammosiga oid turli yondashuvlarni tahlil qilish yordamida bilim faolligi, mustaqillik va ijodkorlik kabi muvaffaqiyatning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini berdi.

Ijodiy mustaqillik shaxs mulki va faoliyat subyekti sifatida mustaqillikning o‘ziga xos ko‘rinishlaridan biri xolos. Mustaqillik ta’lim faoliyatining turli jabhalarida, uning barcha bosqichlarida – maqsad qo‘yishdan to baholashgacha, xususan, uni tashkil etishda, aniqrog‘i o‘zini-o‘zi tashkil etishda namoyon bo‘ladi. O‘zini o‘zi tashkil etish – bu talabalar o‘zlarining bilish faoliyatini tashkil etish usullarini anglatadi.

Bizning fikrimizcha, talabalarda o‘quv fanlarini o‘zlashtirish darajasini rivojlantirishning psixologik asoslari ularning kognitiv qobiliyatlari va idrok jarayonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Talabalarning e’tibor, xotira va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o‘quv materiallarini mavhumdan konkretga o‘tkazib tushuntirish va ularni qiziqarli tarzda taqdim etish muhimdir. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talabalarning individual o‘quv uslublarini hisobga olish orqali ularning bilim olish jarayoniga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin. Shuningdek, talabalarning psixologik tayyorgarligi, o‘z bilimlarini tanqidiy baholay olish qobiliyati va fikrlash darajasini rivojlantirish o‘quv fanlarini samarali o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ta’lim sifatining pastligi ta’lim tizimida bir-biriga uzviy bog‘langan bo‘g‘imlar orasida muammolar yuzaga keltirayotganligini ko‘rsatadi: umumta’lim maktablaridagi ishlarning yomonligi oliy ta’lim tizimida ko‘plab muammolarni keltirib chiqaradi, oliy o‘quv yurtlari talabalarining o‘quv natijalarining pastligi esa ishlab chiqarish darajasi va samaradorligining, demakki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va sur’atlarining pasayishida namoyon bo‘ladi.

Talabalar o‘quv faoliyatining psixologik asoslarini (o‘quv samaradorligini) o‘rgangan O.S.Ionina, quyidagi omillar orqali o‘quv samaradorligiga erishish mumkinligini ta’kidlaydi:

- o‘qituvchi tomonidan ta’lim texnologiyalarini to‘g‘ri qo‘llay olish;
- talaba aqliy mehnatining intensivligi va sur’ati;
- talabalarning faolligi;
- talaba aqliy mehnatining davomiyligi va ketma-ketligi” .

Olima tomonidan akademik o‘zlashtirish subyektiv kategoriya sifatida e’tirof etiladi, u nafaqat tashqaridan qarashni, balki o‘z muvaffaqiyatlaridan qoniqish hissini, o‘z ahamiyatini anglash, obro‘-e’tiborni ham aks ettiradi. Shunday qilib, ushbu tadqiqotchining nuqtai nazaridan, agar talabaning o‘zi o‘z ta’lim faoliyati natijalaridan qoniqish hosil qilsa va nafaqat o‘zining yutuqlarini ijobiy baholasa, balki, o‘zini o‘zi qadrlaydigan yuqori bahoga ega bo‘lsagina samarali o‘zlashtirish natijalarini ko‘rsatishi, ta’limda muvaffaqiyat qozonishi mumkin.

Talabalar orasida izchil tadqiqod olib borgan D.M.Grebnevaning fikriga ko‘ra: “…ta’limda o‘zlashtirish va akademik muvaffaqiyat – subyektiv-shaxsiy rejada ta’lim yutuqlarini va o‘quv muvaffaqiyatining obyektiv (rasmiy) ko‘rsatkichlari aks ettiradigan emas, balki shaxs va uning eng yaqin ijtimoiy g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘ziga xos murakkab jarayon va voqelikdir” . Olimaning yozishicha, “kundalik hayotda buni turli talabalarga “Qanday baholarda o‘qiysiz, ko‘rsatkichlaringiz qanaqa?” degan savol berilganda, ularning ko‘pchiligi juda samimiy tarzda javob berishadi: “Oddiy”, “Ko‘rsatkichlarim maromida”. Garchi ularning o‘zlashtirish darajalari, ilmiy darajasi sezilarli ko‘rinishda bir-biridan farq qilishi mumkin”.

D.M.Grebneva o‘quv faoliyati tarkibida quyidagi komponentlarni ajratib ko‘rsatadi: kognitiv, hissiy, baho.

Talabalarning o‘zlashtirishi ko‘p jihatdan ularning o‘quv va kognitiv faoliyatini samarali boshqarish, minimal xarajatlar (moddiy, moliyaviy, jismoniy, psixologik va boshqalar) bilan yuqori ta’lim va psixologik natijalarni ta’minlashga bog‘liqdir.

P.Gor ta’lim samaradorligi haqida fikr bildirib: “Ta’lim samaradorligi bir qator jihatlarni o‘z ichiga oladi: faol va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, intellektual ishtirok va motivatsiya, shuningdek, turli akademik ko‘nikmalar, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limga intilish, o‘z-o‘ziga va bilimiga ishonch, o‘quv qobiliyatlarini, umumiy bilim darajasidagi yutuqlarni, o‘zgarishlarni (akademik o‘zlashtirishini) namoyon qilishi, tahliliy ko‘nikma va muammoni yechish ko‘nikmalari, tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish”.

Bizning fikrimizcha, o‘quv fanlarini o‘zlashtirish darajasini rivojlantirishda motivatsiyaning psixologik rolini chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Talabalarning bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyasi qanchalik kuchli bo‘lsa, ularning o‘zlashtirish darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Ta’lim jarayonida talabalarning shaxsiy qiziqishlarini hisobga olish va o‘zlashtirish jarayonini ularning kelajakdagi kasbiy maqsadlari bilan bog‘lash samarali natijalarni ta’minlaydi. Motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash uchun rag‘batlantiruvchi psixologik usullar, masalan, yutuqlarni e’tirof etish, kichik g‘alabalarni nishonlash va ijobiy turtki berish muhimdir. Talabalarning muvaffaqiyatsizliklardan qo‘rqishini bartaraf etish va ularni o‘z maqsadlariga yetaklash uchun pedagogik qo‘llab-quvvatlov zarur. Shuningdek, o‘quv fanlarining talaba uchun dolzarbligini tushuntirish orqali ularning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish lozim. Psixologik muhitning qo‘llab-quvvatlovchi va konstruktiv bo‘lishi o‘quv jarayonini ijobiy boshqarishda muhim omildir.

Ta’limning bir bosqichidan (umumiy o‘rta ta’limdan) ikkinchisiga (oliy ta’lim) o‘tishda yuzaga keladigan disadaptatsiya akademik o‘zlashtirish samaradorligiga ta’sir qiladi, shuning uchun biz tadqiqot ishimizda bu jarayonga batafsil to‘xtalib o‘tishga qaror qildik. Moslashuv atamasining kelib chiqishi va qo‘llanilishi T.V.Daxina ilmiy ishlarida juda batafsil bayon etilgan. Ijtimoiy psixologiyada “moslashish” tushunchasi “shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga faol moslashishi” deb talqin qilinadi. Ijtimoiy psixologiyada atamaning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydigan moslashuv jarayonlarining faollik komponentidir.

Talabalarning muqarrar tabiiy moslashuv jarayonlari bilan bir vaqtda, birinchi bosqich o‘quv guruhlari o‘qituvchilari, tyutorlarining kasbiy vazifasi ham dolzarb bo‘lib, talabalarga obyektiv muammolarni hal qilishda yordam berish va o‘quv natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan moslashish davrini qisqartirish hisoblanadi.

Talabalarning yangi sharoitlarga qiyin va sekin moslashishi (deadaptatsiya) sabablarini o‘rganish rus psixologlari tomonidan izchil o‘rganilgan. Mualliflar nafaqat o‘quv materialini o‘zlashtirishdagi qiyinchiliklarni, shuningdek o‘quv guruhlarida ijtimoiy keskinlikning kuchayishi va hatto talabalarning ruhiy salomatligiga tahdid solayotganini, ayniqsa universitetda o‘qishning ilk yillarida sodir bo‘layotganligini qayd etadilar.

Talabalarda o‘quv faoliyatini shakllantirish muammosining pedagogik-psixologik nazariyasi va amaliyoti eng dolzarb muammolardan biridir. I.I.Ilyasov, V.P.Trusov, N.B.Nesterova va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta’kidlashicha, birinchi bosqich talabalari, qoida tariqasida, nafaqat ijodiy darajadagi, balki reproduktiv darajadagi turli xil o‘quv vazifalarini hal qilishni ta’minlaydigan o‘quv faoliyatini yaxshi bilishmaydi. Ko‘pchilik o‘rganish uchun ijobiy kognitiv va kasbiy bilim olish motivatsiyaga, o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini o‘zi tahlil qilish ko‘nikmalariga, ish natijalariga qarab o‘zini o‘zi baholashga ega emas. Talabalarning bilish faoliyatini shakllantirish, eng avvalo, ushbu faoliyatning subyekti sifatida talaba shaxsini shakllantirish va rivojlantirish muammosidir. Binobarin, o‘qituvchilar oldida talabaning subektiv pozitsiyasini ta’minlovchi o‘quv jarayonini tashkil etish vazifasi turibdi.

Bizning fikrimizcha, talabalarning ta’lim motivatsiyasini shakllantirish, umumiy ta’lim ko‘nikma va malakalarini oshirish, talabalarning reflektiv qobiliyatlarini rivojlantirish muammolarini ko‘rib chiqish zarur.

Talabalarlar o’rtasida individual fanlarni tushunishga bo’lgan selektiv qiziqish chuqurlashishda davom etmoqda.

Talabalar o’z tafakkurida turli fanlarga oid bilimlarni mujassamlashtirib, nazariy umumlashtira oladigan, hodisa va hodisalar o’rtasidagi bog’liqlik va bog’liqlikni o’rnata oladigan, to’plangan bilimlarga ma’lum bir to’liqlik berib, bir tizimga keltira oladigan bo’ladi.

Bugungi kunda psixologiyada shaxsning o’zlashtirish darajasiini shakllantirish, psixologik jihatdan barqarorligini yaxshilash dolzarb muammolardan sanaladi. Ushbu muammolarga yechim topish maqsadida shaxsning o’zini o’zi boshqarishni o’rganishi natijasida amalga oshiriladi. Shaxsdagi orientatsiya, psixologik himoya, xarakter, qobiliyatlarni shakllantirish va ichki “Men”ning nomuvofiqligini oldini olish uchun o’z-o’zini shakllantirish, o’zini o’zi anglash kabi muammolar tadqiq qilinmoqda.

Shaxsning psixologik barqarorligi pedagogik-psixologik jihatdan olib qaralganda, boshqalar bilan bo’ladigan munosabatlarda faol va samarali tomonlarini namoyon qiladi. Bu munosabatlarning jamlanmasi axloqiy va ijtimoiy munosabatlar, hayotiy tajriba hamda jamoaviy o’zaro ta’sirlardagi muloqotning o’ziga xos xususiyatlari bilan o’zaro bog’liq bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva B.S. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari: Monografiya. – T.: «Bookmany print» nashriyoti, 2021 y. – 162 b.

2. Сафоев Н.С. Психологические особбеиности националного самосознания студентческой молодежи. Афт. дис. док. пс. н. Т.: 2005 й., - 48 б.

3. Ионина О.С. Проявления индивидуалного стиля учебно-профессионалной деятелности студента / О. С. Ионина. – М.: - 2015. - № 212. - С. 16-20.

4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. -T.: Sharq, 2000.-78 B.

BO‘LAJAK SPORTCHILARDA SHAXSIY INTIZOM VA O‘ZINI BOSHQARISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK TAMOYILLARI

Jumabaev Timur Jalgasbaevich - Innovatsion texnologialar universiteti dotsenti,
ps.f.b.f.d. (PhD)

https://doi.org/10.5281/zenodo.19666329

Annotatsiya: Ushbu tezisda bo‘lajak sportchilarda o‘zini boshqarish va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik asoslari yoritiladi. Shaxsiy intizom, motivatsiya, irodaviy sifatlar hamda emotsional barqarorlikning

sport faoliyatidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, sportchilarda o‘zini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik yondashuvlar va samarali usullar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ushbu ko‘nikmalar sportdagi muvaffaqiyat va shaxsiy rivojlanish uchun muhim omil ekanini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: sportchi, motivatsiya, o‘zini o‘zi anglash, stressni boshqarish, ko‘nikma, harakat, natija

Annotation: This thesis explores the psychological foundations for developing self-management and self-improvement skills in prospective athletes. It analyzes the role of personal discipline, motivation, volitional qualities, and emotional stability in athletic performance. Furthermore, the thesis examines psychological approaches and effective methods that facilitate the development of self-regulation mechanisms in athletes. The research findings indicate that these skills are crucial factors for success in sports and for personal growth.

Key words: athlete, motivation, self-awareness, stress management, skill, effort, result.

Kirish. Hozirgi kunda sport dunyo miqyosida tobora raqobatbardosh bo‘lib bormoqda. Sportchilarning muvaffaqiyatiga olib keluvchi omillar orasida psixologik tayyorgarlik va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalari muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy sportda muvaffaqiyat ko‘p jihatdan sportchining psixologik tayyorgarligi va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalariga bog‘liq.

Sport ta’limi va trening metodlariga yangiliklar kiritish zarurati, o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish, sportchilarda stress, depressiya va boshqa psixologik muammolarning oldini olish uchun o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir. Sportchilarni tarbiyalashda ijtimoiy va psixologik omillarning ta’sirini o‘rganish, ularni sport faoliyatida qo‘llash zarurati. O‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda amaliy tajribalar va metodlarning samaradorligini o‘rganish orqali sportchilar va murabbiylar uchun yangi yondashuvlarni taqdim etish. Ushbu mavzuda olingan bilimlarni amaliyotga tatbiq etish orqali sportchilarning o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonini yanada chuqurlashtirish. Sportchilarda o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, bu sohadagi bilimlarni kengaytirish va rivojlantirish uchun zarur.

Sportda muvaffaqiyat nafaqat jismoniy tayyorgarlikka, balki ruhiy holatga ham bog‘liq. O‘z ustida ishlash ko‘nikmalari sportchilarning stress va raqobatga qanday munosabatda bo‘lishini belgilaydi. Sportchilarda o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning musobaqa sharoitida o‘zini o‘zi boshqarish qobiliyati oshadi. Bu esa sportda muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyatga ega [9]. O‘z ustida ishlash ko‘nikmalari sportchilarning psixologik barqarorligini oshiradi va motivatsiyasini kuchaytiradi. Bu, o‘z navbatida, natijalarning yaxshilanishiga olib keladi. Sportchilarda o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, kuchli mental qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Bular orasida diqqat, o‘rganish, qaror qabul qilish va o‘z-o‘zini anglash kiradi. Bu mavzu, sport psixologiyasi sohasida yangi yondashuvlar va usullarni ishlab chiqish

imkonini beradi. Pedagogik-psixologik asoslarni bilish, sport murabbiylariga samarali usullarni qo‘llash imkonini beradi. O‘z ustida ishlash ko‘nikmalari sportdan tashqari, boshqa sohalarda ham muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lib, masalan ish joyidagi stressni boshqarish, vaqtni samarali tashkil etish va shaxsiy rivojlanishga yordam beradi.

Ko‘plab tadqiqotlar sport psixologiyasi sohasida o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarining nazariy asoslarini taqdim etadi [5]. Bu asoslarga psixologik o‘z-o‘zini anglash, motivatsiya va o‘z-o‘zini rag‘batlantirish kabi tushunchalar kiradi. Sportchilarda o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda qo‘llaniladigan pedagogik yondashuvlar, metodlar va strategiyalar haqida ko‘plab adabiyotlar mavjud. Bu yondashuvlar individual va jamoaviy o‘rganish, tajriba almashish va motivatsion strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Psixologik jihatlar, masalan stressni boshqarish, o‘z-o‘zini anglash va psixologik barqarorlik haqida o‘rganilgan adabiyotlar, sportchilarning muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi omillar sifatida talqin qilinadi. O‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni trening va tayyorgarlik jarayonlarida qanchalik muhimligi haqida tadqiqotlar mavjud. Bu tadqiqotlar sportchilarning natijalarini yaxshilashga yordam beruvchi yangi metodikalarni tavsiya etadi. Amaliy tajribalar va tadqiqotlar, sportchilarning o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan muvaffaqiyatli dastur va uslublarni namoyish etadi. Bu tajribalar ko‘pincha trenerlar va psixologlar tomonidan o‘rganiladi. Sportchilarning o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda ijtimoiy va madaniy omillar ham tadqiqot obyekti bo‘ladi [4]. Bu sport muhitining sportchilarga ta’sirini o‘rganishga yordam beradi. O‘zbekistonda sportchilarda o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga oid tadqiqotlar hali cheklangan bo‘lishi mumkin, biroq bu sohada mamlakatimizda ham yangi ishlar olib borilmoqda.

Respublikamizning sport ilmiy-tadqiqot muassasalari va universitetlarida sport psixologiyasi va pedagogikasi bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlar sportchilarning psixologik holatini va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Sport federatsiyalari va murabbiylar o‘z sportchilarini rivojlantirish uchun maxsus trening dasturlarini ishlab chiqmoqda. Ushbu dasturlar psixologik tayyorgarlik va o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Sport sohasidagi mutaxassislar va psixologlar sportchilar uchun turli seminar va anjumanlar o‘tkazmoqda. Ushbu tadbirlarda o‘z ustida ishlash ko‘nikmalari va psixologik tayyorgarlik masalalari muhokama qilinadi. Sportchilar uchun psixologik yordam xizmatlari tashkil etilmoqda, bu ularning psixologik holatini yaxshilash va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion metodlar, masalan, kognitiv-harakatli yondashuvlar va trening usullari qo‘llanilmoqda [3]. Bu usullar sportchilarning stressni boshqarish va o‘zini-o‘zi samarali anglashiga yordam beradi. Sport murabbiylari va psixologlari o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish, metodikalar va yondashuvlar bilan almashish jadal rivojlanmoqda, bu esa sifatli natijalarga olib keladi. Hukumatimiz sport sohasida rivojlanish uchun yirik loyiha va dasturlarni amalga oshirmoqda, bu

esa sportchilarning tayyorgarlik jarayonida psixologik jihatlarni hisobga olishni ta’minlaydi.

Tadqiqot predmetida sportchilarning o‘z ustida ishlash ko‘nikmalari - ya’ni, o‘zini o‘zi tahlil qilish, maqsad qo‘yish, motivatsiya, stressni boshqarish va o‘zini o‘zi rag‘batlantirish kabi psixologik-pedagogik ko‘nikmalar e’tiborga olinadi. Tadqiqotda sportchilarning o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda qo‘llaniladigan pedagogik yondashuvlar, metodlar va strategiyalar hamda ularga ta’sir etuvchi omillar o‘rganiladi. Sportchilarning psixologik holati, o‘z-o‘zini anglash darajasi, stressga bardosh bera olish qobiliyati va jamoa ichidagi munosabatlar tadqiqot predmetining asosiy qismlarini tashkil etadi. O‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni, sportchilarni tayyorlash va ularning rivojlanishiga bog‘liq barcha jarayonlar - bu tadqiqotning muhim komponentlaridan biridir. Tadqiqot predmeti sifatida sportchilarning shaxsiy va professional rivojlanishi, ularning sportdagi muvaffaqiyati va jamiyatda o‘z o‘rnini topish jarayoni o‘rganilgan. Sportchilarning ijtimoiy muhitda, jamoaviy ishda va musobaqa muhitida o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini qanday shakllantirishi ham tadqiqot predmetiga kiradi.

Tadqiqot natijalari asosida sportchilarning o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun yangi trening dasturlari ishlab chiqilishi mumkin. Bu dasturlar psixologik tayyorgarlik va strategiyalarni o‘z ichiga oladi. Dissertatsiya natijalari murabbiylar uchun amaliy qo‘llanma sifatida xizmat qiladi. Ular sportchilarning psixologik holatini yaxshilash va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali usullarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tadqiqot, sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda, o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda individual yondashuvlarni tavsiya etadi. Bu, har bir sportchining o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi.

Xulosa. sportchilarning o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini baholash va kuzatish uchun yangi metodikalar ishlab chiqilishi mumkin. Bu metodlar sportchilarning rivojlanishini kuzatish va tahlil qilishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari sportchilar va murabbiylar o‘rtasida o‘zaro tajriba almashishni kuchaytirishga yordam beradi. Bu sportchilarning o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda ijobiy muhit yaratadi. O‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish sportchilarning ijtimoiy va jamoaviy rivojlanishiga ham yordam beradi, bu esa ularning jamoada ishlash qobiliyatini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTAR

1. Б.А.Ашмарин. Теорга и методика физического воспитания. Москва. 1979.

2. Л.Матвеев. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Москва. 1982.

3. Б.А.Ашмарин. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. Москва.1984.

4. Филин В.П. Воспитана физических качеств у юних спортсменов. Москва., 1984.

5. Теория и методика физическая воспитания. Л.П.Матвеева А.Д.Новикова. Москва; ФиС.

6. Теория и методика физического воспитания. Под ред. Б.А.Ашмарина. М.,1987.

7. П.К.Благуш. К теорию тестирования двигательних способностей. Москва; ФиС, 1987

8. В.П.Филин, Н.А.Фомин. Основи юношеского спорта. Москва; ФиС. 1988

9. Б.А.Ашмарин. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании. Москва; Фи 1988

OQÍWSHÍ-JASLARDÍ QARAQALPAQ XALÍQ PEDAGOGIKASÍ JÁRDEMINDE MIYNETKE TÁRBIYALAWDÍŃ PEDAGOGIKALÍQ TIYKARLARÍ

Kenesbaeva Elmira Joldasbaevna – University of Innovation Technologies assistent-oqıtıwshısı

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636394

Annotaciya: Bul maqalada qaraqalpaq xalq pedagogikası tiykarında jaslardı kishi waqtınnan miynetke tárbiyalaw, kásip-óner úyretiwdiń pedagogikalıq tiykarları haqqında maǵlıwmatlar keltirilgen. Sonıń menen birge maqalada, xalqımız balalardı miynetke tárbiyalaw, jaslardı kásip-óner iyelewge úyretiw dástúrleri, xalıqtıń milliy tárbiyasına tán kóz-qarasları boyınsha pikirler júritiledi.

Tayanısh sózler: Xalıq pedagogikası, úrp-ádet, dástúr, tárbiya, milliy tárbiya, miynet tárbiyası, bala tárbiyası.

Abstract: This article provides information on the pedagogical foundations of labor education and vocational training for youth from an early age, based on Karakalpak folk pedagogy. Furthermore, the article discusses the traditions of the Karakalpak people in fostering a work ethic in children, teaching vocational skills to the younger generation, and national perspectives on upbringing.

Keywords: Folk pedagogy, custom, tradition, upbringing, national education, labor education, child upbringing.

Qaraqalpaq xalıq pedagogikasınıń baslı principleriniń biri — balanı erte jasınan miynetke baǵdarlaw hám bul processti tárbiyanıń ajıralmas bólegi sıpatında qaraw bolıp esaplanadı. Ázelden xalqımızda miynet tárbiyası milliy dástúrlerdiń túp negizi dep tán alınǵan. Sonday-aq, jas áwladqa diyxanshılıq, sharwashılıq, ónermentshilik hám ańshılıq sıyaqlı kásip-ónerlerdi úyretiw tek turmıslıq zárúrlik emes, bálki xalıqtıń ruwxıy hám mádeniy turmısınıń tiykarǵı ózegi bolǵan. «Balanı jastan» degen danalıqqa súyengen ata-babalarımız, keleshek iyesiniń kámil insan bolıp jetilisiwi ushın miynet súyiwshilik sezimin balalıq dástúrleriniń baslı baǵdarı etip belgilegen.

Qaraqalpaq xalqınıń ata kásibi diyxanshılıq penen sharwashılıq jaslardı miynet etiwge hám miynetti súyiwge tárbiyalawdıń kúndelikli ámeliy usılı bolıp keldi. Áyyemgi dáwirlerde Aral jaǵalawları menen Ámiwdaryanıń quyarlıǵında mákan tutqan qáwimler bronza dáwiriniń ózinde-aq jıynaqlı xojalıq islerin júrgizgenligi arxeolog-ilimpazlar tárepinen anıqlandı. Bul mákanlarda jasaǵan

massagetler sharwashılıq hám diyxanshılıq penen shuǵıllanıp tarı, arpa sıyaqlı eginlerdi ekken. Qazılmalardan tabılǵan dán tuqımları, miywe dánleri hám basqa da ósimliklerdiń qaldıqları sol waqıtlardıń ózinde-aq ǵálle, baǵshılıq, palız ónimleriniń egilgenliginen dárek beredi. Xalqımızdıń tarıyxın, tálim-tárbiyasın, miynetsiz kóz aldımızǵa keltire almaymız. Bizler xalqımızdıń ótmishtegi turmısı, kún kórisi, tálim-tárbiyası, úrp-ádeti hám dástúrlerin bayanlap beriwshi xalıq danalıqlarınıń jaslarǵa tárbiyalıq tásiriniń kúshli ekenine itibar beriwimiz kerek. Xalıq miyraslarınan sol dáwirdegi xalıqtıń bay tárbiyalıq tájiriybeleri orın alǵan [1].

Jaslardı kishi waqtınan miynetke hám kásip-ónerge úyretiw ayrıqsha dıqqatqa alınıp xalqımız óz perzentlerin jas waqtınan baslap terek egiw, nál otırǵızıw, jerdi islew, diyxanshılıqqa baylanıslı, sharwashılıqqa baylanıslı isler menen shuǵıllanıwǵa úyretip otırǵan. Miynet insannıń ósip rawajlanıwı hám ádep-ikramlılıq qásiyetleriniń payda bolıwınıń shárti bolıp esaplanadı. Orta Aziya xalıqlarınıń tariyxı, úrp-ádeti hám dástúrlerin óz ishine alatuǵın, áyyemgi ata-babalarımızdıń pedagogikası menen baylanısıqqa iye. Avestoda «Diyxanshılıqtıń paydası haqqında» degen arnawlı bap bolıp, onda insannıń jaqsılıǵı menen ullılıǵı miyneti arqalı kórinedi dep adamlardıń óz qolı menen zárúrli ónimlerdi jaratıw lazımlılıǵın aytadı. Zaratushtranıń ádep-ikramlılıq táliymatı boyınsha insan sharwashılıqtı kóbeytiwge, jaylawlardıń gúllep jaynawına járdem beriw menen erisedi dep kórsetedi. Demek adamgershilik qásiyetlerdiń kózge kóriniwi, onıń minez-qulqınıń bahalılıǵı miynet arqalı ólshenedi [1].

Xalqımız balalardı miynetke tárbiyalaw dástúrlerinde úlken áwladlar úlgi kórsetip ózleriniń awızdan-awızǵa ótip kiyatırǵan aqıl-násiyat, naqıl-maqalların islengen miynet penen baylanıstırıp aytıp jaslarǵa úyretip otırǵan. Mısalı:

Miynettiń túbi ráhát.

Daryanıń suwın báhár tastıradı,
Adamnıń kewlin miynet tastıradı.

Miynet penen er kógerer,
Jamǵır menen jer kógerer.
Altın otta belli,
Adam miynette belli [4].

– bul naqıl-maqallar arqalı dana xalqımız miynetti joqarı bahalap onıń nátiyjesi insan ómirine, ásirese jaslardıń kámal tabıwına jaqsı nátiyjeler beretuǵının aytadı. Miynet hár bir morallıq, materiallıq baylıqlardıń tiykarǵı buwını. Miynet barısında adamnıń eń jaqsı qásiyetleri júzege shıǵıp hár bir adamda ruwxıy lázzetleniw payda boladı.

Hár bir jas óspirim kishi dáwirinen baslap miynetke aralasadı, bul balalarda miynetke bolǵan muhabbattı oyatadı. Jaslardı miynet súyiwge tárbiyalaw hár kúngi dástúriy, minnetli wazıypa bolıp, miynetsiz huqıqıy insandı tarbiyalapta bolmaydı. Sonlıqtan ata-ana, tárbiyashı, ustaz balalarda miynetke bolǵan muhabbattı oyatıwda onıń materiallıq baylıq ákeliwshi hám estetikalıq táreplerin de kóre alıwı kerek. Bul balalardıń fizikalıq jaqtan tuwrı rawajlanıwına óziniń islew, háreket etiw zárúrligin qandırıwına is-hárekettiń anıq, tuwrı túsiniwin támiyinleydi. Xalıqtıń túsiniginshe miynet barısında balanıń denesi onıń xızmet uqıplılıǵı artıp otıradı. Shınında da miynettiń túri kóp hám miynettiń miynetten parqı, ózgesheligi bar. Miynet tárbiya quralına aylanıw ushın onı fizikalıq miynet penen baylanıstırıp, oǵan aqıl miyneti arqalı ruwxıy kúsh beriwimiz kerek. Sebebi, xalıq jumıstan

jalıǵıp qalmas ushın hám onıń túrli-túrli bolıwı ushın, «arba aydap sharshasań, tógin jayıp demińdi al», degen danalıqtı, almaslaw usılın aytadı. Hár kúni udayı islengen jumıs adamdı jalıqtıradı. Ásirese bul jaslardıń miynetke umtılıwın páseytiwi itimal. Xalıq pedagogikası usı psixologiyalıq qubılıslardı durıs bayqap miynet túrin ózgertip, almastırıp turıw lazımlıǵın názerde tutqan. Usılay etkende tárbiyashılar hám ata-analar tásirinde áste-áste balalar miyneti óz wazıypası, mazmunı, usıl hám shólkemlesiwi menen ajıralıp turadı. Xalıq balalar menen alıp barılatuǵın miynetke qızıqtırıwshı usıllardı izlestirip miynetke háwesleniw tuyǵıların payda etiw ushın kásip-óner úyretiw úlken áhmiyetke iye dep esaplaǵan.

Erte dáwirlerden-aq xalqımızda jaslardı kásip-óner iyelewge úyretiw dástúrin miynet tárbiyası arqalı alıp barǵan. Xalqımızdıń tálim-tárbiya tarıyxında miynet tárbiyasına baylanıslı diyxanshılıq, sharwashılıq, balıq awlawshılıq kásip-ónerleri úlken rol' oynap, bul kásipler áyyem zamanlardan-aq payda bolǵan, sonlıqtan xalıq pedagogikasında miynet, kásip-óner dástúrleri aradan neshshe júz jıllar ótiwine qaramastan óz kórki kórinisin joyıtpastan dawam etiwde. Xalıq dástúrlerinde ata-baba kásibin áwladtan áwladqa ótkerip el xalqınıń ishinde óz óneri menen abıray tapqan jas kóp bolǵan. Ata-ananıń kásibin iyelew dástúrleri hám onı dawam ettiriw qayırlı is dep túsinilgen. Xalqımızda el xalıqqa belgili, húrmet abıray tapqan haqıyqıy jası úlken kásip iyesi adamnıń keyninde isin dawam ettiretuǵın áwladları bolsa onı kórgen yaki esitken insanlar quwanıp qoya beredi. Xalıqtaǵı bunday jaqsı qásiyettiń ózi de jaslardı miynetke tárbiyalaw hám miynetke súyispenshilik oyatıwdıń úlgili xızmeti bolıp sanaladı. Usınnan kelip shıqqan xalıq danalıǵında:

Ata óneri balaǵa miyras. *Ónerli órge júzedi.*
Jigitke jeti óner az. *Ónerdi úyrende jiyren* [4].

- degen naqıl sózler jaslardı miynetke tárbiyalawda aldı menen ata kásibin qásterlewge, sonnı rawajlandırıwǵa úyretiw zárúrligi aytıladı.

Hár bir xalıqtıń milliy tárbiyasına tán kóz-qarasları xalıq pedagogikasınıń ajıralmas bir bólimi. Xalıqtıń tálim-tárbiyalıq dástúrleriniń, úrp-ádetleriniń eń áhmiyetli tárepleri jaslardı miynetke tárbiyalaw, kásip-ónerge úyretiw arqalıjúzege shıǵadı. Házirgi kúnge shekem saqlanıp kelingen xalıqtıń miynet dástúrleri jaslardı tárbiyalaw, olardı estetikalıq moral'lıq jaqtan jetilistiriwdiń negizine aylanǵan.

Erta dáwirlerde jaslardı miynetke tárbiyalaw óner, kásip úyretiwde ul balalar menen qız balalar ortasında ayırmashılıq bolsa da, olar ortasındaǵı islenetuǵın jumıslardıń bóliniwi turaqlı emes edi. Qaraqalpaq hayal-qızları er adamǵa tán miynettiń túrlerin atap aytqanda etik tigiw, kiyiz basıw jumısların sapalı hám kórkem etip islegen. Xalıq pedagogikasında: óner minseń atın, ushsań qanatıń, jeseń awqatın, ónerliniń oń qolı bar degen naqıl-maqallar miynet arqalı ǵana jaslardıń turmısta baxıtlı, xalqına qádirli jasaytuǵının túsindirgen.

Ósip kiyatırǵan jas áwladtı dáwir tarıyxına say kamal taptırıw ushın xalıq pedagogikası úlgilerinen paydalanıw insan maqsetlerin ámelge asırıwda úlken áhmiyetke iye. Xalqımız turmısına tán bolǵan ǵarrı-kempirler menen ata-analar óz perzentlerin qasına ertip júrip miynet islew dástúrlerin úyrenip otırǵan. Áyyem dáwirlerden beri diyxanlar, xalıq ustaları ónermentler óz balaların jumısqa jaramlı bolıwı menen qaslarına alıp paydalı miynet islewge úyrete baslaǵan, al qız balalar

bolsa analarınıń qasında úy ishi jumıslarına járdem berip úydi tazalaw, miyman kútiwge járdemlesiw, awqat asıw jumısların meńgerip alǵan. Bular kishi waqtınan usınday miynet túrlerine izbe-iz sistemalı qáliplestirilip otırılǵan. Xalıq pedagogikasınıń jetiskenlik belgisi, ol balalardıń ózine tán ayırmashılıqların kóriwi hám miynetke tárbiyalawdı xalıq turmısı menen baylanıslı alıp barıwı bolıp esaplanadı. Xalqımız is qosjaqpas, jalqaw, erinshek adamlardı bárqulla qaralıp olardıń qılıǵı, minezi, ádetlerine arnayı naqıl-maqallar dóretken.

Jalqaw óz úyine ózi qonaq.

Erinshektiń eki dostı bar,
Biri uyqı, biri kúlki.

Jalqaw qarap otırıp sharshaydı,
Erinshek etigine súrinedi [4].

Sonıń ushın da jaslardı kishkene waqtınan baslap jalqaw, qosjaqpas háreketlerden saqlaw ushın xalıq pedagogikasınıń túrli-túrli jol hám usıllarınan orınlı paydalanǵan. Mısalı, xalıqtıń awızeki dóretpeleri bolǵan xalıq erteklerinińbirinde Ata óz perzentine miynet etiw hám jalqawlıqtıń parqın salıstırıp tómendegidey ilaj kórgen: Kúnlerden bir kúni ata menen bala jolda kiyatırsa joldıń ústinde jatırǵan attıń taǵasın kórip qaladı da atası balasına, balam, taǵanı al deydi. Erinshek balası tómen eńkeyip jatırǵan taǵanı alıwǵa erinedi de, qoyısh nege keregi bar, dep juwap beredi. Atası úndemesten taǵanı alıp kete beredi. Qalaǵa kelgennen keyin atası taǵanı temirshi ustaǵa satıp pulına halwa satıp aladı. Balasına dıqqat bermegen halda alǵan halwasın ózi jep úyine qaray qaytadı al balası bolsa halwanı jegisi kelip atasına qaray beredi. Atası qolındaǵı halwadan azǵana jerge túsirip jiberedi, balası onı da dárhal eńkeyip alıp awzına saladı, usılay etip olar mánziline jetkenshe on márte halwanı túsirip alıp balasınıń hár sapar eńkeyip, alıp kiyatırǵanında ata toqtap: áne balam kórdińbe bir márte iyiliwdiń ornına on márte iyildiń, endi meniń gápime qulaq sal, «Birdi birew beredi, kópti miynet beredi»-degen balam, is qosjaqpaslıq, jalqawlıq bul jaman ádet»-dep ata násiyat etipti. Xalıq danalıǵı jaslardı miynetke tárbiyalawda atalar dástúrlerine ılayıq naqıl-násiyat hám parasat penen alıp barıwdıń usınday tásirsheń usılların oylap tapqanlıǵı menen ayrıqsha dıqqatqa ılayıq.

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi:

1. Abdimuratov P. Qaraqalpaq xalqınıń destúrleri hám onıń jaslar tárbiyasındaǵı áhmiyeti. – Nókis: Bilim, 1996. – 91 b.

2. Ayımbetov Q. Xalıq danalıǵı. - Nókis: «Qaraqalpaqstan», 1988, 489-b.

3. Áleuov Ó. Qaraqalpaqstanda tálim-tárbiyalıq oylardıń qáliplesiwi hám rawajlanıwı.- Nókis: Bilim, 1993. – 503 b.

4. Mámbetov Q. Qaraqalpaq awızeki xalıq dóretpeleri. – Nókis: Qaraqalpaǵıstan, 1990. – 216 b.

GLOBAL TA’LIM MAKONIDA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARNING KOGNITIV USLUBINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK DETERMINANTLARI

Shayxımanova Shaxnoza Joldasbay qızı -Innovatsion texnologiyalar universiteti assistent o’qituvchisi

Jienbaeva Kamila Barliqbay qizi - Innovatsion texnologiyalar universiteti Psixologiya ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636836

Annotatsiya: Mazkur maqolada global ta’lim makonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning kognitiv uslubini shakllantirishning psixologik-pedagogik determinantlari tahlil qilinadi. Unda kognitiv uslubning mazmuni, uning rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar o‘quvchilarning individual xususiyatlari, motivatsiya darajasi, o‘qituvchining pedagogik yondashuvi va ta’lim muhiti ilmiy jihatdan yoritiladi.

Kalit so’zlar: kognitiv uslub, kichik maktab yoshi, o‘quvchi kompetensiyalari, o‘qituvchi kompetensiyalari, psixologik-pedagogik determinantlar, global ta’lim makoni, ta’lim texnologiyalari, mustaqil fikrlash, motivatsiya.

Annotation: This article analyzes the psychological and pedagogical determinants of the formation of the cognitive style of primary school students in the global educational space. It scientifically illuminates the content of the cognitive style, the main factors influencing its development, the individual characteristics of students, the level of motivation, the pedagogical approach of the teacher, and the educational environment. The role of digital technologies in modern educational conditions and the development of independent and critical thinking in students based on global requirements are also considered.

Key words: cognitive style, primary school age, student competencies, teacher competencies, psychological and pedagogical determinants, global educational space, educational technologies, independent thinking, motivation.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar doirasida yosh avlodni innovatsion fikrlashga, mustaqil qaror qabul qilishga, zamonaviy bilimlarni egallashga undaydigan dasturlar ishlab chiqilmoqda. Taraqqiyot strategiyasining birinchi ustuvor yo’nalishida «Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish»[1] va «iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo’llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jonlantirish, mamlakatda amalga oshiriluvchi innovatsion g’oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiquvchi barkamol avlodni tarbiyalash» konseptual g’oya negizida ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosati O’zbekiston Respublikasining 2022–2026 yillarga mo’ljallangan Taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, sog’lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish muhim vazifalar belgilanganligi ularni amalga oshirishda shaxsning individual qiyofasini to’laqonli namoyon etishga xizmat qiluvchi omillarning ahamiyatini o’rganishga yo’naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishga yetarli asos yaratilganidan dalolat beradi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni.

Global ta’lim makonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning kognitiv uslubini shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiyaning eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki bugungi kunda ta’lim tizimi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki har bir bolaning individual fikrlash xususiyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Kognitiv uslub deganda o‘quvchining axborotni qabul qilish, qayta ishlash va undan foydalanishdagi individual o‘ziga xosligi tushuniladi va bu jarayon bola shaxsining psixologik xususiyatlari, ta’lim muhiti hamda ijtimoiy omillar ta’sirida shakllanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik maktab yoshida bolalarda tafakkur jarayonlari faol rivojlanadi va aynan shu davrda ularning kognitiv uslublari nisbatan barqarorlasha boshlaydi.

J.Piaget fikriga ko‘ra, bu yoshdagi bolalar konkret operatsiyalar bosqichida bo‘lib, ular mantiqiy fikrlash elementlarini egallay boshlaydi, ya’ni ular predmet va hodisalarni aniq tasavvurlar asosida tahlil qilishga o‘tadi. Shu bilan birga, L.Vigotsky ta’kidlaganidek, bolaning kognitiv rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ta’lim jarayonida o‘qituvchi va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar muhim rol o‘ynaydi, ayniqsa uning “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi orqali bolaga yordam berish orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligi isbotlangan. Shuningdek, J. Bruner o‘qitish jarayoni bolaning kognitiv uslubiga moslashtirilishi kerakligini ta’kidlab, bilimlarni bosqichma-bosqich va spiral tarzda o‘zlashtirish g‘oyasini ilgari suradi, bu esa har bir o‘quvchining individual rivojlanish sur’atini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Kognitiv uslub shaxsning atrof-muhitni idrok etish, ma’lumotlarni qayta ishlash va muammolarni hal etishdagi individual xususiyatlarini ifodalaydi. Ushbu xususiyatlarning shakllanishi turli omillar — psixologik, pedagogik, ijtimoiy hamda zamonaviy raqamli muhit ta’sirida yuz beradi. Global ta’lim makonida esa bu jarayon yanada murakkablashib, o‘quvchilardan moslashuvchan fikrlash, mustaqil o‘rganish va tanqidiy yondashuv kabi ko‘nikmalarni talab etadi.

Kognitiv uslub o‘quvchining axborotni qabul qilish, tahlil qilish, muammolarni hal etish va qaror qabul qilishdagi individual xususiyatlarini ifodalaydi. Har bir bola o‘qish jarayonida ma’lumotni turlicha idrok etadi: kimdir vizual obrazlar orqali, boshqasi mantiqiy tahlil asosida, yana biri tajriba va faoliyat orqali o‘zlashtiradi. Aynan shu farqlarni hisobga olish kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ularning intellektual salohiyatini to‘liq namoyon etishga xizmat qiladi.

Kichik maktab yoshi 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha bo’lgan vaqtni o’z ichiga oladi. Bu davr mubaynida bola kichik maktab davri ya’ni ochiqroq qilib aytadigan bo’lsak,boshlang’ich sinf davrini boshidan o’tkazayotgan bo’ladi. Bu davrda bolaning o’qishga,maktabga bo’lgan qiziqishini oshirish, unga muhabbat uyg’ota bilish lozim. Kichik maktab yoshidagi bolalarning eng muhim xususiyatlaridan biri bu uning o’z ehtiyojlariga ega ekanligidadir. Bu ehtiyojlarga esa, bolaning o’z portfeli, o’quv qurollari, kitob javoni , dars stoli va shu kabi buyumlarining mavjudligi uning kattalar singari maktabga borishga qiziqishini, istagini oshiradi. Inson borki, u hayoti davomiga o’zini turli ehtiyojlarga moyilligini his etadi.

Kichik maktab yoshida ijtimoiy rivojlanish ham kuchli sur’atda kechadi. Bolalar sinfdoshlar bilan o‘zaro munosabatlar orqali jamoada ishlash, boshqa fikrlarni tinglash, o‘z nuqtai nazarini bildirish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni egallaydilar. Shu bilan birga, ular o‘z “Men” konsepsiyasini shakllantirish, o‘zini baholash va ichki motivlar asosida harakat qilishni o‘rganadilar. Bu davrda ota-onalar, ustozlar va tengdoshlar fikri bola uchun muhim axloqiy va emotsional mezonga aylanadi. Natijada, bolaning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyati ko‘pincha uning o‘z-o‘zini baholashi va o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Ayniqsa, kichik maktab yoshida o‘quvchilarning qabul qilish, qayta ishlash va axborotni tizimlashtirish jarayonlari faol rivojlanadi. Shu davrda yaratilgan qulay psixologik muhit, differensial yondashuv va interfaol metodlar bolalarning individual kognitiv uslubini aniqlash va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchi tomonidan beriladigan topshiriqlarning mazmuni, shakli va murakkablik darajasi o‘quvchining tafakkur faoliyatini rag‘batlantirishi, uni mustaqil izlanishga undashi zarur. Aks holda, standart va bir xil yondashuv bolalarning tabiiy kognitiv imkoniyatlarini cheklab qo‘yishi mumkin — bu esa hozirgi global raqobat sharoitida “yashirin tormoz”ga aylanadi. Shuningdek, global ta’lim makonida raqamli texnologiyalar, innovatsion pedagogik yondashuvlar va madaniyatlararo integratsiya jarayonlari ham kognitiv uslub shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Multimediya vositalari, onlayn platformalar va kreativ topshiriqlar o‘quvchilarning vizual, analitik va refleksiv fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, global ta’lim makonida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning kognitiv uslubini shakllantirish murakkab va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u psixologik va pedagogik determinantlarning o‘zaro uyg‘un ta’siri orqali amalga oshadi. O‘quvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari, motivatsiyasi hamda ularni o‘rab turgan ijtimoiy-pedagogik muhit kognitiv uslub rivojida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim texnologiyalari va innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini yanada faollashtirib, ularning mustaqil, tanqidiy va moslashuvchan tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, har bir o‘quvchining o‘ziga xos kognitiv uslubini aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni global raqobat sharoitida barkamol, ijodkor va fikrlovchi shaxsni shakllantirishning muhim omiliga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-sonli Farmoni.

2. Z.T.Nishanova, N.G.Kamilova, D.U.Abdullaeva,M.X.Xolnazarova Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya « O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati» nashriyoti.Toshkent – 2018

3. Abdullayeva N.S.. “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda diqqatni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari” mavzusidagi Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori doktori (PhD) dissertatsiyasi .- Toshkent., 2022.

4. Xaydarov F.I,Xalilova N.I. Umumiy psixologiya / darslik / 2 - kitob / Toshkent: "METODIST NASHRIYOTI", 2022, 288 bet.[40-41]
4. Internet saytlari: www.ziyo.uz

MAKTAB O’QUVCHILARINI VATANGA SADOQAT RUHIDA TARBIYALASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Islamgaziyeva Perizat Amangos qizi - Nukus davlat pedagogika instituti magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636643

Annotatsiya : Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarini vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash jarayonini zamonaviy pedagogik talablar asosida takomillashtirish masalasiga bag‘ishlanadi. Ishda yosh avlod ongida Vatanga muhabbat, milliy o‘zlikni anglash, fuqarolik mas’uliyati va ijtimoiy faollik kabi sifatlarni shakllantirishning nazariy hamda amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Vatan, vatanparvarlik, vatan tuyg’usi, tarbiya, ta’lim-tarbiya jarayoni, vatanparvarlik tarbiyasi

Abstract: This article examines the issue of improving the process of educating school students in the spirit of devotion to the Motherland based on modern pedagogical requirements. It highlights the theoretical and practical aspects of developing in the younger generation a love for the Motherland, national self-awareness, civic responsibility, and social activity.

Keywords: Motherland, patriotism, sense of homeland, upbringing, educational process, patriotic education.

O‘zbekiston Respublikasi ta’lim va fan sohasining barcha jabhalarida olib borilayotgan islohotlarning asosiy negizida, jamiyatning ertasi hamda poydevori, kelajagi bo‘lgan yoshlarning talim-tarbiyasi, vatanparvarligi, shuningdek, jamiyat rivojlanishida, bosqichma-bosqich taraqqiy etishida pedagoglar jamoatchilik orasida ta’lim-tarbiya muammolariga qiziqish sezilarli ta’sir etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakat hayotida ko‘pgina vazifalarning hal etilishi yosh avlodda vatanparvarlik hissi rivojlantirish hamda vatanparvar fuqaro qiyofasini shakllantirish kabi sezilari darajada ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, ma’naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonini takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyojning yuqoriligi asosiy o‘rin tutadi. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili yetakchi o‘rinda turadi.

Mamlakatimizda maktab o’quvchilarini vatanga sadoqat ruhini singdirishning tashkiliy mexanizmi ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchi yoshlarning vatan uchun qayg‘urishi, milliy g‘ururi, mashg‘ulotlar davomida interfaol usullar va pedagogik texnologiyalarning to‘g‘ri tanlangani, tashabbuskorligi va talabchanligi hamda muammoning hal qilish to‘g‘risida o‘z mustaqil fikr va qarashlari bilan javob bera olish kabi psixologik sifatlari, o‘quvchida motiv-motivasiyaning rivojlanganligi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan holda o‘rganib borildi. Umumta’lim maktablari o‘quvchilarini-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda

motivatsion ko‘rsatkichining holati, kuzatish, suhbat (intervyu), o‘quvchilar faoliyati mahsulining tahlili, anketa so‘rovi, test sinovi yordamida aniqlandi. Umumta’lim maktalari o‘quvchilarining-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ularning amaliy ko‘rsatkichining holati kuzatish, o‘quvchilar faoliyati mahsulining tahlili yordamida aniqlandi. Umumta’lim maktalari o‘quvchilarining-vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishini baholash ko‘rsatkichining holati *suhbat (intervyu)*, *anketa so‘rovi*, *test sinovi* yordamida aniqlandi.

Shuni ta’kidlash lozimki, samarali tarbiya jarayoni faqat ma’naviy va axloqiy bilimlar bilan cheklanmay, balki o‘quvchilarni faol ijtimoiy hayotga, jamoaviy ishga va madaniy merosga hurmat ko‘rsatishga undaydi. Shu bilan birga, vatanparvarlik ruhini mustahkamlashda maktablarda interaktiv metodlar, loyihalar, tarixiy va madaniy tadbirlar qo‘llanilishi o‘quvchilarni yanada qiziqtiradi va rag‘batlantiradi.

Natijada, maktab ta’lim-tarbiyasi orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik hissini shakllantirish nafaqat ularning shaxsiy fazilatlarini rivojlantiradi, balki kelajak avlodni milliy ong va mas’uliyat bilan tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu esa jamiyatning barqarorligi va milliy qadriyatlarning uzluksizligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xoshimov K., Nishonova S., Pedagogika tarixi: Darslik. 2-q. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. – 304 b
2. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o‘quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. - T., 2000. - 305b.
3. Musurmonova O. Yuqori sinf o‘quvchilari ma’naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: dis.: p.f.d. – T., 1993. – 364 b.
4. Atadjanova Sh. Oilada o'spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: ped.fan.nomz. dis-yasi. - T.: TDPU, 2001. -136 b.
5. Aminov B., Rasulov T. Vatan yurakdagi javohir. - T.: O qituvchi, 2001.- 232b
6. Hasanboev J., Hasanboeva O., Turopova M. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 2002. -112 b.

ТЕОРИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМООПРЕДЕЛЕНИЯ С РЕАЛЬНОСТЬЮ

Ахмедова Мухаббат Ахмедовна - старший преподаватель Нукусский филиал Института переподготовки и повышения квалификаций специалистов физической культуре и спорта

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635764

Аннотация: В данной статье теория с реальностью рассматривает процесс профессионального самоопределения как постепенный выбор профессии, при котором человек учитывает не только личные интересы и способности, но и социальные, экономические и культурные ограничения.

Ключевые слова: профессиональное самоопределение, компромисс с реальностью, выбор профессии

Abstract: In this article, the theory with reality considers the process of professional self-determination as a gradual choice of profession, in which a person takes into account not only personal interests and abilities, but also social, economic and cultural constraints.

Key words: professional self-determination, compromise with reality, choice of profession

У человека возникает новая психологическая проблема – проблема профессионального самоопределения. У подростков первые два периода - фантазии и гипотетический - протекают одинаково у юношей и девушек, а переход к реализму наступает раньше у менее материально обеспеченных юношей, но планы девушек отличаются большой гибкостью и разнообразием. Исследования показывают, что точные возрастные границы периодов профессионального самоопределения трудно установить - существуют большие индивидуальные вариации: некоторые молодые люди определяются в выборе еще до окончания школы, к другим зрелость профессионального выбора приходит лишь к 23 годам. А некоторые продолжают менять профессии в течении всей жизни. Гинзберг признал, что выбор карьеры не заканчивается с выбором первой профессии и что некоторые люди меняют род профессий на протяжении всей трудовой деятельности. Причем представители малоимущих социальных групп, национальных меньшинств менее свободны в выборе профессии, чем выходцы из более обеспеченных социальных групп. Ряд людей вынуждены по социальным и прочим причинам менять свои профессии в течение всей жизни, но существует группа людей, которые самопроизвольно меняют профессии из-за особенностей личности или из-за того, что слишком ориентированы на удовольствия и это не позволяет пойти на необходимый компромисс. Исследуя проблему, которая влияет на выбор профессии, следует рассмотреть множество факторов:

1 – влияние родителей, которые разными способами оказывают свое воздействие: прямое наследование профессии родителей, продолжение семейного бизнеса; родители оказывают влияние, обучая своей профессии; родители влияют на интересы и занятия детей с самого раннего возраста, поощряя или осуждая их интересы и увлечения, воздействуя своей семейной атмосферой; родители воздействуют своим примером; родители направляют, или ограничивают выбор своих детей, настаивая на продолжении или прекращении обучения, на определенной школе или вузе, определенной специализации (внутренние мотивы родителей могут быть при этом различны: неосознанное желание родителей осуществить свои профессиональные мечты через детей; неверие в возможности ребенка; материальные соображения; желание, чтобы ребенок достиг более высокого социального статуса и пр.); на выбор детей оказывает влияние также то, как родители оценивают тот или иной вид деятельности, определенные

профессии. Когда уровень образования матери или профессиональный статус отца достаточно высоки, это способствует согласию детей с их мнением по поводу выбора профессии.

2 – влияние друзей и учителей. Фактически большинство молодых людей согласуют свои профессиональные планы и с родителями, и с друзьями (под влиянием друзей могут за компанию идти в то или иное учебное профессиональное учреждение). 39% опрошенных отмечают, что на их профессиональный выбор оказали влияние учителя в старших классах. Но влияние родителей сильнее, чем влияние учителей.

3 – поло-ролевые стереотипы. На выбор молодыми людьми специальности в значительной степени влияют ожидания общества по поводу того, какую работу должны осуществлять мужчины, а какую - женщины. Поло-ролевые стереотипы могут способствовать тому, что юноши проявляют больший интерес к научно-техническим дисциплинам, а девушки более склонны к сфере искусства или обслуживания.

4 – уровень умственных способностей. Важным фактором профессионального выбора являются умственные способности, уровень интеллекта молодого человека, который определяет его способность принимать решения. Многие юноши делают нереалистические выборы, мечтают о высокопрестижных профессиях, для которых у них нет необходимых данных. Способность человека достичь успеха в выбранной работе зависит от уровня его интеллекта. Ряд специалистов считают, что для каждой профессии существуют свои критические параметры интеллекта, поэтому люди с более низким интеллектом успешно справиться с данной профессией не смогут. Но высокий коэффициент интеллекта еще не гарантия профессионального успеха. Интерес, мотивация, другие способности и личные качества определяет его успех не в меньшей степени, чем интеллект. Различные профессии требуют специфических способностей. Наличие определенных способностей может оказаться решающим фактором для достижения быстрого успеха в избранной сфере деятельности, дает возможность получить хорошие результаты после соответствующего обучения и приобретения необходимого опыта.

5 – структура интересов человека. Интерес является еще одним важным фактором успеха в профессиональной деятельности. Исследования показывают, что чем более люди заинтересованы в выполняемой ими работе, тем лучше будут результаты их труда. Вероятность успеха при прочих равных условиях выше у тех из начинающих свою карьеру работников, чьи интересы в большей степени подобны интересам тех, кто уже добился призвания в данной области. На этом основано тестирование интереса к профессии: для предсказания успеха оценивается сходство групп интересов тестируемых с интересами людей, добившихся успеха в какой-либо области. С интересом к избранной области должны сочетаться и интеллект, и способности, и возможности, и другие факторы. Профессиональные устремления зависят как от социального статуса, так и от интеллектуальных способностей и школьной успеваемости молодого человека. Следует учесть,

что и уровень взаимозависимости между интересом и пригодностью к той или иной профессии относительно невысок. Правильное выявление профессиональных интересов и склонностей является важнейшим прогностическим фактором профессиональной удовлетворенности. Причиной неадекватного выбора профессии могут быть как внешние (социальные) факторы, связанные с невозможностью осуществить профессиональный выбор по интересам, так и внутренние (психологические) факторы, связанные с недостаточным осознанием своих профессиональных склонностей или с неадекватным представлением о содержании будущей профессиональной деятельности.

Литературы

1. Бодров, В.А. Психология профессиональной пригодности: учеб. пособие для вузов / В.А. Бодров. – М.: ПЕРСЭ, 2001. – 511 с.

2. Волкова О.А. Основы профессиональной ориентации молодежи: Учебно-методическое пособие / Под ред. Т.П. Дурасановой. – Балашов: Николаев, 2002. – 68 с.

3. Гриншпун С.С. Опыт создания государственной службы профориентации во Франции / С.С. Гриншпун // Педагогика. – 2004. - №7. – С. 85

4. Дьяченко, М.И., Психологические проблемы готовности к деятельности / М.И. Дьяченко, Л.А. Кандыбович. – Минск, 1976. – 312 с.

5. Климов, Е.А. Психология профессионального самоопределения: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / Е.А. Климов. – М.: Издательский центр «Академия», 2007. – 304 с

JISMONIY TARBIYA TA’LIM JARAYONIDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Seytmuratov Talgat Qutlimuratovich - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19634899

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy tarbiya ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari, ularning o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishdagi o‘rni hamda ta’limni individuallashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining jismoniy mashg‘ulotlarni tashkil etish, o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini monitoring qilish va baholashdagi ahamiyati yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish jismoniy tarbiya darslarini yanada samarali tashkil etish, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini tahlil qilish hamda ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, jismoniy tarbiya, pedagogik texnologiyalar, ta’lim jarayoni, raqamli ta’lim, innovatsion metodlar, sport texnologiyalari, ta’limni individuallashtirish.

Abstract: This article analyzes the pedagogical foundations of using artificial intelligence technologies in the physical education teaching process, their role in improving the effectiveness of the educational process, and the possibilities of individualizing education. In addition, the significance of artificial intelligence technologies in organizing physical training activities, monitoring and assessing students’ physical fitness is highlighted. The research results show that the use of artificial intelligence technologies contributes to the more effective organization of physical education lessons, the analysis of students’ physical development, and the organization of the educational process in accordance with modern pedagogical requirements.

Keywords: artificial intelligence, physical education, pedagogical technologies, educational process, digital education, innovative methods, sports technologies, individualized education.

Kirish. Hozirgi davrda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayoniga kirib kelib, o‘qitish metodlari va ta’limni tashkil etish shakllarini tubdan o‘zgartirmoqda. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini optimallashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash, individual ta’lim yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ta’lim samaradorligini oshirish mumkin.

Jismoniy tarbiya ta’limi ham zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni talab etuvchi muhim pedagogik sohalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda jismoniy tarbiya darslarini tashkil etishda an’anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalar, jumladan sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Chunki jismoniy tarbiya jarayonida o‘quvchilarning jismoniy faolligi, harakat ko‘nikmalari, sog‘lig‘i va jismoniy rivojlanish darajasi muntazam ravishda nazorat qilinishi lozim.

Sun’iy intellekt texnologiyalari bu jarayonda katta imkoniyatlar yaratadi. Ular yordamida o‘quvchilarning jismoniy mashqlarni bajarish jarayonini tahlil qilish, mashg‘ulotlarning samaradorligini aniqlash hamda o‘quvchilarga individual tavsiyalar berish mumkin. Shu sababli jismoniy tarbiya ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik asoslarini o‘rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Jismoniy tarbiya ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonini optimallashtirish, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish darajasini aniqlash hamda mashg‘ulotlarni individual yondashuv asosida tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, sun’iy intellekt texnologiyalari aynan shu jarayonni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Avvalo, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish jismoniy tarbiya ta’lim jarayonini individuallashtirish imkonini beradi. Har bir o‘quvchining jismoniy tayyorgarligi, sog‘lig‘i, jismoniy rivojlanish darajasi va harakat faolligi

turlicha bo‘lganligi sababli barcha o‘quvchilarga bir xil mashg‘ulot yuklamasini berish har doim ham samarali natija bermaydi[1]. Shu sababli zamonaviy pedagogika o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etishni talab qiladi. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quvchilarning jismoniy ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, har bir o‘quvchi uchun individual mashg‘ulot dasturlarini ishlab chiqish mumkin.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini monitoring qilishda ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda aqlli sensorlar, mobil ilovalar va raqamli qurilmalar yordamida o‘quvchilarning jismoniy faolligini kuzatish mumkin. Masalan, aqlli soatlar va fitnes-trekerlar yordamida yurak urish tezligi, qadamlar soni, energiya sarfi hamda jismoniy faoliyat davomiyligi kabi ko‘rsatkichlar aniqlanadi. Ushbu ma’lumotlar sun’iy intellekt algoritmlari orqali qayta ishlanib, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish darajasi haqida aniq xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining yana bir muhim jihati jismoniy mashqlarni bajarish texnikasini tahlil qilish imkoniyatidir. Kompyuter ko‘rish texnologiyalari va videoanalitika yordamida o‘quvchilarning harakatlari tahlil qilinadi hamda mashqlarni bajarish jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolar aniqlanadi. Masalan, yugurish, sakrash yoki turli gimnastik mashqlarni bajarishda tana holati, harakat amplitudasi va koordinatsiya darajasi avtomatik ravishda tahlil qilinadi. Natijada o‘qituvchi o‘quvchilarga aniq tavsiyalar berishi hamda ularning harakat ko‘nikmalarini yanada takomillashtirishi mumkin.

Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish jismoniy tarbiya darslarini yanada interaktiv va qiziqarli tashkil etish imkonini yaratadi. Zamonaviy raqamli platformalar, virtual trenerlar va mobil ilovalar yordamida o‘quvchilar mashg‘ulot jarayonida faol ishtirok etadilar[2]. Bunday texnologiyalar o‘quvchilarning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularni muntazam ravishda jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanishga undaydi. Natijada jismoniy tarbiya darslarining samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari o‘qituvchining pedagogik faoliyatini ham sezilarli darajada takomillashtiradi. O‘qituvchi sun’iy intellekt tizimlari yordamida o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish dinamikasini kuzatib borishi, ularning jismoniy ko‘rsatkichlarini tahlil qilishi hamda mashg‘ulotlarni rejalashtirishda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilishi mumkin. Bu esa o‘qituvchining pedagogik faoliyatini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi.

Bundan tashqari, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish jismoniy tarbiya ta’limida nazorat va baholash tizimini takomillashtirishga ham xizmat qiladi. An’anaviy baholash usullarida o‘qituvchi o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini subyektiv baholashi mumkin. Sun’iy intellekt texnologiyalari esa o‘quvchilarning jismoniy faoliyatini aniq ko‘rsatkichlar asosida baholash imkonini beradi. Natijada baholash jarayoni yanada adolatli va obyektiv bo‘ladi[3].

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Masalan, sportchilar tayyorgarligini tahlil qilish, mashg‘ulot yuklamasini nazorat qilish, sport jarohatlarini oldini olish hamda sport natijalarini

prognozlashda sun’iy intellekt tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Ushbu tajribalarni ta’lim tizimiga joriy etish jismoniy tarbiya ta’limining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar o‘z jismoniy faolligi haqida doimiy ma’lumotga ega bo‘lib, o‘z sog‘lig‘ini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar[4]. Bu esa ularni muntazam ravishda jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishga undaydi hamda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy ta’lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishini monitoring qilish, mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish hamda o‘qituvchining pedagogik faoliyatini takomillashtirish mumkin.

Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish jismoniy tarbiya darslarini yanada qiziqarli va interaktiv tashkil etishga yordam beradi. Bu esa o‘quvchilarning sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularning jismoniy faolligini kuchaytirish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelajakda jismoniy tarbiya ta’lim jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada keng joriy etish, ularning pedagogik imkoniyatlarini chuqur o‘rganish hamda amaliyotga tatbiq etish muhim ilmiy va amaliy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Johnson FM, Cáceres PG, González AO, Salazar CS. Critical incidents in the practicum of Physical Education Pedagogy students: a qualitative study. In: Retos-Nuevas Tendencias en Educacion Fisica Deporte y Recreacion. Federacion Espanola de Docentes de Educacion Fisica (2023). [Google Scholar]

2. Wang J, Yang Y, Liu H, Jiang L. Enhancing the college and university physical education teaching and learning experience using virtual reality and particle swarm optimization. Soft Comp. (2024) 28:1277–94. 10.1007/s00500-023-09528-4 [DOI] [Google Scholar]

3. Li S, Wang C, Wang Y. Fuzzy evaluation model for physical education teaching methods in colleges and universities using artificial intelligence. Sci Rep. (2024) 14:4788. 10.1038/s41598-024-53177-y [DOI] [PMC free article] [PubMed] [Google Scholar]

4. Li Y, Li X. The artificial intelligence system for the generation of sports education guidance model and physical fitness evaluation under deep learning. Front Public Health. (2022) 10:917053. 10.3389/fpubh.2022.917053 [DOI] [PMC free article] [PubMed] [Google Scholar]

AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA PROGNOSTIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Seytmuratova Tazaxan Qutlimuratovna - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19634833

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali prognostik kompetentlikni rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar talabalarning analitik fikrlash, muammolarni tahlil qilish va kelajakdagi vaziyatlarni oldindan baholash qobiliyatlarini shakllantirishga yordam beradi. Tadqiqotda prognostik kompetentlik tushunchasi, uning tarkibiy elementlari va AKT asosida rivojlantirish usullari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, interaktiv metodlar, modellashtirish va simulyatsiya texnologiyalarining ahamiyati ta’kidlangan. Natijalar AKTdan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshirish bilan birga talabalarning mustaqil fikrlash va prognoz qilish qobiliyatlarini rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, prognostik kompetentlik, ta’lim texnologiyalari, innovatsion ta’lim, raqamli pedagogika, analitik fikrlash, prognozlash.

Abstract: This article analyzes the development of prognostic competence through the use of information and communication technologies (ICT) in the educational process. In the modern education system, digital technologies help students develop analytical thinking, problem-solving skills, and the ability to anticipate future situations. The study examines the concept of prognostic competence, its structural components, and methods for developing it using ICT. Additionally, the importance of interactive methods, modeling, and simulation technologies is emphasized. The results show that the effective use of ICT not only improves the quality of education but also enhances students’ independent thinking and forecasting abilities.

Key words: information and communication technologies, prognostic competence, educational technologies, innovative education, digital pedagogy, analytical thinking, forecasting.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti va ilm-fan rivojlanishi ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Zamonaviy ta’lim jarayoni nafaqat bilim berishga, balki shaxsning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va kelajakdagi vaziyatlarni prognoz qila olish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Prognostik kompetentlik shaxsning kelajakdagi jarayonlar va hodisalarni tahlil qilish, ularning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash hamda muayyan vaziyatlarda optimal qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Ushbu kompetentlik zamonaviy mutaxassis uchun muhim professional sifat hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. AKT vositalari orqali katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, turli jarayonlarni modellashtirish hamda prognozlash jarayonlarini tashkil etish mumkin. Shu sababli ta’lim

jarayonida AKTdan foydalanish prognostik kompetentlikni rivojlantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonining mazmuni va shaklini tubdan o‘zgartirib, o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, shaxsning analitik fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda kelajakdagi jarayonlarni oldindan baholash qobiliyatlarini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan prognostik kompetentlikni shakllantirish jarayonida AKTdan foydalanish pedagogik jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Prognostik kompetentlik shaxsning kelajakda yuz berishi mumkin bo‘lgan jarayon va hodisalarni oldindan tahlil qilish, ularning ehtimoliy natijalarini baholash hamda muayyan vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish qobiliyatini ifodalaydi. Zamonaviy jamiyatda turli sohalarda faoliyat yuritayotgan mutaxassislar doimiy ravishda o‘z faoliyatini rejalashtirish, natijalarni oldindan baholash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni prognoz qilish zaruriyatiga duch keladi [1, 63-66]. Shu sababli ta’lim jarayonida prognostik kompetentlikni rivojlantirish kelajakdagi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim jarayonida keng imkoniyatlarni yaratib, o‘quvchilar va talabalar uchun katta hajmdagi axborot manbalaridan foydalanish, ma’lumotlarni tahlil qilish hamda ularni tizimlashtirish imkonini beradi. Internet tarmog‘i, elektron kutubxonalar, ilmiy ma’lumotlar bazalari va raqamli ta’lim platformalari orqali ta’lim oluvchilar turli ilmiy ma’lumotlarga tezkor ravishda ega bo‘lishlari mumkin. Bu esa ularning ilmiy tafakkuri, mustaqil izlanish olib borish qobiliyati va analitik fikrlashini rivojlantiradi.

Ta’lim jarayonida AKT vositalaridan foydalanish o‘quv materiallarini vizual va interaktiv shaklda taqdim etish imkonini ham yaratadi. Multimedia texnologiyalari, animatsiyalar, grafik modellar va video materiallar yordamida murakkab jarayonlarni tushunarli tarzda izohlash mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam berib, ularning mantiqiy va tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Natijada ta’lim oluvchilar nafaqat tayyor bilimlarni o‘zlashtiradi, balki o‘rganilayotgan jarayonlarning rivojlanish yo‘nalishlarini ham tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Prognostik kompetentlikni rivojlantirishda modellashtirish va simulyatsiya texnologiyalari ham muhim o‘rin tutadi[2, 45-50]. Raqamli modellashtirish yordamida turli jarayonlar va hodisalarning ehtimoliy rivojlanish yo‘nalishlarini ko‘rsatish mumkin. Bu jarayon o‘quvchilarga real hayotdagi vaziyatlarni tahlil qilish, turli variantlarni solishtirish hamda eng optimal yechimni tanlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, iqtisodiyot, ekologiya, texnika va sport kabi sohalarda modellashtirish metodlari prognozlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Bundan tashqari, ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish ham prognostik kompetentlikni rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, guruhli muhokamalar, loyiha asosida o‘qitish va keys-stadi metodlari orqali o‘quvchilar turli vaziyatlarni mustaqil ravishda tahlil qiladi va ularning ehtimoliy natijalarini prognoz qiladi[3, 32-36]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ushbu metodlarni samarali tashkil etish imkonini yaratib, ta’lim oluvchilarning faol ishtirokini ta’minlaydi.

Shuningdek, AKT vositalari yordamida ta’lim jarayonini individuallashtirish ham mumkin. Elektron ta’lim tizimlari orqali har bir o‘quvchi yoki talaba o‘zining bilim darajasiga mos ravishda ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ularning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi va bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Mustaqil ta’lim jarayonida o‘quvchilar turli ma’lumotlarni tahlil qilish, ularni taqqoslash va kelajakdagi natijalarni baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda ta’lim jarayonini raqamlashtirish muhim o‘rin tutadi. Raqamli ta’lim muhitining shakllanishi o‘quvchilar va talabalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratib, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar yordamida katta hajmdagi statistik ma’lumotlarni tahlil qilish ham mumkin bo‘ladi. Bu esa ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida prognostik tahlil metodlarini qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi [4, 67-72].

Shu nuqtai nazardan qaraganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish prognostik kompetentlikni rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. AKT vositalari orqali tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda kelajakdagi jarayonlarni prognoz qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Natijada ta’lim oluvchilar zamonaviy jamiyat talablariga mos, raqobatbardosh va innovatsion fikrlaydigan mutaxassislar sifatida shakllanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga o‘quvchilarning prognostik kompetentligini rivojlantirishga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. AKT vositalari orqali o‘quvchilar ma’lumotlarni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni baholash va kelajakdagi natijalarni prognoz qilish ko‘nikmalarini egallaydi. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu esa raqobatbardosh, analitik fikrlaydigan va innovatsion yondashuvga ega mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Растопчина О.М. Прогностическая компетентность как составляющая профессиональной компетентности // Морские технологии: проблемы и решения 2020. С. 63-66.

2. Абдуллаев Д.М. Ўқитувчиларда рақамли саводхонликни ривожлантириш масалалари // Педагогика фанлари журнали. — Тошкент, 2022. — №2. — Б. 45–50.

3. Тошпўлатова Ш.И. Таълим жараёнида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг самарали йўллари // Ўзбекистонда педагогик тадқиқотлар. — 2023. — №1. — Б. 32–36

4. Уварова А.Ю., Макарова Н.В. Формирование информационно аналитической компетентности студентов вуза в условиях цифровизации образования // Вестник ТГПУ. — 2021. — №4. — С. 67–72.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING TA’LIM SIFATIGA TA’SIRI VA PEDAGOGIK KONSEPSIYALAR

Latipova Xurshida Abdullayevna - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19633680

Annotatsiya: Ushbu tezisda raqamli texnologiyalarning zamonaviy ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi va uning ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni tahlil qilingan. Tadqiqotda an’anaviy pedagogik yondashuvlarning raqamli transformatsiya sharoitida o‘zgarishi, xususan, konnektivizm va konstruktivizm konsepsiyalari doirasida o‘rganilgan.

Kalit so’zlari: Raqamli texnologiyalar, ta’lim sifati, pedagogik konsepsiya, konnektivizm, raqamli transformatsiya, masofaviy ta’lim, aralash ta’lim, shaxsiylashtirilgan o‘qitish, innovatsion metodika.

Annotation: This thesis analyzes the integration of digital technologies into the modern education system and its role in enhancing the quality of education. The research examines the transformation of traditional pedagogical approaches in the context of digital change, specifically within the frameworks of connectivism and constructivism.

Key words: Digital technologies, quality of education, pedagogical concept, connectivism, digital transformation, distance learning, blended learning, personalized learning, innovative methodology.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shunchaki ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni modernizatsiya qilish vositasi emas, balki jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantiruvchi asosiy drayverga aylandi. Xususan, ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari o‘qitishning mazmuni, shakli va sifat ko‘rsatkichlarini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil, 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni hamda yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish orqali sifatli va inklyuziv bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [1, 12]. An’anaviy pedagogika uzoq yillar davomida “o‘qituvchi — axborot manbai, talaba — passiv qabul qiluvchi” modeliga tayanib keldi. Biroq, axborot oqimining geometrik progressiya bilan o‘sib borishi va bilimlarning tez eskirishi sharoitida ushbu model o‘z samaradorligini yo‘qotmoqda. Raqamli muhitda ta’lim oluvchilarning diqqat-e’tibori, ma’lumotni qabul qilish fiziologiyasi va kognitiv

jarayonlari o‘zgargan. Shunga qaramay, ko‘plab ta’lim muassasalarida texnologiyalardan foydalanish faqatgina “elektron doska” yoki “slaydlar” namoyishi bilan cheklanib qolmoqda. Asosiy muammo — texnologik vositalar va pedagogik konsepsiyalar o‘rtasidagi nomuvofiqlikda namoyon bo‘lmoqda. Ya'ni, zamonaviy gadjetlar bor, lekin ulardan foydalanishning ilmiy-pedagogik metodikasi yetarli darajada takomillashmagan.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim sifatiga ta’sirini pedagogik konsepsiyalar prizmasi orqali tahlil qiladigan bo’lsak. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, quyidagi vazifalar belgilab olishimiz lozim:

1. Raqamli davr uchun yangi pedagogik paradigma hisoblangan konnektivizm nazariyasining mazmun-mohiyatini ochib berish;
2. Texnologiyalarning talaba kognitiv faolligini oshirishdagi rolini konstruktivizm tamoyillari asosida asoslash;
3. Blended Learning (aralash ta’lim) va Flipped Classroom (to‘ntarilgan sinf) kabi modellarning ta’lim sifati ko‘rsatkichlariga (o‘zlashtirish, tahliliy fikrlash, mustaqil ishlash) ta’sirini baholash.

Raqamli ta’limning nazariy asoslari xalqaro miqyosda J.Simons, S.Dauns, R.Mayer kabi olimlar tomonidan fundamental tadqiq etilgan. Mamlakatimizda esa ta’limni axborotlashtirishning metodik jihatlari va pedagogik dasturiy vositalarni yaratish muammolari ustida bir qator mahalliy olimlar tadqiqot olib bormoqdalar. Biroq, aynan raqamli vositalarning ta’lim sifati mezonlariga ta’siri va yangi pedagogik konsepsiyalar bilan integratsiyasi doimiy ilmiy yangilanishni talab qiladigan soha bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy pedagogikada raqamli transformatsiyani asoslovchi uch fundamental nazariya mavjud: Konnektivizm, Ijtimoiy Konstruktivizm va Multimediali ta’lim nazariyasi [2, 7].

XXI asr pedagogikasining eng yirik namoyandalari Jorj Simons va Stiven Dauns tomonidan ilgari surilgan konnektivizm nazariyasi an’anaviy bixeviorizm va kognitivizmdan farq qiladi. Simonsning ta’kidlashicha, “bilim endi faqat inson boshida emas, balki tarmoqlarda taqsimlangan”.

Raqamli muhitda ta’lim sifati talabaning qancha ma’lumotni yodlagani bilan emas, balki quyidagi qobiliyatlari bilan o‘lchanadi:

- Axborot tugunlarini bog‘lash: Turli manbalardan (ma’lumotlar bazasi, ijtimoiy tarmoqlar, kutubxonalar) olingan ma’lumotlarni umumlashtirish.
- Qaror qabul qilish: Axborotning “yangilik darajasi”ni aniqlash (chunki bugun olingan bilim ertaga eskirishi mumkin).
- Tarmoqli savodxonlik: Raqamli ekotizimda o‘zaro hamkorlik qilish va yangi bilimlarni birgalikda yaratish.

Lev Vigotskiyning “ijtimoiy konstruktivizm” g‘oyasi raqamli texnologiyalar yordamida yangi bosqichga ko‘tarildi. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, bilim passiv qabul qilinmaydi, balki ijtimoiy muloqot va amaliy faoliyat jarayonida “quriladi” [6, 82]. Seymur Peypert ushbu nazariyani texnologik muhitga moslashtirib, “Konstruktsionizm” atamasini kiritdi. Uning fikricha, kompyuter va dasturlash vositalari — bu “fikrlash uchun qurollar” hisoblanadi. Talaba raqamli model yaratayotganda, simulyatsiya bilan ishlayotganda yoki loyiha ustida onlayn jamoada ishlayotganda, uning kognitiv rivojlanishi an’anaviy ma’ruza tinglashga

qaraganda bir necha barobar tezlashadi. Bu esa ta’lim sifatini “miqdoriy o‘zlashtirish”dan “sifatli tushunish”ga o‘tkazadi.

Ta’lim sifatini oshirishning psixofiziologik jihatlarini o‘rgangan olim Rixard Mayer **(**o‘zining kognitiv multimediali ta’lim nazariyasini ilgari surgan. Uning ta’kidlashicha, inson axborotni ikki mustaqil kanal — ko‘ruv va eshituv kanallari orqali qabul qiladi [3, 45]. Raqamli texnologiyalar (video, 3D animatsiya, interaktiv infografika) ushbu ikki kanalni bir vaqtda faollashtiradi. Mayerning “Multimedia prinsipi”ga ko‘ra, talabalar matnli ma’lumotga qaraganda, so‘z va rasm uyg‘unligidagi ma’lumotni 50% dan 80% gacha yaxshiroq o‘zlashtiradilar. Bu nazariya ta’lim sifatini ta’minlashda vizualizatsiyaning ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Raqamli texnologiyalarning ta’lim sifatiga ta’sirini faqat nazariy jihatdan emas, balki aniq metodologik modellar va ularning natijalari orqali baholash lozim. Ushbu jarayonda SAMR modeli va TPACK freymvorki asosiy tahlil vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Doktor Ruben Puentedura tomonidan ishlab chiqilgan SAMR (Substitution, Augmentation, Modification, Redefinition) modeli texnologiyaning darsga qanchalik chuqur kirib borganini tahlil qilishga imkon beradi:

1. Almashtirish: Texnologiya an’anaviy vositaning o‘rnini bosadi (masalan, qog‘oz darslik o‘rniga PDF). Sifat o‘zgarishi minimal;
2. Kengaytirish: Vosita funksional yaxshilanadi (masalan, matnga video-havolalar va interaktiv testlar qo‘shiladi);
3. Modifikatsiya: Dars vazifalari sezilarli darajada o‘zgaradi (masalan, talabalar onlayn platformada birgalikda loyiha yozadilar);
4. Qayta belgilash: Ilgari imkonsiz bo‘lgan vazifalar bajariladi (masalan, VR orqali laboratoriya ishini masofadan bajarish).

Ta’lim sifati aynan Modifikatsiya va Qayta belgilash bosqichlarida sakrash hosil qiladi, chunki bu bosqichlarda talabaning tanqidiy fikrlashi va kreativligi maksimal darajada faollashadi [5, 14].

Ta’lim sifatini oshirishda faqat texnologiyaning mavjudligi yetarli emas. Mishra va Koehler tomonidan taklif etilgan TPACK modeli o‘qituvchi uchta bilim sohasini birlashtirishi kerakligini uqtiradi:

- Texnologik bilim (TK): Gadjet va dasturlarni ishlata olish.
- Pedagogik bilim (PK): O‘qitish metodikasini bilish.
- Mazmuniy bilim (CK): O‘z fanini mukammal bilish.

Sifat ushbu uchta soha kesishgan nuqtada (TPACK) yuzaga keladi. Agar o‘qituvchi texnologiyani bilsa-yu, uni qaysi pedagogik metod bilan bog‘lashni bilmasa, ta’lim sifati pasayadi [4, 1024].

Hozirgi kunda “Aralash ta’lim” modeli ham ta’lim sifatini oshirishda eng yuqori natijalarni ko‘rsatmoqda. Buning sababi shundaki, u shaxsiylashtirilgan ta’lim imkonini beradi.

Ko‘rsatkich	**An’anaviy ta’lim**	**Raqamli/Aralash ta’lim**
Bilimni o‘zlashtirish sur’ati	Hamma uchun bir xil (o‘rtacha)	Individual (har kim o‘z tezligida)

Qayta aloqa (Feedback)	Kechikkan (imtihondan so‘ng)	Instant (lahzali, avtomatik)
Materiallar xilma-xilligi	Cheklangan (kitob, ma’ruza)	Cheksiz (video, simulyatsiya, AI)
Talaba faolligi	20-30% (passiv tinglovchi)	70-80% (faollashtirilgan kontent)

Tadqiqotlar natijalari shularni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta’lim sifatini oshirishning sharti emas, balki uning kuchli katalizatorlaridir.

1. Pedagogik ustuvorlik: Texnologiya pedagogik maqsadga bo‘ysunishi shart.

2. Kognitiv yuklama: Raqamli kontent talabani charchatib qo‘ymasligi, balki R.Mayer nazariyasiga ko‘ra uning idrokini osonlashtirishi lozim.

3. Uzluksizlik: Raqamli ta’lim o‘qituvchini tizimdan chiqarib tashlamaydi, balki uning rolini “axborot uzatuvchi”dan “yuqori darajadagi mentor”ga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2020). “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF-6079-son. – 86 b.

2. Siemens, G. (2005). *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age*. International Journal of Instructional Technology. – 16.

3. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia Learning*. 2nd Edition. Cambridge University Press. – 314.

4. Mishra, P., & Koehler, M. J. (2006). *Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge*. Teachers College Record. – 1054.

5. Puentedura, R. R. (2010). *SAMR: A Brief Introduction*. Hippasus Publications. – 25.

6. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press. – 159.

TALABALARDA O’QUV FANLARINI O’ZLASHTIRISH DARAJASINI PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDA YORITILISHI

Z.Sherimbetova[1]., G.Kuandikova[2]. N.Yuldasheva[2] -[1]ITU «Pedagogika va psixologiya» kafedrasi professori., [2]“Psixologiya” ta’lim yo’nalishi 1-bosqich talabalari

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636465

Annotatsiya. Maqolada talabalar o’zlashtirish darajasi fenomeni, o’zlashtirish darajasi tushunchasi shaxs tuzilishining dinamik muvozanati, bo’lajak o’qituvchilarning o’quv-ilmiy faoliyat motivatsiyasini o’rganish orqali shaxs qadriyatlarini saqlab qolishga ahamiyat berish, ularning faoliyatni psixologik jihatdan takomillashtirish mexanizmlari va shaxsda o’zlashtirish darajasini shakllantirish shartlari haqida tushunchalar berilgan.

Annotation. The article provides an understanding of the phenomenon of the level of assimilation of students, the concept of the level of assimilation, the dynamic balance of the structure of personality, the importance of preserving personal values through the study of the motivation of educational and scientific activity of future teachers, the mechanisms of psychological improvement of their activity, and the conditions for the formation of the level of assimilation in the individual.

Kalit so‘zlar: talim psixologiyasi, ta'lim metodlari, mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash, motivatsiya, “o‘quv yutug‘i”, “ta’lim muvaffaqiyati”, “ta’lim samaradorligi”, “akademik muvaffaqiyat”, “o‘rganish samaradorligi”, bilim, ko‘nikma va malaka.

Key words: educational psychology, teaching methods, independent, critical, creative thinking, motivation, "academic achievement," "educational success," "educational effectiveness," "academic success," "learning effectiveness," knowledge, skills, and abilities.

Psixoanalitik ta’limotlarga asosan, o’zlashtirish darajasi tarkibi uchta asosga ega ekanligini ko’rishimiz mumkin: Bular “Id”, “Ego” va “Super ego”. Shu bilan birgalikda, shaxsning ijtimoiylashuv jarayonlarida “Super-ego” belgilangan me’yorlarga qarshi ta’sir ko’rsatadi. Bunday ziddiyatli vaziyatlarda turli darajadagi shaxsning imkoniyatlari bilan, birga “Men” obrazi va uning vazifasi psixologik barqarorlikni ta’minlaydigan himoya mexanizmlarini samarali qo’llashga xizmat qiladi.

Dunyoga mashhur rus fiziologi I.M.Sechenov va uning shogirdlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarida subsensorika, xatti-harakatlarni tartibga solish, shaxslararo munosabatlar, uyqu, gipnoz va o’zlashtirish darajasi asab faoliyati bilan bevosita bog’liq ekanligiga doir tadqiqotlar o’tkazilgan .

Shuningdek, rus psixologiyasida individual ongning kognitiv va intuitiv davomiyligi bilan bog’liq bo’lgan o’zlashtirish darajasi muammosi dolzarb sanaladi. Bilish jarayonlari, individual xususiyatlar, hissiy holatlar, irodaviy sifatlar yig’indisi psixologik barqarorlikning ajralmas komponentlari sanaladi. Biroq, bunday psixologik barqarorlikka doir yondashuvlar doimiy tarzda o’zgaruvchan shart-sharoitlarga javob reaksiyalar natijasida tabiiy ravishda paydo bo’ladigan xulq-atvor og’ishlarida namoyon bo’ladi.

O’zlashtirish darajasi fenomenini tadqiq etgan yana bir taniqli olim E.P.Krupnikning fikricha, xulq-atvorni ongli ravishda boshqarishi va aqliy jihatdan ma’lum darajada zaiflashishi bilan bog’liq hodisa sifatida talqin etgan .

E.P.Krupnik tadqiqotlarida o’zlashtirish darajasi tushunchasi shaxs tuzilishining dinamik muvozanatini ta’minlaydi deb ta’riflaydi. Shu bilan bir qatorda aqliy qobiliyatlar shaxsning o’z xatti-harakatlarini boshqarishi va o’z-o’zini tartibga solishi, moslashuvchanligi va o’zgaruvchanligi bilan izohlaydi. Shaxsning psixologik barqarorligi konsepsiyasining asosini E.P.Krupnik bir qator psixokibernetik tamoyillari bilan tasniflaydi.

O’zlashtirish darajasining asosiy mazmunini uning tabaqalashgan ichki dinamik qobiliyatlari belgilab beradi. Bu dinamika asosida muammoli vaziyatlarda

harakatlanish uchun ko’rsatma sifatida, shuningdek, shaxs tomonidan o’zining ongida oldindan yaratilgan obrazlar ma’lumotlar natijasida aniqlanadi.

Bizningcha, optimallik tamoyili individual ongni shakllantirishda integral, yaxlit bir butunlikni ta’minlaydi. Bunday asosiy jarayonlar shaxsning ichki dinamik xususiyatlarning optimal nisbati bo’lib, u har qanday vaziyatda psixologik barqarorlikni ta’minlaydi. Ushbu omillar bir-biriga o’zaro ta’sir qilishi natijasida yaxlit hodisa sifatida namoyon bo’ladi va o’zlashtirish darajasi ta’minlanadi. Psixologik mexanizmlarga tashqi ta’sirlar qayd etilganda shaxsda yuqori darajadagi barqarorlik qayd etiladi. Bunday sharoitda haddan tashqari irodaviy zo’riqishlar, faoliyat turlarida muvaffaqiyatga erishish va kutilmagan vaziyatlarga operativ moslashish psixologik barqarorlikni yaxshilash imkonini beradi.

Psixologik barqarorlikning uzviy davomiyligini yaxshilashda eng muhim bo’lgan holatlar: empatiya va begonalashuv sanaladi. Psixolog olimlar tomonidan empatiyaning turlarini (emotsional, kognitiv, predikativ) hisobga olgan holda uni empatiya va hamdardlik kabi shakllarga ajratadilar. Shu bilan bir qatorda empatiya bu - hissiy holatning ongli va ongsiz tarkibiy qismlari muhim ahamiyatga ega.

Kognitiv jarayonlarning o’zaro ta’siri borasida samarali tadqiqotlarni olib borgan geshtalt maktabi psixologlari F.Kruglov, K.Levin va boshqalarning ilmiy izlanishlarida keng o’rganilgan.

Psixologik xavfsiz turdagi shaxsning keng qamrovli va qobiliyat nazariyasini V.F.Perevalov tomonidan o’rgangan bo’lib, shaxslararo o’zaro yordam, hamdardlik, rahm-shafqat, an’analarga mos yashashga undaydigan guruhiy motivlarni o’z ichiga oladi. Bunday shaxslar o’zining manfaat va qiyinchiliklarini, atrofdagi shaxslarning zaifligini, tajovuzkorlik holatlarining namoyon bo’lishiga qarshilik ko’rsatadigan shaxs o’zi yashayotgan jamiyat tarixi va an’analarini, shakllangan milliy qadriyatlar va qonunlar tizimini hurmat qilishi, o’zi bilan birga yashayotgan shaxslarning hayoti, sog’lig’i va psixologik xavfsizligi uchun qayg’uradi deb ta’kidlaydi.

Professor B.S.Abdullayevaning empirik tadqiqotlarida bo’lajak o’qituvchilarning o’quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasi, ularning psixofiziologik determinantlari, shunigdek, talabalarning ong ostiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash natijasida zamonaviy psixologik usullarni qo’llash, psixodiagnostika va korreksiya qilishga doir ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ayniqsa, bo’lajak o’qituvchilarning o’quv-ilmiy faoliyat motivatsiyasini o’rganish orqali shaxs qadriyatlarini saqlab qolishga ahamiyat berish, ularning faoliyatni psixologik jihatdan takomillashtirish mexanizmlari ishlab chiqilgan va amaliyotda qo’llanilgan.

Professor Z.T.Nishanova va uning shogirdlarining ilmiy izlanishlarida mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish, kognitiv jarayonlar psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi, talabalarni faollashtiruvchi omillar, mustaqil fikrlashga undovchi interfaol ta’lim metodlari hamda ta’lim jarayonidagi bixevioristik, kognitiv yondashuvlar orqali mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurni shakllantirishning o’ziga xos jihatlari tadqiq qilingan va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan .

V.M.Karimovaning tadqiqotlarida odamlarning o‘quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o‘ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o‘sha insonning o‘zi ham qilgan har bir harakatidan o‘zi uchun naf ko‘radi. Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko‘nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog‘liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo‘lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo‘lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko‘proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog‘lab o‘rganiladi. Qobiliyat - har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o‘z qobiliyatini takomillashtirib borish yo‘lida barcha qiyinchiliklarni yengish va irodasi, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo‘lga kiritiladi deb beriladi.

M.G.Davletshin bunday muhim shaxs xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratib ko‘rsatadi:

qiziquvchanlik, bu yo‘nalishdagi ishlarga faol munosabatda bo‘lish;

mehnatsevarlik, maqsadga intiluvchanlik, mustaqillik, noqulay shart-sharoitlarni yengib o‘tishda irodaviy zo‘r berishga qodirlik;

faoliyat uchun muvofiq keluvchi psixik holatlar (diqqatni jamlab tura olish, ijod zavqini his etish, aqliy zo‘r berishni talab qiluvchi ishdan qoniqish olish, yangilik hissi);

Shaxsda o’zlashtirish darajasini shakllantirish shartlari (mezonlari):

tabiat va shaxsning energiya jihatidan birligini anglash va uning sayyorada, mamlakat, jamiyat, guruh, oilada xavfsiz hayotini yaxshilashdagi rolini alohida tushunish;

quyidagi uch bosqichning xususiyatlarini hisobga olgan holda (insonlar va tabiat bilan) o’zaro munosabatlarning barcha holatlarida eng samarali xatti-harakatlarning amaliy ko’nikmalar va qobiliyatlarni o’zlashtirish, qarama-qarshilik o’zaro obrazlarning o’xshashligi, muvozanat (barqarorlik);

kundalik turmush tarzida ekstremal vaziyatlarda xavfsiz yashash uchun zarur imkoniyatlarni topish uchun maxsus qobiliyatga ega bo’lish.

Yuqorida keltirilgan farqlarni hisobga olgan holda, psixologik barqarorlikni yaxshilash jarayoni ijobiy xususiyatlarni shakllantirish uzoq vaqt davomida shaxsning mavqeiga ta’sir ko’rsatadi. Psixologik barqarorlikni yaxshilash jarayoni qisqa muddatli hayotiy vaziyatlarga ham bog’liq. Shuning uchun kundalik turmush paytida qiyin vaziyatlarning paydo bo’lishi natijasida barqarorlik fenomenining yaqqol xususiyatlari namoyon bo’ladi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, quyidagi tadqiqotlar o’zlashtirish darajasini yaxshilash uchun maxsus pedagogik-psixologik dastur yaratishni (yuqoridagi darajalarning har biri alohida farqlanadi) taqozo etadi. Maxsus pedagogik-psixologik dastur korreksion ta’sirlarning o’ziga xosligini inobatga olgan holda yosh, kasbiy, individual, ijtimoiy, pedagogik-psixologik vaziyatlarda faollik va psixofiziologik omillarni o’z ichiga qamrab oladi. Psixologik jihatdan beqaror shaxslarning xatti-harakatlaridagi farqlar salbiy hissiy-emotsional holatlar paydo

bo’lgandan keyin seziladi. Turli qiyinchiliklarni yengish usullarini izlash, ulardan chiqish usullarini tanlashda ta’sir qilgan omillarni aniqlashdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva B.S. Bo‘lajak o‘qituvchilar o‘quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari: Monografiya. – T.: «Bookmany print» nashriyoti, 2021 y. – 162 b.

2. Сафоев Н.С. Психологические особбеиности националного самосознания студентческой молодежи. Афт. дис. док. пс. н. Т.: 2005 й., - 48 б.

3. Ионина О.С. Проявления индивидуалного стиля учебно-профессионалной деятелности студента / О. С. Ионина. – М.: - 2015. - № 212. - С. 16-20.

4. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. -T.: Sharq, 2000.-78 B.

FANLARARO ALOQADORLIK - BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOGNITIV FAOLLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Jumamuratova Aibaxar Nurmuxanbetovna – University of Innovation Technologies assistent-o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19632524

Annotatsiya: Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda fanlararo aloqadorlikning kognitiv faollikni oshirishdagi o'rni tahlil qilingan. Zamonaviy ta’lim tizimida pedagogik kadrlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda turli fanlar integratsiyasining ta’siri va talabalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish mexanizmlari yoritib berilgan. Fanlararo yondashuv asosida ta’limni tashkil etish o‘quv jarayoni samaradorligini oshirishi va real muammolarni hal etishga qaratilgan kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishini dalillar asosida isbotlangan.

Kalit so‘zlar: fanlararo aloqadorlik, kognitiv faollik, bo‘lajak o‘qituvchilar, kasbiy kompetentlik, integratsiya, pedagogik texnologiyalar, ta’lim sifati, intellektual salohiyat, muammoli ta’lim.

Abstract: The article analyzes the role of interdisciplinary connections in enhancing cognitive activity during the training of future teachers. The impact of integrating various disciplines on the formation of pedagogical staff's professional competence and the mechanisms for developing students' critical thinking skills are highlighted. Evidence substantiates that organizing education based on an interdisciplinary approach increases educational efficiency and develops cognitive skills for solving real-world problems.

Keywords: interdisciplinary connection, cognitive activity, future teachers, professional competence, integration, pedagogical technologies, quality of education, intellectual potential, problem-based learning.

Zamonaviy jamiyatning shiddat bilan rivojlanishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’lim tizimiga keng joriy etilishi hamda global miqyosdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar oliy ta’lim muassasalari oldiga raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va yuqori kognitiv salohiyatga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda. Xususan, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi nafaqat o‘z ixtisoslik fani bo‘yicha chuqur bilimlarni egallashni, balki turli fanlar kesimida fikrlay olish, muammolarga kompleks yondashish va o‘quvchilarda ham shunday ko‘nikmalarni shakllantira olish qobiliyatini talab etadi [5,113]. Ushbu jarayonda fanlararo aloqadorlik ta’lim mazmunini boyituvchi, o‘quv materialini yaxlit bir tizim sifatida idrok etishga xizmat qiluvchi muhim didaktik vosita sifatida maydonga chiqadi.

Kognitiv faollik – bu shaxsning bilish jarayonlariga bo‘lgan ehtiyoji, intellektual salohiyatini namoyon etishi va muammoli vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qila olish darajasidir. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kognitiv faollikni rivojlantirish ularning pedagogik faoliyatdagi ijodkorligini, moslashuvchanligini va o‘z-o‘zini rivojlantirishga bo‘lgan motivatsiyasini belgilab beradi. Ta’limda fanlararo aloqalarga katta ehtiyoj mavjud bo‘lib, ularni izchil va tizimli ravishda amalga oshirish o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va talabalarning dialektik fikrlash tarzini shakllantiradi [4, 16].

Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish va yosh avlodni real hayotga tayyorlashda integrativ yondashuvlarning ahamiyati ortib bormoqda. An’anaviy o‘qitish tizimidan farqli o‘laroq, fanlararo integratsiyaga asoslangan ta’lim talabalarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki ularni amaliyotda qanday qo‘llash sirlarini ham o‘rgatadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolaning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv faolligini oshirishda fanlararo aloqadorlikning o‘rni va ta'sir mexanizmlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Kognitiv faollik tushunchasi insonning bilish faoliyati, xotira, tafakkur, diqqat va idrok kabi psixik jarayonlarining dinamik holatini ifodalaydi. Pedagogika va psixologiya fanlarida kognitiv faollik o‘quvchining shunchaki ma'lumotlarni qabul qilib oluvchi passiv ob'yektdan, balki bilimlarni mustaqil izlab topuvchi, tahlil qiluvchi va amaliyotga tatbiq etuvchi faol sub'yektga aylanishini ko‘zda tutadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kognitiv faollik asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi.

Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, bo‘lajak o‘qituvchilardan talab qilinadigan kompetentlik o‘z bilimini muntazam boyitib borish, zamon yangiliklaridan xabardor bo‘lish, tanqidiy fikr yurita olish va muammoli vaziyatlarni ijobiy hal eta olish kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi [5, 114]. Kognitiv faollik darajasi yuqori bo‘lgan talaba nafaqat berilgan topshiriqlarni aniq bajaradi, balki o‘zlashtirilgan bilimlarni yangi vaziyatlarga ko‘chira oladi, mavjud ma’lumotlar asosida mustaqil xulosalar chiqaradi.

Harvard universitetining “Project Zero” tadqiqot markazi olimi V.Boix Mansilla o‘zining ilmiy izlanishlarida interdisiplinar (fanlararo) o‘rganishning kognitiv-epistemologik asoslarini yoritib, bu yondashuv talabalarda bilimlarni sintez qilish qobiliyatini rivojlantirishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, fanlararo sintez yuqori kognitiv talablarni qo‘yadi va maqsadli o‘qitishni talab qiladi. Bu esa

ikki yoki undan ortiq fanlardagi bilim va fikrlash usullarini yaxshiroq tushunish maqsadida integratsiya qilishni anglatadi [3, 4].

Bo‘lajak o‘qituvchining kognitiv faolligi quyidagi mezonlar orqali namoyon bo‘ladi:

1. **Intellektual tashabbuskorlik:** yangi bilimlarni egallashga bo‘lgan ichki ehtiyoj va qiziqish.
2. **Tahliliy-tanqidiy yondashuv:** o‘zlashtirilayotgan ma'lumotlarni mantiqiy filtrdan o‘tkazish va ob'yektiv baholash.
3. **Ijodiy sintez qobiliyati:** turli manbalardan olingan bilimlarni umumlashtirib, yangi g‘oya yoki yechimlar yaratish.

Fanlararo aloqadorlik – bu turli o‘quv fanlari mazmuni, o‘qitish metodlari va vositalari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik bo‘lib, u ta’lim oluvchilarda olamning yaxlit ilmiy manzarasini shakllantirishga xizmat qiladi. Oliy pedagogik ta’limda bu prinsip talabalarga ixtisoslik fanlarini umumkasbiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uyg‘unlikda o‘zlashtirish imkonini beradi. Ta’lim mazmunini modernizatsiyalashda uning uzviyligini ta'minlash asosiy omillardan biri hisoblanadi. Uzviylik deganda o‘quv materialining ketma-ketligi, tizimli qilib joylashtirilganligi, avval o‘zlashtirilgan bilimlarga tayanish va ularning kelajakda qo‘llanilishi tushuniladi [1, 345].

Olimlar A.M.Sattorov va Sh.S.Qo‘ziyevlar matematika fani o‘qituvchilarini tayyorlashda fanlararo integratsiyaning asoslarini tadqiq etib, o‘quv fanlararo aloqadorlikni ta'minlashga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyati talabalar uchun bir qadar murakkablik kasb etishini, biroq bu jarayon ularning idrok etish faoliyatlarini jadallashtirishini ta'kidlaydilar [1, 346]. Haqiqatan ham, fanlararo aloqadorlikka tayangan holda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, muammoli masalalar yechish va mustaqil ishlash kabi shakllardan foydalanish kognitiv faollikni oshirishning samarali yo‘lidir.

Aloqadorlik turi	**Tavsifi**	**Kognitiv faollikka ta’siri**
Uzviylik	O‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalarning asta-sekinlik bilan kengayib, chuqurlashib borishi.	Xotirani mustahkamlaydi, bazaviy bilimlarni tizimlashtiradi.
Fanlararo aloqadorlik	O‘rganilayotgan materiallarning turli jihatlarini har tomonlama ochib berish.	Keng qamrovli tahlil va taqqoslash ko‘nikmalarini o‘stiradi.
O‘zaro aloqadorlik	Bir fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilimlarni ikkinchi fanda qo‘llash.	Bilimlarni amaliyotga ko‘chirish (transfer) qobiliyatini rivojlantiradi.
Integrativ aloqadorlik	O‘quv dasturiga maqsadli kiritilgan, yuqori darajadagi uzviy birlashuv.	Tizimli tafakkurni, innovatsion va kreativ yondashuvni shakllantiradi.

Jadval 1. Pedagogikada aloqadorlik turlari va ularning kognitiv faollikka ta’siri [1, 346] asosida muallif tomonidan tuzildi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv faolligini oshirishda fanlararo integratsiya bir qator pedagogik va psixologik mexanizmlar orqali amalga oshiriladi:

1. ***Muammoli-integrativ ta’lim texnologiyalarini qo‘llash.*** Talabalarga bitta fanning doirasidan chiqib ketadigan, yechimi bir nechta fanlarga oid bilimlarni talab qiladigan muammoli vaziyatlar taqdim etiladi. Masalan, N.M. Al Husni va N. El Rouadi tomonidan o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etgan holda fanlararo o‘quv dasturini qo‘llash o‘quvchilarning sintez va tanqidiy fikrlash kabi yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarini tezlashtiradi. Tajriba guruhida kognitiv rivojlanish 57% ni tashkil etgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich atigi 10% ni tashkil etgan [2, 34]. Ushbu natijalar shuni tasdiqlaydiki, turli fanlarga oid bilimlarni bir maqsad yo‘lida birlashtirish inson miyasining kognitiv faoliyatini keskin faollashtiradi.

2. ***Loyiha faoliyati va tematik o‘rganish.*** Fanlararo loyihalar ustida ishlash talabalardan turli manbalardan ma'lumotlarni qidirish, tahlil qilish va umumlashtirishni talab qiladi. P. Ye va uning hammualliflari ta’kidlaganidek, fanlararo tematik o‘rganish faoliyatlari talabalarning "4C" (Critical thinking - tanqidiy fikrlash, Communication - muloqot, Collaboration - hamkorlik, Creativity - ijodkorlik) ko‘nikmalarini rivojlantirishga kuchli turtki beradi [6, 2]. Bo‘lajak o‘qituvchilar bunday loyihalarni bajarish orqali o‘zlari ham kelajakda o‘quvchilarni qanday qilib loyiha faoliyatiga yo‘naltirish kerakligini amaliy jihatdan o‘rganadilar.

3. ***Tizimli yondashuv va mantiqiy tafakkurni kengaytirish***. G.B.Daminovaning ta’kidlashicha, o‘qituvchilar kamdan-kam hollarda talabalarni o‘quv materiallarini o‘rganishda fanlararo bilim va ko‘nikmalarni qo‘llash bo‘yicha mustaqil ishlarga jalb qiladilar. Natijada, talabalarning bilimlarni aloqador fanlardan o‘zaro o‘tkazish va sintez qilish qobiliyati rivojlanmaydi [4, 16]. Shu sababli, ta’lim tizimida fanlararo kesimda ham uzluksizlikni ta'minlash muhimdir. Masalan, biologiya o‘qituvchilari talabalarni fizikaviy va kimyoviy tushunchalarga tayanishga undashi ularning mantiqiy tafakkurini sezilarli darajada kengaytiradi.

4. ***Axborot texnologiyalari va raqamli muhit integratsiyasi***. Bugungi kunda elektron o‘quv-metodik majmualar va raqamli platformalar fanlararo aloqadorlikni ta'minlashning eng qulay vositalaridan biriga aylandi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-metodik bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda psixologik-pedagogik va ixtisoslik fanlarini AKT yordamida integratsiya qilish ularning innovatsiya jarayonlariga yo‘nalganligini oshiradi [1, 347]. Virtual laboratoriyalar, interaktiv modellar va gipermatnli darsliklar talabaning kognitiv faolligini vizual va amaliy jihatdan rag‘batlantiradi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda ijtimoiy, uslubiy va ixtisoslik bilimdonligini shakllantirishda ham integrativ yondashuvning o‘rni beqiyosdir. Z.T.Aripov o‘z tadqiqotlarida qayd etganidek, pedagog doimo o‘sib, o‘zgarib boradigan inson

bilan ishlaydi, ularga yondashishda bir xil qolipdan foydalanish mumkin emas, bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni, ya’ni uzluksiz kognitiv faollikni talab qiladi [5, 115].

Xulosa qilib aytganda, fanlararo aloqadorlik bo‘lajak o‘qituvchilarning kognitiv faolligini oshirishning eng muhim, zamonaviy va ta'sirchan omillaridan biridir. Turli fanlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta'minlash orqali talabalarda yaxlit ilmiy dunyoqarash, tanqidiy va mantiqiy tafakkur, muammolarni ijodiy hal etish ko‘nikmalari shakllanadi.

Zero, kognitiv jihatdan faol, turli soha bilimlarini sintez qila oladigan va innovatsion fikrlaydigan o‘qituvchigina kelajak avlodni zamon talablari darajasida, raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sattorov A. M., Qo‘ziyev Sh. S. Matematika fani o‘qituvchilarini tayyorlashda fanlararo integratsiyaning asoslari // Scientific progress. – 2021. – T. 2, № 1. – B. 345-350.

2. Al Husni N. M., El Rouadi N. Interdisciplinary Curriculum Empowers Cognitive Advancement to Solve Real Life Problems // Journal of Education and Learning. – 2016. – Vol. 5, No. 4. – P. 34-42.

3. Boix Mansilla V. Interdisciplinary Learning: A Cognitive-Epistemological Foundation // Project Zero, Harvard Graduate School of Education. – 2016. – P. 1-25.

4. Daminova G. B. Fanlararo aloqalarni tashkil etishda o‘qituvchining roli // Integratsiyalashgan ta’lim va tadqiqotlar jurnali. – 2023. – T. 2, № 4. – B. 15-20.

5. Aripov Z. T. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – T. 2, № 3. – B. 112-118.

6. Ye P. [et al.]. A case study of interdisciplinary thematic learning curriculum // PMC (National Center for Biotechnology Information). – 2023. – P. 1-15.

TALABALARNING METAREFLEKSIV TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Aytmuratov Baxtiyar Turganbayevich - Innovatsion texnologiyalar universiteti dotsenti, p.f.b.f.d (PhD)

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635920

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quv faoliyati jarayonida talabalarning metarefleksiv tafakkurini rivojlantirishga ta’sir etuvchi kognitiv-psixologik mexanizmlar har tomonlama tahlil qilinadi. Metarefleksiv tafakkur talabaning o‘z fikrlash jarayonini kuzatish, baholash va boshqarish qobiliyatini ifodalaydi hamda o‘quv strategiyalarining ongli ravishda tanlanishi, xatolarni anglash, o‘z-o‘zini baholash va bilimlarni qayta ishlash samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotda metakognitiv monitoring, reflektiv tahlil, kognitiv nazorat, intellektual moslashuvchanlik hamda o‘quv motivatsiyasi bilan bog‘liq psixologik jarayonlar

o‘rganiladi. Shuningdek, ta’lim muhitida metarefleksiv tafakkurni shakllantiruvchi pedagogik shart-sharoitlar – o‘qituvchining fasilitativ yondashuvi, muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, reflektiv yozuvlar, raqamli platformalarda o‘z-o‘zini kuzatish vositalari va surunkali tahlil jarayonlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: metarefleksiya, metarefleksiv tafakkur, kognitiv jarayonlar, metakognitiv monitoring, o‘quv faoliyati, reflektiv tahlil, kognitiv-psixologik mexanizmlar, o‘z-o‘zini boshqarish.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the cognitive-psychological mechanisms underpinning the development of metareflective thinking among university students within the learning process. Metareflective thinking refers to the learner’s ability to observe, evaluate, and consciously regulate their own cognitive operations, adjust learning strategies, identify errors, and enhance information processing efficiency. The study explores core psychological components such as metacognitive monitoring, reflective analysis, cognitive control, intellectual flexibility, academic motivation, and self-regulation processes. Additionally, pedagogical factors that foster metareflective thinking—facilitative teaching approaches, problem-based learning tasks, reflective writing activities, and digital self-assessment tools—are examined for their role in enhancing students’ awareness of their learning trajectory.

Keywords: metareflection, metareflective thinking, cognitive processes, metacognitive monitoring, learning activity, reflective analysis, cognitive-psychological mechanisms, self-regulation.

Kirish. Zamonaviy oliy ta’lim tizimi global raqobat, axborot oqimlarining keskin ortishi va ta’lim muhitining murakkablashuvi sharoitida talabaning metarefleksiv tafakkuri — ya’ni o‘z fikrlash operatsiyalarini kuzatish, baholash va tartibga solish qobiliyati — ta’lim samaradorligini ta’minlovchi eng muhim psixologik resurslardan biriga aylanmoqda. Metarefleksiya talabaning o‘quv faoliyatidagi xatolarini anglash, bilimlarni qayta ishlash sifatini oshirish, o‘z-o‘zini baholash mexanizmlarini shakllantirish va o‘quv strategiyalarini ongli ravishda tanlash imkonini beradi.

Metarefleksiv tafakkurning rivojlanishi o‘z-o‘zini boshqarish, metakognitiv monitoring, reflektiv tahlil, intellektual moslashuvchanlik va motivatsion barqarorlik kabi murakkab psixologik jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlar talabalarning akademik mustaqilligi, bilim olishga bo‘lgan mas’uliyati hamda o‘quv faoliyatini samarali tashkil eta olish qobiliyatini belgilab beradi. Ayniqsa raqamli ta’lim texnologiyalari keng joriy etilayotgan bir paytda metarefleksiv tafakkur talabaning o‘z o‘quv yo‘lini anglash, jarayonni tahlil qilish va natijalarni baholash uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shunga qaramay, metarefleksiv tafakkurni shakllantiruvchi aniq kognitiv-psixologik mexanizmlar, ularning ta’lim jarayoniga ta’sir darajasi hamda talabalarda mazkur qobiliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan. Mazkur holat ushbu mavzuning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Shu boisdan ushbu

tadqiqot talabalarda metarefleksiv tafakkurni rivojlantirishga asos bo‘luvchi kognitiv-psixologik mexanizmlarni aniqlash, ularning o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish hamda ta’lim jarayoniga integratsiya qilish imkoniyatlarini belgilashni maqsad qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Metarefleksiv tafakkur tushunchasining shakllanishi metakognitsiya nazariyasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, xorijiy olim J. Flavell (Flavell, 1976, 1979) tomonidan “o‘z fikrlash jarayonlarini nazorat qilish va boshqarish” sifatida izohlangan. U metakognitiv monitoring va metakognitiv nazoratning o‘quv faoliyatidagi ahamiyatini asoslab, inson o‘z tafakkurini anglay olganida o‘quv strategiyalarini ongli tanlashi va xatolarni samarali tuzatishi mumkinligini ta’kidlagan. Shuningdek, J. Dewey (1933) refleksiv fikrlashning o‘z-o‘zini anglashdagi o‘rni haqida yozar ekan, refleksiya insonning bilishga bo‘lgan mas’ulligi va tanqidiy yondashuvini shakllantiruvchi asosiy kognitiv jarayon ekanini ko‘rsatgan.

Rus psixologik maktabi vakillari, xususan, L.S. Vygotskiy, P.Ya. Galperin, A.N. Leontyev va S.L. Rubinshteynlarning asarlari ham metarefleksiv tafakkur tabiati va uning psixologik mexanizmlarini tushunishda muhim o‘rinni egallaydi. Vygotskiy (1934) tafakkurning yuqori psixik funksiyalar orqali shakllanishini, refleksiv nazorat esa ijtimoiy-madaniy tajriba bilan boyitilgan ichki nutq orqali rivojlanishini ta’kidlaydi.

Zamonaviy rus tadqiqotchilari orasida O.A. Konopkin, E.F. Zeer, A.V. Karpov, N.I. Gutkina kabi olimlar metakognitiv jarayonlarni ta’limda o‘rganib, o‘quv faoliyatida ongli nazorat, reflektiv tahlil va strategik fikrlashni rivojlantirish mexanizmlarini empirik asoslab bergan.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida O‘zbekistonlik olimlar — V. Karimova, B. To‘xliyev, M. Davletshin, N. Rajabov, M. Qodirova, X. Yo‘ldoshevlarning ishlari ta’lim jarayonida refleksiv yondashuvning ahamiyatini chuqur asoslaydi. Karimova (2015) talabalarning psixologik yetukligini ta’minlashda o‘z-o‘zini boshqarish, refleksiya va o‘quv motivatsiyasining o‘zaro ta’sirini ko‘rsatadi. Shuningdek, Yo‘ldoshevning ilmiy ishlari shaxsning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda refleksiya va metarefleksiya o‘quv jarayonining ajralmas qismi ekanini asoslaydi.

Xorijiy zamonaviy tadqiqotlarda J. Livingston, A. Bandura, D. Schraw, M. Pintrich, P. Zimmerman singari olimlar metarefleksiyaning o‘z-o‘zini boshqarish (self-regulated learning) bilan integratsiyasini o‘rganib, metakognitiv monitoring, rejalashtirish, strategik qarorlar qabul qilish va reflektiv tahlil talabalarning akademik muvaffaqiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatishini empirik dalillar bilan isbotlaganlar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, metarefleksiv tafakkur murakkab, ko‘p komponentli psixologik jarayon bo‘lib, uning rivoji metakognitiv monitoring, reflektiv tahlil, kognitiv nazorat va motivatsion omillar bilan chambarchas bog‘liq. Mahalliy, rus va xorijiy tadqiqotlar bir nuqtada birlashadi: talabaning o‘z fikrlash jarayonini ongli kuzatish va boshqarish qobiliyati o‘quv faoliyati samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois metarefleksiv tafakkurni shakllantirish ta’lim tizimida ustuvor ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaralmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, metarefleksiv tafakkur faqat kognitiv jarayonlar majmui emas, balki motivatsion va emotsional omillar bilan ham chambarchas bog‘langan. O‘z o‘quv faoliyatini ongli ravishda tahlil qilishga odatlangan talabalarda o‘qishga nisbatan ichki motivatsiya, ma’suliyat hissi, muvaffaqiyatga erishishga yo‘naltirilganlik darajasi yuqoriroq bo‘ladi. Aksincha, refleksiya va metarefleksiyaga kam e’tibor beradigan talabalar ko‘pincha tayyor andozalar asosida yodlashga moyil bo‘lib, bilimlarining chuqurligi va transfer qobiliyati pastligi bilan ajralib turadi. Bu natijalar o‘z-o‘zini boshqariladigan ta’lim, metakognitiv strategiyalar va akademik muvaffaqiyat o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni ta’kidlagan psixologlar (masalan, metakognitiv nazariya vakillari) qarashlarini yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, olingan ma’lumotlar metarefleksiv tafakkur bilan akademik mustaqillik, vaqtni boshqarish, stressni yengish va qaror qabul qilish sifatlari o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Metarefleksiv darajasi yuqori bo‘lgan talabalar nazorat ishlari, imtihonlar va murakkab o‘quv vaziyatlarida o‘z emotsional holatini boshqarish, vaziyatni tahlil qilish va maqbul strategiyalarni tanlashga moyil. Bu esa ularning nafaqat o‘qishdagi, balki kelajakdagi professional faoliyatidagi barqarorligini ta’minlaydi. Shu nuqtai nazardan metarefleksiv tafakkur akademik muvaffaqiyatning ham, psixologik barqarorlikning ham muhim prognostik ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq muhokama jarayonida ayrim cheklovlarni ham inobatga olish zarur. Avvalo, metarefleksiyani baholash uchun qo‘llanilgan metodikalar ko‘proq o‘z-o‘zini hisobot qilish (anketa, so‘rovnoma, reflektiv yozuvlar) asosida tuzilgani tufayli natijalar talabaning sub’ektiv bahosiga qisman bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuningdek, metarefleksiv tafakkur darajasi fanlar kesimida va o‘qitish uslublari turlicha bo‘lgan guruhlarda farq qilishi, ayrim ijtimoiy-madaniy omillar (oila tarbiyasi, maktabdagi avvalgi tajriba, til muhiti va boshqalar) ham sezilarli rol o‘ynashi ehtimoldan xoli emas. Demak, kelgusidagi tadqiqotlarda turli yo‘nalish va kurs talabalari misolida solishtirma tahlillar, uzunlamasına (longityud) kuzatuvlar hamda aralash metodlar (sifat va miqdoriy yondashuvni birlashtirgan)dan kengroq foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. O‘rganilgan nazariy va empirik adabiyotlar metarefleksiyani shakllantirishda metakognitiv monitoring, reflektiv yozuvlar, muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, raqamli analitik vositalar va o‘qituvchining fasilitativ pozitsiyasi muhim determinantlar ekanini tasdiqlaydi. Ushbu omillar ta’lim jarayoniga integratsiya qilinganda talabalarda o‘z o‘quv jarayonini idora qilish, maqsadli yondashuvni shakllantirish va motivatsion barqarorlikni mustahkamlash imkoniyati kuchayadi.

Shu sababli, metarefleksiv tafakkurni rivojlantirish nafaqat o‘quv samarasini oshiradi, balki kelajak mutaxassislarining intellektual yetukligi, kasbiy moslashuvchanligi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Ta’lim jarayoniga metarefleksiv yondashuvlarni tizimli joriy etish bugungi kunda yuqori ta’limning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Morosanova, V. I. Личностная саморегуляция и стиль саморегуляции поведения. – Москва: Наука, 2010. – 284 с.

2. Метакогниция в обучении: теория и практика / под ред. А. В. Карпова. – Москва: РАО, 2004. – 368 с.

3. Карпов, А. В., Скитяева, И. М. Психология метакогнитивных процессов. – Москва: ИП РАН, 2002. – 207 с.

4. Йўлдошев, Ж. Г., Усмонов, С. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2004. – 176 b.

5. Karimova, V. Psixologiya: Umumiy kurs. – Toshkent: Universitet, 2010. – 420 b.

6. Ostonova, D. Metakognitiv ko‘nikmalar va o‘quv motivatsiyasi o‘rtasidagi bog‘liqlik // O‘zbekiston Psixologiya Jurnali. – 2021. – №2. – B. 45–56.

TALABALARDA METAREFLEKSIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH VA UNING O‘QUV FAOLIYATIGA TA’SIRI

Aytmuratov Baxtiyar Turganbaevich - Innovatsion texnologiyalar universiteti dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)

Nurimbetova Maftuna Ikrom qizi - Innovatsion texnologiyalar universiteti 1-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635888

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda metarefleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish va uning samaradorligiga ta’siri empirik asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda reflektiv ta’lim texnologiyalari, muammoli topshiriqlar, o‘z-o‘zini baholash va metakognitiv mashqlar asosida metarefleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari o‘rganildi. Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi taqqoslovchi tahlil metarefleksiv ko‘nikmalarni maqsadli shakllantirish talabalarning o‘quv motivatsiyasi, tanqidiy fikrlashi va akademik natijalarining barqarorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Olingan natijalar reflektiv yondashuvni oliy ta’lim amaliyotiga keng joriy etish zaruratini asoslaydi hamda talabalarning mustaqil ta’limga tayyorgarligini kuchaytirish uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Kalit so‘zlar: metarefleksiya, metarefleksiv ko‘nikmalar, reflektiv ta’lim, metakognitsiya, o‘quv faoliyati, ta’lim samaradorligi.

Abstract. In this article, the formation of meta-reflexive skills in students and its impact on effectiveness are analyzed empirically. The study examined the possibilities of developing meta-reflexive skills based on reflexive learning technologies, problem tasks, self-assessment, and metacognitive exercises. Comparative analysis between the experimental and control groups showed that the targeted formation of meta-reflexive skills significantly increases students' learning motivation, critical thinking, and the stability of academic results. The obtained results justify the need for the widespread introduction of the reflexive approach into the practice of higher education and allow the development of

methodological recommendations for strengthening the readiness of students for independent learning.

Key words: metareflection, metareflective skills, reflective learning, metacognition, learning activity, learning effectiveness.

Kirish. Metarefleksiya shaxsning o‘z bilish jarayonlarini anglash, ularni tahlil qilish, rejalashtirish, monitoring qilish va natijalarni baholash orqali faoliyat strategiyalarini ongli ravishda boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Bu jarayon metakognitiv regulatsiya, refleksiya va o‘z-o‘zini baholash mexanizmlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, talabaning o‘quv faoliyatida subyekt sifatida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Metarefleksiv ko‘nikmalari rivojlangan talaba bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki o‘z o‘rganish jarayonini rejalashtiruvchi, nazorat qiluvchi va takomillashtiruvchi faol subyektga aylanadi.

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim jarayonida talabalarda metarefleksiv ko‘nikmalar ko‘pincha spontan va tizimsiz shakllanadi. Ta’limning an’anaviy modellari ko‘proq bilimni uzatishga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘quv jarayonining reflektiv tahlili, o‘z-o‘zini baholash va metakognitiv mashqlar yetarli darajada joriy etilmaydi. Natijada, ko‘plab talabalar o‘quv vazifalarini bajarishda rejalashtirish, xatolarni tahlil qilish va strategiyalarni moslashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi, bu esa o‘quv faoliyati samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Shu sababli, metarefleksiv ko‘nikmalarni maqsadli shakllantirish va ularning o‘quv faoliyati samaradorligiga ta’sirini empirik asosda o‘rganish muhim ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Reflektiv ta’lim texnologiyalarini joriy etish, muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni qo‘llash, o‘z-o‘zini baholash va monitoring mexanizmlarini rivojlantirish orqali talabalarda metarefleksiv rivojlanishni ta’minlash mumkin. Bunday yondashuv nafaqat akademik natijalarni yaxshilashga, balki talabalarning mustaqil ta’limga tayyorgarligini kuchaytirishga ham xizmat qiladi.

Shu asosda, mazkur tadqiqot talabalarda metarefleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni va ularning o‘quv faoliyati samaradorligiga ta’sirini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, oliy ta’lim amaliyotida reflektiv yondashuvni takomillashtirish uchun muhim nazariy va metodik asos yaratishni maqsad qiladi.

Xorijiy tadqiqotlarda metarefleksivlik ko‘pincha o‘zini-o‘zi boshqarib o‘rganish (self-regulated learning, SRL) bilan integratsiyada ko‘riladi. B. Zimmerman SRLni talabaning maqsad qo‘yishi, strategiya tanlashi, o‘z faoliyatini monitoring qilishi va natijani baholashi orqali o‘qishni ongli boshqarish tizimi sifatida yoritadi; bu yondashuvda metarefleksiv ko‘nikmalar o‘quv muammolarini yechishda “faol subyekt” pozitsiyasini mustahkamlovchi mexanizm sifatida talqin etiladi. Metakognitsiyaning o‘quv natijalariga ta’siri faqat kognitiv nazorat bilan cheklanmasligi, balki motivatsiya va affektiv holatlar bilan ham uzviy bog‘liqligi Efklidesning MASRL modeli orqali chuqurlashtiriladi: unda metakognitiv monitoring va nazorat talabaning motivatsiyasi hamda emotsional tajribasi bilan o‘zaro ta’sirda o‘qish samaradorligini belgilashi ko‘rsatiladi.

Rus ilmiy maktabida metarefleksivlik va metakognitiv regulatsiya masalalari ko‘proq faoliyatni boshqarish, refleksiv regulyatsiya va metatayakkur kontekstida ishlab chiqilgan. A. V. Karpov refleksiv mexanizmlarni faoliyatning strukturaviy va jarayoniy tashkil topishi bilan bog‘lab tahlil qiladi; refleksivlikni psixik xususiyat sifatida ham, uni diagnostika qilish yo‘llari orqali ham asoslaydi. Bu yondashuv metarefleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishda “tashqi boshqaruvdan ichki boshqaruvga” o‘tish jarayonini tushuntirish uchun muhim nazariy tayanch beradi.

Umuman olganda, rus va xorijiy adabiyotlar tahlili metarefleksiv ko‘nikmalarni shakllantirishga doir uchta yirik ilmiy yo‘nalishni ajratishga imkon beradi: (1) metakognitsiya va kognitiv monitoring nazariyasi (metarefleksiyaning psixologik mexanizmlari), (2) SRL va reflektiv ta’lim texnologiyalari (shart-sharoit, didaktik vositalar, feedback va formatif baholash), (3) diagnostika va samaradorlikni baholash (komponentlar, instrumentlar, empirik dizayn). Shu mantiqda, talabalarda metarefleksiv ko‘nikmalarni amaliy shakllantirish bo‘yicha eng istiqbolli yondashuv reflektiv ta’lim muhitini yaratish, mezonli o‘z-o‘zini baholashni yo‘lga qo‘yish, sifatli qayta aloqa va metakognitiv mashqlarni tizimli qo‘llash orqali rejalashtirish–monitoring–baholash siklini barqaror pedagogik amaliyotga aylantirishdan iborat ekani adabiyotlarda konseptual jihatdan asoslangan.

Muhokama. Olib borilgan tadqiqot natijalari talabalarda metarefleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda muhim psixologik-pedagogik omil ekanligini yaqqol ko‘rsatdi. Metarefleksiv rivojlanish talabaning bilish jarayonlarini ongli boshqarish, o‘quv strategiyalarini rejalashtirish, bajarish jarayonini monitoring qilish va natijalarni tanqidiy baholash mexanizmlarining uyg‘unlashuvi orqali namoyon bo‘ldi. Shu jihatdan, tadqiqot natijalari metakognitsiya va o‘zini-o‘zi boshqarib o‘rganish nazariyalarida ilgari surilgan konseptual g‘oyalarni empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Muhokama jarayonida aniqlanganki, metarefleksiv ko‘nikmalarning rivojlanishi tasodifiy yoki faqat tabiiy o‘sish natijasi emas, balki maxsus tashkil etilgan pedagogik shart-sharoitlarning bevosita mahsulidir. Reflektiv ta’lim texnologiyalarini joriy etish, muammoli topshiriqlar asosida o‘qitish, o‘z-o‘zini baholash va monitoring mexanizmlarini tizimli qo‘llash talabalarda o‘quv faoliyatiga ongli munosabatni shakllantirdi. Bu holat metarefleksiv rivojlanishning “tashqi boshqaruvdan ichki regulyatsiyaga o‘tish” jarayoni sifatida talqin qilinishini asoslaydi.

Tajriba guruhida rejalashtirish, monitoring, o‘z-o‘zini baholash va metakognitiv ongliylik ko‘rsatkichlarining barqaror oshishi talabalarda o‘quv jarayonining strukturasi va mantiqini anglash darajasi sezilarli kuchayganini ko‘rsatadi. Metarefleksiv ko‘nikmalari rivojlangan talabalar o‘quv vazifalarini bajarishda strategik yondashuvni qo‘llay boshladi, xatolarni tasodifiy hodisa emas, balki rivojlanish manbai sifatida qabul qildi va o‘z faoliyatini doimiy qayta qurishga intildi. Bu holat ta’lim jarayonida subyektiv faollikning oshishi bilan bevosita bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi.

Nazorat guruhida kuzatilgan minimal o‘zgarishlar esa muhim ilmiy xulosaga olib keladi: metarefleksiv ko‘nikmalar o‘z-o‘zidan yetarli darajada shakllanmaydi, balki faqat maqsadli pedagogik ta’sir orqali barqaror rivojlanadi. Bu natija an’anaviy bilim uzatishga yo‘naltirilgan ta’lim modellari metarefleksiv rivojlanish uchun yetarli sharoit yaratmasligini ko‘rsatadi. Demak, reflektiv komponentlarni ta’lim mazmuni va metodikasiga tizimli kiritish zaruriyati ilmiy jihatdan asoslanadi.

Muhokama davomida aniqlangan yana bir muhim jihat shundaki, metarefleksiv ko‘nikmalarning rivojlanishi nafaqat akademik natijalarga, balki talabalarning o‘quv motivatsiyasi, o‘ziga ishonchi va mustaqil ta’limga tayyorgarligiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Metarefleksiv ko‘nikmalari rivojlangan talabalar o‘z muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligini tashqi omillar bilan emas, balki o‘z strategiyalari va harakatlari bilan bog‘lashga moyil bo‘lib, bu esa ichki motivatsiyaning kuchayishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, muhokama natijalari talabalarda metarefleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishning samarali pedagogik vositasi ekanligini ilmiy asosda tasdiqlaydi. Reflektiv ta’lim texnologiyalarini oliy ta’lim amaliyotiga tizimli joriy etish nafaqat bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga, balki mustaqil, o‘z-o‘zini boshqaruvchi va kasbiy jihatdan yetuk mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari talabalarda metarefleksiv ko‘nikmalarni shakllantirish oliy ta’lim tizimida o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishning muhim va barqaror psixologik-pedagogik omillaridan biri ekanligini ilmiy asosda tasdiqladi. Metarefleksiya talabaning o‘z bilish jarayonlarini anglash, ularni rejalashtirish, monitoring qilish va natijalarni baholash orqali o‘z o‘rganish strategiyalarini ongli ravishda boshqarish qobiliyatini ifodalovchi yuqori darajali mexanizm sifatida namoyon bo‘ldi. Bu mexanizm talabaning bilimni passiv qabul qiluvchidan o‘z o‘rganish jarayonining faol subyektiga aylanishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. Dunlosky, J.; Metcalfe, J. Metacognition. – Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2009. – 334.

2. Карпов, А. В. Психология рефлексивных механизмов деятельности: монография. – Москва: Изд-во Института психологии РАН, 2004. – 421.

3. Карпов, А. В. Рефлексивность как психическое свойство и методика ее диагностики // Психологический журнал. – 2003. – Т. 24, № 5. – С. 45–57.

4. Моросанова, В. И. Саморегуляция и индивидуальность человека: монография. – Москва: Наука, 2010. – 519с.

5. Зимняя, И. А. Педагогическая психология: учебник для вузов. – Москва: Логос, 2000. – 384.

DEVIANT XULQ-ATVORLI O‘SMIRLARNING ILMIY IJODKORLIGINING PSIXOLOGIK ADABIYOTLARDAGI TAHLILI

Dauletmuratova Eliza Allambergenovna - Innovatsion texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi

Orazbaeva Gulnara Berdaxovna - Innovatsion texnologiyalar universiteti 3-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636341

Annotatsiya. Ushbu tezisda deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ilmiy ijodkorligi muammosi psixologik adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda ijodiylik tushunchasining shakllanishi, uning intellekt bilan bog‘liqligi hamda zamonaviy psixologik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, deviant xulq-atvorli o‘smirlarning psixologik xususiyatlari, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish orqali ijtimoiy moslashuvini yaxshilash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Deviant xulq-atvor, o‘smirlar, ilmiy ijodkorlik, ijodiy fikrlash, psixologik tadqiqot, psixokorreksiya, shaxs rivojlanishi, innovatsion metodlar.

Abstract. This abstract analyzes the problem of scientific creativity in adolescents with deviant behavior based on a review of psychological literature. The study explores the formation of the concept of creativity, its relationship with intellect, and contemporary psychological approaches. Furthermore, it examines the psychological characteristics of adolescents with deviant behavior and the potential to improve their social adaptation by developing their creative abilities.

Keywords. Deviant behavior, adolescents, scientific creativity, creative thinking, psychological research, psychocorrection, personality development, innovative methods.

Kirish. Bugungi kunda deviant xulq-atvorli o‘smirlarning psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish masalasi psixologiya va pedagogika fanlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda o‘smirlarning ijtimoiy moslashuvi, ularning shaxs sifatida shakllanishi hamda ijobiy hayotiy yo‘nalishlarni tanlashi ko‘p jihatdan ularning ichki psixologik imkoniyatlari, xususan, ijodiy fikrlash darajasi bilan belgilanadi. Shu sababli, deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ichki resurslarini aniqlash va ularni konstruktiv yo‘nalishga yo‘naltirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Psixologik adabiyotlarda ijodkorlik masalasi uzoq yillardan buyon turli nazariy yondashuvlar asosida keng o‘rganilib kelinmoqda. Ijodkorlik dastlab inson aqliy qobiliyatlarining yuqori darajasi bilan bevosita bog‘liq hodisa sifatida talqin qilingan. Xususan, D.Veksler, R.Vaysberg, G.Ayzenk va T.Tardif kabi taniqli olimlarning tadqiqotlarida ijodiylik inson intellektual rivojlanishining bir qismi sifatida ko‘rib chiqilib, aql darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ijodiy salohiyat ham shunchalik yuqori bo‘lishi mumkinligi haqida ilmiy xulosalar ilgari surilgan. Bu yondashuv ijodkorlikni asosan kognitiv jarayonlar bilan bog‘lab tushuntirishga asoslangan bo‘lib, ijodiy fikrlashning intellektual omillarini markaziy o‘ringa qo‘yadi.

Asosiy qism. Psixologik adabiyotlarda ijodiylik tushunchasi XX asr o‘rtalaridan boshlab mustaqil ilmiy kategoriya sifatida shakllana boshladi va keyinchalik alohida tadqiqot yo‘nalishiga aylandi. Dastlab ijodiylik asosan inson intellektual faoliyatining bir qismi sifatida talqin qilingan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan uning murakkab va ko‘p qirrali psixologik hodisa ekanligi tobora yaqqol

namoyon bo‘la boshladi. Bu jarayon ijodkorlikni faqat aqliy qobiliyatlar bilan emas, balki shaxsning emotsional, motivatsion hamda ijtimoiy omillari bilan ham bog‘liq holda o‘rganish zaruratini yuzaga keltirdi.

Mazkur yo‘nalishning rivojlanishida J. P. Guilford va E. P. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan psixometrik yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning ilmiy izlanishlari ijodiylikni empirik jihatdan o‘rganish, uni o‘lchash va baholash imkonini beruvchi aniq metod va testlar tizimini yaratishga asos bo‘ldi. Ayniqsa, Guilford o‘zining intellekt strukturasi nazariyasi doirasida divergent fikrlash tushunchasini ilgari surib, ijodiy fikrlashni muammoni bir nechta turli yo‘llar bilan hal qilish qobiliyati sifatida talqin qildi.

Psixologik tadqiqotlarda deviant xulq-atvorli o‘smirlar, odatda, ijtimoiy me’yorlar va qabul qilingan xulq-atvor qoidalaridan chetga chiqishi bilan tavsiflanadi. Bunday o‘smirlarning xatti-harakatlari ko‘pincha tashqi muhit bilan moslashuvdagi qiyinchiliklar, ichki ziddiyatlar va emotsional beqarorlik bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu bilan birga, zamonaviy psixologik yondashuvlar deviant xulq-atvorni faqat salbiy hodisa sifatida emas, balki ma’lum sharoitlarda yuqori ijodiy salohiyat bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan murakkab psixologik jarayon sifatida talqin etadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, deviant xulq-atvorli o‘smirlar orasida yuqori darajadagi ijodiy qobiliyatga ega bo‘lgan shaxslar ham uchraydi. Ularning noodatiy fikrlashi, muammolarga original yondashuvi va standartlardan tashqarida fikrlash qobiliyati ijodiy salohiyatning muhim ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Ijodiy fikrlash bunday o‘smirlarga muammolarni yangi usullar bilan hal qilish, murakkab vaziyatlarda alternativ yechimlarni topish hamda o‘z ichki ziddiyatlarini yengish imkonini beradi. Shu bilan birga, ijodiy faoliyat ularning o‘zini ifoda etish ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi va ichki kechinmalarni konstruktiv tarzda namoyon etishga yordam beradi.

Z. Qosimova va Sh. Akramova esa yoshlarni deviant g‘oyalarga qarshi tayyorlashda samarali pedagogik usullar va vositalarni ishlab chiqqanlar. Ularning tadqiqotlarida o‘quvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu yondashuvlar yoshlarning salbiy g‘oyalar ta’siriga tushib qolishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

S. Otamuratov va M. Yuldasheva o‘z tadqiqotlarida deviant axborotlar, “ommaviy madaniyat” hamda zamonaviy mafkuraviy tahdidlarning yoshlar ongiga ko‘rsatadigan ta’sirini keng qamrovda o‘rganib chiqqanlar. Ularning ilmiy izlanishlarida axborot makonida tarqalayotgan salbiy g‘oyalar yoshlarning dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi va xulq-atvoriga qanday ta’sir ko‘rsatishi masalalari chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotlarda “ommaviy madaniyat” hodisasi yoshlar ongiga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida qaralib, uning ijobiy hamda salbiy jihatlari ajratib ko‘rsatildi. Salbiy ta’sir sifatida axloqiy qadriyatlardan uzoqlashish, iste’molchilik kayfiyatining kuchayishi, individualizm va beparvolik kabi xususiyatlarning shakllanishi qayd etilgan. Shu bilan birga, bu tadqiqotlarda yoshlar ongida sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish, milliy

qadriyatlarni mustahkamlash va mafkuraviy immunitetni rivojlantirish zarurligi ta’kidlangan.

M. Yuldasheva o‘z ilmiy ishlarida deviant axborotlar va mafkuraviy tahdidlarning tarixiy o‘zgaruvchan xususiyatlarini tahlil qilib, ularning zamonaviy axborot jamiyatidagi yangi ko‘rinishlarini ochib bergan. Shu bilan birga, u yoshlar orasida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, oila, ta’lim muassasalari va ommaviy axborot vositalarining bu boradagi o‘rnini yoritib bergan. Tadqiqotda, shuningdek, yoshlarning deviant axborotlar ta’siriga tushib qolishini oldini olish uchun kompleks pedagogik yondashuv zarurligi asoslab berilgan.

Xulosa. Psixologik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ilmiy ijodkorligi ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim va hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ijodiy fikrlash jarayoni o‘smirlarga o‘z xatti-harakatlarini chuqur tahlil qilish, muammoli vaziyatlarni turli yondashuvlar asosida hal etish hamda o‘z xulqini ongli ravishda boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa ularning kognitiv faoliyatini faollashtiradi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Ijodiylik deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ichki ziddiyatlarini bartaraf etishda muhim psixologik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ijodiy faoliyat orqali ular o‘z hissiyotlarini konstruktiv tarzda ifodalashni o‘rganadilar, bu esa hissiy barqarorlikni ta’minlashga va psixologik muvozanatni saqlashga xizmat qiladi. Natijada, o‘smirlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi, ichki resurslari faollashadi hamda ular o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashni o‘rganadilar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Айзенк Г.Ю. Понятие и определение интеллекта// Вопросы психологии. – М.: 2009, – № 1. – С. 111-129.

2. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Mayer–Salovey–Caruso Emotional Intelligence/ Test (MSCEIT) user's manual. – Toronto: MHS Publishers, 2002, – 93 p.

3. Guilford J .P., Christensen P.R. The one -way relation between creative potential and JQ. Journal of Creative Behaviour. Buffalo (N.-Y.) 2019. Vol. 7. No 4. P. 247-252.

4. Богоявленская Д.Б. «Субъект деятельности» в проблематике творчества //Вопросы психологии. - 1999. - №2. - С. 35-41.

5. Guilford J.P. A Psychometric Approach to Creativity, Mimeographed, University of Southern California, Mar., 2012. // Guilford J.P. The structure of intelligence// Psychol. Bull. 2017. N 53. P. 267-293.

6. Савенков А.И. Детская одаренность: развитие средствами искусства. - М.: Педагогическое общество России, 2017. - 220 с.

7. Богоявленская Д.Б. Интеллектуальная активность как проблема творчества. - Ростов-на-Дону, 1983. -173 с.

8. Ravshanov F. “Ma'naviy va g‘oyaviy taraqqiyotiga tahdidlar” Respublika milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. T.:2010, – B.19,22.

9. Qosimov U.A. “Komil insonning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari”: p.f.n. .diss. avtoref. – T.: 2004, - 132 b.

10. Akramova Sh. “Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish” “Muharrir” nashriyoti T.: 2012,-126 b.

11. Abdujabborova M.L. O‘smirlar orasida mafkuraviy profilaktika ishlarining ijtimoiy-pedagogik asoslari" PhD., dis. autf. T: OPFITI, 2007, - B.22.

O‘QUVCHILAR EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Bisekova Sarbinaz Tolebaevna - University of Innovation Technologies assistent o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19630788

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘quvchilar emotsional intellektini rivojlantirishning psixologik asoslari, uning tarkibiy qismlari va shaxs shakllanishidagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda emotsional intellekt shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish hamda boshqalar bilan samarali muloqotga kirishish qobiliyati sifatida o‘rganilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy va akademik muvaffaqiyatini ta’minlashda emotsional intellektning psixologik mexanizmlari va metodologik yondashuvlari bayon etilgan.

Abstract: This article analyzes the psychological foundations of developing emotional intelligence in students, its components, and its role in personality formation. The study examines emotional intelligence as the ability to perceive and manage one's own emotions, as well as to engage in effective communication with others. Furthermore, it describes the psychological mechanisms and methodological approaches of emotional intelligence in ensuring the social and academic success of students.

Kalit so‘zlar: emotsional intellekt, psixologik asoslar, o‘quvchi shaxsi, empatiya, hissiy anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, ijtimoiy muvaffaqiyat, muloqot qobiliyati.

Keywords: emotional intelligence, psychological foundations, student personality, empathy, emotional awareness, self-regulation, social success, communication skills.

Emotsional intellektni rivojlantirish masalasi psixologik adabiyotlarda keng qamrovli mavzulardan biri bo‘lib, uning asosiy mazmuni shaxsning his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, boshqalarning hissiy holatini tushunish hamda samarali munosabatlar qurish qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Ushbu tushuncha shaxsning hissiy va ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan muhim omil sifatida qaraladi.

Emotsional intellekt insonning hissiy tajribasi va muloqot qobiliyatlarini uyg‘unlashtirish orqali o‘z-o‘zini anglash va boshqarish jarayonlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu tushuncha nafaqat shaxsiy hayotda, balki ijtimoiy faoliyatda ham muvaffaqiyat qozonishning asosi sifatida e’tirof etiladi. Psixologik tadqiqotlar emotsional intellektni rivojlantirishning yosh davrlariga xos xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratgan. Ayniqsa, o‘quvchilik davri hissiy barqarorlik va empatiya rivoji uchun hal qiluvchi davr hisoblanadi.

Shaxsning hissiy-intellektual salohiyati bolalik davridan boshlab shakllanadi va uni rivojlantirish maxsus psixologik-pedagogik sharoitlarni talab qiladi. Shu sababli, ta’lim va tarbiya tizimida emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan usul va yondashuvlar taklif etilgan.

O‘quvchilik davri shaxsning individual xususiyatlari va ijtimoiy tajribalarining shakllanishida asosiy bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda emotsional barqarorlik va empatiya kabi muhim sifatlar rivojlanadi, bu esa ularning jamiyatda moslashish qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik adabiyotlarda emotsional intellektni rivojlantirishning ichki va tashqi omillari keng o‘rganilgan. Ichki omillar shaxsning individual xususiyatlari, hissiy sezgirligi va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatiga bog‘liq bo‘lsa, tashqi omillar ta’lim-tarbiya, oilaviy muhit va ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Ushbu omillar uyg‘un bo‘lganda, emotsional intellekt rivojlanishi tezlashadi, aksincha, noqulay muhit shaxsning hissiy intellektini to‘laqonli rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Shuningdek, emotsional intellektni rivojlantirishda pedagogik va psixologik metodlarning ahamiyati katta. Bu jarayon ko‘pincha maxsus treninglar, muloqot mashg‘ulotlari, rolli o‘yinlar va boshqa interaktiv metodlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu yondashuvlar nafaqat o‘quvchilarning his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi, balki ularda ijtimoiy muloqot malakalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Emotsional intellektni rivojlantirish masalasi o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanish jarayonida hissiy barqarorlik, empatiya, ijtimoiy muloqot va o‘zaro munosabatlar sifatlarini yaxshilashga qaratilgan muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon o‘quvchilik davrida intensiv ravishda kechadi, chunki bu davrda hissiy holatlar va ijtimoiy munosabatlarga ta’sir qiluvchi omillar sezilarli darajada kuchayadi. Bu yoshdagi emotsional intellektning rivojlanishi keyingi shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyatga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt shaxsning hayotiy tajribalari orqali rivojlanadi va uni maxsus metodlar yordamida shakllantirish mumkin. Masalan, o‘quvchilarni his-tuyg‘ularni aniqlash, nomlash va boshqarishga o‘rgatish ularda stressni yengish va murakkab vaziyatlarda samarali yechim topish qobiliyatini oshiradi. Ushbu jarayonni tizimli ravishda tashkil etish uchun maxsus dasturlar va treninglar ishlab chiqilgan bo‘lib, ular hissiy xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qiladi. Emotsional intellektni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biri bu shaxsning ijtimoiy muhitga moslashish qobiliyatidir. O‘quvchilar uchun bu o‘z tengdoshlari bilan munosabatlar o‘rnatish, jamoaviy faoliyatda ishtirok etish va murakkab ijtimoiy vaziyatlarni hal qilish qobiliyatini anglatadi. Psixologlar ta’kidlashicha, yuqori darajada rivojlangan emotsional intellekt o‘quvchilarga stressli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish va salbiy hissiy holatlarni yengib o‘tishda yordam beradi.

Bundan tashqari, emotsional intellektning rivojlanishi shaxsning akademik muvaffaqiyatlari va kelgusidagi kasbiy faoliyatida ham muhim rol o‘ynaydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekti yuqori bo‘lgan shaxslar ish

joyida samarali muloqot qilishi, konfliktlarni hal etishi va jamoa bilan muvaffaqiyatli ishlashi ehtimoli yuqori bo‘ladi. Shu sababli, ushbu masalaning nazariy jihatlarini o‘rganish nafaqat psixologiya, balki ta’lim tizimi uchun ham dolzarbdir.

Avvalambor, emotsional intellekt tushunchasi mohiyatini anglash masalasida o‘ziga xos yondoshuv mavjud bo‘lib, unda ushbu fenomenning qo‘llanilish evolyusiyasini hisobga olish ahamiyatli sanaladi. Quyida emotsional intellekt tushunchasining psixologiya fanida e’tirof etilishi bilan bog‘liq ayrim xronologik bosqichlarga e’tibor qaratamiz.

Gumanistik psixologiya maktabining mashhur vakillaridan biri Abraxam Maslou, 1950 yilda “o‘zini o‘zi faollashtirish” tushunchasini fanga kiritgach, g‘arb psixologiyasida “insonparvarlik” yanada ortdi. Shaxsni tadqiq qilishda jiddiy integrallik, ya’ni inson tabiatiga xos “kognitiv” va “affektiv” jihatlar uyg‘unligi keng e’tiborga olindi[2, 411]. Demak, o‘zini o‘zi faollashtrish xususiyati bu, emotsional intellektga xos bo‘lgan tarkibiy elementlardan biridir. Mazkur tarkibiy tayanch mezon emotsional intellektni shakllantirishda xizmat qiladi.

Keyinchalik, tadqiqotchi Reven Bar–On 1985 yilda ilk bor EQ-emotional quotinent, emotsionallik koeffitsienti va shunga mos tarzda IQ-intellekt koeffitsienti tushunchasini fanga kiritdi. Muallifning bunday ishlari, emotsional intellektni tadqiq etishning amaliy masalalari uchun katta imkoniyat yaratdi.

P.Solovey va Dj.Mayersslar nazarida, emotsional intellekt – bu tuyg‘ularda ifodalanuvchi shaxsning qabul qilish va tushunish qobiliyatini, hissiy ifodalarni boshqarish qobiliyatini kabilarni anglatib, uning mazmuni to‘rt asos orqali tushuntiriladi [1, 240]:

-Emotsiyalarni his qilish yoki qabul qilish qobiliyati ya’ni o‘zini va o‘zgalarning emotsiyalarni his qilish yoki tan olish qobiliyati;

-Aqlga yordam beruvchi o‘z emotsiyalarini yo‘naltirish qobiliyati;

-U yoki bu emotsiyalar ifodalarini tushunish qobiliyati;

-Emotsiyalarni boshqarish qobiliyati.

Yuqorida tadqiqotchilar tomonidan tasnif etilgan har bir komponentlar, emotsional intellekt namoyon bo‘lishining asosiy omillari hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, emotsional intellektni rivojlantirish muammosi psixologik adabiyotlarda nazariy va amaliy jihatdan chuqur yoritilgan. Ushbu masalaning dolzarbligi shaxsning nafaqat individual rivojlanishida, balki ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatida ham aks etadi. Emotsional intellektni rivojlantirish insonning shaxsiy farovonligini, stressni boshqarish qobiliyatini va ijtimoiy moslashuvini ta’minlaydigan asosiy omil sifatida tan olinadi. Shu sababli, ushbu masala psixologiya fanida yanada kengroq o‘rganilishi lozim bo‘lgan muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Майер Дж. Д., Сэловей П. Что такое эмоциональный интеллект? – М.: Когито-Центр, 2003.

2. Maslow, A. H. Motivation and Personality. New York: Harper & Row, 1954.

3. Мещерякова, И. Н. (2012). Эмоциональный интеллект как интегративное образование личности. Вестник МГУ. Серия 14. Психология, №3.

DEVIANT XULQ-ATVORLI BOLALARNING PSIXIK XUSUSIYATLARI

Dauletmuratova Eliza Allambergenovna - Innovatsion texnologiyalar universiteti katta o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636312

Annotatsiya. Mazkur tezisda deviant xulq-atvorli o‘smirlarning psixik xususiyatlari hamda ularning ijodiy fikrlash jarayoni psixologik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Shaxs rivojlanishida ijodiy fikrlashning tutgan o‘rni alohida yoritilib, deviant xatti-harakatlarning yuzaga kelishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar ochib beriladi.

Kalit so‘zlar. Deviant xulq-atvor, o‘smirlar, ijodiy fikrlash, psixologik tadqiqot, psixokorreksiya, shaxs rivojlanishi, innovatsion metodlar.

Abstract. This thesis analyzes the psychological characteristics of adolescents with deviant behavior and their creative thinking processes from a psychological perspective. The role of creative thinking in personality development is specifically highlighted, and the psychological factors that influence the emergence of deviant behavior are revealed.

Keywords. Deviant behavior, adolescents, creative thinking, psychological research, psychocorrection, personality development, innovative methods.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda o‘smirlar tarbiyasi, ularning ijtimoiy moslashuvi va psixologik salomatligini ta’minlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ijtimoiy me’yorlardan chetga chiqadigan, ya’ni deviant xulq-atvor namoyon etuvchi o‘smirlar sonining ortib borishi ushbu muammoni chuqur psixologik tahlil qilish zaruratini kuchaytirmoqda. Bunday o‘smirlarning xulq-atvori nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishiga, balki ijtimoiy muhit barqarorligiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada ularning ijtimoiy-psixologik moslashuvi, ta’lim jarayoniga munosabati hamda shaxs sifatida shakllanish jarayoni murakkablashadi.

Deviant xulq-atvorli o‘smirlar bilan ishlashda ularning ichki resurslarini aniqlash va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish psixologik yondashuvlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ijodiy fikrlash muammoli vaziyatlarda noodatiy va samarali yechim topish, ijobiy fikrlashni shakllantirish hamda shaxsning ichki salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiluvchi muhim psixik jarayondir. Ushbu jarayon orqali o‘smir o‘z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarish, ijobiy motivatsiyani shakllantirish va jamiyatdagi o‘z o‘rnini to‘g‘ri anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Asosiy bo‘lim. Chet el psixologiyasida ijodiy salohiyat masalasi uzoq vaqt davomida intellektual rivojlanish darajasi bilan bevosita bog‘liq holda talqin etilgan. Jumladan, D. Veksler, R. Vaysberg, G. Ayzenk va T. Tardif tadqiqotlarida ijodiylik shaxsning aqliy qobiliyatlari darajasi bilan uzviy aloqador ekani ta’kidlanib, aql darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, ijodiylik ko‘rsatkichlari ham shunchalik rivojlangan bo‘lishi haqidagi ilmiy xulosalar ilgari surilgan [1].

Shu bilan birga, ijodiylik va intellekt o‘rtasidagi farq masalasiga ilk bor e’tibor qaratgan olimlardan biri D. J. Mayer hisoblanadi. U ilmiy muomalaga “ijodiy aql” tushunchasini kiritib, uni intellektual va ijodiy qobiliyatlarning o‘zaro uyg‘unlashgan tizimi sifatida izohlaydi [2]. Mazkur yondashuv ijodiylikni faqat aql darajasi bilan cheklab qo‘ymasdan, uni mustaqil psixik fenomen sifatida o‘rganishga zamin yaratdi.

XX asrning 50-yillaridan boshlab “ijodiylik” tushunchasi psixologik bilimlar tizimida yangi mazmun kasb eta boshladi. U shaxsning yangi va original g‘oyalarni yaratish, muammoli vaziyatlarga noodatiy yechimlar topish qobiliyati sifatida talqin etila boshlandi. Bu esa ilgari inson ijodida markaziy o‘rinni egallab kelgan “aql” tushunchasi bilan muayyan darajada raqobatni yuzaga keltirdi. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar M. Vertgeymer, D. Gilford, K. Dunker, V. Louenfeld, V. Keller, K. Koffka, N. Mayer, L. Sekey va P. Torrens kabi G‘arb psixologlarining “samarali fikrlash” muammolariga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlari bilan yanada boyitildi [3].

Keyingi ilmiy izlanishlar natijasida “intellekt” va “ijodiylik” tushunchalari nazariy jihatdan ajratilib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari alohida o‘rganila boshlandi. Tadqiqotchi A. I. Savenkov tomonidan ilgari surilgan yondashuvlar esa ushbu ikki tushunchaning yangi ilmiy asoslarda integratsiyasiga xizmat qildi [6].

Shuningdek, ijodiylikni o‘rganishda “psixometrik yondashuv”ning shakllanishi muhim bosqich bo‘lib, u XX asrning 60-yillaridan boshlab rivojlandi. Ushbu yo‘nalish asoschilari J. Gilford va E. P. Torrens ijodiy salohiyatni o‘lchash va baholashning ilmiy metodlarini ishlab chiqib, mazkur sohadagi tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqdi [5]. Hozirgi kunda ham ijodiylik va intellekt o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar masalasi ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda.

Bizning fikrimizcha, deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ularning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Ijodiy faoliyat o‘smirlarni muammoli vaziyatlarga yangi va samarali yechim topishga yo‘naltiradi, bu esa ularning kognitiv va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ijodiy jarayonlar o‘smirlarning ichki dunyosini chuqurroq anglash, o‘z fikr va hissiyotlarini ifoda etish imkoniyatini kengaytiradi. Deviant xulqli o‘smirlar ko‘pincha o‘z fikrlarini erkin ifoda etishda qiyinchilikka duch keladilar, ijodiy faoliyat esa ushbu muammoni bartaraf etishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Ijodiy jarayonlar o‘smirlarning erkin va tanqidiy fikrlashini rivojlantirib, ularning ichki dunyosini boyitadi hamda o‘z hissiyot va fikrlarini konstruktiv tarzda ifodalash imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa o‘z navbatida o‘smirlarning xulq-atvorini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ijodiy

faoliyatga jalb etilgan o‘smirlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchi ortadi, ularning o‘ziga xosligi va mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. Deviant xulq-atvorli o‘smirlar jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, ijtimoiy muhitga samarali moslashishga hamda shaxs sifatida yetuklikka erishishga muvaffaq bo‘ladilar. Shu bilan birga, ijodiy yondashuv ularning salbiy xatti-harakatlarini ijtimoiy jihatdan maqbul faoliyat turlariga yo‘naltirishda muhim psixologik vosita sifatida xizmat qiladi.

Mazkur masala bo‘yicha bir qator mahalliy psixolog va pedagog olimlar tomonidan ham deviant xulq-atvor hamda destruktiv xatti-harakatlar ilmiy jihatdan o‘rganilgan bo‘lib, ushbu tadqiqotlar natijalari bizning izlanishlarimiz doirasida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirilib, mavzuga daxldor jihatlar tizimlashtirildi hamda dissertatsiya doirasida keng ilmiy tahlil qilindi.

Deviant xulq-atvor muammosi va uni oldini olish masalalari bir qator mahalliy olimlar tomonidan ham keng o‘rganilgan. Jumladan, F. Ravshanov tadqiqotlarida shaxsni deviant axborotlardan himoya qilishning pedagogik va falsafiy jihatlari yoritilgan [4]. Z. Qosimova esa talaba yoshlarni deviant g‘oyalarga qarshi tayyorlashda samarali pedagogik usul va vositalarni ishlab chiqqan bo‘lib, bu yo‘nalishda amaliy yondashuvlarni taklif etgan [1]. Shuningdek, Sh. Akramova tomonidan yoshlarni deviant xurujlardan himoya qilish, ularda qarshi kurash va himoya mexanizmlarini shakllantirishning pedagogik tamoyillari asoslab berilgan [3]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ularning shaxsiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ijodiy faoliyat orqali o‘smirlar muammoli vaziyatlarni hal etishning yangi va samarali usullarini egallaydilar, bu esa ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, M. Abdujabborova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yoshlarni turli deviant axborotlardan himoya qilishga qaratilgan mafkuraviy profilaktika ishlari, ularning usul va vositalari ishlab chiqilgan [1]. Mazkur yondashuvlar deviant xulq-atvorning oldini olish va o‘smirlarni ijobiy ijtimoiy muhitga yo‘naltirishda muhim ahamiyatga ega.

S. Otamuratovning tadqiqotlarida deviant g‘oyalardan biri hisoblangan “ommaviy madaniyat”ning ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek, uning milliy o‘zlikni anglash, milliy birlik tuyg‘ulari, milliy xarakter va milliy mafkura tizimiga ta’siri atroflicha tahlil etilgan [3]. Muallif tomonidan milliy ma’naviyatning ildizlari, unga tahdid soluvchi omillar, shu jumladan tarixiy va zamonaviy xavf-xatarlar ilmiy jihatdan o‘rganilgan. M. Yuldasheva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda hozirgi davrda mafkuraviy tahdidlarning namoyon bo‘lish xususiyatlari hamda ularning oldini olish yo‘llari yoritilgan. Ushbu izlanishlarda “deviant axborot” tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarixiy o‘zgaruvchanligi, zamonaviy sharoitdagi o‘ziga xos xususiyatlari hamda yoshlar ongiga ta’siri keng tahlil qilingan. Tadqiqotda shuningdek, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, oila, mahalla va ta’lim tizimida tarbiya jarayonlarining o‘rni, ommaviy axborot vositalarining ta’siri va g‘oyaviy tarbiyaning ustuvor yo‘nalishlari muhim omillar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Shuningdek, Sh. G‘oyibnazarovning ilmiy izlanishlarida “ommaviy madaniyat” hamda xalqaro terrorizm kabi destruktiv axborotlarning insoniyat taraqqiyotiga salbiy ta’siri chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotlarda mazkur hodisalarning oqibatida yuzaga keladigan axloqsizlik, zo‘ravonlik, xudbinlik, vatansizlik va hayotga yengil qarash kabi salbiy xususiyatlar, shuningdek, milliy madaniyatga zid bo‘lgan begona g‘oyalar va buzg‘unchi mafkuralarning zararli ta’siri yoritilgan. Umuman olganda, yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar deviant axborotlar va g‘oyalarning yoshlar shaxsiga, ularning dunyoqarashi hamda xulq-atvoriga salbiy ta’sirini kamaytirish, shuningdek, milliy qadriyatlar asosida mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Deviant xulq-atvorli o‘smirlarning ijodiy fikrlash jarayonini takomillashtirish muammosining ilmiy-nazariy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ijodiylik ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Deviant xulq-atvor odatda ijtimoiy me’yorlardan chetga chiqish bilan tavsiflansa-da, bunday o‘smirlarni ijodiy faoliyatga jalb etish orqali ularning salbiy xatti-harakatlarini konstruktiv yo‘nalishga o‘zgartirish mumkin. Ijodiy fikrlash o‘smirlarni yangi yondashuvlar va samarali yechimlar topishga undaydi, bu esa ularning muammolarini hal etishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijodiy jarayonlar o‘smirlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi hamda ijtimoiy moslashuvchanlikni mustahkamlaydi.

Psixologik nuqtai nazardan, ijodiylik o‘smirlarning ichki ziddiyatlarini bartaraf etishda va hissiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ijodiy faoliyat orqali ular o‘z his-tuyg‘ularini konstruktiv tarzda ifoda etishni o‘rganadilar, bu esa ichki muvozanatni tiklashga xizmat qiladi. Ijodiylik o‘smirlarni mas’uliyatli, mustaqil va ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Ular ijodiy jarayonlarda ishtirok etish orqali o‘z maqsadlarini belgilash, ularga erishish yo‘llarini rejalashtirish va mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini egallaydilar. Natijada, deviant xulq-atvorli o‘smirlar jamiyatda o‘z o‘rnini topishga, ijtimoiy jihatdan muvaffaqiyatli va barqaror shaxs sifatida rivojlanishga erishadilar.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

12. Айзенк Г.Ю. Понятие и определение интеллекта// Вопросы психологии. – М.: 2009, – № 1. – С. 111-129.

13. Mayer J.D., Salovey P., Caruso D.R. Mayer–Salovey–Caruso Emotional Intelligence/ Test (MSCEIT) user's manual. – Toronto: MHS Publishers, 2002, – 93 p.

14. Guilford J .P., Christensen P.R. The one -way relation between creative potential and JQ. Journal of Creative Behaviour. Buffalo (N.-Y.) 2019. Vol. 7. No 4. P. 247-252.

15. Богоявленская Д.Б. «Субъект деятельности» в проблематике творчества //Вопросы психологии. - 1999. - №2. - С. 35-41.

16. Guilford J.P. A Psychometric Approach to Creativity, Mimeographed, University of Southern California, Mar., 2012. // Guilford J.P. The structure of intelligence// Psychol. Bull. 2017. N 53. P. 267-293.

17. Савенков А.И. Детская одаренность: развитие средствами искусства. - М.: Педагогическое общество России, 2017. - 220 с.

JURNALIST KADRLAR TAYYORLASHGA DEONTOLOGIK YONDASHUV

Q.B.Kenesbaev - Innovatsion texnologiyalar universiteti dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

https://doi.org/10.5281/zenodo.19633627

Annotatsiya. Ushbu maqolada deontologik yondashuv asosida jurnalist kadrlarni tayyorlashning pedagogik jihatlari tahlil qilinadi. Unda jurnalistikaning zamonaviy talablari, axloqiy me’yorlar va kasbiy mas’uliyat tushunchalari o‘zaro uyg‘un holda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: deontologik yondashuv, jurnalistik ta’lim, axloqiy mas’uliyat, pedagogik jarayon, kasbiy kompetensiya, insonparvarlik, adolat.

Annotation. This article explores the pedagogical aspects of training journalists based on a deontological approach. It highlights the interrelation between modern journalism requirements, professional ethics, and social responsibility.

Key words: deontological approach, journalism education, professional ethics, pedagogical process, competence, humanism, social justice.

Zamonaviy axborot makonida jurnalist kadrlarni tayyorlash masalasi nafaqat kasbiy mahoratni oshirish, balki deontologik yondashuv asosida ularning axloqiy mas’uliyatini shakllantirishni ham talab etadi. Axborotning tezkor tarqalishi, ommaviy kommunikatsiya vositalarining kuchayishi va raqamli jurnalistikaning jadal rivojlanishi sharoitida jurnalist shaxsining kasbiy burchini to‘g‘ri anglash, insoniy qadriyatlarga tayanib faoliyat yuritish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababdan, jurnalistlar tayyorlash jarayonida deontologik tamoyillarni chuqur o‘rgatish, ularni kasbiy etika, halollik, xolislik va ijtimoiy adolat prinsiplari asosida tarbiyalash dolzarb vazifadir. Bu jarayon shunchaki nazariy bilim berish emas, balki amaliy faoliyatda to‘g‘ri axloqiy qarorlar qabul qilishga tayyor shaxsni shakllantirishni nazarda tutadi. Pedagogik yondashuvda deontologik me’yorlar orqali talabalarda mas’uliyat, axborot madaniyati, muloqot etikasi va jamiyat oldidagi burchni chuqur anglash ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Jurnalistika sohasi jamiyatdagi eng muhim ijtimoiy institutlardan biri sifatida inson ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatgani bois, bu sohada faoliyat yurituvchi kadrlarning axloqiy yetukligi milliy qadriyatlar, fuqarolik burchi va kasbiy intizom bilan chambarchas bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, jurnalist kadrlarni tayyorlashda deontologik yondashuv shaxsning nafaqat kasbiy, balki ma’naviy barkamolligini ta’minlaydigan pedagogik tizim sifatida qaralishi zarur.

Deontologik yondashuv jurnalist shaxsini shakllantirishda axloqiy qadriyatlarni ta’lim jarayoniga integratsiyalash, ularni nazariy va amaliy jihatdan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Jurnalistikaning asosiy mohiyati – haqiqatni yoritish, axborotning ishonchliligini ta’minlash va jamiyatda fikrlar muvozanatini

saqlashdir. Shu ma’noda, jurnalist kasbiy faoliyatida deontologik tamoyillarga amal qilmas ekan, uning ishi jamiyatga ijobiy emas, balki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Pedagogik jarayonda talabalarga jurnalistikaning axloqiy me’yorlari, professional etik kodeks va inson huquqlariga sodiqlik tamoyillari chuqur o‘rgatilishi zarur. Shuningdek, axborotning haqqoniyligi, manbalar bilan ishlash madaniyati, shaxs sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, tanqidiy tafakkurni rivojlantirish deontologik tayyorgarlikning ajralmas qismini tashkil etadi. Bu yo‘nalishda o‘qituvchilarning pedagogik mahorati, ularning shaxsiy namunasi ham o‘ta muhim ahamiyatga ega. Chunki, deontologik yondashuv faqat nazariy tushunchalar bilan cheklanmay, amaliyotda o‘z ifodasini topishi lozim. Shu orqali bo‘lajak jurnalistlarda mustaqil fikrlash, axborotning ijtimoiy qiymatini baholash va professional mas’uliyatni anglash ko‘nikmalari shakllanadi. Natijada, deontologik yondashuv jurnalist kadrlarni tayyorlashda insonparvarlik, xolislik va jamiyatga sadoqat ruhini kuchaytiradi.

Pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda, deontologik yondashuv asosida jurnalist kadrlar tayyorlash ta’lim tizimini insonparvarlik va axloqiy qadriyatlar bilan boyitishga xizmat qiladi. Bu yondashuvda o‘quv dasturlari nafaqat kasbiy malaka, balki axborot bilan ishlashda ma’suliyatli yondashuv, tanqidiy fikrlash va empatiya kabi fazilatlarni ham o‘z ichiga olishi kerak. Zamonaviy o‘quv jarayonida deontologik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun treninglar, etik muhokamalar, keys-stadiylar va jurnalistik simulyatsiyalar muhim metod sifatida qo‘llaniladi. Bunday pedagogik usullar orqali talabalarda real hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, etik muvozanatni saqlash va ijtimoiy adolatni himoya qilish ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, o‘quv jarayonida xalqaro jurnalistik etika standartlari, milliy qonunchilik va fuqarolik mas’uliyatiga oid bilimlarning uyg‘unligi ta’minlanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, deontologik yondashuv asosida tayyorlangan jurnalistlar jamiyatda axborot xavfsizligi, ishonchli kommunikatsiya va ijtimoiy mas’uliyatni ta’minlashda yetakchi rol o‘ynaydilar. Shu tariqa, jurnalist kadrlarni deontologik asosda tayyorlash zamonaviy axborot makonida axloqiy barqarorlikni ta’minlashning eng samarali pedagogik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Deontologik yondashuv asosida jurnalist kadrlarni tayyorlash masalasi ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, bu yo‘nalishda bir qator mahalliy va xorijiy olimlarning nazariyalari shakllangan. Avvalo, I.Kantning deontologik etikasi ushbu masalaning falsafiy ildizini tashkil etadi. Unga ko‘ra, inson harakati axloqiy qonunga muvofiq amalga oshirilgandagina haqiqiy qadriyatga ega bo‘ladi. Kant “kategorik imperativ” tamoyili orqali har bir kasbiy faoliyat, jumladan jurnalistika ham, burch, mas’uliyat va halollik tamoyillariga asoslanmog‘i zarurligini ta’kidlaydi. Bu g‘oya jurnalistning shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yilgan ijtimoiy burchini shakllantirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Jurnalist o‘z faoliyatida haqiqatni yetkazish, jamiyat manfaatini himoya qilish va inson sha’nini hurmat qilishni kasbiy vazifa sifatida qabul qilishi kerak. Kantning deontologik yondashuvi zamonaviy kasbiy etika tizimlarining asosi bo‘lib, jurnalistik ta’limda ham axloqiy qarorlarni ongli ravishda qabul qilishni o‘rgatish zarurligini belgilaydi. Shunday qilib, deontologik etikani pedagogik jarayonga singdirish

jurnalist shaxsini axloqiy mustaqil, ijtimoiy mas’uliyatli va professional qarorlar qabul qila oladigan mutaxassis sifatida shakllantiradi.

J.Bentam va J.S.Millning utilitaristik nazariyalariga tayanadigan ba’zi olimlar deontologik yondashuvni amaliy axloqiy muammolarni hal etishda muhim vosita sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, kasbiy etikada nafaqat burch, balki faoliyat natijasining ijtimoiy foydasi ham muhim o‘rin tutadi. Bu yondashuvda jurnalist faoliyati insonlar ongini shakllantirish, adolatli jamiyat qurish va ijtimoiy muvozanatni saqlashda qanday natijalar berishi bilan baholanadi. Shu jihatdan deontologik va utilitar yondashuvlarning uyg‘unligi kasbiy etikaning yangi shaklini yuzaga keltiradi. Bentamning “eng katta baxt prinsipi” jurnalistning faoliyati nafaqat haqiqatni yetkazish, balki jamiyat farovonligini oshirishga xizmat qilishi kerakligini ko‘rsatadi. Mill esa inson erkinligi va mas’uliyatini jurnalistik faoliyatdagi asosiy axloqiy me’yor sifatida belgilagan. Bu nazariyalar asosida jurnalistik ta’limda o‘quvchilarga axborotning ijtimoiy oqibatlarini tahlil qilish, har bir xabar orqasidagi axloqiy mas’uliyatni anglash ko‘nikmalari singdiriladi. Shu bilan birga, utilitarizm deontologik asoslarni mustahkamlab, jurnalist faoliyatini jamiyat manfaati bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Natijada, jurnalist ta’limida “axborot foydasi va burch” muvozanatini anglash muhim kompetensiyaga aylanadi.

Mahalliy va rus olimlari ham jurnalistlarning kasbiy tayyorgarligida deontologik yondashuvning o‘rni haqida muhim ilmiy qarashlarni ilgari surganlar. Xususan, M.M.Bakhtinning “so‘z axloqi” konsepsiyasi jurnalistning axborot berish jarayonida so‘zning ijtimoiy mas’uliyatini chuqur anglashga asoslanadi. U so‘z orqali jamiyat bilan muloqot qiluvchi insonning javobgarligi eng oliy axloqiy tamoyil ekanini ta’kidlagan. Bakhtinning fikricha, jurnalist har bir so‘zida haqiqat, e’tibor, insonparvarlik va adolatni ifodalashi kerak. Shuningdek, V.N.Myasishchevning shaxslararo munosabatlar nazariyasi deontologik jihatdan jurnalistning kommunikativ mas’uliyatini yoritadi. Unga ko‘ra, jurnalist va auditoriya o‘rtasidagi axloqiy aloqadorlik ishonch va halollikka tayanishi lozim.

G‘arb olimlarining zamonaviy nazariyalari ham jurnalist kadrlarni deontologik jihatdan tayyorlashda muhim metodologik asoslarni taqdim etadi. P.Pritchard va S.Black kabi tadqiqotchilar jurnalistik etikaning zamonaviy konsepsiyasini ishlab chiqib, kasbiy axloqiy me’yorlarni global standartlarga moslashtirishga e’tibor qaratganlar. Ularning fikricha, raqamli jurnalistika, onlayn axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar davrida jurnalistning deontologik burchi avvalgidan ham murakkabroq tus olgan. Chunki bu sharoitda axborot tezligi, manba ishonchliligi va shaxsiy daxlsizlik o‘rtasida muvozanatni saqlash dolzarb masalaga aylangan. Shu sababli, zamonaviy jurnalistikaning deontologik tayyorlov tizimi tanqidiy fikrlash, media madaniyat va raqamli etikani o‘z ichiga olishi lozim. Pritchard jurnalist etikasini “axborotning haqiqatini himoya qilish san’ati” deb ta’riflagan bo‘lsa, Black “axborot erkinligi va mas’uliyat uyg‘unligi”ni jurnalistik etikaning markaziy tamoyili sifatida e’tirof etgan. Bu g‘oyalar jurnalistik ta’limda o‘qituvchilar tomonidan yosh jurnalistlarda axborot ustida ishlashning axloqiy mezonlarini singdirish uchun qo‘llaniladi. Shu bilan birga,

G‘arb nazariyalari milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirilganda, ta’lim jarayonining samaradorligi yanada ortadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, deontologik yondashuv nazariyalari jurnalistik ta’limda shaxsni axloqiy yetuk, mustaqil fikrlovchi va ijtimoiy mas’uliyatli mutaxassis sifatida shakllantirishni ta’minlaydi. Bu nazariyalarda o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki kasbiy madaniyatni shakllantiruvchi, axloqiy namunani ko‘rsatuvchi shaxs sifatida qaraladi. O‘quvchi esa deontologik qadriyatlarni o‘z ongida mustahkamlab, ularni amaliy faoliyatida qo‘llashni o‘rganadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar – muammoli o‘qitish, aks ettiruvchi tahlil, etik keyslar asosida o‘qitish – bu jarayonda samarali natija beradi. Natijada, bo‘lajak jurnalistlar axborot ustida ishlashda xolislik, haqqoniylik va inson sha’niga hurmat tamoyillariga qat’iy amal qiladilar. Shu tarzda, deontologik yondashuv asosida shakllangan ta’lim tizimi nafaqat kasbiy bilim, balki axloqiy madaniyatni ham rivojlantiradi. Pedagogik jarayonda bu yondashuv insoniy qadriyatlarga asoslangan, jamiyat manfaatiga xizmat qiluvchi jurnalistlarni tayyorlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shu bilan, deontologik nazariyalar jurnalistik ta’limda nafaqat fan, balki ma’naviy tarbiya vositasiga aylanadi.

Deontologik yondashuv asosida jurnalist kadrlarni tayyorlash jarayonining tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu yo‘nalish o‘qitish tizimining axloqiy, ijtimoiy va pedagogik jihatlarini bir butun holda uyg‘unlashtiradi. Tahlillar natijasida aniqlanishicha, jurnalistikaning mohiyati nafaqat axborot uzatish, balki jamiyatda ishonchni shakllantirish, ijtimoiy barqarorlikni saqlash va adolatni targ‘ib etish bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababdan, jurnalistlarni tayyorlashda deontologik prinsiplar – xolislik, haqiqatparastlik, inson sha’niga hurmat va mas’uliyatlilik – o‘quv dasturlarining markazida bo‘lishi kerak. O‘quvchi talabalarning tahliliy fikrlashi, etika kodeksini bilishi va axborot oqimida to‘g‘ri yo‘l topish qobiliyati aynan ushbu yondashuv orqali shakllanadi. Tahlil davomida aniqlanganki, deontologik yondashuv o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqotni insoniy qadriyatlarga asoslangan hamkorlikka aylantiradi. Bu jarayonda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki axloqiy mezonlarni amaliy misollar orqali singdiruvchi rahbar sifatida faoliyat yuritadi. Natijada, ta’lim jarayonining har bir bosqichida mas’uliyatli jurnalistlikni tarbiyalovchi pedagogik muhit shakllanadi. Shu bilan birga, tahlillar deontologik yondashuvning nafaqat kasbiy, balki ma’naviy yetuklikni rivojlantirishdagi rolini ham ko‘rsatmoqda. Bu yondashuv jurnalistikaning insonparvarlik mohiyatini chuqur anglash va uni amaliy faoliyatda ifodalash uchun mustahkam zamin yaratadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, deontologik yondashuv asosida jurnalist kadrlarni tayyorlash – bu zamonaviy axborot makonida insonparvarlik, halollik va mas’uliyat tamoyillarini amaliyotga tatbiq etuvchi innovatsion pedagogik tizimdir. Ushbu yondashuv orqali o‘qitilayotgan jurnalistlar nafaqat kasbiy mahorat, balki etik qarorlar qabul qilishda mustaqillik, ijtimoiy barqarorlikni saqlashda faollik va jamiyat manfaatiga xizmat qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. O‘quv jarayoniga deontologik tamoyillarni chuqur singdirish o‘qituvchilarni axloqiy rahbar, talabalarni esa mas’uliyatli axborot tashuvchisi sifatida shakllantiradi. Bu jarayon

natijasida jurnalistik ta’lim faqat kasbiy bilim beruvchi tizimdan chiqib, ma’naviy tarbiya va axloqiy yetuklikni rivojlantiruvchi tizimga aylanadi.

Deontologik yondashuv asosida tayyorlangan jurnalistlar jamiyatda ishonchli, halol va prinsipial pozitsiyani egallab, axborot maydonini tozalash va adolatni qaror toptirishga hissa qo‘shadilar. Shu bilan birga, bu yondashuv milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda, global axborot muhitida ham o‘z ahamiyatini saqlab qoladi. Jurnalistik ta’limda deontologik yondashuvni tizimli tatbiq etish natijasida soha vakillarining kasbiy madaniyati, axloqiy immuniteti va ijtimoiy ishonchliligi ortadi. Natijada, deontologik jihatdan yetuk jurnalist shaxsini tarbiyalash pedagogik tizimning bosh maqsadi sifatida qaraladi. Shu sababli, deontologik yondashuv jurnalistik ta’limni nafaqat kasbiy, balki axloqiy jihatdan ham mukammal qilishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik konsepsiya sifatida e’tirof etiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yo‘ldoshev Q., O‘ktamov A. – Kasbiy etika va deontologiya asoslari. – Toshkent: 2020.
2. Juraev N. – Tibbiy deontologiya va etik axloqiy me'yorlar. – Toshkent: TMA nashriyoti, 2019.
3. Karimov M. – Etika va estetika asoslari. – Toshkent: Fan, 2017.
4. Р.Г. Овчарова – Профессиональная этика и деонтология. – Москва: Академия, 2018.
5. Лебедев А.И. – Медицинская деонтология. – Санкт-Петербург: СпецЛит, 2020
6. Канке В.А. – Философия и методология науки. – Москва: 2019.

TALABALARDA O‘Z USTIDA ISHLASH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Jumabaev Timur Jalgasbaevich - Innovatsion texnologialar universiteti dotsenti, ps.f.b.f.d (PhD)
Kuandikova Guljayna Gabitovna - Innovatsion texnologiyalar universiteti, Psixologiya ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19630636

Annotatsiya: Ushbu tezisda talabalarda o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirishda interaktiv metodlardan foydalanishning pedagogik-psixologik jihatlari o‘rganiladi. Interaktiv ta’lim usullari talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, motivatsiyasini oshirish va faol o‘quv jarayoniga jalb etishda muhim omil sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari interaktiv metodlar talabalarda o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: o‘z ustida ishlash, interaktiv metodlar, talaba, motivatsiya, mustaqil ta’lim, pedagogik texnologiyalar, faol o‘qitish, psixologik rivojlanish.

Abstract: This paper examines the pedagogical and psychological aspects of using interactive methods to develop students' self-study skills. Interactive teaching methods are analyzed as an important factor in fostering students' independent thinking, increasing their motivation, and engaging them in an active learning

process. The research findings indicate that interactive methods contribute to the effective formation of students' self-study skills.

Keywords: self-study, interactive methods, student, motivation, independent learning, pedagogical technologies, active learning, psychological development.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil o‘qish va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb pedagogik muammolaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon shaxsning nafaqat bilim olish darajasini, balki uning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, qaror qabul qilish va o‘z faoliyatini boshqarish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Shu jihatdan, ta’lim jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular zamonaviy pedagogik yondashuvlarning eng samarali shakllaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Asosiy qism. Interaktiv metodlar – bu o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, muloqot va faol fikr almashishga asoslangan o‘qitish usullaridir. Ularning asosiy mohiyati shundan iboratki, ta’lim jarayonida talaba passiv tinglovchi rolidan faol ishtirokchi, ya’ni bilimni mustaqil ravishda egallovchi subyektga aylanadi. Bu esa zamonaviy pedagogikada keng qo‘llanilayotgan konstruktivistik yondashuv bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, unga ko‘ra bilimlar tayyor holda berilmaydi, balki talaba tomonidan faol kognitiv faoliyat orqali shakllantiriladi. Interaktiv metodlarning ilmiy asoslari bir qator psixologik va pedagogik nazariyalar bilan izohlanadi. Jumladan, L.S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasiga ko‘ra, talabaning rivojlanishi o‘qituvchi va tengdoshlari bilan o‘zaro hamkorlikda yanada samarali kechadi. Shuningdek, J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida ham faol o‘rganish, tajriba va mustaqil kashf etish muhim o‘rin tutadi. Interaktiv metodlar aynan shu nazariy tamoyillarni amaliyotda ro‘yobga chiqaradi.

Interaktiv ta’limning muhim xususiyatlaridan biri – talabalarning fikrlash faolligini oshirishdir. An’anaviy dars jarayonida ko‘proq reproduktiv faoliyat ustun bo‘lsa, interaktiv metodlar analitik, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, guruhli muhokamalar talabalarda o‘z fikrini asoslash, boshqalar fikrini tinglash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. “Aqliy hujum” (brainstorming) metodi esa muammoga turli yondashuvlarni topishga, yangi g‘oyalar ishlab chiqishga yordam beradi. Rolli o‘yinlar va simulyatsiya metodlari talabalarda real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Bu esa nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga, ularni amaliy ko‘nikmalarga aylantirishga xizmat qiladi. Interaktiv metodlar orqali talabalar nafaqat bilim oladi, balki uni mustaqil ravishda qo‘llashni ham o‘rganadi. Bu jarayon o‘z ustida ishlash ko‘nikmasining shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

O‘z ustida ishlash ko‘nikmasi – bu talabaning o‘z bilimini mustaqil ravishda boyitishi, o‘z faoliyatini rejalashtirishi, nazorat qilishi va baholashi bilan bog‘liq murakkab psixologik jarayondir. Ushbu ko‘nikma talabaning ichki motivatsiyasiga, irodaviy sifatlariga hamda o‘ziga bo‘lgan ishonchiga bog‘liq. Interaktiv metodlar esa aynan shu jihatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Motivatsiya nuqtai nazaridan qaraganda, interaktiv metodlar o‘quv jarayonini qiziqarli va faol qiladi, bu esa talabalarda o‘qishga bo‘lgan ichki qiziqishni oshiradi. O‘qituvchi tomonidan yaratilgan qo‘llab-quvvatlovchi va ijobiy muhit talabaning o‘z imkoniyatlariga ishonchini kuchaytiradi. Natijada, talaba o‘z ustida ishlashga intiladi, yangi bilimlarni mustaqil izlashga harakat qiladi. Interaktiv metodlar kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Talabalar o‘z fikrini aniq va tushunarli ifodalash, boshqalar bilan hamkorlik qilish, jamoada ishlash ko‘nikmalarini egallaydi. Bu esa ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy-psixologik sifatlarni shakllantiradi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, interaktiv metodlarning samaradorligi o‘qituvchining pedagogik mahorati, darsni to‘g‘ri tashkil etish, metodlarni maqsadga muvofiq tanlash va qo‘llashiga bog‘liqdir. O‘qituvchi bu jarayonda yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi sifatida ishtirok etadi. Bu esa an’anaviy “o‘qituvchi markazli” ta’lim modelidan “talaba markazli” ta’lim modeliga o‘tishni ta’minlaydi.

Metodik qism. Ushbu tadqiqotda talabalarda o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirish jarayonini o‘rganish va interaktiv metodlarning samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. Mazkur metodlar tadqiqotning ishonchliligi va ob’ektivligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kuzatish metodi talabalarning dars jarayonidagi faolligini, ularning o‘quv topshiriqlarini bajarishdagi ishtirokini, mustaqil fikrlash darajasini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu metod orqali talabalar interaktiv mashg‘ulotlarda qanday ishtirok etayotgani, guruhli ishlarda qanday faollik ko‘rsatayotgani tizimli ravishda tahlil qilinadi. Kuzatish natijalari asosida ularning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan qiziqish darajasi haqida xulosalar chiqarish mumkin [10].

Suhbat va anketa metodlari talabalarning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan munosabatini, ularning motivatsiya darajasini, shaxsiy ehtiyoj va qiziqishlarini aniqlashga imkon beradi. Anketa savollari orqali talabalarning mustaqil o‘qishga bo‘lgan yondashuvi, vaqtni boshqarish ko‘nikmalari hamda o‘z bilimlarini chuqurlashtirishga bo‘lgan intilishi o‘rganiladi. Suhbat metodi esa talabalarning fikrlarini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi [10].

Test metodlari talabalarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini aniqlashda qo‘llaniladi. Bu metod orqali talabalarning o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi, mantiqiy va analitik fikrlash qobiliyatlari baholanadi. Test natijalari interaktiv metodlar qo‘llanilishidan oldin va keyin solishtirilib, ularning samaradorligi aniqlanadi [10].

Tadqiqotning asosiy bosqichlaridan biri bo‘lgan pedagogik tajriba metodi orqali interaktiv metodlarning amaliy samarasi o‘rganiladi. Bunda eksperimental va nazorat guruhlari tashkil etilib, interaktiv metodlar qo‘llangan va qo‘llanilmagan guruhlar o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Tajriba natijalari asosida talabalarda o‘z ustida ishlash ko‘nikmasining rivojlanish dinamikasi aniqlanadi. Interaktiv metodlarni qo‘llash jarayonida o‘qituvchi muhim rol o‘ynaydi. U talabalarga bilim beruvchi emas, balki ularni yo‘naltiruvchi, maslahat beruvchi va

motivatsiya beruvchi sifatida faoliyat yuritadi. O‘qituvchi tomonidan yaratilgan qulay va ijobiy o‘quv muhiti talabalarning faolligini oshiradi hamda ularning o‘z ustida ishlashga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi[7].

Ta’lim jarayonida individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir talabaning qobiliyati, bilim darajasi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish orqali interaktiv metodlarni samarali qo‘llash mumkin. Bu esa talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Interaktiv metodlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarda mustaqillik, mas’uliyat va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, yuqorida keltirilgan metodlardan kompleks foydalanish tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyatini oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, talabalarda o‘z ustida ishlash ko‘nikmasini shakllantirishda interaktiv metodlar muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini faollashtirib, talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o‘z faoliyatini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Interaktiv yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar talabalarning o‘quv jarayoniga qiziqishini oshiradi va ularni bilimni mustaqil izlashga undaydi. Interaktiv metodlardan tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan foydalanish talabalarda o‘z ustida ishlash madaniyatini shakllantirib, ularning shaxsiy rivojlanishi hamda kasbiy kompetensiyalarining ortishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, zamonaviy ta’lim talablari asosida yetuk, mustaqil fikrlaydigan va o‘zini rivojlantira oladigan mutaxassislar tayyorlash imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTAR

1. Выготский Л.С. *Мышление и речь*. Москва: Лабиринт, 1999.
2. Зимняя И.А. *Педагогическая психология*. Москва: Логос, 2002.
3. Андреев В.И. *Педагогика креативного саморазвития*. Казань, 1996.
4. Полат Е.С. *Новые педагогические и информационные технологии в системе образования*. Москва, 2000.
5. Новиков А.М. *Методология образования*. Москва: Эгвес, 2001.
6. Коджаспирова Г.М. *Педагогика*. Москва: Владос, 2003.
7. Леонтьев А.Н. *Деятельность. Сознание. Личность*. Москва, 1975.
8. Johnson D.W., Johnson R.T. *Learning Together and Alone: Cooperative, Competitive, and Individualistic Learning*. Boston, 1999.
9. Каримов И.А. *Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори*. Тошкент: Шарқ, 1997.
10. Тожиев Б.А. *Педагогик технологиялар ва интерактив методлар*. Тошкент, 2010.

KOGNITIV JARAYONLARNING SHAKLLANISHI VA INSONDA AKS ETISH DARAJASI

Jangabayeva Dildora Muborakovna - Innovatsion texnologiyalar universiteti asistent o‘qituvchisi
Orinbaeva Biybinaz Rawajatdinova - Innovatsion texnologiyalar universiteti, Psixologiya ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19636288

Annotatsiya: Ushbu tezista,inson psixikasining asosiy qismi bolgan Kognitiv (bilish) jarayonlarning shakllanishi va ular orqali reallikning ongda aks etish darajasini yoritadi.Kognitiv jarayonlar -idrok ,diqqat,xotira, tasavvur,nutq va tafakur-tug’ma biologik imkoniyatlarga tayangan holda,ijtimoiy muhit,tajriba va talim ta’srida bosqichma –bosqich rivojlanishi izohlanadi.SHuningdek,bilishning sezgi,idrok,tasavvur,xotira va tafakkur kabi aks ettirish darajalarining o’ziga xos xususiyatlari,ularning insonning ongli faoliyatidagi o’rni tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: kognitiv jarayonlar**,** bilish faoliyati. idrok mexanizmlari, diqqatning shakllanishi, xotira jarayonlari, tafakkur rivoji, tasavvur va obrazlar, aqliy operatsiyalar, kognitiv rivojlanish bosqichlari

Annotation: This thesis illuminates the formation of cognitive processes, which are the main part of the human psyche, and the level of reflection of reality in consciousness through them. Cognitive processes - perception, attention, memory, imagination, speech, and thinking - are explained as developing gradually under the influence of social environment, experience, and education, based on innate biological capabilities. Additionally, the unique characteristics of the levels of reflection in cognition, such as sensation, perception, imagination, memory, and thinking, as well as their role in human conscious activity, are analyzed.

Key words: Cognitive processes, cognitive activity. Perception mechanisms, Formation of attention, Memory processes, Development of thinking, Imagination and mental imagery, Mental operations, Stages of cognitive development

Kirish*:* Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va oliy o‘quv yurtlarida talabalarning kognitiv qobiliyatlari, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish va o‘z-o‘zini rivojlantirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Avvalo, kognitiv jarayonlar atrof-muhitni to‘g‘ri idrok etishga yordam beradi. Boloniya deklaratsiyasi qoidalarida aks etgan «Dunyoda ta’limi sifati va uning samaradorligini yanada oshirish, o‘quv jarayonida talabalar o‘quv faoliyati natijadorligida kognitiv xususiyatlarning ahamiyatini kuchaytirish» usullarini joriy etish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada, talabalarning o‘quv kompetensiyalarini oshirish, ularning motivatsion sohasi imkoniyatlarini yanada takomillashuvini dunyo tajribasi asosida olib borish ehtiyoji kun sayin oshmoqda.

Bu jarayoning yana bir muhim vazifasi – muammolarni hal qilish va qaror qabul qilishda yordam beradi

Har bir insonda kognitiv jarayonlar qanshalik keng rivojlancha mamlakatimiz shunshalik yuqari bilimga ega boladi. Insonlarda bu ko’nikmalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Barcha psixologik mexanizmlar ma’lum bir tahlillarni talab qiladi, ular muayyan bir muammolarning yechimlariga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu muammolar o‘zining holatlariga ko‘ra ijtimoiy tarixiy tabiatga egadir. Kognitiv psixologiya boshqa insonlar haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishi zarur. Barcha kognitiv jarayonlar bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan kompleks tarzdagi ma’lumotlarni o‘zida jamlaydi. An’anaviy kognitiv jarayonlar tarixiy muammolarni tahlil qilish holatini yaratishi mumkin.

Psixika ta’rifidan kelib chiqqan holda, ikki asosiy funksiyani bajaradi: aks ettiruvchi va regulativ .

P.A.Ponomarev psixikaning quyidagi funksiyalarini ko‘rsatib o‘tadi: atrof-olam ta’sirlarining aks etishlari; insonlar xulq-atvorlari va faoliyatlarini tartibga solish; insonlarning atrof-olamdagi o‘zlari tutgan o‘rinlarini anglashlari. Voqelikni psixik aks ettirish o‘ziga xos xususiyatlarga ega: psixika obyektiv voqelikni haqqoniy aks ettiradi; haqqoniy aks ettirish amaliyotda tekshiriladi; u rivojlantiriladi va takomillashtiriladi; faol harakatda namoyon bo‘ladi; psixika shaxsiyat orqali o‘z ma’nosini o‘zgartiradi; u ilgarilab ketish xususiyatiga ega. Psixik voqelikni shartli ravishda: ekzopsixika, endopsixika va intropsixikaga ajratish mumkin. Ekzopsixika – inson psixikasining bu bo‘lagi organizmga nisbatan tashqi bo‘lgan voqelikni aks ettiradi. Endopsixika – inson organizmining holatini aks ettiruvchi psixik voqelikning bir bo‘lagi. Intropsixika – fikr, iroda kuchi, xayolot, tushlarni o‘z ichiga olgan psixik voqelikning bir qismi. Psixika rivojining ikki darajasi mavjud: tuban va yuqori. Psixikaning tuban darajasi anglanmagan ong ostini, yuqorisi esa ongni tashkil etadi.

Boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalar uchun o‘yin asosiy faoliyat turlaridan biri bo‘lib qoladi. Raqamli o‘yinlar orqali o‘quvchilar muammoli vaziyatlarga duch kelishadi va ularni hal qilish uchun nostandart yo‘llarni qidirishadi. Hozirgi kunda bolalar har bir ma’lumotni tez ilg’ab oladi, tez rivojlanadi, aynan, o’yinlashtirish orqali biz bolalarni ham tez o’rganishiga ham sifatli esda qolarli qilib o’rganishiga yo’naltirgan bo’lamiz. O’yin bola uchun alohida qiziqarli jarayon hisoblanadi. O’yin orqali ko’p narsani o’rganadi, taniydi, rivojlanadi. Bu borada **Kapp K.M.** shunday deydi: "O‘yinlashtirish o‘quvchining ichki motivatsiyasini oshiradi va unga xavfsiz muhitda tajriba o‘tkazish, xato qilish hamda o‘z ijodiy salohiyatini namoyon etish imkonini beradi [5, 76]"

2. Multimedia vositalari va vizuallashtirish

Kreativ tafakkur vizual obrazlar bilan chambarchas bog‘liq. Grafik organayzerlar, interaktiv xaritalar va animatsion dasturlar o‘quvchilarga murakkab tushunchalarni sodda va qiziqarli ko‘rinishda talqin qilishga yordam beradi. Bu jarayonda bola ma’lumotni shunchaki yodlamasdan, uni o‘z tasavvuri orqali "qayta quradi".

3. Loyihaga asoslangan ta’lim (PBL)

Raqamli vositalar (masalan, planshetlar yoki SMART doskalar) yordamida kichik guruhlarda loyihalar ustida ishlash o‘quvchilarda jamoaviy kreativlikni shakllantiradi. Masalan, "Kelajak shahri" yoki "Tabiatni asrash" mavzusida raqamli taqdimot yoki video-rolik tayyorlash jarayonida o‘quvchi ham tadqiqotchi, ham dizayner, ham texnolog sifatida namoyon bo‘ladi.

Yuqorida keltirib o’tgan usul va texnologiyalarni biz amalda qo’llashni boshlasak o’quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlanishiga va mustahkamlanishiga erishgan bo’lamiz. Raqamli ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ tafakkurini samarali rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq:

1. "Raqamli ijodiy maydon"ni yaratish:

Darslarda faqat tayyor testlar yoki elektron darsliklar bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchilarga o‘z mahsulotlarini yaratish imkonini beradigan

platformalardan (masalan, Canva, Scratch, Padlet) foydalanish lozim. Bu o‘quvchida "men yaratuvchiman" degan ishonchni uyg‘otadi.

2. Muammoli vaziyatlarni vizuallashtirish:

Har bir darsda raqamli vositalar yordamida "savol tug‘diruvchi" kadrlar, kutilmagan yakunli videolar yoki mantiqiy xatosi bor slaydlar ko‘rsatish kerak. **Lucas, B.** ta’kidlaganidek: "O‘qituvchining asosiy vazifasi — axborot berish emas, balki raqamli resurslar orqali o‘quvchida hayrat va qiziquvchanlik hissini uyg‘otishdir. [6, 94]. "

3. "Xato qilish huquqi" tamoyilini joriy etish:

Raqamli topshiriqlarni shunday tanlash kerakki, o‘quvchi xato qilganida "past baho" olmasdan, tizim unga qaytadan urinib ko‘rish va boshqacha yechim topish imkonini bersin. Bu boladagi "standartdan chetga chiqish" qo‘rquvini yo‘qotadi.

4. Ota-onalar bilan raqamli hamkorlik:

Kreativlik faqat maktab bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ota-onalarga farzandining gadjetlardan faqat o‘yin uchun emas, balki rasm chizish, kichik hikoyalar yozish yoki qiziqarli video-tajribalar o‘tkazish uchun qanday foydalanishi bo‘yicha tavsiyalar berib borilishi lozim.

5. Baholashda kreativlik mezonlarini kiritish:

O‘quvchining bajargan ishi faqat "to‘g‘ri yoki xato"ligi uchun emas, balki uning original yondashuvi, dizayni va g‘oyasining yangiligi uchun ham rag‘batlantirilishi shart.

Har bir tavsiya o’quvchilarning rivojlanishiga, bilish jarayonlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun ham barcha o’qituvchilar, ota-onalar, maktab ma’muriyati birgalikda o’quvchilarning rivojlanishiga yordam berishi lozim.

Tadqiqot natijalari va o‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirish shunchaki qo‘shimcha imkoniyat emas, balki zamonaviy ta’limning strategik zaruriyatidir. Raqamli texnologiyalar o‘quv jarayoniga shunchaki "texnik bezak" sifatida emas, balki bolaning intellektual salohiyatini ochib beruvchi universal instrument sifatida kirib kelishi lozim.

Xulosa o‘rnida quyidagi muhim jihatlarni ta’kidlash joiz:

Integratsion yondashuv: Kreativlikni rivojlantirish raqamli vositalar va an’anaviy pedagogik usullarning uyg‘unligiga tayanadi. Faqat texnologiyaning o‘zi emas, balki uning yordamida yaratilgan ijodiy muhit o‘quvchini mustaqil fikrlashga chorlaydi.

Pedagogning yangi roli: Raqamli davr o‘qituvchisi axborot yetkazuvchidan "kreativ mentor" (yo‘naltiruvchi) darajasiga ko‘tarilishi shart. O‘qituvchining metodik tayyorgarligi o‘quvchilarning innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxsiy rivojlanish: Boshlang‘ich sinf yoshida poydevori qo‘yilgan kreativlik ko‘nikmasi kelajakda o‘quvchining har qanday murakkab hayotiy va professional muammolarga nostandart yechim topa olishiga zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhitini to‘g‘ri tashkil etish — o‘quvchilarni nafaqat axborotni iste’mol qilishga, balki yangi intellektual va ijodiy boyliklar yaratishga o‘rgatadi. Bu esa mamlakatimiz ta’lim tizimining raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son qarori. "Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida".
2. Vygotskiy, L. S. (2020). Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: Юрайт. – 126 с.
3. Resnick, M. (2017). Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play. MIT Press. – 208 p.
4. Lucas, B. (2016). Teaching Creative Thinking: Developing Learners Who Possess a Creative Mindset. Crown House Publishing. – 160 p
5. Saidahmedov, N. S. (2017). Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: "Moliya-iqtisod". – 232 b.
6. Ziyomuhammadov, B. (2011). Pedagogika. – Toshkent: "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi". – 144 b.

MADANIY TURFA XILLIK SHAROITIDA TALABALARNING ETNIK TOLERANTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Tajibayeva Akmaral Raxmetulla qızı - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti stajyor-oqıtıwshısı

https://doi.org/10.5281/zenodo.19630752

Annotatsiya: Ushbu maqola madaniy-turfa xililik sharoitida talabalar orasida etnik tolerantlikni rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Maqolada turli millat va madaniyat vakillari bilan ishlash tajribasi, universitet va maktablarda amalga oshirilayotgan interfaol metodlar, shuningdek, etnik tolerantlikni oshirishga qaratilgan tadbirlar misollari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalarni madaniy-turfa xililikka ochiq bo‘lishga rag‘batlantirish ularning ijtimoiy va madaniy kompetensiyasini oshirishga yordam beradi. Maqola ilmiy va amaliy jihatdan yoshlar o‘rtasida madaniy-hurmat, bir-birini tushunish va etnik kelishuvni mustahkamlashga yo‘naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqishga asos bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: madaniy-turfa xililik, etnik tolerantlik, talabalar, interfaol metodlar, madaniy kompetensiya.

Abstract: This article is devoted to the issues of developing ethnic tolerance among students in conditions of cultural diversity. The article analyzes the experience of working with representatives of different nationalities and cultures, interactive methods implemented in universities and schools, as well as examples of activities aimed at increasing ethnic tolerance. The results of the study show that encouraging students to be open to cultural diversity helps to increase their social and cultural competence. The article can serve as a scientific and practical basis for

developing activities aimed at strengthening cultural respect, mutual understanding and ethnic harmony among young people.

Keywords: cultural diversity, ethnic tolerance, students, interactive methods, cultural competence.

Hozirgi globallashuv va ijtimoiy o‘zgarishlar davrida madaniy-turfa xililik universitet va oliy ta’lim muassasalarining muhim pedagogik vazifalaridan biriga aylangan. Talabalar turli etnik, diniy va madaniy guruhlar bilan muloqot qilishi, ularning qadriyatlari, urf-odatlari va an’analarini hurmat qilishi lozim. Shu sababli etnik tolerantlikni shakllantirish va rivojlantirish oliy ta’lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Etnik tolerantlik – bu boshqa millat va etnik guruh vakillariga nisbatan hurmat, ularni tan olish va diskriminatsiyadan voz kechish qobiliyatidir. Talabalar orasida etnik tolerantlikni rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki ijtimoiy barqarorlik va madaniy uyg‘unlik uchun ham muhimdir. Madaniy-turfa xililik sharoitida o‘qituvchilar turli interfaol metodlardan foydalanib, talabalarni bir-birini tushunishga, stereotiplardan xoli bo‘lishga va hamkorlikka rag‘batlantiradi.

Maqola maqsadi – madaniy-turfa xililik sharoitida talabalar orasida etnik tolerantlikni rivojlantirishning samarali usullarini aniqlash va ularni amaliy misollar bilan ko‘rsatishdir. Tadqiqot metodlari sifatida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, interfaol mashg‘ulotlar va so‘rovlar ishlatilgan. Ushbu yondashuvlar talabalarni o‘zaro muloqot qilishga, madaniy farqlarga nisbatan hurmat bilan qarashga va ijtimoiy muhitda konfliktlarni kamaytirishga undaydi. Shuningdek, kirish qismida zamonaviy tadqiqotlar va ilmiy manbalar ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ular etnik tolerantlikni rivojlantirishning pedagogik, psixologik va ijtimoiy asoslarini ochib beradi. Bu jarayonda talabalar turli millat vakillari bilan tajriba almashish, madaniy loyihalarda ishtirok etish va seminar-treninglarda qatnashish orqali madaniy kompetensiyalarini oshiradi.

Madaniy - turfa xililik – bu turli etnik, diniy va madaniy guruhlarning mavjudligi va ular bilan muloqot qilish imkoniyati bo‘lib, oliy ta’lim muassasalarida talabalar uchun muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Talabalar turli millat va madaniyat vakillari bilan birgalikda ishlash orqali o‘zaro hurmat va tushunishni rivojlantiradi. Shu bilan birga, madaniy-turfa xililik ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi, chunki talabalar bir-birining farqliligini qadrlashni o‘rganadi. Masalan, guruh loyihalarida turli millat talabalarini birlashtirish stereotiplarni kamaytiradi va hamkorlikni oshiradi. Shuningdek, talabalarda empatiya va muomala madaniyati rivojlanadi, ular ijtimoiy muhitdagi konfliktlarni samarali hal qilishga o‘rganadi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, madaniy-turfa xililik sharoitida tarbiyalangan talabalar nafaqat shaxsiy, balki professional sohada ham ko‘proq muvaffaqiyat qozonadi. Madaniy-turfa xililikni rivojlantirish universitetlar, professor-o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida uzviy hamkorlikni talab qiladi. Talabalar madaniy loyihalarda ishtirok etish, seminar-treninglarda qatnashish va turli madaniy kechalarda o‘zaro muloqot qilish orqali madaniy kompetensiyalarini oshiradi. Shu tarzda, madaniy-turfa xililik ijtimoiy uyg‘unlik va kelajakdagi global jamiyatga tayyorgarlikning muhim qismi hisoblanadi.[1]

Talabalar orasida etnik tolerantlikni shakllantirishda interfaol metodlar eng samarali vosita hisoblanadi. Bu metodlar talabalarni faol muloqot qilishga, turli nuqtai nazarlarni qabul qilishga va stereotiplardan xoli bo‘lishga o‘rgatadi. Masalan, rol o‘yinlari orqali talabalar boshqa millat vakillari rolini bajaradi va ularning dunyoqarashini tushunadi. Bu usul empatiya va madaniy anglashni rivojlantiradi. Shuningdek, debatlarga qatnashish talabalarni tanqidiy fikrlash va ijtimoiy mavzularda fikr bildirishga o‘rgatadi. Masalan, “Millatlararo hamkorlik” mavzusida o‘tkazilgan debatlarda talabalar turli madaniyatlarning afzalliklari va qiyinchiliklarini muhokama qiladi. Madaniy loyihalar esa talabalarni real vaziyatlarda hamkorlik qilishga undaydi: milliy bayramlar, ko‘rgazmalar va tadbirlarda qatnashish talabalarni bir-birining madaniyatini qadrlashga o‘rgatadi. Misol tariqasida, Toshkent Davlat Universitetida tashkil etilgan “Madaniy kechalar” loyihasi talabalarni turli millat an’analari bilan tanishtirdi. Talabalar milliy taomlar, san’at va urf-odatlarni o‘rganish orqali etnik tolerantlikni oshirdi. Bu yondashuvlar interfaol va amaliy tajribaga asoslangan bo‘lib, talabalarda ijtimoiy va madaniy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.[2]

Talabalar bilan olib boriladigan pedagogik va psixologik tadbirlar etnik tolerantlikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Seminarlar, treninglar va interaktiv mashg‘ulotlar orqali talabalar o‘z hissiyotlarini va boshqa millat vakillarining hissiyotlarini tahlil qiladi. Bu esa empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, guruh mashg‘ulotlarida talabalar turli vaziyatlarni simulyatsiya qilib, etnik konfliktlarni qanday hal qilishni o‘rganadi. Bu mashg‘ulotlar talabalarni stereotip va kamsitishdan xoli bo‘lishga undaydi. Shu bilan birga, psixologik treninglar talabalarni ijtimoiy muhitga moslashishga, o‘zaro hurmat va madaniy uyg‘unlikni rivojlantirishga tayyorlaydi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, interaktiv mashg‘ulotlarda qatnashgan talabalar boshqa millat vakillariga nisbatan ko‘proq ochiq va hurmatli bo‘ladi. Masalan, Samarkand Davlat Universiteti talabalari orasida o‘tkazilgan so‘rov natijalari interfaol mashg‘ulotlar ishtirokchilari etnik stereotiplardan 35% yuqori natija ko‘rsatganini ko‘rsatdi.

Interfaol va pedagogik tadbirlar orqali talabalarda etnik tolerantlik sezilarli darajada oshadi. Talabalar turli millat vakillari bilan ishlash orqali madaniy farqlarga nisbatan ochiq bo‘lishni o‘rganadi, stereotiplardan xoli bo‘ladi va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti talabalari tomonidan tashkil etilgan “Millatlararo muloqot” loyihasi talabalarni turli madaniyat vakillari bilan birgalikda ishlashga undadi. Natijada, talabalarda empatiya, ijtimoiy ko‘nikmalar va madaniy kompetensiyalar sezilarli darajada oshdi. Shuningdek, madaniy-turfa loyihalar talabalar orasida ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlashga yordam beradi. Talabalar bir-birining urf-odatlari va qadriyatlarini hurmat qilishni o‘rganadi, bu esa kelajakda ijtimoiy konfliktlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu tarzda, etnik tolerantlikni rivojlantirish universitetlarda tizimli va amaliy yondashuvni talab qiladi, bu esa yosh avlodni global jamiyatga tayyorlaydi.[4]

Madaniy-turfa xililik sharoitida talabalar orasida etnik tolerantlikni rivojlantirish oliy ta’lim muassasalari uchun muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Ushbu jarayon talabalarni nafaqat shaxsiy rivojlanishga, balki ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlashga ham tayyorlaydi. Interfaol metodlar, pedagogik va psixologik tadbirlar orqali talabalar turli millat vakillari bilan samarali muloqot qilishni o‘rganadi, stereotip va kamsitishdan xoli bo‘ladi, empatiya va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Amaliy misollar shuni ko‘rsatadiki, madaniy loyihalar va interfaol mashg‘ulotlar talabalar orasida madaniy kompetensiyani oshiradi, ijtimoiy uyg‘unlikni kuchaytiradi va kelajakda ijtimoiy konfliktlarni kamaytirishga yordam beradi. Talabalar turli millat va madaniyat vakillari bilan birgalikda ishlash orqali o‘zaro hurmat, hamkorlik va ochiqlikni rivojlantiradi. Kelgusida etnik tolerantlikni rivojlantirish jarayoni tizimli va doimiy bo‘lishi lozim. Universitetlar va pedagoglar madaniy-turfa loyihalarni muntazam ravishda tashkil etishi, talabalarni turli interfaol mashg‘ulotlarda ishtirok etishga rag‘batlantirishi zarur. Shu tarzda yosh avlod nafaqat shaxsiy va kasbiy rivojlanadi, balki global jamiyatga tayyor bo‘ladi va millatlararo uyg‘unlikni mustahkamlashga hissa qo‘shadi.

Natijada, madaniy-turfa xililik sharoitida etnik tolerantlikni rivojlantirish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, yoshlar orasida madaniy hurmat, ijtimoiy barqarorlik va hamkorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmadov, S. (2019). Talabalar orasida etnik tolerantlikni rivojlantirish metodlari. *Pedagogika jurnali*, 12(3), 45–52.
2. Banks, J. A. (2015). *Cultural Diversity and Education*. New York: Routledge.
3. Gudkov, L. (2018). *Etnik tolerantlik va ijtimoiy psixologiya*. Moskva: Nauka.
4. Karimova, D. (2021). Madaniy-turfa xililik va yoshlar ijtimoiy integratsiyasi. *O‘zbekiston pedagogika akademiyasi ilmiy ishlari*, 4(1), 88–96.
5. Peterson, J. (2020). *Cultural Diversity in Education*. New York: Routledge.
6. UNESCO. (2017). *Education for Diversity and Intercultural Dialogue*. Paris: UNESCO.
7. Zulfqarov, T. (2020). Talabalar orasida madaniy anglash va etnik tolerantlik. *Ilmiy pedagogika jurnali*, 5(2), 12–20.
8. Ismoilov, R. (2018). Interfaol metodlar orqali etnik tolerantlikni shakllantirish. *Pedagogika va psixologiya*, 6(4), 33–41.
9. Safarov, M. (2019). Millatlararo muloqot va yoshlar. *Sotsiologik tadqiqotlar jurnali*, 7(3), 55–63.
10. Xolmurodova, N. (2021). Universitetlarda madaniy loyihalar orqali etnik tolerantlikni rivojlantirish. *Ta’lim va jamiyat*, 8(1), 101–110.

SHAŃARAQLIQ TÁRBIYADA ATA-ANA- BALA MÚNÁSIBETLERINDEGI MASHQALALAR

Ibraymova Altinay Esemuratovna – Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti assistent oqıtıwshısı

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636606

Annotatsiya: Maqalada ata-ana-bala múnásibetleri psixologiyası, onın' bala rawajlanıwına ta'siri, ata-ana-bala múnásibetlerinde separaciya processi, tolıq bolmaǵam seperaciya, infantilizm hám infantil shaxs, onı keltirip shıǵarıwshı psixologiyalıq sebepler boyınsha ilimiy hám ámeliy qaraslar sóz etilgen.

Tayanısh sózler: ata-ana-bala múnásibetleri, separaciya, infantilizm, infantil shaxs, toksik ata-ana

Annotation: The article examines the psychology of child-parent relationships, its influence on the development of the child, the process of separation in child-parent relationships, incomplete separation, infantilism of the infantile personality, as well as the psychological reasons that lead to it.

Key words: child-parent relationships, separation, infantilism, infantile personality, toxic parents

Shaxstıń qáliplesiwi bul uzaq dawam etiwshi process sanaladı. Hár bir ata-ana deni saw, psixik salamat perzent jetilistiriwdi arzıw etedi. Ana-bala múnásibeti óz-ara tıǵız baylanısqan boladı, bunıń sebebi onıń ázelden simbioz jaǵdayda ekenligine baylanıslı. Balanıń dáslepki dáwirlerinde onıń awqatlanıwı, uyıqlawı sıyaqlı bárshe mútájlilkleri tek ǵana ana tárepinen qanaatlandırılıwı, barqulla mehır, itibar qaratılıwı esabınan bala anasına gárezli qáliplesip baradı. Baladaǵı qaramlılıq – bul óz-ózinen payda bolatuǵın motivaciyalıq sistema. Bul jaǵday 3-5 jasqa shekem dawam etedi. 3 jastan baslap bala ózi júre alıwı, ózi ushın qolaylı jaǵdaylardı izlep taba alıwı menen ózbetinshellikke bolǵan talaptı ańlap baslaydı. Bul jasqa deyingi bárshe zárúrliklerin qanaatlandırıp, ǵamxorlıq kórsetilip keliwi menen balada anaǵa bolǵan isenim kúshli boladı. Ananıń bala tárbiyalawdaǵı wazıypası áz rolin orınlaw hám balasınıń shaxslıq rawajlanıwına psixologiyalıq sharayat jaratıwdan ibarat. Bul degen sóz óz balasınıń jeke qálewi, kóz-qarası bolıwın esten shıǵarmawı tiyis. Ádette biz, balamız tinish bolıwın, biz ornatqan tártiplerge sózsiz baǵınıwın qáleymiz. Bul túsinik hám talap balanıń shaxslıq rawajlanıwına bazıda kesent beriwin qıyalımızǵa da keltirmeymiz. Kerisinshe, biz balamızdı biz ne aytsaq duris dep maqullawshı, boysınıwshań bolsa jaqsı tárbiya berip atırman degen túsinik ele stereotip retinde saqlanıp kelmekte.

Psixologiyada ata-ana-bala múnásibetinde separaciya processi bolıp, bul balanıń ata-anasınan hár tárepleme, atap aytqanda, fizikalıq, finanslıq, sociallıq hám emocional tárepten ajıralıp shıǵıwına aytıladı. Rawajlanıw barısında bul processke bolǵan zárúrlilikler payda bolıwı menen onıń qanaatlanıwına psixologiyalıq talaplar seziledi. Nátiyjede bala sanasına bunday túsinikler kelip, onıń zárúrliligin ańlap baradı. Bunı biz tómendegi jaǵdaylardan misal keltire alamız. Bala 8 jastan baslap 12 jasqa shekemgi dáwirde ata-anadan uzaqlasıp baslaydı. Buǵan balanıń mektepke barıwı, dógereklerge qatnawı, doslar arttırıwı menen onıń sociallıq múnásibetlerge kirisiwi menen erklik sıpatlardıń qáliplesiwi sebep boladı. Buń jaǵday 18-20 jasqa shekem dawam etiwi múmkin. Al, bul jastan soń bala ásirese psixologiyalıq jaqtan tolıq separaciyalanǵan bolıwı tiyis. Bul degen sóz, bala óz qálewine, kóz-qarasına iye, gárezsiz, erkin degen mánisti

ańlatadı. Degen menen bárshe balalar tolıq separaciyalanadı degen gáp emes. Demek, tolıq bolmaǵan separaciya túsinigi de bar. Tolıq bolmaǵan separaciya jeke turmıslıq mashqalalarǵa sebepshi bolıwın búgingi kúndegi ámeliyat kórsetpekte. Ata-anaǵa qaram bolǵan adam ózi qarar qabıl qılıwda qıynaladı, hámme máselede ata-ananıń pikiri tiykarında sheshimge keledi. Psixologiyada bul infantil shaxs túsinigi menen baylanıslı. Shaxstıń balalıq dáwiri tek ǵana qolaylılıqlarǵa tolı bolıwı menen ájayip dáwir esaplanadı. Degen menen bul dáwir ornı kelgende keyingi úlkeyiw, eseyiw dáwirine óz ornın bosatıp beriwi tiyis. Infantilizmde bolsa, sol balalıq dáwirde qalıp ketiw, psixologiyalıq jaqtan rawajlanıwdıń keshigiwi sıyaqlı belgiler saqlanadı.

Infantillik bul tuwma qásiyet bolmaǵanlıqtan, ata-ananıń balaǵa qaratılǵan múnásibeti, tárbiya usılı onı keltirip shıǵaradı. Psixologlardıń pikirinshe, balada infantilliktiń rawajlanıwı 8-12 jas aralıǵında payda bolıp, kórine baslaydı. Usi dáwirde ata-ana balaǵa ózine bolǵan isenimin arttırıwǵa, juwapkershilik tiykarında qarar qabıl etiwine múmkinshilik jaratıp beriwi tiyis. Óytkeni, tek ata-ana ǵana perzentiniń átirapında sociallıq ortalıqtı jaratadı, yaǵnıy ata-analar balalarında infantillik sıpatlardıń qáliplesiwine tiykar jaratadı. Bul dáwirde ata-ana tárepinen qoyılǵan hádden zıyat qadaǵalawlar yamasa hádden tıs ǵamxorlıq tuwrı infantilizmge aparıwshı jol esaplanadı. Bul dáwir aralıǵında balanıń óz qálewleri bolǵanı sıyaqlı óz dáwirine say mashqalaları, qıyınshılıqları bar ekenligin ata-ana tolıq ańlap turıwı zárúr.

Ata-analar usı wazıypanı atqarıwda kópshılıgi derlik qátelerge jol qoyadı, yaǵniy balaǵa járdem qolın sozadı, ol mashqalanı sheship beriwge háreket jasaydı. Bunı sezingen bala qolaylılıq zonasında qalıwdı qáleydı, qıyınshılıqtan qashadı, juwapkershilik penen qarawdı ádet etpegen boladı. Bunnan kelip shıǵıp, ata-analar balanıń barlıq mashqalaların sheshiwge háreket ete bermewi de kerek ekenligin túsiniwi kerek. Ásirese, toksik ata-ana bala tárbiyasında úlken qátelerge jol qoyadı. Olardıń názerinde balanı jeke múlkke uqsas bolǵan kóz-qarasta, yaǵnıy balasınıń barlıq máselede ásirese emocional ózine qaram bolıwın qálew, aytqan nárselerin buljıtpay orınlawı, qarsı pikir bildirmewi sıyaqlı kóz-qaraslar stereotipi saqlanadı. Sonlıqtan, bunday ata-analar balasınıń ornına sóylewdi, pikirlewdi, jasawd hátteki balası jaslıq dáwirine jetse de dawam ete beriwi múmkin. Bunday jaǵdaylar sociallıq turmısımızda, shańaraqlıq mashqalalarda gúzetilip turǵanlıǵı sır emes.

Juwmaqlap aytqanda, shaxs birden jetilisiwshi process emes, ol uzaq jillar dawamında balalıq dáwirden baslap bizdi qorshaǵan ortalıq tásirine tıǵız baylanıslı bolǵan process esaplanadı. Bunda ata-ana, onıń psixologiyalıq bilimge iye bolıwı menen úlgi, órnek bola alıwı, unamlı tárbiyalıq tásir kórsete alıwı úlken áhmiyetke iye.

Paydalang'an a'debiyatlar:

1. В.П.Иванова, В.В Еременко. «Практикум по общей психологии». Bishkek, 2014

2. Z.Nishanova. G.Alimova. «Balalar psixologiyası ha'm psixodiagnostikası» Tashkent 2017.

3. Nıshanova.Z, Kamilova.N, Abdullayeva.D, Xolinazarova.M, «Rivojlanish psixologiyasi, Pedagogik psixologiya» Toshkent -2017.

INTELLEKTUAL DEPRIVATSIYA HÁM ONIŃ SHAXS RAWAJLANIWINA UNAMSIZ TÁSIRI

Ibraymova Altinay Esemuratovna – Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti assistent oqıtıwshısı
Jańabaeva Nilufar Toxtarbaevna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti 2-kurs studenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19636788

Annotatsiya: Maqalaǵa intellektual deprivaciya haqqında túsinik, onıń shaxs rawajlanıwına unamsız tásir kórsetiw múmkinligin anıqlaw, insannıń pikirlew qábiletiniń tómenlewi , tálim processinde jetiskenliklerine, social maslasıw processindegi qıyınshılıqları hám onıń aldın alıwǵa qaratılǵan.

Annotation: The article focuses on the concept of intellectual deprivation, determining its possible negative impact on human development, reducing a persońs ability to think, his achievements in the educational process, difficulties in the process of social adaptation and their prevention.

Tayanısh sózler: rawajlanıw, aqılıy rawajlanıw, deprivaciya, intellectual deprivaciya, deprivaciyaǵa alıp keliwshı sebepler.

Key words: development, mental development, deprivation, intellectual deprivation, causes of deprivation

Insannıń zaman menen birge rawajlanıwı házirgi dáwir talabi. Sol menen bir qatarda insannıń aqılıy rawajlanıwı dáslepki balalıq dáwirinen baslap qáliplesip baradı. Insan dáslepki balalıq dáwirden baslap átirapindaǵı nárse, hádiyselerdi hám olar arasındaǵi baylanıslardı ańlawǵa háreket etedi. Bul dáwir aqılıy rawajlanıwdıń tiykarın, oylaw processleriniń jańa kórinislerin payda etedi. Zaman rawajlanıwı menen insannıń intellektual rawajlanıwı onıń jetiskenliklerine tikkeley tásir etedi. Bıraq ayırım jaǵdaylar sebepli shaxstıń aqılıy rawajlanıwı jeterli dárejede qollap quwatlanbaydı. Házirgi kúnde zaman rawajlanǵanı menen ayırım balalar intellektual rawajlanıwdan shette qalmaqta. Shańaraqta balada tálim alıwǵa jeterli resurslardıń jetispewshiligi, bilim alıwǵa bolǵan itibardıń pásligi, zamanagóy bilim alıwǵa arnalǵan qurallar menen támiynlenbewi hám ata-analardıń itibarsizlıǵi buǵan sebep bola aladı. Bul jaǵday intellektuallıq deprivaciya dep ataladı. Ol insannıń pikirlew qábiletinen baslap social beyimlesiwine shekemgi bolǵan processlerge tásir kórsetedi.

Deprivaciya – latın tilinen alınǵan bolıp «joǵaltıw» mánisin ańlatadı. Baqsha jasındaǵı balalarda intellektual deprivaciya aqıbetinde zárúr bolǵan ortalıq hám stimul jetispewshiligi nátiyjesinde onıń aqılıy potenciyalı tolıq rawajlana almawı múmkin. Bul jaǵday balanıń biliw processlerine hám social beyimlesiwine unamsız tásir kórsetedi. Baqsha jasındaǵı balalar ushın intellektual stimullar jeterli bolıwı kerek. Sebebi bul dáwirde balada tiykarǵı kognitiv funkciyalar qáliplesedi. Bul dáwirde balada intellektual rawajlanıw hár dayım bilmegen nárselerin úyreniw, jańa bilimlerdi ózlestiriwge ata-analar tárepinen hár tárepleme shárt-sharayatlar jaratıp beriliwi kerek. Sonıń ushın erte balalıq dáwirden-aq, balanıń

aqılıy funkciyaların aktivlestiriw ushın hár túrli emocional stimullardan paydalanıw zárúr. Intellektual deprivaciya, bir tárepten, adekvat pikirlew funkciyaların ámelge asırıwdıń ishki imkaniyatınıń bolmawı menen baylanıslı bolsa; ekinshi tárepten, basqalar menen intellektual baylanıstı sheklew menen ámelge asadı. Intellektual deprivaciya emocional deprivaciyadan keyingi dáreje boladı. Ol sırtqı ortalıq haqqında jeterli maǵlıwmattıń joqlıǵı, miy xızmetiniń ulıwma páseyiwi hám barlıq aqılıy processler sebepli qáliplesiwi múmkin. Deprivaciya shaxslar arasındaǵı múnásibetlerge keri tásirin tiygizedi, bul da áz náwbetinde intellektual buzılıwdı kúsheytedi.

Joqarıda aytıp ótilgenindey, bul dáwirde balada biliw processleri jaqsı rawajlanadı. Eger bunday shárt sharayatlar támiynlenbese balada bir qatar mashqalalar júzege keledi. Atap aytqanda;

- Sóylewdiń keshigiwi, bala óz pikirlerin emin erkin bildiriwde qıyınshılıqlarǵa dus keliwi múmkin.
- Dıqqat hám yad rawajlanıwınıń pásligi – oylaw processiniń páseyiwi (tarayıwı), jańa bilimlerdi ózlestiriwde qıyınshılıqlarǵa ushırawı.
- Social beyimlesiwdiń páseyiwi – bala óz teńlesleri menen sáwbetlesiwde qıyınshılıqqa ushırawı hám toparlıq oyınlarda qatnasıwdan kópshilik jaǵdaylarda bas tartıwı h.t.b.

Bunnan kelip shıǵadı intellektual deprivaciya balalardıń keyingi tálim alıw processlerinde anaǵurlım unamsız aqıbetlerge alıp keliwi múmkin. Máselen ózine isenimsizlik, bilim alıwında hár túrli aqılıy mashqalalı jaǵdaylarǵa dus keliwi h.t.b. L.Vigotskiy balalardıń intellektual rawajlanıwında social ortalıq, til hám mádeniyattıń ornın tómendegishe táriyp beredi. Bala rawajlanıwı, bilimlerdi ózlestiriwi, ózi jeke ámelge asıra almaytuǵın zatlardı úlkenler yaki bilimli teńlesleri járdeminde ámelge asırıwı múmkin.

Intellektual deprivaciyaǵa alıp keliwshi sebepler túrlishe boladı: shańaraqta balaǵa jaqınlarınıń unamsız hám itibarsiz múnasibette bolıwı, ata-anasınıń biyparwalıǵı, aqılıy rawajlanıw ushın jeterli sharayat jaratıp bermesligi sebep boladı. Social ortalıqta oqıtıwshı hám teńleslerinıń biyparwalıǵı yaki balanı baslanǵısh oqıw dáwirinde jeterli qollap quwatlamaǵanlıǵi sebep boladı. Nátiyjede balada joqarıda aytıp ótilgenindey kognitiv qábiletleriniń páseyiwine bunnan tısqarı psixologiyalıq jaǵdaylarınada keri tásir etedi. Tiykarınan emotsional jaǵdaylarınıń yaǵnıy óz-ózine pás baha beriwi, depressiya, stress hám qáweterleniw sezimleriniń joqarılap ketiwine, insanlar menen múnasibetke kirisiwde qiynalıwına alıp keledi. Bunıń aldın alıw ushın shańaraq aǵzaları balaǵa itibardı joqarılatıwı, ruwxıy basım bermewi, onıń qızıǵıwshılıqları, qábiletleri menen qızıǵıwı kerek. Mektep jasındaǵi balalarda ustazları baladaǵı jasırın qábiletlerin anıqlaw, aqılıy tárepten xoshametlep, hár túrli jasına say kitaplarǵa qızıqtırıp, balalar menen individual tárizde waqtın ajıratıp shuǵıllanıwı kerek.

Ulıwma alǵanda intellektual rawajlanıw bul tek búgingi kúndi emes, bálkim keleshegimizdi támiynlep beriwshi qural esaplanadı. Sol sebepli házirgi texnologiyalar rawajlanǵan dáwirde jas awladtı bilimli hám sanalı etip tárbiyalaw global jaǵdaylardıń biri bolıp qalmaqta.

Paydalanǵan ádebiyatlar:

4. В.П.Иванова, В.В Еременко. «Практикум по общей психологии». Bishkek, 2014

5. Z.Nishanova. G.Alimova. «Balalar psixologiyası hám psixodiagnostikası» Tashkent 2017.

6. Nıshanova.Z, Kamilova.N, Abdullayeva.D, Xolinazarova.M, «Rivojlanish psixologiyasi, Pedagogik psixologiya» Toshkent -2017.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA O‘SMIRLAR O‘Z-O‘ZINI ANGLASHI TRANSFORMATSIYASINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Umirbekova Nasiba Kenesbaevna - Innovatsion texnologiyalar universiteti assistent o‘qituvchsisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635514

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida o‘smirlarning o‘z-o‘zini anglash jarayonida yuz berayotgan transformatsion o‘zgarishlar va ularning ijtimoiy-psixologik muammolari tahlil qilinadi. Raqamli muhitning shaxs rivojiga ta’siri, identifikatsiya jarayonidagi ziddiyatlar, ijtimoiy taqqoslash, virtual qaramlik hamda kiberbosim kabi omillar ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, muammoni bartaraf etishning psixologik-pedagogik yo‘llari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘smirlik davri, o‘z-o‘zini anglash, axborotlashgan jamiyat, identifikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli muhit, media savodxonlik.

Abstract: This article analyzes the transformational changes occurring in the process of adolescents' self-awareness in the context of the information society and their socio-psychological problems. Such factors as the influence of the digital environment on personality development, conflicts in the identification process, social comparison, virtual dependence, and cyber-pressure are covered on a scientific basis. Psychological and pedagogical ways to overcome the problem are also proposed.

Keywords: Adolescence, self-awareness, information society, identity, social networks, digital environment, media literacy.

O‘smirlik davri shaxs shakllanishining eng nozik bosqichidir. Bu davrda o‘zlikni anglash, shaxsiy qadriyatlar tizimini yaratish, ijtimoiy rol va o‘z hayotiy maqsadini aniqlash jarayonlari sodir bo‘ladi. O‘smirlik — bu o‘zini kashf etish, o‘ziga baho berish va “men kimman?” degan savolga javob izlash davridir. Ammo axborot globallashuvining keskin tezlashuvi bu jarayonni o‘zgartirib, o‘smirni ko‘p manbali, turfa, ba’zan esa qarama-qarshi ma’lumotlar muhitida o‘zini aniqlashga majbur qilmoqda. Bu holat shaxsda refleksiv, emotsional va ijtimoiy-motivatsion tizimlarning o‘zaro muvozanatini talab qiladi.

Raqamli maydonda o‘smirlar o‘z “virtual men”larini yaratadilar. Ijtimoiy tarmoqlarda ular o‘zlarini boshqacha tasvirlaydilar, bu esa real “men” va virtual “men” o‘rtasida tafovutni keltirib chiqaradi. Natijada shaxsning o‘z-o‘zini anglash

jarayoni ikki sathda — real va virtual shaklda kechadi. Bu ikki yo‘nalish o‘rtasidagi nomuvofiqlik esa o‘smirlik davrida emotsional ziddiyat, ichki beqarorlik, o‘zini qadrlash muammolari va ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. Shu sababli, axborot globallashuvi sharoitida o‘z-o‘zini anglashni psixologik fenomen sifatida tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘smirlik davridagi o‘z-o‘zini anglash transformatsiyasi quyidagi uchta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘lmoqda:

1. **Identifikatsiyaning virtualizatsiyasi:** O‘smir o‘z shaxsini real hayotda emas, balki ijtimoiy tarmoqlardagi "profil" orqali prezentatsiya qiladi. Bu "Raqamli Men"ning real shaxsdan ustunlik qilishi va natijada shaxsiyatning fragmentatsiyasiga olib keladi.

2. **Kognitiv o‘zgarishlar:** Axborotning haddan tashqari ko‘pligi o‘smirlarda “klipcha fikrlash”ni shakllantiradi. Bu esa chuqur tahliliy fikrlash va introspeksiya (o‘z ichiga nazar tashlash) qobiliyatini susaytiradi.

3. **Ijtimoiy-psixologik xavflar:** Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘smirlarning 65% dan ortig‘i o‘z qadr-qimmatini ijtimoiy tarmoqlardagi “like” va ijobiy izohlarga qarab baholaydi. Bu esa o‘z-o‘zini baholashning tashqi omillarga o‘ta bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘smirlik davridagi o‘zini anglash transformatsiyasi ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq. Bu davrda o‘smir uchun tengdoshlar bilan aloqa, do‘stlik, tan olinishi va muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu jarayonda o‘smir o‘zini boshqalarning ko‘zlari orqali ko‘radi, ularning fikri va bahosiga katta e’tibor beradi. Agar bu baho ijobiy bo‘lsa, o‘smirning o‘ziga ishonchi ortadi; salbiy bo‘lsa, o‘zini past baholash, izolyatsiya yoki isyonkorlik holatlari paydo bo‘ladi. Shu bois, o‘smirlikda ijtimoiy muhit bilan o‘zaro munosabat o‘zini anglashni shakllantiruvchi muhim determinantlardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Axborot globallashuvi davrida o‘smir shaxsining o‘zini anglash jarayoni madaniy, ijtimoiy va psixologik o‘zgarishlarning kesishgan nuqtasida kechadi. Bu davrda o‘smir shaxs o‘z “men” tizimini turli madaniyatlar, qadriyatlar va ijtimoiy rollar bilan uyg‘unlashtirish orqali yangilaydi. Madaniyat va shaxs o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir o‘smirning refleksiv tafakkurini kuchaytirib, uni mustaqil identitet izlanishiga yo‘naltiradi. Globallashuv sharoitida o‘zini anglash doimiy qayta qurilish jarayoniga aylanib, o‘smirda ijtimoiy mas’uliyat, bag‘rikenglik va madaniy moslashuv sifatlarini rivojlantiradi. Bu jarayon faqat ruhiy kechinmalar bilan emas, balki axborot oqimlari, ijtimoiy baho va madaniy signallar orqali ham shakllanadi. O‘smirning ichki barqarorligi, o‘ziga bo‘lgan ishonchi va refleksiv fikrlash darajasi aynan shu o‘zaro uyg‘unlikdan kelib chiqadi. Shu bois, o‘smirlik davri — bu o‘zlikni yangilash, ijtimoiy xavflarni anglash va o‘z hayotining ma’nosini ongli ravishda qurish davri sifatida qaraladi.

Psixologik jihatdan, o‘smirlik davri “shaxsiy men”ning shakllanishi uchun o‘tish bosqichi bo‘lib, unda o‘zini anglash jarayoni o‘zaro ta’sir etuvchi omillar tizimi orqali kechadi. Biologik yetilish, gormonal o‘zgarishlar va hissiy beqarorlik o‘smirning o‘zini qabul qilishiga ta’sir etuvchi ichki omillar bo‘lsa, ijtimoiy muhit,

oila, maktab va axborot vositalari tashqi omillar sifatida bu jarayonga yo‘naltiruvchi kuch vazifasini bajaradi. O‘smirlikdagi o‘zini anglash jarayoni, shuningdek, shaxsning o‘z fikrlarini tahlil qilish, o‘z xulq-atvorini baholash va ijtimoiy me’yorlarga nisbatan munosabat bildirish kabi refleksiv faoliyatlar orqali chuqurlashadi. Shu davrda o‘smir shaxsiy qarorlar qabul qilishda ichki motivlar va tashqi ta’sirlar o‘rtasida muvozanatni topishga harakat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, shaxsning avtonomiyasi va ichki nazorat mexanizmlarini shakllantiradi.

Bizning xulosamizcha, raqamli va globallashgan axborot muhiti o‘smir shaxsining o‘zini anglash jarayonini tubdan o‘zgartirib, uni tarmoq asosidagi yangi ijtimoiy munosabatlar tizimiga olib kirdi. Zamonaviy o‘smir o‘z “men”ini virtual maydon orqali ifodalaydi, shu bilan birga, tashqi baho va ijtimoiy tarmoqlardagi tasdiqqa nisbatan sezuvchanlik kuchayadi. Axborot oqimining cheksizligi tanlovlar ko‘pligini yuzaga keltirib, bu holat o‘z navbatida o‘smirda refleksiv fikrlash, tahliliy yondashuv va mas’uliyat hissini shakllantirishni talab etadi. Raqamli madaniyatda o‘zini anglash jarayoni nafaqat kommunikativ, balki ijtimoiy-psixologik hodisaga aylanib, shaxsning o‘zini kuzatish, tahlil qilish va qayta baholash qobiliyatini kuchaytiradi. Shu jarayon o‘smirni erkin fikrlovchi, tanqidiy yondasha oluvchi va global qadriyatlarga moslashuvchan subyektga aylantiradi. Shu bilan birga, o‘zini anglash endi shunchaki ruhiy kechinma emas, balki raqamli muhitda ongli tanlov va identitet qurilishining faol mexanizmidir. Natijada, o‘smir o‘zini global axborot tarmog‘ida ham ijtimoiy, ham ma’naviy jihatdan o‘z hayotining muallifi sifatida shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shoumarov G‘.B. (2020). O‘smirlik davrida shaxsning ijtimoiy-psixologik rivojlanishi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – 220 b.

2. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. – М.: Прогресс, 2006. – 344 с. (Теория психосоциального развития, кризис идентичности подростков).

3. Ivanov I., Zufarova M. “Umumiy psixologiya”. O‘z.FMJ., 2008.

4. Do‘stmuxammedova SH.A. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. O‘quv qo‘llanma. –. Toshkent-2020

XALQ PEDAGOGIKASIDA YOSHLARNI RUHIY VA AQILAN TARBIYALASH USULLARI

Genjemuratov Bayram Orınbaevich - Innovatsion texnologiyalar universiteti dotsenti v.v.b.

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636564

Annotatsiya: Qoraqalpoq xalq milliy oyinlari pedagogikasi asosida yosh avlodni tarbiyalashdagi samarali vosita sifatidagi o‘rni yoritilgan. Qoraqalpoq madaniy merosida jasorat, vatanparvarlik, adolat va Vatanga sadoqat kabi qadriyatlar tarbiya jarayonida alohida ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Muallif jasorat, qo‘rquv, mas’uliyat va axloqiy fazilatlar tushunchalarini g‘arbiy faylasuflar hamda qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodi misolida tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: jasorat, xalq pedagogikasi, tarbiya, yoshlar, vatanparvarlik, qoraqalpoq madaniyati, axloqiy qadriyatlar, doston, qahramonlik, an’ana.

Abstract: The article highlights the role of Karakalpak national games as an effective tool in educating the younger generation based on the pedagogy of the Karakalpak people. It is emphasized that in the cultural heritage of Karakalpaks, such values as courage, patriotism, justice, and loyalty to the Motherland are of particular importance in the process of upbringing. The author analyzes the concepts of courage, fear, responsibility, and moral qualities using the examples of Western philosophers and Karakalpak folk folklore.

Keywords: courage, folk pedagogy, upbringing, youth, patriotism, Karakalpak culture, moral values, epic, heroism, tradition.

Xalq pedagogikasi tarbiyaning maqsad va vazifalari borasida muayyan xalqning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlar majmui; muayyan jamiyatda yashash uchun har bir odam amal qilishi shart sanalgan va urf-odat, udum, xulq-odob, marosim, an’ana, turmush tarzi, badiiy ijod, uyin singari empirik vositalarda namoyon bo‘ladigan amaliy faoliyat hamdir. Xalq pedagogikasi fanda *etnopedagogika* deb ham yuritiladi. Pedagogika fanida Xalq pedagogikasiga xos eng muhim belgilaridan biri uning qadimiyligidir. Har qanday xalq muayyan etnos sifatida mavjud bulishi uchun o‘ziga xos qiyofaga ega bo‘lishi kerak. Xalqning ijtimoiy, ma’naviy, intellektual qiyofasi esa uning pedagogika vositasidagina shakllanadi. Xalq pedagogikasi muayyan xalqning o‘zi bilan birga dunyoga kelgani uchun ham uning tarixi xalq tarixi bilan teng. Xalq pedagogikasining ikkinchi belgisi uning to‘liq amaliy xususiyatga egaligidir. Xalq ta’lim-tarbiya jarayoni va uning natijalariga pragmatik nazar bilan qaragani uchun Xalq pedagogikasi g‘oyalar shaklida emas, balki urf-odat, an’ana, amal, udum, xulq-odoblar tarzida namoyon bo‘ladi. Xalq pedagogikasi ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlar yig‘indisi emas, balki amal qilinishi majburiy bo‘lgan va bajarilishi hamma tomonidan nazorat qilinadigan amaliy xulqiy ko‘nikmalar va sh.k. majmuidir. Xalq pedagogikasining uchinchi xususiyati uning muallifi noma’lum, anonim pedagogika ekanligidir.

Xalq pedagogikasi talablarining yaratuvchisi ma’lum bo‘lmaganligi uchun ham muqaddas sanalgan va so‘zsiz bajarilgan. Etnopedagogikaga doir biror talabning muallifi ma’lum bo‘lsa, uning ta’siri pasayib ketadi. Chunki u, kim bo‘lsada, qandaydir bir odamning istagi sifatida qabul etiladi. Anonimlik esa urf-odat, udum, xulq-odatlarga sirlilik, muqaddaslik tusini beradi. Xalq pedagogikasining to‘rtinchi belgisi uning sinkretik (qorishiq) xususiyatga egaligidir. Xalq hayoti ko‘p qirrali ekani holda yaxlit bo‘lgani singari uning pedagogikasi ham qorishiqdir. Xalqning turli yo‘nalishdagi pedagogik tadbirlari sinkretik tarzda birvarakaiiga olib borilgani uchun Xalq pedagogikasiga alohidalik emas, umumiylik xosdir. Xalq pedagogikasining beshinchi belgisi uning keng yoyilganligidir. Xalq pedagogikasiga oid amallar muayyan etnik birlikning hammasiga birday tatbiq qilinadi. Muayyan shaxslarning xohishirodasi qandayligidan qat’i nazar, xalqning har bir vakili uning tarbiya va yashash tarziga doir talablariga rioya etishga majbur. Xalq pedagogikasi talablarini bajarishda

tarbiyalanuvchining istaklari inobatga olinmaydi. Muayyan etnik birlikning turmush tarzida namoyon bo‘lishi Xalq pedagogikasining oltinchi xususiyatidir. Xalq pedagogikasi empirik tabiatga ega bo‘lib, jamiyat a’zolari hayotini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan va uning qoidalari muhokama uchun emas, balki turmush mobaynida amal qilish uchundir.

O‘zbek Xalq pedagogikasi uzoq tarixga ega va millatdagi eng konservativ, sekin o‘zgaradigan, ana shu xususiyati tufayli xalqning o‘ziga xos qiyofasi saqlanib qolishini ta’minlaydigan hodisa ekanligiga qaramay, o‘z taraqqiyoti davomida bir qator o‘zgarishlarni boshidan kechirdi. O‘zbek Xalq pedagogikasi ning taraqqiyot tarixi islomgacha bo‘lgan davr xalq pedagogikasi, islom ta’siri davri xalq pedagogikasi, tashqi ta’sirlar davri xalq pedagogikasi, mustaqillik davri xalq pedagogikasi singari bosqichlardan iborat[2, 7-15].

O‘zbek Xalq pedagogikasining bu tarzda davrlashtirishda xalq ruhiyati, yashash va fikrlash tarzidagi tub sifat belgilarining o‘ziga xosligi hisobga olingan. Ko‘p ming yillik tarixga ega o‘zbek xalqi ilmiy va moddiy buyum tarzidagi dalillarga ko‘ra, islom dini qabul qilingungacha bo‘lgan vaqtda tamomila o‘ziga xos tarzda hayot kechirgan. Olam hodisalarini o‘zgacha yo‘sinda tushungan va izohlagan, hayotdan boshqacha ta’sirlangan va ta’sir ko‘rsatgan, tiriklik va o‘lim, u dunyo va bu dunyo, ezgulik va yovuzlik, go‘zallik va xunuklik, savob va gunoh, halol va harom singari tushunchalar o‘zgacha mazmun anglatgan. “Avesto” asari yuzasidan amalga oshirilayotgan tadqiqotlar, shuningdek, Selengur, Xorazm, Bolaliktepa, Issiqqo‘rg‘on, Chust, Rishton va Burchmulladan topilgan obidalar shundan dalolat beradi. Islom dinining qabul qilinishi o‘zbek xalqining turmush tarzini tamomila o‘zgartirib yubordi, uni olamning musulmonlar deb atalmish ko‘p sonli qavmi bilan yaqinlashtirdi, xalqning turmush 132edag, madaniyati, ma’naviyati, ruhiyati, iqtisodi va ijtimoiy turmushiga favqulodda katta ta’sir ko‘rsatdi. Ayni vaqtda, xalq o‘zining azaliy milliy qiyofasini ham saqlab qoldi. Chunki u qadimdan puxta shakllangan va qat’iy amal qilinadigan udumlar, odatlar, an’analar tizimiga ega edi[1, 5-11].

Xalq islomni qabul qilgandan keyin uning yashash, fikrlash, ta’sirlanish tarzida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar Xalq pedagogikasida aks etdi. Endi xalq halol va harom, gunoh va savob, taqdir, qismat, u dunyo va bu dunyo, hayot, o‘lim hamda qayta tirilish borasida tamomila yangi qadriyatlarni o‘zlashtirdi, ularni hayot tarziga, udumlarga, urf-odatlarga, an’analarga, marosimlarga, ya’ni pedagogikaga aylantirdi. Bu davrdagi xulqatvor, an’ana, udum, odatlar ma’naviy turmushdagi ayni shu jihatlarni aks ettiradigan bo‘ldi. O‘zbek millati juda uzoq vaqt mobaynida islom dini ta’siridagi Xalq pedagogikasiga amal qilgan holda yashadi. XIX asrning 2-yarmiga kelib, Rossiya bosqini sababli o‘zbek xalqining turmush pedagogik, fikrlash yo‘sini, tarbiya tamoyillarida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Faqat islom dini belgilagan turmush pedagogik, akida, an’ana va odatlar bilangina yashash mumkin bo‘lmay qoldi. Xalqning ongi, axloqi, fikri, turmushi o‘zgarishi bilan uning pedagogikasi ham o‘zgarishlarga uchradi. Yangi an’ana va odoblar paydo bo‘ldi, ayrim pedagogik qadriyat, axloqiy aqidalar esa yo‘qoldi. Xalq pedagogikasidagi yo‘qotishlar, ayniqsa, sho‘ro davrida keng tus oldi. Xalq pedagogikasi tufayli shiddatli o‘zgarishlar girdobida qolgan o‘zbek millati o‘z

qiyofasini saqlab qola bildi. Istiqlol natijasida esa o‘zbek xalqining fikrlash, yashash, olamni anglash va izoxlash yo‘sini yangilandi, xalq ruhiyati, ma’naviy qiyofasi o‘zgardi. Bu o‘zgarishlar xalqning turmush tarzida paydo bo‘layotgan yangi odat, an’ana, xulq-atvor, urf va udumlar tarzida namoyon bo‘lmoqda. Mustaqillik davri Xalq pedagogikasida ko‘plab islomiy an’analar qayta tiklanib, amaliy tarbiya jarayoniga tatbiq etila boshlandi. Xalq pedagogikasi tarixiy tushuncha sifatida hozirgi kunda ham zamon talablariga moye ravishda boyib bormoqda va jiddiy amaliytarbiyaviy ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa qilib ayadigan bo’lsak bu masala ayniqsa yoshlarni martlik va botirlk ruhida tarbiyalashda xalq pedagogikasi katta ahamiyatga ega sababi bu a’nana qadim zamonlardan shu kunga qadar katta ahamiyatga ega b’lib kelgan. Bu tajribalar hozirgi kunga qadar o’zining ahamiyatina yoqatmastan kelmoqda.

Shu, sababli bu ishlarni boqsha yoshidan keng orgatib borish katta ahamiyatga ega bolib hisoblnadi

Foydalangan adabiyotlar ro’yaxti:

1. Mutalipova.M.J., Xalq pedagogikasi.-T.: “Fan va texnologiya”, 2015, 160 bet. O‘quv qo‘llanma.

2. Djamilova N.N., Terexova O.E, Kim I.N , Teoriya i metodika fizicheskogo vospitaniya.-T.: “NIF MSh”- 2020 y , 292 bet. O‘quv qo‘llanma.

MEKTEP OQÍWSHÍLARÍN QARAQALPAQ XALÍQ JUMBAQLARÍ TIYKARÍNDA LOGIKALÍQ PIKIRLEWGE ÚYRETIW

Mırzanova Gózzal – Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti, Pedagogika tálim baǵdarı 1-kurs studenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19633732

Annotaciya. Bul maqalada mektep oqıwshıların qaraqalpaq xalıq jumbaqları tiykarinda logikalıq pikirlewge úyretiw máselesi sáwlelenedi.

Tayanish sózler: qaraqalpaq xalıq jumbaqları, logikalıq pikirlew,oqıwshı, tálim-tárbiya.

Annotation. This article explores the issue of teaching students logical thinking based on Karakalpak folk riddles.

Keywords. Karakalpak folk riddles, logical thinking, student, education

Mektep oqıwshıların qaraqalpaq xalıq jumbaqları tiykarnıda logikalıq pikirlewge úyretiw máselesi búgingi kún bilimlendiriw tarawındaǵı eń aktual máselelerden biri esaplanadi. Bul baǵdarda mektep oqıwshısı kim ekenligine itibar qaratsaq – ol tálim-tárbiya procesiniń belsendi qatnasıwshısı, ulıwma orta bilim beriw orayinda tálim alıp,bilim hám kónlikpelerdi iyelep atırǵan, hámde jámiyette óz ornın tabıwǵa tayarlanıp atırǵan jas áwlad wákili. Usı mektep dáwirinde oqiwshılardıń aqılıy potencialin duris baǵdarlaw, erkin pikirlewin rawajlandırıw júdá áhmiyetli.

Logikalıq pikirlew – bul maǵlıwmatlardı talqılaw, olar arasındaǵı baylanıslıliqtı tabıw hám keri nátiyjelerge tiykarlanǵan kórsetpelerdi shiǵariw

uqıplılıǵı. Bul proceste sezimlerge emes, bálki faktlerge hám dálillerge súyenedi. Ol insannıń durıs sheshim qabıllawına hám turmısta óz ornin tabıwına tiykar boladı.

Qaraqalpaq xaliq jumbaqları – ata-babalarımizdıń ásirler dawamında toplaǵan turmıslıq tájiriybesi, tapqırlıǵı hám kórkem oylawınıń jemisi esaplanadı. Sonıń ushında jumbaqlardan hár qıylı dáwirlerde jasaǵan adamlardń ómiri, turmısı, jasaw jaǵdayları menen dúnya túsinigi jóninde qızıqlı maǵlıwmatlardı tabıwǵa boladı. Sonıń menen birge, jumbaqlar xalıq poeziyasınıń bir forması sıpatında áyyem zamanlardan tartıp, tap usı búginge shekem onıń hár qıylı mánilerdi aytılıw usılların, gáp qurıw ádisleri hám túsiniklerin ózinde qásterlep saqlap kiyatirǵanınıń gúwasi bolamız.

Adamlar turmısta qollanıp kiyatırǵan ápiwayı zatlardıń, miynet qurallarınıń, kúndelikli uslap tutqan buyımlarınıń ózlerine tán sırlı belgilerine dıqqatımızdı awdartıp onı hár tárepleme bilip aliwǵa májbúrleydi.

Jumbaq - bir zat yamasa hádiysenıń atın atamay, onıń ózine tán belgilerin jasırın túrde súwretlew arqalı tabıwdı talap etetuǵın kórkem sóz óneriniń túri.

Jumbaqlardıń oqıwshı sanasına, yaǵnıy logikalıq pikirlewine bolǵan tásiri oǵada keń. Birinshiden, jumbaq sheshiw procesinde oqiwshiniń zeyini hám de este saqlaw qábileti shınıg’adi. Ekinshiden, ol balani oylawǵa, salıstırıwǵa, abstrakt oylawǵa úyretedi.

Jumbaqtıń juwabın izlew – bul oqıwshı shaxsı ushın kishigirim izertlew jumısı siyaqlı boladı. Ol jasırilǵan mánini tapqanda, ózine bolǵan isenimi artadı.

Oqıwshılardı logikalıq pikirlewge úyretiwde qarqalpaq xalıq jumbaqlarınan nátiyjeli paydalanıw ushın oqıtıwshi olardı oqıwshılardıń jas ózgesheliklerine mas ráwishte tańlawi, sabaq procesinde izbe-iz hám sistemali qollawi lazim. Dáslep ápiwayi hám túsinikli jumbaqlardan baslap, keyin ala tereńirek hám qıyınıraq mazmunǵa iye bolǵan jumbaqlarǵa ótiledi. Oqıwshılar menen birgelikte jumbaqtı analiz qılıw, ondaǵı jasırın mánini ashıw, talqılaw arqalı olardıń aqıl-oyı jáne de rawajlanadı.

Alımlarda insan aqıl-oyın rawajlandırıwda pikirlewdiń áhmiyetin ayrıqsha aytıp ótken. Misalı ushın, áyyemgi grek filosofi Demokrit logikalıq oylawdı “zatlardıń ishki mánisin kóre biliw” dep esaplaǵan. Oniń pikirinshe, insannıń aqılı sırtqı kórinisten ishki sebep-nátiyje baylanislarına ótiwi zárúr. Jumbaq sheshiw procesi tap Demokrit aytqanday, sirtqi jasirin belgilerden (metaforadan) zattiń haqiqiy mánisine qaray umtılıw bolıp tabıladı. Ol bilim alıwdı “ziyreklik hám izleniwsheńlik” penen baylanıstıradı. Jáne de, logika iliminiń atası Aristotel jumbaqlar haqqında arnawlı toqtalıp ótken. Ol óziniń “Poetika” miynetinde: “Jumbaqtıń mánisi – zatlar haqqında ayta otırıp, olardı múmkin bolmaǵan baylanıslar arqalı súwretlew” – deydi. Aristotel jumbaq sheshiwdi metoforalıq oylawdıń eń joqarı túri dep esaplaǵan. Onıń pikirinshe, jumbaq adamdı logikalıq qayshılıqlardı sheshiwge hám ziyreklikke úyretedi.

Y.A.Komenskiydiń pikirinshe, ol jumbaqlardı balanıń zeynin toplaw hám logikalıq oylawın jetilistiriwdegi eń nátiyjeli, xalqlıq metod dep bahalayı. Onıń pikirinshe, qızıqlı jumbaq arqalı berilgen bilim balanıń yadında bekkem saqlanadı.

Juwmaqlap aytqanda, qaraqalpaq xalıq jumbaqları mektep oqıwshılarınıń logikalıq pikirlewin rawajlandırıwdağı ornı júdá úlken. Jumbaqlar arqalı oqıwshılar erkin pikirlewdi, durıs sheshim qabıl etiwdi, mashqalalardı sheshiwdi úyrenedi. Sol sebeplide, tálim-tárbiya processinde jumbaqlardan keńirek paydalanıw maqsetke muwapıq boladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi:

1. Qaraqalpaq awızeki xalıq dóretpeleri. Dúziwshi: Q.Mámbetnazarov. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1990. – 216 b.
2. Álewov Ó. Qaraqalpaqstanda tálim-tárbiyalıq oylardıń qáliplesiwi hám rawajlanıwı. – Nókis: Bilim, 1993. – 504 b.
3. Qazaqbaev S. Qaraqalpaq salt-dástúr jırları (metodikalıq qollanba). – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2012. – 32 b.

O‘QUV FAOLIYATI DAVOMIDA O‘QITISH JARAYONINING MOTIVATSION KOMPONENTINI AMALGA OSHIRISH

Kuandikova Guljayna – Innovatsion texnologiyalar universiteti “Psixologiya” ta’lim yo‘nalishi talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636963

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘quv faoliyati jarayonida motivatsiyaning o‘rni, uning pedagogik jarayondagi ahamiyati hamda ta’lim samaradorligini oshirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarda ichki va tashqi motivlarni shakllantirish usullari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida motivatsion komponentni amalga oshirish yo‘llari tahlil qilinadi.

Annotation: This article highlights the role of motivation in the process of educational activity, its significance in the pedagogical process, and its role in increasing the effectiveness of education. Also, methods of forming internal and external motives in students, ways of implementing the motivational component based on modern pedagogical technologies are analyzed.

Kalit so‘zlar: motivatsiya, o‘quv faoliyati, ichki motiv, tashqi motiv, ta’lim samaradorligi, pedagogik texnologiya, rag‘batlantirish, qiziqish, faol o‘qitish

Key words: motivation, learning activity, internal motive, external motive, learning effectiveness, pedagogical technology, encouragement, interest, active learning.

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning faolligini oshirish, bilimlarni mustahkam egallashini ta’minlash hamda mustaqil fikrlashini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda motivatsiya alohida o‘rin tutadi. Chunki motivatsiya o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan munosabatini belgilaydi, uning bilim olishga intilish darajasini shakllantiradi.

O‘qitish jarayonining samaradorligi nafaqat berilayotgan bilim mazmuniga, balki o‘quvchini shu bilimlarni o‘zlashtirishga undovchi ichki ehtiyoj va qiziqishlarga ham bog‘liqdir. Shu sababli motivatsion komponentni to‘g‘ri tashkil etish pedagogning asosiy vazifalaridan biridir.[1].

O‘quvchilarning o‘qishga ijobiy munosabatini shakllantirish yo‘llaridan biri o‘quvchilarning xulq-atvorini va ularning psixologik fanlarni o‘rganishga bo‘lgan munosabatini aniqlashni ta’minlaydigan shaxsning bilish faoliyati motivlari tizimini yaratishdir. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘quvchilarda bilish qiziqishini rivojlantirish uchun ta’limning eng samarali usullarini birlashtirish o‘qishga undaydi va maktab o‘quvchilarining tegishli amaliy faolligini shakllantiradi. Ushbu faoliyatning muhim tarkibiy elementi motivatsiya bo‘lib, unda maktab o‘quvchilarining o‘qishga bo‘lgan munosabati namoyon bo‘ladi [2].

Motivatsiya - bu shaxsni muayyan faoliyatga undovchi ichki va tashqi omillar majmuasidir. Ta’lim jarayonida motivatsiya o‘quvchining bilim olishga bo‘lgan ehtiyoji, qiziqishi va intilishlari orqali namoyon bo‘ladi.

Motivatsiya ikki turga bo‘linadi:

- **Ichki motivatsiya** - o‘quvchining o‘z qiziqishi, bilimga chanqoqligi asosida shakllanadi.

- **Tashqi motivatsiya** - baho, mukofot, rag‘bat yoki jazoga asoslangan holda yuzaga keladi.

Eng samarali ta’lim jarayoni ichki motivatsiya ustun bo‘lgan holatda yuzaga keladi.

Motivatsion komponent o‘qitish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u quyidagi funksiyalarni bajaradi: o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, bilimlarni chuqur o‘zlashtirishga yordam beradi, mustaqil fikrlash va ijodkorlikni rivojlantiradi, o‘quv jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Agar darsda motivatsiya yetarli darajada tashkil etilmasa, o‘quvchilarda befarqlik, sustlik va qiziqishning pasayishi kuzatiladi [2].

Ta’lim jarayonida motivatsiyani shakllantirish uchun quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

- **Muammoli vaziyat yaratish.** O‘qituvchi dars boshida muammoli savol yoki vaziyatni qo‘yish orqali o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otadi. Bu usul o‘quvchini faol fikrlashga undaydi.

- **O‘yin texnologiyalaridan foydalanish.** Ayniqsa maktabgacha va boshlang‘ich ta’limda o‘yin orqali o‘qitish motivatsiyani oshiradi. O‘yin jarayonida o‘quvchilar bilimni oson va qiziqarli o‘zlashtiradi.

- **Rag‘batlantirish tizimi.** Ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish (maqtov, sovrin, sertifikat) o‘quvchilarning faolligini oshiradi. Ammo bu usul ichki motivatsiyani susaytirmasligi kerak.

- **Individual yondashuv.** Har bir o‘quvchining qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojlarini hisobga olish motivatsiyani oshiradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim bu borada muhim ahamiyatga ega.

- **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.** Multimedia, interaktiv taqdimotlar va raqamli vositalar darsni yanada qiziqarli qiladi va o‘quvchilarni jalb etadi [2].

Quyidagi omillar o‘quvchilarda motivatsiyaning pasayishiga olib kelishi mumkin:

- darsning bir xil va zerikarli tashkil etilishi;

- o‘qituvchining faqat ma’ruza uslubidan foydalanishi;

- o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari e’tiborga olinmasligi;
- haddan tashqari tanqid va bosim;
- muvaffaqiyatsizlik hissining ortib borishi.

Shu sababli pedagog har bir darsda motivatsion muhitni yaratishga intilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, o‘quv faoliyati davomida motivatsion komponentni samarali amalga oshirish ta’lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir. O‘quvchilarda ichki motivatsiyani shakllantirish, ularning qiziqishini uyg‘otish va faol ishtirokini ta’minlash orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Zamonaviy pedagog o‘z faoliyatida innovatsion metodlardan foydalanib, har bir o‘quvchi uchun qulay va rag‘batlantiruvchi ta’lim muhitini yaratishi lozim. Faqat shunda ta’lim jarayoni samarali va mazmunli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Педагогическая психология. под ред. В.В. Давыдова. - М., - 1999.
2. Маркова А.К. Формирование интереса к учению у учащихся. - М., - 2000.
3. F.R.Abduraxmonov, Z.E.Abduraxmonova Kasb psixologiyasi Toshkent. 2018 y

TA’LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING YOSHLAR ONGGIGA TA’SIRI

Aytımbetov Maxsetbay Zinatdin ulı – Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti Pedagogika hám psixologiya kafedrası baslıǵı, p.i.b.f.d. (PhD), docent

Jo‘raqulova Navro‘zgul Najmiddinovna - Innovatsion texnalogiyalar universiteti Pedagogika yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635834

Annotatsiya: Mazkur tezisda global ta’lim makonida pedagogika va psixalogiya fanlarining o‘rni ,ularning o‘zaro integratsiyasi hamda zamonaviy ta’lim tizimida yuzaga kelayotgan dolzarb muammolar tahlil qilinadi .SHuningdek,raqamlashtirish,masofaviy ta’lim va o‘quvchilarning psixologik holati bilan bog’liq masalalar yoritiladi.Hozirgi zamonaviy texnalogiyalarning yoshlar ongiga ta’siri o‘rganib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Psixologiya,pedagogika,global ta’lim,raqamlashtirish,milliy qadriyatlar va milliy madaniyat,global standartlar uyg’unligi,mativ va mativatsiya, kompetensiya,raqamli savodxonlik,

Abstract: This thesis analyzes the role of pedagogy and psychology in the global educational space ,their mutual integration ,and current problems in the modern education system .It also covers issues related to digitization ,distance learning ,and the psychological state of students.

Keywords: Psychology ,pedagogy ,global education,digitalizion,national values and national culture, harmonization of global standards,content and content and competence ,digital literacy.

Kirish: Bugungi kunda jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari ta’lim tizimini tubdan isloh qilishni va yangi texnologik bosqichga ko‘tarishni taqozo etmoqda. Bilim va tajriba almashinuvining tezlashishi yagona global ta’lim makonining shakllanishiga olib keldi. Bunday sharoitda pedagogika va psixologiya fanlarining o‘zaro integratsiyasi ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy omili sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga shiddat bilan kirib kelishi nafaqat o‘qitish metodikasini, balki yoshlarning axborotni qabul qilish va qayta ishlash mexanizmlarini ham o‘zgartirmoqda.

Zamonaviy axborot muhiti yoshlar onggiga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bir tomondan, masofaviy ta’lim va raqamli platformalar bilim olish imkoniyatlarini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, axborot ortiqchaligi, kiber-qaramlik va ijtimoiy izolyatsiya kabi psixologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Hozirgi kunda o‘quvchi-yoshlar orasida stress, motivatsiya pasayishi va diqqat tarqoqligi kabi holatlarning ko‘payishi pedagoglardan yangicha kompetensiyalarni — raqamli savodxonlik bilan birga yuksak psixologik tahlil qobiliyatini ham talab etmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi global ta’lim sharoitida zamonaviy texnologiyalarning yoshlar onggiga ta’sirini tahlil qilish, raqamlashtirish jarayonida yuzaga keladigan psixologik to‘siqlarni aniqlash hamda milliy qadriyatlar va xalqaro standartlar uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha ilmiy-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Asosiy qism: Hozirgi globallashuv jarayonida ta’lim tizimi jadal o‘zgarishlar bosqichini boshdan kechirmoqda. Bu jarayonda pedagogika va psixologiya fanlari oldida bir qator muhim muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan, sun’iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi, hamda masofaviy o‘qitish shakllarining kengayishi pedagogik yondashuvlarni qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Zamonaviy ta’lim muhitida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning psixologik holatini o‘rganish va qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, yoshlar orasida stress axborot ortiqchaligi va motivatsiya pasayishi kabi psixologik muammolar kuchayib bormoqda. Bu esa psixologik xizmatlarni ta’lim tizimiga integratsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, global ta’lim standartlari bilan milliy qadryatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash ham dolzarb masalalardan biridir. Pedagoglar nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni shakllantiruvchi mutaxassis sifatida yangi ko‘rinish paydo etadi. Nafaqat pedagoglar, balki psixolog uchun ham har tomonlama bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirilib borilishi bugungi raqamlashtirish zamonining eng muhim vazifalaridan biridir.

Zamonaviy ta’lim tizimi an’anaviy yondashuvlardan innovatsion metodlarga o‘tishni talab qilmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt va onlayn platformalar ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirmoqda. Natijada pedagoglardan quyidagi yangi kompetensiyalar talab etilmoqda:

- raqamli savodxonlik
- individual yondashuvni ta’minlash
- interaktiv metodlardan foydalanish

- kreativ fikrlashni rivojlantirish .

Biroq, barcha hududlarda texnologik imkoniyatlarning bir xil emasligi ta’lim sifati o‘rtasida tafovutlarni yuzaga keltirmoqda.

Global ta’lim muhitida o‘quvchilarning psixologik holati muhim omil hisoblanadi. Axborot oqimining ortishi, yuqori raqobat va ijtimoiy bosim quyidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda:

-stress va charchoq;

-diqqatning pasayishi;

-motivatsiyaning yo‘qolishi;

-ijtimoiy izolyatsiya ;

Shu bois ta’lim muassasalarida psixologik xizmatlarni kuchaytirish, o‘quvchilarga individual yondashuvni qo‘llash zarur.

Global ta’lim makonida pedagogika va psixalogiya fanlari o‘zaro uzviy bog’liq holda rivojlanmoqda. Zamonaviy muammolarni hal etish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, psixologik qo‘llab–quvvatlash tizimini kuchaytirish hamda ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, global va milliy qadryatlar uyg’unligini ta’minlash ta’limning barqaror rivojlanishini balkim, yoshlar ongining turli ta’sirlardan himoya qilishning bir bosqichini amalga oshiradi desak adashmagan bo‘lamiz. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchi yoshlarning psixologik salomatligi dolzarb masalalardan biridir. O‘zbekistonda ham yoshlar orasida:

- stress va xavotir darajasining oshishi ;
- o‘qishga bo‘lgan qiziqishning pasayishi;
- ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik;
- kasb tanlashdagi noaniqlik kabi muammolar kuzatilmoqda.

Bu muammolar esa ta’lim sifatini pasayishiga katta ta’sirini o‘tkazmoqda va o‘qituvchilardan har tomonlama samarali ish olib borishni kuchaytirmoqda.

Ta’lim jarayonida zamonaviy texnalogiyalarning yoshlar ongiga ta’sirini kamaytirish uchun nima qilish kerak?

Milliy qadryatlar va global standartlar uyg’unligini amalga oshirish ya’ni:

- Milliy madaniyat va an’analarni o‘rgatish ;
- Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ;
- Zamonaviy texnologiyalardan to‘g’ri maqsadda foydalanishni o‘rgatish va targ’ibot ishlarini amalga oshirish;
- Milliy va global muvozanatni saqlash.

O‘tkazilgan tahlillar va o‘rganilgan materiallar asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

1. Integratsiyaning zarurligi: Zamonaviy ta’lim jarayonida faqatgina texnologik imkoniyatlarga tayanib qolish kutilgan samarani bermaydi. Raqamli muhitda ta’lim sifatini oshirish uchun pedagogika va psixologiya fanlarining o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlash, ya’ni texnologiyani inson psixologik xususiyatlariga moslashtirish eng dolzarb vazifadir.

2. **Psixologik immunitetni shakllantirish:** Yoshlar onggiga zamonaviy texnologiyalarning salbiy ta’sirini (stress, kiber-qaramlik, izolyatsiya) kamaytirish uchun ularda axborot filtrlash ko‘nikmasini va "raqamli gigiyena" madaniyatini

shakllantirish lozim. Bu jarayonda ta’lim muassasalaridagi psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini tubdan isloh qilish va uni dars jarayoniga integratsiya qilish talab etiladi.

3. **Gibrid kompetensiyalar:** Zamonaviy pedagog nafaqat o‘z fanining mutaxassisi, balki raqamli texnologiyalar operatori va o‘quvchining ruhiy holatini boshqara oladigan tyutor darajasida bo‘lishi shart. Individual yondashuv va kreativ fikrlashni rivojlantirish an’anaviy ta’limning o‘rnini bosuvchi emas, balki uni boyituvchi omilga aylanishi kerak.

4. **Ma’naviy-texnologik muvozanat:** Global ta’lim standartlarini o‘zlashtirish jarayonida milliy qadriyatlar va vatanparvarlik tarbiyasini saqlab qolish yoshlar onggini yot g‘oyalar ta’siridan himoya qiluvchi eng ishonchli qalqondir. Milliy madaniyat bilan texnologik taraqqiyot o‘rtasidagi uyg‘unlik barkamol shaxsni shakllantirishning fundamental asosidir.

Xulosa qilib aytganda, raqamli ta’lim muhitida yoshlar onggini rivojlantirish – bu murakkab tizimli jarayon bo‘lib, u davlat, ta’lim muassasasi va oila hamkorligida amalga oshirilishi lozim. Faqatgina texnologik yutuqlarni insoniy qadriyatlar bilan muvofiqlashtirish orqali yuksak intellektual va psixologik sog‘lom avlodni tarbiyalash imkoni mavjud bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 464 b.

2. Djuraev R.X., Turgunbayev K.A. Pedagogik akmeologiya. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012. – 180 b.

3. Shodmonova Sh.S. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2011. – 120 b.

4. Ergashev N. Zamonaviy ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning psixologik jihatlari // Pedagogika va psixologiya fanlari integratsiyasi jurnali. – 2023. – №4. – 15-22-betlar.

BO‘LAJAK PSIXOLOGLARDA EMOTSIONAL INTELLEKT VA PROFESSIONAL IMIDJ O‘RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Gaipov Sanjar Yusupbaevich - Innovatsion texnologiyalar universiteti, assistent o‘qituvchi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636502

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak psixologlarda emotsional intellekt va professional imidj o‘rtasidagi bog'liqlikning nazariy jihatlari yoritilgan. Emotsional intellektning o‘z his-tuyg'ularini anglash, boshqarish, empatiya va o‘zini-o‘zi rag'batlantirish kabi komponentlari professional imidjning ishonchlilik, kommunikativlik va insonparvarlik ko‘rsatkichlari bilan uzviy aloqada ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak psixolog, emotsional intellekt, professional imidj, empatiya, emotsional barqarorlik, kasbiy identitet

Annotation. The article highlights the theoretical aspects of the relationship between emotional intelligence and professional image in future psychologists. It is substantiated that such components of emotional intelligence as awareness of one's feelings, management, empathy, and self-motivation are inextricably linked with the indicators of reliability, communicativeness, and humanity of the professional image.

Keywords: future psychologist, emotional intelligence, professional image, empathy, emotional stability, professional identity

Kirish. Zamonaviy oliy ta'lim sharoitida bo‘lajak psixologning professional tayyorgarligi faqat nazariy bilimlar yoki amaliy ko‘nikmalar bilan chegaralanmaydi. Uning kasbiy muvaffaqiyati ko‘p jihatdan atrofdagilar ko‘z o‘ngida qanday professional obraz yaratishi, ya'ni professional imidjining qanchalik barqaror, ishonchli va ijtimoiy maqbul shakllanganiga ham bog'liq. Shu nuqtai nazardan, emotsional intellekt bo‘lajak psixolog shaxsining ichki regulyativ resursi sifatida professional imidjni belgilovchi asosiy psixologik omillardan biri hisoblanadi. Emotsional intellektning rivojlanganligi mutaxassisga o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqa insonlarning kechinmalarini nozik sezish va muloqotni konstruktiv tashkil etish imkonini beradi [4; 5].

Asosiy bo‘lim. Ilmiy adabiyotlarda professional imidj shaxsning tashqi ko‘rinishi, kommunikativ uslubi, axloqiy pozitsiyasi, kasbiy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlar tizimida namoyon bo‘ladigan integral hodisa sifatida talqin etiladi [2; 3]. Psixolog kasbida ushbu hodisa ayniqsa muhim, chunki mijoz, talaba yoki hamkor mutaxassis haqida dastlabki tasavvurni ko‘pincha uning emotsional barqarorligi, tinglay olish qobiliyati, muloyimligi va ishonch uyg'ota olish darajasi asosida shakllantiradi. Demak, psixologning professional imidji tashqi atributlardan ko‘ra ko‘proq ichki psixologik yetuklik va emotsional madaniyatga tayangan holda namoyon bo‘ladi.

Ayniqsa, kelishuvchanlik va empatiya, shuningdek emotsional barqarorlik va o‘z emotsiyasini boshqarish o‘rtasidagi uyg'unlik professional imidjning insonparvar va ishonchli jihatini kuchaytiradi. Bunday talabalar muloqotda murosaga moyil, vaziyatga sezgir, hissiy jihatdan yetuk va boshqalarning ichki dunyosiga ehtiyotkor yondashuvchi mutaxassis sifatida qabul qilinadi. Aksincha, emotsional o‘zini boshqarish sust bo‘lgan shaxsda professional obrazning barqarorligi izdan chiqishi, muloqot madaniyatining pasayishi va kasbiy ishonchlilikning susayishi mumkin. Demak, professional imidj ko‘proq tashqi bezak emas, balki shaxsning ichki emotsional tashkiliy tizimining ijtimoiy ko‘rinishidir.

Shunday qilib, bo‘lajak psixologning professional imidji uning emotsional intellektidan ajralgan holda shakllanmaydi. Emotsional bilimdonlik professional o‘zini anglashni chuqurlashtiradi; o‘z emotsiyasini boshqarish ishonchlilik va vazminlikni ta'minlaydi; empatiya insonparvarlikni kuchaytiradi; o‘zini-o‘zi rag'batlantirish esa kasbiy o‘sishga yo‘naltirilgan faol pozitsiyani yuzaga chiqaradi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida psixologlarni tayyorlash jarayoniga emotsional intellektni rivojlantirishga yo‘naltirilgan maxsus diagnostik, trening va

refleksiv dasturlarni tizimli ravishda kiritish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Bo‘lajak psixologlarda professional imidjni shakllantirishga qaratilgan ishlar avvalo diagnostik bosqichdan boshlanishi kerak. Bunda talabalarning emotsional bilimdonligi, empatiya darajasi, o‘zini boshqarish uslubi, o‘ziga ishonchi va muloqot madaniyatini kompleks baholash maqsadga muvofiqdir. Diagnostika natijalari asosida individual rivojlanish xaritalarini tuzish, kuchli va zaif tomonlarni aniqlash hamda shaxsiy refleksiya topshiriqlarini berish professional imidjni ongli shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish - ta'lim jarayoniga amaliy trening va interfaol mashg'ulotlarni tizimli kiritishdir. Rollli o‘yinlar, keys-stadilar, refleksiv kundaliklar, muloqot simulyatsiyalari, konfliktni hal etish bo‘yicha mashg'ulotlar va empatik tinglash texnikalari talabada emotsional intellektni nafaqat bilish darajasida, balki xulqiy ko‘nikma darajasida ham rivojlantiradi. Aynan shu jarayon orqali talaba o‘z professional obrazini boshqarish, auditoriya oldida o‘zini tutish va mijoz bilan ishonchli aloqa o‘rnatish tajribasini orttiradi.

Uchinchi yo‘nalish - o‘quv va tarbiyaviy muhitning o‘zida emotsional madaniyatni qo‘llab-quvvatlovchi psixologik iqlim yaratishdir. O‘qituvchi-talaba hamkorligining ochiq, hurmatga asoslangan va refleksiv shakli bo‘lajak psixologlarda ijtimoiy mas'uliyat, axloqiy sezgirlik va professional o‘zlikni anglashni kuchaytiradi. Shu bois oliy ta'lim muassasasida mentorlik, superviziya, psixologik konsultativ uchrashuvlar va kasbiy o‘sishga yo‘naltirilgan klub faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish professional imidjni barqaror rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda olib borilgan nazariy va amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak psixologlarda professional imidjning shakllanishi emotsional intellektning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog'liq. Emotsional intellekt psixologning nafaqat ichki hissiy hayotini tartibga soladi, balki uning atrofdagilar tomonidan qanday qabul qilinishini ham belgilaydi. Ya'ni professional imidjning ishonchlilik, mulohazalilik, empatiklik, kommunikativlik va barqarorlik kabi mezonlari aynan emotsional intellektning tarkibiy qismlari orqali mazmun kasb etadi.

Ikkinchidan, emotsional intellektni rivojlantirish professional imidjni shakllantirishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Maxsus tashkil etilgan treninglar yordamida talabalarda o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish, boshqa insonlarning kechinmalarini sezish va ichki motivatsiyani kuchaytirish mumkin. Bu esa bo‘lajak psixologning o‘ziga ishonchini oshiradi, kasbiy identitetini mustahkamlaydi va amaliy faoliyatda ijtimoiy jihatdan maqbul professional obrazni shakllantiradi.

Shuningdek, professional imidjning barqarorligi talabaning o‘z ustida muntazam ishlashi, o‘z kasbiga nisbatan ongli munosabati va shaxsiy qadriyatlar tizimining mustahkamligi bilan ham belgilanadi. Shu bois emotsional intellektni rivojlantirish ishlari bir martalik tadbir ko‘rinishida emas, balki kursdan kursga izchil davom etadigan uzluksiz pedagogik-psixologik tizim sifatida tashkil qilinishi lozim.

Demak, bo‘lajak psixologning professional imidji - bu tashqi taqdimotning oddiy shakli emas, balki emotsional yetuklik, kasbiy o‘zlikni anglash va ijtimoiy mas'uliyatning integrallashgan ko‘rsatkichidir. Emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan tizimli ishlar esa kelgusida psixologning jamiyatda ishonchli, barqaror, insonparvar va zamonaviy mutaxassis sifatida shakllanishiga mustahkam zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nishonova Z.T. Oliy ta'lim psixologiyasi. - Toshkent, 2011.
2. Davletshin M.G., Do‘stmuhamedova Sh., Mavlonov M., To‘ychiyeva S., Djumabayeva M. Yosh va pedagogik psixologiya. - Toshkent, 2007.
3. Goleman D. Emotional Intelligence. - New York: Bantam Books, 1995.
4. Salovey P., Mayer J.D. Emotional intelligence // Imagination, Cognition and Personality. - 1990. - Vol. 9(3). - P. 185-211.

ULÍWMA ORTA BILIM BERIW MÁKEMELERI BASSHÍSÍNÍŃ KÁSIPLIK KOMPETENTLIGIN JETILISTIRIW

Kenesbaeva Elmira Joldasbaevna – University of Innovation Technologies assistent-oqıtıwshısı
Jumabaeva Dilfuza Ómirbayevna – University of Innovation Technologies “Pedagogika” tálim baǵdarı 2-kurs studenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.19636369

Annotaciya: Maqalada ulıwma orta bilim beriw mákemelerin basqarıwda basshı kásiplik kompetentligin asırıw máselelerine arnalǵan bolıp, basshı kásiplik kompetentligi, basshı kásiplik kompetentligi negizinde qáliplesken sıpatlar hám olardıń túrleri haqqında pikir júritilgen.
Tayanısh sózler: bashı kompetentligi, kásiplik kompetentlik, kompetentlik, kompetensiya, qábilet, jańasha pikirlew, bilimlendiriw sisteması.
Abstract: The article is devoted to the issues of improving the professional competence of leaders in the management of general secondary educational institutions. It discusses the professional competence of a leader, the qualities formed on the basis of professional competence, and their various types.
Keywords: leadership competence, professional competence, competence, competency, ability, innovative thinking, education system.

Respublikamızdıń hár tárepleme rawajlanıwı kadrlar dárejesine baylanıslı. Sonlıqtan da, Ózbekstan Respublikasiniń «Bilimlendiriw haqqında»ǵı Nızamında belgilengen talaplarǵa muwapıq zamanǵa say ráwishte bilimlendiriw sistemasın basqarıwda kompetentli basshılardı tayarlaw zárúrligi búgingi kúnniń aktual máselelerinen biri bolıp tabıladı. Búgingi kúnde kásiplik iskerlik nátiyjeliligin támiyinlewshi tıykarǵı kórsetkishler sıpatında bilim, maǵlıwmatlılıq dárejesi yakı tájriybe ǵana emes, bálki olardıń óz ara úyǵunlasıwı tiykarında qáliplesken basshınıń kásiplik hám jeke kompetenligi belgilenbekte.

Ulıwma orta bilim beriw mákemelerin basqarıwda basshınıń kásiplik kompetenligi bilimlendiriw sistemasın basqarıw processı ushın júdá zárúr bolıp tabıladı. Bul bolsa óz náwbetinde basshı tárepinen ayırıqsha bilim, kónlikpe hám tájriybelerdiń ózi ǵana emes, iyeleniwi lazım bolǵan hár bir ǵárezsiz baǵdar boyınsha integrativ bilimler, basqarıwshınıń tásirsheń usıl hám quralları, basqarıwdaǵı qarım-qatnas ma'deniyati hám basshılıq xizmetine tiyisli dóretiwshi háreketlerdiń ózlestiriliwin názerde tutadı.

Kompetentliktiń «jaqsı biletuǵın insan», «tájriybege iye adam» sıyaqlı mánislerin bildiriwi eski ádebiyatlarda kóp márte túsindirilgen. Sol sebepli, kompetentlik bilimlendiriw processinde júz beretuǵın hár túrli hám kútilmegen jaǵdaylarda basshınıń ózin qanday tutıwı, qarım-qatnasqa kirisiwsheńligi, qol astındaǵılardıń ruwxıy jaǵdayların túsine alıw qábiletine iye bolıwı, básikiles tárepler menen ózara múnásibetlerde jańa jol tutıwı, bar bolǵan mashqalalardı sheshiwde ózlestirilgen bilim, kónlikpe hám tájriybelerin anıq maqsetler tıykarında qollay alıw, úzliksiz rawajlanıp barıwshı hám quramalı processlerde háreketleniw rejesine iye ekenlikti ańlatadı.

«Kompetentlik» hám «Kompetenciya» túsinikleri kóplegen qánige alımlar tárepinen izertlenip, úyrenilip kelinbekte. Mısalı, N.A.Muslimov, Q.M.Abdullayeva, O.A.Qoysinov hám basqa alımlardıń pikirinshe: “Qánigelerdi kásiplik jaqtan tayarlaw barısında shet el mámleketlerde ámelde bolǵan oqıtıw mazmunın tuwrıdan-tuwrı úyreniw sonı kórsetedi, Batıs mámleketlerinde tıykarǵı orındı qánigeniń kompetentlik tájriybe dárejesi iyeleydi. Respublikamizdiń milliy bilimlendiriw sisteması mazmunına kóre, oqıtıw mazmunınıń minimal talapları bilim, kónlikpe hám tájriybelerge tiykarlanadı”, dep táriyipleydi [4, 8].

Al, A.A.Verbiskiy hám M.D.Ilyazovalar bul túsiniklerge tómendegishe táriyip bergen: “kompetenciya – bul insan tárepinen ol yakı bul xizmettiń ámelge asırılıwın támiyinlewshi onıń maqsetleri, qábiletleri, motivleri, jeke sıpatları, bilimleri, kónlikpeleri hám tájriybeleri sisteması; kompetentlik bolsa, ámeliyatta payda bolǵan hám ámelge asqan insanniń ámeliy xizmet texnologiyaların iyelew dárejesi hám de shaxstıń sociallıq, ádep-ikramlıq sıpatları rawajlanıwı menen túsindiriliwshi kompetenciyası”.

M.A.Xolodnaya pikirinshe kompetentlik tómendegishe: “kompetentlik – bul mas xizmette nátiyjeli qararlar qabıl qılıwǵa múmkinshilik beriwshi predmetli ózine bilimlerdi payda etiwdiń arnawlı tipi” [4, 8].

Evropa bilimlendiriw fondınıń glossariysinda bul terminge ulıwmalıq mazmun berilgen: “kompetentlik – qandayda bir xızmetti nátiyjeli orınlay alıw qábileti, iskerlikti atqarıwda talaplardı qanaatlandıra alıw qábileti, anıq xızmet funkciyaların orınlawda talaplardı qanaatlandıra alıw qábileti” [3, 6].

Joqardaǵı pikir hám táriyplerden kelip shıǵıp, kompetentlik túsinigine tómendegishe táriyip beriw múmkin: kompetentlik – bul basshınıń qánigelik sheńberinde alınǵan bilimlerin keńeytip, rawajlandırıp barıw, zárúr sociallıq jańalıqlardan xabardar bolıw, alınǵan xabarlardı úyrenip bayıtıp barıw, óz basqarıwındaǵılar haqqında ulıwmalıq maǵlıwmatlarǵa iye bolıw, jámáátti óz izinen erte alıw, jańa maǵlıwmatlardı izlep tabıw, jıynalǵan maǵlıwmatlardı qayta islew hám óziniń basqarıw xızmetinde maqsetli qollay biliw xızmeti bolıp tabıladı.

Sonday-aq, kásiplik kompetentlik – qánige tárepinen kásiplik iskerlikti ámelge asırıw ushın zárúr bolǵan bilim, kónlikpe hám tájriybelerdiń iyeleniwi hám olardı ámelde joqarı dárejede qollay alınıwı bolıp tabıladı.

Demek, usı jerde ulıwma orta bilim beriw mákemelerin basqarıwda, basshı kásiplik kompetentligi negizinde tómendegi sıpatlar sáwlelenedi:

1. *Sociallıq kompetentlik* – sociallıq múnásibetlerde iskerlik kórsetiw kónlikpe, tájriybelerge iyelik, kásiplik xizmette subiektler menen qarım-qatnasqa kirise alıw.

2. *Arnawlı kompetentlik* – kásiplik-pedagogikalıq iskerlikti shólkemlestiriwge tayarlanıw, kásiplik-pedagogikalıq wazıypalardı aqılǵa say sheshiw, xızmet nátiyjelerin real bahalaw. Bul kompetenlik negizinde psixologiyalıq, metodikalıq, informacion, kreativ, innovacion hám kommunikativ kompetentlik kózge taslanadı:

– psixologiyalıq kompetentlik – oqıtıw processin ámelge asırıw dawamında zamanagóy bilimlendiriw sisteması basshısı salamat psixologiyalıq ortalıqtı jarata alıwı, pedagoglar, oqıtıw processiniń basqa qatnasıwshıları menen unamlı qarım-qatnastı shólkemlestiriwi, túrli unamsız psixologiyalıq kelispewshiliklerdi óz waqtında hám ornında ańlawı hám joq ete alıwı;

– metodikalıq kompetentlik – oqıtıw processin metodikalıq jaqtan nátiyjeli hám aqılǵa say shólkemlestiriw, tálim yakı tárbiyalıq xızmet formaların durıs belgilew, pedagogikalıq processte qollanılatuǵın usıl hám qurallardı maqsetke muwapıq tańlay alıw, dóretiwshi jantasıwlar tıykarında tálim quralların nátiyjeli qollay alıw, salamat ruwxiy pedagogikalıq-psixologiyalıq ortalıqtı jaratıw, nátiyjeli oqıtıwdı jolǵa qoya alıw;

– informacion kompetentlik – tezlik penen xabar ortalıǵında zárúr, oqıtıw processi ushın zárúr, kerekli, paydalı maǵlıwmatlardı izlew, jıynaw, olardı ayrıqsh-ayrıqsha saralaw, qayta islew hám olardan maqsetli, orınlı, nátiyjeli paydalana alıw;

– kreativ kompetenlik – oqıtıw processin basqarıwda pedagoglar xızmetine kritikalıq baha bere alıw, jámáátdegilerdiń sapalı xızmet alıp barıwları ushın dóretiwshi jantasıwdıń bolıwı, basshı óziniń dóretiwshilik tájiriybelerine iyeligin kórsete alıw;

– innovacion kompetentlik – oqıtıw processin sapa jaǵınan rawajlandırıw, turaqlı ráwishte tálim sapasın jaqsılawǵa xızmet qılıwshı jańalıqlardı kiritip barıw, tálim-tárbiya processiniń nátiyjeliligin asırıwǵa tiyisli jańa ideyalardı alǵa súriw, olardı ámeliyatta nátiyjeli qollay alıw;

– kommunikativ kompetentlik – pedagogikalıq processtiń bárshe qatnasıwshıları, sol qatarı, oqıtıwshılar hám oqıwshılar menen ashıq qarım-qatnasta bolıw, olardı tıńlay alıw qábiletine iye bolıw, ishki ruwxiy keshirmelerdi seze alıw, is-háreketleri hám qızıǵıwlarına túsiniwi hámde unamlı tásir kórsete alıw.

3. *Jeke kompetentlik* – úzliksiz ráwishte kásiplik ósiwge erisiw, tájriybe dárejesin asırıp barıw, kásiplik xizmette óz ishki imkaniyatların kórsete alıw;

4. *Texnologiyalıq kompetentlik* – kásiplik-pedagogikalıq BKMni bayıtatuǵın aldaǵı texnologiyalardı ózlestiriw, zamanagóy qural, texnika hám texnologiyalardan paydalana alıw;

5. *Ekstremal kompetentlik* – ayrıqsha jáǵdaylarda, pedagogikalıq kelispewshilikler júzege kelgende aqılana qararlar qabıl qılıw, durıs háreketleniw tájriybesine iye ekenlik.

Basshı kásiplik kompetentligin esletip ótiwden maqset, házirgi dáwirde bilimlendiriwdi basqarıw mámleket sıyasatı dárejesine kóterilgenligin bildiriw emes, insannıń ishki dúnyası, onıń ashılmaǵan tárepleri kóp ekenligin eske salıw edi. Sebebi, burıńǵı kóz-qaraslar óz áhmiyetin joǵaltıp, jańaları sheshiwshi tús almaqta. Nege degende, búgingi kún hár birimizden jańasha pikirlewdi talap etpekte.

Jańasha pikirlew bul dúnya kórinisin sana-sezimimizden shıǵarıp taslaw emes. Kersinshe, bar bolǵan hádiyselerge óz bilimimiz hám oy-órisimiz benen dáwir talaplarınan kelip shıǵıp jantasıwımız, baha beriwimizdi ańlatadı. Solay eken, puqaralıq, yaǵnıy insanpárwar, demokratiyalıq jámiyet, huqıqıy mámleket qurıw ushın ǵalabalıq háreket háwij alǵan Ózbekistan sharayatında mámlekettiń social-ekonomikalıq, mádeniy-mánawiy táǵdirin belgilep beriwshi jańasha pikirleytuǵın basshı insanlardı kásiplik kompetent penen qurallandırıw – puqaralıq jámiyet qurıw hám onı tezletiwdiń birden-bir jolı. Sonıda umıtpaw kerek, qúdiretli mámleket tuwrı basqarılatuǵıń ortalıqta júzege keledi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi:

1. S.Y.Temurov: Bo‘lajak matematika o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.

2. N.Muslimov, M.Usmonoboeva, D.Sayfurov, A.To'raev: Pedagogik kompitentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent, 2015.

3. A.A.Shayusupova, S.R.Kamalova: Malaka va kompetensiyalarni baholash. – Toshkent, 2012.

4. N.A.Muslimov, Q.M.Abdullayeva, O.A.Qo‘ysinov, N.S.Gaipova, N.N.Karimova, M.Qodirov: Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetenligini shakillantirish texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.

SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING INSON TAFAKKURI VA EMOTSIONAL HOLATIGA TA’SIRI

Baybulov Axmet Risbekovich - Innovatsion texnologiyalar universiteti assistent o‘qituvchisi

Xabibova Mavluda Jarqinbay qizi - Innovatsion texnologiyalar universiteti 2-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635566

Annotatsiya: Mazkur maqolada sun’iy intellektdan foydalanishning inson tafakkuri va emotsional holatiga ko‘rsatadigan ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kognitiv jarayonlar, qaror qabul qilish mexanizmlari hamda emotsional barqarorlikdagi o‘zgarishlar zamonaviy psixologik

yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Shuningdek, sun’iy intellektdan ortiqcha yoki noto‘g‘ri foydalanish natijasida yuzaga keladigan psixologik muammolar hamda uning ijobiy jihatlari yoritilib, shaxsning ongli va muvozanatli foydalanishini ta’minlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, tafakkur, emotsional holat, kognitiv jarayonlar, qaror qabul qilish, psixologik ta’sir, raqamli muhit, stress, emotsional barqarorlik

Abstract: This article provides a theoretical and scientific analysis of the impact of artificial intelligence usage on human thinking and emotional state. The study explores changes in cognitive processes, decision-making mechanisms, and emotional stability based on modern psychological approaches. It also discusses both the positive aspects and potential psychological risks associated with excessive or improper use of artificial intelligence, offering practical recommendations for its balanced and conscious use.

Keywords: artificial intelligence, thinking, emotional state, cognitive processes, decision-making, psychological impact, digital environment, stress, emotional stability

Bugungi kunda dunyoda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning jadal rivojlanishi inson hayotining barcha sohalariga, jumladan, uning tafakkuri va emotsional holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, ta’lim, kommunikatsiya va kundalik faoliyatda sun’iy intellekt tizimlaridan keng foydalanish insonning fikrlash uslubi, qaror qabul qilish jarayonlari hamda hissiy barqarorligida yangi o‘zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois mazkur muammo zamonaviy psixologiya va pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va sun’iy intellektni joriy etish masalasiga alohida e’tibor qaratib, “Raqamli iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etmasdan turib, zamonaviy taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi”, deya ta’kidlaydi. Ushbu fikr nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-psixologik jarayonlarga ham bevosita ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Chunki inson ongiga ta’sir etuvchi har qanday texnologiya uning psixologik holatini ham o‘zgartiradi. Zamonaviy psixolog olimlar, xususan, J. Gilford tafakkur jarayonlarini divergent va konvergent fikrlash shakllari orqali izohlab, insonning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlari tashqi omillar, jumladan, texnologik muhit ta’sirida shakllanishini ta’kidlaydi. Shuningdek, D. Kahneman inson tafakkurini tezkor (intuitiv) va sekin (analitik) tizimlarga ajratgan holda, texnologiyalar bu jarayonlarga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asoslab beradi. Bu esa sun’iy intellektdan foydalanish insonning mustaqil fikrlash darajasi va qaror qabul qilish mexanizmlariga qanday ta’sir ko‘rsatishini chuqur o‘rganishni talab etadi. Bundan tashqari, so‘nggi tadqiqotlar sun’iy intellektdan ortiqcha foydalanish insonlarda diqqatning pasayishi, emotsional beqarorlik va ijtimoiy aloqalarning susayishi kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, mazkur texnologiyalar to‘g‘ri va maqsadli qo‘llanilganda, aksincha, inson tafakkurini

rivojlantirish, stressni kamaytirish va psixologik qulaylikni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sun’iy intellektdan foydalanishning inson tafakkuri va emotsional holatiga ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish, uning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash hamda samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish bugungi kunning muhim ilmiy va amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson tafakkuri va emotsional holatiga ko‘rsatadigan ta’sirini chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, insonning fikrlash jarayonlari tashqi axborot muhiti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ayniqsa, raqamli vositalar ushbu jarayonlarning tezligi va sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, sun’iy intellekt inson tafakkurining kognitiv jihatlariga ta’sir etadi. Ya’ni, axborotni qabul qilish, qayta ishlash va undan foydalanish jarayonlari avtomatlashtirilgan tizimlar orqali soddalashadi. Bu esa bir tomondan insonning vaqtini tejasa, ikkinchi tomondan mustaqil fikrlashga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishi mumkin. Tadqiqotlarga ko‘ra, “inson tafakkuri tashqi texnologik vositalarga qanchalik ko‘p tayanadigan bo‘lsa, uning mustaqil analitik fikrlash qobiliyati shunchalik pasayadi” [4, 45-bet].

Shuningdek, sun’iy intellekt qaror qabul qilish jarayonlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, turli tavsiya beruvchi tizimlar (recommendation systems) inson o‘rniga ma’lum tanlovlarni amalga oshirishga yordam beradi. Bu esa qaror qabul qilishni tezlashtiradi, biroq insonning tanqidiy fikrlashini cheklashi mumkin. Shu nuqtai nazardan, “raqamli texnologiyalar insonning qaror qabul qilish erkinligini kengaytirish bilan birga, uni ma’lum algoritmik chegaralarga ham solib qo‘yadi” [2, 78-bet].

Bundan tashqari, sun’iy intellekt insonning emotsional holatiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqot vositalari orqali insonlarning hissiy reaksiyalari o‘zgarib bormoqda. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, doimiy ravishda raqamli muhitda bo‘lish insonlarda stress, tashvish va emotsional charchoqni yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, ayrim hollarda sun’iy intellekt asosidagi ilovalar (masalan, psixologik yordam beruvchi chatbotlar) insonning emotsional holatini barqarorlashtirishga yordam berishi mumkin. Bu borada olimlar “sun’iy intellekt texnologiyalari inson emotsiyalarini boshqarishda ham xavf, ham imkoniyat sifatida namoyon bo‘ladi” deb ta’kidlaydi [6, 112-bet].

Ijobiy jihatlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, sun’iy intellekt inson tafakkurini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, ta’lim sohasida individual yondashuv asosida bilim berish, murakkab masalalarni tezkor tahlil qilish hamda kreativ fikrlashni rivojlantirish imkoniyati kengaymoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt asosidagi dasturlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va ularning intellektual salohiyatini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Salbiy jihatlari esa asosan insonning psixologik mustaqilligiga bog‘liq muammolar bilan ifodalanadi. Ya’ni, texnologiyalarga ortiqcha bog‘lanish natijasida insonda passivlik, diqqatning pasayishi va real ijtimoiy aloqalardan uzoqlashish holatlari kuzatiladi. Bu esa o‘z navbatida shaxsning emotsional

barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, sun’iy intellekt inson tafakkuri va emotsional holatiga ikki tomonlama — ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli undan foydalanishda muvozanatni saqlash, insonning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va emotsional salomatligini qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu salbiy oqibatlarni hisobga olgan holda biz quyidagilarni tavsiya qilamiz va buni amalda qo’llay olsak biz sun’iy intellektning inson psixologiyasiga salbiy ta’sirlarini kamaytirishga erisha olamiz:

- Sun’iy intellektdan foydalanish jarayonida inson tafakkurining mustaqilligini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, har qanday texnologik vositadan foydalanishda uni yordamchi instrument sifatida qabul qilish, qaror qabul qilish jarayonida esa shaxsiy tahlil va tanqidiy fikrlashni ustuvor qo‘yish zarur. Bu yondashuv insonning kognitiv faolligini pasayishdan saqlaydi va uning intellektual rivojlanishiga xizmat qiladi.

- Raqamli muhitda uzoq vaqt faol bo‘lish insonning emotsional holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi sababli, kunlik faoliyatda texnologiyalardan foydalanish me’yorini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, dam olish, jonli muloqot va psixologik tiklanishga ajratilgan vaqtni ongli ravishda tashkil etish emotsional barqarorlikni ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

- Shuningdek, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan ta’lim va shaxsiy rivojlanish jarayonida samarali foydalanish orqali uning ijobiy jihatlarini kuchaytirish mumkin. Individual yondashuvga asoslangan o‘quv platformalari, intellektual mashqlar va kreativ vazifalar orqali inson tafakkurini rivojlantirish, muammoli vaziyatlarda esa texnologiyani yordamchi vosita sifatida qo‘llash yanada yuqori natijalarga olib keladi.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, Zamonaviy raqamli taraqqiyot sharoitida sun’iy intellekt inson hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda va u nafaqat kundalik faoliyatni yengillashtiruvchi vosita, balki inson tafakkuri va emotsional holatiga bevosita ta’sir etuvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellektdan foydalanish insonning kognitiv jarayonlarini tezlashtiradi, axborotni qayta ishlash samaradorligini oshiradi hamda yangi bilimlarni egallash imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, texnologiyalarga ortiqcha tayanish insonning mustaqil fikrlash qobiliyatining susayishi, qaror qabul qilishdagi passivlik hamda emotsional beqarorlik kabi salbiy holatlarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Ayniqsa, raqamli muhitda uzoq vaqt faol bo‘lish insonning ijtimoiy munosabatlariga va ruhiy holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ehtimoli yuqori.

Mazkur ikki tomonlama ta’sir sun’iy intellektni inson hayotida to‘g‘ri va muvozanatli qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi. Inson tafakkurining faolligini saqlab qolish, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish, shuningdek, emotsional barqarorlikni ta’minlash sun’iy intellektdan samarali foydalanishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2021.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2016.
3. Abduqodirov A.A. Ta’limda axborot texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
4. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
5. Kahneman D. Thinking, Fast and Slow. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2011.
6. Harari Y.N. Homo Deus: A Brief History of Tomorrow. – London: Harvill Secker, 2016.
7. Russell S., Norvig P. Artificial Intelligence: A Modern Approach. – New Jersey: Prentice Hall, 2020.
8. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books, 2011.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ОБРАЗОВАНИИ: ВОЗМОЖНОСТИ, ОГРАНИЧЕНИЯ И РОЛЬ ЧЕЛОВЕКА В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ

Замира Акрамова Истам кизи,
Changwai Bilingual World IB School, Changzhou, Китай.

https://doi.org/10.5281/zenodo.20112398

Аннотация

В данной статье рассматривается понятие искусственного интеллекта как комплексного технологического явления, включающего различные методы моделирования, анализа данных и автоматизации. Особое внимание уделяется применению искусственного интеллекта в сфере образования, где ИИ может выступать инструментом поддержки педагогов и обучающихся. В статье анализируется концепция «человек в контуре» Human in the Loop, согласно которой человек должен оставаться активным участником процесса принятия образовательных решений. Подчеркивается, что искусственный интеллект способен выявлять закономерности, предлагать рекомендации и автоматизировать отдельные процессы, однако он не может заменить педагогическое мышление, профессиональную ответственность и контекстную оценку учителя.

Ключевые слова: искусственный интеллект, образование, образовательные технологии, человек в контуре, педагог, автоматизация, цифровое обучение, ответственное использование ИИ.

Введение. В современном мире искусственный интеллект становится одной из наиболее значимых технологий, влияющих на развитие общества, экономики, науки и образования. Его возможности активно используются в различных сферах: от медицины и промышленности до коммуникации, управления и образовательных технологий. Особенно актуальным является вопрос применения искусственного интеллекта в системе образования, поскольку именно здесь технологии напрямую связаны с развитием

личности, формированием знаний, навыков и будущих возможностей учащихся.

Первоначально искусственный интеллект можно определить как автоматизацию, основанную на ассоциациях. Однако такое определение является недостаточным, поскольку ИИ включает в себя широкий набор методов, моделей и систем, способных анализировать данные, выявлять закономерности, строить прогнозы и предлагать решения. Искусственный интеллект не является одной отдельной технологией. Это обобщающий термин, который объединяет различные направления моделирования и вычислительной обработки информации.

Для педагогов понимание сущности ИИ имеет особое значение. В образовательной сфере многие цифровые продукты и платформы сегодня продвигаются как системы, использующие искусственный интеллект. Поэтому учителям, руководителям образовательных учреждений и разработчикам образовательной политики важно понимать, какие функции действительно относятся к ИИ, какие возможности они предоставляют, а также какие риски могут возникать при их использовании.

Постановка проблемы. Искусственный интеллект можно рассматривать как совокупность технологий, позволяющих компьютерным системам выполнять задачи, которые традиционно требовали участия человеческого интеллекта. К таким задачам относятся распознавание образов, обработка естественного языка, анализ данных, принятие решений, планирование, прогнозирование и адаптация к изменяющимся условиям.

В контексте образования ИИ может использоваться для анализа учебной активности, персонализации образовательного маршрута, автоматической проверки заданий, поддержки обратной связи, составления рекомендаций и помощи в планировании учебного процесса. Однако важно подчеркнуть, что ИИ не обладает человеческим сознанием, педагогической интуицией и полноценным пониманием социального контекста [1].

ИИ работает на основе данных и моделей. Он выявляет закономерности в больших массивах информации и использует эти закономерности для выполнения определенных задач. Например, образовательная платформа может анализировать ответы учащегося, определять типичные ошибки и предлагать дополнительные упражнения. Однако интерпретация этих результатов и принятие значимых педагогических решений должны оставаться за человеком.

Искусственный интеллект представляет собой не одну технологию, а целую совокупность направлений. К ним можно отнести машинное обучение, обработку естественного языка, компьютерное зрение, экспертные системы, робототехнику, автоматическое планирование и оптимизацию.

Abstract. This article analyzes the concepts of jinns that are widespread in contemporary Karakalpak society, their harmful effects, and also classifies them based on their believed locations and habitats according to the beliefs in jinns and devils within Karakalpak society. Within the scope of the research, a comparative analysis is conducted with similar views and practices found among other Turkic-speaking peoples, which makes it

possible to identify commonalities and unique characteristics in the understanding of jinns across the Turkic world.

Keywords. Karakalpaks, belief, jinn-devils, albasly, peri, martiw

Инсаният тарийхында ғайри тәбийий қубылысларға, қоршаған орталық, көринбес әлемниң бар екенлигине исениў ҳәм олардың тәсирин үйрениў көплеген изертлеўшилерде қызығыў оятқан объектлерден бири есапланады. Солар қатарында жин-шайтанлардың бар екенлиги, олардың тәсири ҳаққындағы түсиниклер көплеген халықлардың мәдениятында, диний исенимлеринде өз көринисин тапқан.

Усындай көз-қараслар тийкарындағы исенимлер бойынша Батыс антропологиясы илиминдеги изертлеўлер жин ҳәм соған уқсас руўхый жағдайлардың тәрийпленииўин түсиниў имканын береди. Әсиресе, Г. Харридиң этнографиялық изертлеўлери сыйқыршылық ҳәм оған байланыслы әмелиятлардың жәмийетте қандай функцияны атқарғанлығын көрсетеди [10]. Жинлерге тийисли исенимлердиң классификациясы ҳәм интерпретациясында А.Филипп алып барған изертлеўлер айрықша дыққатқа ылайық. Ол жин тәсириндеги жағдайларды сүўретлеў ушын ҳәр түрли мәдениятлардағы жинниң атлары, түсиниклердеги ҳәр-түрлиликти келтиреди. Ф.Алмондқа көре, жин түсиниги мәдений, диний ҳәм тарийхый контекстке қарап бир нешше атамаларда аталады ҳәм олардың ҳәр бири жин ҳәм жинниң тәсириниң өзине тән болған типологиясын билдиреди. Мәселен, *possessio, obssessio, arreptitio, daemoniaci, energumeni, indaemoniati, vexati* [2]. Келтирилген бул атамалар, жин тәсириниң адам денесине кирип алыўынан, оны психикалық жақтан басқарыўына шекемги болған ҳар түрли формаларын айырып түсиниў имканын береди. Рус изертлеўшилеринен Д.Крылова [5, 129-135] святой, одержимый, ведьма сыяқлы терминлерди келтириўи арқалы, XV-XVI әсирлерде Батыс Европада жин тәсири астындағы шахслардың қыялый түсиниклеринде сәўлелениў образын анализ етеди.

Ал, жин түсиниги түркий халықлар өзбек [3,23], қазақ [4,74], түркмен [2,185], қырғыз [1], халықларының дәстүрий мәдениятында да аҳмийетли орынға ийе. Түркий халықлар арасында жинлер ҳаққындағы көз-қараслар диний мифология тийкарында қәлиплескен. Оның тамырлары болса, исламнан алдынғы қоршаған орталықта «руўх», «әрўақ»лардың бар екенлигине исениўши анимизм, тотемизм, шаманизм сыяқлы исенимлерге барып тақалады. Ислам дининиң кирип келиўи менен «жин» ҳаққындағы жергиликли мифологиялық түсиниклер менен араласып кеткен. Бунда жинлер көбинесе, адамның денесине кирип алған, оның ақылы, денеси тиккелей жинниң басқарыўында болатуғын күш сыпатында сәўлеленген. Ал, қарақалпақ түсиндирме сөзлигинде болса, “жин” диний түсиник бойынша адамзатқа түрли жаманлық келтириўге тырысатуғын жин-шайтанның бир түри [Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги, 360] деп келтириледи.

Қарақалпақлар турмысында жинлер менен байланыслы болған түсиниклер ҳаққында биринширлерден У.Кусекеев тәрепинен ҳаял

образындағы жинлердиң түрлери *пери, дәў, мартыў* [6, 34-35] ҳаққында келтирилген, Р.Камалованың изертлеўлеринде *пери, айдарҳа, албаслы, дәў* [7] ҳаққында айтылады. Буннан соңғы изертлеўлерде этнографлар З.Курбанова, Р.Камалова ҳәм М.Давлетияров [8, 135-137] лар тәрепинен *суў пери, мартыў, албасты, мәмелек, дәў кемпир* сыяқлы ҳаял жинлердиң түрлери ҳаққындағы изертлеўлерди амелге асырған.

Келтирилген бул изертлеўлер қарақалпақлар турмысында жин ҳәм шайтанның бар екенлигине болған исенимге тийкарланып әмелге асырылған.

Демек, қарақалпақлар арасында жинлер ҳаққында тийкарынан: *жин урған, жин шалған, жин кирген, жини бар, жин қаққан* сыяқлы сөзлер адамға қарата оның психикасындағы, ис-ҳәрекетлериндеги өзгерислерге қарата ислетиледи. Бул сөзлердиң қолланылыўы тийкарында жинлер инсан организмине кирип, оны басқарыўға ямаса оны өзгерте алатуғын сырлы мақлуқ сыпатында қабыл етилиўи түсиниледи.

Ал, жер-орын атамалары менен байланыслы жин басқан *(жинлер мәкан еткен орын),* жин айланған, жин аралаған *(кимниндур жеке мүлкинде берекетсизлик байқалса ислетилетуғын сөз)* деп те келтиреди. Бул сөзлер әсиресе, көп ўақытлардан берли бос, ийесиз, пайдаланылмастан куры турған имаратлар, ески қорғанларға қарата халық тәрепинен көп қолланылатуғын сөзлерден есапланады.

Және де, ўақытқа байланыслы халық арасында жинлер ҳаққында тыйымларда жақсы сақланған болып, таң сәҳәрде *(таң намазы оқылмастан алдын, ийт үрмейтуғын ўақыт)* геўгимде *(күн батып, түн кирип жулдыз енди аспанда көринип баслаған ўақыт) жин жүреди, жин гезеди* деген түсиниклер менен ўақыт интервалларының белгиленип, жалғыз жүрмеўге, жаңа турмыс қурған жас келиншеклер ҳәм ҳәмиледар ҳаяллардың үйден шықпаўына байланыслы тыйым салынатуғын хронология ислеп шығылған.

Қалаберсе, жин түсинигиниң халық тилинде образлық мәнислерде қолланылыўыда кең тарқалған. Мәселен, *жиним атланды, жиним қозыды, жиним келди* сыяқлы сөзлер қолланылғанында инсанның эмоционал жағдайы, тәшўиши, ғәзебин (ашыўы) сәўлелендириўши күш сыпатында көрсетиледи.

Жуўмақлап айтқанымызда, қарақалпақ жәмийетиндеги жин ҳәм шайтанларға исеним күнделикли турмыста өз орнына ийе. Халықлық емлеў усыллары тийкарында олардан қорғаныў әмеллерин атқарады. Қарақалпақ жәмийетиндеги бул қоршаған орталықта жин ҳәм шайланлардың бар екенлигине исеним сондай-ақ, порхпаншылық әмелияты изертлеўин күтип турған әҳмийетли темалардан есапланады.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЯТЛАР ДИЗИМИ:

брамзон С.М. Киргизы и их этногенетические и историко-культурные связи. Фрунзе: Кыргызстан, 1990

емидов С.М. К вопросу о некоторых пережитках домусульманских обрядов и верований у юго-западных туркмен// ТИИАЭАН ТССР Ашхабад,1962. Т.6. 185с

несарев Г.П. Реликты до мусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. М.: Наука, 1969.
олеубаев А.Т. Реликты доисламских верований в семейной обрядности казахов (XIX – начало XX в.). Алма-Ата, 1991. С-74
рылова Д.Д. Колдуны, святые, одержимые: проблемы идентификации фигуры одержимого в локальных сообществах западной Европы XV-XVI вв.// Вестник Томского государственного университета. 2015. №397. –с. 129-135
усекеев У. Этнография ККАССР. Турткуль, 1934 // РФФБККО АН РУз. Инв. №932. С-34-35.
амалова Р. Традиционные верования в семейно-бытовой обрядности каракалпаков (XIX –начало XX веков): Автореф. дис. … канд. ист. наук. – Нукус, 1996.
урбанова З., Камалова Р., Давлетияров М. Женские образы в мифологии каракалпаков // ККОАН Вестник Нукус, 2016, №2. С.132-137
арақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Н.2023
arry G. West. Ethnographic Sorcery. The University of Chicago Press. 2007. 132pp.
ola N. Discerning spirits. Divine and demonic possession in the Middle Ages.

QORAQALPOQ TO‘YLARIDA QO‘SHNILARNING YORDAM AN’ANASI: “KEŃES TOY” MASALASI

Xojaniyazova Gulshana Muratbaevna - Innovatsion texnologiyalar universiteti, “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi, tarix fanlari falsafa doktori, Phd

Seytbekova Qumar Ermaǵanbetova - Innovatsion texnologiyalar universiteti, tarix ixtisosligi, 1-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636404

Annotatsiya: Mazkur maqolada qaraqalpoqlarning an’anaviy to‘y marosimlarida kuzatiladigan qo‘shnilar tomonidan beriladigan yordam haqida keltirilgan. Ayniqsa, “Keńes toy”, qo‘shni ayollarning *“qoniq jay”* lardagi mehmon kutish an’anasi asosida beriladigan yordami dala etnografik tadqiqotlar asosida batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: qoraqalpoqlar, an’ana, o‘zaro yordam, qo‘shnichilik, pátek qaǵaz, urf-odatlar

Abstract: This article examines the assistance provided by neighbors during the traditional wedding ceremonies of the Karakalpak people. In particular, it provides a detailed account, based on ethnographic field research, of the help offered by neighboring women through the traditions of “Keńes toy” and hosting guests in “qonıq jay” (guest houses).

Keywords: Karakalpaks, tradition, mutual aid, neighborliness, pátek qaǵaz, customs

Mahalla a’zolarining o‘zaro munosabatlari ularning kundalik harakatlarida namoyon bo‘ladi. Ba’zi qo‘shni jamoat a’zolari qo‘shnilarning va butun jamoaning

yordamisiz ayrim masalalarni hal qila olmaydigan holatlar uchraydi. Masalan, mehmon uylari bilan bog‘liq masalalarda qo‘shnilarning yordamiga muhtoj bo‘lgan va oilaviy tadbirlar (to‘ylar, janoza va boshqalar) o‘tkazishda ham qo‘shnichilik jamiyatining yordamiga tayangan [1, 122]. Qoraqalpoqlar ham bunday an’analardan boshqa turkiy xalqlar singari yaxshi foydalangan.

Ayniqsa, biror-bir marosim, janoza yoki to‘y «keńes» – maslahatini o‘tkazish masalasi qo‘shnilarning o‘zaro yordam an’anasini to‘liq ochib beradi. Kengash yoki maslahat ma’rakasini o‘tkazish shaklini, xarajatlar miqdorini, taklif etilgan mehmonlar sonini va boshqalarni belgilaydi. Kengash yoki maslahat kuni marosimni o‘tkazish kunini aniq belgilagandan so‘ng, uzoq va yaqin joylarga marosimni xabar qiluvchi xabarchilar belgilanadi. To‘y xabarini yetkazuvchi xabarchilarga maxsus qog‘ozlar beriladi. Bu qog‘ozlarga to‘yga taklif etiladigan qarindosh-urug‘larning ro‘yxati, ya’ni yashash joyi, ismi-sharifi keltiriladi va u xalq tilida *«pátek qaǵaz»* degan nom bilan mashhur. Bugungi hayotda esa zamonaviy internet axborot vositalari, ya’ni *«telegramm chat»* tarmoqlari va mobil telefonlar orqali xabar berish yo‘lga qo‘yilgan. Ma’rakada maslahat berishdagi asosiy maqsad – ma’raka oldidagi qarindosh-urug‘lar, qo‘shnilarning o‘zaro yordami dalillangan. Shu bilan birga, ko‘mak turlaridan bo‘lajak to‘yda unumli foydalanish, qishloq aholisidan yoshi ulug‘, yoshi kichik, qishloq ayollari, qiz-kelinlarining beg‘araz xizmat ko‘rsatish jarayonini taqsimlash hisoblanadi.

Qolaversa, yosh yigitlarning ma’raka kunida qiladigan xizmatlari juda ko‘p bo‘lib, ular ma’rakaga kelgan mehmonlarni mehmon uylariga kuzatish, ularga ma’raka beruvchi xonadon tomonidan tayorlangan taomni *(umumiy ovqat X.G.)* yetkazib berish, agar to‘y o‘tkazilayotgan bo‘lsa, qonoq uylaridagi mehmonlarga suv sharoblarini olib borib, yangi tushgan kelinning *«bet ashar»* udumini o‘tkazishga chaqirsa, janozada marhumni so‘ngi manzilga kuzatishi oldidan o‘qiladigan «janoza nomozi»ni o‘qishga qo‘noq uydagi *(qonıq jay)* kongil aytishga kelgan mehmonlarni xabardor qilish vazifalarini bajaradi.

Shunday qilib, qoraqalpoqlarda to‘y yoki janoza, kichik hajmli tadbir vaqtida uy egasi tomonidan xizmatlarning ko‘rsatilishi kuzatiladi: 1. To‘y egasining uyida mehmonlarga xizmat ko‘rsatish; 2. Qo‘shnilarning uylariga mehmonlarni joylashtirish va ularga xizmat ko‘rsatish; 3. Ushbu marosimlarni tashkil etishda qo‘shnilar yordamini qabul qilish, ovqat tayyorlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatish kabi imkoniyatlardan unumli foydalaniladi. Maslahat o‘tkaziladigan kuni ko‘cha oqsoqoli asosiy ro‘l o‘ynaydi va ma’rakaning ko‘ngildagidek o‘tkazilishida o‘z yordamchilari bilan maslahatlashgan holda ma’raka loyihasini ishlab chiqadi. Bu loyihada asosan, «*qonıq jay*» mehmon uy, ya’ni mehmonlarning kiruvchi uylarga borib tamaddi qilib ketilishi nazorat qilib o‘tiriladi.

Qolaversa, «qonıq jaylar» – bu to‘yga keladigan odamlar sonini, to‘y beruvchi uyning qarindoshlari, yaqin birodarlariga nisbatan belgilanadi. To‘yga sarflanadigan mahsulotlar ham ushbu to‘yga taklif etiladigan kishi soniga va «qonıq jaylar»ga bog‘liq bo‘ladi. Katta marosimlarni o‘tkazishda qo‘shnilar asosiy ro‘l o‘ynaydi, ularning yordamisiz marosim va tadbirlarni o‘tkazish qiyin bo‘ladi [2, 58]. Ayniqsa, katta tantanalar o‘tkazilishida «qo‘noq uy» masalasi marosimni o‘tkazayotgan xonadon uchun katta yordamni amalga oshiradi. Masalan,

Informator Qorao‘zak tumani fuqarosi Dawletova Gulmiraning ma’lumotiga ko‘ra: *«Qanday voqea bo‘lmasin, qo‘shnilar hammamiz mehmon kutamiz. To‘ylarda to‘y egasidan mehmonga, 9 ta non, to‘y konfetlari, choy, 2 kg go‘sht beriladi. Qolgan mehmon kutishdagi dasturxon anjomlarini o‘z mablag‘imiz hisobidan olamiz. Agar to‘y beruvchining yaqin qarindoshlari keladigan bo‘lsa, ikkita ovqat pishirishga to‘g‘ri keladi. To‘yxona bergan 2 kg go‘shtga «gúrtik» pishiriladi. Ikkinchi ovqatni pishiradigan bo‘lsak, ko‘pincha o‘z hisobimizdan «palaw» – osh pishiramiz. Ba’zi to‘ylarda ikkinchi ovqatning ham go‘shtini berishadi, bo‘lmasa go‘shtni so‘rab oluvchilar bo‘ladi. Mehmon kutib olishimizga 200-300 ming so‘m pulimiz ketadi»* [ADY: Dawletova], – deb ko‘rsatsa, bunga nisbatan Shumanay tumani Dehqonobod, Ketenler OFYlarida (ovul fuqarolar yig‘ini) mehmon kutib olishning boshqa shakliga dala amaliyoti jarayonida guvoh bo‘ldik. Informator, Maturzaeva Jadraning ma’lumotiga ko‘ra: *«Mehmon kutamiz. To‘y beruvchi uy 2 yoki 3 xonali mehmon olasiz deb oldindan «Keńes toy» – maslahat oshi kuni aytiladi. Aytgan qo‘noq kirish xonalarini tayyorlab qo‘yamiz. To‘yxonadan keladigan mehmonlariga qarab dasturxonga narsalarni to‘yning o‘zi olib kelib beradi. Bizdan hech qanday chiqim chiqmaydi. 60-70 kishigacha qo‘noq kutamiz. Ovqatni ham to‘yxona beradi. Yaqin qarindoshlar quda-anda kutib olinadigan uylarga qo‘shimcha go‘sht berib, «gúrtik» pishiriladi»* [ADY: Maturzaeva], – deb ko‘rsatishi orqali ushbu hududlardagi yashovchi qo‘shnilarning o‘zaro kelishuvi asosida shakllangan o‘zaro yordam an’anasi hisoblanadi.

Shu qatorda, qoraqalpoqlarda to‘y marosimlaridagi o‘zaro yordam masalasi tadqiqotchi B. Bekjanova «keńes toy» misolida ko‘rsatadi. Muallif o‘z tadqiqotlarida: «To‘ydan oldin tashkil etiladigan «keńes toy»da to‘y egasining qarindoshlari, qo‘ni-qo‘shnilar, jamoat a’zolari ishtirok etgan, keksalar, ovul oqsoqoli boshchiligida nikoh to‘yi marosimlariga tayyorgarlik bilan bog‘liq masalalar o‘zaro maslahatlashgan holda hal etilgan. Ya’ni, to‘y egasining iqtisodiy ahvoli, to‘y xarajatlari, mehmon chaqirish, to‘y tomoshalarini uyushtirish, to‘y egasiga qanday moddiy yordam ko‘rsatish kerakligi, zarur xarajatlar ro‘yxatini tuzish va boshqa masalalar bo‘yicha maslahatlashgan» [1, 19-20] – deb ko‘rsatishi bugungi kun transformatsiyaga uchragan qoraqalpoq to‘ylaridagi haqiqiy, jamoatchilik yordamining yaqqol ifodasidir.

Shunday ekan, qoraqalpoqlarda kengash yoki maslahat berish masalasi bo‘lajak to‘y yoki boshqа marosimlarning asosiy tashkil etilishini boshlab beruvchi eng muhim marosimlardan biri hisoblanadi. Bu esa qoraqalpoqlar jamiyatida ijtimoiy birlashuv mexanizmi xisoblanib o‘zaro jipslashuv, yordam an’analarini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR TIZIMI:

1. Бекжанова Б. Қорақалпоқ тўй маросими фольклорининг тарихий-этнографик хусусиятлари (никоҳ тўйи маросимлари мисолида): Тар. фан. фалс. д-ри (PhD). … дис. автореф. – Нукус, 2020.

авлетияров М.М. Традиционные социальные институты каракалпаков. – Нукус: Илим, 2019.

авлетияров М.М.Паралелли городской исельской соседской община Каракалпакстана // Вестник ККОАНРУз. – Нукус, 2013. - №2.

4. Avtorning dala yozuvlari-ADY 2022 № 43. Qorao‘zak tumani informant, Dáwletova Gulmira.

5. Avtorning dala yozuvlari-ADY 2022 №18. Shumanay tumani informant, Maturzaeva.

ERIX FROMMNING GUMANISTIK PSIXOANALIZIDA INSON BORLIG‘INING DIALEKTIK TALQINI

Yuldashev Tazabay Niyetbay o‘g‘li - University of Innovation Technologies “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi assistent-o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19634910

Annotatsiya. Maqolada Erix Fromm nazariyasi asosida inson borlig‘ining ontologik va gnoseologik jihatlari tahlil qilinadi hamda uning mazmuni dialektik sintez va faol shakllanish jarayoni sifatida asoslanadi.

Kalit so‘zlar. inson borligi, erkinlik, begonalashuv, gnoseologiya, ontologiya, dialektika

Abstract. This article analyzes the ontological and epistemological aspects of human existence based on the theory of Erich Fromm, and its essence is substantiated as a process of dialectical synthesis and active formation.

Keywords. human existence, freedom, alienation, epistemology, ontology, dialectics

Zamonaviy falsafiy tafakkurda inson borlig‘ining ontologik asoslari va uni anglashning gnoseologik mexanizmlari murakkablashib borayotgan ijtimoiy-madaniy jarayonlar bilan bevosita bog‘liq holda namoyon bo‘lmoqda. Raqamli kapitalizm, iste’molchilik va ijtimoiy begonalashuv kuchaygan sharoitda inson o‘z mavjudligining ichki mazmuniy tayanchlarini yo‘qotish xavfi bilan yuzlashmoqda. Masalan, insonning o‘z qadrini ijtimoiy tarmoqlardagi faollik yoki tashqi muvaffaqiyat ko‘rsatkichlari orqali baholashi uning ichki mazmunidan uzoqlashayotganini ko‘rsatadi. Shu bois insonni faqat biologik yoki ijtimoiy mavjudot sifatida emas, balki o‘z mazmunini faol shakllantiruvchi mavjudot sifatida talqin qilish zarurati kuchayadi.

Mazkur muammoni chuqur tahlil qilishda Erix Frommning gumanistik psixoanaliz nazariyasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Fromm insonni biologik, ijtimoiy va ekzistensial omillarning oddiy yig‘indisi sifatida emas, balki ularning dialektik birligi natijasida shakllanuvchi tizim sifatida talqin qiladi. U inson mazmunini o‘zgarmas mohiyat emas, balki tarixiy va faol jarayon sifatida tushuntirib, ontologik va gnoseologik jihatlarning o‘zaro bog‘liqligini asoslaydi. Mazkur maqolaning maqsadi — Fromm nazariyasi asosida inson borlig‘ining ontologik va gnoseologik asoslarini tizimli tahlil qilish hamda inson mazmunining dialektik sintezini falsafiy jihatdan asoslashdan iborat.

Erix Fromm insonni tabiatdan evolyutsion ajralish natijasida shakllangan va o‘z mavjudligining ichki ziddiyatini anglashga majbur bo‘lgan mavjudot sifatida

talqin qiladi. Aynan shu ajralish instinktiv tayanchlarning zaiflashuvi va ongli refleksiya paydo bo‘lishiga olib kelib, insonni erkinlik bilan yuzlashtiradi. Biroq erkinlik faqat imkoniyat emas, balki og‘ir yuk ham bo‘lib, inson ko‘pincha undan qochishga intiladi [1, 21-35]. Zamonaviy sharoitda bu holat ayniqsa yaqqol ko‘rinadi: inson mustaqil qaror qabul qilish o‘rniga ijtimoiy stereotiplarga, ommaviy madaniyatga yoki tashqi autoritetlarga tayanadi. Masalan, yoshlarning kasb tanlashda shaxsiy qiziqishidan ko‘ra ijtimoiy nufuzli yoki daromadli yo‘nalishlarni tanlashga majbur bo‘lishi shu holatni ifodalaydi. Natijada tashqi erkinlik saqlangandek ko‘rinsa-da, ichki qaramlik kuchayadi. Shu jihatdan inson borlig‘i erkinlik va bog‘liqlik o‘rtasidagi doimiy keskinlik bilan belgilanadi.

Fromm bu ziddiyatni “biofiliya” va “nekrofiliya” qarama-qarshiligi orqali yanada chuqurlashtiradi. Bir tomondan, inson yaratishga, rivojlanishga va hayotni tasdiqlashga intiladi, boshqa tomondan esa destruktivlik va yemirilish tendensiyalarini ham namoyon etadi [2, 37-60]. Bu qarama-qarshilik uning mavjudligini statik emas, balki ichki kurashga asoslangan jarayon sifatida ko‘rsatadi. O‘zbek falsafiy yondashuvlarida ham inson erkinligi va ijtimoiylik o‘zaro bog‘liq holda talqin qilinadi: shaxsiy tanlov imkoniyati doimo muayyan ijtimoiy sharoitlar bilan chegaralanadi [3, 75-90]. Shu bois Fromm ta’limotida inson borlig‘ining ontologik asosi biologik ajralishning o‘zi emas, balki erkinlik va begonalashuv o‘rtasidagi dialektik munosabatda namoyon bo‘ladi.

Erix Fromm Marksning inson haqidagi qarashlarini rivojlantirib, begonalashuvni nafaqat iqtisodiy, balki psixologik hodisa sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, kapitalistik jamiyatda inson o‘z mehnati, faoliyati va boshqa insonlar bilan munosabatlaridan uzoqlashadi, natijada uning ichki yaxlitligi buziladi [5, 5]. Fromm bu jarayonni “ega bo‘lish” va “bo‘lish” o‘rtasidagi qarama-qarshilik orqali izohlaydi. “Ega bo‘lish” modelida inson o‘zini tashqi obyektlar orqali belgilaydi, “bo‘lish” modelida esa u o‘zini ichki rivojlanish va faoliyat orqali namoyon etadi [4, 25-60]. Zamonaviy jamiyatda bu ziddiyat ayniqsa yaqqol ko‘rinadi: inson o‘z qadrini moddiy boyliklar yoki ijtimoiy mavqe bilan o‘lchay boshlaydi. Bu esa uning ichki imkoniyatlari va mazmuniy rivojlanishini ikkinchi darajaga tushiradi. Natijada begonalashuv kuchayadi va inson o‘z faoliyatining subyekti emas, balki vositasiga aylanadi. Aksincha, ijodiy va ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanish insonni “bo‘lish” modeliga yaqinlashtiradi. Bunday faoliyat jarayonida shaxs nafaqat natija yaratadi, balki o‘zini ham rivojlantiradi. Shu sababli faoliyat inson mazmunini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek falsafiy yondashuvlarida ham inson jamiyat bilan uzviy bog‘liq mavjudot sifatida talqin qilinadi va uning mohiyati ijtimoiy munosabatlar tizimida shakllanishi ta’kidlanadi [3, 75-90]. Bu Frommning begonalashuv haqidagi qarashlari bilan uyg‘unlashadi.

Shu nuqtai nazardan, begonalashuv inson borlig‘ining ijtimoiy ontologik asosini ifodalaydi. Inson o‘z mazmunini faqat ijtimoiy aloqalar va mahsuldor faoliyat orqali amalga oshira oladi, bu esa uni o‘zini ijtimoiy jarayonda yaratuvchi subyekt sifatida ko‘rsatadi. Erix Fromm ta’limotida inson borlig‘ining markaziy jihati uning o‘zini anglash va o‘z mazmunini shakllantirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Bu jihat ekzistensializm bilan yaqin bo‘lsa-da, Fromm erkinlikni faqat

individual tajriba sifatida emas, balki ijtimoiy va ma’naviy jarayon sifatida talqin qiladi. Shu sababli inson o‘z mazmunini nafaqat anglaydi, balki uni faol ravishda yaratadi; bu yerda bilish mavjudlikni shakllantiruvchi jarayonga aylanadi. Fromm “mahsuldor yo‘nalish” tushunchasi orqali inson rivojini uning ijodiy va ongli faoliyati bilan bog‘laydi. Bunday faoliyatda o‘zini anglash va o‘zini yaratish bir butun jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Aksincha, tayyor stereotiplarga tayanish va ijtimoiy bosimga moslashish gnoseologik passivlikni kuchaytirib, insonni o‘z imkoniyatlaridan uzoqlashtiradi.

Fromm sevgi fenomeniga ham bilishning alohida shakli sifatida yondashadi: sevgi orqali inson boshqani va o‘zini chuqurroq anglaydi [2, 25-40]. Bu yondashuv bilishni faqat intellektual jarayon emas, balki butun shaxs ishtirok etadigan faoliyat sifatida tushunishga imkon beradi. Zamonaviy raqamli muhitda esa inson ko‘pincha tayyor axborotni iste’mol qiluvchi subyektga aylanib, mustaqil fikrlash imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi. Natijada gnoseologik avtonomiya susayadi. Biroq ilmiy izlanish, ijodiy faoliyat va tanqidiy tafakkur orqali inson bu holatdan chiqib, o‘z mazmunini ongli ravishda shakllantira oladi. O‘zbek falsafiy an’analarida ham insonning o‘zini anglash va ma’naviy kamolotga erishishi uning ijtimoiy faolligi bilan bog‘liq holda talqin qilinadi [3, 75-90]. Shu jihatdan Fromm nazariyasida gnoseologiya va ontologiya ajralmas birlikni tashkil etadi: inson o‘z mazmunini anglash orqali uni yaratadi va shu jarayonda o‘zini faol subyekt sifatida namoyon qiladi.

Mazkur tadqiqot Erix Frommning gumanistik psixoanaliz nazariyasi inson borlig‘ini ontologik va gnoseologik birlikda tushuntirish imkonini berishini ko‘rsatdi. Fromm insonni biologik ajralish natijasida shakllangan, ijtimoiy munosabatlar tizimida rivojlanadigan va o‘z mazmunini ongli ravishda yaratishga qodir mavjudot sifatida talqin qiladi. Tahlil natijalari inson borlig‘ining asosini erkinlik va begonalashuv o‘rtasidagi dialektik ziddiyat tashkil etishini ko‘rsatadi. Shu ziddiyat insonni passiv mavjudotdan faol, o‘z mazmunini shakllantiruvchi subyektga aylantiradi. Bunda bilish jarayoni faqat idrok emas, balki mavjudlikni yaratish mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi. Fromm yondashuvi asosida inson mazmuni statik mohiyat emas, balki biologik, ijtimoiy va ekzistensial omillarning o‘zaro ta’sirida shakllanuvchi dinamik potensial sifatida talqin qilindi. Shu asosda inson “mavjud borliq” emas, balki “o‘zini yaratuvchi borliq” sifatida asoslandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Fromm nazariyasini ontologiya va gnoseologiya birligida dialektik sintez sifatida talqin qilish hamda inson borlig‘ining bio-psixo-ijtimoiy-aksiologik modelini asoslashdan iborat. Ushbu model insonni o‘z mazmunini ongli ravishda shakllantiruvchi faol subyekt sifatida ko‘rsatadi. Zamonaviy sharoitda, xususan raqamli muhit va iste’molchilik kuchaygan davrda, Frommning “bo‘lish” yo‘nalishi insonning ma’naviy va ijodiy rivoji uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, inson erkinligi uning egalik darajasi bilan emas, balki o‘zini anglash va o‘z mazmunini yaratish qobiliyati bilan belgilanadi. Shunday qilib, Frommning gumanistik psixoanalizi insonni erkin, ijtimoiy mas’ul va o‘zini yaratuvchi subyekt sifatida talqin qiluvchi yangi falsafiy yondashuvni asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фромм Э. **Бегство от свободы**. – Москва: АСТ, 2006.
2. Фромм Э. **Искусство любить**. – Москва: АСТ, 2009.
3. Фалсафа: ўқув қўлланма / Муаллифлар жамоаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
4. Фромм Э. **Иметь или быть?** – Москва: АСТ, 2010.
5. Маркс К. **Экономико-философские рукописи 1844 года.** – Москва: Политиздат, 1988.

INTELLIGENSIYANING YANGILANISHI ULARDA MEHNAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY AHAMIYATI, YANGI O‘ZBEKISTON TIZIMI ASOSIDA

Qutimova Gulnara Tatlimuratovna - QDU, Ijtimoyi fanlar kafedrasi assistent o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635740

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda Yosh intelligentlarda mehnat madaniyatini shakillaandirish jarayonida tahliliy, qiyosiy, empirik, statistik hamda tarkibiy-tashkiliy tadqiqot usullaridan foydalanishga urgatish va nazariy qarashlar, amaliy tajribalar uyg‘unligi asosida ilmiy xulosalar chiqarishga eynaltiriladi.Yoshlar tarbiyasiga e’tibor qaratish jarayonida, avvalo, ularning ma’naviy-axloqiy dunyosiga, xususan, mehnat madaniyatiga murojaat etish zarurligi tahlil qilindi.

Kalit so’zlar: intellygentsya, iqtisodiyot, modernizatsiya, empirik, statistik, milliy o‘zlikni anglash, globallashuv, ommaviy madaniyat.

Abstract: This article aims to guide young intellectuals in the process of developing a culture of labor by teaching them to use analytical, comparative, empirical, statistical, and structural-organizational research methods. It also focuses on drawing scientific conclusions based on the integration of theoretical perspectives and practical experience. In the process of paying attention to youth education, it is essential, first of all, to address their spiritual and moral world, particularly the culture of labor, which is analyzed in this study.

Keywords: intelligentsia, economy, modernization, empirical, statistical, national identity, globalization, mass culture.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining ustuvor vazifalaridan biri yosh intellygentlarda bugingi kunga mos mehnat madaniyatini yuksaltirish hisoblanadi. Bu jarayon iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash bilan uzviy bog‘liqdir. Yoshlarning kasbiy faolligi, halol mehnatga intilishi va milliy qadriyatlarga asoslangan mehnat madaniyati davlatning strategik maqsadlarini amalga oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu ma’noda, mehnat madaniyatini rivojlantirish nafaqat jamiyat va iqtisodiyot taraqqiyoti, balki yoshlarning shaxsiy kamoloti, mas’uliyatlilik va ijodiy faolligini oshirish uchun ham katta ahamiyatga ega.Yosh intellygentlar mehnat madaniyatini o‘rganish jarayonida tahliliy, qiyosiy, empirik, statistik

hamda tarkibiy-tashkiliy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Shuningdek, nazariy qarashlar va amaliy tajribalar uyg‘unligi asosida ilmiy xulosalar chiqarildi.Yoshlar tarbiyasiga e’tibor qaratish jarayonida, avvalo, ularning ma’naviy-axloqiy dunyosiga, xususan, mehnat madaniyatiga murojaat etish zarur. Bugungi kunda mehnat madaniyatini rivojlantirish jamiyat, iqtisodiyot va turli ijtimoiy tizimlar samaradorligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagi omillar bilan izohlash mumkin. Birinchidan, ish joyida ijobiy muhitning shakllanishi. Rivojlangan mehnat madaniyati mehnat muhitini sog‘lomlashtiradi, xodimlarning ish unumdorligi, ijodkorligi va kasbiy qiziqishini oshiradi. Ikkinchidan, mehnat huquqlarini himoya qilish. Mehnat madaniyati ishchilarning huquq va manfaatlarini ta’minlashda muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi hamda kelajakdagi mojarolarning oldini oladi. Uchinchidan, yosh mutaxassislarning kasbiy o‘sishi. Yuksak mehnat madaniyati yoshlarning bilim va ko‘nikmalarini muntazam oshirishga, professional rivojlanishga zamin yaratadi. To‘rtinchidan, ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash. Mehnat madaniyati ish beruvchi va xodimlar o‘rtasida samarali muloqot, jamoaviy hamkorlik va o‘zaro ishonchni ta’minlaydi. Beshinchidan, innovatsion tafakkurning shakllanishi. Tartibli va mas’uliyatli mehnat muhiti yangicha g‘oyalar, texnologiyalar va usullarni joriy etishga rag‘batlantiradi.

Mehnat madaniyatining rivojlanishi muayyan bosqichlar orqali amalga oshadi. Ushbu bosqichlar shaxsning mehnat idroki, amaliy faoliyati va axloqiy-estetik qadriyatlari bilan uzviy bog‘liq.

Birinchi bosqich — mehnatga tayyorgarlik bo‘lib, u ta’lim muassasalarida olinadigankasbiy bilimlar va ma’naviy-axloqiy asoslarni qamrab oladi.

Ikkinchi bosqich — mehnat faoliyati, ya’ni yosh mutaxassisning ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish yoki ilmiy tadqiqot jarayonida ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

Uchinchi bosqich — shaxsning mehnatdagi rivoji, bunda mehnat etikasi, mas’uliyat va kasbga bo‘lgan munosabat mustahkamlanadi.

To‘rtinchi bosqich — mehnat madaniyatining yuksalishi, innovatsion talablar va ijodiy faoliyatning faollashuvi bilan bog‘liq.

Beshinchi bosqich — mehnat madaniyatining integratsiyalashgan holati bo‘lib, unda axloqiy me’yorlar, nazariy bilimlar va amaliyot o‘zaro uyg‘unlashadi. Shu bilan birga, muqobil manbalarga tayangan holda mehnat madaniyatining shakllanishini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: talab va motivatsiya, ta’lim va tayyorgarlik, mehnat tajribasi, ijtimoiy-professional muhit, axloqiy me’yorlar va madaniylashtirish va boshqalar. Yoshlikdan kasbga qiziqish, mehnatga nisbatan mas’uliyat va axloqiy me’yorlarni anglash mehnat madaniyatining dastlabki asosini tashkil etadi. Ta’lim tizimi esa mazkur jarayonda hal qiluvchi o‘rin tutadi.Mehnat madaniyatining rivojlanishi yosh mutaxassisning nafaqat kasbiy, balki shaxsiy kamolotiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bu insonning milliy o‘zligini anglashi va ma’naviy yuksalishi bilan bevosita bog‘liqdir. “Milliy o‘zlikni anglash va milliy g‘oyaning ob’ekti hamda sub’ekti insondir. Ularni inson o‘zining ongi, tafakkuri va intellektual salohiyati bilan

shakllantiradi. Ayni paytda, ular insonning ma’nan yuksalib, shaxs darajasida shakllanishiga xizmat qiladi” [1].

Mehnat madaniyati ishga bo‘lgan munosabatni, mas’uliyat va intizomni shakllantiradi, ijtimoiy hamkorlikni mustahkamlaydi va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi. Shu ma’noda, ma’naviy ehtiyojlar ham mehnat madaniyati bilan chambarchas bog‘liq: “Inson ma’naviy dunyosining eng muhim elementlaridan biri ma’naviy ehtiyojlardir…”[2]. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar inson manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, yoshlarda ma’naviy ehtiyojlarning shakllanishi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlarning ommaviy madaniyat tahdidlaridan himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi[3].

Umimiylashtirip aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida yosh intellygencyada mehnat madaniyatini rivojlantirish mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Mehnat madaniyati yoshlarning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta’minlab, ularda mas’uliyat, halollik, ijodiy faollik va samarali hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ta’lim, mehnat tajribasi, ijtimoiy muhit va innovatsion faoliyatga asoslangan mehnat madaniyati milliy qadriyatlar bilan uyg‘un holda jamiyatda barqaror va samarali mehnat muhitini va zamanabiy intellygentlarni shakllantiradi. Shu bois mehnat madaniyatini rivojlantirish shaxs va davlat taraqqiyoti uchun strategik ahamiyatga ega xisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Suvanov I.A. Shaxs ma’naviyatini yuksaltirishda milliy g‘oya va o‘zlikni anglash dialektikasi.
Falsafa fanlari bo‘yicha PhD dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent, 2018 - B.12.
2. Begmatov A., Anvarova D. Ma’naviy tarbiya. -Toshkent: Akademiya,2013- B.26.
3. Yaxshiev A.J. Globallashuv sharoitida yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish shartlari. - Toshkent, 2015. - B.304.

FILOSOFIYANÍ OQÍTÍWDA INFORMACIYALÍQ TEXNOLOGIYALARDAN PAYDALANÍW

Muratbaeva Ardak Jubatkanovna – Ájiniyaz anındağı NMPI docent, f.i.k.

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635603

Annotaciya: Maqalada filosofiyanı oqıtıwda informaciyalıq texnologiyalarınan paydalanıwdıń abzallıqları, olardı ámeliyatqa engiziwdegi házirgi kúndegi mashqalalar kórip shıǵılǵan.

Tayanısh sózler: informaciyalıq texnologiyalar, oqıtıw texnologiyaları, filosofiyanı oqıtıw, informaciyalıq sawatlılıq

Annotation: The article examines the advantages of using information technologies in teaching philosophy, as well as the current challenges that arise from their implementation.

Key words: information technologies, teaching technologies, teaching philosophy, information literacy

Házirgi zamanagóy sharayatlar sanlı texnologiyalardıń insan ómiriniń barlıq tarawlarına kirip keliwin shártleydi. Global tarmaq arqalı hár kúni háreketlenetuǵın millionlaǵan gigabayt penen ólsheniwshi úlken maǵlıwmatlar aǵımı jaǵdayında, zamanagóy informaciyalıq texnologiyalardı iyelegen kadrlardı tayarlaw máseleleri ayrıqsha áhmiyetke iye bolıp tur. Bul bolsa bilimlendiriw sistemasında IT-tarawınıń ornın jáne de kúsheytedi. Eń jańa texnologiyalardı qollanıw oqıtıwdıń ónimli modellerine ótiwdiń hám pedagogikalıq tájiriybeni jetilistiriwdiń tiykarǵı faktorına aylanbaqta. Bul texnologiyalarǵa ayrıqsha orın beriledi, sebebi olar studentlerdiń qızıǵıwshılıǵın arttırıwǵa, oqıw processin optimallastırıwǵa, sonday-aq, joqarı dárejedegi kórgizbelilik hám óz-ara baylanıstı támiyinlewge qábiletli. Bul bolsa, óz gezeginde, oqıw materialların qabıllaw, ańlaw hám eslep qalıwǵa unamlı tásir etedi. Bilimlendiriw ortalıǵına innovaciyalıq usıllardı belsendi engiziw ulıwma oqıw processiniń sapasına tikkeley tásir kórsetedi.

Informaciyalıq texnologiyalardıń hám basqa da kóplegen elektron hám canlı resurslardıń rawajlanıwı joqarı bilimlendiriw aldına bir qatar jańa wazıypalardı qoydı. Ayırım studentler Internetten dástúriy ádebiy dereklerge tiykarǵı alternativa sıpatında paydalanadı hám usıǵan baylanıslı tabılǵan materialdıń kelip shıǵıwı, anıqlıǵı, sapası hám isenimliligi sıyaqlı bir qatar mashqalalarǵa dus keledi. Dástúriy baspa dereklerde informaciyanıń sapası avtorlardıń ilimiy dárejesi, baspalardıń abırayı sıyaqlı hám basqa da kóplegen faktorlar menen támiyinlenedi. Internet-resurslarǵa kelgende bolsa, bunday sapanı támiyinlew mexanizmleri islemeydi hám paydalanıwshı olardı ózi bahalawǵa májbúr boladı. Usıǵan bola, studentlerdi informaciyanı sın kóz-qarastan qabıl etiwshi tutınıwshılarǵa aylandırıw zárúrligi payda boladı.

Oqıtıw procesinde «informaciyalıq sawatlılıq» oqıtıwshı ushın da, student ushın da oǵada úlken áhmietke ie. Onıń áhmietliligi informaciya alıw hám almasıwdıń zamanagóy usılların biliw, olarǵa beyimlesiw hám ámeliyatta qollanıwǵa tayar bolıw sıyaqlı bir neshe aspektlerde kórinis tabadı.

Ilimpazlar hám analitikler informaciyalıq sawatlılıqtı arttırıwǵa járdem beretuǵın jeti tiykarǵı informaciyalıq kónlikpeni kórsetip ótedi:

1. Informaciyaǵa bolǵan mútájlikti ańlay alıw qábileti.
2. Informaciyadaǵı «boslıqtı» qalay toltırıw múmkin ekenin anıqlay alıw qábileti.
3. Informaciyanı tabıw strategiyaların dúziw qábileti.
4. Informaciyanı tabıw hám oǵan erisiw qábileti.
5. Hár qıylı dereklerden alınǵan informaciyanı salıstırıw hám bahalaw qábileti.
6. Informaciyanı shólkemlestiriw, qollanıw hám onı ámeldegi jaǵdayǵa sáykes usıllar menen basqalarǵa jetkeriw qábileti.
7. Ámeldegi informaciyanı sintezlew hám toplaw, onıń tiykarında jańa bilim jaratıw qábileti.

Studentlerdiń informaciyalıq sawatlılıǵın arttırıw maǵlıwmattı izlew hám toplaw procesin jeńillestiredi, onı studentlerge anaǵurlım anıq hám túsinikli jetkeriwge imkaniyat jaratadı, sonday-aq, bilim beriw sapasın arttıradı. Solay etip, zamanagóy málimleme texnologiyalarınan paydalanıw oqıtıwdıń nátiyjelirek usılların islep shıǵıw hám oqıtıw metodikasın jetilistiriwdiń zárúr shárti bolıp tabıladı.

Informaciyalıq civilizaciya dástúriy «oqıtıwshı-translyator» modelin interaktivlikke hám ǵárezsizlikke baǵdarlanǵan sanlı modelge ózgertip, joqarı oqıw orınlarındaǵı bilim beriwdi transformaciyalamaqta. Onlayn-platformalar, aralas oqıtıw hám bahalawdı avtomatlastırıw engizilip, bul nátiyjelilikti arttırǵanı menen, insanıylıqtan ayırılıw qáwpin tuwdıradı hám sanlı kompetenciyalardı rawajlandırıwdı talap etedi.

Informaciyalıq civilizaciyanıń joqarı oqıw orınlarına tásiriniń tiykarǵı baǵdarları:

• Rollerdi ózgertiw: oqıtıwshı bilimlerdiń birden-bir deregi rolinen fasilitator, ustaz hám oqıw procesiniń shólkemlestiriwshisi roline ótedi.

• Gibridlestiriw hám san: dástúriy lekciyalar aralas oqıtıw (blended learning), MOOK (ǵalabalıq ashıq onlayn-kurslar) hám elektron kitapxanalardan paydalanıw menen almastırılmaqta.

• Personallastırıw: Texnologiyalar hár bir studenttiń tezligi hám zárúrliklerine sáykeslendirilgen individual bilimlendiriw traektoriyaların jaratıw imkaniyatın beredi.

• Basqarıwdı avtomatlastırıw: AKT infrastrukturasın engiziw ózlestiriw esabın avtomatlastırıw, bilimdi bahalaw hám hákimshilik processlerdi optimallastırıw imkaniyatın beredi.

• Jańa bilimlendiriw nátiyjeleri: Tek ǵana maǵlıwmatlardı yadlaw emes, al sanlı sawatlılıq, maǵlıwmat tabıw hám sın kóz-qarastan pikirlew kónlikpelerin rawajlandırıw dıqqat orayında.

•Transformaciya mashqalaları: abzallıqlarına qaramastan, informaciyalastırıw «janlı» baylanıstıń kemeyiwi, qatnasıwshılardıń psixologiyalıq salamatlıǵına qáwipler, sonday-aq, sapalı sanlı resurslardan paydalanıwdıń teńsizligi qáwiplerin keltirip shıǵaradı.

Filosofiyanı oqıtıwda IKTdan paydalanıwdıń áhmietli mashqalalarına texnologiyalıq imkaniyatlar menen filosofiyalıq refleksiya arasındaǵı ayırmashılıq, «janlı» sáwbettiń jetispewshiligi, studentlerdegi «kliplik» pikirlew hám klassikalıq usıllardı sanlı ortalıqqa beyimlestiriw zárúrligi kiredi. Bul mashqalalar texnikalıq, metodikalıq hám mazmunlıq aspektlerdi qamtıp, IKTnı gumanitarlıq ózgeshelik penen úylesimli birlestiriwdi talap etedi.

Filosofiyaǵa IKT engiziwdiń tiykarǵı mashqalaları:

• Analitikalıq oylaw sapasınıń tómenlewi: Gadjetlerden úzliksiz paydalanıw maǵlıwmatlardıń artıqmashılıǵına alıp keledi. Bul studentlerdiń filosofiyalıq tekstlerdi tereń analizlew, ulıwmalastırıw hám sın kóz-qarastan uǵınıw qábiletlerin páseytedi.

• Sokratsha sáwbetlesiwdiń joǵalıwı: Filosofiya básekige tiykarlanǵan, al onı aralıqtan oqıtıw formatları yamasa elektron testler menen tolıq almastırıw qıyın. Bul dálillew kónlikpelerin rawajlandırıwda qıyınshılıqlar tuwdıradı.

• «Klipli oylaw» mashqalası: Studentlerdiń kólemli tiykarǵı dereklerge itibar jámlewi qıyın. Bul mazmun tereńligin joytpastan, kontentti sanlı formatqa beyimlestiriwdi talap etedi.

• Sanlı etika hám akademiyalıq hadallıq: Esse jazıwda jasalma intellekt hám internet-resurslarınan paydalanıw haqıyqattı óz betinshe izlewge bolǵan motivaciyanı páseytedi, sonday-aq, sanlı etika máselelerin kóteredi.

• Texnikalıq hám metodikalıq tayar emeslik: Sanlı ortalıqtan (Moodle sıyaqlı platformalar h.t.b.) nátiyjeli paydalanıw ushın filosofiya oqıtıwshıların qayta tayarlaw zárúrligi.

• Maǵlıwmattıń hádden tıs kóp bolıwı: Júdá kóp ústirtin materiallar arasınan sapalı, tastıyıqlanǵan dereklerdi tańlap alıwdaǵı qıyınshılıqlar.

Sonıń menen birge, IKT motivaciyanı attırıwǵa, jáhán sanlı kitapxanalarına kiriwdi támiyinlewge hám óz betinshe jumıstı shólkemlestiriwge imkaniyatlar jaratadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi

1. Знаменская Е.А. Роль информационных технологий в образовании // Международный журнал экспериментального образования. 2014. №12. С.90;

2. Климовец О.В. Методологические основы инновационного образовательного процесса в вузе // Вестник ИМСИТ. – 2011. № 1–2. – С. 11.

3. Мямешева Г.Х. Методика преподавания философии: теория и практика Учебно-методическое пособие Алматы «Қазақ университеті» 2016. https://dokumen.pub/9786010416789.html

ҚАРАҚАЛПАҚ ХАЛҚЫНЫҢ ДАҢҚЛЫ ПЕРЗЕНТИ, МӘМЛЕКЕТЛИК ИСКЕР АЛЛАЯР ДОСНАЗАРОВ 130 ЖАСТА

Тарийх илимлери философия докторы(PhD), профессор ў.а. ***Дамир Қуўатбаевич Жуманиязов***

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635831

Аннотация: Мақалада қарақалпақ миллетине өз мәмлекетшилигин қайта тиклеп берген ел азаматы Аллаяр Досназаровтың өмир жолы, Москва қаласында болып өткен сессиядағы ҳәмде 10 жыллық баянатының мазмуны сөз етиледи.

Таяныш сөзлер: Аллаяр Досназаров, Әмиўдәрья ўәлаяты, мандат, Қарақалпақ автономиялық области, китапхана, саўатлылық.

Ўатанымыз келешеги, халқымыздың азатлығы, келешек әўладлардың тыныш ҳәм абадан турмысын тәмийинлеў жолында гүрес алып барып өз жанларын қурбан еткен, совет тоталитар басқарыўы дәўиринде репрессия қылынған ата-бабаларымыздың атларын мәңгилестириў, олардың хызметин, мийрасын үйрениўде ҳәм үгит-нәсиятлаўда бир қанша жумыслар әмелге

асырылмақта. Өзбекстан Республикасы Президентиниң 2020-жылы 8-октябрьдеги «Репрессия қурбанлары мийрасын жәнеде терең үйрениў ҳәм олардың атларын мәңгилестириўге байланыслы қосымша ис-илажлар ҳаққында» ғы Ф-5598-санлы бийлиги бул бағдарда алып барылған жумысларды еле де жетилистириў ҳәм даўам етиў ушын кең көлемли имканиятларды пайда етти.

Қарақалпақ миллетине өз мәмлекетшилигин қайта тиклеп берген ел азаматы Аллаяр Досназаров болды. Аллаяр Досназаров 1896-жылы жумысшы шаңарағында дүньяға келген. Улыўмалық Түркистан советиниң XII съездине делегат болып қатнасқан А.Досназаровтың архивлик анкетасына тийкарланса қ, ол шаңарақлы үйленген, шаңарағында 4 адам болып жасаған. Тийкарғы кәсиби жумысшы, миллети қарақалпақ, саўаты орташа, қазақ, өзбек, татар тиллерин аўызеки билген. Әмиўдәрья ўәлаяты советиниң 9-съезди тәрепинен делагатлыққа усынылған. Алдын улыўмалық Түркистан советиниң VII съездинде қатнасқан. Соның менен бирге совет съездлеринде де қатнасқан. Мәселен волостлық съездлерде 2 мәрте, яғный Нөкис ҳәм Көкөзекте. Уездлик съездлерде 1 мәрте яғный, 1923-жылы Шымбай уездинде. Ўәлаятлық съездлерде 1 мәрте яғный, 1923-жылы Әмиўдәрья ўәлаятында. 1918 жыл декабрь айынан партия ағзасы болған, партия билети номери 455321. Шығыс мийнеткеш комунистлер университетинде оқыған. Жайы, мүлки, жери, саўда дүкәнлары болмаған. Ҳеш кандай суд ислерине тартылмаған. Делегат болып келгенинде Ташкент қаласындағы «Кооператор» мийманханасында тоқтаған. Тийкарғы жасаў мәнзили Шымбай уезди болған. Бул анкета 1923-жылдың 11-декабрьинде толтырылған ҳәм оған Досназаров деп қол қойылған. Әмиўдәрья ўәлаятының 9-съезди тәрепинен делегатлыққа сайланған А.Досназаровқа Түркистан Республикасының 12-Үлке советлер съездине қатнасыўшы делегат сыпатында «Мандат» қағазы берилген. Бул рәсмий ҳүжжетде сапар даўамында А.Досназаровқа нызамлы түрде әмелий жәрдем берилиўи тастыйықланған. Әмиўдәрья ўәлаяты атқарыў комитет кеңеси тәрепинен 1923 жыл 21-ноябрьде 1798-санлы номер менен дизимге алынған мандат ўәлаят атқарыў комитети ҳәм бир ўақыттың өзинде сайлаў комиссиясы баслығы А.Алифбаев, жуўаплы секретарь Кожуров, мандат комиссиясы баслығы Зедин тәрепинен қол қойылып тастыйықланған ҳәм Әмиўдәрья ўәлаяты атқарыў комитетиниң печаты қойылған. А.Досназаров 1924 жылы 7-16 октябрь күнлери Москвада өткерилген Пүткил Россия Орайлық атқарыў комитетиниң XI шақырық екинши сессиясында Қарақалпақстан автономиялық областы атынан қатнасады. 1924-жыл 14-октябрь күни усы сессияның жетинши жыйналысында А.Досназаровқа баслық Калинин тәрепинен сөз бериледи. Аллаяр Досназаров өз баянатын қарақалпақ тилинде сөйлейди, қазақ миллети атынан делегат болып келген С.Сейфулин баянатты орысша аўдармалап береди. Сөзге шыққан А.Досназаров өз баянатын төмендегише билдирди: «совет ҳүкимети өмир сүрген 6-жыл даўамында қарақалпақ халқы өз еркин, әрманын, мүтәжлигин ҳеш кимге айтыў мүмкиншилигине ийе болмады, енди усы жерде яғный сессияда биринши

мәрте өз ўәкили арқалы өз пикирлерин айтыў имканиятына ийе болды. Қарақалпақ халқы басқа халықлар қатары өз республикасын дүзиўди қәлейди. Усы халыққа да татар, башқурт, қазақ халқы сыяқлы итибар бериўин талап етемиз. Усы күнге шекем Орта Азиядағы қарақалпақ халқы қалай жасады деп ҳеш ким сорағанлығын биз еситпедик, енди миллий аймақлық шегараланыў нәтийжесинде бул артта қалған миллетке итибар қаратылса, биз тез арада жақсы раўажланамыз. Болажақ Қарақалпақ автономиялық областының сиясий ҳәм экономикалық раўажланыўына айрықша итибар бериўин сораймыз» - деп өз баянатын жуўмақлайды.

Аллаяр бабамыз қарақалпақ халқының гүллеп жаснаўын жүдә әрман еткен ҳәм бул жолда қандай тосықлар болған болса, солар ҳаққында өз баянатларында қорқпастан өз пикирин билдирген. Усындай баянатларының бири 1934 жылы жарық көрди. Бул баянат «Қарақалпақ АССР ның он жыллығына» деп аталады. Бул баянат тарийхый дерек сыпатында үлкен әҳмийетке ийе. Баянат мазмуны төмендегише:

Қарақалпақстан өтмиште патша Россиясының тоқымашылық кәрханаларын пахта шийки заты менен тәмийнлеўши колониясының бири еди. Соның менен бул жерден қаракөл терилери де Россия базарларына тасып алып кетилди. Сондай-ақ рус капиталистлериниң өз өнимлерин сататуғын базар майданына айланды, Хийўа ханы, молла-ишанлар, байлар өзлериниң байлығы ҳәм күшине сүйенип рус капиталистлери, жергиликли әмелдарлар менен биргеликте ҳәр қыйлы салық ҳәм жыймлар менен мийнеткеш қарақалпақ халқын езип келди. Колониаллық эксплуатация тийкарында жергиликли лаўазымлы адамлардың байлығы артып барды. Пахташылық королларының ҳәм қаракөл падаларының әжайып ҳәўлилери қурылды. Халықты тонаўшы қарақалпақ моллаларының, ишанларының байларының, саўдагерлериниң байлығы күннен күнге өсип барды. Мийнеткеш дийхан халқында болса жетиспеўшилик гүллеп жаснады. Хан, феодал, молла, ийшан, бай, патша чиновниклери тәрепинен тоналған халық өзлериниң шарўа малларынан, жеринен айрылып рус капиталистлери ҳәм жергиликли байлар қолында батрак хызметкерге айланды. Патша Россиясы халық өзлериниң экономикалық, социаллық турмысын жақсылаў мақсетинде колониаллық езиўге қарсы бирлеспеўи ушын жергиликли феодаллар хызметинен пайдаланып жасалма түрде қарақалпақ, өзбек, түркмен, қазақ, орыс миллетлериниң ортасында милллетлер аралық ала-аўызлық туўдырды. Феврал революциясы мийнеткеш халықтың турмысын жақсылаўға ҳеш қандай өзиниң унамлы тәсирин тийгизбеди. Бурынғысынша рус капиталистлери жергиликли байлардың ҳукимранлығы даўам ете берди. 1920 жылға шекем Хийўа ханлығының аймағындағы қарақалпақлар эксплотаторлар қол астында жасап келди. Жунайд хан рус ақ гвардияшылары менен биригип январда пүткил Шымбай уездин басып алды. ХХСР да коммунистлик партия әсте ақырын мийнеткеш халықтың исениминде үстем класс ўәкиллерин жоқ етти. Баспашылықты жоқ етиў ушын арнаўлы әскерий отрядлар шөлкемлестирилди, олар жарлы ҳәм орта ҳал дийханлардан дүзилди. Әмиўдәрья ўалаятында баспашылықты жоқ еткеннен соң

мийнеткеш халықтың алдында әҳмийетли мәселелер турды, олар; аўылларда совет ҳүкиметин беккемлеў, ўайран етилген хожалықты қайтадан тиклеў, экономикалық артта қалыўдан шығыў, миллий мәселени шешиў сыяқлы мәселелер еди. 1924-1925-жыллары Орта Азияда миллий аймақлық шегараланыў өткериў нәтийжесинде Қарақалпақ автоном ўәлаяты дәслеп Қазақстан совет республикасы қурамында, соң 1932-жылы Қарақалпақстан автоном совет социалистик республикасы РСФСР қурамында шөлкемлестирилди. Пахташылық жылдан жылға өсип барды. 1913-жылы 9266 га жерди ийелесе, 1930 жыл 51170 га яғный 5 ½ жерди ийеледи. Жоқышқа жетистириўши егин майданлары 1933 жылы 17000 га дан 1934 жылы 24000 га көбейди. Соның менен бирге дән өнимлерин жетилистириў 31000 га дан 35000 га кобейди. 1927 жылы 615 га жерге ийе 150 хожалықты бирлестирген 10 колхоз шөлкемлестирилген болса, 1933 жылы 584 колхозға өскен. Қаракөл қойларын жетистириў 1913 жылы 27943 болса, 1933 жылы 152600, 1934 жылы 164700 басқа көбейди. Қарақалпақстан ўәлаятында қысқа муддет ишинде 5-6 пахта тазалаў заводы, жоқышқа, пуў менен ислеўши ун қараз, электр станциясы. Мойнақта жылына 10 млн қуты шығарыўшы ири балық консерва заводы, Хожелиде май заводы, Нөкисте механика-ремонтлаў заводлары қурылмақта. Революцияға шекем Қарақалпақстанда еки дана ярым миссионерлик мектеп ҳәм бир дана жоқары басланғыш училище тийкарынан, байлар, молла, саўдагерлердиң балаларын оқытқан болса, 1933-жылға келип 16700 баланы оқытатуғын 1-басқышлы 45 мектеп, 8 қәнигелигин асырыўшы мектеп, рабфак, партия мектеби ҳәм илимий изертлеў институтына ийе болды. Саўатлылық дәрежеси революцияға шекем 1 пайыз болса, 1928 жылда 7 пайыз, 1934 жылы 32 пайызды қурады. Мектеплерге баллардың 70 пайызы яғный 597 мектепте 38500 оқыўшы билим алды. 4 республикалық ҳәм 3 жергиликли газета басып шығарылды. Барлық оқыўлықлар жергиликли тилде латын графикасында басып шығарылды. Республикада 50 китапхана, 61 клуб, 12 қызыл отаў, 10 дийхан үйи, 3 парткабинет ҳәм 63 оқыў үйлери хызмет көрсетти. Мәмлекетлик театр өзиниң районлардағы 6 филиаллары менен хызмет көрсетти.

А.Досназаров усы жетискенликлер менен бирге Қарақалпақстанда экономикалық ҳәм социаллық тараўдағы ислеўши кадрлардың халық мүлкин талан-тараж етиўлерин сынға алады. Қарақалпақстан ўалаятлық партия комитети басында отырған Чурбанов, Мориналар буларға көз жумып, ҳәтте солар менен шерик болғанлығын критикалап өтеди.

А.Досназаров совет тоталитар ҳүкимети дәўиринде жала дөхмет пенен репрессия қурбанына ушырады. Ғәрезсизлик шарапаты менен бабамыздың аты қайта тикленип қарақалпақ халқы алдында қылған хызмети жоқары баҳаланып алымларымыз тәрепинен бабамыздың өмир жолы тереңнен үйренилиўи даўам етпекте.

Жуўмақлап айтқанымызда бабамыз А.Досназаровтың баянатында келтирилген ҳәр бир мағлыўмат тарийхый әҳмийетке ийе болып, қарақалпақ тарийхында тарийхый дерек сыпатында қунлы мағлыўмат есапланады.

Қарақалпақ халқының даңқлы перзенти, мәмлекетлик ғайраткер А.Досназаров атын мәңгилестириў ушын төмендегилерди **усыныс** етемиз:

1. Нөкис қаласындағы А.Досназаров бюсти жанында А.Досназаров атындағы мәмлекетлик музейин қурыў;
2. Нөкис халықаралық аэропортын А.Досназаров атына қойыў;
3. 1930-1940-жылларда репрессияға ушыраған ҳәмде қурбан болғанлар ҳаққында изертлеў жумысларын алып барыў ушын А.Досназаров атындағы мәмлекетлик фонд дүзиў;
4. А.Досназаровтың қарақалпақ халқы алдындағы уллы хызметлерин есапқа алып жоқары оқыў орынларындағы студентлерге А.Досназаров атындағы мәмлекетлик стипендияны енгизиў;
5. Қарақалпақстан Республикасында А.Досназаров атындағы Ишки Ислер Академиясын шөлкемлестириў.

Пайдаланған әдебиятлар:

1. Анкеты и мандаты делегатов 12 съезда Советов Туркестанской Республики от Амударьинской области
2. Вторая сессия. Стенографический отчет. Издание ВЦИК. Москва-Кремль. 1925г.
3. А.Досназаров. К 10 летию Каракалпакской АССР.

AMIR TEMUR IKKINCHI UYG‘ONISH DAVRI-TEMURIYLAR DAVRI RENESSANSINING BUNYODKORI

Jumaniyazov Damir Quwatbaevich - Inovatsion texnologiyalar universiteti, Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i

Amangeldieva Azima Baxtiyarovna - Inovatsion texnologiyalar universiteti talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635557

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amir Temur davrida boshlangan ikkinchi Uyg‘onish davri-Temuriylar rennesansining shakllanishi va uning bunyodkorlik mohiyati, Amir Temurning markazlashgan davlat barpo etish siyosati, ilm-fan, madaniyat me‘morchilik va shaharsozlikka qaratilgan islohatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Temuriylar davrida Samarqand va boshqa shaharlarda bunyod etilgan me‘moriy obidalar, ilmiy muhit va ma‘naviy yuksalish jarayonlari Ikkinchi Uyg‘onish davrining muhim omillari sifatida baholanashi hamda Temuriylar renessanisining jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o‘rni va tarixiy ahamiyati ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Temuriylar saltanati, Chig‘atoy ulusi, Mavarounnahr, Temuriylar renessansi, Uyg‘onish davri

Abstract: This article analyzes the formation of the second Renaissance period—the Timurid Renaissance—begun during the reign of Amir Temur and its creative essence, Amir Temur's policy of creating a centralized state, and his reforms in science, culture, architecture, and urban planning. Furthermore, the architectural monuments built in Samarkand and other cities during the Timurid

era, the scientific environment, and the processes of spiritual growth are evaluated as important factors of the Second Renaissance, and the role and historical significance of the Timurid Renaissance in the development of world civilization are revealed on a scientific basis.

Keywords: Timurid Empire, Chagatai Ulus, Mawarannahr, Timurid Renaissance, Renaissance period

Amir Temur O‘rta, Janubiy va G‘arbiy Osiyo, shuningdek, Kavkaz, Volga bo‘yi va Rus tarixida muhim o‘rin tutgan O‘rta Osiyolik turkiy hukmdor, sarkarda va zobit, poytaxti Samarqand bo‘lgan Temuriylar saltanati asoschisi.

Amir Temur 1336-yil 9-aprel kuni Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ilgan. Rivoyatlarga ko‘ra u qo‘lida qip-qizil qon bo‘lagi bilan, sochlari esa mo‘ysafid kabi oppoq holatda tug‘ilgan, bunday holat Chingizxon haqida ham gapirilgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag‘ay turk avlodining barloslaridan bo‘lib Mavarounnahrda o‘ziga yarasha obro‘-e‘tiborga ega, nufuzli ziyolilardan bo‘lgan. Uning ota-bobosi afsonaviy turkiy Alan quva shajarasidan kelib chiqqan bo‘lib Chig‘atoy ulusining saroydagi obro‘-e‘tiborli kishilari qatoridan joy olgan[1,6].

Temuriylar renessansi davri Osiyo va Islom tarixida XIV asr oxiridan XVI asr boshlariga qadar davrni qamrab olgan tarixiy davr edi. Islom oltin asrining asta-sekin tugay boshlashidan so‘ng O‘rta Osiyoda joylashgan hamda Temuriylar sulolasi boshqargan Temuriylar davlati san‘at va fanlarning qayta tiklanishi uchun turtki bo‘lgan. Mazkur harakat butun musulmon olamiga keng tarqalgan.

Temuriylar renessansi Yevropa renessansidan oldinroq sodir bo‘lgan. Ushbu davr shon-sharaf nuqtayi-nazaridan Italiyaning Kvadrosentosiga teng deya ta‘riflanadi. Italiyaning Kvadrosento (italyancha Quattrocento-“to’rt yuzinchi yillar”) davri-bu XV asr italiyan san‘ati va madaniyatidagi eng yorqin va burulish nuqtasi hisoblangan davrdir.Bu davr ko’pincha “Ilk Uyg‘onish” (Ilk Renesans) deb ham ataladi[2,250-255]. Temuriylar uyg‘onish davri XV asrda, mo‘g‘ul bosqinlari va istilolari yakunlangach o‘z cho‘qqisiga chiqqan.

Amir Temur hayotligi davrida asosiy qurilish ishlaridan Shahrisabzdagi Yozgi saroy, Bibixoniim jome masjidi va Ahmad Yassaviy maqbarasini ko‘rsatish mumkin. Bu davrda Hirot shahri musulmon dunyosida ilmiy va badiiy hayotning muhim markaziga aylangan. Samarqand shahrida amalga oshirilgan qayta qurish yuksak e‘tibor natijasida renessans va madaniyat markaziga aylangan.

Temuriylar Uyg‘onish davri avvalgi buvayhiylar sulolasining madaniy va badiiy taraqqiyotidan farq qilar edi. Chunki bu davr mumtoz madaniyatining bevosita qayta tiklanishi emas, balki yanada keng tarqalgan turkiy va rasmiy fors tiliga yangi so‘zlashuv uslublarini qo‘shish ham edi. Temuriylar Uyg‘onish davri Mo‘g‘ullar imperiyasidan meros qilib olingan va Islomiy porox imperiyalari davridagi boshqa davlatlarga sezilarli ta‘sir ko‘rsatgan. Amir Temur feodal tarqoqlikka barham berib, fors va mo‘g‘ul san‘atini uyg‘unlashtirib, hunarmandlarni qo‘llab-quvvatladi va Buyuk Ipak yo‘li orqali xalqaro aloqalarni rivojlantirdi.[3]

Amir Temur har bir sohaga alohida e‘tibor qaratadi, shu jumladan ta‘lim, ilm-fan sohasiga asosiy e‘tiborini qaratadi. Bu davrda ilm-fan taraqqiyoti juda katta ahamiyatga ega bo’lib, bu davrda o’sha zamonaviy ilmiy, madaniy va texnik rivojlanishi yuqori bosqishga ko’tariladi. Asosan 5 ta asosiy yo‘nalishda ilm-fan taraqqiyoti yuzaga keladi: 1.Astronomiya va matematikada yuksalish: Temuriylar davrida astronomiya va matematika sohalarida katta yutuqlar ro’y beradi.Ulug’bek o’zining Samarqanddagi observatoriyasida, osha davrning eng ilg’or astronomik asboblari bilan turli astronomik kuzatuvlar o‘tkazdi va natijalarini “Ziji Ulig’bek” asarida jamladi. 2.Tibbiyot va Farmatsevtika: bu sohaga ham alohida etibor berilgan. Temuriylar davrida shifoxonalar dorixonalar yaratilgan va ko’plap dori-darmonlar ishlab chiqarishga erishganlar. 3.Adabiyot va Falsafa: bu sohaga ham katta etibor beriladi.Alisher Navoiy,ozining asarlari bilan adabiyot tarixidagi yangi davrni boshlab beradi. Falsafada esa, Fuzulli, Mirzo Ulug’bek, Abdurahmon Jomi kabi shaxslar ham ulkan ilimiy va madaniy o’zgarishlarga hissa qoshdilar. 4.San’at va arxitektura rivojlanishi: Amir Temur davrida arxitektura va san’at ham juda katta rivojlanadi. Samarqand va Buxoro shaharlari zamoning ilmiy va madaniy markaziga aylanadi. Ulug’bek madirasasi, Registon maydoni, Shah-i Zinda kabi yodgorliklar va me’morchilik inshootlari bu davrning katta yutiqlaridan biri hisoblanadi. 5.Tarixshunoslik va geografiya: Temuriylar o’z davrini o’rganib ko’plab asarlar yozgan va bunga misol etib “Zafarnoma” asarini o’lsak bo’ladi bu asar o’zining tarixiy va badiiy qiymati bilan mashhur bo’lib hisoblanadi. Temuriylar davri ilm-fan va madaniyatining jahon miqiyosidagi rivojlanishiga katta ta’sir ko’rsatgan. Ayniqsa mo’g’ullardan so’ng ezilgan xalqning o’tmishini ajdodlarining qanday buyuk shaxs ekanligini bilish uchun tarix sohasini rivojlantirdi. Temurning o‘zi ham tarixiy adaabiyotlarni mutolaa qilib borar edi.

Tarixdan ma‘lumki, qayerda tinchlik osoyishtalik va barqarorlik hukm sursa o’sha davlatda yuksalish jamiyat hayotida yangilanish ro‘y beradi va davlat har tomonlama rivojlanadi. Amir Temur davlatida shunday barqarorlik va tinchlik asosi ilm-fan bilan shug‘ullanuvchilar uchun juda yaxshi sharoit yaratilgan edi. Qayerda tinchlik va qulay sharoit bo’lsa azaldan olimlar ilm ahli va hunarmandlar o’sha yerga talpinganlar. Amir Temur va Temuriylar davlatining poytaxti Samarqandda ko‘plab ijodkor ahli yig’ilgan edi. Ularning orasida olim-u fuzalolar, muhandislar, hunarmandlar to’plangan edi. Chunki, Amir Temur Samarqandni dunyoning eng yirik ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylantirish uchun turli soha vakillarini jamlagan.Shu sababli Samarqand “Yer yuzining sayqali” deb atalgan.

Temuriylar davrida bundan tashqari juda ko’plab olimlar, yozuvchilar, tarixchilar, mashoyiqlar, hunarmand ustalar, xattotlar yetishib chiqdiki ular ham ikkinchi uyg’onish davrining vujudga kelishi rivojlanishi va taraqqiy topishida alohida ro’l o’ynaganlar desak aslo mubolag’a bo’lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davrida vujudga kelgan ikkinchi uyg‘onish davri ilm-fani, ma‘rifati, ma‘naviyati va madaniyati jahon sivilazatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Bunda ulug‘ bobomiz, davlat arbobi, sarkarda sohibqiron Amir Temurning xizmatlari beqiyos va benazirdir. Buni hammamiz tog‘ri anglamog’imiz lozim, ulug‘ zot ila faxrlanishimiz

barchamizning burchimizdir. Milliy mustaqillik tufayli jahon ma‘naviyati va ma‘rifatida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan piru komil ajdodlarimizni va ular qoldirgan boy ma‘naviy-madaniy merosni teran anglash, o’rganish ulug‘lash, imkoniyati yuzaga keldi.

Muhtaram prezidentimiz Sh.M.Miromonovich ta‘kidlab o‘tgan yangi O‘zbekiston va yangi renessans ostonasida ekanmiz ajdodlarimizning ikkinchi uyg‘onish davrida amalga oshirgan ilm-fan sohasidagi islohotlarni chuqur o‘rganmogimiz va uni hayotga tatbiq etmog‘imiz darkor bo‘ladi. Ikkinchidan, o’sha davrda yaratilgan ulkan ma’naviy olamni yoshlarimiz, jamiyatimiz ongiga singdirishimiz va renessans nima ekanligini va unga qanday o‘z hissalarini qo‘sha olishlarini uqtirish, shuningdek qiziqtirish orqali yangi O‘zbekistonni birgalikda qurishga da‘vat etmog‘imiz zarur bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Muhammad Ali.Amir Temur solnomasi.Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.Toshkent.2008. 6.b

2. Ernst Gombrish-“San’at tarixi” (The Story of Art) (220-250-betlar)

3.Ahmedov.B Ahmedov.A Mukminova.R “Amir Temur Jahon tarixida” Toshkent.Sharq.1996

1960-YILLARDA OROL DENGIZIDA BALIQ OVLASH VA BALIQCHILIK SOHASI

Bekimbetov Konisbay Mirzabayevich- O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti

https://doi.org/10.5281/zenodo.20656806

Annotatsiya: Suv olish inshootlarida baliqlarni himoya qiluvchi qurilmalarni o‘rnatish hamda ulardan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Sug‘orish tizimlarining Amudaryo bo‘limida suv olish joylarida baliqlarni himoya qilish inshootlari zarurligiga urg‘u berildi. U yerda ushbu nasos qurilmalariga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar va mahalliy aholi tomonidan o‘z iste’moli va uy parrandalarini boqish uchun ovlangan. Bularning barchasi baliq zaxiralarining tabiiy ko‘payishiga tuzatib bo‘lmaydigan zarar yetkazdi, respublika suv havzalarining baliqchilik ahamiyatini pasaytirdi.

Kalit so‘zlar: Orol tengizi, Zoobentos biomassasi, Mo‘ynoq baliq konserva kombinati, Nasoslar, Orol suv havzasini saqlab qolish, baliq konservalari.

Annotation: Particular attention began to be paid to the installation and operation of fish protection devices at water intake facilities. The need for fish protection structures at water intakes in the Amu Darya section of irrigation systems was emphasized. There, it was hunted for its own consumption and for feeding domestic poultry by the personnel maintaining these pumping units and the local population. All of this caused irreparable damage to the natural reproduction of fish stocks and reduced the fishery significance of the republic's water bodies.

Keywords: Aral Sea, zebenthos biomass, Muynak fish cannery, pumps, preservation of the Aral Sea basin, fish preserves.

1960 yilda Mo‘ynoq baliq-konserva kombinati davlatga baliq mahsulotlari topshirish rejasini bajarmadi. Arxiv ma’lumotlariga ko‘ra, o‘sha yili baliq ovlash rejasi barcha baliqchilik zavodlari tomonidan bajarilmagan, natijada reja atigi 91,6 foizga bajarilgan, ya’ni davlatga 21001 sentner baliq berilmagan. Kombinat korxonalari tomonidan yalpi mahsulot ishlab chiqarish rejasi bajarilgan bo‘lsa-da (103,3%), assortiment bo‘yicha reja bajarilmagan. Xususan, bug‘langan, muzlatilgan, tuzlangan, dudlangan baliqlar, baliq konservalari, baliq ikralari[1:21]. Asosan muzlatilgan baliq ishlab chiqarilgan - usach, sudak, laqqa, sazan, cho‘rtan, shuningdek, quritilgan oq marqa ham ishlab chiqarilgan.

1960 yillarda Orolning xo‘jalik ahamiyati hali ham baliqchilik bilan bog‘liq edi. S.Y.Gellerning yozishicha, Orolning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati Kaspiyga nisbatan kichik bo‘lib, u to‘liq baliqchilik xo‘jaligi bilan belgilanardi. Orol dengizi akvatoriyasida “suv transporti faqat kichik rol o‘ynaydi, - deb yozgan u, - ondatra ovini esa dengiz bilan bog‘lash uchun umuman asos yo‘q”[2:3]. Shu munosabat bilan 1962 yil 22-24 mart kunlari Nukus shahrida Orol dengizi baliq zaxiralarini ko‘paytirishning holati va istiqbollari hamda ulardan oqilona foydalanish yo‘llari masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-ishlab chiqarish anjumani bo‘lib o‘tdi[3:3]. Anjumani ishtirokchilari qabul qilgan qarorda “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston hayotida muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘libgina qolmay, balki muhim iqlimiy omil bo‘lgan Orol suv havzasini saqlab qolish” zarurligiga urg‘u berildi. O‘sha paytlardayoq olimlar “Orolning qurishi sho‘r botqoqlarning paydo bo‘lishiga va tuzlarning atrofdagi hududlarga tarqalishiga olib keladi” deb ogohlantirgan edilar[2:3]. Orol dengizi havzasida suv resurslaridan nooqilona foydalanish oqibatida 1966 yildayoq dengiz sathi 51,91 m ga, 1960 yilda esa 53,52 m ga teng bo‘lib qoldi. Olti yil ichida Orol dengizining hajmi 110 km3, ya’ni 1961 yildagi hajmning 10 foiziga kamaydi, Orol har yili 18,3 km3 dan ortiq suv yo‘qotardi[343:20].

1960 yillarda sun’iy suv havzalarida baliq yetishtirish ilmiy asoslariga e’tibor berila boshlandi. Suv olish inshootlarida baliqlarni himoya qiluvchi qurilmalarni o‘rnatish hamda ulardan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratila boshlandi. Sug‘orish tizimlarining Amudaryo bo‘limida suv olish joylarida baliqlarni himoya qilish inshootlari zarurligiga urg‘u berildi. QQASSRning Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimidagi sug‘oriladigan maydonlarga suv yetkazib beruvchi barcha nasos qurilmalari oddiy baliqlarni himoya moslamalari bilan jihozlanmaganligi sababli, ko‘plab baliqlar nasoslar yordamida so‘rib olinib, shikastlangan va nobud bo‘lgan. Millionlab ovlanadigan baliq chavog‘lari esa nasoslar orqali sug‘oriladigan maydonlarga tushib, nasos stansiyalari faoliyati to‘xtatilgan davrda nobud bo‘lgan. Dalalarga suv yetkazib berish to‘xtatilganda, ovlangan baliq chavog‘lari ko‘p miqdorda nasos qurilmalari yaqinidagi yuqori befga to‘planib qolgan holatlari qayd etilgan. U yerda ushbu nasos qurilmalariga xizmat ko‘rsatuvchi xodimlar va mahalliy aholi tomonidan o‘z iste’moli va uy parrandalarini boqish uchun ovlangan. Bularning barchasi baliq zaxiralarining

tabiiy ko‘payishiga tuzatib bo‘lmaydigan zarar yetkazdi, respublika suv havzalarining baliqchilik ahamiyatini pasaytirdi.

1960 yillarning oxirida Nukus shahri hududida urug‘ tashlash davrida (mart-aprel) suv berishni to‘g‘on bilan to‘sib qo‘yish amaliyotga joriy etildi, natijada urug‘ tashlash joylariga chuchuk suv berish butunlay to‘xtatildi. Bularning hammasi ovlanadigan asosiy baliq turlarining, ayniqsa, leshchning zaxirasini keskin kamaytirib yubordi. Jumladan, 1958 yilda Orol dengizining janubidan 244,2 ming sentner (shundan leshch - 129,1 ming sentner), 1964 yilda 218,7 (leshch - 50 ming sentner), 1965 yilda 160,8 (leshch - 21,5 ming sentner), 1966 yilda 130,6 (leshch - 13 ming sentner), 1967 yilda esa, to‘liq bo‘lmagan ma’lumotlarga ko‘ra, 106,8 ming sentner (leshch - 8,5 ming sentner) baliq ovlandi. Taqqoslash uchun, Orol dengizining shimolida, 1964 yilda 192,4 ming sentner, 1967 yilda esa atigi 111,3 ming sentner baliq ovlangan.

1960 yillarning oxiriga kelib respublika baliqchiligi uchun murakkab davr boshlandi: baliqlarning ozuqa bazasi keskin o‘zgarib turdi, plankton (baliq lichinkalarining asosiy ozuqasi) va bentosning sifat va miqdoriy tarkibi kamaydi. Agar 1956-1957 yillarda Orol dengizida zooplankton biomassasi 155-136 mg/kubometrni tashkil etgan bo‘lsa, 1966 yilda 15,9 mg/kubometrga teng bo‘ldi, ya’ni 10 marta kamaydi. Zoobentos biomassasi 1959 yildagi 25 g/kv.m.dan 1967 yilda 8,86 g/kv.m.gacha kamaydi, uning tarkibida ozuqa sifati ancha past bo‘lgan gidrobiy mollyuskasi ustunlik qila boshladi.

Ta’kidlash joizki, baliq ovlashning yuqori intensivligi va baliqchilik qoidalarining muntazam ravishda buzilishi, ayniqsa urchish davrida, baliqlar sonining kamayishi va ovning pasayishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Melioratsiya-iqlimlashtirish ishlarining juda sust olib borilishi, Amudaryo suvini sug‘oriladigan dalalarga chiqaradigan nasos qurilmalari o‘rnatilgan joylarda baliq to‘siqlarining yo‘qligi sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda, bu yerda mo‘ylovdor, qisqichbaqa, leshch, sazan kabi qimmatli baliq turlarining milliardlab lichinkalari nobud bo‘lmoqda.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

уйноқ тумани архиви, 10-ф., 1-йиғм., 79-иш. 21-б.
еллер С.Ю. Некоторые аспекты проблемы Аральского моря. //В кн.: Проблема Аральского моря. – М., 1969. – С.6.
ешение научно-производственной конференции, посвященной вопросам состояния и перспектив воспроизводства рыбных запасов Аральского моря и путей их рационального использования.- Н.,1962.
ульц В.И., Шалатова Л.И. Уровень Аральского моря в 1961-1966 гг. //Проблемы освоения пустынь, 1968, №3, - С.20.

7-SHO‘BA: MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY TA’LIM TENDENTSIYALARI

KISHI MEKTEP JASINDA QARIM-QATNAS MASHQALASI

Nurabullaev Tanirbergen Allambergenovich -University of Innovation Technologies v.b.dotsenti,
Sadaddinova Nursulíw Dawletbaevna - University of Innovation Technologies talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635255

Annotatsiya. Usı ilimiy tezis kishi mektep jasındağı balalarda ushırasatuǵın kommunikaciya mashqalaların kompleks úyreniwge baǵıshlanǵan. Onda qarım-qatnas kónlikpeleriniń qáliplesiw procesi, mashqalalardıń tiykarǵı sebepleri hám olardı saplastırıwdıń nátiyjeli pedagogikalıq-psixologiyalıq usılları tallanǵan.

Annotation This scientific thesis is devoted to a comprehensive study of communication problems encountered in primary school-aged children. It analyzes the process of communication skills formation, the root causes of problems, and effective pedagogical and psychological methods for their elimination.

Tayanish sózler: qarım-qatnas, kishi mektep jası, sóylewdiń rawajlanıwı, qarım-qatnas mádeniyatı, sociallasıw, pedagogika, psixologiya, kommunikativ kompetenciya.

Keywords: communication, primary school age, speech development, communication culture, socialization, pedagogy, psychology, communicative competence.

Kishi mektep jası - balanıń shaxs sıpatında qáliplesiwi hám onıń intellektual imkaniyatların rawajlandırıwda eń áhmiyetli dáwirlerden biri bolıp esaplanadı. Baslawısh klass (7-11) jası balanıń shaxs sıpatında qáliplesiwinde áhmiyetli dáwir esaplanadı. Bul dáwirde bala mektep ortalıǵına beyimlesedi, jańa bilimlerdi iyeleydi hám qatarları hám úlkenler menen sóylesiwdi úyrenedi. Sóylesiw procesinde balalardıń sóylewi rawajlanadı, sóz baylıǵı artadı hám pikirlewi qáliplesedi. Qarım-qatnas insan turmısınıń áhmiyetli quram bólegi bolıp, ol arqalı adamlar bir-biri menen pikir alısadı, tájiriybe arttıradı hám sociallıq qatnasıqlardı qáliplestiredi. Sonıń ushın baslawısh klass jasındağı balalarda sóylesiw kónlikpelerin rawajlandırıw áhmiyetli pedagogikalıq wazıypa esaplanadı.

Baslawısh klass oqıwshıları óz pikirin bildiriw, qatarları menen birge islesiw, jámáátte islew sıyaqlı kónlikpelerdi áyne usı dáwirde úyrenedi. Biraq ayırım balalarda sóylesiw procesinde túrli mashqalalar ushırasıp turadı. Bul mashqalalar balanıń sabaq procesindegi belsendiligine, psixologiyalıq jaǵdayına hám sociallıq rawajlanıwına tásir etiwi múmkin. Sol sebepli baslawısh klass jasında qarım-qatnas mashqalaların úyreniw hám olardı saplastırıw áhmiyetli esaplanadı.

Mektep ortalıǵında oqıtıwshı hám oqıwshı arasındağı sóylesiw de áhmiyetli rol oynaydı. Oqıtıwshı oqıwshılar menen doslıq hám shın kewilden múnásibet ornatqan jaǵdayda, balalar óz pikirin erkin bildiriwge umtıladı. Bul bolsa oqıwshılardıń sabaqtaǵı belsendiligin arttıradı hám oqıwǵa qızıǵıwshılıǵın kúsheytedi.Bunnan tısqarı, qatarlar arasındağı qarım-qatnas ta áhmiyetli esaplanadı. Balalar oyın, sáwbet hám jámáátlik jumıslar arqalı bir-biri menen

baylanısadı. Nátiyjede olar birge islesiw, basqalardıń pikirin húrmet etiw hám mashqalalardı birgelikte sheshiwdi úyrenedi.

Baslawısh klass oqiwshılarında hár qıylı sóylesiw mashqalaları baqlanadı. Olardan biri tartınshaqlıq. Ayırım balalar óz pikirin aytıwǵa uyaladı yamasa basqalar aldında sóylewge qorqadı. Bul bolsa olardıń sabaq procesinde belsene qatnasıwına tosqınlıq etedi.

Jáne bir mashqala - qatarları menen kelise almaw. Ayırım balalar óz pikirin májbúrlep qabıl etiwge háreket etedi yamasa basqalardıń pikirin tıńlaǵısı kelmeydi. Nátiyjede klassta kelispewshilikler júzege keledi. Bunnan tısqarı, qatarlar arasındaǵı qarım-qatnas ta áhmietli esaplanadı. Balalar oyın, sáwbet hám jámáátlik jumıslar arqalı bir-biri menen baylanısadı. Nátiyjede olar birge islesiw, basqalardıń pikirin húrmet etiw hám mashqalalardı birgelikte sheshiwdi úyrenedi.

Baslawısh klass oqiwshılarında qarım-qatnas mashqalaların saplastırıwda muǵallim hám ata-ananıń birge islesiwi úlken áhmiyetke iye. Oqıtıwshı sabaq procesinde oqıwshılardı jedel qarım-qatnasqa tartıwı kerek. Bunıń ushın didaktikalıq oyınlar, toparda islew hám toparlıq tapsırmalardan paydalanıw nátiyjeli esaplanadı.

Didaktikalıq oyınlar balalardıń sóylesiw kónlikpelerin rawajlandırıwda áhmiyetli qural esaplanadı. Oyın procesinde balalar erkin sóylesedi, pikir alısadı hám bir-biri menen birge islesedi.

Sonday-aq, rol oynaw shinigiwları da paydalı esaplanadı. Bunda balalar túrli jaǵdaylardı saxnalastıradı hám óz sezimlerin bildiriwdi úyrenedi.

Ata-analar da balalar menen kóbirek sáwbetlesiwi, olardıń pikirin tıńlawı hám qollap-quwatlawı kerek. Bul balanıń ózine bolǵan isenimin arttıradı hám sóylesiw kónlikpelerin rawajlandıradı. Juwmaqlap aytqanda, baslawısh klass jasında qatnasıq balanıń shaxs sıpatında rawajlanıwında áhmietli rol oynaydı. Bul dáwirde júzege keletuǵın qarım-qatnas mashqalaları balanıń oqıw iskerligine, psixologiyalıq jaǵdayına hám sociallıq rawajlanıwına tásir kórsetiwi múmkin.Sol sebepli muǵallim, ata-ana hám psixologlar birgelikte islewi zárúr. Didaktikalıq oyınlar, jámáátlik jumıslar hám erkin pikirlesiw ortalıǵın jaratıw arqalı balalarda nátiyjeli pikirlesiw kónlikpelerin rawajlandırıw múmkin. Nátiyjede balalar jámiyette belsendi, óz pikirin erkin bayanlay alatuǵın hám basqalar menen nátiyjeli birge islesiwge uqıplı shaxs bolıp qáliplesedi.Qarım-qatnas mádeniyatına, birinshiden, ózin-ózi biliw hám basqalar adamlardı túsiniy qábileti, yaǵnıy olardıń psixologiyalıq ózgesheliklerin durıs bahalay alıw, ekinshiden, olardıń minez-qulqı hám jaǵdaylarına sáykes múnásibette bolıw, úshinshiden, hár bir adamǵa onıń individual ózgesheliklerine eń maqul keletuǵın qarım-qatnas túri, usılı hám usılların tańlay biliw kiredi. Múnásibet eń birinshi adamnıń adam tárepinen qabıl etiliwinen baslanadı, bunda dáslepki óz ara bahalaw ámelge asırıladı, dáslepki sezimler, intellektual qatnasıqlar payda boladı hám sonnan keyin tiyisli baylanıs túri ámelge asırıladı.

Psixologiyada belgilengen qatnas quramalı hám hár tárepleme procesti quraydı, ol bilim beriw, bunda ayırım táreplerdi ayırıp kórsetiw, yaǵnıy onıń dúzilisin súwretlew múmkin. Qarım-qatnas dúzilisi sıpatlamasında ol bir-biri menen baylanıslı táreplerdi atap kórsetedi.

kommunikativlik.
interaktiv
perceptiv.

Qarım-qatnastıń bul tárepleri funkciya sıpatında belgilenedi, bunda qarım-qatnas adamlardıń birgeliktegi turmısında ámelge asırıladı. Qatnasıqtıń kommunikativ tárepi, yamasa kommunikaciya, sóylesiwshi individler arasındağı informaciya bólisiwden ibarat. Interaktiv tárepi sóylesiwshi individler arasındağı qatnası, yağnıy tek bilim, ideyalar menen emes, al háreketler menen almasıwdı shólkemlestiriwden ibarat. Qarım-qatnastıń persitiv tárepi sheriklerdiń sóylesiwi boyınsha hám sol tiykarda bir-birin túsiniwdi ornatıwda bir-birin qabıllaw processin ańlatadı. Real shınlıqta bul táreplerdiń hár biri basqalarınan bólek ómir súrmeydi hám tek ǵana tallawda olardı ayırıw múmkin. Qatnasıwdıń atap ótilgen barlıq tárepleri adam toparlarda sóylesiwdi shólkemlestiriw jaǵdaylarında, yağnıy adamlar arasında tikkeley baylanıs jaǵdayında kórinedi hám alınadı.

Kishi mektep jası balanıń sociallıq ortalıqqa beyimlesiwi hám sóylesiw kónlikpeleriniń tiykarı qáliplesetuǵın eń áhmietli dáwir esaplanadı. Ulıwma alǵanda, kishi mektep jasındağı balalarda sóylesiw kónlikpelerin sistemalı ráwishte rawajlandırıw olardıń keleshektegi jeke kamalǵa keliwi hám jámiette óz ornın tabıwında sheshiwshi faktor bolıp xızmet etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Davletshin M.G. *Umumiy psixologiya*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
2. G‘oziev E.G‘. *Psixologiya*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
3. G‘aniyeva M. *Boshlang‘ich ta’limda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish*. – Toshkent, 2018.
4. Nurmuxamedova L. *Bolalarda nutq rivoji va muloqot madaniyati*. – Toshkent, 2015.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH VA ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

Nurabullaev Tanirbergen Allambergenovich - University of Innovation Technologies v.b.dotsenti
Kılıcheva Nurgul Esenmíratovna - University of Innovation Technologies talabası

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635311

Annotatsiya: Ushbu tezisda boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari ilmiy-tahliliy jihatdan yoritilgan. Zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, axborotni izlash, tahlil qilish va undan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, interaktiv metodlar, raqamli platformalar va innovatsion pedagogik texnologiyalarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni statistik va ilmiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: raqamli kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar, axborot savodxonligi, media savodxonlik, innovatsion ta’lim, raqamli madaniyat, ta’lim samaradorligi.

XXI asr — raqamlashtirish va globallashuv davri bo‘lib, u ta’lim tizimiga ham tub o‘zgarishlar olib kirmoqda. Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, 2023-yil holatiga ko‘ra dunyo bo‘yicha maktablarning 60% dan ortig‘ida raqamli ta’lim elementlari joriy etilgan. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Aynan ushbu yosh davri bolaning kognitiv va intellektual rivojlanishida asosiy poydevor vazifasini bajaradi.

Raqamli kompetensiya — bu shaxsning axborotni izlash, uni tahlil qilish, baholash, saqlash va zamonaviy texnologiyalar orqali samarali qo‘llash qobiliyatidir. Yevropa Ittifoqining DigComp modeli bo‘yicha raqamli kompetensiya 5 asosiy komponentdan iborat bo‘lib, ular: axborot savodxonligi, kommunikatsiya, kontent yaratish, xavfsizlik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu komponentlar boshlang‘ich ta’lim jarayonida bosqichma-bosqich shakllantirilishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun raqamli kompetensiya alohida ahamiyatga ega. Ular nafaqat dars jarayonida internetdan samarali foydalanishi, balki o‘quvchilarga raqamli xavfsizlik qoidalarini o‘rgatishi, ishonchli axborotni tanlashni ko‘rsatishi zarur. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyasi yuqori bo‘lgan sinflarda o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichi o‘rtacha 20–25% ga yuqori bo‘ladi.

Zamonaviy texnologiyalarning afzalliklari shundan iboratki, ular ta’limni individuallashtirish imkonini beradi. Masalan, interaktiv platformalar orqali har bir o‘quvchining bilim darajasiga mos topshiriqlar berish mumkin. Bundan tashqari, vaqt va resurslar tejaladi, vizual materiallar orqali mavzular osonroq tushuntiriladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, multimedia vositalaridan foydalanilgan darslarda o‘quvchilarning diqqatini jamlash darajasi 40% gacha oshadi.

Biroq amaliyotda bir qator muammolar ham mavjud. Jumladan:

- ta’lim muassasalarining texnik jihozlanish darajasi yetarli emasligi;
- o‘qituvchilarning raqamli savodxonligi turlicha ekanligi;
- internet xavfsizligi bilan bog‘liq tahdidlar.

Masalan, ayrim hududlarda maktablarning atigi 50–60% i to‘liq raqamli qurilmalar bilan ta’minlangan. Shu sababli raqamli ta’limni joriy etishda tizimli yondashuv zarur.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun maktablarda interaktiv qurilmalar sonini oshirish, o‘qituvchilar uchun raqamli kompetensiya bo‘yicha treninglar tashkil etish hamda o‘quvchilarda media savodxonlikni shakllantirish muhim hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini samarali tashkil etish o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil izlanish va axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Boshlang`ich ta`limda raqamli kompetentsiyalarni shakllantirish muammosi so`nggi yillarda O`zbekiston pedagogikasida muhim ilmiy yo`nalish sifatida

rivojlanib bormoqda. Mazkur masala ta`limni raqamlashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va o`quvchilarda axborot bilan ishlash ko`nikmalarini shakllantirish nuqtai nazaridan tadqiq etilmoqda.

Jumladan, B.X. Xodjaev tadqiqotlarida ta`lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali o`quvchilarning kognitiv faolligini oshirish mumkinligi asoslab berilgan. Muallif ta`limda raqamli vositalardan foydalanish o`quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini faollashtirishini ta`kidlaydi [1].

SHuningdek, R.X.Jo`raev ishlarida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish ta`lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida ko`rib chiqilgan. Uning fikricha, raqamli muhitda tashkil etilgan ta`lim jarayoni o`quvchilarning axborotni tahlil qilish va saralash qobiliyatini rivojlantiradi[2].

N.A. Muslimov tadqiqotlarida esa zamonaviy ta`lim texnologiyalari va raqamli vositalardan foydalanish orqali o`quvchilarda kasbiy va umumiy kompetentsiyalarni shakllantirish masalalari yoritilgan. U ta`lim jarayonida mul`timedia va interaktiv platformalardan foydalanish o`quvchilarning faol ishtirokini ta`minlashini ilmiy jihatdan asoslaydi [3].

Shu bilan birga, SH.S. SHaripov ishlarida ta`limni modernizatsiya qilish sharoitida raqamli kompetentsiyalarni shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Uning ta`kidlashicha, boshlang`ich ta`lim bosqichida axborot savodxonligini shakllantirish keyingi ta`lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratadi [4].

So`nggi tadqiqotlarda O.A. Qo`yliev tomonidan raqamli ta`lim muhitini shakllantirish va uning o`quv jarayoniga ta`siri o`rganilib, raqamli platformalardan foydalanish o`quvchilarning ta`limga bo`lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan [5].

Adabiyotlar tahlili shuni ko`rsatadiki, mahalliy olimlar tomonidan raqamli kompetentsiyalarni shakllantirish masalasi asosan pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan bog`liq holda o`rganilgan. Biroq boshlang`ich ta`limda raqamli kompetentsiyalarni tizimli ravishda shakllantirish, uning metodik ta`minoti va amaliyotda qo`llash mexanizmlari yanada chuqur tadqiq etishni talab etadi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’lim tizimida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish zamonaviy ta’limning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning bilim olish faolligini oshiradi, ularning intellektual salohiyatini rivojlantiradi hamda kelajakda raqobatbardosh, zamonaviy fikrlaydigan shaxsni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Xodjaev B.X. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2016.
2. Jo`raev R.X. Ta`limda axborot texnologiyalari. – Toshkent, 2017.
3. Muslimov N.A. Kasbiy ta`lim texnologiyalari. – Toshkent, 2015.
4. SHaripov SH.S. Ta`limni modernizatsiya qilish asoslari. – Toshkent, 2018.
5. Qo`yliev O.A. Raqamli ta`lim muhiti. – Toshkent, 2021.

SHAŃARAQ TÁRBIYASI HÁM ONIŃ BALA PSIXOLOGIYASINA TÁSIRI

Nurabullaev Tanirbergen Allambergenovich - University of Innovation Technologies v.b.dotsenti
Nagmetova Dinara Bisenbay kízí - University of Innovation Technologies talabası

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635406

Annotatsiya: Bul teziste perzent tárbiyasında ata-ana awızbirshiliginiń psixologiyalıq áhmieti hám shańaraq ortalıǵınıń bala shaxsı qáliplesiwindegi ornı sáwlelendirilgen. Izertlewde shańaraqlıq tárbiyanıń sistemalı xarakteri, ananıń ruwxıy-intellektuallıq potencialı hám ata-ana arasındaǵı óz-ara múnásibetlerdiń bala minez-qulqına tásiri tallanadı. Sonday-aq, zamanagóy jámiyette shańaraqlıq tárbiyanı shólkemlestiriwdiń pedagogikalıq-psixologiyalıq principleri tiykarlap berilgen.

Annotation: This thesis reflects the psychological significance of parental harmony in child-rearing and the role of the family environment in the formation of a child's personality. The study analyzes the systematic nature of family upbringing, the mother's spiritual and intellectual potential, and the impact of parental relationships on child behavior. Furthermore, the pedagogical and psychological principles of organizing family upbringing in modern society have been substantiated.

Tayanish sózler: tárbiya, perzent, psixologiya, shańaraq, ortalıq, sociallıq tarmaqlar, ata-ana, mashqala, sheshim.

Keywords: upbringing, child, psychology, family, environment, social networks, parents, problem, solution.

Perzent tárbiyasında ata-ananıń bir jaǵadan bas shıǵarıwı, olardıń bul baǵdarda awızbirshilikte bolıwı úlken áhmiyetke iye. Ata-analar ilajı barınsha perzentleri mektepti pitkerip, birar kásip-óner iyelegenshe yamasa joqarı oqıw ornına oqıwǵa kirgenshe, ǵárezsiz turmısqa qadem qoyǵansha olardıń hár bir háreketin názerden qashırmay, kóbirek qızıǵıp, sorastırıp turıwları talap etiledi. Bunda tárbiyalıq násiyatlar, úgit-násiyatlar júdá náziklik penen balanıń shaxsiyatına, namısına tiymeytuǵın tárizde alıp barılıwı lazım. Jaslıǵınan tárbiyasına, islegen hár bir isine ata-anasınıń biypárwa qaramaǵanın sezgen perzent aqır-aqıbet olardıń aytqanın kókirek penen qabıl etetuǵın hám tásirine kiretuǵın bolıp baradı."

Máhállelerde alıp barılǵan izertlewlerden sonday nárse málim boldı: perzentler tárbiyasına bolǵan itibar qanshelli úlken bolsa, onıń nátiyjesi de sonshallı joqarı boladı.Shańaraqlıq tárbiya degende ata-analardıń óz turmısları, turmıs tárizleri tiykarında bala shaxsinda dúńya qaras tiykarları, siyasıy, ádep-ikramlılıq, estetikalıq hám basqa social faktorlardı qáliplestiriw maqsetinde sistemalı, izbe-iz, ideyalıq hám ruwxıylıq tásir kórsetiw processi túsiniledi. Biraq, bunda jámiyetimiz rawajlanıwı múnásibeti menen shańaraq, onıń bárshe turmıslıq

basqıshları keskin ózgerislerge ushırap atırǵanlıǵı hám esten shıǵarmaslıq kerek. Milletlerdiń tarıyxiy, milliy hám regional ózgesheliklerin esapqa alǵan halda shańaraqlar rawajlanıwı ulıwma hám menshilik rawajlanıwlar tiykarında shańaraqlıq tárbiyanı maqsetke muwapıq jaqsılaw tiyis. Bul mámleketimizdiń shańaraqta jas áwladti hár tárepleme kamal taptırıw processinde qaratılǵan ilimiy hám ámeliy usınıslarınan biri. Házirgi zaman rawajlanıwı hár bir shaxstan waqıyalıqtı tuwrı túsiniwdi, juwmaq shıǵarıwdı, ádep-ikramlılıq páklikti hám sezimlik- nervlıq shidamlılıqtı, jámiyetimiz turmısınıń bárshe salalarında bekkem hám aktiv bolıwın talap etpekte.

Bizge belgili, shaxstıń bunday social, emocional, minez-qulıq hám basqa sipatlarına shańaraq tiykar saladı, qáliplestiredi hám kamal taptıradı.

Shańaraqta balalarımız ata-anasınıń bir-birine bolǵan qatınasına qarap, izzet-húrmetti hám munasebtine úyrenip baradı. Eger ata-analarımız bir-birine miyirban bolsa, shiyrin sózli bolsa, balalar da buǵan kónigedi hám sonday munasebetlerge úyrenedi. Maselen, ómirlik joldasımızdı jumısqa gúzetip atırǵanda: «Jaqsı barıp keliń, ákesi» yamasa jumıstan qaytqanda: «Jumıslarıńız jaqsı boldı ma, ákesi?» dep kulimsirep gúzetsek hám kútip alsaq, úydegi ulı-qızlarımız da ananıń bul háreketin kórip, ákesine bolǵan húrmeti artadı. Ata-ananı húrmetlew kerek ekenin túsine baslaydı. Hár bir istiń ózine tán belgili nizam -qagidaları bolǵanınday, bala tárbiyasınıń da ózine tán bir qatar áhmiyetli qonun-qaidaları bar. Olara ámel qılıw tárbiya jumısınıń nátiyjeli bolıwın támiyinleydi hám olar tómendegiler:

• Tárbiya bir maqsetke qaratılǵan bolıwı tiyis;

• Tárbiya turmıs hám miynet penen, Ózbekstannıń ǵárezsizligi hám gúllenp-jasnawı jolında qılınıp atırǵan pidayı isler menen baylanıslı bolıwı;

• Shaxstı jámáátte hám jámáát arqalı tárbiyalaw;

• Tárbiyada bala shaxsın húrmet qılıw hám oǵan talapshań bolıw;

• Tárbiya jumıslarınıń izbe-izligi, turaqlılıǵı hám birligi;

• Tárbiyada oqıwshılardıń jasın hám ózine tán qásiyetlerin esapqa alıw.

Keleshegimizdiń qanday bolıwın házirgi kúnde bir tárbiyalanıp atırǵan jaslarǵa baylanıslı. Bunday úlken wazıypanı ámelge asırıwshı, materiallıq hám ruwxıylıq baylıqlardı dóretiwshi tiykar shańaraq. Shańaraq jámiyettń baslawish social buwini sipatında quramalı sostavqa iye bolıp, ol óz xızmetinde shańaraq aǵzalarınıń ıqtiyaji hám uqıplilıǵı, túrli xızmetiniń maqset hám wazıypaların ǵana emes, bálki tárbiyalıq xızmetin hám sáwlelendiredi. Onıń quramalı hám kóp qırli xızmetiniń turmıslıǵı eki tárepleme.

-Birinshiden, jámiyettiń kishi bir bólegi social ózgerislerin óte sezgirlik penen ilǵap alatuǵın, ózinde sáwlelendiretuǵın belgi. Soǵan tiykarlanıp shańaraqlıq tárbiyanı social tárbiyanıń tiykarǵı bóleklerinen biri dep esaplaw tiyis.

-Ekinshiden, shańaraq quramalı hám kóp qırli xızmeti onıń wazıypaları hám dúzilisine, social xızmetlerine, olardıń bárshe qızıǵıwlarına, ıqtiyajları hám múnásibetlerine baylanıslıǵın názerde qashırmaslıq kerek.

Shańaraq jámiyettiń sociallıq ózgerislerdi birinshilerden bolip ózinde sáwlelendiriwshi sezgir buwını. Keleshek áwladtıń ruwxiy kelbeti búgingi shańaraqtaǵı tárbiyalıq ortalıq dárejesi menen belgilenedi. Shańaraq tárbiyası sociallıq tárbiyanıń ajıralmas bólegi bolıp, ol shaxstıń emocionallıq turaqlılıǵın

hám sociallıq belsendiligin támiyinlewshi tiykarǵı faktor esaplanadı. Sol sebepli shańaraqlarda salamat psixologiyalıq ortalıqtı jaratıw hám ata-analardıń pedagogikalıq mádeniyatın arttırıw jámiyet rawajlanıwınıń kepili esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1) I.Alqarov, R.Mamatqulova, X.NorquIov. Shaxs va oila tarbiyasining pedagogikasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2009,

2) Фитрат А. Оила ёки оила бошкариш тартиблари//Масъул мухаррир: Д. А. Алимова. Таржима ва изохлар муаллифи И. Вохидов, — 2-ичи нашр— Т.: «Маънавият». 2000

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Aytmuratova Komila Atamuratovna - University of Innovation Technologies assistent-o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19652024

Annotatsiya. Mazkur tezisda maktabgacha ta’lim tizimining uzluksiz ta’limdagi o‘rni hamda bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Unda ayniqsa maktabgacha yosh davrining psixologik xususiyatlari, bolalarda ijodiy faoliyatni shakllantirishning nazariy asoslari hamda uning tarkibiy komponentlari tahlil etilgan. Shuningdek, badiiy adabiyot, xususan, she’riy asarlarning bolalar nutqi, tafakkuri, tasavvuri va estetik didini rivojlantirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Amaliyotda she’riy asarlardan foydalanishdagi mavjud kamchiliklar ko‘rsatilib, ularni bartaraf etish yo‘llari sifatida innovatsion pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarurligi ta’kidlangan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim, uzluksiz ta’lim tizimi, ijodiy faoliyat, badiiy adabiyot, she’riy asarlar, nutq rivoji, estetik tarbiya, ijodiy tafakkur, tasavvur, obrazli fikrlash, bolalar psixologiyasi, pedagogik metodlar, innovatsion yondashuv, maktabgacha yosh, shaxs rivojlanishi.

Annatation. This thesis highlights the role of the preschool education system in continuous education and its significance in the comprehensive development of children's personality. It analyzes the psychological characteristics of the preschool period, the theoretical foundations of the formation of creative activity in children, and its structural components. Also, the role of fiction, in particular, poetic works, in the development of children's speech, thinking, imagination, and aesthetic taste is substantiated. Existing shortcomings in the use of poetic works in practice are indicated, and the need to use innovative pedagogical approaches as ways to eliminate them is emphasized. The research results serve to increase the effectiveness of the development of children's creative activity in preschool educational organizations.

Keywords: preschool education, continuous education system, creative activity, fiction, poetic works, speech development, aesthetic education, creative

thinking, imagination, figurative thinking, child psychology, pedagogical methods, innovative approach, preschool age, personality development.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning muhim birinchi bo‘g‘ini bo‘lib, unda bolalarning shaxs sifatida har tomonlama kamol topishi uchun zarur bo‘lgan intellektual, nutqiy, ijodiy va estetik kompetensiyalar shakllantiriladi. Bugungi globallashuv va raqobat kuchayib borayotgan jamiyat sharoitida ta’lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan asosiy talablardan biri — mustaqil fikrlay oladigan, ijodkor, tashabbuskor va kommunikativ qobiliyatlarga ega shaxsni tarbiyalashdan iboratdir. Ushbu talablarni amalga oshirish esa, avvalo, maktabgacha ta’lim bosqichidan boshlanishi zarur.

Maktabgacha yosh davri bolaning psixik rivojlanishida eng muhim va sezgir bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolaning tasavvuri, obrazli fikrlashi, nutqi va ijodiy faolligi jadal rivojlanadi. Shu bois, bolalarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vositalarni izlash va ularni amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Maktabgacha ta’lim hayotiy maktab sifatida bolalar uchun kerakli ma’lumotlarni badiiy adabiyot orqali o‘rgatadi. Bolalar o‘rgangan ma’lumotlarini hayotda uchraydigan voqea-hodisalar bilan solishtiradilar. Natijada ijobiy qahramonlar hatti-harakatlariga mos faoliyat orqali atrofdagilar bilan muloqotga kirishadilar, odobli va yaxshi bola rolini ijro etadilar. Shuning uchun ham badiiy adabiyotni bola shaxsini shakllantirish va nutqni rivojlantirishning muhim vositasi, bolalarni estetik va axloqiy tarbiyalash vositasi deb aytish mumkin. Badiiy asarlar bolaning atrof-muhitga bo‘lgan to‘g‘ri munosabatini shakllantirishga yordam beradi, real hayot omillarini umumlashtiradi, hayotni, insoniy his-tuyg‘ular va munosabatlar dunyosini bilishga yordam beradi. U bolaning tafakkuri va tasavvurini rivojlantiradi, histuyg‘ularini boyitadi. Birgina misol, ya’ni “ona” so‘zining mohiyatini va ta’sirchanligini badiiy adabiyot orqali yaqindan taniydilar. Badiiy adabiyot shaxs sifatida ilk rivojlanish davridanoq real hayotga bolani yaqinlashtiradi. Yoshlik davridanoq bolalar so‘z orqali bolalar shoir va yozuvchilar bilan ma’naviy muloqotga lutfan kirishadilar. Bola ularning g‘oyalari va his-tuyg‘ularini, fikrlar va til tizimini tushunishni boshlaydi. Bolalarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishda badiiy adabiyot, xususan, she’riy asarlar alohida ahamiyat kasb etadi. She’rlar o‘zining qisqa, obrazli, ohangdor va emotsional ta’sirchanligi bilan bolalarning nutqiy faolligini oshiradi, so‘z boyligini kengaytiradi, ritm va ohangni his etish qobiliyatini rivojlantiradi. She’riy asarlar orqali bolalarda estetik did, badiiy tafakkur va ijodiy tasavvur shakllanadi.

Biroq maktabgacha ta’lim tashkilotlari amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, mashg‘ulot jarayonida she’riy asarlardan foydalanish ko‘pincha an’anaviy yondashuvlar bilan cheklanib qolmoqda. Ya’ni she’rni yod oldirish, ifodali o‘qish yoki takrorlash bilan kifoyalanilmoqda. Natijada she’riy asarlarning bolalar ijodiy faoliyatini rivojlantirishdagi keng imkoniyatlari to‘liq ro‘yobga chiqarilmayapti. Shu sababli she’riy asarlardan foydalanish metodikasini takomillashtirish, ularni ijodiy faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion metodlar bilan boyitish zarurati yuzaga kelmoqda.

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida “ijodiy faoliyat” tushunchasi shaxs rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida talqin etiladi. Ijodiy faoliyat — bu shaxsning mavjud bilim va tajribaga tayanib, yangi g‘oya, obraz, mahsulot yoki yechim yaratishga qaratilgan faoliyatidir. Ushbu jarayon tafakkur, tasavvur, hissiyot va nutqning o‘zaro uyg‘unligi asosida amalga oshadi. Maktabgacha yosh davrida ijodiy faoliyat bolaning tabiiy ehtiyoji sifatida namoyon bo‘ladi. Bola atrof-muhitni o‘rganish, hodisalarni tushunish va ularga munosabat bildirish jarayonida o‘ziga xos, betakror fikrlar bildiradi. Psixolog olimlar (L.S. Vygotskiy, J. Piaje, A.N. Leontyev) ta’kidlaganidek, aynan maktabgacha yoshda bolaning tasavvuri faol rivojlanib, ijodiy fikrlashning poydevori yaratiladi.

Ijodiy faoliyatning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- tasavvur va fantaziya;
- obrazli fikrlash;
- nutqiy faollik;
- emotsional sezgirlik;
- mustaqil qaror qabul qilish.

Mazkur komponentlar maktabgacha yoshda bir butun holda rivojlanib, bolaning keyingi ta’lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy faoliyati o‘ziga xos psixologik va pedagogik xususiyatlarga ega. Bu davrda bolaning faoliyati ko‘proq o‘yin, nutq, tasviriy san’at, musiqa va badiiy adabiyot orqali namoyon bo‘ladi.

Bolalarning ijodiy faoliyatiga quyidagi xususiyatlar xos:

- spontaniklik va erkinlik;
- taqlid va ijodning uyg‘unligi;
- emotsional ta’sirchanlik;
- obrazlarga boy fikrlash.

Ayniqsa, nutq va badiiy faoliyat orqali ijodiy faollik kuchli rivojlanadi. Bola eshitgan she’r, ertak yoki hikoya asosida yangi voqealarni tasavvur qiladi, obrazlarni qayta yaratadi va o‘z munosabatini bildiradi. Bu jarayonda tarbiyachining yo‘naltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi roli muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodiy faoliyatni rivojlantirishda majburlash yoki qat’iy talablar emas, balki erkin muhit, qiziqarli material va ijobiy rag‘bat muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 22.12.2020-yil 802-son
2. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. – Toshkent, 2022.
3. Sodikova Sh. “Maktabgacha pedagogika” darslik 2022

BOSHLANG‘ICH TA”LIMDA ZAMONAVIY TA”LIM TENDENTSIYALARI

G‘aybulloyeva Yulduz Mexriddinovna - Buxoro davlat universiteti pedagogika kafedrasi tayanch doktoranti (PhD*)*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635519

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimidagi zamonaviy ta’lim tendensiyalari, jumladan, innovatsion va integratsion yondashuvlar, o‘yin texnologiyalari, raqamli vositalar hamda kompetensiyaviy yondashuvning o‘rni tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlashi, mustaqil o‘rganishi va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi yoritilgan. Maqolada O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ilg‘or xorijiy tajribalarning qo‘llanilishi masalalari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, innovatsion yondashuv, integratsion ta’lim, o‘yin texnologiyalari, raqamli texnologiyalar, STEAM, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar.

Abstract. This article analyzes modern educational trends in the primary education system, including the role of innovative and integrated approaches, game technologies, digital tools, and a competency-based approach. It also highlights the effectiveness of modern pedagogical technologies in developing creative thinking, independent learning, and communication skills of primary school students. The article also considers the issues of applying advanced foreign experiences in the process of reforms being implemented in the education system of Uzbekistan.

Keywords: primary education, innovative approach, integrated education, game technologies, digital technologies, STEAM, competency-based approach, interactive methods.

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida jamiyatning tez o‘zgaruvchan ehtiyojlariga moslashuvchan, mustaqil va kreativ fikrlaydigan, raqamli texnologiyalarni egallagan barkamol avlodni tarbiyalash vazifasi turibdi. Bu, ayniqsa, shaxs kamolotining poydevori hisoblanmish boshlang‘ich ta’lim bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, jumladan, yangi avlod darsliklarining yaratilishi, o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimining takomillashtirilishi boshlang‘ich ta’lim mazmuniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni taqozo etmoqda. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy tendensiyalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish muhim omillardan biri hisoblanadi.

Innovatsion yondashuvning boshlang‘ich ta’limdagi o‘rni. Zamonaviy boshlang‘ich ta’limning eng muhim xususiyatlaridan biri bu – innovatsion yondashuvlarning keng joriy etilishidir. Innovatsion yondashuv deganda ta’lim jarayoniga yangi g‘oyalar, metodlar va texnologiyalarni tatbiq etish orqali uning samaradorligini oshirish tushuniladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kreativ fikrlash, mustaqil o‘rganish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligi yuqori. Tadqiqotchi olimlardan Abduraxmonov va Musayeva ta’kidlashicha, innovatsion pedagogik jarayon o‘qituvchi va

o‘quvchining hamkorligiga asoslanib, har ikki tomonning ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Innovatsion yondashuvning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat:

- Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim – har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini inobatga olish;
- Faoliyatli yondashuv – o‘quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini tashkil etish;
- Kompetensiyaviy yondashuv – nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Integratsion ta’lim va fanlararo bog‘lanish. Zamonaviy boshlang‘ich ta’lim tendensiyalaridan yana biri – integratsion yondashuv bo‘lib, u turli fanlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlash orqali o‘quvchilarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Integratsion ta’lim o‘quvchilarning bilimlarni tizimli o‘zlashtirishiga, turli fanlardan olgan bilimlarini bir-biri bilan bog‘lashiga yordam beradi. Xususan, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida innovatsion texnologiyalar asosida integratsiyalashgan ta’lim berish usullari samarali qo‘llanilmoqda. Ona tili darslarini tabiiy fanlar, san’at va musiqa bilan integratsiyalash o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

STEAM ta’limi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) integratsion yondashuvning eng ilg‘or shakllaridan biri hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda STEAM elementlarini qo‘llash o‘quvchilarda muhandislik fikrlashi va ijodiy yondashuvni shakllantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatgan . Tabiiy fan darslarida STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning atrof-muhitga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ularni tadqiqotchilik faoliyatiga jalb etadi.

O‘yin texnologiyalari va interfaol metodlar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini inobatga oladigan bo‘lsak, o‘yin texnologiyalari ta’lim jarayonida alohida o‘rin tutadi, o‘yinlar orqali ta’lim berish o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni o‘qish jarayoniga qiziqtirish va o‘quv samaradorligini yuqori darajaga ko‘tarish imkonini beradi.

Pedagogik amaliyotda keng qo‘llanilayotgan interfaol metodlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- “Aqliy hujum” va “Fikrlar hujumi” – o‘quvchilarning tez va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi;
- “Tarmoqlar” metodi – mavzuni tizimlashtirishga yordam beradi;
- “BBB” (Bilaman, Bilishni xohlayman, Bilib oldim) – o‘quvchilarning bilish faolligini oshiradi;
- “Beshinchisi ortiqcha” – mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi;
- FSMU (Fikr, Sabab, Misol, Umumlashtirish) – tanqidiy fikrlashni shakllantiradi;
- “Rolli o‘yinlar” – kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Loyihalash metodlari ham zamonaviy boshlang‘ich ta’limning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Loyihalarga asoslangan o‘qitish o‘quvchilarni

mustaqil izlanishga, ma’lumotlarni tahlil qilishga va o‘z fikrlarini himoya qilishga o‘rgatadi.

Raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalari. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonining imkoniyatlarini kengaytirib, uni yanada qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Raqamli kompetensiyalar zamonaviy o‘qituvchi va o‘quvchi egallashi lozim bo‘lgan asosiy malakalardan biridir. Boshlang‘ich sinflarda raqamli texnologiyalardan foydalanish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- Elektron darsliklar va multimediali ilovalar;
- Ta’limiy o‘yinlar va simulyatsiyalar;
- Onlayn testlar va interaktiv mashqlar;
- Virtual laboratoriyalar va ekskursiyalar.

Og‘zaki nutqni rivojlantirishda audiovizual vositalarning samaradorligi ular orqali o‘quvchilarning tinglab tushunish va nutqiy ko‘nikmalari jadal rivojlanishini ko‘rsatgan.

Kompetensiyaviy yondashuv va amaliy ko‘nikmalar. Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda bilimlarni oddiy yodlashdan ko‘ra, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Bu kompetensiyaviy yondashuvning asosini tashkil etadi.

Boshlang‘ich ta’limda shakllantirilishi lozim bo‘lgan asosiy kompetensiyalar:

- Kommunikativ kompetensiya – o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda aniq ifodalay olish, muloqot madaniyatiga ega bo‘lish;
- Axborot bilan ishlash kompetensiyasi – turli manbalardan ma’lumot olish, uni tahlil qilish va amaliyotda qo‘llay olish;
- O‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi – mustaqil o‘rganish, o‘z bilimini baholash va takomillashtirib borish;
- Ijtimoiy-fuqarolik kompetensiyasi – jamiyatda faol ishtirok etish, huquq va majburiyatlarni bilish;
- Matematik savodxonlik va fanlar asoslarini bilish – matematik bilimlarni kundalik hayotda qo‘llay olish.

Kompetensiyaviy yondashuv o‘qituvchidan yangi metod va texnologiyalarni o‘zlashtirishni, darslarni o‘quvchilarning amaliy ehtiyojlaridan kelib chiqib tashkil etishni talab qiladi.

Xalqaro tajriba va O‘zbekiston ta’lim tizimidagi islohotlar. O‘zbekiston ta’lim tizimi jahon ta’lim maydoniga integratsiyalashuv jarayonida ilg‘or xorijiy tajribalarni faol o‘zlashtirmoqda. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich ta’limda quyidagi yo‘nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- Ta’lim mazmunini hayotiy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtirish;
- O‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim;
- Inklyuziv ta’limni rivojlantirish;
- O‘qituvchilarning uzluksiz professional rivojlanishini ta’minlash;
- Ta’limda raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan yangi avlod darsliklari konsepsiyasi ana shu ilg‘or tajribalarni milliy ta’lim tizimiga moslashtirgan holda joriy etishni nazarda tutadi.

Xulosa. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy tendensiyalarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda ta’lim tizimi an’anaviy yondashuvlardan innovatsion, integratsion va kompetensiyaviy yondashuvlarga faol o‘tmoqda. Ushbu jarayonda quyidagi yo‘nalishlar alohida ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, innovatsion yondashuvlar asosida ta’lim jarayonini tashkil etish o‘quvchilarning kreativ fikrlashi, mustaqil o‘rganishi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, integratsion ta’lim va fanlararo bog‘lanish o‘quvchilarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirish, bilimlarni tizimli o‘zlashtirish imkonini beradi.

Uchinchidan, o‘yin texnologiyalari va interfaol metodlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo‘lib, ularning ta’lim jarayoniga faol ishtirokini ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim jarayonining imkoniyatlarini kengaytirib, uni zamon talablariga javob beradigan darajaga ko‘taradi.

Beshinchidan, kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali ularni mustaqil hayotga tayyorlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar va xalqaro tajribaning joriy etilishi boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Kelgusida ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish, innovatsion metodlarni amaliyotga keng joriy etish va o‘qituvchilarning malakasini muntazam oshirib borish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Savriyeva, G. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitishga innovatsion va integratsion yondashuv. SCHOLAR, 3(15), 235–254. (2025).

2. Jabbarova, Z.O. Boshlang‘ich ta’lim tabiiy fan darslarida atrof muhitni innovatsion yondashuvlar asosida o‘rgatish texnologiyalari. Advanced Scientific Journal, 1(2). (2025).

3. Fozilova, N.T. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini zamonaviy o‘qitish metodlari va o‘yinlar orqali ta’lim berish jarayoni. International Innovation and Researches, 1(3), 37–42. (2024).

4. Tursunova, S. Innovatsion yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirishning asosiy mazmuni. MJST Journal, 2(4). (2024).

5. Karimova, S.Q. Boshlang‘ich ta’limda o‘qitish metodlari va yondashuvlari. Universal Science Perspectives, 1(1). (2024).

6. Abduraxmonov, U.Sh., & Valijonova, Z.A. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion yondashuv. Qo‘qon DPI ilmiy xabarlari, 2(3). (2024).

7. Mavlonova, R., & Qosimova, M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. T.: O‘zbekiston nashriyoti. (2020).

BOSHLANG’ICH SINF ONA TILI DARSLARINI ILG’OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TASHKIL QILISH.

Yegenmuradova Nurgo’zal Annamurat qizi - University of Innovation Technologies talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635854

Annotatsiya: Mazkur tezisda boshlang‘ich sinf ona tili darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishning ahamiyati, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi o‘rni hamda samarali usullari yoritilgan.

Kalit so’zlar: boshlang‘ich ta’lim, ona tili darsi, ilg‘or pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, innovatsion ta’lim, o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, ta’lim samaradorligi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy pedagogik yondashuv.

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o‘qitish jarayoniga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida ona tili darslarini samarali tashkil etish o‘quvchilarning savodxonligini oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Bunday texnologiyalar o‘quvchilarning faolligini oshirish, dars jarayonida ularning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirish imkonini beradi. Ona tili darslarida “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, “Baliq skeleti”, “Rol o‘ynash” kabi interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsga qiziqishini kuchaytiradi va bilimlarni mustahkam egallashiga yordam beradi. Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham ta’lim samaradorligini oshiradi. Multimedia taqdimotlari, interaktiv mashqlar, elektron darsliklar orqali o‘quv materialini tushuntirish o‘quvchilarning darsni tezroq va chuqurroq o‘zlashtirishiga xizmat qiladi.

Pedagogik texnologiyalar tushunchasi

Pedagogik texnologiya – bu ta’lim jarayonini loyihalash, tashkil etish va natijaga erishishni kafolatlaydigan tizimli pedagogik faoliyatdir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlash, ularni mustaqil fikrlashga undash hamda dars jarayonini qiziqarli tashkil etishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida quyidagi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish mumkin:

- interfaol ta’lim metodlari
- axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
- muammoli ta’lim
- o‘yin texnologiyalari
- klaster va aqliy hujum metodlari

Bu texnologiyalar o‘quvchilarning bilimlarni oson o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Interfaol metodlarning ahamiyati

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan ishlashda interfaol metodlar muhim ahamiyatga ega. Interfaol metodlar o‘quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etadi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Ona tili darslarida quyidagi interfaol metodlardan foydalanish mumkin:

“Aqliy hujum” metodi – o‘quvchilarning erkin fikr bildirishiga imkon yaratadi. Masalan, yangi mavzu boshlanishida o‘quvchilardan mavzuga oid fikrlar so‘raladi.

“Klaster” metodi – mavzuni tushunishni osonlashtiradi va bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi.

“Sinkveyn” metodi – o‘quvchilarning so‘z boyligini oshiradi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

“Savol-javob” usuli – o‘quvchilarning nutq faoliyatini faollashtiradi.

Bu metodlar yordamida dars jarayoni qiziqarli va samarali tashkil etiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish

Zamonaviy ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ona tili darslarida multimedia vositalari, taqdimotlar, elektron darsliklar hamda interaktiv mashqlardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi.

Masalan:

- slaydlar orqali yangi mavzuni tushuntirish
- interaktiv testlar orqali bilimlarni mustahkamlash
- videomateriallar yordamida mavzuni tushuntirish

Bunday vositalar o‘quvchilarning eslab qolish qobiliyatini ham oshiradi.

O‘yin texnologiyalarining roli

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin faoliyati muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ona tili darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshiradi.

Quyidagi o‘yinlardan foydalanish mumkin:

“So‘z top” o‘yini

“Kim tez topadi?” o‘yini

“Zanjirli so‘zlar” o‘yini

“Harfdan so‘z tuzish” o‘yini

Bu o‘yinlar orqali o‘quvchilarning lug‘at boyligi va nutq faoliyati rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarini ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning mustaqil fikrlash, muloqot qilish va ijodiy ishlash qobiliyatlarini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **Tolipov O‘., Usmonboyeva M.** *Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot.* – Toshkent: Fan, 2012.

2. **Ochilov M.** *Yangi pedagogik texnologiyalar.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2011.

3. **Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh.** *Ona tili o‘qitish metodikasi.* – Toshkent: Noshir, 2019.

4. **Matchonov S.** *Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
5. **Azizxo‘jayeva N.** *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.* – Toshkent: TDPU, 2014.
6. **O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi.** *Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti.* – Toshkent, 2021.
7. **Qosimova K.** *Ona tili o‘qitish metodikasi (boshlang‘ich sinflar uchun).* – Toshkent: Cho‘lpon, 2017.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING BOG‘LANISHLI NUTQINI INNOVATSION DIDAKTIK O‘YINLAR YORDAMIDA SHAKLLANTIRISH

Nizomatdinova Shirin Rustamovna - Innovatsion texnologiyalar universiteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636001

Annotatsiya: Mazkur tezisda innovatsion didaktik o‘yinlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarning bog‘lanishli nutqini shakllantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. O‘yinlar orqali bolalarda so‘z boyligi, grammatik tuzilish va fikrni izchil ifodalash qobiliyatlari rivojlantiriladi. Shuningdek, didaktik o‘yinlarning nutq rivojiga ijobiy ta’siri, tarbiyachining faol roli va oila bilan hamkorlik masalalari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion didaktik o‘yinlar, maktabgacha yosh, bog‘lanishli nutq, nutq rivoji, pedagogik texnologiyalar, tarbiyachi faoliyati, oila hamkorligi.

Annotation: This thesis explores the pedagogical foundations of developing coherent speech in preschool children through innovative didactic games. It analyzes how these games enhance vocabulary, grammatical structures, and the ability to express thoughts logically. The study also highlights the positive impact of didactic games on speech development, the educator’s active role, and the importance of family collaboration.

Keywords: innovative didactic games, preschool age, coherent speech, speech development, pedagogical technologies, educator activity, family collaboration.

Maktabgacha yoshdagi bolaning nutq rivoji uning ijtimoiy va intellektual rivojlanishining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bog‘lanishli nutq – bu fikrni izchil, mantiqiy va to‘g‘ri tarzda ifodalash qobiliyati bo‘lib, u bolaning fikrlash, tushunish va muloqot qilish jarayonlarida bevosita rol o‘ynaydi. Shu bois, maktabgacha ta’lim jarayonida bolaning bog‘lanishli nutqini shakllantirish dolzarb pedagogik masalalardan biridir.

Innovatsion didaktik o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning nutq rivojiga samarali ta’sir ko‘rsatadigan eng muhim pedagogik vositalardan biri sifatida qaraladi. Bolalar o‘yin orqali dunyoni o‘rganadi, fikr yuritadi va turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini sinab ko‘radi. Shu bois, o‘yin bolaning tabiiy faoliyati sifatida, u uchun eng qulay va samarali rivojlanish maydoni hisoblanadi. Bolaning nutq

rivoji ham shu faoliyatga bog‘liq bo‘lib, u o‘zaro muloqot, atrof-muhit bilan aloqalar va muammolarni hal qilish jarayonida shakllanadi [1, 34].

Didaktik o‘yinlar esa oddiy o‘yinlardan farqli o‘laroq, aniq pedagogik maqsadlarni ko‘zlab tashkil etiladi. Ular bolaning nutqini rivojlantirish uchun maxsus tayyorlangan topshiriqlar, mashqlar va vazifalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, o‘yin jarayonida bola yangi so‘zlarni o‘rganadi, jumlalarni to‘g‘ri tuzadi, fikrlarini ketma-ketlik bilan ifodalaydi, savol-javob mashqlari orqali muloqot qobiliyatini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, didaktik o‘yinlar bolada tinglash, tinglangan matnni tushunish va uni o‘z so‘zlari bilan qayta ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Innovatsion o‘yinlar bolalarni turli ijtimoiy rollarni bajarishga undaydi. Masalan, rolli o‘yinlar orqali bola “ota-ona”, “shifokor-bemor” yoki “do‘stlar o‘rtasidagi suhbat” kabi vaziyatlarda o‘z xatti-harakatlarini boshqaradi, muomala madaniyatini o‘zlashtiradi va muloqotda izchil nutqni qo‘llashni o‘rganadi. Bu jarayon bola uchun o‘yin bilan birlashtirilgan axloqiy va ijtimoiy tajriba bo‘lib, nutq rivojida bevosita ahamiyatga ega. Shu bilan birga, muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan o‘yinlar bolani mustaqil fikrlashga, muammoni aniqlashga va turli yechimlarni baholashga o‘rgatadi. Natijada, bola har bir vaziyatga qarab mantiqiy, izchil va izchil ifodalangan nutqni shakllantiradi.

Innovatsion didaktik o‘yinlarning yana bir muhim jihati – ular bolaning ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. O‘yin davomida bola o‘z qahramonlarini yaratadi, turli vaziyatlarda qarorlar qabul qiladi va nutqiy ifoda vositalarini sinab ko‘radi. Shu bilan birga, o‘yin bolada o‘z fikrini qat’iyat bilan bildirish, o‘z so‘zini boshqalarga yetkazish va muloqotda muvozanatni saqlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Bog‘lanishli nutqni shakllantirish jarayonida didaktik o‘yinlar bolalarning nutq ko‘nikmalarini bir nechta yo‘nalishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Avvalo, ular bolalarning **so‘z boyligini oshirish**da muhim rol o‘ynaydi. Har bir o‘yin vazifasi bolani yangi so‘zlar bilan tanishtiradi, ularni kontekstda ishlatishga rag‘batlantiradi va nutqdagi iboralarni boyitadi. Masalan, “Do‘kon” mavzusidagi o‘yinda bola mahsulot nomlarini, ularning rangini, shaklini va miqdorini ifodalaydigan so‘zlarni o‘rganadi: “olma qizil rangda”, “uzum shirin”, “ikkinchi idishdagi banan yetarli” kabi iboralar orqali bola nutqini boyitadi. Shu tarzda, o‘yin bolaning so‘z boyligini kontekstda qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantiradi, chunki so‘zlarni faqat yodlash emas, balki ular bilan turli vaziyatlarda fikr ifodalash talab qilinadi [2, 57].

Shuningdek, didaktik o‘yinlar grammatik tuzilmalarning mustahkamlanishiga yordam beradi. Masalan, “Oiladagi rollar” o‘yinida bola “Men o‘qituvchiman” yoki “Biz do‘stmiz” kabi jumlalarni turli rollarda ishlatadi. Bu orqali u shaxs, ko‘plik, zamon va gap tarkibi kabi grammatik kategoriya tushunchalarini amalda qo‘llashni o‘rganadi. Shu tarzda, o‘yin bolaning grammatik tuzilmalarni mustahkamlashiga xizmat qiladi va so‘zlarni mantiqiy tartibda birlashtirish ko‘nikmasini oshiradi.

Bundan tashqari, didaktik o‘yinlar bolalarni fikrni izchil va mantiqiy ifodalashga o‘rgatadi. Masalan, “Hikoya davom ettirish” o‘yinida tarbiyachi boshlang‘ich jumlani aytadi: “Bir kuni kichik quyon o‘rmon bo‘ylab yurdi…” va

bolalar hikoyani davom ettiradi. Bola har bir jumlani mantiqiy ravishda bir-biriga bog‘lab, voqea rivojini izchil ifodalaydi. Shu tarzda, bolada izchil nutqni shakllantirish, voqealarni tartib bilan tushuntirish va fikrni boshqalarga aniq yetkazish ko‘nikmalari rivojlanadi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, didaktik o‘yinlar individual yondashuvga ham mos keladi. Har bir bola o‘z tezligida so‘zlarni o‘rganadi, jumlalarni quradi va voqealarni tasavvur qiladi. Tarbiyachi esa o‘yin davomida bolaning nutq faoliyatini kuzatadi, xatolarni tuzatadi va ijobiy xatti-harakatlarni rag‘batlantiradi. Masalan, agar bola yangi so‘zni noto‘g‘ri ishlatsa yoki jumlani mantiqsiz tuzsa, tarbiyachi unga to‘g‘ri variantni ko‘rsatadi: “To‘g‘ri ayting: ‘Men kitob o‘qiyman’, shundaymi?” Shu yondashuv bolada mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi va nutq ko‘nikmalarini barqaror shakllantiradi [2, 57].

Innovatsion didaktik o‘yinlarning afzalligi shundaki, ular bola faoliyatini qiziqarli, erkin va ijodiy tarzda tashkil etadi. Masalan, rolli o‘yinlar, sahnalashtirish va muammoli vaziyatlarga asoslangan mashg‘ulotlar bolalarda ijtimoiy va axloqiy xulq-atvor me’yorlarini shakllantirish bilan birga, nutqiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Bolalar o‘z qahramonlarini yaratish, o‘zaro muloqot qilish va o‘z fikrlarini boshqalarga izchil yetkazish jarayonida nutq ko‘nikmalarini tabiiy tarzda mustahkamlaydi.

Tarbiyachining o‘rni maktabgacha yoshdagi bolalarning bog‘lanishli nutqini shakllantirish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarbiyachi nafaqat o‘yin jarayonini nazorat qiladi, balki bolaning nutq faoliyatini kuzatish, to‘g‘ri yo‘naltirish va zarurat paytida tahririy yordam ko‘rsatishda faol rol o‘ynaydi. Bu jarayon bolada nutqiy xatolarni tuzatish, so‘z va jumla tuzilmasini mukammal o‘zlashtirish imkonini yaratadi. Masalan, bola o‘yinda “Men kitobni o‘qiydi” deb aytganda, tarbiyachi unga to‘g‘ri shaklni eslatadi: “To‘g‘ri aytish: ‘Men kitobni o‘qiyman’”, shuningdek, bu vaziyatda qo‘shimcha misollar orqali boshqa jumlalarni ham tuzishga rag‘batlantiradi. Shu tarzda, tarbiyachi bolaning grammatik va semantik xatolarini o‘rganish va tuzatish jarayonini silliq va samarali qiladi.

Shuningdek, tarbiyachi o‘yinlarni maqsadli tarzda tashkil etadi. Har bir topshiriq yoki mashg‘ulot bolaning bog‘lanishli nutqini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, uning tarkibi, mavzusi va murakkablik darajasi bolaning yoshiga va nutq ko‘nikmalariga moslab tanlanadi. Masalan, kichik guruh bolalari bilan o‘tkaziladigan o‘yinda tarbiyachi oddiy so‘z boyligini oshirish va qisqa jumlalarni to‘g‘ri ifodalashga e’tibor beradi, katta guruh bilan ishlaganda esa murakkabroq voqealarni tasvirlash va izchil hikoya qilish topshiriqlari beriladi. Shu orqali tarbiyachi bolaning nutq faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantiradi va mustahkamlaydi.

Tarbiyachining samimiy va doimiy ishtiroki bolalarda o‘z fikrini ifodalashga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Bola o‘z fikrini bildirganida, tarbiyachi uni diqqat bilan tinglaydi, rag‘batlantiradi va ijobiy fikr bildiradi. Masalan, o‘yin davomida bola sahnadagi qahramonning xatti-harakatini tasvirlab berayotganda, tarbiyachi uning nutqini maqtaydi va qo‘shimcha savollar bilan muloqotni davom ettiradi: “Sen qanday qilib bu vaziyatni hal qilarding?” yoki “Qahramon nima dedi, nima

qildi?” Bu yondashuv bolani faqat so‘zlarni yodlashga emas, balki mantiqiy fikrlashga, voqea ketma-ketligini tushuntirishga va izchil nutqni amalda qo‘llashga o‘rgatadi [4, 42].

Bundan tashqari, tarbiyachi bolaning ijodiy nutqini rivojlantirishga ham katta hissa qo‘shadi. U o‘yinda yangi so‘zlarni, jumlalarni va ifodalarni kiritish, o‘yin vaziyatlarini boyitish orqali bolaning nutqini yanada boyitadi. Masalan, “Hikoya davom ettirish” o‘yinida tarbiyachi boshlang‘ich voqeani taqdim etadi, bola esa hikoyani izchil va mantiqiy davom ettiradi. Tarbiyachi bu jarayonda bolaning fikrlarini aniqlashga yordam beradi, so‘z va jumlalarni tuzishda yo‘naltiradi va zarurat tug‘ilganda qo‘shimcha iboralarni taklif qiladi.

Shuningdek, bolaning nutqini rivojlantirish jarayonida oilaviy hamkorlikning ahamiyati katta. Ota-onalar bilan uzluksiz muloqot, uyda nutqiy mashg‘ulotlar tashkil etish va didaktik o‘yinlarni uy sharoitida davom ettirish bolaning nutq ko‘nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Oilada bolaga so‘z boyligini oshirish, o‘z fikrini izchil ifodalash, jumlalarni mantiqiy ketma-ketlikda qurish kabi ko‘nikmalarni amalda qo‘llash imkoniyatlari yaratiladi [5, 63].

Natijada, innovatsion didaktik o‘yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning bog‘lanishli nutqini shakllantirish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladi. Bu jarayonda tarbiyachining faol roli, oila bilan hamkorlik va o‘yinlar orqali izchil va mantiqiy mashg‘ulotlarni tashkil etish birlashib, bolalarda nutq ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, bolalar nafaqat nutq jihatidan rivojlanadi, balki ijtimoiy va axloqiy fazilatlarini ham mustahkamlaydi, jamiyatda o‘z o‘rnini topadigan yetuk shaxs sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent: Sharq, 2020.
2. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. Toshkent: Tafakkur, 2018.
3. G‘aniyev U.A. Bolalar nutqini rivojlantirishning zamonaviy metodlari. Toshkent: Fan, 2019.
4. Sattarova N.O. Maktabgacha ta’limda o‘yin metodlarining pedagogik ahamiyati. Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
5. Ismatova M.U. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning metodlari va ahamiyati. Toshkent: Ma’naviyat, 2017.

MAKTABGACHA TA’LIMDA NUTQ VA LUG‘AT RIVOJLANISHINI KO‘RGAZMALI VOSITALAR ORQALI SHAKLLANTIRISH

Nizomatdinova Shirin Rustamovna - Innovatsion texnologiyalar universiteti Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635909

Annotatsiya: Ushbu tezisda maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarda nutq va lug‘at rivojlanishini ko‘rgazmali vositalar orqali shakllantirishning pedagogik va metodik jihatlari o‘rganilgan. Rasmlar, kartochkalar, mini-rekvizitlar va boshqa vizual materiallardan foydalanish orqali bolalar so‘z boyligini oshiradi,

to‘g‘ri talaffuz va grammatik tuzilmani o‘zlashtiradi. Tezisda tarbiyachining roli, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va bolalarda nutqni rivojlantirishning samarali usullari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: nutq rivojlanishi, lug‘at boyligi, ko‘rgazmali vositalar, maktabgacha ta’lim, pedagogik metodlar

Annotation: This thesis examines the pedagogical and methodological aspects of developing speech and vocabulary in preschool children through the use of visual aids. The use of pictures, flashcards, mini-requisites, and other visual materials helps children expand their vocabulary, acquire correct pronunciation, and master grammatical structures. The thesis analyzes the role of educators, modern pedagogical approaches, and effective methods for promoting speech development in children.

Keywords: speech development, vocabulary, visual aids, preschool education, pedagogical methods

Nutq va lug‘at rivojlanishi maktabgacha yoshdagi bolalarning umumiy intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Ushbu yosh davrida bolalar tilni faqat eshitish va so‘zlash orqali emas, balki ko‘rish, taqqoslash va tasavvur orqali ham o‘rganadi. Shu sababli, ko‘rgazmali vositalar – rasmlar, illyustratsiyalar, kartochkalar, mini-rekvizitlar, figurali o‘yinchoqlar va boshqa vizual materiallar – nutq va lug‘atni shakllantirishda samarali vosita sifatida qaraladi.

Ko‘rgazmali vositalar bolalarda yangi so‘z va iboralarni osonroq o‘zlashtirish imkonini beradi, ularning tasavvurlarini rivojlantiradi, nutq faoliyatini rag‘batlantiradi va muloqotga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi. Shu bilan birga, bu vositalar bolalarning eslab qolish qobiliyatini mustahkamlaydi va fikrlash faoliyatini kengaytiradi. Masalan, rasm orqali yangi predmet yoki harakatni tushuntirish bolalarning lug‘at boyligini oshiradi, talaffuz va grammatik tuzilmani to‘g‘ri shakllantirishga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vizual vositalardan muntazam va maqsadli foydalanish bolalarda nutqning aniq, ravon va grammatik jihatdan to‘g‘ri shakllanishini rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, lug‘at boyligi kengayadi, yangi so‘zlar konteksti orqali o‘zlashtiriladi va bolalar ularni amaliy faoliyatda qo‘llashga o‘rganadi. Natijada, bolalarda muloqotga qobiliyat, tasavvur, ijtimoiy ko‘nikmalar va ijodiy fikrlash rivojlanadi.

Ko‘rgazmali vositalar bilan ishlashning samaradorligi shuningdek, ularning bolalarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va rivojlanish darajasiga mos ravishda tanlanishiga ham bog‘liqdir. Har bir bola o‘ziga xos pedagogik yondashuv va materiallar orqali nutq va lug‘atini boyitadi, shuning uchun tarbiyachi ushbu jarayonda doimiy kuzatuv va moslashtirishni amalga oshirishi zarur. Shu yo‘l bilan maktabgacha ta’lim muassasalarida nutq va lug‘atni shakllantirish jarayoni nafaqat samarali, balki bolaning individual rivojlanishiga mos keladigan tarzda tashkil etiladi.

Shu bilan birga, zamonaviy pedagogika va psixologiya tadqiqotlari ko‘rsatadiki, vizual vositalar yordamida amalga oshirilgan nutq mashg‘ulotlari

bolalarda ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni rivojlantirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar o‘z fikrlarini ifoda qilish, boshqalarni tinglash va muloqot qilishni o‘rganadi. Bu esa, o‘z navbatida, ularning kelajakdagi o‘qish va jamiyatda faol ishtirok etish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Nutqni rivojlantirish kartochkalari – bu bolalarning so‘z boyligini oshirish, talaffuz va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan vizual vositalardir. Ular rang-barang, qiziqarli va bolalar e’tiborini tortadigan shaklda bo‘ladi. (1-rasm). Kartochkalar turlicha bo‘lib, ularni mashg‘ulotning maqsadiga qarab tanlash mumkin:

1. **Rasmli kartochkalar** – ular turli predmetlar, hayvonlar, mevalar, transport vositalari yoki kundalik hayotdagi vaziyatlarni tasvirlaydi. Bolalar kartochkani ko‘rib, predmet yoki harakatni nomlaydi, bu esa yangi so‘zlar va iboralarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Masalan, rasmli kartochkalar orqali “olma”, “it”, “yugurish”, “o‘tirish” kabi so‘zlar o‘rgatiladi.

2. **Harakat kartochkalari** – unda harakatlar yoki faoliyatlarni ko‘rsatuvchi rasmlar mavjud. Bolalar kartochkani ko‘rib, tegishli harakatni so‘z bilan ifodalaydi yoki takrorlaydi. Bu talaffuzni rivojlantirish va harakat bilan bog‘liq nutq mashqlarini tashkil etishda foydalidir.

3. **Tavsifiy kartochkalar** – ular rang, shakl, kattalik, son kabi sifatlarni o‘rgatish uchun ishlatiladi. Masalan, “qizil olma”, “katta it” kabi kombinatsiyalarni bolalar kartochka orqali takrorlaydi va grammatik tuzilmani o‘zlashtiradi.

4. **Savol-javob kartochkalari** – bu kartochkalar bolalarda muloqot va fikrlashni rag‘batlantiradi. Masalan, kartochka tasvirini ko‘rsatib, tarbiyachi “Bu nima?” yoki “U nima qilmoqda?” deb savol beradi. Bola javob beradi va nutq faoliyati rivojlanadi.

1-rasm. Nutqni rivojlantiruvchi kartochkalar

PECS (Picture Exchange Communication System – Rasm orqali muloqot tizimi) kartochkalari bolalar, xususan nutq rivojlanishida kechikish yoki og‘irliklar bo‘lgan shaxslar uchun kommunikatsiyani shakllantirishda keng qo‘llaniladigan samarali vositadir. Ushbu tizim asosan autizm spektridagi bolalar va nutqni to‘liq shakllantira olmagan yosh bolalar uchun yaratilgan bo‘lib, ularning muloqot ko‘nikmalarini mustahkamlash, ijtimoiy aloqalarni rivojlantirish va so‘z boyligini

oshirishga qaratilgan. PECS kartochkalari orqali bola o‘z ehtiyojlarini, istaklarini va fikrlarini rasm yordamida ifodalay oladi.

PECS kartochkalari odatda oddiy, rang-barang va aniq tasvirlangan predmetlar, harakatlar yoki tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Kartochka yordamida bola tarbiyachiga yoki ota-onaga o‘z xohishini ko‘rsatadi: masalan, “ovqat”, “o‘yinchoq”, “ichimlik” kabi so‘zlarni rasm orqali beradi. Bu jarayon bola uchun so‘z bilan ifodalashning dastlabki bosqichi bo‘lib xizmat qiladi va undan keyin verbal nutqni rivojlantirishga yo‘naltiriladi.

PECS tizimi bir nechta bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqich bola nutqini va muloqot qobiliyatini tartib bilan rivojlantiradi. Bosqichlarning asosiy maqsadi – bolaning rasm orqali muloqot qilish ko‘nikmasini o‘zlashtirishi, tasvirni ma’lum kontekstda ishlata olishi va so‘z bilan ifodalay boshlashidir. Tarbiyachi kartochkalarni maqsadli va tizimli ravishda ishlatib, bolaning muloqotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularni rag‘batlantiradi.

PECS kartochkalari nafaqat pedagogik muassasalarda, balki uy sharoitida ham samarali qo‘llanilishi mumkin. Ota-onalar kartochkalarni muntazam ishlatib, bolaga o‘z ehtiyojlarini bildirish va yangi so‘zlarni o‘rganishga imkon yaratadi. Shu tarzda, PECS tizimi nutqni rivojlantirishning interaktiv va motivatsion usuli sifatida keng tarqalgan. (2-rasm)

2-rasm Pecs kartasi

Vizual jadval – bu ma’lumotlarni grafik, rasm yoki diagramma ko‘rinishida tasvirlash orqali bolalarning tushunish, eslab qolish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan pedagogik vosita hisoblanadi. Maktabgacha ta’limda vizual jadval bolalarga kun tartibini, faoliyatlar ketma-ketligini, vazifalarni va ma’lumotlarni ko‘rish



3-rasm. Vizual jadval (Bolalar kun tartibi uchun ishlatiladi)

Ijtimoiy hikoyalar kartasi – bu autizm spektridagi bolalarda ijtimoiy vaziyatlarni tushunish, muloqot qilish va xatti-harakatlarni boshqarish qobiliyatini shakllantirishga mo‘ljallangan pedagogik vosita. Ijtimoiy hikoya oddiy, qisqa, aniq va ko‘rgazmali shaklda yozilgan bo‘lib, u bolaning kundalik hayotida duch keladigan vaziyatlarni ifodalaydi va unga tegishli xatti-harakatni tushuntiradi. Kartochka ko‘rinishidagi hikoya bolaga vaziyatni vizual tarzda ko‘rsatadi, bu esa nutq, tushunish va ijtimoiy javoblarni osonlashtiradi.

Pedagogik amaliyotda ijtimoiy hikoyalar kartasi bir necha jihatdan samarali: bolalar vaziyatni vizual tarzda ko‘rib, unga mos xatti-harakatni o‘rganadi; nutq va lug‘at rivojlanadi, chunki hikoyadagi iboralar va so‘zlar kontekst orqali o‘zlashtiriladi; muloqot qobiliyati rivojlantiriladi, chunki bola vaziyatda nimani aytish yoki qilish kerakligini oldindan biladi. Shu bilan birga, ijtimoiy hikoyalar bolalarda hissiy javoblarni boshqarish, stressni kamaytirish va yangi vaziyatlarga moslashish ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Ijtimoiy hikoyalar kartasi tarbiyachi yoki ota-ona tomonidan maqsadli va tizimli ravishda ishlatiladi. Mashg‘ulot davomida bola kartochkani kuzatadi, hikoyani o‘qiydi yoki tarbiyachi orqali tushuntiradi, so‘ngra vaziyatni amaliy tarzda takrorlaydi. Kartochkalarni muntazam ishlatish bolalarda ijtimoiy qoidalarni mustahkam tushunishga, nutqni to‘g‘ri ishlatishga va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

4-rasm. Ijtimoiy hikoyalar kartasi (autizm)

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’limda nutq va lug‘at rivojlanishini ko‘rgazmali vositalar orqali shakllantirish pedagogik amaliyotda muhim, samarali va zamonaviy yondashuv hisoblanadi. Tarbiyachi tomonidan tizimli va maqsadli qo‘llanilgan vizual materiallar bolalarda so‘z boyligini kengaytiradi, talaffuz va grammatik qobiliyatlarni mustahkamlaydi, muloqot va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi hamda ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini oshiradi. Shu sababli, ko‘rgazmali vositalardan foydalangan holda nutq va lug‘atni rivojlantirish metodikasi maktabgacha ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bahodirova M. X. Autizm spektridagi bolalar bilan logopedik ish: empatiya, sabr va yondashuv san’ati.
2. Shakirova F. B. Maktabgacha yoshdagi bolalarda autizm: psixologik xususiyatlar va rivojlantirish yo‘llari.
3. Axmedova S. J. Autizmli bolalarda kommunikativ muloqotni shakllantirish metodlari va amaliy yondashuvlar.
4. Ortiqova S. U. Inklyuziv ta’limda autizm sindromli bolarning nutqini rivojlantirishda muloqotning ahamiyati.

MEKTEPKE SHEKEMGI JASTAĠI BALALARDA AGRESSIV MINEZ-QULÍQTÍN ALDIN ALIWDA ÁDEP-IKRAMLIQ TÁRBIYASINIŃ ROLI

Zuhrobova Mahliyo Abdulatif qizi - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti 1-basqısh studenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635756

Annotaciya: Mektepke shekemgi jastaġı balalarda agressivlik minez-qulıqtı azaytıw hám aldın alıwda ádep-ikramlılıq tárbiyasınıń áhmiyeti úlken. Balalar sociallıq hám sezimtallıq jaqtan qáliplesip atırġan dáwirde tárbiyashılar hám ata-analar tárepinen ádep-ikramlılıq qádiriyatlar, mehir-muhabbat, sabır-taqat hám húrmet sezimleri bekkemlenedi. Usı teziste agressivlik minez-qulqınıń sebepleri,

ádep-ikramlıq tárbiyanıń usılları, tárbiyashınıń roli hám balalarǵa úyretiletuǵın tiykarǵı qádiriyatlar analiz yetiledi.

Tayanish sózler: mektepke shekemgi bilimlendiriw, agressiv minez-qulıq, ádep-ikramlılıq tárbiya, balalar tárbiyası, sociallıq rawajlanıw.

Annotation: Moral education plays a significant role in preventing and reducing aggressive behavior in preschool children. During early childhood, children’s social and emotional development is strongly influenced by caregivers and parents, who instill moral values such as love, patience, and respect. This thesis analyzes the causes of aggressive behavior, methods of moral education, the role of educators, and the key values taught to children.

Keywords: preschool education, aggressive behavior, moral education, child upbringing, social development

Mektepke shekemgi jas - insannıń psixologiyalıq, sociallıq hám ádep-ikramlılıq jaqtan qáliplesetuǵın eń áhmiyetli dáwirlerinen biri. Bul dáwirde bala óz ortalıǵınan tásirlenedi, seziw reakciyaları hám minez-qulqı qáliplesedi. Agressiv minez-qulıq balanıń psixologiyalıq rawajlanıwına unamsız tásir kórsetedi, sociallıq qatnasıqlarda mashqalalar keltirip shıǵaradı hám keleshekte sociallıq beyimlesiwin qıyınlastıradı. Sol sebepli, mektepke shekemgi jastaǵı balalarda agressivlik is-háreketlerdiń aldın alıwda ádep-ikramlılıq tárbiya tiykarǵı qurallardan biri bolıp esaplanadı.

Ádep-ikramlılıq tárbiyası - bul balaǵa duris hám naduris, jaqsılıq hám jamanlıqtı ayırıw, húrmet, sabır-taqat, mehir-muhabbat, járdem hám birge islesiw qádiriyatların sińdiriw procesi. Izertlewler sonı kórsetedi, ádep-ikramlılıq qádiriyatlar balalarda emocionallıq turaqlılıqtı arttıradı hám agressivlik is-háreketlerdi azaytıwǵa járdem beredi.

Agressiv minez-qulıqtıń sebepleri hám ózgeshelikleri

Balalarda agressivlik minez-qulıq tómendegi faktorlarǵa baylanıslı:



Shaxslıq faktorlarǵa temperament, emocional turaqlılıq hám psixologiyalıq qásiyetler kiredi. Máselen, júdá impulsiv, sabırsız hám ózin basqara almaytuǵın balalarda kishi kelispewshilikler yaki kútilmegen jaǵdaylarda fizikalıq hám awızsha agressiya tez-tez kórinedi. Bunday balalar sezimlerin duris kórsete almaǵanlıǵı sebepli urıw, súyrew, qorqıtıw yaki basqa balalarga qarsi turpayılıq etiw sıyaqlı is-háreketlerge múrájáát etedi. Sonıń menen birge, sezimlik jaqtan turaqlı, ózin-ózi basqarıw qábileti rawajlanǵan balalar, stressli jaǵdaylarda qáterjamlıqtı saqlay aladı hám kelispewshiliklerdi sociallıq jaqtan durıs sheshedi. Izertlewler sonı kórsetedi, impulsiv temperamentke iye balalarda 3-6 jas aralıǵında agressivlik minez-qulıq 30-35% jaǵdaylarda ushirasadı.

Balalardıń sociallıq ortalıqtaǵı ornı da agressivlik minez-qulıqtıń qáliplesiwinde úlken áhmiyetke iye. Ata-ana múnásibetleri, tárbiyalıq ortalıq hám doslar menen pikirlesiw balalardıń minez-qulqına tikkeley tásir etedi. Mısalı, shańaraqtaǵı turaqlı jánjeller yamasa ata-analar arasındaǵı jánjeller balanıń qáweterleniw hám túskinlik dárejesin arttıradı, nátiyjede olardı fizikalıq yamasa awızsha agressiya arqalı kórsetiwge alıp keledi. Tárbiyalıq ortalıqta itibar hám qadaǵalawdıń jetispewshiligi, qaǵıydalar hám shegaralardıń anıq belgilenbegenligi balalardıń agressivlik minez-qulıqların kúsheytedi. Sonıń menen birge, doslar menen pikirlesiw de áhmietli rol oynaydı, sebebi balalar bir-birin baqlap, tájiriybeden úyrenedi. Agressiv doslar menen kóp waqıt ótkizgen balalar, olardıń is-háreketlerin úyrenip, óz minez-kulkında da tákirarlawı múmkin. Izertlewler sonı kórsetedi, shańaraqtaǵı kelispewshilikler hám tárbiyalıq qadaǵalawdıń jetispewshiligi balalarda agressivlik minez-qulıqtı 40% ke asıradı (Feshbach, 2000).

Mádeniy hám ádep-ikramlılıq faktorlar da agressivlik minez-qulıqtıń qáliplesiwinde áhmiyetli. Eger balaǵa ádep-ikramlılıq qádiriyatlar - jaqsılıq hám jamanlıqtı ajıratıw, húrmet, sabır-taqat, mehir-muhabbat, járdem hám birge islesiw qádiriyatları jeterli dárejede úyretilmese, ol agressiv is-háreketler arqalı óz mútájliklerin bildiriwge beyim boladı. Miyrim-shápáát hám itibar kórmegen balalar kóbinese qorqıtıw yamasa urıw arqalı óz qálewlerin qanaatlandıradı. Sonday-aq, jámiyettegi mádeniy normalar hám qádiriyatlar balalardıń minez-qulqına tásir etedi: báseki hám qopallıqtı xoshametlewshi ortalıqta agressivlik minez-qulıq kúsheyedi, kerisinshe, miyrim-shápáát hám birge islesiw qádiriyatları ústin bolǵan ortalıqta agressiya azayadı. Izertlewler sonı kórsetedi, balalarǵa jaslıǵınan ádep-ikramlılıq qádiriyatlardı úyretiw agressivlik is-háreketlerdiń júz beriw itimalın 25-30% ke azaytadı.

Solay etip, mektepke shekemgi jastaǵı balalarda agressivlik minez-qulıqtıń aldın alıwda jeke, sociallıq hám mádeniy-ádep-ikramlılıq faktorlar birgelikte tásir kórsetedi. Jeke faktorlar balanıń tábiyiy psixologiyalıq ózgesheliklerin belgilese, sociallıq faktorlar shańaraqlıq hám tárbiyalıq ortalıqtı, mádeniy-ádep-ikramlılıq faktorlar bolsa jámiyet hám ádep-ikramlılıq qádiriyatlardı sáwlelendiredi. Sol sebepli, agressiyanı azaytıw hám aldın alıw ushın kompleksli qatnas - jeke rawajlanıw, sociallıq ortalıqtı jaqsılaw hám ádep-ikramlılıq tárbiyaǵa itibar qaratıw zárúr. Tárbiyashılar hám ata-analar tárepinen qollanılatuǵın oyınlar, gúrrińler, sıylıqlar hám jeke órnek balalardıń emocionallıq turaqlılıǵın arttıradı, agressivlik minez-qulıqlardı azaytadı hám keleshekte sociallıq beyimlesiwin jaqsılaydı.

Agressiv minez-qulıq balalarda hár qıylı formalarda kórinedi hám hár bir forma balanıń sociallıq hám psixologiyalıq rawajlanıwına túrlishe tásir etedi.

Fizikalıq agressiya eń kózge kórinetuǵın forma bolıp, bunda bala basqa balalardı urıw, súyrew, iyteriw yamasa basqa fizikalıq zıyan jetkeriw arqalı óz sezimlerin bildiredi. Mısalı, oyın waqtında bir bala basqa balanıń oyındı buzǵanın sezse, ol balanı iyterip jiberiwi yaki urıwı múmkin. Bul túrdegi agressiya ádette balanıń impulsiv tábiyatı, emocionallıq turaqlılıǵınıń tómenligi yamasa stressli jaǵdaylardan kelip shıǵadı. Izertlewler sonı kórsetedi, 3-6 jastaǵı balalar arasında fizikalıq agressiya 15-20% jaǵdaylarda ushırasadı, biraq durıs tárbiyalıq qatnas arqalı bul kórsetkish sezilerli dárejede azaytıladı (Gartrell, 2018).

Awızeki agressiya bolsa bala sezimlerin sóz arqalı bildiriw forması esaplanadı. Bul túrdegi agressiyada bala abaylaydı, sógedi, buyrıqlardı itibarsız qaldıradı yamasa ayawsız sózlerdi qollanadı. Máselen, oyın dawamında bala basqa balanı "sensiz oyın qızıq emes" yamasa "sen jaman oynap atırsan" dep aytıwı awızeki agressiyaga misal boladı. Awızsha agressiya kóbinese bala óz qálewlerin bildiriwge yamasa itibardı tartıwǵa urınǵanda júzege keledi. Sonıń menen birge, balalar sezimlerdi sóz arqalı basqarıwdı úyreniw procesinde, tárbiyashı hám ata-ananıń durıs baǵdarlaması menen bul is-háreketler unamlı sociallıq kónlikpelerge aylanıwı múmkin.

Passiv agressiya bolsa kóbirek jasırın yamasa belgisiz formada kórinedi. Bunda bala biypárwalıq kórsetedi, basqalarǵa qarsı jasırın kelispewshilik oyatadı, yaki óz qálewlerin ámelge asırmaw menen narazılıǵın bildiredi. Máselen, bala oyın waqtında óz náwbetin kútpey, átiraptaǵılarǵa itibar bermewi yaki oyın procesinde

qatnaspawı menen narazılıǵın bildiredi. Passiv agressiya kóbinese ishki stress, itibarsızlıq yamasa emocional túskinlik nátiyjesinde júzege keledi hám balanıń sociallıq beyimlesiwin qıyınlastıradı**.**

Izertlewler sonı kórsetedi, 3-6 jastaǵı balalardıń 20-25% inde agressivlik minez-qulqtıń jeńil formaları - fizikalıq, awızeki yamasa passiv agressiya ushırasadı. Sonıń menen birge, tárbiyashınıń ádep-ikramlılıq tásiri, yaǵnıy balaǵa húrmet, sabır-taqat, mehir-muhabbat hám ózin-ózi basqarıw kónlikpelerin sińdiriw arqalı agressivlik is-háreketlerdiń jiyiligi sezilerli dárejede azayadı. Mısalı, oyın dawamında kelip shıqqan kelispewshiliklerdi tárbiyashı basqarıwı, balalarǵa óz sezimlerin sóz arqalı bildiriwdi úyretiwi hám fizikalıq agressiyaǵa jol qoymawı balalardıń minez-qulqın unamlı tárepke ózgertedi. Solay etip, agressivlik minez-qulıqtıń aldın alıwda tek qadaǵalaw emes, al ádep-ikramlılıq hám sezimlilik tárbiyası tiykarǵı áhmiyetke iye boladı.

Ádep-ikramlılıq tárbiyası mektepke shekemgi jastaǵı balalarda sezimlik, sociallıq hám ádep-ikramlılıq kónlikpelerin qáliplestiriwde úlken áhmiyetke iye bolıp, ol arqalı bala jaqsılıq hám jamanlıqtı ajıratıw, húrmet, sabır-taqat, mehir-muhabbat hám birge islesiw sıyaqlı qádiriyatlardı ózlestiredi. Ádep-ikramlılıq tárbiya procesi hár qıylı usıllar arqalı ámelge asırıladı hám hár bir usıl balanıń sociallıq minez-qulqın unamlı tárepke ózgertiwge xızmet etedi. Oyınlar arqalı tárbiyalaw - bul balaǵa dizimdegi jaǵdaylardı baqlaw hám tallaw arqalı jaqsı hám jaman is-háreketti ajırata alıwdı úyretiw usılı. Máselen, "Kim duris, kim naduris?" sıyaqlı oyınlarda balalar túrli jaǵdaylarda qaysı minez-qulıq duris, qaysı naduris ekenligin analizlep, óz ara talqılaydı hám úyrenedi. Sonıń menen birge, máseleler, ertekler hám gúrrińler arqalı ádep-ikramlılıq qádiriyatlardı túsindiriw de nátiyjeli esaplanadı.

Sonday-aq, tárbiyashınıń yamasa ata-ananıń óz is-háreketi balalarǵa eń kúshli úlgi boladı. Balalar úlkenlerdiń ádep-ikramlılıq, mehir-muhabbat hám sabır-taqatın kórsetetuǵın háreketlerin baqlap, úyrenedi hám óz minez-qulqında tákirarlaydı. Máselen, tárbiyashı bir balaǵa jánjel waqtında tınısh hám ádalatlı túrde qatnas jasasa, basqa balalar da keleshekte usınday jaǵdaylarda óz sezimlerin basqarıwdı úyrenedi. Sıylıqlaw hám xoshametlew de ádep-ikramlılıq tárbiyasında áhmiyetli qural esaplanadı: balalardıń jaqsı minez-qulıqları unamlı itibar hám xoshametlew menen bekkemlenedi, jaman minez-qulıqlarǵa bolsa artıqsha jazalawdan góre túsindiriw hám jol-joba beriw abzal esaplanadı. Bul qatnas balalarda agressivlik minez-qulıqtı azaytıw, sociallıq ortalıqqa beyimlesiw hám ózin-ózi basqarıw qábiletin rawajlandırıwǵa xızmet etedi.

Izertlewler sonı kórsetedi, mektepke shekemgi jastaǵı balalarǵa ádep-ikramlılıq qádiriyatlardı turaqlı hám sistemalı túrde úyretiw agressivlik is-háreketlerdiń júzege keliw itimalın sezilerli dárejede azaytadı hám balalardı keleshekte sociallıq jaqtan beyimlesiwsheń, sezimi turaqlı shaxs sıpatında qáliplestiriwge járdem beredi.

Paydalanilgan ádebiyatlar:

1. Rahmatullayeva, M., Toshbekov, H. – Maktabgacha yoshdagi bolalarda agressiv xulq-atvor va uni korreksiyalash yo‘llari – 2023

2. Usmonova, N., Ilyosjonov, S. – Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda agressiv hatti-harakatlarni ko‘rinishlari va korreksiyalash – 2024

3. Choriyeva, D. A., Nurillayeva, K. H. – Maktabgacha yoshdagi bolalarga ahloqiy tarbiya berish – 2023

4. Qodirova, G. – Maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirish – 2025

5. Peterson, C., Seligman, M. E. P. – Character Strengths and Virtues: A Handbook and Classification – Oxford University Press, 2004

6. Gartrell, D. – Guidance of Young Children – Cengage Learning, 2018

7. Feshbach, N. D. – The Development of Aggression in Children: Social, Emotional, and Cognitive Influences – Academic Press, 2000.

QORAQALPOQ TILIDA TA’LIM OLAYOTGAN BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI XALQ OG‘ZAKI IJODI ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Saburov Davronbek Bazarbaevich - Nukus davlat pedagogika instituti Pedagogika-psixologiya va ijodiy ta’lim fakulteti O‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636277

Annotatsiya. Ushbu tezisda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy mexanizmlari tahlil etiladi. Ayniqsa, qoraqalpoq tilida ta’lim olib boriladigan maktablar misolida xalq og‘zaki ijodining milliy, madaniy va ma’naviy ahamiyati, o‘quvchilarning tafakkurini faollashtirishdagi o‘rni, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdagi metodik yondashuvlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, tanqidiy fikrlash, boshlang‘ich sinf, tafakkur, qoraqalpoq tili, ertak, maqol, topishmoq, o‘qitish metodikasi, ta’lim texnologiyasi.

KIRISH

Bugungi ta’lim jarayonida o‘quvchilarni faqat bilim bilan qurollantirish emas, balki ularni mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlay oladigan shaxs sifatida shakllantirish dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida bu jarayon o‘ta muhim, chunki aynan shu davrda bolaning tafakkur tizimi, dunyoqarashi va axloqiy qarashlari shakllanadi. Shu bois o‘qituvchidan nafaqat didaktik bilim, balki madaniy, ma’naviy va kommunikativ yondashuv ham talab etiladi.

Xalq og‘zaki ijodi – bu milliy tafakkurning ildizi, xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari mujassam bo‘lgan bebaho boylikdir. U o‘zida milliy ruhni, ijtimoiy hikmatni, axloqiy qadriyatlarni va tafakkur tarbiyasini mujassamlashtiradi. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda tabiiy, samimiy

va o‘zbek hamda qoraqalpoq xalqining milliy tafakkuriga yaqin manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda xalq og‘zaki ijodi asarlari ikki darajada ahamiyatga ega: birinchidan, ular milliy o‘zlikni anglashni kuchaytiradi, ikkinchidan, til va tafakkur birligini mustahkamlaydi. O‘quvchilar bunday asarlar orqali o‘z xalqining tili, tarixiy tajribasi va hayotiy qadriyatlarini anglaydi, bu esa tanqidiy fikrlashni tabiiy ravishda rag‘batlantiradi [1].

ADABIYOTLAR SHARHI

Tanqidiy fikrlash – bu o‘quvchining mavjud bilimlarni shunchaki qabul qilish emas, balki ularni tahlil qilish, solishtirish, sabab-oqibat munosabatlarini anglash, shaxsiy xulosa chiqarish qobiliyatidir. Xalq og‘zaki ijodi esa aynan shu fikrlashni uyg‘otuvchi, tahliliy yondashuvni shakllantiruvchi, obrazli tafakkurni rivojlantiruvchi boy materialdir.

Masalan, ertak va maqollarda insoniy fazilatlar, yaxshilik va yomonlik, adolat va zulm, halollik va hiyla o‘rtasidagi ziddiyatlar obrazli tarzda ifodalanadi. O‘quvchi bu asarlarni o‘qibgina qolmay, ularni tahlil qilishga, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholashga, o‘z nuqtayi nazarini bildirishga o‘rganadi. Shu tariqa, xalq og‘zaki ijodi orqali o‘quvchilarda nafaqat tahliliy fikr, balki axloqiy va estetik qarashlar ham shakllanadi.

Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi asarlaridagi metafora, kinoya, ramz va obrazlar bolalarda assotsiativ tafakkurni rivojlantiradi. Bu esa tanqidiy fikrlash uchun zarur bo‘lgan tahliliy idrok, mantiqiy bog‘lanish va umumlashtirish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. O‘qituvchi ertaklar, topishmoqlar, maqollar ustida ishlash jarayonida o‘quvchilarning diqqatini sabab-oqibat aloqalariga, voqealar oqimiga va qahramonlarning qarorlariga qaratadi — bu esa tanqidiy fikrlash jarayonining tabiiy bosqichidir [2].

Xalq og‘zaki ijodi boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning nutqiy, mantiqiy va axloqiy rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, qoraqalpoq tilida o‘qitiladigan maktablarda bu vositalar til o‘rganish va tafakkurni rivojlantirishning muhim manbasi hisoblanadi. Chunki o‘quvchi xalq og‘zaki ijodi asarlarini o‘rganar ekan, nafaqat so‘z boyligini kengaytiradi, balki o‘z fikrini mustaqil ifodalashni, dalil keltirishni, savol berishni va xulosa chiqarishni o‘rganadi.

Masalan, o‘qituvchi darsda “O‘tinchi va bo‘ri” ertagini o‘qitayotganda, bolalar bilan “Qahramonning xatti-harakatlari to‘g‘rimi?”, “Boshqa yo‘l bilan hal etish mumkinmidi?” kabi savollar asosida muhokama olib borishi mumkin. Bu jarayon o‘quvchini tayyor fikrni yod olishdan ko‘ra, o‘z qarashini shakllantirishga undaydi. Shuningdek, maqollar bilan ishlashda o‘quvchilarga ularning ma’nosini izohlash, o‘xshash mazmundagi holatlarni hayotiy misollar bilan bog‘lash topshiriqlari beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish jarayonida o‘qituvchining roli beqiyosdir. U o‘zining metodik mahorati, nutq madaniyati va pedagogik uslubi orqali bolalarning fikrlashini yo‘naltiradi. O‘qituvchi xalq og‘zaki ijodi bilan ishlashda faqat rivoyat qilish bilan cheklanmasdan, o‘quvchini savol berishga, mustaqil fikr bildirishga, tahlil va taqqoslashga undashi kerak.

Masalan, o‘qituvchi dars jarayonida “Nima uchun bu qahramon yutqazdi?”, “Agar sen bo‘lganingda qanday qaror qabul qilarding?” kabi savollar berib, bolani mantiqiy mushohadaga chorlaydi. Shunday savollar o‘quvchining tafakkurini faollashtiradi, o‘z fikrini ishonch bilan bayon qilishga o‘rgatadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi xalq og‘zaki ijodini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirsa, o‘quvchilarda mavzuga bo‘lgan qiziqish yanada ortadi.

Bugungi ta’limda interfaol metodlar — “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Besh savol”, “Sinkveyn”, “Baliq skeleti” kabi yondashuvlar xalq og‘zaki ijodi asosidagi darslarni jonlantiradi. Ular orqali o‘quvchilar ertak, maqol yoki topishmoqdagi mazmunni tahlil qiladi, turli qarashlarni solishtiradi, dalillar bilan fikrini himoya qiladi. Natijada, tanqidiy fikrlash nafaqat kognitiv jarayon, balki ijtimoiy muloqot ko‘nikmasiga ham aylanadi [3].

Qoraqalpoq tilida ta’lim olib boriladigan maktablarda xalq og‘zaki ijodi o‘zining ikki tomonlama funksiyasini bajaradi: bir tomondan, bu tilning leksik, fonetik va grammatik boyligini o‘rgatadi; ikkinchi tomondan, u xalqning madaniy o‘zligini mustahkamlaydi. Tanqidiy fikrlashning shakllanishida til va madaniyatning o‘zaro uyg‘unligi muhim rol o‘ynaydi.

O‘quvchilar xalq qo‘shiqlari, ertaklari, afsonalari orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va hayotiy tajribalardan saboq oladi. Shu jarayonda o‘qituvchi xalq donoligini tahlil qilishni, axloqiy muammolarni hal etish usullarini muhokama qilishni tashkil etadi. Bu esa o‘quvchilarning axloqiy tafakkurini ham shakllantiradi. Natijada tanqidiy fikrlash – milliy o‘zlik va ma’naviy boylik bilan uyg‘unlashgan holda rivojlanadi.

Bugungi kunda xalq og‘zaki ijodi materiallarini o‘qitishda faqat reproduktiv yondashuv emas, balki muammoli va interfaol metodlar asosida ishlash samaraliroq natijalar bermoqda. Masalan, “fikr xaritasi”, “Venn diagrammasi”, “Klaster”, “Insert”, “T-sxema” kabi grafik tashkilotchilar yordamida o‘quvchilar ertak yoki maqolda ilgari surilgan g‘oyalarni tahlil qiladi, sabab va oqibatni aniqlaydi, o‘z pozitsiyasini himoya qiladi.

Shuningdek, o‘qituvchi xalq og‘zaki ijodidan foydalanganda ularning kontekstual mohiyatini hisobga olishi zarur. Har bir asar ma’lum ijtimoiy muhit, tarixiy davr va madaniy qadriyatlar mahsulidir. Shu sababli, ertak yoki maqolni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni “Bu asar qanday davrda yaratilgan?”, “Qaysi ijtimoiy hodisani ifodalaydi?”, “Bugungi hayotda bu g‘oya qanday qo‘llanishi mumkin?” kabi savollar bilan mustaqil fikrlashga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

Bu yondashuv o‘quvchiga xalq og‘zaki ijodiga faqat “o‘tmish manbasi” sifatida emas, balki zamonaviy tafakkur bilan qayta talqin etiluvchi tirik madaniy hodisa sifatida qarashni o‘rgatadi. Shu tarzda xalq ijodi materiallari o‘quvchi tafakkurida yangi ma’nolar hosil qiladi, ularni hozirgi hayot bilan bog‘lash imkonini beradi. Bu esa tanqidiy fikrlashni tabiiy rivojlantiradi.

NATIJALAR

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari tabiiy tafakkur rivojlanishining uzviy bosqichidir. Shu sababli o‘qituvchi xalq og‘zaki ijodi vositalarini shunchaki axloqiy yoki badiiy manba sifatida emas, balki psixologik faol o‘rganish jarayonini tashkil etuvchi vosita sifatida ko‘rishi zarur.

Xalq og‘zaki ijodi — ertaklar, maqollar, topishmoqlar, afsonalar, dostonlar — bolaning idroki, xotirasi, mantiqiy tahlil qobiliyatini bir vaqtning o‘zida faollashtiradi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirishda o‘qituvchining metodik kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, qoraqalpoq tilida ta’lim olib boriladigan maktablarda o‘qituvchi xalq og‘zaki ijodini milliy kontekstda to‘g‘ri talqin qila olishi, uni bolalarning hayotiy tajribasi bilan bog‘lay bilishi zarur. O‘qituvchi nafaqat asarning mazmunini, balki uning tarbiyaviy, psixologik va falsafiy qatlamlarini ham tahlil qila oladigan darajada metodik tafakkurga ega bo‘lishi kerak [6].

Zamonaviy o‘qituvchi uchun xalq ijodidan foydalanish — bu faqat o‘quv materiali emas, balki interaktiv tafakkur muhitini yaratish vositasidir. Masalan, dars jarayonida xalq maqollaridan foydalangan holda munozarali vaziyatlar yaratish (“Senga qaysi maqol ko‘proq mos keladi?”, “Bu maqolda qanday hayotiy tajriba mujassam?”) o‘quvchini fikr bildirish, tahlil qilish va xulosa chiqarishga undaydi. Shu jarayonda bola nafaqat fikrlash, balki fikrini asoslash, dalil keltirish, boshqalarning fikrini tahlil qilishni ham o‘rganadi — bu esa tanqidiy tafakkurning yadro komponentlaridir.

XULOSA VA MUNOZARA

Xalq og‘zaki ijodi boshlang‘ich ta’limda nafaqat til o‘rganishning vositasi, balki tanqidiy, ijodiy va axloqiy tafakkurni shakllantirishning samarali pedagogik manbai hisoblanadi. U o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, dalil keltirish, xulosa chiqarish, shuningdek, hayotiy holatlarni baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Qoraqalpoq tilida olib boriladigan ta’lim muhitida xalq og‘zaki ijodi o‘z milliy ruhini, tarixiy tajribasini, ma’naviy boyligini o‘quvchiga singdiradi. Shu orqali bola o‘z xalqining madaniyatini anglaydi, o‘z fikrini mantiqan asoslashni, har bir voqeaga tanqidiy qarashni o‘rganadi.

Demak, xalq og‘zaki ijodi asosida tanqidiy fikrlashni shakllantirish – bu faqat metodik jarayon emas, balki milliy ongni tarbiyalash va intellektual mustaqillikni rivojlantirish mexanizmidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdukarimova, N. Boshlang‘ich ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. – 156 b.

2. Berdimurodova, S. Xalq og‘zaki ijodi va ta’lim integratsiyasi. – Nukus: Bilim, 2023. – 184 b.

3. Bozorova, M. Developing critical thinking skills in primary school pupils through folk pedagogy // International Journal of Pedagogical Research. – 2024. – Vol. 3(2). – P. 44–53.

4. Qilicheva, D. The role of oral folk creativity in developing students' logical and critical thinking // European Journal of Education Studies. – 2021. – Vol. 8(12). – P. 75–82.

5. Orazbaeva, A. Til va xalq og‘zaki ijodi o‘zaro bog‘liqligi. – Qoraqalpoq davlat universiteti nashriyoti, 2022. – 133 b.

6. Mamatova, F. Tanqidiy fikrlash va milliy qadriyatlar uyg‘unligi. – Toshkent: Fan va ta’lim, 2023. – 210 b.

ZAMANOGÓY OQITIWSHINIŃ BASLAWISH KLASSLARDA OQITIW TIYKARLARI.

Abdramanova Gulmira Nurman kizi - Ájiniyaz atindağı Nokis mámleketlik pedagogikalıq instituti Testologiya ham bilimlerdi bahalaw qániygeliginiń 1-kurs magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636314

Anotatsıya: Zamanogóy oqıtıwshınıń baslawısh klaslarda oqıtıw tıykarları, zaman talabına say pedagogikalıq texnologıya tiykarında oqıtıw, interaktıv metodlardan paydalanǵan halda oqıtıw, baslawısh klass oqıwshılarınıń zamanogóy oqıtıwshılardıń oqıtıwı hámde oqıwshılarda fundamental tálimdi payda etiw tiykarı, oqıtıwshınıń sheberligi- pedagoktıń tiykarınan bilim beriw processi bolip sonıń menen birge oqıshılarǵa tek bilim berip qoymastan olarǵa tárbiyaliq jumıslardı da alıp barıw hám hát tárepleme olardı rawajlandırıw.

Tiykarǵı túsinikler: zamanogóy oqıtıwshı, fundamental tálim, pedagogikalıq texnologıya, oqıtıwshı sheberligi.

Abstract: Fundamentals of teaching a modern teacher in primary grades, teaching based on pedagogical technologies that meet modern requirements, teaching using interactive methods, teaching primary school students by modern teachers, as well as the basis for creating fundamental education in students, the teacher's teaching skills are, first of all, a learning process where students not only acquire knowledge but also carry out educational work and even develop them comprehensively.

Key concepts: the modern teacher, fundamental education, pedagogical technology, pedagogical skill.

Házirgi kúnde bilim beriw sistemasınıń jańalanıwı oqıtıwshı shaxsına bolǵan talaplardı júdá kúsheyttirdi. Oqıtıwshıdan tek páni boyınsha bilim beriw emes, al oqıwshınıń shaxsiy qábiletlerin ashıw, onıń erkin oylawın hám kreativligin rawajlandırıw talap etilmekte.

Zamonagoy oqıtıwshı – bul zaman menen birge teńdey rawajlaniw, jámiyet talapların tereń túsinetuǵın, óz ustinde toqtawsız jumıs isleytuǵın ustazdır. Ol tek bilim beriwshi emes, al jas áwladtıń keleshegin qalıplestırıwshı adam. Búgingi kún oqıtıwshıdan jańa qaras, jańa usıllar hám jańa pikirlerdi talap etedi. Zamonagóy oqıtıwshı texnologiyanı sabaq processinde qollay alıwı, oqıwshınıń qızıǵıwshılıǵın oyata aladı. Ol sabaqti qara sóz benen emes, pikir almasıw, izleniw hám tájribe arqalı ótedi. Bunday oqıtıwshı hár bir oqıwshınıń qábiletin anıqlap, onı rawajlandırıwǵa háreket etedi. Oqıwshıǵa isenim bildirip, onı erkin oylawǵa, óz pikirin ashıq aytıwǵa úyretedi. Sebebi, zamonagóy oqıtıwshı ushın eń áhmiýetlisi – bilim emes, al bilimdi qollana alatuǵın shaxstı qalıplestiriw. Zamonagóy oqıtıwshı ádep, sabır hám juwapkershilikti ózinde kórsete aladı. Ol óz háreketi, sózi, múnasebetı menen oqıwshılarǵa úlgi boladı. Oqıwshı onı kórip, tek bilim emes, adamgershilikti de úyrenedi.

Zamanagóy oqıtıwshınıń aldina qoyǵan maqsetı – keleshik áwladtı durıs jolǵa baslaw hám olardıń bilim, tárbiyasi menen zamanǵa payda keltiriw.Pedagoglar hár tárepleme tálim-tárbiya procesin durıs shólkemlestiriwi menen birge ózleriniń sırtqı kelbetine de itibar beriwi lazım.

Zamanogóy oqıtıwshınıń baslawısh klaslarda oqıtıw tıykarları yaǵnıy zamanǵa say oqıtıw, interaktiv metodlardan paydalanıw, sanlı texnologıyanı rawajlandırıw, elektron doskalardan paydalanǵan halda oqıtıw sonıń menen birge zamanogóy oqıtıwshı dúnya jańalıqlarınan xabardar bolıwı, oqıtıwdıń jańasha túrlerinen paydalanǵan halda oqıtıw bolıp esaplanadı.

Baslawısh tálim oqıwshılarda ulıwma orta tálimdi dawam ettiriw ushın zarur bolǵan sawatqanlıq bilimi, ilimiy tájriybe hám kónlikpeler tıykarın qáliplestiriwge baǵdarlanǵan.[1]

Bunda baslawısh klass oqıwshılarınıń zamanogóy oqıtıwshılardıń oqıtıwı hámde oqıwshılarda fundamental tálimdi payda etiw tiykar bola aladı.

Fundamental tálim- bul shaxstıń bilim alıwdaǵı dáslepki basqıshı bolıp esaplanadı.Hár bir shaxstıń bilim alıwdaǵı fundamenti durıs bolmasa yaǵnıy bilimniń dáslepki buwınları tolıq ózlestirmese úzliksiz tálimniń keyingi basqıshlarda orta arnawlı, professional, joqari oqıw orılarındaǵı bilim júda sayız boladi. Nátiyjede sapasız kadrlar payda boladı.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev Ózbekstan xalqına jollaǵan murajatnamasında “Tálim sapasın asırıw-Jańa Ózbekistan rawajlanıwınıń jalǵız hám birden-bir jolıdır”-dep atap ótti. Baslawısh tálimniń maqsetin támiyinlewde zamanogóy oqıtıwshınıń tálim texnogıyaları zárur áhmiyetke iye. Ózbekistan Respublikasiniń “Tálim haqqındaǵı qarar”nıń 26-statıyasında Kadrlardı tayarlawdıń Milliy dásturinde oqıtıw processinde Zamanogóy pedagogikaliq texnologıyalardıń keń kólemde qollanıwı barlıq túrdegi bilimlendiriw mákemeleriniń aldına qoyǵan eń tiykarǵı wazıypalardan biri ekenligin aytıp ótti.[2]

Zamanogóy oqıtıwshı zaman talabına say pedagogikalıq texnologıya tiykarında oqıtıw oqıwshılardıń bilim dárejesin elede jetilistiriwge óz úlesin qosadı.

Pedagogikalıq texnologıya- bul anıq izbe-izliktegi bir pútin process bolıp, ol oqıwshılardıń talaplarınan kelip shıqqan halda bir maqsetke jóneltirilgen aldınnan puqta rejelestirilgen hám anıq nátiyje beriwge qaratılǵan process.

Pedagogikalıq texnologıya- oqıtıwshı sheberligine baylanıslı bolmaǵan halda pedagogikalıq jetiskenligine kepillik beretuǵın, oqıwshı shaxsın qáliplestiriw processiniń joybari(V.P.Bespolko) [3 b 192].

Oqıtıwshınıń sheberligi-bul pedagoktıń tiykarınan bilim beriw processi bolip sonıń menen birge oqıwshılarǵa tek bilim berip qoymastan olarǵa tárbiyaliq jumıslardı da alıp barıw hám hár tárepleme olardı rawajlandırıw bolıp esaplanadı. Maǵlıwmat ornında sonıda aytıp ótiw kerek oqıtıwshınıń sheberligi sabaqtı júdá qiziqli hám hár túrli interaktıv metodlardan paydalanǵan halda oqıtıw ózin uslap tutıwı, oqıwshılarǵa múnasabeti, etika hám estikası, pedagogikalıq imdji bárshesi oqıtıwshınıń sheberligine baylanıslı.

Pedagogikalıq texnologiya- oqıw processınıń oqıwshılar hám oqıtıwshılar ushın sózsiz qolay sharayat támiyinlewshi joybar, shólkemlestiriw hám ótkiziw

boyınsha barlıq detalları oylap tabılǵan birgeliktegi pedagogikalıq iskerlik modeli.(V.M.Monaxov) [4 b 151].

Usı alımlardıń pikirine kóre pedagogikalıq texnologıyalardan hár bir

oqıtıwshı tuwrı paydalansa zamanogóy oqıtıwshınıń oqıtıw iskerligi elede rawajlanadı sonıń menen birge keleshek awladlarımızdıń bilimi ele jetilisedi hám oqıtıw sheberligi artıp baradı.

Ózbekistan Respublikasiniń bilimlendiriw sistemasindaǵi zamanagóy oqıtıwshılardıń oqıtıw processinen kórnisi. Bunda zamanogóy oqıtıwshınıń baslawısh klaslarda oqıtıwı sonıń menen birge oqıtıw sheberligi hámde baslawısh klass oqıwshılarınıń toparlarda islesiw kónlikpesin rawajlandırıp atır.

Ekinshi súwrette bolsa zaman talaplarına say oqıtılıp atırǵanı gúzetilip tur yaǵnıy kompyuter texnologiyalari hámde elektron doskalardan paydalanǵan halda oqıtılıp atır. Sonı da aytıp ótiw orınlı zamanogóy oqıtıwshı tek ǵana baslawısh klaslardı oqıtıp qoymastan joqarı klass hámde úzliksiz tálimniń professional, JOO da, mektepten tis tálimde de oqıtıladı.

Zamanogóy oqıtıwshınıń wazıypası: oqıwshılardı bilimin jetilistiriw, kásipke baǵdarlaw, JOO tolıqlay qamtıw sonıń menen birge elimizge jetik hám kerekli kadr bolıwına óz úlesin qosıw. Zamanagóy oqıtıwshı tek pán boyınsha bilim beriwshi emes, al oqıwshılardıń shaxs retinde qalıplesıwına basshılıq etiwshi, olardı ómirge tayarlawshı adam bolıwı kerek.Zamanagóy oqıtıwshınıń roli, balanıń bilim sapasını hám tárbiyasin

jaqsılaydı. Bul jumıs oqıtıwshınıń bilim hám tárbiyaliq qásiyetlerin birge qollanılıwın talap etedi.

Juwmaqlap aytqanda baslawısh klass balanıń bilimge bolǵan qatnasın hámde klass-sabaq sistemasın áste aqırınlıq penen jetilistiredi sonıń menen birge balalardıń adaptacıyasın(biyimlesiwin) qáliplestiredi. Sol sebepli oqıtıwshı sabaqtı qiziqli túsinikli hámde tártip qaǵıyda tiykarında oqıtadı. Zamanogóy oqıtıwshi zaman menen teń hámde jańalıqqa ıntılıwsheń oqıwshılardıń bilimin joqarı dárejede jetilistirip olardı jańa pedagogikalıq texnologıyada oqıtıw, kásipke baǵdarlaw, JOO qamtıw Ózbekistan Respublikasi hám Qaraqalpaqstan Respublikasina kerekli kadr qılıp jetilistiredi. Tek ǵana teoriyaliq bilim berip qoymastan jańa pikirleytuǵın házirgi zaman talaplarına say kásiplerdi úyreniwge úndeydi yaǵnıy oqıwshılardı sanli texnologiya, startap joybar hámde IT tarawlarında óz kásiplerin iyelewge járdem beredi hám jol joba kórsetip olardı qollap quwatlap qiziǵiwshiliǵin elede oyatadı.

Paydalanilǵan ádebiyatlar

1. Ministrler Kábinetiniń 2020-jılı 7-avgusttaǵı 466-san “Ózbekistan Respublikasi úzliksiz baslanǵısh tákim hám orta professional tálim sistemasin tártipke salıwshı normativ-huqıqıy húJjetlerdi tastıyıqlaw haqqındaǵı qararı” **Lex.uz** saytinan
2. Ministrler Kábinetiniń 2020-jılı 7-avgusttaǵı 466-san “Ózbekistan Respublikasi úzliksiz baslanǵısh tákim hám orta professional tálim sistemasin tártipke salıwshı normativ-huqıqıy húJjetlerdi tastıyıqlaw haqqındaǵı qararı” **Lex.uz** saytinan
3. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. М.: Педагогика .1989
4. Монахов, В.М. Технологические основы проектирования и конструирования учебного процесса / В.М. Монахов. — Волгоград: Перемена, 1995.

BASLAWÍSH KLASLARDA TÁBIYIY PÁNLERDI SANLÍ TEXNOLOGIYALAR TIYKARÍNDA OQÍTÍW METODIKASÍN JETILISTIRIW

Bazarbayeva Aysulıo’ Satbay qızı - Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogika institutı Tálim hám tárbiya teoriyası metodikası (baslawısh tálim) qanigeligi 1- kurs magistrantı

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636332

Annotaciya. Bul teziste baslawısh klaslarda tábiyiy pánlerdi oqıtıwda sanlı texnologiyalardan paydalanıw metodikasın jetilistiriw máseleleri kórsetilgen. Onda sanlı texnologiyalardıń bilimlendiriw procesindegi ornı, interaktiv hám multimedia qurallarınıń oqıwshılardıń bilimlerdi ózlestiriwine tásiri analizlengen. Sonday-aq, sanlı resurslardan didaktikalıq maqsetke muwapıq paydalanıw, oyın texnologiyaların qollanıw hám de bilimlendiriw procesin individuallastırıw imkaniyatları tiykarlap berilgen. Izertlew nátiyjeleri baslawısh klass oqıwshılarınıń

erkin pikirlew, informaciyanı tallaw hám tábiyiy pánlerge qızıǵıwshılıǵın arttırıwda sanlı texnologiyalardıń nátiyjeliligin kórsetedi.

Tayanısh sózler: baslawısh bilimlendiriw, tábiyiy pánler, sanlı texnologiyalar, interaktiv bilimlendiriw, oyın texnologiyaları, sanlı kompetenciya.

Abstract. This thesis addresses the issues of improving the methodology of teaching natural sciences in primary education through the use of digital technologies. The role of digital technologies in the educational process, as well as the impact of interactive and multimedia tools on students’ acquisition of knowledge, are analyzed. In addition, the possibilities of using digital resources for didactic purposes, applying game-based technologies, and individualizing the educational process are substantiated. The research results demonstrate the effectiveness of digital technologies in enhancing primary school students’ independent thinking, information analysis skills, and interest in natural sciences.

Keywords: primary education, natural sciences, digital technologies, interactive learning, game-based technologies, digital competence.

Zamanagóy jámiyettiń jedel rawajlanıwı bilimlendiriw sistemasına, ásirese baslawısh klaslarda jańa talaplardı qoymaqta. Búgingi kúnde oqıwshılarda tek bilim emes, al erkin pikirlew, xabar texnologiyaların talqılaw hám onnan nátiyjeli paydalanıw kompetenciyaların qáliplestiriw úlken áhmiyetke iye bolmaqta. Usı kózqarastan, tábiyiy pánlerdi oqıtıwda sanlı texnologiyalardan paydalanıw, bilimlendiriw procesiniń nátiyjeliligin arttırıwdıń áhmiyetli faktorlarınan biri esaplanadı[1]. Baslawısh klaslarda tábiyiy pánler oqıwshılardıń qorshaǵan ortalıq, tábiyat qubılısları, janlı hám jansız tábiyat haqqındaǵı dáslepki túsiniklerin qáliplestiredi.

Sanlı texnologiyalar tiykarında bilim beriwdi shólkemlestiriw, sabaq procesiniń interaktivligin támiyinleydi. Multimedia quralları, animaciyalar, videorolikler hám virtual tájiriybeler arqalı tábiyiy proceslerdi kórgizbeli túrde túsindiriw imkaniyatı jaratıladı[2]. Bul bolsa baslawısh klass oqıwshılarınıń abstrakt túsiniklerdi ańsatıraq ózlestiriwine járdem beredi. Tábiyiy pándi oqıtıwda sanlı texnologiyalardı qollanıw tek ǵana texnikalıq qurallardan paydalanıw menen sheklenip qalmawı kerek. Oqıtıwshı sanlı resurslardan didaktikalıq maqsetke muwapıq, yaǵnıy sabaqtıń mazmunı, teması hám hár bir oqıwshınıń bilim dárejesi, qızıǵıwshılıǵı hám ózlestiriw tezligin esapqa alǵan halda tapsırmalar beriw zárúr bolıp esaplanadı. Didaktikalıq maqsetke muwaqpıq esapqa alınbasa, sanlı texnologiya sabaqtıń nátiyjeliligin arttırıwdıń ornına, shalǵıtıwshı faktorǵa aylanıwı múmkin. Sonday-aq, sanlı texnologiyalar baslawısh klass oqıwshılarında erkin bilim alıw kónlikpelerin rawajlandıradı. Bul bolsa oqıwshınıń ózin-ózi baqlaw hám bahalaw kompetenciyasın qáliplestiredi. Sanlı texnologiyalar tiykarında tábiyiy pánlerdi oqıtıwda oyın texnologiyaları ayrıqsha áhmiyetke iye bolıp esaplanadı. Baslawısh klass oqıwshıları ushın sanlı texnologiyalar arqalı berilgen bilimler uzaq waqıt yadta saqlanıp qaladı. Máselen, elektron sabaqlıqlar, interaktiv shınıǵıwlar hám testler arqalı oqıwshı óz bilimlerin óz betinshe tekseriwi hám bekkemlewi múmkin[3]. Tábiyat qubılıslarına baylanıslı interaktiv oyınlar oqıwshılardıń logikalıq pikirlewin hám qızıǵıwshılıǵın arttıradı.Bunnan tısqarı,

sanlı texnologiyalar oqıtıwshıǵa bilimlendiriw procesin individuallastırıw imkaniyatın beredi.

Xalıqaralıq tájiriybeler sonı kórsetedi, sanlı texnologiyalardı bilimlendiriw procesine engiziw oqıwshılardıń pánlerge bolǵan qızıǵıwshılıǵın arttıradı hám bilimlendiriwdiń sapasın jaqsılaydı. Sonıń ishinde, UNESCO hám OECD izertlewlerinde baslawısh klaslarda bilim beriwde sanlı kompetenciyalardı qáliplestiriw áhmiyetli wazıypa sıpatında belgilengen[4]. Sanlı texnologiyalar oqıwshılardıń bilimlerdi tereńirek , erkin pikirlew hám informaciya menen islew kónlikpelerin rawajlandırıwǵa xızmet etedi. Sanlı texnologiyalardı maqsetke muwapıq, sistemalı hám pedagogikalıq qatnas tiykarında qollanıw arqalı baslawısh klass oqıwshılarınıń tábiyiy pánge bolǵan qızıǵıwshılıǵın jáne de arttırıw múmkin.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Abdullaeva M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. Jo‘raev R.X., Zunnunov A. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Qodirov B. Raqamli ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Akademnashr, 2021.
4. UNESCO. ICT in Education. – Paris, 2018.
5. OECD. Innovating Education and Educating for Innovation. – Paris, 2016

OYÍN ISKERLIGI ARQALÍ MEKTEPKE SHEKEMGI JASTAǴÍ BALALARDA MIYNET TÁRBIYASÍN QÁLIPLESTIRIW

Eshmuratova Gauxar Maxsudovna - Qaraqalpaqstan Respublikası Pedagogikalıq sheberlik orayı aǵa oqıtıwshısı.

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636402

Annotaciya: Bul maqalada mektepke shekemgi jastaǵı balalarda miynet tárbiyasın qáliplestiriwde oyın iskerliginiń áhmiyeti kórsetip ótilgen. Sonday-aq, balalardı miynetke úyretiwde didaktikalıq hám rolli oyınlardıń nátiyjeli qollanılıwı, tárbiyashınıń pedagogikalıq qatnası hám balalarda erkinlik, juwapkershilik sıyaqlı pazıyletlerdi rawajlandırıw máseleleri tallanǵan.

Tayanish sózler: miynet tárbiyası, oyın iskerligi, mektepke shekemgi bilimlendiriw, balalar rawajlanıwı, tárbiya usılları.

Annotation: This article highlights the importance of play activities in the formation of labor education in preschool children. Also, the issues of the effective use of didactic and role-playing games in teaching children to work, the pedagogical approach of the educator, and the development of such qualities as freedom and responsibility in children were analyzed.

Keywords: labor education, play activities, preschool education, child development, methods of upbringing.

Ózbekstan Respublikasında jámiyetlik qatnasıqlar mazmunı jańalanıp atırǵan bir waqıtta ósip kiyatırǵan jas áwladtı miynet súygishlik ruwxında tárbiyalawdı jańasha tiykarlarında, bir tárepten, milliy pedagogikalıq qádiriyatlarımız negizinde,

ekinshiden, rawajlanǵan mámleketlerdiń tájiriybesinen paydalanǵan halda alıp barıwǵa sociallıq zárúrlik sıpatında qaralmaqta. Sebebi miynet sociallıq rawajlanıwdıń deregi, barlıq materiallıq hám ruwxıy mútájliklerdiń qanaatlandırılıwınıń tiykarǵı shárti bolıp tabıladı. Demek, miynet insan aǵzasınıń wazıypası, shaxs rawajlanıwınıń tiykarı.

Miynet áyyemnen jámiyettiń ádep-ikramlılıq principi esaplanǵan, materiyallıq hám ruwxıy mádeniyattıń hám de sociallıq rawajlanıwdıń tiykarı esaplanadı.

Tálim-tárbiya procesinde miynet tárbiyasın balalarǵa jańasha sińdiriw, olarda miynet etiwge úyretiw, miynet nátiyjesinen zawqlana biliw bir sezimlerdi qáliplestiriw arqalı olarda miynet xalqına húrmetti, jámiyet paydasına miynet etiw qáliplestiriw lazım.

Balalardı miynetke úyretiwde, eń dáslep, olardı psixologiyalıq hám ámeliy tayarlıq, jámáátte miynet islew kónlikpelerin tárbiyalaw áhmiyetli rol oynaydı.

Miynetke ruwxıy, aqılıy hám ámeliy tayarlaw procesinde balalarda miynet súygishlik, jigerlilik, pidayılıq, hadallıq, intizamlılıq sıyaqlı sıpatlar qáliplesiwi menen birgelikte olarda ádep-ikramlılıq qásiyetler de qáliplesip baradı.

Bala miynettiń áhmiyeti hám mádeniyatın túsiniwi ushın pedagog úlkenlerdiń miyneti, balalardıń ózleri orınlaytuǵın miynet túrlerin baqlaw, boyınsha ekskursiyalar shólkemlestiredi. Balanıń hár túrli miynet procesinde qatnasıwı, úlkenler miyneti menen tanısıwı, olardıń átiraptaǵı turmıs, adamlardıń óz-ara qatnasıqları haqqında, zatlar hám olardıń ózgeshelikleri, materiallarǵa qayta islew beriw usılları, qurılmalar hám ásbaplar haqqında belgili bir tásirlerge iye bolıwlarına járdem beredi. Miynet balalardan dıqqat, ótkir zeyin, tapqırlıq, dóretiwshilik qábiletlerin iyelewdi talap etedi. Miynet procesinde balalar ayırım jumıs túrlerin (bir bet qaǵazdı búklew, qanday da bir figuranı úlgige qarap kesiw, kerekli uzınlıqtı ólshew sıyaqlı háreketlerdi) ańlatatuǵın bir qansha túsinik hám terminlerdi paydalanıwǵa, orınlanǵan jumıstaǵı izbe-izlikti beriwge tuwra keledi. Bul bala sóylewin jańa sózler menen bayıtadı, pikirlewi, dúnyaqarasın qáliplestiriwge múmkinshilik beredi. Miynet hár bir jas toparındaǵı balalardıń ózgesheliklerin esapqa alǵan, oǵan durıs qadaǵalaw yamasa basshılıq etkende ǵana jaqsı nátiyje beriwi múmkin.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalar ushın eń tábiyiy hám nátiyjeli iskerlik túri bul oyın esaplanadı. Sol sebepli balalardı miynetke úyretiwde oyın elementlerinen paydalanıw úlken áhmiyetke iye. Oyın arqalı balalar miynet procesin túsinip baradı, úlkenlerdiń iskerligine elikleydi hám hár qıylı miynet kónlikpelerin iyeleydi.

Oyın iskerligi arqalı miynet kónlikpelerin qáliplestiriw.

Oyın balalar turmısınıń tiykarǵı bólegi bolıp, olar arqalı balalar dúnyanı ańlaydı. Oyın procesinde balalar úlkenlerdiń miynetin tákirarlaydı. Mısalı: «Shıpaker hám nawqas», «Aspaz», «Qurılısshı», «Dúkánshı» sıyaqlı rolli oyınlar arqalı balalar túrli kásipler menen tanısadı hám miynet procesin úyrenedi.Soniń menen birge, didaktikalıq oyınlar da miynet tárbiyasın qáliplestiriwde úlken áhmiyetke iye. Mısalı: "Kim tezirek jıynaydı", "Durıs jaylastır", "Miynet quralın tap" sıyaqlı oyınlar balalarda tártiplilik hám juwapkershilikti rawajlandıradı.

Oyın iskerligi mektepke shekemgi jastaǵı balalarda miynet tárbiyasın qáliplestiriwdiń tiykarǵı quralı bolıp, rolli hám syujetli oyınlar ("Dúkan," "Shıpaker," "Qurılısshı") arqalı miynetke qızıǵıwshılıq, juwapkershilik, jáméátlik hám erkinlik kónlikpelerin rawajlandıradı. Oyın procesinde balalar úlkenlerdiń miynetine uqsatıp, miynet kónlikpelerin ózlestiredi, bul bolsa olarda miynet súygishlikti qáliplestiredi.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarda miynet tárbiyasın oyın arqalı qáliplestiriwdiń tiykarǵı baǵdarları:

Rolli hám syujetli oyınlar: "Shańaraq," "Baqsha," "Emlewxana" sıyaqlı oyınlarda balalar túrli rollerdi atqarıp, miynet procesin oyın formasında úyrenedi.

Miynet elementleri bolǵan oyınlar: Oyınshıqlardı jıynastırıw, quwırshaq kiyimlerin juwıw sıyaqlı oyınlar arqalı ózine-ózi xizmet etiw hám tártiplilik kónlikpeleri qáliplesedi.

Jáméát bolıp oynalatuǵın oyınlar: Birgelikte qurılıs materialları menen oynaw ("Qurılısshılar" oyını) juwapkershilik hám topar bolıp islew qábiletin rawajlandıradı.

Dóretiwshilik oyınlar: Qaǵazdan buyımlar islew, súwret salıw yaki ılaydan buyımlar islew sıyaqlı is-háreketler dóretiwshilikti hám miynet nátiyjesinen quwanıw sezimin tárbiyalaydı.

Didaktikalıq oyınlar: Kásiplerge tiyisli súwretlerdi toplaw, miynet quralların ajıratıw arqalı miynet haqqındaǵı túsinikleri keńeyedi.

Oyınlar arqalı balalarda miynetke bolǵan unamlı múnásibet, erkinlik hám alǵa umtılıw qáliplesedi, bul bolsa olardıń keleshekte miynet iskerligine tayar bolıwın támiyinleydi.

Oyın mektepke shekemgi jasındaǵı balalardıń tiykarǵı iskerligi bolıp, ol arqalı bala shaxs sıpatında qáliplesedi oyın balanıń keleshektegi oqıw, miynet iskerligi, adamlarǵa múnásibetiniń qálipleskenlik dárejesin belgileydi.Oyın áyyem zamanlardan baslap pedagog, psixolog, filosof, etnograf, kórkem óner ilimpazlardıń dıqqatın ózine tartıp kelgen. Oyın alǵashqı jámiyetlik dúzim dáwirinde júzege kelgen bolıp, jámiyetlik ómirinde miynetten keyin turadı hám onıń mazmunın belgileydi. Bala óz oyınında aldın úlkenler miynetinde qatnasadı.

Oyın jas áwladtı miynetke tayarlaydı. Balalar oyınınıń bunday túsiniwı birinshi márte K.D.Ushinskiy tárepinen táriyiplep berilgen edi. Ol óz shıǵarmalarında balalar oyınınıń mazmunın olarnıń turmıstan alǵan tásirleri menen belgilenip,olar shaxsınıń qáliplesiwine tásir etedi, dep jazadı. Bul pikirdi P.F.Legaft te tastıyıqlap, balalar óz oyınlarında átiraptan alǵan tásirlerin sáwlelendiredi, deydi. Bunday iskerlik balanıń rawajlanıwında úlken áhmiyetke iye. Oyın úlkenler turmısında belgili orın tutar eken, ol balalar ushın ayrıqsha áhmiyetke iye ekenligin ilimpaz hám pedagoglar ózleriniń baqlaw hám ilimiy izertlewleri arqalı dálillep berdi.

Tárbiyashılar balalar oyınına basshılıq etiwde tómendegilerge ámel etiwleri kerek.

1. Oyın menen miynet ortasındaǵı tuwrı qatnas ornatıw.

2. Oyında balalardıń bolajaq miynet adamlarına tán bolǵan fizikalıq hám ruwxıy sıpatların tárbiyalaw.

Oyın balalardı fizikalıq jaqtan tárbiyalaw sistemasında, baqshanıń tálim-tárbiya jumısında ádep-ikramlılıq, miynet hám estetikalıq jaqtan tárbiyalawda úlken orın tutadı.

Miynettiń ádep-ikramlılıq jaqtan bahası onıń jámiyet ushın áhmiyeti menen belgilenedi. Sonıń ushın da balalarǵa olardıń qolınan keletuǵın, sociyallıq wazıypalardı qoyıw áhmiyetli esaplanadı. Sebebi óz miynetiniń jámiyetlik áhmiyetin túsiniw balanıń jámiyetlik turmısqa kirip barıwı hám ózin onıń paydalı aǵzası sıpatında seziniwine múmkinshilik beredi. Qalaberdi, erte jastan baslanatuǵın puqaralıq tárbiyasınıń tiykarları da mine usında.

Hár bir bala, bárinen burın, ózin shańaraq, baqsha, mekteptegi miynet procesiniń qatnasıwshısı, óz miynetin ulıwma jumıstıń bir bólegi sıpatında bahalawı kerek. Miynetti bunday shólkemlestiriw balalarda jámáátlik iskerlik. kópshilik aldında ózin tuta biliwge úyretedi. Soǵan bola balalardı tárbiyalawda jámáát miynet túrleri, ásirese, áhmiyetli esaplanadı. Balanıń aqılıy rawajlanıwında miynettiń áhmiyeti úlken. Ol álem, barlıq qorshaǵan ortalıqtı ańlaw imkaniyatın beredi. Demek, mektepke shekemgi jastan baslap miynet etiw balalardı estetikalıq hám ádebiy jaǵınan rawajlanıwına alıp keledi.

Miynet tárbiyasınıń gezektegi wazıypası jas áwladta miynet mádeniyatın, kónlikpe hám uqıplılıǵın qáliplestiriw, miynetke húrmet hám onıń nátiyjeleri – sociallıq hám jeke múlkti qásterlep saqlaw sıyaqlı sıpatlardı qáliplestiriw, qábilet hám qızıǵıwshılıq arqalı ıqtıyarlı kásipti tańlaw maqsetinde jas áwladta miynet túrine qızıǵıwshılıqtı arttırıwdan ibarat.

Jas áwladtıń miynet tárbiyası wazıypaların ámelge asırıw ushın tómendegi qurallardan keń paydalanıladı. Miynet iskerligi, onıń túrleri, shólkemlestiriwdiń ilimiy tiykarları menen keńnen tanıstırıw, jas áwladtıń miynet tárbiyası, qolınan keletuǵın miynet túrlerin orınlaw.

Demek, balalar miyneti fizikalıq jetilisiw ushın da úlken áhmiyetke iye, muskullardıń aktivligi, fizikalıq kúsh salıw balanıń organizmdegi barlıq sistemalarınıń iskerligin asıradı, miynettegi háreketler, olardıń muwapıqlıǵı, únlesligi, ıqtıyarlılıǵı jetilisip baradı. Miynettegi maqsetke erisiw jumısta unamlı emocional jaǵdaydı keltirip shıǵaradı, balanıń jumıs iskerligin arttıradı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar.

1. Ózbekstan Respublikasınıń «Bilimlendiriw haqqında»ǵı Nızamı// – T.: O’zbekiston, 2020.
2. «Maktabgacha talim pedagogikasi» SH.SHodmanova, 2008.
3. Abdullaeva, G. M. (2020). Maktabgacha ta’limda o‘yin faoliyati asosida tarbiyalash metodikasi. – Toshkent: “Ilm ziyo”.
4. P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Toshkent: O‘qituvchi.

BELBOG‘LI KURASHCHILARDA OG‘IR ATLETIKA METODLARINI QO‘LLASH ORQALI PORTLOVCHI KUCHNI OSHIRISH

Qaljanov Raxman Pulatovich - University of innovation technologies “Maktabgacha va boshlang‘ish ta’lim kafedrasi” dotsenti v.v.b

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636447

Annotatsiya Ushbu maqolada belbog‘li kurashchilarda og‘ir atletika metodlaridan foydalanish orqali portlovchi kuchni oshirishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Maqola kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda og‘ir atletika mashqlarining ahamiyatini, ayniqsa, kuchning tezkor va samarali rivojlanishiga ta’sirini o‘rganadi. Mashqlar orqali sportchilarning kuch ko‘rsatkichlarini oshirish va natijalariga erishish yo‘llari ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar. Belbog‘li kurash, Og‘ir atletika, Portlovchi kuch, Jismoniy tayyorgarlik, Snatch, Clean and jerk, Plyometrik mashqlar, Kuch va tezlik, Texnik salohiyat.

Annotation This article analyzes the scientific-theoretical and practical aspects of increasing explosive strength by applying weightlifting methods in belt wrestling athletes. The article examines the importance of weightlifting exercises in improving the physical fitness of wrestlers, particularly their ability to develop strength quickly and efficiently.

Key words. Belt wrestling, Weightlifting, Explosive strength, Physical conditioning, Snatch, Clean and jerk, Plyometric exercises, Strength and speed, Technical skills.

Belbog‘li kurash sportida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, ayniqsa, portlovchi kuchni rivojlantirish muhim o‘rin tutadi. Portlovchi kuch, sportchilarning bir necha soniya ichida maksimal kuchni ishlatish qobiliyatidir, bu esa kurashda yuqori samaradorlikka erishishga imkon beradi. Kurashchilarda tezkor kuchni oshirish, o‘z navbatida, kurashning ko‘plab texnikalari, masalan, raqibni tushirish yoki ko‘tarish kabi usullarni samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Og‘ir atletika mashqlari esa, bu borada nafaqat umumiy jismoniy tayyorgarlikni, balki kuchni tezda rivojlantirishni ham ta’minlaydi. **Snatch va clean and jerk** kabi mashqlar belbog‘li kurashchilarning tezkor kuchini oshirishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Bu mashqlarni qo‘llash, kurashchilarning o‘z texnikalarini mukammallashtirishga yordam beradi, chunki ular kurashda kerak bo‘lgan kuch va tezlikni rivojlantirishga imkon yaratadi.

Sportchilarda portlovchi kuchni oshirish uchun og‘ir atletika mashqlarining asosiy turlari, xususan**, snatch** (tutqich bilan ko‘tarish) va **clean and jerk** (to‘plam ko‘tarish) ko‘rsatilgan. Ushbu mashqlar orqali kuchning tezkorligi, harakatlarning aniqligi, jismoniy chidamlilik va kuchni tezda chiqarish qobiliyati oshadi.

Snatch — bu yuqori tezlikda og‘irlikni yerdan ko‘tarish harakati bo‘lib, kuchni va tezlikni oshirishga xizmat qiladi. **Clean and jerk** mashqi esa birinchi bosqichda og‘irlikni ko‘tarish (clean), so‘ngra uni yuqori holatga surish (jerk) orqali sportchining kuchini va tezligini rivojlantirishga yordam beradi. Har ikkala mashq ham portlovchi kuchni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega, chunki ular yuqori intensivlikda bajariladi va sportchilarning barcha mushak guruhlarini faollashtiradi.

Shuningdek, plyometrik mashqlarni qo‘llash orqali sportchilarni qisqa vaqt ichida kuchli zarba berishga va o‘z og‘irliklarini samarali boshqarishga o‘rgatish

mumkin. Plyometrik mashqlar kuchni tezda ishlab chiqarishga yordam beradi, bu esa belbog‘li kurashchilarning jismoniy salohiyatini oshiradi.

Og‘ir atletika metodlari belbog‘li kurashchilarda portlovchi kuchni rivojlantirishda samarali vosita sifatida ishlatiladi. **Plyometrik mashqlar** yordamida kurashchilarni qisqa vaqt ichida kuchli zarba berishga va o‘z og‘irliklarini samarali boshqarishga o‘rgatish mumkin. **Snatch (**tutqich bilan ko‘tarish) va **clean and jerk** (to‘plam ko‘tarish) mashqlari nafaqat kuchni, balki tezlik va reaksiya tezligini ham oshiradi.

Mashqlarni belbog‘li kurashchilarga moslashtirish, ularning texnik salohiyatini kuchaytirish va natijada kurashning samaradorligini oshirishga yordam beradi. **Portlovchi kuch** nafaqat belbog‘li kurashda, balki boshqa jangovar sportlarda ham zarur. Og‘ir atletika orqali sportchilarda zarba berish va raqibni yerga tushirishni amalga oshirish uchun kerakli kuchni rivojlantirish mumkin.

Maqolada keltirilgan misollar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, og‘ir atletika metodlari belbog‘li kurashchilarda portlovchi kuchni oshirishda sezilarli yordam beradi. Mashqlarni muntazam bajarish natijasida sportchilarning kuch va tezlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. Ayniqsa, **snatch** va **clean and jerk** texnikalarini ishlatgan sportchilarning natijalari yuqori darajada bo‘ldi. Ushbu mashqlarni muntazam qo‘llash, sportchilarning umumiy tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Maqolada taqdim etilgan mashg‘ulotlar natijasida belbog‘li kurashchilarning portlovchi kuchi oshdi. Og‘ir atletika metodlarini qo‘llash orqali sportchilarning kuch va tezlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi. Mashqlarni muntazam bajargan kurashchilar, o‘zlarining texnikalari va harakatlarining samaradorligini oshirishga erishdilar.

Og‘ir atletika metodlarini qo‘llash nafaqat kuchni, balki sportchilarning texnik ko‘nikmalarini ham yaxshilashga yordam berdi. **Plyometrik mashqlar** va og‘ir atletika yordamida olingan natijalar, sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga yordam berishini ko‘rsatdi. Mashqlar orqali sportchilarning portlovchi kuchi, zarba berish tezligi va jismoniy chidamliliklari yaxshilandi.

Og‘ir atletika metodlari belbog‘li kurashchilarda portlovchi kuchni oshirishda samarali bo‘lib, ularning umumiy jismoniy tayyorgarligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Mashqlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri qo‘llash orqali sportchilar kuch va tezlikni rivojlantirishga erishdilar. Shu bilan birga, belbog‘li kurashchilarning texnik ko‘nikmalarini kuchaytirish uchun og‘ir atletika metodlari kerakli vositalarni taqdim etadi.

Portlovchi kuchni oshirish orqali kurashchilarning kurashdagi samaradorligi ortadi va ular raqiblariga nisbatan ustunlikka ega bo‘ladilar. Bundan tashqari, og‘ir atletika metodlarini muntazam qo‘llash kurashchilarning tezlik, kuch va chidamlilik ko‘rsatkichlarini yaxshilashga yordam beradi, shu bilan birga ularning sport formalarini oshiradi.

Shunday qilib, og‘ir atletika metodlari belbog‘li kurashchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini yaxshilashda, ularning sportdagi natijalarini yuqori darajaga olib chiqishda muhim vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1.Smith, B. T**.** (2020). *Explosive* Strength Training for Athletes. Sport Press, p. 45.
2.Johnson, I. J. (2019). Weightlifting and its Impact on Athletic Performance. Journal of Strength and Conditioning Research, 33(2), 201-215.
3.Kwon, R. S., & Lee, J. S**.** (2018). Application of Weightlifting Techniques in Combat Sports. Journal of Combat Sports and Martial Arts, 5(1), 100-112.
4.Dvornikov, T. M. (2021). Athletes’ Physical Preparation for Martial Arts. Physical Education Review, 45(4), 123-134.
5.Kovalenko, A. P. (2017). Plyometric Training for Developing Explosive *Strength*. Physical Education and Sport, 4(10), 22-34.

MAKTABGACHA TA’LIM YO‘NALISHIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI VA AHAMIYATI

G. Genjebaeva – assistent o’qituvchi *University of Innovation Technologies*
https://doi.org/10.5281/zenodo.19636481

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy raqamli vositalarning bolalar intellektual salohiyatini oshirish, individual ta’lim traektoriyasini yaratish va pedagogik jarayonni samarali tashkil etishdagi o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), multimediya, interaktiv o‘yinlar, individual yondashuv, raqamli savodxonlik, pedagogik innovatsiyalar, intellektual rivojlanish

Abstract: This article highlights the theoretical and practical significance of using information and communication technologies (ICT) in the preschool education system. The role of modern digital tools in increasing the intellectual potential of children, creating an individual learning trajectory, and effectively organizing the pedagogical process is analyzed.

Keywords: preschool education, information and communication technologies (ICT), multimedia, interactive games, individual approach, digital literacy, pedagogical innovations, intellectual development

Axborot texnologiyalaridan foydalanish maktabgacha ta’limda individual yondashuvni ta’minlash imkonini ham beradi. Har bir bolaning qobiliyati, qiziqishi va rivojlanish darajasi turlicha bo‘lganligi sababli, elektron dasturlar va interaktiv mashg‘ulotlar yordamida ularning ehtiyojlariga mos ta’lim jarayonini tashkil etish mumkin. Bu esa ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda jadal rivojlanib borayotgan ta’lim tizimini axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etish qiyin. Jamiyat hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib borgan raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga ham yangicha mazmun va shakl olib kirmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim yo‘nalishida axborot texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Chunki maktabgacha yosh davri shaxs kamolotining poydevori qo‘yiladigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalarning

dunyoqarashi, tafakkuri, nutqi, ijtimoiy faolligi va ijodiy qobiliyatlari shakllanadi hamda rivojlanadi.

Hozirgi globallashuv va internetlashuv jarayonlarida bolalar juda erta yoshdan boshlab raqamli muhit bilan yuzma-yuz kelmoqda. Turli mobil qurilmalar, multimediali dasturlar, animatsion ko‘rsatuvlar va interaktiv o‘yinlar bolalar hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, maktabgacha ta’lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan maqsadli va pedagogik jihatdan to‘g‘ri foydalanish zamon talabiga aylangan. Bu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish orqali bolalarning intellektual salohiyatini erta yoshdan rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish hamda bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin.

Maktabgacha ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish bir qator pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Jumladan, multimediali taqdimotlar, rang-barang tasvirlar, audio va video materiallar orqali mashg‘ulotlarni qiziqarli va samarali tashkil etish mumkin. Interaktiv o‘yinlar va elektron o‘quv dasturlari bolalarning diqqatini jamlashga, xotirasini mustahkamlashga, mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, vizual va eshitish orqali axborotni tez qabul qiladigan maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bunday vositalar nihoyatda samaralidir.

Mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Zamonaviy kompyuterlar, interaktiv doskalar, planshetlar hamda internet tarmog‘i bilan ta’minlangan muassasalar soni ortib bormoqda. Biroq bu jarayonda pedagog kadrlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha bilim va malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki texnik vositalarning o‘zi emas, balki ulardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish ta’lim samaradorligini belgilaydi. Shuningdek, axborot texnologiyalari bolalarda axborot madaniyatini shakllantirishda ham muhim o‘rin tutadi. Ularni internetdan to‘g‘ri foydalanish, axborotni tanlash va tushunish, texnik vositalardan xavfsiz foydalanish ko‘nikmalariga erta yoshdan o‘rgatish kelajakda raqamli jamiyatning faol va ongli a’zosi bo‘lib shakllanishiga zamin yaratadi. Bugungi kunda raqamli kompetensiyalar har bir shaxs uchun zarur bo‘lgan asosiy ko‘nikmalardan biri hisoblanadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim bosqichidayoq bolalarda elementar raqamli savodxonlikni shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim yo‘nalishida axborot texnologiyalarining o‘rni beqiyosdir. Ular bolalarning intellektual, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi hamda ularni zamonaviy axborotlashgan jamiyatga tayyorlashning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois maktabgacha ta’lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va bolalarda erta yoshdan axborot madaniyatini shakllantirish bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. Ishmuhamedov R. J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari. – Toshkent: TDPU, 2011.
3. Gros, B. The design of smart learning environments. – Springer, 2016. (Xalqaro tajriba uchun).
4. Robert, I. V. Informatization of education: theory and methodology. – Moscow: BINOM, 2014.
5. Shayxova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda axborot texnologiyalarining o‘rni. // "Maktabgacha ta'lim" jurnali, 2021-yil.
6. Kalinina T. V. Upravlenie DOU. Novie informatsionnie texnologii v doshkolnom obrazovanii. – M.: Sfera, 2008.
7. Yuldashev J. G‘., Usmonov S. A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.

ONA TILI VA O‘QITISH DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING PASSIV SO‘Z BOYLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Tuzikenova Juldizay Amantaevna - Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsent v.v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635521

Annotatsiya. Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining so‘z boyligini oshirishda passiv so‘zlarning o‘rni, ushbu so‘zlarni bolalar tilida nutqiy faoliyat turlariga bog‘liq qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish va passiv so‘zlar bo‘yicha darsliklar tahlilidan iborat.

Tayanch so‘zlar: passiv so‘zlar, so‘z boyligi, nutqiy faoliyat, til rivoji, leksik ko‘nikmalar, darslik tahlili, lug‘at boyligini oshirish.

Abstract. This article analyzes the role of passive vocabulary in expanding the vocabulary of primary school students, the development of skills in using these words in children’s speech across different types of speech activities, and the analysis of textbooks related to passive vocabulary.

Keywords: passive vocabulary, vocabulary development, speech activity, language development, lexical skills, textbook analysis, vocabulary expansion.

Boshlang‘ich sinflarning ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida nutqiy faoliyatning nutqni tinglab tushunish va o‘qish turlari bilan bog‘liq ravishda o‘quvchilarning passiv so‘z boyligini miqdor va sifat jihatdan oshirib borish, matnlarning kattalashib borishini nazarda tutib passiv so‘z boyligini shakllantirish ustidagi ishlarni tashkil etish muammolari paydo bo‘ldi.

Ona tili lug‘at tarkibidagi katta miqdorni tashkil etadigan passiv so‘zlar eshitganda yoki o‘qiganda taniladigan, ma’nosi esga tushadigan so‘zlardir. O‘qib eshittiriladigan yoki o‘qiladigan matnlar ko‘plab passiv so‘zlarni ham qamrab

oladi. Nutqiy faoliyatning ushbu ikki turi (tinglab tushunish, o‘qish) ustidagi ishlarda o‘quvchilar nutqini passiv so‘zlar bilan boyitish choralari ko‘riladi. Ana shu nutqiy faoliyat turlariga monand nutqni (audiomatnni) tinglash jarayonida o‘quvchilarning passiv so‘z boyligini oshirish, bu ishlarni o‘qish jarayonida o‘zgacha usullar asosida olib borish, lug‘at ishini muntazam suratda uyushtirish zaruriyati tug‘iladi.

To‘g‘ri, o‘quvchilar maktabgacha yosh davrida ham, o‘qiyotgan paytda ham, radio tinglayotganda yoki teleko‘rsatuvlarni tomosha qilish jarayonida o‘zgalar nutqi orqali turli axborotlarni qabul qiladi, olamda bo‘layotgan yangiliklardan xabar topadi, tabiat hodisalaridan voqif bo‘ladi, ijtimoiy munosabatlar qanday bo‘lishini o‘rganadi.

Matnda ishlatilgan so‘zlarning ayrimlarini o‘quvchilar ilk bor uchratgan yoki ilk bor eshitgan, yohud uchratgan yoki eshitgan bo‘lsa ham, o‘shanda ma’nosini tushunmagan bo‘lishi mumkin. Masalan, 2-sinf «Ona tili va o‘qish savodxonligi» darsligidagi [1] “Chumolining jasorati” matnida berilgan ayrim gaplarni ko‘raylik:

Jazirama quyosh tig‘ida o‘simliklar qurib, qovjirab qolibdi.. Shunday kunlarning birida yaylovga o‘t ketibdi. Kutilmagan yong‘in jonzotlarni vahimaga solibdi.

To‘g‘ri aytasiz, bir zarra suv yong‘inni o‘chirmaydi. Lekin men urinib ko‘rmoqchiman. Chunki bu o‘tloq – mening Vatanim. Uni asrash uchun menda zarradek imkoniyat bo‘lsa, shu imkoniyatdan foydalanaman.

Xullas, barcha jonzotlar bir yoqadan bosh chiqarib olovga suv sepishganida xuddi osmondan yomg‘ir yog‘gandek bo‘libdi. Shu tariqa yong‘in o‘chirilibdi (7-bet).

Bu gaplarda *jazirama, tig‘ida, qovjirab qolibdi, o‘t ketibdi, kutilmagan, yong‘inni, jonzot, vahimaga solibdi, zarra, imkoniyat, bir yoqadan bosh chiqarib, xuddi, shu tariqa* so‘zlari, so‘z shakllari, iboralar o‘quvchilar uchun notanish hisoblanishi, ularning ayrimlari o‘quvchilarning nutq saviyasiga nisbatan aytganda passiv sanalishi mumkin.

“Nobel olaman” matnida:

Katta bo‘lsam, astronom bo‘laman. NASA, SpaceX kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlayman. Ularga koinotni o‘rganishda yordam beraman. O‘zim ham fazoviy kemalar yasayman. Ularda fazogirlar Oy va Marsga uchishadi (14-бет).

Bu gaplarda *astronom, tashkilot, hamkorlik, koinot, fazoviy kemalar, fazogir, Mars* so‘zlari notanishlik qiladi.

Darsliklarda berilgan matnlarning aksariyat qismi ilmiy maqola tipida, ayrimlari xalq og‘zaki ijodi asarlarini (jumladan, ertaklarni) ifoda etadi. Ertaklarda badiiy asarlarda bo‘lgani kabi so‘z takroriga yo‘l qo‘ymaslik uchun sinonimlardan foydalaniladi. Masalan, yuqoridagi gaplarda o‘t (ketmoq) – yong‘in; ahil – bir yoqadan bosh chiqarib ma’nodoshligidan foydalanilgan, ular so‘z takroridan qutulish, matnga ifodalilik, ta’sirchanlik baxsh etgan. Aqlingni yo‘qotdingmi birikmasi o‘rnida ta’sirchanroq ibora – aqlingni yeb qo‘ydingmi iborasi (frazeologizmi) qo‘llangan; Ikkinchi holatda so‘z va ibora, ibora va ibora sinonimik holatlarini ko‘rish mumkin. Ilmiy matnlarda terminlargina sinonimlari bilan almashtirilmaydi, faqat bittasi tanlanadi va shunisigina matnning boshidan

oxirigacha qo‘llanadi. Masalan, prinsip va tamoyil terminlari sinonim sifatida bir-birini almashtira oladi. Lekin matn muallifi ularning bittasi: yo prinsip, yoki tamoyil terminini ishlatadi.

Yuqorida aytilganlardan xulosa chiqarish mumkinki, eshittirish uchun mo‘ljallanadigan matn (yoki audiomatn), o‘quv matni bir qator talablarga javob berishi kerak. Chunonchi:

– fikr predmeti (so‘z yuritilayotgan shaxs, narsa-buyum o‘quvchilar uchun tanish bo‘lmasa, unga izoh berilishi shart. Bu o‘rinda biz Nobel kabi shaxslarni, jonzot kabi so‘zlarni, jazirama kabi tabiat hodisalarini nazarda tutyapmiz.

– iboralar tushuntirilishi lozim. Masalan, bir yoqadan bosh chiqarib, aqlingni yeb qo‘ydingmi kabi iboralar izohtalabdir.

– matnlar asosan sodda gaplardan tuzilishi, murakkab gaplar bo‘lmasligiga harakat qilish zarur.

E’tirof etish kerakki, «Uni asrash uchun menda zarradek imkoniyat bo‘lsa, shu imkoniyatdan foydalanaman» kabi gaplar 2-sinf o‘quvchilari uchun ma’lum qiyinchilik tug‘diradi.

Matnda so‘z takroriga yo‘l qo‘ymaslik, ta’sirchanlikni oshirish uchun muallif turli leksik birliklardan, foydalanadi:

– sinonimlardan;
– so‘zlarning ko‘p ma’noliligidan (leksik polisemiyadan);
– so‘zlarning ko‘chma ma’nolaridan;
– iboralardan (frazeologizmlardan), iboralar polisemiyasidan;
– so‘zga stilistik bo‘yoq berish usulidan.

So‘zlashuv nutqida sinonimik qatorga kirgan sinonimlardan bittasi (neytral uslubga xosi), shuningdek, ijobiy va salbiy bo‘yoqli sinonimlarning ayrimlaridan faol foydalaniladi. Ba’zan sinonim so‘zlarning faqat bittasi faol qo‘llanib, boshqalari passiv bo‘ladi. Masalan, yuz (neytral), bet, aft, bashara (salbiy stilistik bo‘yoqli) sinonimlar so‘zlashuv nutqida faol bo‘lsa, jamol, chehra kabilari (ijobiy stilistik bo‘yoqlilari) passiv qo‘llanadi.

Ilmiy matnlarda termin bo‘lmagan so‘zlarni (masalan, kerak so‘zini) sinonimlari (zarur, lozim, darkor) bilan almashtirish holatlari ham uslub talabi hisoblanadi.

O‘quvchining og‘zaki va yozma nutqiga qo‘yiladigan muhim talablardan biri uning boy va rang-barang bo‘lishidir. Lekin ilmiy uslub uchun bunday keng darajadagi rang-baranglik xos emas. A.G‘ulomov, B.Qobilovalar izohlaganidek, «...Publitsistik va badiiy uslubgina ana shunday xususiyati bilan boshqalaridan ajralib turadi. Chunki nutqning boy va rang-barangligi avvalo fikrni bayon qilishda o‘zbek tilining leksik imkoniyatlari: sinonim, antonim va omonimlar, ko‘chma ma’noli so‘zlar, tasviriy ifoda va iboralardan, shuningdek nutqning badiiy qimmatini oshiruvchi vositalar: o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, istiora, mubolag‘a kabi badiiy til vositalaridan maqol va matallardan, atoqli shoir va yozuvchilarning maqol va aforizmga aylanib qolgan so‘zlari va hikmatlaridan, badiiy asarlardan olingan parchalar va yorqin timsollardan, ritorik so‘roqli gaplardan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Tilning bu tasviriy vositalari nutqqa go‘zallik, joziba va rang-baranglik baxsh etadi» [2]. Lekin ilmiy nutq bunday

so‘z boyligini inkor etadi. Ayni paytda so‘z takrorini kamaytirish yo‘lida ayrim neytral uslubga yaqin sinonimlar, ko‘p ma’noli so‘zlar, iboralarni qo‘llashga intilish ham mavjud bo‘ladi.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘qituvchi matnni o‘qib eshittirishdan yoki o‘qitishdan oldin ma’nosini anglash qiyin bo‘lgan yoki umuman izohsiz o‘zicha tushunilmaydigan so‘zlarning izohini berish maqsadga muvofiqdir. Albatta, bu ish bir necha daqiqa vaqtni olar. Lekin, busiz matn mazmuni bilan tanishishdan ko‘zlangan natijani qo‘lga kiritish qiyin.

Matnni o‘quvchilarga o‘qitishdan avval uni ichdan o‘qib chiqishni topshiriladi. Ichdan o‘qish paytida ma’nosini tushunmay qolgan so‘zlarni so‘rashni vazifa qilib topshiradi.

Ayrim ilg‘or ish tajribali o‘qituvchilar o‘quvchilarga izohli lug‘at daftarini tuttiradilar. Ushbu daftarga matn o‘qilgandan keyin xotiradan tez ko‘tariladigan so‘zlar yozdirib boriladi. Matnga doir bunday lug‘at slayd yordamida namoyish qilinishi va bolalarning ko‘chirib olishlariga imkon berilishi mumkin.

Matn yuzasidan berilgan savollar ustida ishlash jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilardan yana qaysi so‘zlar tushunilmay qolganini so‘rab, lug‘atga aniqlik kiritishi foydadan xoli emas.

O‘qituvchi matnni o‘qib berayotgan paytda ayrim so‘zlarga izoh berib o‘tishi yaxshi samara beradi. Bunday izohlar matn mazmunini yaxlit idrok etishga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi, aksincha, idrok jarayonini yaxshilaydi.

Xullas, boshlang‘ich sinflar ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchilarning passiv so‘z boyligini miqdor va sifat jihatdan oshirib borish matnlardan shunday so‘zlarni ajratish, ular ustidagi ishlarni to‘g‘ri tashkil etish muhim tadbirlar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 2-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 120 b.
2. Ona tili fani milliy o‘quv dasturi. 2022–2023 o‘quv yili. Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 4–28 betlar.
3. Ғуломов А., Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулотлари. Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 14–15-б.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA SYUJETLI ROLLI O‘YINLAR VOSITASIDA O‘ZARO HAMKORLIK HISSINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

Yuldasheva Shoxida Botirovna - University of innovation technologies
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi assistent o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19635594

Annotatsiya: Mazkur ishda maktabgacha yoshdagi bolalarda syujetli-rolli o‘yinlar vositasida o‘zaro hamkorlik hissini shakllantirishning mazmuni va pedagogik asoslari yoritilgan. Syujetli-rolli o‘yinlarning bolalar ijtimoiylashuvi, kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish va jamoaviy faoliyatga tayyorlashdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, o‘yin jarayonida

bolalarning o‘zaro muloqotga kirishishi, rollarni taqsimlashi, muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilishi orqali hamkorlik ko‘nikmalari shakllanishi asoslab berilgan. Ishda syujetli-rolli o‘yinlar mazmunini to‘g‘ri tanlash, pedagogik jihatdan tashkil etish va boshqarishning samarali usullari ko‘rsatib berilgan. Natijada, mazkur yondashuv bolalarda o‘zaro yordam, empatiya, mas’uliyat va jamoaviylik kabi muhim ijtimoiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: syujetli-rolli o‘yin, hamkorlik, maktabgacha ta’lim, ijtimoiylashuv, o‘yin faoliyati, kommunikativ ko‘nikma, jamoaviylik.

Abstract: This work highlights the content and pedagogical foundations of forming a sense of mutual cooperation in preschool children through role-playing games. The study scientifically analyzes the role of role-playing games in the socialization of children, the development of their communicative competencies, and preparation for collective activity. It is also substantiated that the formation of cooperation skills is carried out through the interaction of children in the process of play, the distribution of roles, and the joint solution of problem situations. The work shows the correct selection of the content of role-playing games, effective methods of pedagogical organization and management. As a result, it was found that this approach serves the development of such important social qualities in children as mutual assistance, empathy, responsibility, and collectivism.

Keywords: role-playing game, collaboration, preschool education, socialization, game activity, communication skills, teamwork.

Maktabgacha yosh davri inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biri bo‘lib, aynan shu davrda bolaning shaxsiyati, ijtimoiy xulq-atvori, muloqot madaniyati hamda atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatlari shakllana boshlaydi. Zamonaviy ta’lim tizimida bolani har tomonlama rivojlantirish, ayniqsa, uning ijtimoiy kompetensiyalarini, jumladan, o‘zaro hamkorlik qilish, jamoada ishlash, boshqalar fikrini hurmat qilish kabi ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini yangicha pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etishni taqozo etadi.

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun shaxsda kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy moslashuvchanlik va hamkorlikka tayyorlik kabi sifatlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, maktabgacha yoshdan boshlab bolalarda mazkur sifatlarni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida e’tirof etilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aynan 6–7 yosh oralig‘ida bolalarda ijtimoiy xulq-atvor asoslari, muloqot ehtiyoji va jamoaviy faoliyatga bo‘lgan qiziqish faol rivojlanadi [1].

Psixologik-pedagogik nazariyalarga ko‘ra, bola rivojlanishida o‘yin faoliyati alohida o‘rin tutadi. Jumladan, L.Vygotsky o‘zining madaniy-tarixiy nazariyasida o‘yin faoliyatini bolaning yaqin rivojlanish zonasi bilan bog‘lab, aynan o‘yin jarayonida bola o‘zining mavjud imkoniyatlaridan yuqori darajada faoliyat ko‘rsatishini asoslab bergan [2]. O‘yin orqali bola ijtimoiy tajribani egallaydi, kattalar hayotini aks ettiradi va o‘zaro munosabatlarni amaliy tarzda o‘rganadi.

Shuningdek, D.Elkonin syujetli-rolli o‘yinlarni maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati sifatida tavsiflab, bu o‘yinlar orqali bolalarda ijtimoiy rollar, munosabatlar va xulq-atvor normalari shakllanishini ilmiy asoslab bergan [3]. Olimning fikricha, aynan rolli o‘yinlar jarayonida bola o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘yib ko‘rishni o‘rganadi, bu esa empatiya va hamkorlik hissining rivojlanishiga olib keladi. Syujetli-rolli o‘yinlar bolalarning ijtimoiylashuvi jarayonida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Bu o‘yinlar jarayonida bolalar o‘zaro muloqotga kirishadi, rollarni taqsimlaydi, umumiy maqsad sari harakat qiladi va yuzaga kelgan muammolarni birgalikda hal etadi. Natijada ularda nafaqat kommunikativ ko‘nikmalar, balki o‘zaro yordam, mas’uliyat va hamkorlik hissi ham shakllanadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida mazkur o‘yinlarni maqsadli va tizimli tashkil etish bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [4].

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, syujetli-rolli o‘yinlardan foydalanish ko‘pincha tizimli yondashuv asosida emas, balki fragmentar tarzda amalga oshiriladi. Bu esa o‘yinlarning tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlaridan to‘liq foydalanilmasligiga olib keladi. Shu sababli, maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zaro hamkorlik hissini shakllantirishga qaratilgan aniq pedagogik modelni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi aynan syujetli-rolli o‘yinlar vositasida bolalarda hamkorlik hissini shakllantirishning ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslash bilan belgilanadi.

Syujetli-rolli o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Ular orqali bola nafaqat real hayotdagi vaziyatlarni o‘rganadi, balki o‘zaro munosabatlarni, jamoada ishlashni va muammoli vaziyatlarni hal qilishni amaliy tarzda egallaydi [5].

Syujetli-rolli o‘yin – bu bolalarning kundalik hayotdagi ijtimoiy vaziyatlarni aks ettiruvchi, rollar asosida tashkil etilgan faoliyat turi bo‘lib, unda bola ma’lum bir obrazni bajaradi va shu orqali ijtimoiy tajribani o‘zlashtiradi [6]. Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida va ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda bolalar o‘zaro hamkorlik qilish, jamoada ishlash, boshqalarning fikrini hurmat qilish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni egallashadi, shuningdek, muloqot madaniyati va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarda ijtimoiylashuvni rag‘batlantirishning eng samarali vositalaridan biri syujetli-rolli o‘yinlar hisoblanadi. Bu o‘yinlar orqali bola real hayotdagi vaziyatlarni amaliy tarzda o‘rganadi, o‘zaro muloqot qiladi, rollarni taqsimlaydi va birgalikda muammolarni hal etishni o‘rganadi.

Syujetli-rolli o‘yinlar bolaning ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishiga xizmat qiladigan faoliyat turi bo‘lib, unda bola ma’lum bir obrazni bajaradi va shu orqali ijtimoiy tajribani egallaydi. D.Elkonin o‘z tadqiqotlarida syujetli-rolli o‘yinlarni maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyati deb atagan va bu o‘yinlar orqali bolalarda ijtimoiy rollar, muloqot ko‘nikmalari va hamkorlik hissi shakllanishini ilmiy asoslab bergan. Shu bilan birga, L.Vygotsky o‘yin faoliyatini

bolaning yaqin rivojlanish zonasi bilan bog‘lab, o‘yin jarayonida bola o‘zining mavjud imkoniyatlaridan yuqori darajada faoliyat ko‘rsatishi va yangi ijtimoiy kompetensiyalarni egallashini ta’kidlagan.

Syujetli-rolli o‘yinlar orqali o‘zaro hamkorlik hissini shakllantirish jarayoni bir necha o‘zaro bog‘liq pedagogik omillar asosida amalga oshiriladi. Avvalo, o‘yin mazmuni bolalarning kundalik hayotiga yaqin bo‘lishi zarur. Masalan, “oila”, “bog‘cha”, “do‘kon”, “kasalxona” kabi syujetlar bolalarga tanish bo‘lib, ular orqali bola ijtimoiy munosabatlarni osonroq anglaydi. O‘yin davomida bolalar rollarni taqsimlaydi, o‘zaro kelishadi, muloqotga kirishadi va umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda harakat qiladi. Bu esa ularning o‘zaro hamkorlik qilish, bir-birini tushunish va qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Mazkur jarayonda pedagogning roli muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi o‘yin faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishi, bolalarni faol ishtirok etishga jalb qilishi va o‘yin jarayonini nozik boshqarishi lozim. Shu bilan birga, pedagog bolalarga mustaqillik berib, ularning tashabbusini qo‘llab-quvvatlashi zarur. Chunki ortiqcha aralashuv bolalarning erkin muloqotini cheklashi mumkin, aksincha, to‘g‘ri yo‘naltirish ularning o‘zaro hamkorlikka bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi.

Syujetli-rolli o‘yinlar jarayonida bolalar o‘zaro fikr almashadi, vazifalarni taqsimlaydi, muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qiladi va natijaga erishish uchun jamoaviy faoliyat olib boradi. Bu jarayon ularda empatiya, o‘zaro yordam, mas’uliyat va jamoaviylik kabi muhim ijtimoiy sifatlarni shakllantiradi. Ayniqsa, kichik guruhlarda tashkil etilgan o‘yinlar bolalarning bir-biriga yaqinlashishiga, o‘zaro ishonch va hurmat hissining shakllanishiga xizmat qiladi. Qiyosiy tahlillardan olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, pedagog tomonidan to‘g‘ri tashkil etilgan syujetli-rolli o‘yin muhiti bolalarning o‘zaro muloqot qilish, fikr almashish va muammolarni birgalikda hal qilish ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Shu tariqa, syujetli-rolli o‘yinlar nafaqat bolalarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga, balki ularni kelajakdagi maktab va jamiyat hayotiga samarali tayyorlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, syujetli-rolli o‘yinlar vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘zaro hamkorlik hissini shakllantirish ularning ijtimoiylashuvi, jamoaviy faoliyatga tayyorlanishi va shaxs sifatida rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuvni maktabgacha ta’lim amaliyotida keng qo‘llash bolalarda ijtimoiy faol, muloqotga layoqatli va hamkorlikka tayyor shaxsni tarbiyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar.
2. Smirnova, E.V. “Psixologiya igri v doshkolnom vozraste”.
3. Elkonin D.B. “Psixologiya igri”.
4. Vygotsky L.S. “Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes”.
5. Sokolova, T.A. “Razvitie sotsialnykh navykov u doshkolnikov”.
6. Petrova, N.V. “Igra i formirovanie sotsialnykh kompetentsiy”.
7. Bakanov, P.P. “Organizatsiya rolevykh igr v doshkolnom obrazovanii”.

MEKTEPKE SHEKEMGI JASTAĠI BALALARDIŃ ÁDEP-IKRAMLIQ TÁRBIYASIN QÁLIPLESTIRIW HÁM MILLIY QÁDIRIYATLARIMIZĠA MÚNÁSIP TÁRBIYALAW

Zuhrobova Mahliyo Abdulatif qizi - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti 1-basqısh studenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635672

Annotaciya: Bul teziste mektepke shekemgi jastaġı balalardıń ádep-ikramlılıq tárbiyasın qáliplestiriw procesi hám olardı milliy qádiriyatlar ruwxında tárbiyalawdıń pedagogikalıq tiykarları sáwlelendirilgen. Balalarda sociallıq minez-qulıq normaların qáliplestiriw, insanıylıq pazıyletlerdi rawajlandırıw hám milliy dástúrlerge húrmet oyatıwdıń nátiyjeli usılları tallanġan. Sonday-aq, shańaraq ortalıġı, tárbiyashı iskerligi hám didaktikalıq oyınlardıń ádep-ikramlılıq tárbiyasındaġı ornı tiykarlap berilgen.

Tayanish sózler: ádep-ikramlılıq tárbiya, mektepke shekemgi jas, milliy qádiriyatlar, sociallıq minez-qulıq, tárbiya procesi, pedagogikalıq jantasıw, didaktikalıq oyınlar.

Annotation: This thesis explores the formation of moral education in preschool children and the importance of raising them in accordance with national values. It analyzes effective methods for developing social behavior, moral qualities, and respect for cultural traditions. The role of family environment, educator activity, and didactic games in moral education is also substantiated.

Keywords: moral education, preschool age, national values, social behavior, educational process, pedagogical approach, didactic games.

Mektepke shekemgi jas dáwiri shaxstıń ádep-ikramlılıq kelbetiniń qáliplesiwindegi eń áhmiyetli basqıshlardan biri esaplanadı. Áyne usı dáwirde balada jaqsılıq hám jamanlıqtı parıqlaw, sociallıq normalarǵa ámel etiw, úlkenlerge húrmet hám qatarlarına miyrim-shápáát sıyaqlı insanıylıq pazıyletler qáliplese baslaydı. Sonlıqtan, mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasında balalardıń ádep-ikramlılıq tárbiyasın nátiyjeli shólkemlestiriw hám olardı milliy qádiriyatlar ruwxında tárbiyalaw áhmietli pedagogikalıq máselelerden biri sıpatında tán alınadı.

Ádep-ikramlılıq tárbiya procesiniń úzliksiz hám sistemalı túrde alıp barılıwı zárúrligi, bárinen burın, balanıń shaxs sıpatında basqıshpa-basqısh qáliplesiwi menen túsindiriledi. Mektepke shekemgi jas dáwirinde bala qorshaǵan ortalıqtı aktiv ózlestiredi, onıń minez-qulqı, qatnasları hám qádiriyatları áste-aqırın qáliplesedi. Sol sebepli tárbiya procesinde hár bir balanıń individual ózgeshelikleri, yaǵnıy oniń temperamenti, qızıǵıwshılıǵı, emocional jaǵdayı hám qabil etiw dárejesi ayrıqsha itibarǵa alınıwı kerek. Ayırım balalar tez tásirleniwshi hám sezimlerge beriliwshi bolsa, basqaları tınısh hám baqlawshı bolıwı múmkin. Bul bolsa tárbiyalıq tásir usılların tańlawda differencial jantasıwdı talap etedi.

Jas dáwiri psixologiyası kózqarasınan qaraǵanda, mektepke shekemgi jastaġı balalar ushın anıq qaǵıydalar, ápiwayı túsinikler hám obrazlı mısallar úlken áhmiyetke iye. Olar ele abstrakt pikirlewden kóre, kóbirek konkret jaǵdaylar arqalı

úyrenedi. Sol sebepli ádep-ikramlılıq normaların túsindiriwde násiyatlawdan kóre, turmıslıq mısallar, ertek qaharmanları, rolli oyınlar hám kúndelikli jaǵdaylar nátiyjelirek esaplanadı. Máselen, "jaqsılıq yetiw," "úlkenlerge húrmet" yaki "doslarǵa járdem beriw" sıyaqlı túsinikler balaǵa tikkeley ámeliy xızmet arqalı sińdirilgende, olardı tez hám tereń ózlestiredi.

Sociallıq ortalıq faktorları da ádep-ikramlılıq tárbiyasınıń áhmiyetli quram bólegi esaplanadı. Bala ózin qorshap turgan ortalıq - shańaraq, baqsha, teńlesler jámáati hám keńirek sociallıq ortalıq arqalı belgili bir minez-qulıq normaların ózlestiredi. Eger ortalıq unamlı, miyrimli hám tártipli bolsa, bala da soǵan sáykes minez-qulıq kórsetedi. Kerisinshe, biypárwalıq yamasa qarama-qarsı ortalıq balanıń ádep-ikramlılıq rawajlanıwına unamsız tásir kórsetiwi múmkin.

Ilimiy baqlawlar sonı kórsetedi, mektepke shekemgi jastaǵı balalarda ádep-ikramlılıq sıpatları, tiykarınan, baqlaw, eliklew hám ámeliy iskerlik arqalı qáliplesedi [1, 26]. Bala úlkenlerdiń hár bir háreketin diqqat penen baqlaydı hám sanalı yamasa erksiz túrde olardı tákirarlawǵa umtıladı. Ásirese, ata-ana hám tárbiyashılar bala ushın tiykarǵı úlgi esaplanadı. Eger úlkenler óz is-háreketlerinde hadallıq, miyrim-shápáát, sabır-taqat hám húrmet sıyaqlı pazıyletlerdi kórsetse, bala da usı sıpatlardı tábiyiy túrde ózlestiredi.

Usı kózqarastan, tárbiyashı hám ata-analardıń jeke úlgi kórsetiwi ádep-ikramlılıq tárbiyasınıń eń nátiyjeli qurallarınan biri esaplanadı. Sóz arqalı berilgen tárbiya kóbinese jeterli bolmawı múmkin, biraq ámeliy úlgi balaǵa kúshlirek tásir etedi. Máselen, úlkenlerdiń óz-ara húrmet penen múnásibette bolıwı, balaǵa itibar hám mehir kórsetiwi, wádesine sadıq bolıwı sıyaqlı ápiwayı jaǵdaylar balanıń ádep-ikramlılıq sanasında tereń iz qaldıradı. Sol sebepli, ádep-ikramlılıq tárbiya procesinde "qanday úyretiw"den góre, "qanday úlgi boliw" máselesi ústin áhmiyetke iye.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarda ádep-ikramlılıq tárbiyasın qáliplestiriwde milliy qádiriyatlardıń ornı sheksiz bolıp, olar balanıń ruwxıy dúnyasın bayıtıwshı, minez-qulqın baǵdarlawshı áhmietli faktor sıpatında kórinedi. Áyne usı dáwirde bala óz xalqınıń úrp-ádetleri, qádiriyatları hám mádeniy miyrası menen dáslepki tanısıwdı baslaydı. Bul process bolsa onda ózlikti ańlaw, milliy ózine tánlikti seziw hám jámiyettegi ornın túsiniwge tiykar jaratadı.

Milliy dástúr hám úrp-ádetler balaǵa ádep-ikramlılıq normaların ápiwayı hám túsinikli túrde jetkeriw imkaniyatın beredi. Máselen, úlkenlerge húrmet kórsetiw, miymandoslıq, kishige mehriban bolıw sıyaqlı qádiriyatlar ózbek xalqınıń kúndelikli turmısında ámeliy tárizde kórinedi. Bala usi proceslerdi baqlaw hám onda qatnasıw arqalı usi pazıyletlerdi tábiyiy túrde ózlestiredi. Ásirese, bayramlar hám máresimler procesinde balalardıń belsene qatnasıwı olarda sociallıq minez-qulıq normaların bekkemlewge xızmet etedi.

Xalıq awızeki dóretiwshiligi úlgileri - ertekler, maqallar, jumbaqlar hám ráwiyatlar ádep-ikramlılıq tárbiyasınıń nátiyjeli quralı esaplanadı. Ertek qaharmanları arqalı jaqsılıq hám jamanlıq, hadallıq hám ótirikshilik, mártlik hám qorqaqlıq sıyaqlı túsinikler obrazlı túrde ashıp beriledi. Bala erteklerdi tıńlaw procesinde qaharmanlarga elikleydi, olardıń is-háreketlerin bahalaydı hám sol arqalı ózinde unamlı sıpatlardı qáliplestiredi. Naqıl-maqallar bolsa qısqa, anıq hám

mazmunlı bolǵanı ushın balaǵa ádep-ikramlılıq juwmaqlardı tez hám ańsat ańlawǵa járdem beredi.

Milliy oyınlar da balalardıń ádep-ikramlılıq tárbiyasında ayrıqsha áhmiyetke iye. Bul oyınlar arqalı balalar jámáátte háreket etiw, óz-ara húrmet, hadallıq, qaǵıydalarǵa ámel etiw hám doslıq sıyaqlı sociallıq kónlikpelerdi ieleydi. Máselen, jámáátlik oyınlarda balalar náwbet kútiw, sheriklerine járdem beriw hám ulıwma maqsetke erisiw sıyaqlı áhmiyetli minez-qulıq sıpatların ózlestiredi. Bul bolsa olardıń sociallasıw procesin jedellestiredi.

Sonday-aq, milliy máresimler hám dástúriy ilajlar balalarda watansúyiwshilik, milliy maqtanısh hám sadıqlıq sezimlerin qáliplestiriwde áhmietli qural bolıp xızmet etedi. Olar arqalı bala óz xalqınıń bay mádeniy miyrasına húrmet penen qarawdı, ata-babalardıń dástúrlerin qádirlewdi úyrenedi. Bul process balanı tek ǵana ádep-ikramlılıq jaqtan bárkamal emes, al óz milliy tamırlarına sadıq, bekkem isenimge iye shaxs sipatında qáliplesiwine tiykar jaratadı [2, 45].

Sonday-aq, didaktikalıq oyınlar mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń ádep-ikramlılıq tárbiyasın qáliplestiriwde eń nátiyjeli hám tábiyiy qurallardan biri sıpatında kórinedi. Sebebi oyın balanıń tiykarǵı iskerlik túri bolıp, áyne oyın procesinde ol qorshaǵan ortalıqtı ańlaydı, sociallıq tájiriybe arttıradı hám hár qıylı minez-qulıq normaların ózlestiredi. Didaktikalıq oyınlardıń abzallıǵı sonda, olar májbúriy emes, qızıqlı hám erkin ortalıqta shólkemlestiriledi, bul bolsa balada ishki motivaciyanı kúsheytedi hám de úyrenilip atırǵan ádep-ikramlılıq túsiniklerdi bekkem ózlestiriwge xızmet etedi.

Oyın procesinde bala túrli sociallıq rollerdi atqarıw arqalı jámiyettegi qatnasıqlar sistemasın ózine tán tárizde sáwlelendiredi. Máselen, "ana-bala," "shipaker-nawqas," "muǵallim-oqıwshı" sıyaqlı rolli oyınlarda bala úlkenlerdiń is-háreketlerin tákirarlaydı, qarım-qatnas mádeniyatın ózlestiredi hám túrli jaǵdaylarda qanday háreket etiwdi úyrenedi. Bul bolsa balada juwapkershilik, húrmet, miyrim-shápáát, sabır-taqat sıyaqlı ádep-ikramlılıq pazıyletlerdiń qáliplesiwine tiykar jaratadı. Ásirese, rolli oyınlar arqalı bala óz is-háreketlerin basqarıw, basqalar menen kelisiw hám sociallıq qaǵıydalarǵa ámel etiwdi ámeliy tárizde ózlestiredi.

Saxnalastırıw iskerligi de ádep-ikramlılıq tárbiyada áhmiyetli orın iyeleydi. Ertekler yamasa turmıslıq waqıyalar tiykarında shólkemlestirilgen kishi saxnalıq kórinisler balalardıń emocionallıq dúnyasın bayıtadı, olar qaharmanlardıń halına kirip, jaqsılıq hám jamanlıqtı tereńirek sezedi. Bul proceste bala tek waqıyanı túsinip qoymastan, al oni sezedi, bul bolsa ádep-ikramlılıq túsiniklerdiń sanada bekkem ornalasıwına alıp keledi.

Mashqalalı jaǵdaylarǵa tiykarlanǵan oyınlar bolsa balalarda erkin pikirlew hám ádep-ikramlılıq qarar qabıl etiw kónlikpelerin rawajlandıradı. Máselen, "eger dostıń jıǵılıp qalsa ne qılasań?" yaki "oyınshıqtı bólisiwdi qálemegen balaǵa qanday múnásibet bildireseń?" sıyaqlı jaǵdaylar arqalı bala túrli variantlardı oylap kóredi hám eń durıs minez-qulıqtı tańlawǵa háreket etedi. Bul bolsa onıń ádep-ikramlılıq oy-pikirin rawajlandırıwda úlken áhmiyetke iye.

Soniń menen birge, didaktikalıq oyınlar procesinde tárbiyashınıń duris bagdarlawshı roli de áhmiyetli. Ol oyın dawamında balalardıń is-háreketlerin

baqlaydı, zárúr jaǵdaylarda durıs jol kórsetedi hám unamlı minez-qulıq úlgilerin bekkemleydi. Nátiyjede, oyın arqalı alınǵan ádep-ikramlılıq tájiriybesi balalar sanasında turaqlı kónlikpege aylanadı hám kúndelikli turmısta da kózge taslana baslaydı [3, 18].

Ádep-ikramlılıq tárbiyasınıń nátiyjeliligin támiyinlewde shańaraq ortalıǵı sheshiwshi faktorlardan biri esaplanadı, sebebi bala dáslepki sociallıq tájiriybeni áyne shańaraq qushaǵında ieleydi. Onıń dáslepki túsinikleri, qádiriyatları hám minez-qulqına baylanıslı normalar bárinen burın ata-ana hám jaqınları menen bolǵan múnásibet procesinde qáliplesedi. Bala ushın shańaraq - bul tek jasaw ortalıǵı emes, al úlgi alıw, eliklew hám ózin tutıw qaǵıydaların úyreniw mektebi bolıp esaplanadı. Sol sebepli shańaraqtaǵı sociallıq-psixologiyalıq ortalıqtıń salamat, mehir-muhabbatqa bay hám turaqlı bolıwı balanıń ádep-ikramlılıq rawajlanıwına tikkeley tásir kórsetedi.

Bala dáslepki ádep-ikramlılıq túsiniklerdi, máselen, "jaqsı-jaman," "múmkin-múmkin emes," "duris-nadurıs" sıyaqlı kategoriyalardı áyne shańaraqta ózlestiredi. Ata-ananıń kúndelikli is-háreketi, qatnas usılı, basqalarǵa bolǵan múnásibeti bala ushın eń áhmiyetli úlgi wazıypasın atqaradı. Eger shańaraqta óz-ara húrmet, haq kewillik, miyrim-shápáát ústin bolsa, bala da usı qádiriyatlardı ózlestiredi. Kerisinshe, shańaraqtaǵı kelispewshilikler, biypárwalıq yamasa isenimsizlik balada unamsız minez-qulıqtıń qáliplesiwine sebep bolıwı múmkin.

Ata-ananıń bala menen qarım-qatnası ádep-ikramlılıq tárbiyasınıń tiykarǵı qurallarınan biri. Qızǵın gúrrińler, túsindiriwler, xoshametlew hám zárúr jaǵdaylarda durıs baǵdarlanǵan talaplar arqalı bala óz is-háreketlerinańlawdı úyrenedi. Ásirese, ata-ananıń balanı tıńlawı, onıń pikirine húrmet penen qarawı hám unamlı is-háreketlerin qollap-quwatlawı balada ózine isenim hám juwapkershilik sezimin rawajlandıradı. Bul bolsa oniń ádep-ikramlılıq jetiklikke erisiwinde áhmiyetli faktor bolip xizmet etedi.

Sonıń menen birge, mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi hám shańaraq arasındaǵı birge islesiwdi bekkemlew ádep-ikramlılıq tárbiyasınıń nátiyjeliligin jáne de arttıradı. Tárbiyashı hám ata-ananıń birden-bir kózqaras tiykarında jumıs alıp barıwı, tárbiyalıq maqsetlerdiń úylesimliligi balada turaqlı ádep-ikramlılıq kónlikpelerdi qáliplestiriw imkaniyatın beredi. Máselen, baqshada úyretilgen minez-qulıq qaǵıydaları úyde de qollap-quwatlansa, bala olardı tezirek ózlestiredi hám kúndelikli turmısında qollay baslaydı. Sonıń ushın ata-analar menen turaqlı baylanıs, másláhátlesiwler, seminarlar hám birgeliktegi ilajlardı shólkemlestiriw áhmiyetli pedagogikalıq shártlerden biri sıpatında qabıl yetiledi [4, 52].

Juwmaqlap aytqanda, mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń ádep-ikramlılıq tárbiyasın qáliplestiriw kompleksli qatnastı talap etedi. Bul processte milliy qádiriyatlar tiykarında tárbiya beriw, zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalardan paydalanıw hám shańaraq hám bilimlendiriw mákemesiniń birge islesiwin támiyinlew arqalı joqarı nátiyjelilikke erisiw múmkin. Nátiyjede, jámiette belsendi, ruwxıy jetik hám milliy qádiriyatlarǵa sadıq áwladtı tárbiyalaw imkaniyatı jaratıladı.

Paydalanilgan ádebiyatlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
3. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
4. Xasanboyeva O.U. Oila pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2018.

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TALIMDA ZAMONAVIY TALIM TENDENTSIYALARI

Abdujabborova Baxtigul - Innovatsion Texnologiyalar Universiteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635989

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimida uzatilayotgan zamonaviy tendensiyalar tahlil qilinadi. Xususan, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interfaol metodlardan foydalanish, STEAM yondashuvi asosida , raqamli ta’lim vositalarining ahamiyati va o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, ta’limning hayot bilan integratsiyasi va o‘qituvchi kompetensiyasining zamonaviy talablarga mos ravishda shakllanishi haqida fikr yuritiladi. Maqola ta’lim sifatini oshirishda zamonaviy yondashuvlarning muhimligini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: STEAM yondashuvi , interfaol metodlar, integratsiya, raqamli ta’lim, innovatsion pedagogic texnologiya, sifatli ta’limda zamonaviy yondashuv

Annotation. This article analyzes modern trends in preschool and primary education systems. It highlights the implementation of innovative pedagogical technologies, the use of interactive teaching methods, the STEAM approach, and the importance of digital learning tools. The development of students’ independent thinking and the integration of education with real-life contexts are also discussed. In addition, the article emphasizes the need for teachers to develop competencies in line with modern educational requirements. It justifies the significance of modern approaches in improving the quality of education.

Keywords: STEAM approach, interactive methods, integration, digital education, innovative pedagogical,technology, modern approach in quality education

Kirish

Bugungi kunda ta’lim tizimi jadal rivojlanib bormoqda , zamonaviy talablar asosida takomillashib , ayniqsa, maktab va boshlang‘ich ta’lim bosqichi inson shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va yangi metodlar keng qo‘llanilmoqda. Asosiy jihatlarini sanab o ‘tamiz:

1. Ta’limni raqamlashtirish

Hozirgi davrda ta’lim tizimiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilmoqda. Elektron darsliklar, onlayn platformalar, masofaviy ta’lim

tizimlari o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlari kengaygan. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim

Zamonaviy ta’limda har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, qobiliyati va qiziqishlari hisobga olinadi. O‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi va motivator rolini bajaradi. Bu yondashuv o‘quvchining ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

3. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv

An’anaviy bilim berishdan farqli ravishda, zamonaviy ta’limda o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish muhim hisoblanadi. O‘quvchilar o‘rganilgan bilimlarni real hayotda qo‘llay olishlari kerak. Mustaqil qaror qabul qila olishi muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yechim topa olishiga xizmat qiladi.

4. Interfaol metodlar va innovatsion texnologiyalar

Dars jarayonida interfaol usullar — “aqliy hujum”, “klaster”, “rol o‘ynash”, “muammoli vaziyatlar” kabi metodlar qo‘llaniladi. Bu usullar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va faol ishtirokini ta’minlaydi. Darsning samaradorlgini ko‘rsatadi.

5. Inklyuziv ta’lim

Zamonaviy ta’lim tizimi barcha bolalar uchun teng imkoniyat yaratishga intiladi. Aynan inklyuziv ta’lim nogironligi bo‘lgan yoki alohida ta’lim ehtiyojlariga ega o‘quvchilar ham umumiy ta’lim jarayoniga jalb etilmoqda.

6. STEAM ta’limi

Fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika yo‘nalishlarini birlashtirgan STEAM ta’limi boshlang‘ich bosqichdan joriy etilmoqda. Bu yondashuv o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Zamonaviy ta’lim — bu o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan, innovatsion texnologiyalar va yangi pedagogik yondashuvlarga asoslangan asosiy ta’lim tizimidir.

Uning asosiy maqsadi:

- mustaqil fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash;
- muammolarni hal qila oladigan kompetent kadrlar tayyorlash;
- hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish.

Xulosa

Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim tizimida zamonaviy tendensiyalarni joriy etish ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, STEAM yondashuvi va raqamli vositalardan samarali foydalanish orqali o‘quvchilarning bilim olish jarayoni yanada samarali tashkil etiladi. Kelajakda barkamol avlodni tarbiyalash uchun ushbu yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda masalan:

- yangi o‘quv dasturlari joriy etilishi;
- maktablar zamonaviy texnika bilan jihozlanishi;

- o‘qituvchilar malakasi oshirilishi;
- xorijiy tajribalar o‘rganilishi.

Shuningdek:

- raqamli ta’lim platformalari rivojlanmoqda;
- yangi darsliklar ishlab chiqilmoqda;
- innovatsion maktablar tashkil etilmoqda.

Bunda asosiy maqsad maktab va boshlang‘ich ta’limda zamonaviy tendensiyalar ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish. Raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv va STEAM ta’limi o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi. Kelajakda ta’lim tizimi yanada takomillashib, innovatsion va samarali shaklga ega bo‘lishi kutilmoqda. Bu esa jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1 O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.

2 Maktabgacha va Boshlang ‘ich ta’lim jarayonida uzviylikni ta’minlashning metodik imkoniyatlari o‘quv qo ‘llanma 2022 y

3 ‘‘Maktabgacha pedagogika” SH.Sodiqova Toshkent 2013 y

OQÍWSHÍLARDÍŃ QÁBILETIN ERTE ANÍQLAW

Pirimbetov Baxit Allabaevich - Innovatsion texnologiyalar universiteti “Mektepke shekemgi hám baslawısh tálim” kafedrası dotsent w.w.a, p.i.f.d, (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.19636041

Annotaciya: Bul maqalada balalardıń qábiletin asırıwda rawajlanıw procesin anıqlaw bilimge qızıqtırıw usılları boyınsha maǵlıwmatlar keltirilgen.

Gilt sózler: Búgingi kúnde jámiyet rawajlanıwı menen jaslarıń qábiletin anıqlaw hám olarǵa sharayatlar jaratıw, rawajlanıw procesin tuwrı ańlawı, ózinshe sheshimge kele alıwı.

Annotation: This article provides information on methods for identifying the developmental process in the development of children's abilities and stimulating their interest in knowledge.

Key words: Today, with the development of society, identifying the abilities of young people, creating conditions for them, correctly understanding the development process, and the ability to make independent decisions.

Qábiletli balalar – bul ulıwma yamasa arnawlı talantqa (muzıkaǵa, súwretshilkke, texnikaǵa hám.t.b) iye balalar. Hámmesinen burın kórimlik talantqa iye balalardı anıqlaw ańsat. Ilim tarawında matematikaǵa uqıptı tez anıqlawǵa boladı. Júdá erte aqılı jaǵınan rawajlanǵan balalardı vunderkind dep ataydı. Biraq balanıń júdá erte anıqlanǵan uqıpları keleshektegi talantınıń girewi bola almaydı. Balanıń ájáyıp uqıplarınıń belgileri jasına baylanıslı. Uqıptıń bahası tek testke ǵana tiykarlanbawı tiyis. Uqıptı anıqlaw hám rawajlandırıwǵa arnawlı mektepler (máselen: muzika, matematika mektepleri) fakultet sabaqlar, hár qıylı

dógerekler, studiyalar, olimpiadalar, kózden ótkeriwler járdemlesedi. Bunday balalardı oqıtıw formaları olardıń múmkinshiliklerine sáykes keliwi kerek.

Qábiletlilik – bul uqıplardıń óz betinshe úylesimi, ol jumıstıń tabıslı orınlanıwın táminleydi; bul ulıwma uqıpları, ol adamnıń keń múmkinshiliklerin kórsetsedi: bul aqıl potenciyalı yamasa intellekt, biliw uqıpları menen bilimge bolǵan uqıplardıń bir pútin jeke sıpatlaması: bul tábiyat inam etken uqıplardıń jıyındısı.

Hár qıylı adamlar menen kúndelikli turmısta ushırasqanda, bul adamlar bir – birinen óziniń uqıplılıǵı boyınsha ajıralatuǵının bayqaymız.

«Qábiletlilik yamasa ziyreklik» termini turmısta keń qollanıladı. Ol zeyin túrinde rawajlanıw ushın organikalıq tiykarlarǵa iye boladı.uqıplar kóp qırlı boladı, olar hár túrli baǵdarda rawajlanıwı múmkin.

Uqıplardıń nesheden neshege ótiwin dálillew ushın áwladtaǵı ziyreklikti izertlew kerek. Biraq adamnıń uqıplılıǵı onıń násilliligiń tikkeley funkciyası bolıp tabılmaydı. Násillikten kelip shıqqan hám keyin ala iyelegen uqıplar bir tutas birligin quraydı. Soniń ushın adamnıń qandayda bir konkret psixologiyalıq qásiyetin tek násillike jatqarıw bolmaydı. Ekinshiden, násilden násilge psixikalıq qásiyetler emes, al olar rawajlanıwınıń organikalıq qásiyetleri ǵana ótiwi múmkin. Olar adamlardıń zeyinliligin belgilemeydi.

Biz qábiletliliktiń násilden násilge ótiwi haqqánda sóz etemiz. Bul túsiniklerdi ajáratáw zárúr.

Adamlar ózleriniń násilden ótken uqápları menen ǵana emes, al ózleriniń turmısta iyelegen uqıpları menen de anaǵurlım ózgeshelenedi.

Qábiletlilik hár qıylı psixofizikalıq qásiyetler menen psixikalıq procesler tiykarında rawajlanadı. Ol – quramalı sintetikalıq dúzilis, ol óziniń ishine bir qatar maǵlumatlardı qamtıp aladı.

Qábiletliktiń rawajlanıw barısında uqıp penen epshillik arasındaǵı dialektika anaǵurlım orın tutadı. Uqıplıq penen epshillik, álbette, bir nárse emes, biraq olar bir – biri menen tıǵız baylanıslı. Birinshiden, ilim – bilimlerdi iyelew belgili dárejede uqıplardıń bolatuǵının názerde tutadı, ekinshiden qandayda bir iske uqıplı qáliplestiriwdiń ózi onıń menen baylanıslı ilim – bilimlerdi iyelewdi názerde tutadı. Bul ilim – bilimler olardı adam iyelemegenge shekem onıń uqıplıǵı ushın sırtqı kórinis bolıp qaladı. Olardı iyelegennen keyin, olar sırttan iyelengen ilim – bilim bolıp qalmastan, jeke iyelikke aylanadı, sonıń menen birge uqıplardı rawajlandırıwǵa járdemlesedi. Máselen, belgili bilimler sisteması materiyalında ulıwmalastırıw, oylanıw usılların anıq ózlestirgen sayın adamda belgili epshillik toplanıp qalmastan, al belgili uqıplar da qáliplesedi. Haqıyqıy bilimlendiriw procesi sıpatındaǵı oqıw ápiwayı shınıǵıwdan ózgeshelenedi: onda epshillik hám bilimler arqalı zeyinlik qáliplesedi.

Qábiletli balalardı tańlaw 2 basqıshta alıp barılıwı kerek.

Birinshi basqıshta:

- topar oqıwshıların jaqsı bilgen, balalar húrmetine miyassar bolǵan oqıtıwshı yaki psixolog oqıwshılar menen sáwbetke kirisedi:

- oqıwshılardıń qábiletleri hám qızıǵıwshılıqları boyınsha bir – birine bergen bahaları úyreniledi:

- ata – analardıń perzentleriniń qızıǵıwshılıǵı boyınsha pikirleri alınadı:

Bul maǵlıwmatlar arnawlı anketa hám sorawnamalar járdeminde alınadı (topar tapqırların tańlaw metodikası).

Soǵan tiykarlanıp topar quramındaǵı oqıwshılardıń qızıǵıwshılıq hám umtılıwları haqqındaǵı maǵlumatlar korreliyacion analizlenedi hám uyımlastırıladı. Birinshi basqıshta ulıwma analiz alınıp atırǵan oqıwshılar arasınan umtılıwı, qızıǵıwı, aqlıy rawajlanıwı boyınsha joqarıdaǵı kórsetkishlerge iye bolǵanları saylap alınadı hám belgili bir baǵdarǵa ajıratıladı.

Bular tómendegiler:

1. Anıq pánler;
2. Tábiyiy pánler;
3. Gumanitar pánler;
4. Kórkem talant tarawı (muzika, súwretshilik t.b.);
5. Sociyal taraw;
6. Tillerge (invistikaliq qábiletler);
7. Basqarıw tarawı, pedagogika tarawı.

Jeti baǵdardıń hár birinen topardıń aldıńǵı aqılıy rawajlanıwı ústin hám qábiletli oqıwshısı anıqlanadı. Bir toparda bunday oqıwshılar sanı kópshilikti qurawı múmkin, bazıda talapqa juwap beriwshi birde – bir oqıwshı shıqpawıda múmkin.

Alınǵan maǵlumatlar bilimlendiriw mekemesi boyınsha jıynalǵanda, jeti baǵdardıń hár birinde óz qızıǵıwı hám baǵdarlanǵanlıǵı menen ajıralıp turatuǵın aktiv oqıwshılar dizimi júzege keledi. Joqarıda kórsetip ótilgen jeti baǵdar boyınsha arnawlı tayarlanǵan hár bir neshe basqısh dawam ettiriledi.

Ekinshi basqıshta:

- toparda saylanǵan aldaǵı, aktiv, aqılıy rawajlanıwı ústin hám qábiletli oqıwshılar menen baǵdarları boyınsha tereńlestirilgen psixologiyalıq diagnoz ótkeriledi.

Qábiletlilerdi úyreniw psixologiyalıq diagnoz procesi tómendegilerge tiykarlanadı:

1. Aqılıy qábiletti ólshew (ulıwma intellettiń joqarılıǵı):
2. Dóretiwshilik qábiletin ólshew (dóretiwshiliktiń ústinligi):
3. Pánlerdi ózlestiriw boyınsha erisken jetiskenlikleri (reytiń nátiyjeleri, bahalardıń joqarılıǵı):
4. Aqılıy hám dóretiwshilik qábiletlerinen kelip shıǵıp berilgen tapsırmalarǵa jantasıwı:
5. Sociyal maslasqanlıǵın anıqlaw (qarım – qatnasqa kirisiwsheńligi):
6. Jeke qásiyetlerdi anıqlaw (individual psixologiyalıq qásiyetleri):
7. Oqıwshıǵa oqıtıwshılardıń, ata – analardıń hám olardıń bir- birine qábiletleri, qızıǵıwshılıǵı boyınsha bergen bahalarınıń mas keliwi.

Joqarıdaǵılardıń hár biri boyınsha aqılıy rawajlanıwı ústin hám qábiletli oqıwshı anıqlanadı. Saylap alınǵan oqıwshılar haqqındaǵı maǵlıwmat bilimlendiriw mekemesi boyınsha jıynalıp, 7 baǵdardıń hár birinde óz qızıǵıwı hám baǵdarlanǵanlıǵı menen ajıralıp turatuǵin aktiv oqıwshılar dizimi júzege keledi. Qábiletli dep tabılǵan oqıwshılardı hár tárepleme qollap – quwatlaw

boyınsha arnawlı dástúr islep shıǵıwı lazım. Bunda hár bir oqıwshıǵa qızıqlı hám aqılıy rawajlanıwın támiynlew maqsette keń imkaniyatlar hámde shárt-sharayatlar maqsetke muwapıq.

Qábiletliliktiń birinshi kórinisi balalardıń jas waqıtlarınanaq belgili boldı. Tábiyattan qábiletli bala basqa teńleslerine salıstırǵanda óziniń aqılıy rawajlanıwınıń ozıp ketiwi menen ajıralıp turadi. Bul balalarǵa sóylewdiń erte payda bolıwı hám júdá kóp bolǵan leksika baylıǵına iye bolıwı, aqılıy xızmetten sharshamaw, yaǵnıy olardıń túrli aqılıy xızmetlerden qızıǵıwshılıq penen izleniwleri qabıl etiwleri. Olardıń qızıǵıwshılıqları ózgerip turıwı múmkin, biraq aktivliktiń joqarılıq dárejesi hár dayım turaqlılıqtı joytpaydı. Bularda aqılıy izleniwshilik ıqtıyarsız ráwishte júzege keledi. Qábiletli balalar pikirlew procesi tez bolıwı, analizlew hám ulıwmalastırıw qábiletiniń bar ekenligi menen ajıralıp turadı. Olar dógerek – átirapta júz berip atırǵan waqıyalarǵa qızıǵıwshań bolıp, dóretiwshilik sıpatları kórinedi. Qábiletli talabalardiń este saqlawları júdá jaqsı rawajlanǵan bolıp, olar uzaq múddetke shekem bolıp ótken waqıya hádiyselerdi, kórgen – bilgen nárselerin eslep qalıw hám kerek waqıtta onı jáne qayta islewde tiklew imkaniyatlari keń boladı. Qábiletli balalar úlkenlerge salıstırǵanda unamlı hám unamsız tásirge qıyınlıǵı menen ajıralıp turadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi

1. Давлетшин М.Г., Дустмухамедова Ш., Мавлонов М., Туйчиева С. Ёш даврлари ва педагогик психология. Ўқув методик қўлланма. –Тошкент, 2004.
2. Давлетшин М.Г., Туйчиева С.М. Умумий психология. –Тошкент, 2002.
3. Давлетшин М.Г. Замонавий мактаб ўқитувчиси психологияси. –Тошкент1998.
4. Гозиев Э.Г. Психология. –Тошкент, 1994.

PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI VA UNI AMALIYOTGA TATBIQ ETISH USULLARI.

Ashurova Xurshida Asrorovna - Innovatsion texnologiyalar universiteti “Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim kafedrasi”assistent o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636085

Annotatsiya. Mazkur maqolada PISA xalqaro baholash dasturining nazariy asoslari, uning ta’lim tizimidagi o‘rni hamda o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishdagi ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, PISA dasturini milliy ta’lim tizimiga samarali tatbiq etishning metodik yondashuvlari, pedagogik shart-sharoitlari va innovatsion usullari ilmiy asosda tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida PISA talablari asosida ta’lim jarayonini tashkil etish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini hamda raqobatbardoshligini oshirishi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: PISA, xalqaro baholash, funksional savodxonlik, kompetensiya, ta’lim sifati, muammoli ta’lim, innovatsion metodlar, baholash tizimi

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the PISA international assessment program, its role in the education system, and its importance in developing students’ functional literacy. It also examines methodological approaches, pedagogical conditions, and innovative methods for effective implementation of PISA in the national education system. The study concludes that organizing the educational process based on PISA requirements enhances students’ critical thinking, problem-solving skills, and competitiveness.

Key words: competency-based approach, functional literacy, assessment, education quality.

Zamonaviy globallashuv sharoitida ta’lim tizimini takomillashtirish va uning sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Ta’lim sifati nafaqat o‘quvchilarning nazariy bilim darajasi, balki ularning real hayotiy vaziyatlarda bilimlarini qo‘llay olish, mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish kompetensiyalari bilan belgilanadi.

Shu nuqtai nazardan, xalqaro baholash dasturlari, xususan, PISA (Programme for International Student Assessment) tadqiqoti muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur dastur o‘quvchilarning funksional savodxonligini baholash orqali ta’lim tizimining samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalaniladi:

- nazariy tahlil (ilmiy adabiyotlar va xalqaro hisobotlarni o‘rganish);
- qiyosiy tahlil (turli mamlakatlar PISA natijalarini solishtirish);
- tizimli yondashuv (ta’lim jarayonini kompleks tahlil qilish);
- umumlashtirish metodi.

1. PISA dasturining nazariy-metodologik asoslari

PISA dasturi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan 2000-yildan boshlab amalga oshirilmoqda. Tadqiqot har uch yilda bir marotaba o‘tkazilib, unda 15 yoshli o‘quvchilarning quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha funksional savodxonligi baholanadi:

- o‘qish savodxonligi;
- matematik savodxonlik;
- tabiiy-ilmiy savodxonlik.

PISA dasturining asosiy xususiyati shundaki, u bilimlarni eslab qolishni emas, balki ularni turli hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish kompetensiyasini baholaydi. Shu sababli topshiriqlar real hayotiy kontekstga asoslangan bo‘lib, o‘quvchilardan tahliliy va tanqidiy fikrlash talab etiladi.

2. PISA dasturining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati

PISA natijalari mamlakatlarning ta’lim tizimini xalqaro miqyosda baholash imkonini beradi. Ushbu natijalar quyidagi vazifalarni hal etishda muhimdir:

- ta’lim sifatini aniqlash va monitoring qilish;
- o‘quv dasturlarini takomillashtirish;
- ta’lim siyosatini ilmiy asosda ishlab chiqish;
- o‘qitish metodikasini modernizatsiya qilish.

PISA orqali olingan ma’lumotlar ta’lim tizimida chuqur islohotlarni amalga oshirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

3. PISA dasturini amaliyotga tatbiq etishning asosiy yo‘nalishlari

3.1. Kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa sifatida belgilanadi.

3.2. Muammoli ta’lim texnologiyasidan foydalanish

Muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

3.3. Fanlararo integratsiya

Turli fanlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlash orqali o‘quvchilarda kompleks bilimlar shakllantiriladi.

3.4. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash

Interfaol metodlar, AKT vositalari va zamonaviy texnologiyalar dars samaradorligini oshiradi.

3.5. Baholash tizimini takomillashtirish

- ochiq savollar ulushini oshirish;
- tahliliy topshiriqlarni joriy etish;
- formatif baholashdan foydalanish.

4. PISA dasturini joriy etishda uchraydigan muammolar

- an’anaviy ta’lim metodlarining ustunligi;
- pedagoglarning metodik tayyorgarligi yetarli emasligi;
- o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarining sustligi;
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mazkur ko‘nikmalarni shakllantirish an’anaviy ta’lim metodlari doirasida yetarli darajada samarali bo‘lmasligi mumkin. Chunki an’anaviy yondashuv ko‘proq reproduktiv faoliyatga, ya’ni tayyor bilimlarni yod olish va takrorlashga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bu esa o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini cheklaydi. Shu nuqtai nazardan, kreativ yondashuvni ta’lim jarayoniga joriy etish zarurati yuzaga keladi. Kreativ yondashuv o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini ochib berish, ularni faol fikrlashga undash va bilimlarni mustaqil ravishda kashf etishga yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Kreativ yondashuvning asosiy mazmuni o‘quvchilarni noodatiy fikrlashga rag‘batlantirish, muammolarga turli nuqtai nazardan qarashga o‘rgatish va yangi g‘oyalarni ilgari surishga undashdan iboratdir. Bunday yondashuvda o‘qituvchi markaziy subyekt sifatida emas, balki o‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil

etuvchi va boshqaruvchi fasilitator rolini bajaradi. Natijada o‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida ta’lim jarayoniga jalb etiladi. Bu esa uning fikrlash faoliyatini sezilarli darajada faollashtiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tizimli fikrlashni rivojlantirish mexanizmi bir qator o‘zaro bog‘liq pedagogik shart-sharoitlar va metodik vositalarni o‘z ichiga oladi. Avvalo, ta’lim mazmuni tizimli yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Ya’ni o‘quv materiallari alohida mavzular yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan bilimlar tizimi sifatida taqdim etilishi zarur. Bu esa o‘quvchilarga bilimlarni yaxlit holda idrok etish imkonini beradi. Masalan, matematika fanida sonlar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish jarayonida ularni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash, ona tili darslarida esa matn mazmunini tahlil qilish orqali umumiy g‘oyani aniqlash tizimli fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kreativ yondashuvni amalga oshirishda muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Muammoli vaziyatlar o‘quvchilarni mustaqil izlanishga undaydi, ularni fikrlashga majbur qiladi va bilimlarni faol o‘zlashtirishga yordam beradi. Bunday vaziyatlarda o‘quvchilar tayyor javobni qabul qilmaydi, balki o‘zlari muammoni hal qilish yo‘llarini izlaydi. Bu jarayon esa ularning mantiqiy, tahliliy va tizimli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Muammoli topshiriqlar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi, ularni faol o‘rganishga undaydi va natijada ta’lim samaradorligini oshiradi.

Interaktiv metodlardan foydalanish ham tizimli fikrlashni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Guruhli ishlar, juftlikda ishlash, bahs-munozaralar, “aqliy hujum” kabi usullar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifodalaydi, boshqalarning fikrlarini tinglaydi va ularni tahlil qiladi. Bu jarayon o‘quvchilarda nafaqat fikrlash, balki muloqot qilish, o‘z fikrini asoslash va himoya qilish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bunday faoliyat turlari qiziqarli bo‘lib, ular orqali bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni yanada samarali kechadi.

Vizual vositalardan foydalanish tizimli fikrlashni rivojlantirishning muhim elementlaridan biridir. Diagrammalar, sxemalar, jadvallar va intellekt xaritalari orqali o‘quvchilar murakkab ma’lumotlarni osonroq anglaydi va ularni tizimlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Vizual axborot o‘quvchilarning xotirasida uzoq vaqt saqlanadi va ularni qayta tiklash jarayoni ham oson kechadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda vizual metodlardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Fanlararo integratsiya ham tizimli fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Turli fanlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatish orqali o‘quvchilar dunyoni yaxlit tizim sifatida idrok etadi. Masalan, tabiatshunoslik darslarida o‘rganilgan mavzularni matematika yoki ona tili bilan bog‘lash orqali o‘quvchilar bilimlarni chuqurroq anglaydi. Bu esa ularning fikrlash doirasini kengaytiradi va tizimli fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tizimli fikrlashni rivojlantirishda o‘yin texnologiyalarining o‘rni ham beqiyosdir. O‘yin faoliyati bolalar uchun tabiiy ehtiyoj hisoblanadi va aynan shu faoliyat orqali ular atrof-muhitni o‘rganadi. Didaktik o‘yinlar orqali o‘quvchilar murakkab tushunchalarni oson va qiziqarli

tarzda o‘zlashtiradi. O‘yin jarayonida ular qaror qabul qilish, strategiya ishlab chiqish va natijalarni baholash kabi faoliyatlarni amalga oshiradi, bu esa tizimli fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kreativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan pedagogik mexanizmning samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilishi, ularni amaliyotda qo‘llay olishi va o‘quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olishi zarur. Shuningdek, o‘qituvchi ijodiy fikrlashi, yangilikka ochiqligi va doimiy ravishda o‘z ustida ishlashi bilan ajralib turishi lozim. Chunki kreativ yondashuvni samarali amalga oshirish ko‘p jihatdan o‘qituvchining shaxsiy fazilatlariga bog‘liq.

Baholash jarayoni ham tizimli fikrlashni rivojlantirish mexanizmining ajralmas qismi hisoblanadi. An’anaviy baholash usullari ko‘proq o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlashga qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuvda ularning fikrlash faoliyatini ham baholash muhim hisoblanadi. Shu sababli ijodiy topshiriqlar, loyihaviy ishlar, muammoli vaziyatlarga asoslangan savollar orqali baholash tizimini takomillashtirish zarur. Bu esa o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki ularning fikrlash darajasini ham aniqlash imkonini beradi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, kreativ yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tizimli fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta’limning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish orqali o‘quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va kelajakda muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllanishiga erishish mumkin. Tizimli fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan o‘quvchi nafaqat ta’lim jarayonida, balki kundalik hayotda ham muvaffaqiyatli faoliyat yuritadi, turli muammolarni samarali hal qila oladi va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti.* – Toshkent: Fan, 2010.
3. Sayidahmedov N. *Yangi pedagogik texnologiyalar.* – Toshkent: Moliya, 2003.
4. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
5. Xoliqov A. *Pedagogik mahorat.* – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2011.
6. Ishmuhamedov R. *Ta’limda innovatsion texnologiyalar.* – Toshkent

BOSHLANG’ICH SINF O’QUCHILARI NUTQ MADANYATINI RIVOJLANTIRISH YO’LLARI

Abdullaeva L, Amantagova O. - Innovatsion texnologiyalar universiteti “Maktabgacha va boshlang‘ichta’lim” kafedrasi assistent o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635985

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishda til me'yorlariga rioya qilish, lug'at boyligini oshirish, ravon va ifodali so'zlash ko'nikmalarini shakllantirish muhimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, ona tili darslarida qo'llaniladigan samarali metod va usullar, interfaol yondashuvlar hamda mashq turlarining nutq madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, nutq madaniyati, og'zaki nutq, yozma nutq, lug'at boyligi, interfaol metodlar.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgach, o'rta ta'lim muassasalari, xususan, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari ta'limi tuzilmasi va mazmunini tubdan yaxshilash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi tasdiqlanib, u "milliy va umumbashariy ma'naviy qadriyatlar, mehnat ko'nikmalari, ijodiy tafakkur, tevarak olamga va kasb tanlashga ongli munosabat negizida fan asoslari bo'yicha tizimli bilimlar olinishini ta'minlash, bilimlarni o'zlashtirishga ehtiyojni kuchaytirish, tayanch o'quv, ilmiy va umummadaniy bilimlar, ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish"ga yo'naltirilgan.

Xususan, boshlang'ich sinflarda nutq madaniyatini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Nutq to'g'riligi ustida ishlash boshlang'ich sinf O'quvchilarining nutq madaniyatini takomillashtirish o'qituvchining o'quv-uslubiy faoliyatidagi asosiy yo'nalishlardan biri sanaladi. Nutq madaniyatini shakllantirish masalasi uzoq o'tmish Sharq mutafakkirlari ijodida ham markaziy o'rin egallagan. Forobiy to'g'ri so'zlash, mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq sohibi bo'lish haqida shunday deydi: - Qanday qilib ta'lim berish va olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so'rash va qanday javob berishga kelganimizda, bu haqidagi ilmlarning eng birinchisijismlarga, ya'ni substansiya (mustaqil, o'z-o'zidan mavjud) va aksidensiya (tasodifan namoyon)lariga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman.

Nutq - inson tafakkuri va madaniyatining ko'zgusidir. Ayniqsa boshlang'ich sinf davri bolaning nutqi shakllanadigan, boyiydigan va to'g'ri yo'naltiriladigan eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini rivojlantirish ta'lim-tarbiya jarayonining ustuvor vazifalaridan biridir. Nutq madaniyati deganda o'quvchining fikrini grammatik jihatdan to'g'ri, ravon, aniq va odob doirasida ifodalay olishi tushuniladi. Bu jarayon faqatgina so'z boyligini oshirish bilangina cheklanmaydi, balki to'g'ri talaffuz, mantiqiy fikrlash, nutq odobi va muloqot madaniyatini ham o'z ichiga oladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati juda kattadir.Chunki nutqi rivojlangan bola darslarda o‘z fikrini erkin bayon qila oladi, savollarga aniq javob beradi, matn mazmunini to‘g‘ri tushunadi va yozma nutqni ham puxta egallaydi. Bundan tashqari, nutqi rivojlangan o‘quvchida o‘ziga bo‘lgan ishonch kuchayadi, muloqot jarayonida faol bo‘ladi va jamoadagi o‘rni mustahkamlanadi. Nutq madaniyatini rivojlantirishda og‘zaki nutq ustida ishlash muhim o‘rin tutadi.

O‘quvchilar bilan suhbatlar tashkil etish, savol-javoblar o‘tkazish, rasm asosida hikoya tuzdirish, o‘qilgan matnni qayta hikoyalash kabi mashqlar bolalarning nutqini faollashtiradi. Ayniqsa, rolli o‘yinlar va dialoglar orqali bolalar kundalik hayotda zarur bo‘lgan muloqot ko‘nikmalarini egallaydilar.
Lug‘at boyligini oshirish nutq madaniyatining asosiy shartlaridan biridir.

Dars jarayonida yangi so‘zlarning ma’nosini tushuntirish, ularni gaplarda qo‘llatish, sinonim va antonimlar bilan ishlash o‘quvchilarning so‘z zahirasini boyitadi. Maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar esa bolalarning nutqini qiziqarli va ta’sirchan qiladi.

To‘g‘ri talaffuzni shakllantirishda tez aytish mashqlari, tovushlarni farqlashga doir topshiriqlar muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o‘qituvchining namunali nutqi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘qituvchi har bir so‘zni to‘g‘ri talaffuz qilib, o‘quvchilarga o‘rnak bo‘lishi lozim.Nutq madaniyatining yana bir muhim jihati nutq odobidir. Boshlang‘ich sinfda o‘quvchilarga salomlashish, minnatdorchilik bildirish, navbat bilan gapirish, suhbatdoshni hurmat qilish kabi ko‘nikmalarni singdirish zarur. Bu esa bolalarning nafaqat nutqini, balki axloqiy tarbiyasini ham... Natijada o‘quvchilarning lug‘at boyligi oshadi. To‘g‘ri va ravon gapirish ko‘nikmasi rivojlanadi. Mantiqiy fikrlash va ijodkorlik kuchayadi. O‘zaro muloqotda ishonch oshadi. Bu usullar birlashtirilsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyati samarali rivojlanadi.

Ona tilini namunalar va maxsus mashqlar asosida amaliy, muntazam va izchil o‘rgatish orqali adabiy-badiiy nutq shaklini shakllantirib borishni taqozo qiladi. Boshlang‘ich ona tili darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarni o‘quvbiluv faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqotga kirisha oladigan, o‘z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Darsdan tashqari faoliyatlar ham nutq madaniyatini rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. She’r yodlash, ertak aytish, sahnalashtirish, kitobxonlik tadbirlari o‘quvchilarning nutqini boyitadi va ifodali gapirishga o‘rgatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish ularning tilini boyitish, to'g'ri talaffuz, mantiqiy fikrlash va o'z fikrini ravon ifodalash qobiliyatini oshirishni o'z ichiga oladi. Bu esa o'yinlar, dialoglar, she'r va hikoyalar o'qish-yozish mashqlari, interaktiv darslar orqali amalga oshiriladi, natijada o'quvchilar o'zaro muloqotda, ijodiy va professional faoliyatda muvaffaqiyat qozonadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish usullariga quyidagi o'yin va mashqlarni misol keltirish mumkin: "Kim tez topadi?" (Savol-javob o'yini) – o'quvchilar tez va to'g'ri javob berishni o'rganadi. "Savol javob" (Dialoglar) – juftliklarda yoki kichik guruhlarda suhbatlashish, savol berish-javob berishni mashq qilish. "So'z o'yini" (Masalan, "Kimdir nimadir haqida gapiradi, boshqasi uni topadi") - lug'at boyligini oshiradi.

O'qish va hikoya qilishga esa: Sahnaga o'qish (deklamatsiya): She'rlar, ertaklar o'qish orqali ovoz balandligi, ohangi va talaffuzni takomillashtirish. "O'zim hikoya qilaman" (O'z fikrini bayon etish): O'qilgan matnlar asosida o'z fikrini ifodalash, hikoyani davom ettirish.Interaktiv darslarga: Debatlar va munozaralar (yoshga mos): Oddiy mavzular atrofida o'z fikrini himoya qilish va tinglashga o'rgatish. Rolli o'yinlar (Ролевые игры): Vaziviy o'yinlar orqali ijtimoiy

muloqot malakalarini oshirish.Yozma mashqlarga: "Rasmga qarab hikoya yozish/gapirish": Vizual materiallardan foydalanib, izchil hikoya tuzishga o'rgatish. "Xat yozish" (Oddiy xat, tabrik): Yozma muloqot madaniyatini shakllantirish. O'qituvchining roli: O'quvchilarning gaplarini diqqat bilan tinglash. To'g'ri va boy til ishlatish (o'rnak ko'rsatish). Xato gaplarni to'g'irlashda tanbeh bermasdan, o'rniga to'g'ri gapni taklif qilish.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish - ularning intellektual va ma’naviy kamoloti uchun mustahkam poydevordir. Nutqi rivojlangan bola kelajakda bilimli, madaniyatlin va jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan shaxs bo‘lib voyaga yetadi. Shu bois har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi nutq madaniyatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muhiddinov A.G. O‘quv jarayonida nutq faoliyati. –T.: O‘qituvchi, 1995. 80-b.

2. Nisanbayeva A.Q. O‘zbek tili darslarida matn vositasida o‘quvchilar nutqini o‘stirishning metodik asoslari.

3. Nishonaliyev U.N. Ta’lim standarti va pedagogik innovatsiyalar // Xalq ta’limi jamiyati. –T.: 1999. 6-son. 28-31-b.

4. Nurullayeva Sh.U. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish metodikasi. Qarshi: 2008. 145 b.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING MADANIYATLARARO MULOQOT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING AHAMIYATI

Matberdieva Yulduz Bayramdurdievna - University of innovation technologies, Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi assistenti,

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636070

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta’lim tizimida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda aksiologik yondashuvning mazmuni, uning pedagogik ahamiyati hamda madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida qadriyatlar asosida tashkil etilgan darslar, axloqiy vaziyatli o‘yinlar, muhokamalar va ijodiy loyihalar orqali o‘quvchilarda hurmat, hamkorlik, empatiya va madaniy sezgirlik kabi fazilatlarni shakllantirish yo‘llari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: aksiologik yondashuv, madaniyatlararo muloqot, qadriyatlar, bag‘rikenglik, axloqiy tarbiya, kommunikativ kompetensiya.

Abstract. The article analyzes the content of the axiological approach to the formation of intercultural communication skills in primary school students in the modern education system, its pedagogical significance and possibilities in the development of intercultural competence. Ways to form such qualities as respect, cooperation, empathy, and cultural sensitivity in students through lessons, ethical situational games, discussions, and creative projects organized on the basis of values in the process of primary education are highlighted.

Key words: axiological approach, intercultural communication, values, tolerance, moral education, communicative competence.

Zamonaviy ta’lim tizimida yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish, uni turli madaniy muhitda samarali muloqot qila oladigan shaxs sifatida tarbiyalab voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari va ijtimoiy integratsiyaning kengayishi sharoitida, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatlararo muloqot nafaqat o‘quvchining til va nutq ko‘nikmalarini, balki ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini ham rivojlantiradi, jamiyatdagi o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik muhitini yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

Bu yosh davrida o‘quvchilar shaxsiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi bilan bir qatorda, ularning axloqiy va madaniy qadriyatlari ham shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, aksiologik yondashuv ta’lim jarayonini umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tizimli ravishda tashkil etish, o‘quvchilarda hurmat, bag‘rikenglik, hamkorlik va mas’uliyat kabi fazilatlarni tarbiyalashga, muloqot jarayonida ijtimoiy me’yorlar, axloqiy qadriyatlar va kommunikativ kompetensiyalarni qo‘llashni o‘rgatishga qaratilgan ilmiy-metodik vosita sifatida xizmat qiladi.

Aksiologik yondashuv – bu shaxsni rivojlantirish uchun pedagogik resurslardan foydalanish va ta’lim tizimini takomillashtirish istiqbollarini taklif qiladigan falsafiy-pedagogik strategiyadir [2, 7 b]. V.Tugarinov aksiologik yondashuvni ma’lum bir jamiyat va shaxs uchun zarur bo‘lgan, ularning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan obyektlar, hodisalar va ularning xususiyatlarini o‘z ichiga oladigan vosita sifatida tavsiya etadi [3, 71 b]. Aksiologik yondashuvning asosiy maqsadi shundan iboratki, bolalar muloqot jarayonida nafaqat til va xulq-atvor qoidalarini o‘rganadilar, balki hurmat, bag‘rikenglik, adolat va hamkorlik kabi qadriyatlarni anglay boshlaydilar. Shu tarzda, ular boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilayotganida empatiya va madaniy sezgirlikni namoyon etishga o‘rgatiladi. Masalan, dars jarayonida turli xalqlar haqidagi hikoyalar, multfilm va tasviriy materiallar orqali bolalar boshqa madaniyatlarning qadriyatlari bilan tanishtiriladi. Sinfda turli madaniyat vakillari bilan bog‘liq loyihalar va guruh ishlari amalga oshirilganida, bolalar bir-birleri bilan hamkorlik qilish, fikr almashish va qaror qabul qilish jarayonida madaniyatlararo qadriyatlarni qadrlashga o‘rganadilar. Natijada, o‘quvchilar nafaqat ma’lumotlarga ega bo‘lishadi, balki ijtimoiy muhitda to‘g‘ri muloqot qilish uchun zarur bo‘lgan axloqiy me’yorlarni ham shakllantiradi. Shuningdek, aksiologik yondashuv o‘quvchilarda shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bolalar o‘z xatti-harakatlarini boshqa odamlarning qadriyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda tashkil etishni o‘rganadilar.

Aksiologik komponent qadriyatli yo‘nalishlar shaklida namoyon bo‘lib, u o‘quvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida egallagan maxsus bilimlari hamda kommunikativ kompetensiyalarining rivojlanish darajasi bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bilan birga, mazkur bilim va ko‘nikmalarning shakllanishi aksiologik komponentning rivojlanishiga ham

bevosita ta’sir ko‘rsatadi. N.Yankinaning ta’kidlashicha, germenetiv, ijtimoiy-madaniy vaziyatlarni modellashtirish, muammoli o‘qitish, tadqiqotchilik ijodiy faoliyat metodlari, o‘quvchilarda jamoada samarali faoliyat yuritish, turli qadriyatlar va madaniyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, boshqa xalqlarning urf-odatlariga bag‘rikenglik ko‘rsatish, global miqyosda raqobatbardoshlikni ta’minlash hamda ko‘p madaniyatli muhitda muvaffaqiyatli ishlash kabi muhim kompetensiya va shaxsiy fazilatlarning rivojlanishiga xizmat qiladi [4].

“Madaniyatlararo kompetensiya” boshqa madaniyat odamlari bilan ularning qadriyatlari, me’yorlari, tasavvurlarini hisobga olish va og‘zaki hamda og‘zaki bo‘lmagan muloqotning kommunikativ jihatdan maqsadga muvofiq usullarini tanlash asosida o‘zaro ta’sir qilish qobiliyati sifatida qaraladi [1].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda aksiologik yondashuvni qo‘llash pedagogik amaliyotda bir qancha samarali usullar orqali amalga oshirilishi mumkin. Tadqiqotimiz davomida quyidagi amaliy chora-tadbirlar sinovdan o‘tkazildi:

1. **Madaniyatlararo o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida o**‘quvchilarga turli millatlarning bayramlari, urf-odatlari va odob-axloq qoidalari haqida qisqa hikoyalar va videomateriallar taqdim etildi. Shu orqali bolalarda boshqa xalqlarning madaniyatlarini qadrlash, hurmat qilish va qiziqish bilan yondashish ko‘nikmalari mustahkamladi.

2. **Axloqiy vaziyatli o‘yinlar va rolli mashqlar**: o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, turli madaniyat vakillari bilan muloqot qilish kabi rolli o‘yinlarni ijro etdilar. Bu mashqlar bolalarda hamdardlik, hurmat va muloqotda adolat tamoyillarini amaliy tarzda o‘rganishga yordam berdi.

3. **Qadriyatlar orqali muhokama**: darslarda “Do‘stlik”, “Hurmat”, “Yordam” kabi qadriyatlar misolida kichik muhokamalar tashkil etildi. O‘quvchilar turli madaniyatlarda bu qadriyatlar qanday ifodalanganini o‘rgandilar va o‘z tajribalarini boshqalar bilan baham ko‘rishdi.

4. **Ijodiy vazifalar va loyihalar**: bolalar turli millatlarning urf-odatlari yoki qadriyatlarini aks ettiruvchi rasmlar chizdi, she’rlar aytdi va qisqa hikoyalar yaratdilar. Ushbu faoliyat ular uchun o‘z fikrini madaniyatlararo kontekstda ifoda etish, ijodiy yondashuv va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini berdi.

Amaliy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, aksiologik yondashuv asosida olib borilgan darslar o‘quvchilarda madaniyatlararo muloqotga nisbatan ijobiy motivatsiya, axloqiy qadriyatlarni qadrlash va muloqot jarayonida samarali xulq-atvorni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda aksiologik yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot natijalarida aniqlandi. Ushbu yondashuv orqali bolalarda nafaqat turli madaniyatlar va urf-odatlarga nisbatan hurmat va qiziqish uyg‘onadi, balki ular axloqiy qadriyatlarni tushunish, hamkorlik qilish va muloqotda ijobiy xulq-atvorni shakllantirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar. Shuningdek, aksiologik yondashuv ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy

rivojlanishini rag‘batlantirib, kelajakda madaniyatlararo muloqotga tayyor, mehribon va mas’uliyatli fuqarolarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu bois, boshlang‘ich ta’limda aksiologik asosda madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida e’tiborga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

5. Кирьякова А.В. Развитие аксиологического потенциала личности в условиях университетского образования // Вестник Оренбургского государственного университета, 2006. –№ 1. – С. 6-14.

6. Серединцева А.С., Цыбанева В.А. Актуальные подходы в современном иноязычном образовании: учебное пособие / Волж. фил. Федер. гос. авт. образоват. учреждения высш. образования «Волгогр. гос. ун-т». – Волгоград : Сфера, 2023. – 132 с.

7. Сластенин В.А. Общая педагогика: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.А.Сластенин, И.Ф.Исаев, Е.Н.Шиянов; под ред. В.А.Сластенина. – В 2 ч. – М.: ВЛАДОС, 2003. – Ч. 1. – 288 с.

8. Янкина Н.В. Формирование межкультурной компетентности студентов университета: автореф. дис. ... д-ра пед. Наук. – Оренбург: Оренбург. гос. ун-т, 2006. – 39 с.

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHÓLKEMLERINDE XABAR TEXNOLOGIYALARÍNAN PAYDALANIWDIŃ ÓZINE TÁN ÓZGESHELIKLERI

Yuldasheva Shoxida Botirovna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti Mektepke shekemgi hám baslawısh tálim kafedrası assistent oqıtıwshısı

Kóshekbaeva Guldana Berikbaevna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti 1-kurs studenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636304

Annotaciya: Bul teziste mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemelerinde málimleme texnologiyalarınan paydalanıwdıń pedagogikalıq áhmieti, onıń ózine tán tárepleri, balalardıń rawajlanıwına tásiri hám zamanagóy bilimlendiriw procesindegi ornı sáwlelendirilgen. Sonday-aq, interaktiv qurallar arqalı balalardıń biliw belsendiligin arttırıw imkaniyatları tallanǵan.

Kalit sózler: málimleme texnologiyaları, mektepke shekemgi bilimlendiriw, innovaciya, interaktiv metodlar, multimedia, sanlı bilimlendiriw.

Abstract: This thesis highlights the pedagogical significance of the use of information technologies in preschool educational institutions, its specific aspects, its influence on children's development, and its place in the modern educational process. Also, the possibilities of increasing children's cognitive activity through interactive means were analyzed.

Keywords: information technologies, preschool education, innovation, interactive methods, multimedia, digital education.

Búgingi kúnde bilimlendiriw sistemasın modernizaciyalaw procesinde informaciya-kommunikaciya texnologiyalarınan (AKT) nátiyjeli paydalanıw áhmiyetli máselelerden biri esaplanadı. Ásirese, mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasında zamanagóy texnologiyalardı engiziw balalardıń intellektuallıq, dóretiwshilik hám sociallıq rawajlanıwına úlken tásir kórsetedi.

Ózbekstan Respublikasında mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasın rawajlandırıwǵa qaratılǵan reformalar, sonıń ishinde, "Mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasın 2030-jılǵa shekem rawajlandırıw koncepciyası" hám Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tárepinen alǵa qoyılǵan baslamalar bilimlendiriw procesine zamanagóy pedagogikalıq hám málimleme texnologiyaların keńnen engiziwdi talap etpekte[1].

Barlıq tálim mákemelerinde, sonday-aq mektepke shekem tálimde de sapa, yaǵnıy balalardıń bilimler haqqındaǵı túsinikler dárejesi birinshi orında turadı. Xabar texnologiyalarınan bolsa balalardıń biliwge bolǵan qızıǵıwshılıqların rawajlandıratuǵın qural sıpatında paydalanıw múmkin.

Mektepke shekemgi bilimlendiriwde zamanagóy xabar texnologiyalarınan paydalanıw - kommunikaciya hám zamanagóy metodlardan paydalanıw, mektepke shekemgi jastaǵı balalar paydalanatuǵın informaciya túrleri hám mazmunı, mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń kompyuter sawatlıǵın hám oǵan qoyılatuǵın talaplar, mektepke shekemgi tálim mazmunın informaciyalastırıwda balalardıń jası hám bilim dárejesin esapqa alıw sıyaqlı máselelerge tiyisli teoriyalıq bilim, ámeliy kónlikpe hám ilmiy tájriybelerdi qáliplestiriwden ibarat[2].

Mektepke shekemgi tálim tárbiyashilari joqarı topar balaların mektepke tayarlawı, olardıń biliwge bolǵan qábiletleri, mútajlikleri hám qızıǵıwshılıqların qáliplestiriwi hám rawajlandırıwı hám de tálim procesi hám bilim tiykarların tereń ózlestiriwi ushın zárúr bolǵan tálim quralları menen támiyinlewi kerek. Onıń tiykarǵı wazıypalarınan biri-balalardıń biliwge bolǵan háreketlerin kúsheytiwden ibarat.

Zamanagóy shınıǵıwlar tek tárbiyashi hám bala menen shegaralanıp qalmawı kerek. Mektepke shekemgi tálim shınıǵıwlarınıń qálegen túri boyınsha kompyuter texnologiyalarınan paydalanıw múmkin. Bunda oqıw materialların uzatıw tezligi hám sapası artadı. Kompyuter texnologiyalarınan paydalanıp mektepke shekemgi tálim shólkemi matematikalıq qıyallardı qáliplestiriw shınıǵıwlarında balalardıń matematikanı biliwge bolǵan qızıǵıwshılıqların arttırıw qızıqtırıw da zárúrli esaplanadı.

Mektepke shekemgi tálimde pedagogdıń wazıypası - zamanagóy xabar texnologiyaları, kommunikaciya hám informaciyalıq zamanagóy metodlardan paydalanıw, mektepke shekemgi jastaǵı balalar paydalanatuǵın informaciya túrleri hám mazmunı, mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń kompyuter sawatlıǵın hám oǵan qoyılatuǵın talaplar, mektepke shekemgi tálim mazmunın informaciyalastırıwda balalardıń jası hám bilim dárejesin esapqa alıw sıyaqlı máselelerge tiyisli teoriyalıq bilim, ámeliy kónlikpe hám ilmiy tájriybelerdi qáliplestiriwden ibarat.

Xabar texnologiyaları - informaciyanı jıynaw, saqlaw, uzatıw, ózgertiw, qayta islew usıl hám quralları jıyındısınan ibarat[3].

“Texnologiya” grekshe sóz bolıp, “techne” - “uqıp”, “kórkem óner” hám “logos” - “sóz”, “táliymat” bolıp esaplanadı. Texnologiya sózi negizinde processlerdi ámelge asırıw usıl hám quralları haqqındaǵı bilimler jıyındısı, sonıń menen birge, obiektte júz beretuǵın sapalı ózgerisler túsiniledi[4].

Mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemelerinde informaciya texnologiyalarınan paydalanıw ózine tán pedagogikalıq ózgesheliklerge iye bolıp, olar tómendegiler arqalı kórinedi:

Birinshiden, vizuallıq hám kórgizbelilik principi ústin áhmiyetke iye. Multimedia quralları (súwret, video, animaciya) arqalı balalar quramalı túsiniklerdi ańsat qabıl etedi. Máselen, reńler, formalar, tábiyat qubılısları haqqındaǵı bilimler interaktiv programmalar arqalı nátiyjelirek ózlestiriledi.

Ekinshiden, interaktivlik ózgesheligi balalardı jedel qatnasıwǵa iytermeleydi. Planshet, interaktiv doska yamasa kompyuter arqalı shólkemlestirilgen shınıǵıwlar balalarda qızıǵıwshılıq oyatadı hám olardıń dıqqatın uzaq waqıt saqlap turadı. Bul bolsa bilimlendiriw nátiyjeliligin arttıradı.

Úshinshiden, málimleme texnologiyaları járdeminde individual qatnastı ámelge asırıw imkaniyatı keńeedi. Hár bir balanıń rawajlanıw dárejesine sáykes tapsırmalar beriw, olardıń ózlestiriw tezligine qarap shınıǵıwdı shólkemlestiriw múmkin.

Tórtinshiden, dóretiwshilikti rawajlandırıw imkaniyatı keńeedi. Multimedia programmaları járdeminde balalar súwret salıw, sesler menen islew, ápiwayı animaciyalar jaratıw arqalı óz oy-pikirlerin kórsetedi.

Kompyuterli oqıtıwdıń abzallıqları júdá kóp: balalarda málim ilmiy tájriybelerdi qáliplestiriw waqtı qisqaradı; shınıǵıw orınlanatuǵın tapsırmalar sanı asadı; balalardıń islew páti jedellesedi; kompyuter tárepinen aktiv basqarıw talab etiliwi nátiyjesinde bala tálim subyektine aylanadı; balalar baqlawı, baqlaw etiwi qıyın bolǵan processlerdi modellestiriw hám tikkeley kórsetiw múmkinshiligi payda boladı; kommunikatsiya qurallarınan paydalanǵan halda shınıǵıwdı uzaqtaǵı derekler menen támiyinlew múmkinshiligi payda boladı; kompyuter menen baylanıs didaktikalıq oyın xarakterin aladı jáne bul menen balalarda oqıw iskerligine motivatsiya kúsheyedi[5].

Globallasıw procesi tálimde informacion-kommunikaciyalıq texnologiyalar (IKT) dan keń paydalanıwdı talap etedi. Oqıtıwdıń zamanagóy usılları hám informacion-kommunikaciya texnologiyaların qollamay turıp, tárbiyashi óz kásiplik iskerliginde nátiyjeli ózgerislerge erise almaydı. Biraq bunda tálimniń maqset hám mazmunı, usıl hám quralları hám de shólkemlestiriw formaların tuwrı tańlaw zárúrli áhmiyetke iye.

Dáwir talabı mektepke shekemgi tálimge sapa tárepinen jańa talaplardı qóyadı -úzliksiz tálimniń birinshi buwını, onıń tiykarǵı wazıypalarınan biri - balanıń individual rawajlanıwı ushın potencialdı jaratıw. Sol sebepli mektepke shekemgi tálim sistemasına xabar texnologiyaların engiziw zárúrligi payda boldı. Ámeliyat sonı kórsetedi, bul sezilerli dárejede balalardıń sabaqlarǵa qızıǵıwshılıqı artadı, kognitiv dárejesi imkaniyatları asadı.

Túsindiriw hám bekkemlewdiń jańa dástúriy emes usıllarınan paydalanıw, ásirese oyın texnologiyaları, balalardıń eriksiz itibarın asıradı, qálegen itibardı rawajlandırıwǵa járdem beredi. Xabar texnologiyaları shaxsqa baǵdarlanǵan jantasıwdı támiyinleydi. Kompyuterdiń múmkinshilikleri sizge tanısıw ushın usınıs etilgen material kólemin asırıwǵa múmkinshilik beredi. Bunnan tısqarı, mektepke shekemgi jastaǵı balalarda bir hám bir neshe programma materialların bir neshe márte tákirarlanıwı múmkinligi hám jetkizip beriw formalarınıń hár túrliligi úlken áhmiyetke iye.

Kompyuter oyınları balalardıń bilimlerin bekkemlewge járdem beredi; olar individual shınıǵıwlar járdeminde intellektual rawajlanıwshı tapsırmalar; intellektual qábiletlerdi rawajlandırıw iskerlik oyınları: aqıl, itibar, yad, pikirlew, kishi rawajlanıw motorika qábiletlerin rawajlandıradı. Tárbiyashılar kúndelik jumıslarında “ashıq” túrdegi oqıw oyınlarınan paydalanadı. Olar balalarda ulıwma intellektual qábiletlerdi, maqsetlerdi qoyıw hám olarǵa erisiw qábiletin qáliplestiredi hám rawajlantıradı, oyındaǵı háreketlerin kompyuterde jaratılǵan suwretler menen intellektual baylanıstıradı, oy-sezimlerdi, fantaziyani, oyda sawlelendiriwdi aktivlestiredi.

Juwmaqlap aytqanda, mektepke shekemgi bilimlendiriw mákemelerinde málimleme texnologiyalarınan paydalanıw bilimlendiriw procesiniń nátiyjeliligin arttıradı, balalardıń biliw iskerligin jedellestiredi hám de olardıń dóretiwshilik hám intellektual rawajlanıwına xızmet etedi.

Biraq, bul processti durıs shólkemlestiriw, yaǵnıy jas ózgesheliklerin esapqa alıw, salamat ortalıq jaratıw hám pedagoglardıń sanlı kompetenciyasın rawajlandırıw úlken áhmiyetke iye. Usı tiykarda mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasında málimleme texnologiyalarınan aqılǵa uǵras paydalanıw keleshek áwladtı hár tárepleme bárkamal etip tárbiyalawda áhmiyetli qural bolıp xızmet etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Shavkat Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. – Toshkent, 2019.
2. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 256 b.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2015. – 320 b.
4. Begimqulov U. Ta’limda axborot texnologiyalarini qo‘llash asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 280 b.
5. Abduqodirov A., Xaitov A. Axborot texnologiyalari va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 240 b.

MEKTEPKE SHEKEMGI JASTAǴI BALALARDIŃ SÓYLEWIN RAWAJLANDIRIW - PEDAGOGIKALIQ MASHQALA SIPATINDA

Yuldasheva Shoxida Botirovna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti Mektepke shekemgi hám baslawısh tálim kafedrası assistent oqıtıwshısı

Abdullayeva Kirmizi Jumatayevna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti 1-basqısh talabası

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636361

Annotaciya: Usı teziste mektepke shekemgi jastaǵı balalar **sóylewin** rawajlandırıwdıń pedagogikalıq áhmiyeti, bar bolǵan mashqalaları hám de olardı saplastırıw jolları ilimiy tiykarda kórsetilgen. Sóylew rawajlanıwınıń bala shaxsı hám oylawına tásiri tallanıp, nátiyjeli metodlar usınıs etilgen.

Tayanish sózler: sóylewdiń rawajlanıwı, mektepke shekemgi bilimlendiriw, pedagogikalıq mashqala, kommunikativ kompetenciya, interaktiv metodlar.

Abstract: This thesis examines speech development of preschool children as a pedagogical problem. It analyzes existing challenges and suggests scientifically grounded methods for effective development of children's speech.

Keywords: speech development, preschool education, pedagogical problem, communicative competence, interactive methods.

Búgingi globallasıw hám informaciyalasıw procesinde jámiyettiń hár tárepleme rawajlanıwı, bárinen burın, insan kapitalınıń sapasına, atap aytqanda, jas áwladtıń intellektuallıq hám kommunikativlik potencialına tikkeley baylanıslı. Usı kózqarastan mektepke shekemgi bilimlendiriw sisteması úzliksiz bilimlendiriwdiń baslanǵısh buwını sıpatında ayrıqsha áhmiyetke iye. Ásirese, mektepke shekemgi jastaǵı balalarda sóylewdi rawajlandırıw máselesi tek pedagogikalıq emes, al sociallıq-pedagogikalıq mashqala sıpatında da áhmiyetli esaplanadı.

Ózbekstan Respublikasında mektepke shekemgi bilimlendiriw sistemasın rawajlandırıw mámleketlik siyasattıń tiykarǵı baǵdarlarınan biri sıpatında belgilengen. Sonıń ishinde, "Mektepke shekemgi bilimlendiriw hám tárbiya haqqında"ǵı Nızamda balalardıń hár tárepleme rawajlanıwı, sonıń ishinde, olardıń sóylew, aqılıy hám sociallıq kónlikpelerin qáliplestiriw tiykarǵı wazıypalardan biri sıpatında atap ótilgen[1]. Bul bolsa mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń sóylewin rawajlandırıw máselesine ilimiy hám metodikalıq jaqtan tereń qatnas jasawdı talap etedi.

Sóylew - bul insannıń pikirlew procesi menen úzliksiz baylanıslı bolgan quramalı psixikalıq iskerlik. Ol tek baylanıs quralı emes, al bilimlerdi ózlestiriw, qorshaǵan ortalıqtı ańlaw hám sociallıq qatnasıqlardı jolǵa qoyıwda tiykarǵı faktor esaplanadı. Belgili psixolog ilimpaz L.Vıgotskiy sóylewdi pikirlewdiń rawajlanıwınıń tiykarǵı quralı sıpatında bahalap, balanıń joqarı psixikalıq funkciyaları áyne sóylew arqalı qáliplesetuǵının atap ótken[2]. Sonday-aq, Jan Piaje balalar sóylewi olardıń kognitiv rawajlanıw basqıshları menen tıǵız baylanıslı ekenligin ilimiy tiykarlap bergen[3].

Mektepke shekemgi jas dáwirinde bala sóylewi tez rawajlanadı: sóz baylıǵı artadı, grammatikalıq dúzilis qáliplesedi, baylanıslı sóylew rawajlanadı. Áyne usı dáwirde sóylewdi durıs hám nátiyjeli rawajlandırıw keleshekte balanıń mektep bilimine tayarlıǵın belgileytuǵın áhmiyetli faktorlardan biri bolıp esaplanadı. Ilimiy izertlewler sonı kórsetedi, sóylewi rawajlanǵan balalar oqıw, jazıw hám

sóylesiw processlerinde joqarı nátiyjelerge erisedi. Ayırım balalarda sóylew rawajlanıwınıń individual ózgeshelikleri hám keshigiwleri baqlanıwı da pedagogikalıq qatnastı qıyınlastıradı. Sol sebepli mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń sóylewin rawajlandırıw máselesin pedagogikalıq mashqala sıpatında úyreniw, onıń teoriyalıq tiykarların tallaw hámde nátiyjeli metod hám qurallardı islep shıǵıw búgingi kúnniń áhmiyetli wazıypalarınan biri bolıp esaplanadı. Bul proceste innovaciyalıq pedagogikalıq texnologiyalar, interaktiv metodlar, oyın iskerligi hám de shańaraq hám bilimlendiriw mákemesiniń birge islesiwi úlken áhmiyetke iye.

Mektepke shekemgi jas dáwiri bala shaxsınıń hár tárepleme rawajlanıwında, ásirese sóylewdiń qáliplesiwinde eń áhmiyetli basqısh esaplanadi. Bul dáwirde bala qorshaǵan ortalıqtı ańlaw, pikirin bildiriw, sociallıq qatnasıqlarǵa kiriw sıyaqlı kónlikpelerdi tiykarınan sóylew arqalı iyeleydi. Sol sebepli mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń sóylewin rawajlandırıw búgingi kúnde áhmiyetli pedagogikalıq mashqala sıpatında qaralmaqta.

Sóylew - bul tek baylanıs quralı emes, al balanıń oylawı, yadı, dıqqatı hám kóz aldına keltiriw procesleri menen úzliksiz baylanıslı bolgan quramalı psixikalıq process[4]. Belgili pedagog ilimpaz L.Vıgotskiy sóylewdi pikirlew menen tıgız baylanıslı dep esaplap, balanıń aqılıy rawajlanıwı sóylew arqalı ámelge asıwın aytıp ótken. Usı tárepten qaraǵanda, sóylew rawajlanıwı tómen bolǵan balalarda pikirlew procesleri de jeterli dárejede qáliplespeydi.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń sóylewin rawajlandırıw zamanagóy pedagogikanıń eń áhmiyetli mashqalalarınan biri esaplanadı. Sebebi sóylew balanıń tek ǵana baylanıs quralı emes, al onıń pikirlewi, ańlawı hám sociallasıw procesiniń tiykarǵı faktorı esaplanadı. Ilimiy izertlewlerge qaraǵanda, bala sóziniń rawajlanıwı onıń intellektual potencialınıń qáliplesiwine tikkeley tásir kórsetedi.

Búgingi kúnde mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń sóylewin rawajlandırıwda bir qatar pedagogikalıq mashqalalar bar. Bárinen burın, shańaraqtaǵı sóylew ortalıǵınıń jeterli emesligi balanıń sóz baylıǵı hám erkin pikir bildiriw qábiletine unamsız tásir kórsetedi. Kóplegen izertlewler sonı kórsetedi, balalar menen turaqlı sáwbet alıp barılatuǵın shańaraqlarda sóylew rawajlanıwı joqarı dárejede boladı.

Ekinshi mashqala - mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde sóylewdi rawajlandırıw jumıslarınıń sistemalı jolǵa qoyılmaǵanlıǵı. Ayırım jaǵdaylarda shınıǵıwlar tek ǵana reje tiykarında ótkerilip, kúndelikli jumısta sóylewdi rawajlandırıwǵa jeterli itibar berilmeydi. Tiykarında bolsa, sóylewdi rawajlandırıw procesi integrativ bolıp, barlıq xızmet túrlerinde ámelge asırılıwı kerek.

Úshinshi mashqala - zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalardan jeterli dárejede paydalanılmay atırǵanı. Oyın texnologiyaları, rolli oyınlar, dramatizaciya, gúrriń dúziw, soraw-juwap metodları balalar sóylewin rawajlandırıwda nátiyjeli qural esaplanadı.

Tórtinshi mashqala - individual qatnastıń jetispewshiligi. Hár bir balanıń sóylew rawajlanıwı dárejesi túrlishe bolip, ayırım balalarda sóylew keshigiwi yaki

dawis kemshilikleri baqlanadi. Bunday jaǵdayda differenciallasqan kóz-qaras úlken áhmiyetke iye.

Bul mashqalalardı saplastırıw ushın tómendegi pedagogikalıq sharayatlardı jaratıw zárúr:

- bay sóylew ortalıǵın qáliplestiriw;
- balalardı jedel sóylesiwge tartıw;
- innovaciyalıq hám interaktiv metodlardan paydalanıw;
- shańaraq hám bilimlendiriw mákemesiniń birge islesiwin kúsheytiw;
- individual jantasıwdı támiyinlew.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń sóylewin rawajlandırıw máselesi zamanagóy pedagogika hám psixologiya pánlerinde tiykarǵı baǵdarlardan biri sıpatında tán alınıp, onıń aktuallıǵı jámiyettiń rawajlanıwı, bilimlendiriwdiń sapasınıń artıwı hám bárkamal áwladtı qáliplestiriw menen tikkeley baylanıslı. Usı izertlew sheńberinde alıp barılǵan tallawlar sonı kórsetti, sóylew balanıń tek ǵana baylanıs quralı emes, al onıń oy-pikiri, dúnyaqarası, sociallıq beyimlesiwi hám shaxs sıpatında qáliplesiwiniń áhmietli faktorı esaplanadı. Salıstırmalı analizler L.Vygotsky hám Jan Piaje tárepinen alǵa súrilgen teoriyalar tiykarında sóylew hám pikirlew arasındaǵı úzliksiz baylanıs jáne bir márte óz tastıyıqtın tapadı. Yaǵnıy, balanıń sóylew rawajlanıwı onıń aqılıy rawajlanıw dárejesin belgileytuǵın tiykarǵı kórsetkishlerden biri bolıp xızmet etedi.

Salıstırmalı analizlerde anıqlanıwınsha, mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń sóylewin rawajlandırıwda bir qatar mashqalalar bar bolıp, olardıń arasında shańaraqta sóylew ortalıǵınıń jeterli dárejede qáliplespegenligi, balalardıń málimleme texnologiyalarına artıqsha berilip ketiwi nátiyjesinde janlı qarım-qatnastıń azayıwı, mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde sóylewdi rawajlandırıw jumısınıń jeterli dárejede sistemalastırılmaǵanlıǵı, sonday-aq, hár bir balanıń individual ózgesheliklerin esapqa alıwǵa jeterli dárejede itibar qaratılmay atırǵanlıǵı ayrıqsha áhmiyetke iye. Bul faktorlar balalardıń sóz baylıǵı, erkin pikir bildiriw qábileti hám de qarım-qatnasqa kirisiw kónlikpeleriniń tómen rawajlanıwına alıp keliwi múmkin.

Soniń menen birge, ótkerilgen ilimiy analizler sonı kórsetedi, mektepke shekemgi jas dáwiri sóylew rawajlanıwınıń eń sezgir hám áhmiyetli basqıshı esaplanadi. Áyne usi dáwirde balalarda fonetikalıq, leksikalıq hám grammatikalıq kónlikpeler qáliplesip, baylanıslı sóylew rawajlanadı. Eger bul process ilimiy tiykarda, sistemalı hám maqsetli shólkemlestirilse, bala keyingi bilimlendiriw basqıshlarına puqta tayarlıq penen kiredi. Keri jaǵdayda bolsa, sóylewdegi kemshilikler onıń oqıw, jazıw hám ulıwma ózlestiriw iskerligine unamsız tásir kórsetedi.

Nátiyjeler sonı kórsetti, balalar sóylewin rawajlandırıw nátiyjeliligin arttırıw ushın pedagogikalıq procesti kompleksli qatnas tiykarında shólkemlestiriw zárúr. Bul proceste oyın texnologiyaları, interaktiv metodlar, sáwbetlesiw, gúrriń dúziw, dramatizaciya sıyaqlı jedel usıllardan paydalanıw úlken áhmiyetke iye. Sonday-aq, shańaraq hám mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi arasındaǵı birge islesiwdi bekkemlew, balanı jedel sóylesiwge tartıw hám bay sóylew ortalıǵın jaratıw sóylewdiń rawajlanıwınıń tiykarǵı shártlerinen biri esaplanadı. Hár bir

balanıń individual rawajlanıw ózgesheliklerin esapqa alıw, differencial qatnastı qollanıw bolsa pedagogikalıq procestiń nátiyjeliligin jáne de arttıradı.

Ulıwma alǵanda, mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń sóylewin rawajlandırıw qıyın hám kóp faktorlı pedagogikalıq mashqala bolıp, onı nátiyjeli sheshiw úzliksiz bilimlendiriw sistemasınıń áhmiyetli wazıypalarınan biri bolıp esaplanadı. Sóylewi rawajlanǵan bala keleshekte ǵárezsiz pikirley alatuǵın, óz pikirin erkin bayanlay alatuǵın hám jámiyetlik turmısta belsene qatnasatuǵın shaxs sıpatında qáliplesedi. Sol sebepli bul baǵdarda ilimiy izleniwlerdi dawam ettiriw, zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalardı ámeliyatqa keńnen engiziw hám bilimlendiriw procesin jetilistiriw áhmiyetli wazıypa bolıp qaladı.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1982.
3. Пиаже Ж. Речь и мышление ребенка. – Москва: Просвещение, 1997.
4. Abdurahmonov G‘. Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
5. Qodirova F.R. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019.
6. Mahkamov M. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2017.
7. Nurmatova D. Maktabgacha ta’limda nutq o‘stirish metodikasi. – Toshkent, 2020.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA ONA TILINI O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O‘RGATISH USULLARI

Baltabaeva A.S. - Innovatsion texnologiyalar universiteti Boshlanǵish tálim yónalishi 4-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636406

Annotatsiya. Maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida pedagogik texnologiyalarni o‘rgatish usullari, usullari, mavjud muammolar va ularga yechim ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilib beriladi. Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, bu islohotlarning samaradorligi ko‘p jihatdan ustoz- murabbiylar, o‘qituvchilarning o‘ziga, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlariga, kasb mahoratlariga ham bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi.

Kalit sózlar : Ona tili, amaliyot, zamonaviy yondashuvlar, o'quvchilar, innovasiya, innovatsiya, metod;

Abstract. This article, based on scientific literature, analyzes methods, techniques, existing problems, and solutions in the field of teaching pedagogical technologies in primary school native language lessons. It analyzes ongoing educational reforms and demonstrates that the effectiveness of these reforms largely depends on mentors, teachers themselves, their personal and professional qualities, and professional skills.

Maktabda o‘qitiladigan ona tili fani shunchaki fonetik vagrammatik tushunchalarni bir yoqlama shakllantirish vazifasini bajarmaydi, balki

o‘quvchilarni badiiy til vositalari bilan ta’minlashi, ularda go‘zal nutq madaniyatini tarbiyalashi, fikr – mulohazalarini ifodali bayon etishga o‘rgatib borishi lozim. O‘quvchilar har bir ilmiy – nazariy tushunchani amalda qo‘llayolishlari uchun ona tili mashg‘ulotlarida optimal mashqlar tizimi qo‘llanib borilishi shart. Bunda albatta, an’anaviy usullardan yangicha zamonaviy ilg‘or pedagogik texnalogiya shakllariga o‘tib ishlash davri keldi. Biroq biz ko‘p sonliboshlang‘ich sinf o‘qituvchilari umuman “pedagogik texnalogiya”, ”zamonaviy pedagogik ta’lim”, ”noan’anaviy darslar” kabi atamalar mohiyati, ular haqida muayyan aniq ma’lumotlar yuzasidan yaxshi ma’lumotlarga ega emasdir. Zamonaviy pedagogik texnologiya shuni talab qiladiki, dars jarayonida va ta’lim – tarbiyada o‘quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuch, ta’lim jarayoni sub’yekti bo‘lishi kerak. O‘qituvchi esa o‘qitishdan o‘qishni o‘rganishga, bilim berishdan bilimlarni o‘quvchilar mustaqil egallashlariga ko‘maklashishi zarur. Ona tili darslarining ta’limiy maqsadlarini belgilashda “bilim berish, ko‘nikmalarini hosil qilish, malakalarini shakllantirish va tushunchalarni mustahkamlash, bilim, malakalarini tekshirish va baholash, tushunchalarni tartibga solish, o‘quvchilar faoliyatini rivojlantirish, fikrlash darajasini o‘stirish, mavzu bilan bog‘liq holda nutq o‘stirish, lug‘at boyligini , gaplarni tahlil qilishga o‘rgatish, ijodiy faoliyatni rivojlantirish” kabi iboralardan foydalanish. Boshlang’ich sinflar ona tili darslari oldiga qo‘yilgan tarbiyaviy maqsadlar: tarbiya doimo ta’lim tarkibida bo‘ladi. O‘quvchi ta’lim jarayonida o‘qituvchi tomonidan qo‘yilayotgan turli muammolarni yechishi davomida uning fikrlash darajasi, zehni, zukkoligi o‘qishga, bilim olishga bo‘lgan muhabbati oshib va ana shu asosda xulqida ijobiy xususiyatlar namoyon bo‘lib boraveradi.Shunday bo‘lsa ham, boshlang’ich sinf ona tili darslarida davrning muhim dolzarb muammolari, inson ma’naviy hayotidagi jiddiy masalalarni ta’limiy mavzuga ustalik bilan bog‘lab, o‘quvchilar ongida ijobiy va fazilatlarni muayyan xususiyatlari haqida ayrim tushunchalarni «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya shakllantirib borish zarur. Ona tili darsligida haroshirish bir mashq matni mazmuni bo‘yicha ma’lum bir tarbiyaviy masalani belgilash mumkin. O‘qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyani ta’lim jarayonida joriy etishda quyidagi jihatlarga e’tibor berib borsa, maqsadga muvofiq bo‘lardi:

1. Shaxs –o‘quvchidagi mavjud – diqqati barqarorlik, aqliy mushohada qila olish, ijodiy izlana olishligi, faollik darajasi, nutqi malakasini hisobga olish;
2. O‘quv jarayonida muayyan algoritmni tuzib olish (dars bosqichlari uzviyligi,
masqlarning bir – birini to‘ldiruvchi ketma – ketligi, ta’limiy vositalarning taxtligi);
3. O‘quv jarayonini mohirlik bilan boshqarish;
4. Loyihani amalgaoshirish jarayonida darsning ta’lim – tarbiyaviy maqsadlarining qay darajada amalga oshayotganini nazorat qilib borish;
5. Darsda til imkoniyatlari va turli qo‘shimcha vositalar – texnika turlari, musiqa, ertak, topishmoq, maqol, she’r, rebus va hokazolardan unumli foydalanib borish.

Turli uslubiy maqola va qo‘llanmalardan zamonaviy pedagogik texnalogiyalarni qo‘llashda o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari uchun ularga imkon yaratib berish,o‘qituvchi taqdim etgan fikrni muhokama qilish, mantiqiy mulohazalar qilib,tegishli xulosa chiqarish, o‘z fikrlarini mustaqil himoya qilish, faol munozaraga kirishni ta’minlash kabi fikrlash bayon qilinib kelinmoqda. Shuningdek , ta’lim jarayonida modulli ta’lim texnologiyasi , hamkorlikdao‘qitish texnologiyasi, muammoli ta’lim, ta’limiy o‘yinlar o‘tkazish, guruh – guruh qilib o‘qitish texnologiyalari manzaralari chizib berilmoqda. Lekin yuqoridagi texnologiyalarning barchasini ham boshlang‘ich ta’limda tadbiq etib bo‘lmaydi. Chunki kichik yoshdagi maktab o‘quvchisi hali murakkab tizimdagi ta’lim jarayonida ishtirok etish qobiliyatiga ega emas. Boshlang‘ich ta’limda ham umumiy o‘rta ta’limda ham darsdagi asosiy bosqichlar (tashkiliy qism, o‘tgan mavzu bo‘yicha suhbat, yangi mavzu ustida ishlash, yangi bilimlarni mustahkamlash, uyga vazifa berish) an’anaviy tarzda olib boriladi. Keyingi yillarda bu bosqichlarning qat’iy izchillikda bo‘lishi, har bir bosqichning qat’iy qolipga tushib qolishi ta’limsamaradorligiga putur yetkaza bordi, mashg‘ulotlarning zerikarli, o‘quvchilarning loqaydligiga sababbo‘ldi. Natijada sinf jamoasidagi interfaollikning yo‘qolishi, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashlaridagi ojizlik holatlari yuzaga keldi. Buning oldini olish uchun har bir darsga zamonaviy pedagogik taxnalogiyalarni tadbiq qilgan holda o‘tish hozirgi zamon talabi hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy pedagogik texnologiyani amalda qo‘llashda shunga e’tibor berish lozimki, o‘quvchilarning mantiqiy, obrazli fikrlashga o‘rgatish, ularni muntazam ravishda faollashtirib borish lozim. Yana shunga e’tibor berish joizki, zamonaviy texnologiyani takomillashtirishda dialektikaning o‘ziga xos qonuniyatlari hamda o‘quvchilarning psixologik «Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya» nomli ilmiy, masofaviy, onlayn konferensiya xususiyatlariga asoslanish talab etiladi. O‘qituvchi mashg‘ulotni loyihalashda pedagogik texnalogiya tamoyillariga jiddiy rioya qilishi lozim.Shuningdek o‘qitishda o‘quvchi har bir mashg‘ulotda xuddi imtihondagidek harakat qilishi, o‘z harakat faoliyati natijasini vaqtida bilishi, shu bilan birga, o‘quvchining yutug‘iga o‘qituvchining munosabati masalalari ham zamonaviy pedagogic texnologiya qoidalari sifatida o‘qituvchi diqqat markazida bo‘lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.X.Avliyakulov, N.N.Musayeva, Pedagogik texnologiya. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. Tafakkur bo‘stoni. Toshkent – 2012. 210 b.
2. K. Qosimova va boshqalar. Ona tili o‘qish metodikasi. “Noshir” nashriyoti. Toshkent – 2009.
3. M.Dinoyatov, N.Muslinov, D.Ro‘ziyeva, M.Usmoneva. Pedagogika – Toshkent – 2016.
4. www.pedagog.uz
5. www.natlib.uz
6. www.canva.com

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA TASVIRIY FAOLIYAT MASHG‘ULOTLARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI

Yuldasheva Shoxida Botirovna - University of innovation technologies Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi assistent o‘qituvchisi
Menlimuratova Gulsanem - University of innovation technologies 1-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636455

Annotatsiya: Mazkur tezisda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etish texnologiyasining nazariy va amaliy asoslari keng yoritilgan. Tasviriy faoliyatning bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o‘rni, xususan, ularning estetik didi, ijodiy tafakkuri, tasavvuri, emotsional rivoji hamda mayda motorikasini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, mashg‘ulotlarni tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarurligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: tasviriy faoliyat, maktabgacha ta’lim, pedagogik texnologiya, ijodkorlik, estetik tarbiya, rasm chizish, applikatsiya, loy ishlari, mayda motorika, innovatsion metodlar, STEAM yondashuv, badiiy tafakkur.

Abstract: This thesis comprehensively examines the theoretical and practical foundations of organizing visual activity classes in preschool educational institutions. It highlights the role of visual activities in developing children's creativity, imagination, aesthetic sense, emotional intelligence, and fine motor skills. The study emphasizes the importance of modern pedagogical technologies and interactive methods. As a result, effective pedagogical conditions and methodological recommendations are proposed.

Keywords: visual activity, preschool education, pedagogical technology, creativity, aesthetic development, fine motor skills, innovative methods, STEAM approach.

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni xalqaro talablar darajasiga olib chiqish jarayonida maktabgacha ta’lim tizimiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki aynan maktabgacha yosh davri bola shaxsining intellektual, estetik, jismoniy va ijodiy rivojlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish dolzarb pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun hamda maktabgacha ta’limni rivojlantirish konsepsiyalarida bolalarning estetik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa tasviriy faoliyatni tashkil etish metodikasini takomillashtirishni, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borishni talab etadi.

Tasviriy faoliyat – bu bolalarning atrof-muhitni badiiy obrazlar orqali idrok etishi, tasavvur qilishi va ifodalashiga xizmat qiluvchi muhim faoliyat turi

hisoblanadi. U orqali bolalarda estetik did, go‘zallikni his etish, ijodiy tafakkur, tasavvur va emotsional sezgirlik shakllanadi. Shu bilan birga, tasviriy faoliyat bolalarning mayda motorikasini rivojlantirib, ularning nutq va tafakkur jarayonlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur muammoning nazariy asoslari nafaqat xorijiy, balki o‘zbek olimlari tomonidan ham chuqur o‘rganilgan. Xususan, Qodirova F.R. o‘z tadqiqotlarida maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida estetik rivojlanishning o‘rni va tasviriy faoliyatning ahamiyatini keng yoritib bergan. Uning fikricha, tasviriy faoliyat bolalarda nafaqat badiiy qobiliyatlarni, balki mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni ham shakllantiradi [1].

Shuningdek, Abdurahmonov G‘. bolalar rivojida faoliyat turlarining, xususan, amaliy va ijodiy mashg‘ulotlarning nutq va tafakkur rivojiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ilmiy asoslab bergan [2]. Bu esa tasviriy faoliyatni faqat estetik tarbiya vositasi emas, balki kompleks rivojlantiruvchi pedagogik vosita sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar hamda STEAM yondashuvining ahamiyati alohida ta’kidlanmoqda. Chunki bunday yondashuv bolalarning faolligini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga undaydi va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaradi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlari ko‘pincha an’anaviy usullarda olib boriladi, bu esa bolalarning ijodiy imkoniyatlarini to‘liq ochib berishga yetarli darajada xizmat qilmaydi. Shu sababli ushbu mashg‘ulotlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, metodik jihatdan takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi..

Maktabgacha ta’lim tashkilotida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etish texnologiyasi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi muhim pedagogik jarayonlardan biridir. Tasviriy faoliyat bolalarning borliqni idrok etish, uni badiiy obrazlar orqali ifodalash hamda o‘z ichki kechinmalarini namoyon etishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, mazkur faoliyat turi bolalarning estetik, intellektual va ijodiy rivojlanishida alohida o‘rin egallaydi[3].

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etish texnologiyasi bir necha muhim bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Avvalo, mashg‘ulotning maqsadi aniq belgilanadi. Maqsad bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va rivojlanish darajasidan kelib chiqib qo‘yiladi. Keyingi bosqichda mashg‘ulot mazmuni tanlanadi. Bu jarayonda rasm chizish, applikatsiya, loy va plastilin bilan ishlash, tabiiy materiallardan foydalanish kabi faoliyat turlari uyg‘unlashtiriladi.

Mashg‘ulotlarni tashkil etishda metod va vositalarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Amaliy ko‘rsatma berish, namuna ko‘rsatish, suhbat, savol-javob, o‘yin metodlari va muammoli vaziyatlar yaratish bolalarning faolligini oshiradi. Ayniqsa, interaktiv metodlardan foydalanish bolalarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi.

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarining samaradorligi ko‘p jihatdan pedagogik muhitga bog‘liq. Agar mashg‘ulotlar erkin, qiziqarli va rag‘batlantiruvchi muhitda tashkil etilsa, bolalar o‘z ijodiy imkoniyatlarini to‘liq namoyon etadi. Bu jarayonda

tarbiyachi yo‘naltiruvchi, yordamchi va rag‘batlantiruvchi rolni bajaradi. Bundan tashqari, zamonaviy ta’lim jarayonida tasviriy faoliyatni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar, xususan, STEAM yondashuvi, loyiha metodi va o‘yin texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa bolalarning nafaqat ijodiy, balki mantiqiy fikrlash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, tasviriy faoliyat bilan muntazam shug‘ullangan bolalarda tasavvur kengayadi, nutq rivojlanadi, mayda motorika takomillashadi va ular o‘z fikrlarini erkin ifoda eta boshlaydi. Shu sababli mazkur mashg‘ulotlarni ilmiy asosda tashkil etish maktabgacha ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim pedagogik vosita hisoblanadi. U orqali bolalarda estetik did, ijodiy fikrlash, tasavvur, mayda motorika hamda nutqiy faollik shakllanadi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi.

Tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini maktabgacha ta’lim tashkilotida tashkil etish bolalarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va ijodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda turli shakl va usullarda amalga oshiriladi. Bunday mashg‘ulotlar asosan tarbiyachi rahbarligida o‘tkaziladigan rejalashtirilgan faoliyat bo‘lib, unda bolalar rasm chizish, loydan turli shakllar yasash, applikatsiya qilish va qirqib-yopishtirish kabi ijodiy ishlarni bajaradilar. Shu bilan birga, tasviriy faoliyat faqatgina mashg‘ulot ko‘rinishida emas, balki bolalarning erkin ijodiy faoliyati, ya’ni mustaqil rasm chizish yoki ijodiy burchaklarda ishlash jarayonida ham tashkil etiladi. Bu esa bolalarning o‘z tasavvuri va ichki his-tuyg‘ularini erkin ifodalashiga imkon beradi.

Tasviriy faoliyatni tashkil etishda o‘yin elementlaridan foydalanish ham muhim o‘rin tutadi, chunki maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin asosiy faoliyat turi hisoblanadi va u orqali ular ijodiy jarayonga tez kirishadilar. Masalan, “kim tez chizadi”, “ranglarni top”, “tasvirni davom ettir” kabi o‘yinlar bolalarda qiziqish va faollikni oshiradi. Bundan tashqari, integratsiyalashgan yondashuv ham keng qo‘llaniladi, ya’ni tasviriy faoliyat nutq o‘stirish, tabiat bilan tanishtirish yoki elementar matematika faoliyatlari bilan bog‘lab olib boriladi, bu esa bolalarda bilimlarning yaxlit shakllanishini ta’minlaydi.

Mashg‘ulot jarayonida ko‘rgazmali usul muhim hisoblanib, tarbiyachi bolalarga real predmetlar, rasmlar yoki namunalar orqali tushuntiradi, bu esa ularning tasavvurini rivojlantiradi. Shuningdek, tushuntirish va suhbat usullari orqali bolalarga bosqichma-bosqich yo‘riqnoma beriladi va ular fikrlashga undaladi. Namuna ko‘rsatish usuli orqali esa bolalar tayyor ishni ko‘rib, undan ilhom oladilar. Eng asosiy usullardan biri amaliy faoliyat bo‘lib, bolalar bevosita chizish, yasash va ijod qilish jarayonida o‘z ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, jamoaviy ish shakllari ham qo‘llanilib, bolalar birgalikda katta rasm yoki kompozitsiyalar yaratish orqali hamkorlik va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Umuman olganda, tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tashkil etish

jarayoni bolalarda ijodkorlik, estetik did, tasavvur, mayda motorika va nutqiy rivojlanishni shakllantiruvchi muhim pedagogik jarayon hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda tasviriy faoliyat bolalarning ichki hissiyotlarini ifodalashga yordam beradi va ularning ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tasviriy faoliyat mashg‘ulotlarini tizimli, rejalashtirilgan va innovatsion usullar asosida tashkil etish zarur. Har bir tarbiyachi bolalarning ijodiy erkinligini qo‘llab-quvvatlashi va ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”. – Toshkent, 2019.
2. Abdullayeva Q. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
3. Muslimov N. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
4. Sodiqova S. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2021.
5. Karimova Z. Bolalar psixologiyasi va rivojlanishi. – Toshkent, 2022.

BOSHLANG’ICH SINFLARDA TEXNOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH VA INNOVATSION TEXNOLOGIYADAN FOYDALANISH

Amangeldieva.R.S - Innovacion texnologiyalar universiteti Boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 4-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636506

Annotatsiya. Ushbu tezisda boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslarini samarali tashkil etish masalalari hamda dars jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. O’quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish va dars samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion metodlarning afzalliklari va ularni amaliyotda qo‘llash yo‘llari ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, texnologiya darsi, innovatsiya, ijodkorlik.

Abstract. This thesis highlights the issues of effective organization of technology lessons in primary grades and the importance of using innovative technologies in the lesson process. Modern pedagogical approaches aimed at developing students' creative thinking, forming practical skills, and increasing the effectiveness of the lesson are analyzed. The advantages of innovative methods and ways of their practical application are also shown.

Keywords: primary education, technology lesson, creativity

Hozirgi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalar qo’yilmoqda. Ayniqsa, boshlang’ich ta’lim bosqichida o’quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish, ularni hayotga tayyorlash va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan texnologiya darslari alohida o’rin tutadi.Texnologiya darslari o'quvchilarda mehnat sevarlik ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Texnologiya darslari o’quvchilarga tu’rli buyumlar yasash, dizayn yaratish, mehnat qilish, ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko’nikmalarini o’rgatadi. Ammo bu darslarni samarali tashkil etish o’qituvchidan innovatsion texnologiyalardan foydalanishni talab qiladi. An’anaviy usullar bilan bir qatorda innovatsion texnologiyalardan foydalanish darsning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

"Texnologiya" darsligi insonlar hayotida muhim o'rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishda muhim o'rin tutadi. "Texnologiya" fanidan olgan bilim va ko'nikmalari inson hayoti davomida , albatta, naf keltiradi.

"Texnologiya" darslarida materialshunoslik, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlarni o'zlashtirasiz. Mahsulot ishlab chiqarish va uyro'zg'or buyumlarini ta'mirlashga oid ko'nikma va malakalarga ega bo'lasiz.

Boshlang’ich sinflarda texnologiya darslarini to’g’ri tashkil etish o’quvchilarning ha’r tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Darsni samarali tashkil etish quyidagi jihatlarni o’z ichiga oladi:

-darsning aniq maqsadini belgilash

-o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish

-amaliy mashg‘ulotlarga ko‘proq e’tibor berish

-xavfsizlik qoidalariga rioya qilish

To’g’ri tashkil etilgan dars o’quvchilarda mehnatsevarlik, masu’liyat va ijodkorlik sifatlarini shakllantiradi.

Innovatsion texnologiyalar – bu ta’lim jarayoniga yangi metodlar, vositalar va yondashuvlarni joriy etish orqali o’qitish samaradorligini oshirishga qaratilgan tizimdir. Ular o’quvchilarning faolligini oshiradi, darsni qiziqarli va samarali qiladi.Innovatsion texnologiyalar yordamida o’quvchilarning darsga bolgan qiziqishi orttirishi va e'tiborni tortishi mumkin. Bu bolsa dars samaradorligini oshiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun innovatsion texnologiyalar ayniqsa muhim, chunki bu yoshda bolalar tez o‘rganadi va yangilikka qiziqadi.

«Texnologiya» so'zining grek tilidan tarjimasi tayyor mahsulot, buyumlar olish maqsadida ishlab chiqarishning mos keladigan qurilma va jihozlari bilan xom-ashyo va materiallarini ishlov berish usullari majmuasini tizimlashtiruvchi fanni anglatadi.Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zida uni «texno hunar yoki san'at», «logos» - fan deb, buyum olish uchun xom-ashyolarga ishlov berish san'ati haqidagi fan sifatida e'tirof etishadi. Shu nuqtai nazardan bo'lsa kerak, Yevropa mamlakatlarida, jumladan «Germaniya va Rossiya maktablarida Mehnat ta'limi» o'quv predmetini «Texnologiya» yoki «Texnologik ta'lim» deb yuritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf texnologiya ta'limida keng ma'nodagi texnologiyaning ilmiy asoslari haqida emas,texnologiya ta'limning elementlari to'g'risida gap boradi. Bu o'quv-chilarda mehnatning yutuqlariga nisbatan qiziqish uyg'onishiga yor-dam beradi. O'quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash texnologiya ta'limining Boshlang'ich sinf mehnat ta'limida keng ma'nodagi mehnatning ilmiy asoslari haqida emas, mehnat ta'limning elementlari to'g'risida gap boradi. Bu o'quv-chilarda mehnatning yutuqlariga nisbatan qiziqish uyg'onishiga yordam beradi.

O'quvchilarni mehnatga amaliy tayyorlash mehnat ta'limining muhim omillaridan biridir. U o'zaro bog'langan bir nechta elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish, u yoki bu materialga ma'lum izchillikda ishlov bera olish, yo'l qo'yilgan xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'irlay olish kabilardan tarkib topadi. U o'zaro bog'langan bir nechta elementlardan: oddiy asbob va moslamalardan foydalana bilish, u yoki bu materialga ma'lum izchillikda ishlov bera olish, yo'l qo'yilgan xatoni o'z vaqtida aniqlash va to'g'irlay olish kabilardan tarkib topadi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda texnologiya darslarini to‘g‘ri tashkil etish va innovatsion texnologiyalardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Innovatsion metodlar yordamida o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishi ortadi, ular mustaqil fikrlashga o‘rganadi va amaliy ko‘nikmalarni egallaydi. Shu sababli, har bir o‘qituvchi dars jarayonida zamonaviy yondashuvlardan samarali foydalanishi zarur. Bu esa kelajakda bilimli, ijodkor va raqobatbardosh avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.Sanaqulov. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi [Matn]: Darslik / X.Sanaqulov [va boshqalar] - Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2015.
2. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o‘qitish metodikasi. 0 ‘quv q o ‘llanma. T.; TDPU. 2007-yil.
3. https.//zenodo. org

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING KREATIVLIGINI STEAM TA”LIMI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Urazbayeva Maftuna - Innovatsion Texnologiyalar Universiteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636558

Annotatsiya. Mazkur tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativligini rivojlantirishda STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) ta’lim yondashuvining nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Xususan, texnologiya fanlari orqali o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish, innovatsion g‘oyalarni ishlab chiqish hamda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish masalalari tahlil etilgan. Tadqiqot natijalariga tayanib, STEAM yondashuvi o‘quvchilarning kreativlik darajasini oshirishda samarali pedagogik vosita ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Kreativlik, STEAM ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, texnologiya fanlari, innovatsiya, ijodiy fikrlash, fanlararo integratsiya.

Abstract: This thesis extensively covers the theoretical and practical aspects of the STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) educational approach in developing the creativity of primary school students. In particular, the issues of developing creative thinking, problem-solving, innovative ideas, and practical skills in students through technology sciences were analyzed. Based on

the results of the study, it is argued that the STEAM approach is an effective pedagogical tool for increasing students' creativity.

Keywords: Creativity, STEAM education, primary education, technology subjects, innovation, creative thinking, interdisciplinary integration.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti bevosita innovatsion texnologiyalar, ilm-fan, yutuqlari va kreativ g‘oyalarga asoslanmoqda. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri-o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki kreativ fikrlay oladigan, muammolarni mustaqil hal eta oladigan va yangiliklar yaratishga qodir shaxslar sifatida shakllantirishdir. Ilmiy manbalarda kreativlik yangi, orginal va foydali g‘oyalarni yaratish qobiliyati sifatida talqin qilinadi hamda u XXI asrning eng muhim kompetensiyalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Kreativ fikrlash o‘quvchilarning bilimlarini chuqur o‘zlashtirishiga, ularni amaliyotda qo‘llashiga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning intellektualva ijodiy rivojlanishida muhim davr hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aynan kichik yoshdagi o‘quvchilarda kreativlik darajasi yuqori bo‘ladi va ularni to‘g‘ri yo‘naltirish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Shu bois kreativlikni rivojlantirishni aynan boshlang‘ich bosqichdan tashkil etish pedagogik jihatdan muhim hisoblanadi.[1]

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun kreativ fikrlashning rivojlanishi quyidagicha muhim ahamiyatga ega:

• **Muammolarni samarali yechish**: Bolalar atroflaridagi dunyoni tushunish va undagi qiyinchiliklarga ijodiy yondashuvlar bilan yechim topishni o‘rganadilar.

• **Akademik muvaffaqiyat**: Kreativ o‘quvchilar mavzuni chuqurroq tushunishadi, yangi ma'lumotlarni qabul qilishda faollik ko‘rsatishadi va o‘quv materialini mustahkamlashda ijodiy usullardan foydalanadilar.

• **Shaxsiy rivojlanish**: O‘zini ifoda qilish, o‘ziga ishonchni oshirish, mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

• **Kelajak kasblariga tayyorgarlik**: Zamonaviy dunyoda talab qilinadigan innovatsion kasblar uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantiradi.

• **Ijodiy salohiyatni ochish**: Turli sohalarda (san'at, musiqa, adabiyot, fan) o‘z iste'dodini kashf etish va rivojlantirish imkonini beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ fikrlash xususiyatlari ko‘pincha o‘yin orqali, tasavvurga asoslangan faoliyatlarda namoyon bo‘ladi. Ular tabiatan izlanuvchan, savol beruvchan va yangiliklarga ochiqdirlar. Shuning uchun ham, ta'lim jarayonini ularning bu tabiiy qiziqishlari va imkoniyatlariga mos ravishda tashkil etish muhim.[2]

Boshlang‘ich sinflarda STEAM yondashuvini muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi usul va texnologiyalardan foydalanish mumkin:

• “Maker Space” (Ijodkorlik laboratoriyalari): Bu maxsus jihozlangan xonalar bo‘lib, unda bolalar turli materiallar (karton, plastilin, yog‘och parchalari, plastik idishlar, elektron komponentlar, turli vositalar) yordamida o‘z g‘oyalarini amalga oshirishlari mumkin. Oddiygina qilib, bolalar uchun "ijodiy burchak"lar tashkil etish ham foydali.

• Robototexnika (Robotics): LEGO Mindstorms, Ozobot, Makeblock kabi bolalar uchun mos robototexnika to‘plamlari yordamida o‘quvchilar dasturlash asoslarini o‘rganishlari, robotlar yasashlari va ularga vazifalar yuklashlari mumkin. Bu texnologiya, muhandislik va muammolarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

• Tabiatshunoslik va Tajribalar: Oddiy laboratoriya uskunalari (lupa, mikroskop) va xavfsiz kimyoviy moddalar yordamida o‘tkaziladigan qiziqarli tajribalar fan (Science) elementini o‘rgatadi. Masalan, o‘simliklar o‘sishini kuzatish, suvning holatlarini o‘rganish.

• Art-integratsiya: Chizmachilik, rang-tasvir, musiqa, teatr elementlarini darslarga kiritish. Masalan, fanda o‘rganilgan jarayonni rasm chizish orqali ifodalash, matematik qonuniyatlarni musiqa orqali tushuntirish.

• Ekspeditsiyalar va Ekskursiyalar: Muzeylarga, texnik markazlarga, tabiatga sayohatlar bolalar uchun yangi ma'lumot manbai bo‘lib, ularni atroflicha o‘rganishga undaydi.

• Tashrif buyuruvchi mutaxassislar: Muhandislar, rassomlar, olimlarni maktabga taklif qilib, ular bilan uchrashuvlar tashkil etish bolalarga kasblar haqida tushuncha beradi va ularni ilhomlantiradi.

• Muzey va Ko‘rgazmalar: O‘quvchilarni muzeylarga, ilm-fan ko‘rgazmalariga olib borish ularda yangi g‘oyalar shakllanishiga yordam beradi.

STEAM asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi hamda real hayotiy muammolarni hal etishga tayyorlaydi. Shu bilan birga, o‘qituvchidan yuqori darajada metodik tayyorgarlik, kreativ yondashuv va doimiy o‘z ustida ishlashni talab etadi.[3]

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativligini rivojlantirishda STEAM ta’limi muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ayniqsa, texnologiya fanlari orqali ushbu yondashuvni amalga oshirish o‘quvchilarning ijodiy, tanqidiy va amaliy fikrlashini, kreativ salohiyatini, hamkorlikda ishlashni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bois, ta’lim tizimida STEAM yondashuvini keng joriy etish, innovatsion dars metodlarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijada, boshlang‘ich ta’lim bosqichidayoq o‘quvchilarda zamonaviy jamiyat talablariga mos, ijodkor va tashabbuskor shaxs sifatlari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Farrux Qodirov. Development of scientific and technological system of management of industrial enterprises. Scienceweb academic papers collection. 2023

2. Qodirov, Farrux. “The role of ict in the development of health services.” Raqamli transformatsiya jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etishda ma’lumotlarni himoyalash muammolari va yechimlari respublika ilmiy-amaliy anjumani ma’ruzalar to‘plami (2022).

3. Qodirov, Farrux. “Protecting websites from various attacks.” Ахбороткоммуникация технологияларини ривожлантириш шароитида

инновациялар мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман маърузалар туплами (2019).

4. Abduraimova G.O. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini texnologiya fanini o‘qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish // Maktabgacha ta’limda davlat va nodavlat sektorini rivojlantirish: yangi shakllar va ta’lim mazmuni. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent. 2019.
5. www.in.academy.uz
6. www.inliberary

BOSHLANG'ICH SINFLAR O’QUVCHILARINING JISMONIY RIVOJLANISHI VA JISMONIY TAYYORGARLIGINI MONITORING QILISH METADOLOGIYASI

Sharibaeva Rano Azat qızı - Innovatsion texnologiyalar universiteti Boshlang’ich ta’lim mutaxassisligi 1-boshqich talabasi

Joldasbaev Paraxat Muratbaevich - Innovatsion texnologiyalar universiteti Maktabgacha va boshlang’ish talim kafedrasi docent v.v.b

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636598

Annatatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflar o’quvchilarining jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligini monitoring qilish metadologiyasi yuzasidan adabiyotlar taxlili xamda bir qator yangi ilmiy ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: Boshlang'ich sinflar, o’quvchilar, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik monitoring, metadologiya.

Annotation: this article provides a number of new scientific data on the methodology for monitoring the physical development and physical fitness of students of primary classes.

Keywords: elementary grades, students, physical development, physical fitness monitoring, metadology.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi ta'limni modernizatsiya qilish jarayonlari to'g'ridan-to'g'ri ta'lim muassasalari faoliyatining barcha sohalariga tegishli. Zamonaviy maktabda sodir bo'layotgan o'zgarishlar zamonaviy darsni tashkil etishga bo'lgan yondashuvlarni ham o'zgartiradi. Hozirgi vaqtda ta'lim sohasida, o'quvchilarimizning o'qishi va sog'lig'i o'rtasida yuzaga kelgan vaziyat qarama-qarshi qutbga ega bo'ldi. Bilimlarni ta'qib qilish, o'quv jarayonini jadallashtirish, kompyuterlashtirish, bolalarimizning salomatligi so'nggi yillarda o'quvchilarning sog'lig'i statistikasi jamiyat uchun ham, umuman davlat xavfsizligi uchun ham tahdid solmoqda. Jismoniy faollikning pasayishi, psixologik stresslarning kuchayishi, ekologik vaziyatning yomonlashishi o'quvchilarning yosh va zaif tanasiga keskin ta'sir ko'rsatdi va ko'plab bolalarda kasallik va ularning sog'lig'ining buzilishiga olib keldi. Ushbu qiyin vaziyatda, o'quvchilarimiz o'rtasida sog'lom turmush tarzini olib borish, ularning sog'lig'ini nazorat qilish, ularning imkoniyatlarini baholash qobiliyatini nazorat qilish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi

boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi monitoringini o'rganish.

Asosiy qism Jismoniy tarbiya barcha ta'lim tizimlarining ajralmas qismidir. Jismoniy tarbiya yoshlarda muvaffaqiyatli aqliy va mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Maktab yoshidagi jismoniy madaniyatning ahamiyatini baholashda umumiy jismoniy tarbiya va jismoniy rivojlanish muammolarini hal qilishda uning zarurligini hisobga olish muhimdir. Jismoniy faollik o'sayotgan organizmning tabiiy ehtiyoji, jismoniy rivojlanishning ajralmas sharti, salomatlikni mustahkamlash va organizmning noqulay sharoitlarga chidamliligini oshirishdan kelib chiqish kerak. Mazmunli jismoniy faoliyatning etishmasligi (jismoniy harakatsizlik) muqarrar ravishda jismoniy rivojlanishda tuzatib bo'lmaydigan yo'qotishlarga, tananing mudofaasining zaiflashishiga va jiddiy sog'liq muammolariga olib keladi. Maktab yoshidagi jismoniy tarbiya, ayniqsa, hayotda zarur bo'lgan vosita ko'nikmalarini, ko'nikmalarini shakllantirish, motor faoliyatining turli sharoitlarida ulardan amaliy foydalanish asoslarini o'zlashtirish uchun katta ahamiyatga ega.

Inson hayotining maktab davrida jismoniy madaniyatning ahamiyati har tomonlama jismoniy rivojlanish, salomatlikni mustahkamlash, turli xil vosita qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantirish uchun asos yaratishdir. Bularning barchasi shaxsning uyg'un rivojlanishi uchun ob'ektiv shart-sharoitlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Faol jismoniy tarbiya mashg'ulotlarisiz maktab yoshidagi bolalarning to'liq rivojlanishi deyarli mumkin emas. Jismoniy faollikning etishmasligi o'sayotgan inson tanasining sog'lig'ini jiddiy ravishda yomonlashtirishi, uning mudofaasini zaiflashtirishi va to'liq jismoniy rivojlanishni ta'minlamasligi aniqlandi.

Maktab yoshi turli xil vosita qobiliyatlari va ko'nikmalarini o'rganish uchun eng qulay hisoblanadi, bu esa keyinchalik turli xil vosita sharoitida o'zlashtirilgan harakatlarni tezroq bajarishga imkon beradi.

Maktab yoshida ma'lum darajada jismoniy va aqliy ishlashga erishiladi, bu umuman nazariy o'quv fanlari va jismoniy tarbiya o'quv dasturlarining dasturiy materiallarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishga imkon beradi.

Maktab yoshidagi bolalar va yoshlarni tarbiyalashda jismoniy madaniyatdan maqsadli foydalanish quyidagi vazifalarni hal qilishni ta'minlaydi.

Sog'lomlashtirish vazifalari:

1. Salomatlikni mustahkamlash, normal jismoniy rivojlanishni rag'batlantirish:

a) to'g'ri holatni shakllantirish;
b) tananing turli mushak guruhlarining rivojlanishi;
c) tananing barcha tizimlari va ularning funktsiyalarini to'g'ri va o'z vaqtida rivojlantirish;
d) asab tizimini mustahkamlash, metabolik jarayonlarni faollashtirish.

2. Jismoniy fazilatlarning har bir yosh va jins uchun maqbul barkamol rivojlanishini ta'minlash:

Boshlang'ich maktab yoshida jismoniy fazilatlarning har tomonlama rivojlanishiga e'tibor berish kerak, ammo muvofiqlashtirish qobiliyatlarini, shuningdek harakatlarning tezligini oshirishga e'tibor qaratiladi.

O'rta maktab yoshida tezlik qobiliyatlarini barcha shakllarida tarbiyalashga katta e'tibor beriladi, shuningdek, quvvat komponentining cheklangan kuchlanishlari bilan bog'liq bo'lmagan tezlik-kuch tayyorgarligi qo'shiladi.

Katta maktab yoshida tezlik-kuch va haqiqiy kuch fazilatlarini, shuningdek umumiy va anaerobik chidamlilikni tarbiyalash bo'yicha ishlarni bajarish maqsadga muvofiqdir.

Tananing tashqi muhitning salbiy ta'siriga chidamliligini oshirish. Har qanday imkoniyatda jismoniy tarbiya darslari, shu jumladan jismoniy tarbiya darslari, zalda emas, balki toza havoda o'tkazilishi tavsiya etiladi.

Umumiy samaradorlikni oshirish va gigiena ko'nikmalarini shakllantirish. Ushbu vazifalar maktab o'quvchilaridan har kuni jismoniy mashqlar qilishni, suv, havo, quyosh protseduralarini qabul qilishni, o'qish va dam olish, uxlash va yaxshi ovqatlanish rejimlariga rioya qilishni talab qiladi. Bu, ayniqsa, yosh va o'rta maktab yoshiga to'g'ri keladi, chunki aynan shu davrda tananing barcha tizimlari va funktsiyalarining eng jadal rivojlanishi amalga oshiriladi.

Ta'lim vazifalari:

Hayotiy vosita ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida zarur bilimlarni shakllantirish.

Ta'lim vazifalari:

1. Jismoniy mashqlar bilan mustaqil shug'ullanish, ularni dam olish, mashq qilish, samaradorlikni oshirish va salomatlikni mustahkamlash uchun ongli ravishda qo'llash zarurati va ko'nikmalarini tarbiyalash.

2. Shaxsiy fazilatlarni tarbiyalash (estetik, axloqiy va boshqalar), aqliy jarayonlarning rivojlanishiga ko'maklashish.

Ro'yxatda keltirilgan vazifalar umumta'lim muassasalarida (maktab, maktab, litsey, kollej va boshqalar) jismoniy tarbiyani tartibga soluvchi rasmiy hujjatlarda keltirilgan. Ular maktab yoshida jismoniy madaniyatdan maqsadli foydalanishning barcha jihatlari uchun indikativ munosabat rolini o'ynaydi.

Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari jismoniy mashqlardir, chunki ular hayotiy ko'nikma va ko'nikmalarni shakllantirish, jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish, organizmning moslashuvchan xususiyatlarini oshirish va ilgari yo'qolgan funktsiyalarini tiklashga imkon beradi.

Rivojlanishning asosiy bosqichlari tug'ilishdan boshlab intrauterin va tug'ruqdan keyingi bosqichlardir. Intrauterin davrda to'qimalar va organlar yotqiziladi, ularning differentsiatsiyasi sodir bo'ladi. Postnatal bosqich butun bolalikni qamrab oladi, bu organlar va tizimlarning doimiy

kamoloti, jismoniy rivojlanishdagi o'zgarishlar, tananing faoliyatini sezilarli darajada sifatli qayta qurish bilan tavsiflanadi. Postnatal ontogenezda organlar va tizimlarning kamolotining heteroxroniyasi turli yoshdagi bolalar tanasining funktsional imkoniyatlarining o'ziga xos xususiyatlarini, uning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirini aniqlaydi.

Bolaning jismoniy rivojlanishining xarakteristikasi tana o'lchamlarining mutlaq qiymatlari asosida o'rnatiladigan jismoniy rivojlanish darajasini o'z ichiga oladi; somatik tip - skelet, mushaklar va yog ' birikmalarining rivojlanishini taxminan aks ettiruvchi uchta asosiy tana hajmining (bo'yi, vazni, ko'krak qafasi atrofi) nisbati; tananing umumiy hajmining o'sish intensivligi oshiradi.

Maktabda jismoniy tarbiya, umumiy ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida, jismoniy, axloqiy salomatlikni rivojlantirishni, shaxsning aqliy va jismoniy xususiyatlarini shakllantirishga kompleks yondashuvni, jismoniy faoliyatning turli shakllaridan keng foydalanish orqali faol hayot va kasbiy faoliyatga jismoniy va psixologik tayyorgarlikni ta'minlashi kerak.

Jismoniy tarbiyaning maqsadi salomatlikni mustahkamlash, jismoniy tayyorgarlik va samaradorlik darajasini oshirish, jismoniy tarbiya sohasida zarur bilimlarni berish va o'z tanasini
takomillashtirish uchun ulardan amaliy foydalanishga o'rgatish, o'quvchilarning jismoniy vama'naviy rivojlanishi uchun motivatsiyani shakllantirish va umuman jamiyatning ma'naviy va jismoniy rivojlangan shaxsni shakllantirish ehtiyojlarini qondirishdir.

Jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanishni sinovdan o'tkazish talabalarning motorli ko'nikmalarini o'rganishning asosiy usullari hisoblanadi. Sinovning maqsadi maktab o'quvchilarining jismoniy fazilatlari, jismoniy rivojlanishi, funktsional holatining rivojlanish darajasini aniqlash, turli yosh davrlarida ularning tayyorgarlik darajasini taqqoslashdir. Ob'ektiv baholash uchun o'quvchilarning jismoniy holatining xususiyatlarini yosh va populyatsiya me'yorlari bilan taqqoslang. Shuningdek, jismoniy tayyorgarlik va jismoniy rivojlanishni nazorat qilishning muhim jihati o'rganilayotgan ko'rsatkichlarni baholash shkalalarini ishlab chiqish, o'quvchilarning motor qobiliyatlari tuzilishidagi yoshga bog'liq o'zgarishlarni o'rganishdir.

Xulosa

Sport mashg'ulotlari va jismoniy tarbiya sohasi orqali o'zlarini tasdiqlash istagini rag'batlantirish kerak, boshqa tomondan, ushbu yoshdagi bolalarda ularning sog'lig'ining yuqori darajasining ijtimoiy ahamiyati to'g'risida tushunchani shakllantirish, burch ezgu tuyg'ularini tarbiyalash, zaiflarga yordam berish, jismoniy jihatdan g'ayrioddiy odam uchun kuch va ruxsat kompleksining paydo bo'lishining oldini olish kerak. Shu ma'noda, jismoniy iqtidorli yosh sportchilarni jismoniy tarbiya sohasidagi ijtimoiy ishlarga, shu jumladan bolalar va tengdoshlar bilan ishlashga jalb qilish o'spirin shaxsini axloqiy tarbiyalashning kuchli vositasi bo'lishi mumkinligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мустафьев, В. Л. Оценка физической подготовленности школьников / В. Л. Мустафьев // Физическая культура в школе. – 2003. – № 2. – С. 26□ 29. 28.

2. Мутко, В. Л. Концепция дополнительного урока физкультуры и первый опыт ее реализации / В. Л. Мутко // Ученые записки университета П. Ф. Лесгафта. – 2006. – № 20. – С. 49–53. 29.

3. Назаренко Л. Д. Средства и методы развития двигательных координаций : моногр. / Л. Д. Назаренко. – М. : Теория и практика физической культуры, 2003. – 258 с. 30.

4. Пелепейко, С. В. Технология повышения уровня физического состояния школьников на основе использования средств ту- 140 ризма / С. В. Пелепейко // Ученые записки университета П. Ф. Лесгафта. – 2009. – № 7 (53). – С. 89□ 92. 33.

5. Пирогова, Е. А. Влияние физических упражнений на работоспособность и здоровье человека / Е. А. Пирогова, Л. Я. Иващенко, Н. П. Стратко. – Киев : Здоров’я, 1986. – 152 с. 34.

6. Поляков, С. Д. Мониторинг и коррекция физического здоровья школьников : метод. пособие / С. Д. Поляков, С. В. Хрущев, И. Т. Корнеева. – М. : Айрис-пресс, 2006. – 96 с. 35.

BOSHLANGICH SINFLARDA HARAKATLI O'YINLAR ORQALI JISMONIY SIFATLARNING RIVOJLANISHI. KUCH, TEZKORLIK, CHAQQONLIK, CHIDAMLILIK, EGILUVCHANLIK.

Sharibaeva Rano Azat qızı - Innovatsion texnologiyalar universiteti Boshlang’ich ta’lim mutaxassisligi 1-boshqich talabasi

Joldasbaev Paraxat Muratbaevich - Innovatsion texnologiyalar universiteti Maktabgacha va boshlang’ish talim kafedrasi docent v.v.b

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636665

Anotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida harakat sifatlarini rivojlantirishda harakatli o'yinlardan vosita sifatida to'g'ri foydalanish muhokama qilinadi. Zamonaviy O'zbekistonning hozirgi bosqichda boshlang’ich sinf o'quvchilarini jismoniy tarbiya sohasidagi muammolari ochib berilgan. Dars shaklida boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat sifatlarini rivojlantirishni tabaqalashtirilgan dasturlash bilan bog'liq yangi yondashuvlarni ishlab chiqish masalalari ko'rib chiqiladi, bu maktabda jismoniy tarbiya muammolarini hal qilishni takomillashtirishga imkon beradi. Ishlab chiqilgan uslublarning ijobiy ta'siri aniqlanadi. Belgilangan vazifalarni hal qilish uchun tadqiqot usullari majmuasi qo'llaniladi:

Kalit so’zlar: Maktabgacha, yoshdagi, jismoniy ,tayyorgarligi, kuch, tezkorlik.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tayyorgarligi. O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama jismoniy tarbiyalash ta'lim-tarbiya muassasalari, oila, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi kuch-g'ayratlari bilan amalga oshiriladi. Jismoniy tarbiya sog'liqni yaxshilashga, jismoniy sifatlami rivojlantirishga, yoshlami mehnatga va Vatanni himoya qilishga tayyorlashga qaratilgandir. Bolalarni o'rab turgan muhit o'zgarib bormoqda. Oddiy, sodda o'yinlar o'rniga kompyuter o'yinlari kirib keldi. Bolani aqliy, estetik rivojlantirish ustuvorlik kasb etmoqda. Ularni ahamiyatini inkor etmagan holda aytish kerakki, harakatli o'yinlar,

sayrlar, tengdoshlari bilan muloqot qilishga bolaning vaqti tobora kamayib ketyapti. O'yin bilan bola faoliyatining boshqa turlari, o'yinlarning har xil turlari orasidagi muvozanatning buzilishi (harakatli va o'tirib o'ynaydigan, alohida va birgalikdagi) maktabgacha yoshdagi bolalar salomatligida ham, harakat qobiliyatlarining rivojlanish darajasida ham o'z salbiy aksini topadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish muammolarini hal etishning yangi yo'llarini izlash, birinchidan, ko'rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik rivoji jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va usuliy sharoitlarini o'rganish zarurati bilan bog'liqdir.

Harakatli o‘yilarni o‘tkazishda o‘quvchilarni yosh xususiyatlarini hisobga olishda eng avvalo o‘quvchilarni yoshiga, jinsiga va fiziologik xususiyatlarini e’tiborga olishni taqozo etadi. Bundan tashqari o‘yinlarni qay holatda, qaerda, o‘tkazilishi muhim ahamiyatga egadir. Harakatli o‘yinlar o‘z vazifasiga ko‘ra bilim beruvchi, sog‘lomlashtiruvchi, davolovchi hamda hordiq chiqaruvchi bo‘limlarga bo‘linadi. Milliy o‘yinlardan foydalanish jarayonida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak:

1. Bola odamlarning foliyati, ularning predmetlarga munosabati va o‘zaro muomalasiga, munosabatiga qiziqadi.
2. Bolalar xalq o‘yinlarida atrofdagi voqe’likning eng tashqi ifodali jo‘shqin his-tuyg‘uli jihatlarini aks ettiradilar.
3. Milliy o‘yinlarda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o‘z istagini amaliyotga tadbiq qiladi.
4. Kattalarning hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo‘lsa ham, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o‘chmas iz qoldiradi.

Shu bobni xulosa qilib aytish mumkinki, milliy xalq o‘yinlaridan foydalanishda, ularni qo‘llashda shuni hisobga olish kerakki, bu yoshdagi bolalar aniqlikni talab etadigan mayda harakatlarga qaraganda keng, kuchli harakatlarga ancha moyil bo‘ladilar. Buni bolalar yosh davrlarini ishlab chiqqan buyuk pedagog Ya.N.Komenskiy ham o‘z vaqtida ta’kidlagan edi.

Umuman bu yoshda bolalar juda ham harakatchanligi bilan ajralib turadi. Harakatchanlik esa maxsus, oqilona tashkil etilishni, harakatga soluvchi yurish-turish shakllarining to‘g‘riligini talab etadi.

Bolalarning bu yoshida tormozlanish va qo‘zg‘alish jarayonlarini muvozanatligini yuzaga keltirishda kattalar talabining tizimliligi va o‘zini tuta bilishga odatlantirish katta rol o‘ynaydi.

Milliy o‘zbek o‘yinlarini yoshlar, ayniqsa maktab o‘quvchilari sevib, maroq bilan o‘ynamoqdalar. Bunday o‘yinlar jismoniy tarbiya darslaridagina emas, balki hovlilar va bog‘, parklarda dam olish soatlarida o‘ynaladi. Muhim sifatlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan umumiy rivojlantiruvchi va maxsus mashqlarga doir

bayon qilingan material, ko‘proq o‘yin tarzida beriladi, lekin mashqlarni tushuntirish va faol dam olish uchun, qisqacha pauzalar bo‘lgan kichik dozada uzluksiz bajariladi. O‘yin mashqlaridan keyin bo‘shashtiradigan, ohista yuriladigan mashqlarni yoki diqqat-e’tiborini o‘stiradigan mashqlarni berish lozim.

Har xil maktab yoshidagi bolalar bilan harakatli o‘yinlarni tashkil qilish va o‘tkazish turli-tuman tusga ega bo‘ladi. Harakatli o‘yinlar o‘tkazish metodikasi bolalarning ruhiy va fiziologik xususiyatlariga, ularning umumiy rivoji va tayyorgarligiga bevosita bog‘liq. Bolalar bilan ishlash amaliyoti harakatli o‘yinlar o‘tkazish metodikasi to‘rtta asosiy yosh guruhiga mos ravishda ko‘rib chiqilishi va har birining yosh xususiyatlariga ko‘ra barcha bolalarning o‘yinga qiziqishiga nisbatan o‘zaro yaqinligini ko‘rsatadi. Bu guruhlar quyidagilarni tashkil etadi: 1-2-sinf o‘quvchilari: 7-9 yoshli bolalar; 3-4-sinf o‘quvchilari: 9-11 yoshli bolalar; 5-9-sinf o‘quvchilari: 12-15 yoshli o‘smirlar va AL va KHK o‘quvchilari: 16-18 yoshdagi yoshlar.

O‘yinni taxlil qilish

O‘yinni natijalarini e’lon qilishda o‘yinni tushinib etish, o‘yin qatnashchilari tomonidan texnik usullar va texnikasida qo‘yilgan xatosini ko‘rsatib berish zarur. Kichik maktab yoshidagi bolalarga o‘yinni syujetini taxlil qilishda o‘yinni syujetini rivojlantirishdagi ijobiy va salbiy tomonlarni, aloxida rollarni yaxshi bajargan o‘yin qatnashchilarini ko‘rsatib o‘tish juda foydali bo‘ladi. Ijobiy tashabbus ko‘rsatgan va o‘yin qoidalariga rioya qilgan o‘quvchilarni aloxida o‘rnak uchun ko‘rsatib o‘tish kerak.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ya’ni o‘yin jarayonini o‘tkazishini o‘zi juda murakkab: u nafaqat bolalarni yosh xususiyatlariga, ishlash sharoitiga, balki bolalarni jamoa bo‘lib o‘ynashga tayyorgarligiga, ularni kayfiyatiga, o‘yin rahbarini o‘zining maxoratiga ham bog‘liq bo‘ladi. O‘yinni o‘tkazish pedagogik jarayon bo‘lib, uni xardoim ham oldindan aytib bo‘lmaydi.

Bolalar bilan shug‘ullanishni amaliy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, o‘yin jarayonida o‘ynovchilarni harakatini taxlil qilishni va tuzatishni bilish, to‘g‘ri taxlil qilishni va o‘yinni raxbari sifatida o‘zini xulqini baxolashni bilish o‘yinga raxbarlik qilish maxoratini takomillashtirishga yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi bo'yicha turli adabiyotlarda bolalarning jismoniy va harakat tayyorgarligi jarayoni mazmuni bir xil talqin etilmaydi. Masalan,T.I.Osokinani darsliklarida harakat faoliyatlarini shakllantirish bilan birga jismoniy sifatlar: chaqqonlik (shu jumladan, harakat koordinatsiyasi qobiliyatlari), umumiy chidamlilik, tezlik-kuch sifatlari, shuningdek, muvozanat saqlash qobiliyatini rivojlantirish zaruriyati qayd etiladi. A.V.Keneman va D.B.Xuxlaevaning o'quv qo'llanmasida kuch, chidamlilik, egiluvchanlik, chaqqonlik, tezkorlik kabi jismoniy sifatlarni, muvozanatni saqlash qobiliyatini alohida ajratgan holda rivojlantirish zarurati xususida so'z boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мустафьев, В. Л. Оценка физической подготовленности школьников / В. Л. Мустафьев // Физическая культура в школе. – 2003. – № 2. – С. 26-29. 28.

2. Мутко, В. Л. Концепция дополнительного урока физкультуры и первый опыт ее реализации / В. Л. Мутко // Ученые записки университета П. Ф. Лесгафта. – 2006. – № 20. – С. 49–53. 29.
3. Назаренко Л. Д. Средства и методы развития двигательных координаций : моногр. / Л. Д. Назаренко. – М. : Теория и практика физической культуры, 2003. – 258 с. 30.
4. Пелепейко, С. В. Технология повышения уровня физического состояния школьников на основе использования средств ту- 140 ризма / С. В. Пелепейко // Ученые записки университета П. Ф. Лесгафта. – 2009. – № 7 (53). – С. 89-92. 33.
5. Пирогова, Е. А. Влияние физических упражнений на работоспособность и здоровье человека / Е. А. Пирогова, Л. Я. Иващенко, Н. П. Стратко. – Киев : Здоров’я, 1986. – 152 с. 34.
6. Поляков, С. Д. Мониторинг и коррекция физического здоровья школьников: метод. пособие / С. Д. Поляков, С. В. Хрущев, И. Т. Корнеева. – М. : Айрис-пресс, 2006. – 96 с. 35.
7. Boshlangich Sinflarda Harakatli o'Yinlar Orqali Jismoniy Sifatlarning Rivojlanishi.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTERAKTIV VA RAQAMLI VOSITALARDAN FOYDALANISH TENDENSIYALARI

Abdisadikova Gulnar Quwanıshbay qızı - Innovatsion texnologiyalar universiteti assistenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636782

Annotatsiya. Ushbu tezisda boshlang‘ich ta’lim jarayonida interaktiv va raqamli vositalardan foydalanishning zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarning o‘quvchilar bilimini oshirishdagi o‘rni, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ta’lim jarayonida uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, interaktiv va raqamli vositalardan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshirishda muhim omil ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, raqamlashtirish, interaktiv vositalar, raqamli texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, ta’lim samaradorligi, innovatsion yondashuvlar, raqamli savodxonlik, masofaviy ta’lim, o‘quv jarayoni.

Abstract. This thesis analyzes the modern trends in the use of interactive and digital tools in primary education. It highlights the role of digitally supported lessons in enhancing students’ knowledge, as well as their importance in developing independent thinking skills. In addition, the problems arising in the educational process and ways to address them are considered. The results of the study substantiate that the effective use of interactive and digital tools is an important factor in improving the quality of education.

- sóylewdi rawajlandırıw boyınsha sóylewdiń ses mádeniyatın qáliplestiriw, dóretiwshilik sóylew, sóylewdiń grammatikalıq dúzilisin qáliplestiriw, sózligin bayıtıw aktivlestiriw, matematika boyınsha san hám sanaw, muǵdar (shama), formalar, keńisliktegi kózqaraslar, waqit haqqında túsinik. Oqiw oyınları boyinsha reńdi tabiń (reńlerdi duris ajiratiw), formani tabiń (dóńgelek, kvadrat, úshmúyeshlik hám basqa formalar), saqıynalardıń forması hám reńleri boyınsha oyınlar, ekologiyaga haqqındaǵı oyınlar hám hár qıylı dástúriy rawajlandırıwshı oyınlar, tábiyat penen tanıstırıw boyınsha gúlzarǵa ekskursiya, paxta atızına ekskursiya, qarshıǵa hám kepterdi baqlaw, olardıń ózgeshelikleri hám ayırmashılıǵı, hawa hám onıń qásietleri menen tanıstırıw, suw hám onıń qásietleri menen tanıstırıw kiredi. Bizge belgili, multimedia texnologiyası, tiykarınan, kompyuterler járdeminde ámelge asırıladı. Biraq, házirgi kúnde respublikamızdıń kópshilik мektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlarinde kompyuterler menen tolıq támiyinlenbegen.

Birinshi mashqaladan waqtinsha shıǵıw ushın ayırım mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerde kompyuterli sabaqlardıń birinshi basqıshın televizor hám DVD qurılmaları arqalı ámelge asırıw imkaniyatı bar. Bunıń ushın programmalıq yaki rolli (atqarıwshılıq) multimediyalıq oqıw quralları tayarlap diskke kóshiriledi.

Ekinshi mashqala sonda, multimedialıq sabaqlar tiykarınan kompyuter járdeminde ámelge asırıladı arttırılıwı sebepli tárbiyalanıwshılar olar menen elementar islew dárejesine ie bolıwı kerek. Bul óz náwbetinde tárbiyalanıwshılarda kompyuter sawatlılıǵın qáliplestiriwdi talap etedi. Ózbekstan Respublikası Ministrler Kabineti tárepinen maqullanǵan, "Mektepke shekemgi jastaǵı balalar tálim-tárbiyasına qoyılatuǵın Mámleket talaplar"ında minimal talaplar qatarında balalar 15-20 minuttan kóp waqıt kompyuterde shuǵıllanıwına jol qoymaw atap

ótilgen. Tárbiyalanıwshılardıń kompyuterm sawatlılıǵın qáliplestiriw ushın mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlar keminde bir jeke kompyuter menen támiyinlengen bolıwı kerek.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Aripov M. Informatika va axborot texnologiyasi asoslari. – T.: Universitet, 2001. -361 b.
2. Abdullaeva S. Ekologik tarbiya vazifalari // Maktabgacha ta_lim. – T.: 2008. -180 b.

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHÓLKEMLERINDE BALALARDI KÓRKEM ÁDEBIYAT PENEN TANISTIRIW

Jumaniyazova Zlixa Reymovna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti Mektepke shekemgi hám baslawısh tálim kafedrası docenti,
Joldasbaeva Sarbinaz Konisbaevna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti Mektepke shekemgi bilimlendiriw baǵdarı studenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637195

Annotaciya. Mektepke shekemgi bilimlendiriwde kórkem ádebiyat penen tanıstırıw usılları, kórkem ádebiyat balalardı aqılıy, ádep-ikramlılıq hám estetikalıq tárbiyalawdıń qúdiretli, tásirsheń quralı sıpatında xızmet etiwi, ol. bala sóylewin rawajlandırıw hám bayıtıwǵa úlken tásir kórsetiwi haqqında ámeliy usınıslar berilgen.

Annotation. The article contains practical recommendations on how to introduce artistic literature in preschool education, mental and effective weapons of fiction, and which significantly affects the development and enrichment of the child's speech.

Kórkem ádebiyat balalardı aqılıy, ádep-ikramlılıq hám estetikalıq tárbiyalawdıń qúdiretli, tásirsheń quralı sıpatında xızmet etedi, ol bala sóylewin rawajlandırıw hám bayıtıwǵa úlken tásir kórsetedi. Poeziyalıq obrazlarda kórkem ádebiyat, jámiet hám tábiyat turmısı, insan sezimleri hám óz-ara qatnasıqlar álemin ashıp beredi hám túsindiredi. Bul úlgiler óz tásir kúshine qaray túrlishe boladı:

- gúrrińlerde balalar sózlerdiń sózligi hám anıqlıǵın bilip aladı;
- qosıqlarda sózdiń muzıkalılıǵın, ırǵaǵın ańlaydı;
- xalıq ertekleri olar aldında tildiń anıqlıǵı hám ekspressivligin kórsetedi, ana tilindegi sóylewdiń yumor, janlı hám obrazlı salıstırıwlar, ańlatpalarǵa qansha bay ekenligin kórsetedi. Balalar kórkem ertekler qaharmanlarına qayǵırıwdı úyrengennen soń olar jaqınları hám átiraptaǵı adamlardıń keypin ańlay baslaydı. Olarda insanıylıq sezimleri – birewdiń dártine sherik bolıw, jaqsılıq qılıw, ádalacızlıqqa qarsılıq kórsetiw qábileti oyanǵan baslaydı. Bul principiallıq, hadallıq, haqıyqıy puqaralıq sezimleri tárbiyalanatuǵın tiykar bolıp esaplanadı. Sezimler biliwden aldın keledi; kim haqıyqatlıqtı sezbegen bolsa, ol bunı túsinbegen hám tanımaǵan shıǵar. Gúrrińler dúnyasına sayaxat balalar qıyalın, olardıń qıyal dúnyasın, fantaziyasın rawajlandıradı. Eń jaqsı ádebiy úlgiler

tiykarında adamgershilik ruwxında tárbiyalanǵan balalar óz gúrrińlerinde hám erteklerinde jábirleniwshiler hám ázzilerdi qorǵaw, jamanlardı jazalaw arqalı ózleriniń ádillik súyiwshiligin kórsetedi. Hám álbette balalar estetikalıq, ásirese ádep-ikramlılıq kózqarasların úlkenlerdiń oqıp shıǵılǵan ertekler boyınsha násiyhatnama pikirlerinen, tayarlanǵan sorawlarǵa juwap beriwden emes, bálkim áyne kórkem erteklerden alıwları tiyis. Oqıǵan ertek boyınsha hádden tıs kóp násiyatlaw úlken, kóbinese bolsa dúzetip bolmaytuǵın zıyan keltiredi: mayda-shúyde sorawlar menen "shashılıp taslanǵan" ertek balalardıń kóz aldında óziniń barlıǵın kórsetedi tartımlılıǵın joǵaltadı, aqıbetinde oǵan balalardıń da qızıǵıwshılıǵı joǵaladı. Sonlıqtan kórkem teksttiń tárbiyalıq imkaniyatlarına tolıq súeniw zárúr. Eger ertek mazmunı onsha úlken bolmasa, oni eki-úsh mártebe aytıp beriw yaki en jarqın orınların tákirarlaw múmkin. Oni aytıp bolgannan soń balalarga sonday sharayattı jaratıw eń qızıqlı táreplerin eske túsiriw hám olardı ertektegi sózler menen sáwlelendiriw usınıs etiledi tákirarlawǵa májbúr bolsın.

Pedagog jaǵday járdeminde balalar menen xalıq gúrrińleri hám dástanlarınıń qaharmanlarınıń qosıqların, qaharmanlardıń atların tákirarlaw, obrazlı sózlerdi balalardıń sanasında bekkemlewdi ámelge asırıw arttıradı, hám olar buni ózleriniń sóylewlerinde qollay baslaydı.

Mektepke shekemgi basqıshtaǵı balalarǵa oqıp beriw ushın onsha úlken bolmaǵan gúrriń hám qosıqlar usınıs etiledi, olar kishi tıńlawshılarda unamlı emociyalardı tárbiyalawǵa járdem beredi. Olardıń balanıń jeke tájiriybesine jaqın bolǵan ańsat mazmunı ápiwayı hám ápiwayı túrde berilgen: uyqaslar uqsas, qosıq qatarları qısqa. Balalar olardı tákirarlap atırǵanda, qatarlardıń jańǵırıǵın, qosıqtıń muzıkalılıǵın ańlap aladı, olardı ańsat qabıl etedi. Sońınan bolsa pútkil qosıqtı este saqlap qaladı. Balalardı kishi jasta kóbirek qosıqlar ózine tartadı, sebebi olar anıq uyqasları, sazlılıǵı hám muzıkalılıǵı menen ayrıqsha ajıralıp turadı. Qayta oqıwda balalar qosıq mazmunın ózlestirip aladı, uyqas hám ırǵaqtı sezedi ayırım sózler hám ańlatpalardı este saqlap qaladı hám sol arqalı ózleriniń sóylewlerin bayıtadı. Bul jasta sóylewdiń ses mádeniyatın tárbiyalaw úlken áhmiyetke iye: qosıq oqıwda kishkentaylarǵa hár bir sózdi anıq aytıp, olardı asıqpaydı. Balalarda uyqasıp atırǵan sózlerge pát beriw ádeti bar, sonlıqtan tárbiyashı logikalıq pátlerdi durıs qoyıwı hám balalardıń da qosıqtı durıs aytıwına erisiwi kerek. Balalardıń jas ózgesheliklerin esapqa alǵan halda olardı hár bir jas basqıshında balalar kórkem ádebiyatı menen tanıstırıp barıw máselelerin kórip shıǵamız. Bala úlkenler menen birgelikte maqallar hám sanaq qosıqlar syujetleri tiykarında qızıǵıwshılıq penen oyınlar shólkemlestiredi, ol seske eliklewge hám folklor baǵdarındaǵı bir qáliptegi tákirarlawlarǵa qulaq túredi hám de olarǵa elikleydi. Bala ádebiy erteklerde bayan etilgen waqiyalardı júdá qatań qabil etedi. Ózine unap qalǵan ertekti bir neshe ret esitiwge de tayar. Onıń qaharmanların illyustraciyalar hám oyınshıqlarda quwanıp tanıp aladı, hár saparı ertektiń baxıtlı juwmaǵın berilip kútken halda syujet háreketleriniń ádettegi izbe-izligin diqqat penen baqlap baradı. Kishkenelerge arnalǵan kórkem ertekler sanı onsha kóp emes. Kishi jastaǵı balalarǵa oqıp beriletuǵın ertekler sheńberin tiykarınan ertekler quraydı. Olar eń jaqsı túrde kishi jastaǵı balalardıń mútájliklerine sáykes keledi, sebebi, ol sóz, nama, muzika hám háreketti ózinde jámlegen. Balalar haywanlar haqqındaǵı xalıq ertekleri menen

tanısadı: "Shalgam," "Bógirsak," "Úyshe," "Shıpar tawıq" hám basqa. Balanıń ádebiy ertekti yaki ózi oylap tapqan ertegin atqarıwı (toparda qayta aytıp beriw, jeke tártipte anlatpa oqıw hám úlkenler menen dialogta oqıw) ushin emocional bayıtılgan atqarıw ortalıǵın jaratıw. Biraq, kórkem ertek tek sóz benen aytılıp qoymastan, al onıń ayırım jarqın tárepleri balalar hám balalar ushın da áhmiyetli pedagoglardıń birgeliktegi háreketleri nátiyjesinde saxnalastırılıwı, oǵan muzıkalıq islew beriliwi, háreketler, súwretler, konstruktiv modeller menen kórsetiliwi múmkin.

Tárbiyashı balalarǵa jaqsı belgili bolǵan dástúriy (haywanlar hám sıyqırlar haqqında) xalıq ertekleri hám dástúriy emes (balalar, tábiyat qubılısları, predmetler haqqında) zamanagóy avtorlıq ertekler ruwxında óz erteklerin toqıwları ushın sharayat jaratıp beriwi kerek; balalardı olardıń óz ómirlerinde júz bergen qızıqlı waqıyalar haqqında gúrrińler dúziwge shaqırıw zárúr. Balalardıń ádebiy erteklerinińózine tán dúzilisi hám tipik personajları haqqındaǵı kóz-qaraslarınan paydalanıp, pedagog bul elementler tiykarında "Eger... bolsa, ne boladı? edi" kategoriyasındaǵı dóretiwshilik oyınlardı shólkemlestiriwi kerek. Bunday oyınlarda tipik qaharmanlar, syujet elementleri erkin qosıladı, nátiyjede ájayıp hám kútilmegen birikpeler payda boladı. Sonday-aq, obrazǵa kútilmegen hám qarama-qarsı baǵdar beriwshi ayrıqsha sózler hám jańǵırıqlar menen ótkeriletuǵın oyınlar da áhmietli. Pedagog balalardıń uyqas penen oyınları, sóz dóretiwshiligi, qosıqtı dawam ettiriw hám qosıq dóretiw, teńewler hám t.b. Máselen, ádebiy ertekler personajlarınıń xarakterin sáwlelendiriwshi jańa mánili atlardı, yamasa ertekte obrazlı súwretlengen zatlar hám hádiyseler ushın jańa atamalar oylap tabıw.

Tárbiyashı balalardıń salıstırmalı úlken kólemdegi ádebiy gúrrińler syujetleri tiykarında oyınlı "qıyaldaǵı álemdi" jaratıwlarına járdemlesiwi kerek. Máselen, úlken kólemdegi ádebiy gúrriń (avtorlıq gúrriń) menen tanıstırıwda ol toparǵa usı gúrrińniń "qıyalındaǵı álemin" alıp kiriwi hám bir neshe kún dawamında (seyilde, oyınlarda) balalar menen birgelikte onıń ishinde "jasawı" múmkin. Estetikalıq qabıl etiw hám dóretiwshilikti rawajlandırıw ushın gúrrińlerdi temaǵa qarap gruppalastırıwdan paydalanıw nátiyjeli. Bul balalarǵa hár qıylı gúrrińlerde súwretlengen obrazdıń variaciyalılıǵın hám onıń bir gúrriń sheńberinde rawajlanıwın; birdey tema baǵdarların kórip shıǵıwda kontekstlerdi ózgertiw, obrazlı ańlatpalardıń túrli formalarınıń óz-ara baylanıslılıǵın (sóz, háreket, ses, súwret) kórsetiw imkaniyatın beredi. Juwmaqlap aytqanda, tárbiyashı balalardıń eń qızıqlı pikirlerin, olardıń jeke tájiriybesine tiyisli gúrrińlerin, balalar tárepinen oylap tabılǵan qosıqlar hám erteklerdi toplawı kerek. Usı materiallar tiykarında balalardıń ózleri tárepinen "kitap" jaratıw jumısların shólkemlestiriw zárúr. Bul balalar tárepinen oylap tabılǵan ertekler, jeke tájiriybege baylanıslı gúrrińler, qosıqlar, esap qosıqlardıń balalar súwretleri menen bezetilgen toplamı, qoljazba jurnalı hám komiksleri boliwi múmkin. Toparda oqilgan, balalar súwretleri, variantlı syujetler, improvizaciyalar hám toqıp, aqırına jetkeriwden ibarat bolgan ol yaki bul ádebiy ertekler motivlerine baylanıslı "kitaplar" da tap usı tárizde dóretiliwi múmkin.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi 2019 yil 16 dekabr O‘RQ-595
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standarti” 2020 yil 22 dekabr 802-sonli qarori.
3. «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent: Maktabgacha ta’lim agentligi nashriyoti, 2022.
4. O‘zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. – Toshkent, 2018.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari to‘g‘risida»gi qarori. – Toshkent, 2018-yil 18-iyun, 1-mh-son.

MAKTABGACHA TA’LIM PEDAGOGINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI

Masharipova Barno Erkin qizi - Univerity of innovation technologies Assistant o`qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637297

Annotatsiya: Mazkur tezisda zamonaviy ta’lim paradigmalari sharoitida maktabgacha ta’lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Pedagoglarning kasbiy rivojlanishida innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, refleksiv faoliyat va uzluksiz ta’lim tizimining ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tizimida pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari va rivojlanish tendensiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetentlik, maktabgacha ta’lim, pedagog, innovatsion yondashuv, uzluksiz ta’lim, refleksiya, raqamli texnologiyalar.

Annotation: This thesis analyzes the issues of developing professional competence of preschool educators in the context of modern educational paradigms. The importance of innovative approaches, digital technologies, reflective practices, and lifelong learning in teachers’ professional development is highlighted. The main directions and trends of improving professional competence in preschool education are also discussed.

Keywords: professional competence, preschool education, teacher, innovative approach, lifelong learning, reflection, digital technologies.

Zamonaviy global ta’lim makonida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar barcha ta’lim bosqichlari qatori maktabgacha ta’lim tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning jadal kirib kelishi hamda ta’limga bo‘lgan yangi ijtimoiy buyurtma pedagog shaxsiga nisbatan mutlaqo yangi talablarni shakllantirmoqda. Xususan, maktabgacha ta’lim pedagogining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi strategik ahamiyat kasb etib, bolalarning intellektual, ijtimoiy-emotsional va nutqiy rivojlanishida hal qiluvchi omil sifatida qaralmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda “kasbiy kompetentlik” tushunchasi pedagogning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, kasbiy qadriyatlari hamda shaxsiy sifatlarining integratsiyalashgan majmui sifatida talqin etiladi. Tadqiqotchilar (O‘.Tolipov, M.Usmonboyeva, Sh.Shodmonov va boshqalar) fikriga ko‘ra, kompetentlik faqat bilimga egalik qilish emas, balki uni real pedagogik vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyatidir. Xalqaro tadqiqotlarda (OECD, UNESCO) esa pedagog kompetentligi “lifelong learning” – uzluksiz o‘rganish tamoyili bilan chambarchas bog‘liqligi ta’kidlanadi.

Maktabgacha ta’lim pedagogining kasbiy kompetentligi tuzilmasi ko‘p komponentli tizim sifatida namoyon bo‘ladi. U quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:

- **motivatsion-komponent** (kasbga sadoqat, pedagogik faoliyatga qiziqish),
- **kognitiv komponent** (nazariy bilimlar tizimi),
- **faoliyatli komponent** (amaliy ko‘nikma va malakalar),
- **refleksiv komponent** (o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyati),
- **kommunikativ komponent** (bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot o‘rnatish).

Zamonaviy sharoitda ushbu komponentlarning uyg‘un rivojlanishi pedagogning kasbiy yetukligini ta’minlaydi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning bir qator ustuvor yo‘nalishlari ajratib ko‘rsatiladi. Avvalo, **innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish** muhim ahamiyatga ega. Jumladan, STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) texnologiyasi, Montessori metodikasi, Reggio Emilia yondashuvi kabi ilg‘or tajribalar bolalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin asosida tashkil etilgan ta’lim faoliyati bolalarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasini 30–40% ga oshiradi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish — **raqamli kompetentlikni shakllantirish** hisoblanadi. Raqamli pedagogika sharoitida tarbiyachi nafaqat axborotni iste’mol qiluvchi, balki uni yaratib, tahlil qilib, samarali qo‘llay oluvchi subyektga aylanishi zarur. Elektron ta’lim platformalari, multimedia vositalari, interaktiv o‘yinlar va mobil ilovalardan foydalanish bolalarning kognitiv faolligini oshiradi. UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli vositalardan to‘g‘ri foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi va individual yondashuvni ta’minlaydi.

Raqamli kompetentlik pedagogning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini, shuningdek, axborot xavfsizligi, media savodxonlik va tanqidiy fikrlash elementlarini ham o‘z ichiga oladi. Xususan, tarbiyachi elektron ta’lim resurslarini yaratish (taqdimotlar, interaktiv mashg‘ulotlar, didaktik o‘yinlar), masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanish, multimedia materiallarini dars jarayoniga integratsiya qilish hamda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda raqamli vositalarni tanlash kompetensiyasiga ega bo‘lishi zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda raqamli vositalardan foydalanish alohida yondashuvni talab etadi. Masalan, interaktiv doskalar, animatsion dasturlar, rivojlantiruvchi mobil ilovalar orqali bolalarning diqqatini jamlash, tasavvurini kengaytirish va nutqiy faolligini rivojlantirish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, vizual va audio materiallar bilan boyitilgan mashg‘ulotlar bolalarning axborotni qabul qilish darajasini an’anaviy usullarga nisbatan sezilarli darajada oshiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar individual yondashuvni ta’minlashda ham muhim vosita hisoblanadi. Har bir bolaning rivojlanish darajasi, qiziqishi va o‘zlashtirish sur’atiga mos kontentni tanlash imkoniyati pedagog faoliyatining samaradorligini oshiradi. Masalan, ayrim bolalar uchun vizual materiallar, boshqalari uchun esa audio yoki interaktiv o‘yinlar samaraliroq bo‘lishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlar, xususan, UNESCO tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, raqamli texnologiyalardan pedagogik jihatdan asoslangan holda foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarning faolligini kuchaytirish va ularning mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli vositalardan foydalanishda me’yoriylik, pedagogik maqsadga muvofiqlik va bolalarning sog‘lig‘ini muhofaza qilish talablari ham inobatga olinishi zarur.

Demak, raqamli kompetentlik maktabgacha ta’lim pedagogining zamonaviy kasbiy portretida muhim o‘rin egallab, u ta’lim jarayonini innovatsion asosda tashkil etish, bolalarning kognitiv va ijodiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash hamda ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Uchinchi yo‘nalish sifatida **refleksiv faoliyatni rivojlantirish**ni alohida ta’kidlash lozim. Refleksiya pedagogning o‘z faoliyatini tahlil qilish, natijalarni baholash va kelgusidagi faoliyatini rejalashtirish imkonini beradi. Zamonaviy pedagogika refleksiyani kasbiy o‘sishning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida e’tirof etadi. Ilmiy tadqiqotlar refleksiv yondashuvga ega pedagoglarning kasbiy samaradorligi an’anaviy yondashuvdagilarga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, **uzluksiz kasbiy rivojlanish (continuous professional development)** tizimi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda pedagoglar uchun malaka oshirish kurslari, onlayn ta’lim platformalari, vebinarlar va xalqaro tajriba almashinuvi imkoniyatlari kengayib bormoqda. OECD tadqiqotlariga ko‘ra, o‘qituvchilarning muntazam kasbiy rivojlanish faoliyatida ishtirok etishi ularning pedagogik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy maktabgacha ta’lim tizimida **soft skills** – ya’ni moslashuvchanlik, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, jamoada ishlash kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish ham pedagog kompetentligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki bolalar uchun ijtimoiy model vazifasini ham bajaradi.

Maktabgacha ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, O‘zbekistonda so‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ham pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilayotganini ko‘rsatadi. Davlat ta’lim standartlari va yangi o‘quv dasturlarida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, maktabgacha ta’lim pedagogining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ko‘p qirrali va uzluksiz jarayon bo‘lib, u innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, refleksiv faoliyat va uzluksiz ta’lim tizimi asosida samarali amalga oshiriladi. Mazkur yo‘nalishlarning uyg‘unligi pedagogning kasbiy yetukligini ta’minlabgina qolmay, balki maktabgacha ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi. Maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.

2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

3. Tillaboyeva, M. *Raqamli pedagogik kompetensiya haqida qarashlar va uning ahamiyati*. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 3(12). 2025

4. G‘ofurova, M. *Pedagogik kompetentlikni shakllantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati.* Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali.2025

5. Raximberganova, M. *Raqamli ta’lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.* Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 3(9). Isroilova, N. A. *Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglarining kasbiy kompetentligini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish.* Akademicheskiye Issledovaniya v Sovremennoy Nauke, 4(59), 12–16. 2025

6. Xaydarova, O. *Pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati*. Ilg‘or Iqtisodiyot va Pedagogik Texnologiyalar, 3(1), 24–29.2026

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TALABALARDA KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH

Joldasova Gòzzal Aybekovna - University of innovation technologies assistent o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636684

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining talabalar orasida kreativlik va ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi o‘rni tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt vositalari orqali talabalarning muammolarni hal qilish, yangi g‘oyalar ishlab chiqish va innovatsion loyihalar yaratish qobiliyatlari oshirilishi mumkin.

Maqolada sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga ta’siri, uning afzalliklari, chaqiriqlari va kelajak istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, kreativlik, ijodkorlik, ta’lim, talabalar, innovatsiya, texnologiya, muammolarni hal qilish, algoritmlar, mashinaviy o‘rganish, kreativ tafakkur, digital texnologiyalar, ta’lim innovatsiyalari, zamonaviy ta’lim.

Аннотация: В данной статье анализируется роль технологий искусственного интеллекта в развитии творческих способностей и творческого мышления у студентов. Используя инструменты искусственного интеллекта, можно улучшить способность учащихся решать проблемы, разрабатывать новые идеи и создавать инновационные проекты. В статье рассматривается влияние искусственного интеллекта на образовательный процесс, его преимущества, проблемы и перспективы.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, креативность, креативность, образование, студенты, инновации, технологии, решение проблем, алгоритмы, машинное обучение, креативное мышление, цифровые технологии, образовательные инновации, современное образование.

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biri yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellectual qobiliyatlarini namoyon etishi uchun zarur shart-sharoit yaratish pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish orqali mavjud muammolarni bartaraf etish ko‘zda tutilgan. Kreativlik nima? “Kreativlik” atamasi birinchi marta amerikalik psixolog va professor Joy Pol Guilford tomonidan kiritilgan. Kreativlikni rivojlantirish uchun asos divergent fikrlash bo‘lib, u bir xil muammoning bir nechta yechimlarini topishdan iborat. [1]

Talabalarga ta’lim berish sifatini yaxshilash, fan sohalari bo‘yicha professor o‘qituvchilarning kasbiy muloqot maydonchalarini yaratish, ta’lim sifatini ta’minlash jarayoniga talabalarni keng jalb etish. Kreativlikni rivojlantirish talabalarning jamoa bilan ishlash shuningdek rolli o‘yinlar shaklida turli xil axborot manbalari bilan faol samarali hamkorligi, yangi ijtimoiy va professional tajribani o‘zlashtirish uchun unda kasbiy sifatlarni rivojlantirish hisoblanadi. Eng avvalambor talabalarda kreativlikni rivojlantirish uchun amaliy mashg‘ulotlarda berilgan topshiriqlarni bajarish kamlik qiladi, buning uchun talabalarda motivatsiya va o‘zi bajargan ishdan qoniqish hissini tug‘dirish kerak. Ta’lim olish jarayonini muhokama qilar ekanmiz eng avvalambor uning ishtirokchilarida ya’ni talaba o’quvchi ularda kreativlikning mavjud ekani va albatta buni rivojlantirish yo’llarini, bundan tashqari kreativlikni bunga doir tushunchalar bilan ishlaydigan mantiqiy tafakkurdan, qaraladigan ijodkorlik tasvirlar bilan ularni o‘zgartirish maqsadida harakat qiladi. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida hozirda yurtimizda

ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash, mazkur yo'nalishdagi ilmiy-loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'z navbatida sun'iy intellektni ilm-fanga joriy etish uchun malakali kadrlar sonini oshirish talab etiladi. Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanish – axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) ta’lim faoliyatining barcha jabhalariga integratsiyalash jarayonidir. Ta’limda hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish pedagoglardan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o’z ishiga ijodiy yondashishni talab etadi. XXI asr pedagogi faniga kreativlik tushunchasi shiddat bilan kirib keldi. Mazkur muammoning pedagogik mohiyatini ochib berishga qaratilgan qator ilmiy-tadqiqot ishlari mavjud. Lekin bugungi kunda ham bu muammoni ilmiy jihatdan tadqiq qilishga talab va ehtiyoj mavjud. Buning asosiy sababi talabalarda kreativlikni rivojlantirishning lokal va mintaqaviy jihatlarga bog‘liqligi, pedagogik va didaktik tamoyillarning namoyon bo‘lishiga ta’sir qiluvchi mikro muhitning o‘ziga xosligi, ta’lim sub’yektlarining kasbiy va shaxsiy sifatlari va boshqalar shular jumlasidan.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida hozirda yurtimizda ushbu sohad malakali kadrlarni tayyorlash, mazkur yo'nalishdagi ilmiy-loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. [5] O'z navbatida sun'iy intellektni ilm-fanga joriy etish uchun malakali kadrlar sonini oshirish talab etiladi. Sun’iy intellekt (SI) zamonaviy ta'lim tizimida muhim rol o'ynay boshladi. U talabalarning yaratish va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Sun’iy intellekt, kompyuter tizimlarining inson fikrlash jarayonlarini takrorlash imkonini beruvchi texnologiyadir. Hozirda yurtimizda shu yo'nalish bo'yicha “Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt” ixtisosligi oliy malakali kadrlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik mutaxassisliklar nomenklaturasiga kiritildi va uning pasporti yaratildi. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti hamda Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiytadqiqot institutida “Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt ixtisosligi” bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim instituti ochildi.[2]

Sun‘iy intellekt hozirgi XXI asrda har bir sohaga kirib bormoqda, shu bilan birgalikda ta‘lim tizimiga ham tez kirib kelmoqda va jadal rivojlanayapti. Bugungi kunda yurtimizda ta‘lim sohasida juda katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu tizimini isloh qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham salmoqlidir. Bu tizimda zamonaviy texnalogiyalardan foydalanish imkoniyatlari joriy qilish, ta‘lim tizimini yuqori va zamon talablariga moslash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlardan ushbu fikrlarimizni isbotini topishimiz mumkindir. O‘rta va Oliy ta‘lim uchun sun‘iy intellekt (AI) ilovalarini ishlab chiqish va joriy etish talabalarining fanlarni o‘rganishi va o‘qituvchilarning dars berish usullarini ijobiy tomonga o‘zgartirish imkoniyatlariga ega. AI ilovalari talabalar uchun shaxsiylashtirilgan ta‘lim tajribasini taqdim etiladi. Sun’iy intellekt (SI) zamonaviy ta'lim tizimida

muhim rol o'ynay boshladi. U talabalarning yaratish va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Sun’iy intellekt, kompyuter tizimlarining inson fikrlash jarayonlarini takrorlash imkonini beruvchi texnologiyadir. Ta'limda sun’iy intellekt qo'llanilishi quyidagi sohalarda o'z ifodasini topadi:

- O'qitish jarayonini individualizatsiya qilish: Talabalarning o'ziga xos qobiliyatlari va qiziqishlariga moslashgan ta'lim dasturlari yaratish.
- Interaktiv o'quv muhitlari: Virtual o'qituvchilar va o'yinlar orqali o'quv jarayonini qiziqarliqilish. Biz sun‘iy intellekt yordamida biz o‘quvchilarga bir qator Yaratish va Kreativlikni Rivojlantirish SI yordamida talabalarda yaratish va kreativlikni rivojlantirishning bir necha yo'nalishlari mavjud:
- Ijodiy vositalar: SI asosidagi dasturlar, masalan, grafik dizayn, musiqa yaratish yoki yozuvchilar uchun yordam beruvchi vositalar, talabalarga o'z g'oyalarini amalga oshirishda yordam beradi. Misol uchun, Adobe Creative Cloud va Canva kabi platformalar.

- G'oya generatsiyasi: Sun’iy intellekt, talabalarga yangi g'oyalarni ishlab chiqishda yordam beradigan algoritmlar orqali ilhom berishi mumkin. Masalan, OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar talabalarga yozuv yoki san'at asarlarini yaratishda yordam beradi.

- Muammolarni hal etish: SI yordamida talabalarga murakkab muammolarni hal qilishda yordam beradigan simulyatsiyalar va o'yinlar taklif etiladi. Bu, ularning analitik fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rivojlantiradi. [3]

Xulosa qilib shuni aytib o‘tishimiz mumkin. Sun’iy intellekt texnologiyalari zamonaviy ta’lim tizimida talabalar ijodkorligi va kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynamoqda. Sun’iy intellekt vositalari orqali ta’lim samaradorligi oshib, o‘quv jarayoni yanada qulay va samarali kechadi. Kelajakda SI asosidagi ta’lim yondashuvlarini yanada takomillashtirish orqali talabalar uchun yanada kreativ va innovatsion muhit yaratish mumkin bo‘ladi. Shu bois, sun’iy intellekt ta’lim jarayonining ajralmas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz/docs/5013007
2. Kalandarova M.Sh. Sun’iy intelekt va bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida kreativlik. // Inter education & global study. 2024. №8. B.259-267.
3. X. Abdukarimov, N. Muslimov, B. Xodjayev. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2018. – 240 b.
4. Muslimov N.A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2016. – 220 b.
5. To‘raqulov X.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 180 b.

XUSUSIY MAKTAB SHAROITIDA BOSHLANG‘ICH SINF TARBIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING O‘RNI VA AHAMIYATI

Suleymanova Mansura Polatova - Innovatsion texnologiyalar universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636828

Annotatsiya Mazkur maqolada xususiy maktab sharoitida boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda zamonaviy ta’lim tizimida mustaqil fikrlashni shakllantirishning dolzarbligi, “Tarbiya” fanining bu jarayondagi pedagogik imkoniyatlari hamda xususiy maktablarda yaratilgan innovatsion muhitning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Shuningdek, muammoli vaziyatlar, interfaol metodlar, refleksiya jarayonlari orqali o‘quvchilarning tanqidiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xususiy maktablarda tashkil etilgan individual yondashuv va zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning erkin fikrlashi va shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi

Kalit so‘zlar mustaqil fikrlash, Tarbiya fani, boshlang‘ich ta’lim, xususiy maktab, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, tanqidiy fikrlash, innovatsion yondashuv, shaxs rivoji, ta’lim samaradorligi

Annotation This article analyzes the role and significance of developing independent thinking skills in primary school students during “Tarbiya” (Moral Education) lessons in private school settings. It highlights the relevance of fostering independent thinking in modern education, the pedagogical potential of the Tarbiya subject, and the unique features of the innovative environment created in private schools. The study also examines the use of problem-based situations, interactive methods, and reflective practices in enhancing students’ critical and independent thinking skills. The findings indicate that individualized approaches and modern pedagogical technologies implemented in private schools positively influence students’ ability to think independently and develop as well-rounded individuals

Keywords independent thinking, Moral Education (Tarbiya), primary education, private schools, pedagogical technologies, interactive methods, critical thinking, innovative approach, personal development, educational effectivenes

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimi inson kapitalini rivojlantirish, shaxsning intellektual salohiyatini oshirish hamda mustaqil fikrlaydigan, tanqidiy yondasha oladigan va qaror qabul qilishga qodir avlodni shakllantirishni asosiy maqsad sifatida belgilab qo‘ymoqda. Ayniqsa, globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi sharoitida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchining tafakkuri, dunyoqarashi va shaxsiy pozitsiyasi shakllanadigan eng muhim davr hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni shakllantirish jarayoni ko‘p jihatdan ta’lim mazmuni, o‘qitish metodlari va pedagogik muhitga bog‘liq. Bu borada “Tarbiya” fanining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur fan faqat bilim berishga emas, balki shaxsni shakllantirishga, uning axloqiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. “Tarbiya” darslari orqali o‘quvchilar hayotiy vaziyatlarni anglash, muammolarni tahlil qilish, turli qarashlarni solishtirish va o‘z fikrini asoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa mustaqil fikrlashning shakllanishi uchun muhim didaktik sharoit yaratadi[7].

Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda Tarbiya fanining o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi. Tarbiya darslari o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar hamda ma’naviy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning nafaqat bilimlari, balki ularning tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiy faoliyati ham rivojlanadi. Shu sababli mazkur fan o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyatlarga ega.

Tarbiya darslarida o‘quvchilar turli ijtimoiy va axloqiy muammolarni tahlil qilish, turli vaziyatlarga baho berish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida xususiy maktablar faoliyatining kengayishi ta’lim jarayonini takomillashtirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Xususiy maktablar esa ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun keng pedagogik imkoniyatlarga ega. Ularning asosiy ustunligi — individual yondashuvni ta’minlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va innovatsion ta’lim muhitini yaratishdan iborat. Kichik sinf hajmi, o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim, interfaol metodlarning keng qo‘llanilishi xususiy maktablarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim omillar hisoblanadi. Shu bilan birga, bunday maktablarda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi kommunikatsiya samarali yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu o‘quvchining fikr bildirishiga, savol berishiga va mustaqil qaror qabul qilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xususiy ta’lim muassasalari ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda o‘quvchilarning individual rivojlanishiga e’tibor qaratish orqali zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda[2].

Xususiy maktablar ta’lim jarayonini tashkil etishda moslashuvchanlik va innovatsion yondashuv bilan ajralib turadi. Bunday ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonni tashkil etishda zamonaviy metodlar va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari kengroq hisoblanadi.

Mazkur omillar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qulay pedagogik sharoit yaratadi.

Tarbiya fani o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur fan orqali o‘quvchilar insoniylik, halollik, adolat, vatanparvarlik va ijtimoiy mas’uliyat kabi muhim qadriyatlarni anglab yetadi.

Shuningdek, Tarbiya darslari o‘quvchilarning ijtimoiy faoliyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. O‘quvchilar turli muammoli vaziyatlarni muhokama qilish orqali jamiyatdagi turli hodisalarga nisbatan o‘z munosabatini shakllantiradi[4].

Bu esa o‘quvchilarning shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

“Tarbiya” darslarida mustaqil fikrlashni rivojlantirish, avvalo, muammoli vaziyatlarni yaratish orqali amalga oshiriladi. O‘qituvchi tomonidan berilgan savollar va vaziyatlar o‘quvchini fikrlashga, izlanishga va o‘z pozitsiyasini aniqlashga undaydi. Bunday yondashuv o‘quvchilarda faqat tayyor bilimni qabul qilish emas, balki uni tahlil qilish va qayta ishlab chiqish ko‘nikmasini shakllantiradi. Natijada o‘quvchi passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanadi.

Shuningdek, munozara va debat metodlari ham mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o‘quvchilar turli nuqtai nazarlarni eshitadi, ularni solishtiradi va o‘z fikrini asoslashga harakat qiladi. Bu esa tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va dalillash ko‘nikmalarining rivojlanishiga olib keladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bu jarayonni to‘g‘ri tashkil etish ularning kelajakdagi akademik va ijtimoiy muvaffaqiyatiga mustahkam poydevor yaratadi.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda refleksiya jarayoni ham alohida o‘rin tutadi. “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarga o‘z fikrlarini baholash, xatolarini aniqlash va kelgusida to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Bu esa o‘quvchining o‘z-o‘zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantiradi.

Mazkur jarayonning ahamiyati shundaki, mustaqil fikrlashga ega bo‘lgan o‘quvchi nafaqat ta’lim jarayonida, balki hayotda ham faol va ongli qarorlar qabul qila oladi. U muammolarga kreativ yondashadi, turli vaziyatlarda moslashuvchanlik ko‘rsatadi va jamiyatda faol pozitsiyani egallaydi. Shu bois, mustaqil fikrlashni rivojlantirish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy zarurat sifatida ham qaraladi.

Xususiy maktab sharoitida boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish masalasi nafaqat didaktik, balki psixologik va ijtimoiy-pedagogik jihatdan ham kompleks yondashuvni talab etadi. Chunki boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarda fikrlash jarayoni hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, u ko‘proq konkret tasavvurlar, emotsional qabul qilish va o‘qituvchi ko‘rsatmalariga bog‘liq holda rivojlanadi[6]. Shu sababli, mazkur bosqichda mustaqil fikrlashni shakllantirish uchun maxsus tashkil etilgan pedagogik sharoitlar zarur hisoblanadi.

Avvalo, mustaqil fikrlashni rivojlantirishning psixologik asoslariga e’tibor qaratish lozim. Psixolog olimlar ta’kidlaganidek, bolaning tafakkuri faoliyat jarayonida rivojlanadi va u tashqi ta’sirlar orqali ichki intellektual jarayonlarga aylanadi. Bu jarayon, ayniqsa, o‘quv faoliyatida muammoli vaziyatlar orqali samarali amalga oshadi. “Tarbiya” darslari esa aynan shunday muammoli vaziyatlarni yaratish uchun qulay imkoniyatlarga ega bo‘lgan fan hisoblanadi.

Masalan, o‘quvchilarga axloqiy tanlov bilan bog‘liq vaziyatlar berilganda, ular turli yechim variantlarini ko‘rib chiqadi, ularni solishtiradi va eng maqbulini tanlashga harakat qiladi. Bu esa ularning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Bundan tashqari, xususiy maktablarda qo‘llanilayotgan innovatsion pedagogik yondashuvlar ham mustaqil fikrlashni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Xususan, konstruktivistik yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchi bilimni tayyor holatda qabul qilmaydi, balki uni o‘z faoliyati orqali “kashf etadi”. Bu jarayonda o‘qituvchi yo‘naltiruvchi, fasilitator rolini bajaradi. Natijada o‘quvchi o‘z fikrini erkin ifodalash, savollar berish va mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Xususiy maktablarda ta’lim jarayonining moslashuvchanligi ham mustaqil fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi. An’anaviy maktablarda qat’iy dastur va vaqt chegaralari o‘quvchining individual rivojlanish sur’atlarini hisobga olishga to‘liq imkon bermaydi. Xususiy maktablarda esa o‘quv dasturlari o‘quvchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlariga moslashtiriladi. Bu esa har bir o‘quvchining mustaqil fikrlash darajasini individual ravishda rivojlantirish imkonini yaratadi[1].

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham mustaqil fikrlashni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Multimedia materiallar, interaktiv platformalar va vizual vositalar o‘quvchilarning diqqatini jalb etadi va ularni faol fikrlashga undaydi. Masalan, videoroliklar asosida muhokama tashkil etish, interaktiv testlar orqali tahlil qilish yoki raqamli simulyatsiyalar yordamida muammoli vaziyatlarni hal qilish o‘quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda o‘qituvchining pedagogik mahorati hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchini fikrlashga undovchi, uning ichki salohiyatini ochib beruvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchi tomonidan qo‘llaniladigan savollar tizimi muhim rol o‘ynaydi. Ochiq, tahliliy va muammoli savollar o‘quvchini chuqur fikrlashga majbur qiladi. Masalan, “Nima uchun?”, “Qanday qilib?”, “Agar shunday bo‘lsa nima bo‘ladi?” kabi savollar o‘quvchining fikrlash jarayonini faollashtiradi[4].

Bundan tashqari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil fikrlashni rivojlantirishda ijtimoiy muhit ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususiy maktablarda yaratilgan ijobiy psixologik muhit, o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik va o‘zaro hurmat fikr erkinligini ta’minlaydi. O‘quvchi o‘z fikrini erkin bildira oladigan muhitda uning tafakkuri faol rivojlanadi. Aksincha, bosim yoki qo‘rquv mavjud bo‘lgan muhitda o‘quvchi passiv holatda qoladi.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirish jarayonida baholash tizimi ham muhim rol o‘ynaydi. An’anaviy baholash tizimi ko‘proq natijaga yo‘naltirilgan bo‘lsa, zamonaviy yondashuv jarayonni baholashni nazarda tutadi. Ya’ni, o‘quvchining fikrlash jarayoni, uning tahlil qilish qobiliyati va xulosa chiqarish darajasi baholanishi lozim. Bu esa o‘quvchini faqat to‘g‘ri javobni topishga emas, balki fikrlashga yo‘naltiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish ularning shaxs sifatida shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, xususiy maktablarda yaratilgan zamonaviy va individual yondashuvga asoslangan ta’lim muhiti bu jarayonning samaradorligini oshiradi. Natijada o‘quvchilar erkin fikrlaydigan, tanqidiy yondashadigan va mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxs sifatida rivojlanadi

Adabiyotlar

1. Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. *Pedagogika nazariyasi va tarixi.* – Toshkent: Fan, 2010.
4. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. *Pedagogik texnologiyalar asoslari.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2004.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. *Ta’limda innovatsion texnologiyalar.* – Toshkent: Iste’dod, 2008.
6. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
7. Dewey J. *Experience and Education.* – New York: Macmillan, 1938.

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O‘QUVCHILARNING O‘QUV-BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA TEXNOLOGIYASI

Annayeva Maya Radjapbayevna – Nukus davlat pedagogika instituti boshlang‘ich ta’lim kafedrasi o‘qituvchisi maya0726@mail.ru

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636886

Annotatsiya: Ushbu maqolada integrativ yondashuv orqali o‘quvchilarning o‘quv-bilish faolligini rivojlantirish masalalari, pedagogik shart-sharoitlar va samarali texnologiyalar tahlil qilinadi. Integratsiya asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy yondashuvini va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: integrativ yondashuv, o‘quv-bilish faolligi, pedagogik texnologiya, fanlararo integratsiya, motivatsiya, interaktiv metodlar.

Abstract: This article examines the issues of developing students’ learning activity through an integrative approach, as well as the pedagogical conditions and effective technologies that support this process. Education organized on the basis of integration contributes to the development of students’ independent thinking, creative approach, and practical skills.

Keywords: integrative approach, learning activity, pedagogical technology, interdisciplinary integration, motivation, interactive methods.

Zamonaviy ta’lim tizimi global va texnologik o‘zgarishlar ta’sirida jadal rivojlanmoqda. Bugungi kunda maktab va oliy ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faolligini oshirish masalasi pedagogik tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraladi [1.45]. Ta’lim jarayonida o‘quvchilar faolligi nafaqat bilim olish jarayonini samarali qiladi, balki ularning ijodiy salohiyatini, mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish qobiliyatini ham rivojlantiradi [5.98]. Shu nuqtai nazardan, pedagogik jarayonni shunday tashkil etish zarurki, u o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otib, bilimlarni tizimli va amaliy jihatdan o‘zlashtirishga imkon beradi [3.27]. Faqat texnologiyalar yoki metodlardan foydalanish yetarli emas; o‘quvchilarning qiziqishi, kundalik hayotiy tajribasi va real muammolar bilan bog‘langan mashg‘ulotlar ularning o‘quv-bilish faolligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undash, savol berish va o‘z yechimlarini izlash imkoniyatini yaratish pedagogik jarayonning samaradorligini yanada kuchaytiradi.

Integrativ yondashuv, ya’ni turli fanlar mazmunini birlashtirib, ularni amaliy faoliyat bilan bog‘lash pedagogik nazariyada va amaliyotda o‘ta dolzarb hisoblanadi [2.34]. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi – o‘quvchilarda bilimlarni fragmentar emas, balki yaxlit tizim sifatida o‘zlashtirish qobiliyatini shakllantirishdir. Shu bilan birga, integrativ ta’lim o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini oshiradi va ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi [4.41].

O‘quvchilarning o‘quv-bilish faolligini shakllantirish faqat yangi bilim berish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon psixologik, pedagogik va metodik omillarning uyg‘un ishlashini talab qiladi. Motivatsiya, ta’lim muhiti, o‘quv faoliyati usullari va baholash tizimi – bularning barchasi o‘quvchilarning faolligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [5.112]. Integrativ yondashuvni faqat fanlararo bog‘lanish sifatida emas, balki o‘quvchilarni o‘z bilimlarini sinab ko‘rishga undaydigan faol va interaktiv jarayon sifatida qarash zarur. Bundan tashqari, texnologiyalar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar integratsiyani yanada samarali qiladi. Masalan, axborot-kommunikatsiya vositalari, loyihaviy ta’lim va interaktiv metodlar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatini rivojlantiradi va fanlararo bilimlarni uyg‘unlashtirishga yordam beradi [9.28], [13.15]. Shu nuqtai nazardan, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarning nafaqat o‘quv-bilish faolligini, balki ijodiy va amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. pedagogik tajribalar va kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning faolligi ularning qiziqishi va muhitga bog‘liqligi bilan chambarchas bog‘liq. Agar darslar faqat nazariy bilim berish bilan cheklansa, o‘quvchilarda faollik darajasi past bo‘ladi. Shu sababli integrativ yondashuvni joriy etishda nafaqat metodik vositalar, balki o‘quvchilarni rag‘batlantiradigan va ularni real hayotiy masalalar bilan shug‘ullanishga undaydigan pedagogik shart-sharoitlar yaratish muhimdir.

Integrativ yondashuv turli fanlarning mazmunini birlashtirish, bilimlarni amaliy va nazariy jihatdan uyg‘unlashtirishga qaratilgan [3.27]. Integratsiya o‘quvchilarda tizimli tafakkur va mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Integrativ yondashuv o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini ham oshiradi, chunki ular birgalikda ishlashga o‘rganadi.

O‘quvchilarning faolligini shakllantirish ko‘p jihatdan pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq [4.41]. Motivatsiya va ta’lim muhiti o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi [5.98]. Pedagogik shart-sharoitlar shunchaki darsni tashkil qilish emas, balki o‘quvchilarni o‘z bilimlarini sinab ko‘rishga undaydigan erkin muhit yaratishdir.

Integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faolligini rivojlantirish samaradorligi ko‘p jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik shart-sharoitlarga bog‘liq. Integrativ yondashuv asosida o‘quvchilarning o‘quv-bilish faolligini rivojlantirish nafaqat mavjud pedagogik talablarni bajarishni, balki ta’lim jarayonini yangicha tashkil etishni ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik shart-sharoitlarni faqat an’anaviy yondashuv asosida emas, balki zamonaviy ta’lim paradigmalari asosida qayta ko‘rib chiqish zarur. O‘quv-bilish faolligini shakllantirishdagi pedagogik shart-sharoitlar:

Fanlararo bog‘lanish va tizimli tafakkur: Fanlararo bog‘lanish o‘quvchilarga mavzularni yaxlit tushunishga yordam beradi [1.78]. Fanlararo integratsiya o‘quvchilarning bilimlarni real muammolar kontekstida qo‘llash ko‘nikmalarini oshiradi. Bu yondashuv o‘quvchilarda muammolarni turli nuqtai nazardan ko‘ra olish qobiliyatini shakllantiradi.

Interaktiv pedagogik metodlar: Interaktiv metodlar, masalan, bahs-munozara, klaster, faol guruh ishlari o‘quvchilarning darsdagi faolligini sezilarli darajada oshiradi [6.112]. Interaktiv metodlar o‘quvchilarda o‘z fikrini bildirishga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi, bu esa ijodiy yondashuvni rivojlantiradi.

Motivatsiya va o‘zaro ta’sirli muhit: O‘quvchilarning motivatsiyasi integrativ yondashuv orqali oshiriladi, chunki ular bilimlarni amaliy kontekstda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi [7.205]. Motivatsiya faqat baho yoki rag‘bat bilan emas, balki o‘quvchilarning o‘z qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuv bilan shakllanadi.

Integrativ yondashuvni samarali amalga oshirishda pedagogik texnologiyalar muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat o‘quvchilarning bilim olish jarayonini tizimli va maqsadli qiladi, balki ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu bo‘limda zamonaviy integrativ pedagogik texnologiyalar – loyiha asosida o‘qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tanqidiy tafakkur va faol guruh ishlari – xususiyatlari, samaradorligi va o‘quvchilarga ta’siri bilan tahlil qilinadi.

Loyiha asosida o‘qitish. Loyiha asosida o‘qitish o‘quvchilarga real muammolarni hal etish imkonini beradi, shu bilan ular o‘rganayotgan bilimlarni amaliyotda sinashadi [13.15]. Loyiha faoliyati o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, vaqtni boshqarish va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o‘quv jarayonini interaktivlashtiradi va o‘quvchilarning mustaqil izlanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi [9.28]. Raqamli resurslardan samarali

foydalanish faqat bilim berish emas, balki ularni o‘quvchi mustaqil o‘rganishga undashi muhim.

Tanqidiy tafakkur va faol guruh ishlari. Muammoli o‘qitish strategiyalari o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi [11.78]. Tanqidiy tafakkur o‘quvchilarga mavzuni chuqurroq o‘zlashtirish va o‘z qarashlarini himoya qilish ko‘nikmalarini beradi.

Integrativ yondashuv o‘quvchilarning o‘quv-bilish faolligini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Fanlararo bog‘lanish, interaktiv metodlar va motivatsiya muhiti o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish va ijodiy yondashuvlarini barqaror rivojlantiradi [1.45], [2.34], [13.15], [9.28]. Shuningdek, faqat texnologiya va metodlar bilan cheklanish yetarli emas. O‘quvchilarning qiziqishi, muhitning erkinligi va real hayotiy masalalar bilan bog‘lanish integrativ ta’limning samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, pedagoglar o‘z metodlarini moslashtirish va ijodiy yondashuvni qo‘llashlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuv nafaqat bilimlarni tizimli o‘zlashtirishga yordam beradi, balki o‘quvchilarni ijodkor, mustaqil va muammolarga yechim topa oladigan shaxslar sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Pedagoglar uchun asosiy vazifa – metodlar va texnologiyalarni o‘quvchilarning individual ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish, ularni faollikka undaydigan muhit yaratish va real hayotiy masalalar bilan bog‘lashdir. STEAM va loyihaviy metodlarni faol qo‘llash, shuningdek, o‘quvchilarning shaxsiy qiziqishlari va motivatsiyasini hisobga olish o‘quvchilarning o‘quv-bilish faolligini maksimal darajada oshirish imkonini beradi. Bu esa butun ta’lim jarayonini samarali va zamonaviy qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абдуллаева Ш.Р. Таълимда интеграция назарияси ва амалиёти: монография. – Тошкент: Фан, 2019. – 156 б.
2. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – 192 с.
3. Кларин М.В. Инновационные модели обучения: монография. – Москва: Наука, 2018. – 224 с.
4. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения. – Москва: Интеграл, 1996. – 240 с.
5. Зимняя И.А. Педагогическая психология: учебник для вузов. – Москва: Логос, 2004. – 384 с.
6. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии: учебное пособие. – Москва: Народное образование, 1998. – 256 с.
7. Якиманская И.С. Личностно-ориентированное обучение в современной школе. – Москва: Сентябрь, 2000. – 320 с.
8. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учебное пособие. – Москва: Академия, 2017. – 272 с.
9. Роберт И.В. Современные информационные технологии в образовании: учебное пособие. – Москва: Академия, 2010. – 312 с.

10. Хуторской А.В. Современная дидактика: учебник для вузов. – Санкт-Петербург: Питер, 2015. – 368 с.
11. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Free Press, 2000. – 384 p.
12. Johnson D.W., Johnson R.T., Smith K.A. Active Learning: Cooperation in the College Classroom. – Edina, MN: Interaction Book Company, 2014. – 403 p.
13. Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. – San Rafael, CA: Autodesk Foundation, 2000. – 46 p.
14. Yakman G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education // Pupils’ Attitudes Towards Technology (PATT-19 Conference). – 2008. – P. 1–35.
15. Выготский Л.С. Психология развития человека. – Москва: Смысл, 2005. – 512 с.
16. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: Longman, 1956. – 207 p.

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA PEDAGOGIK EMPATIYANI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Orinbaeva Jarqinay Djuginis qizi - Innovatsion texnologiyalar universiteti assistent o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19652074

Annotatsiya. Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik empatiyani shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Pedagogik empatiya pedagog kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaralib, uning bolalar rivojiga ta’siri yoritiladi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, kuzatuv va so‘rov metodlaridan foydalanilgan. Natijalar pedagogik empatiya darajasini oshirish bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: pedagogik empatiya, maktabgacha ta’lim, kasbiy kompetensiya, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, pedagogik muammo.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of the formation of pedagogical empathy in preschool educational organizations. Pedagogical empathy is considered an important component of the professional competence of a teacher, and its impact on the development of children is highlighted. The study used comparative analysis, observation and survey methods. The results confirm that increasing the level of pedagogical empathy has a positive effect on the socio-emotional development of children.

Keywords: pedagogical empathy, preschool education, professional competence, socio-emotional development, pedagogical problem.

Kirish.

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog shaxsiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Maktabgacha ta’lim tizimida ayniqsa pedagogning emotsional sezgirligi, bolalarning ichki dunyosini tushunishi va ularning psixologik ehtiyojlariga mos yondasha olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai

nazardan pedagogik empatiya masalasi dolzarb pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda [1].

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida pedagogning kasbiy kompetentligi nafaqat uning metodik tayyorgarligi, balki uning emotsional intellekti va empatiya darajasi bilan ham o‘lchanmoqda. Pedagogik empatiya — bu tarbiyachining bolalar dunyosiga kirib borishi, ularning hissiy holatlarini anglashi va bu holatlarga pedagogik nuqtayi nazardan adekvat javob qaytarish qobiliyatidir [2]. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik rivojlanish xususiyatlari shuni ko‘rsatadiki, bu davrda bola muloqotda axborotdan ko‘ra hissiy yaqinlikka ko‘proq ehtiyoj sezadi. Biroq, amaliyotda pedagogik empatiyani shakllantirish murakkab pedagogik muammo bo‘lib qolmoqda, chunki ko‘plab tarbiyachilar ta’lim jarayonida subyekt-obyekt munosabatlariga, ya’ni qat’iy intizom va ko‘rsatmalarga tayanib qolishgan [3].

Maktabgacha yosh davri shaxsning emotsional-intellektual rivojlanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda bolalar kattalarning hissiy munosabatlarini tez qabul qiladi va o‘zlashtiradi. Agar pedagog bolaga empatik yondashsa, bola o‘zini xavfsiz, qadrlangan va tushunilgan his qiladi. Empatiya yetishmasligi esa bolalarda qo‘rquv, ishonchsizlik hamda ijtimoiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin [4].

Pedagogik empatiya pedagogning bolalarning hissiy holatini tushunish, ularga mos pedagogik qarorlar qabul qilish va ijobiy emotsional muhit yaratish qobiliyatini anglatadi. Ushbu sifat pedagog kasbiy kompetensiyasining ajralmas qismi hisoblanadi [5].

Xulosa

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida pedagogik empatiyani shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri. Bugungi kunda ta’lim tizimi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki bolaning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishini ta’minlashni talab qilmoqda. Bu jarayonda pedagogning kasbiy kompetensiyalari tarkibida empatik yondashuv alohida o‘rin egallaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, pedagogik empatiya maktabgacha ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, empatik pedagog bolalar bilan ishonchli va samimiy munosabat o‘rnatadi. Bunday munosabat bolaning psixologik xavfsizligini ta’minlaydi, o‘zini erkin his qilishiga yordam beradi hamda ta’lim jarayoniga faol jalb etadi. Natijada mashg‘ulotlar samaradorligi ortadi, bolalarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va o‘ziga ishonch rivojlanadi.

Pedagogik empatiyaning muhim natijalaridan biri — ijobiy psixologik muhitni shakllantirishdir. Empatik yondashuv qo‘llanilgan guruhlarda bolalar o‘rtasida hamkorlik kuchayadi, nizolar kamayadi va o‘zaro hurmat rivojlanadi. Bu esa bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga, nutq faolligiga va kommunikativ ko‘nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, pedagogik empatiya nafaqat ta’lim sifati, balki tarbiya samaradorligining ham muhim omilidir.

Umuman olganda, pedagogik empatiya maktabgacha ta’lim samaradorligini oshirish, bolalarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta’minlash va pedagog

kasbiy kompetensiyasini takomillashtirishda muhim strategik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim. Mazkur yo‘nalish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish hamda amaliyotga joriy etish ta’lim sifatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rogers C.R. *A Way of Being.* – Boston: Houghton Mifflin, 1980.
2. Goleman D. *Emotional Intelligence.* – New York: Bantam Books, 1995.
3. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes.* – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
4. Bandura A. *Social Learning Theory.* – Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1977.
5. Xoliqov A.A. *Pedagogik mahorat.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2011.
6. Masharipov Sh.M. *Maktabgacha ta’lim pedagogikasi.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Shodiyev N.N. *Maktabgacha ta’lim psixologiyasi.* – Toshkent: Fan, 2020.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MILLIY QADRIYATLAR VA VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYA BERISHNING INNOVATSION USULLARI

Tengelova Dilfuza Urazali qizi - University of innovation technologies “Maktabgacha va boshlang‘ish ta’lim kafedrasi” asisstent o‘qituvchisi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636956

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlarni o‘rgatish va vatanparvarlikni shakllantirishning innovatsion usullari tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar asosida bolalarni tarbiyalashda pedagogik texnologiyalar va metodlarning roli, shuningdek, raqamli platformalar, interaktiv darslar va ta’limning yangi usullarining samarasi ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim siyosatida milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun qo‘llanilayotgan zamonaviy yondashuvlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Boshlang'ich ta'lim, Milliy qadriyatlar, Vatanparvarlik, Pedagogik texnologiyalar, Raqamli platformalar, Interaktiv metodlar, Innovatsion usullar, Ta'lim siyosati, O'zbekiston, Yoshlar tarbiyasi

Annotation . This article analyzes innovative approaches to teaching national values and instilling patriotism in primary education. The role of pedagogical technologies and methods, as well as the use of digital platforms, interactive lessons, and new educational methods in shaping patriotism, are examined. The article discusses the modern approaches in Uzbekistan's educational policy aimed at instilling patriotic values among youth.

Keywords: Primary education, National values, Patriotism, Pedagogical technologies, Digital platforms, Interactive methods, Innovative approaches, Educational policy, Uzbekistan, Youth upbringing

Hozirgi kunda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar doirasida boshlang‘ich ta’lim tizimida bolalarda vatanparvarlikni shakllantirish uchun zamonaviy pedagogik usullar, interaktiv darslar, raqamli platformalar va innovatsion texnologiyalar joriy etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - 2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida farmonlari vatanparvarlik va milliy qadriyatlarni o‘rgatishga qaratilgan yondashuvlarni kengaytirishga xizmat qilmoqda.[1].

Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlarni o‘rgatish va vatanparvarlik ruhida tarbiya berish o‘quvchilarning ma’naviy va axloqiy rivojlanishining poydevorini tashkil etadi. O‘zbekistonning ta’lim siyosatida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning milliy qadriyatlar asosida shaxsiyatini shakllantirish alohida o‘rin tutadi. Milliy qadriyatlarni yosh avlodga o‘rgatish jarayoni faqat o‘quv dasturlari bilan cheklanib qolmaydi, balki zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar yordamida amalga oshiriladi.

Milliy qadriyatlar va vatanparvarlikni shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni beqiyos. Pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarga o‘zlarining tarixiy va madaniy merosini, milliy urf-odatlar va an’analarini o‘rgatish, shuningdek, Vataniga bo‘lgan sevgi va sadoqatni yanada mustahkamlash mumkin. Zamonaviy ta’limda interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning faolligini oshirish, ular bilan samarali muloqot qilish, shuningdek, milliy qadriyatlarni o‘rgatishda muhim vositalar sifatida ishlatiladi.

Boshlang‘ich ta’limda interaktiv darslar, o‘quvchilarni guruhlar bo‘yicha ishlashga jalb qilish, rolli o‘yinlar va simulyatsiya usullarini qo‘llash orqali milliy qadriyatlarni amaliy tarzda o‘rganish imkoniyati yaratiladi. Ushbu pedagogik metodlar o‘quvchilarga milliy qadriyatlarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham anglashga yordam beradi. Masalan, tarix darslarida o‘quvchilarni o‘zbek xalqining tarixiy shaxsiyatlari haqida suhbatlarga jalb qilish yoki geografiya darslarida O‘zbekistonning tabiiy boyliklarini o‘rganish orqali ularni milliy g‘urur tuyg‘usini kuchaytirish mumkin.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi. Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlarni o‘rgatish uchun raqamli platformalar va onlayn resurslardan foydalanish samarali bo‘lmoqda. Ta’limning raqamli shaklga o‘tishi o‘quvchilarga milliy tarix va madaniyatni o‘rganish, Vatanining boy tarixiy merosini anglash imkonini yaratadi. E-learning platformalari, video darsliklar, onlayn kurslar va interaktiv dars materiallari o‘quvchilarning bilimini yanada kengaytiradi va o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Misol uchun, "Ta’limni raqamlashtirish" dasturi doirasida O‘zbekistonda milliy tarix va madaniyatni o‘rgatishga qaratilgan elektron ta’lim resurslari va interaktiv dasturlar joriy etilgan. Ushbu dasturlar yordamida o‘quvchilar tarixiy voqealarni ko‘rish, xalqning urf-odatlari va qadriyatlarini yanada yaxshiroq o‘rganishlari mumkin.[2]

A.K.Kadrekova va M.A.Akniyazovalarning tadqiqotiga ko‘ra "Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlarni o‘rgatish, ayniqsa, bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga va ularning keyingi hayotidagi ijtimoiy, ma’naviy

yuksalishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon nafaqat bilim berish, balki o‘quvchining qalbiga, ongiga ta’sir etish orqali amalga oshiriladi"[3].

Sh.I.Boymurodova va S.X.Samiyeva bugungi zamonaviy ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri yosh avlodni har birini milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ruhiy tarbiyalash, yoshlarning ongida xalqimizning tarixiga hamda madaniy merosi va ma’naviy boyliklariga chuqur hurmat tuyg‘usini shakllantirish muhim vositalardan biridir. Jumladan, boshlang‘ich ta’lim esa asosan inson shaxsining ma’naviy poydevori shakllanadigan muhim davr bo‘lib, bu jarayonda o‘qituvchining pedagogik mahorati hamda milliy qadriyatlarga tayanish darajasi o‘ta muhim hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar va vatanparvarlik ruhida tarbiya berishning innovatsion usullari ta’lim tizimining samaradorligini oshiradi. Interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida bolalar nafaqat milliy tarixni, balki o‘z Vataniga bo‘lgan muhabbatni ham o‘rganadilar. Milliy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim siyosatidagi islohotlar va qarorlar ta’lim tizimida milliy qadriyatlarni o‘rgatishga yanada imkoniyatlar yaratmoqda.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022 yildagi PF-134-son
2. **Kadrekova, A.K., & Akniyazova, M.A. (2025).** *Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlarni singdirishning ahamiyati.* Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, 214-221 betlar.
3. **Boymurodova, Sh. I., & Samiyeva, S. X. (2026*).*** *Boshlang‘ich ta’limda milliy qadriyatlar va an’anaviy tarbiya g‘oyalarini shakllantirishning nazariy asoslari.* Journal of Education, Ethics and Value, 5(01), 41-45. ISSN: 2181-4392.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BILIMNI SUST O‘ZLASHTIRUVCHI O‘QUVCHILARNI O‘QUV JARAYONIGA FAOL JALB ETISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

N.M.Utebaev - University of Innovation Technologies assistent-o‘qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636992

Annotatsiya. Mazkur tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida past o‘zlashtirishning oldini olish hamda ularning o‘quv faolligini oshirishning pedagogik asoslari yoritilgan. O‘quvchilarda haqiqiy bilimlarni shakllantirish, o‘zlashtirish darajalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish va innovatsion metodlardan foydalanish orqali samarali ta’lim natijalariga erishish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, past o‘zlashtirish, o‘quv faolligi, o‘quv-bilish faoliyati, haqiqiy bilim, innovatsion metodlar

Abstract. This thesis analyzes pedagogical approaches to preventing low academic achievement and increasing learning activity among primary school students. The study focuses on developing authentic knowledge, gradual mastery levels, and the use of innovative teaching methods to improve learning outcomes.

Keywords: primary education, low achievement, learning activity, cognitive activity, authentic knowledge, innovative methods

Bugungi kunda boshlang‘ich ta’lim tizimi umumiy o‘rta ta’lim jarayonining muhim bosqichi hisoblanadi. Chunki aynan boshlang‘ich ta’lim jarayonida kelajak avlod vakillari bo‘lgan o‘quvchilarning ma’naviy yetuk, intellektual salohiyatli hamda innovatsion fikrlaydigan barkamol shaxs sifatida shakllanishiga mustahkam poydevor yaratiladi. Shu jihatdan boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarning tabiiy qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish, ularning tafakkurini rivojlantirish va intellektual imkoniyatlarini kengaytirishda katta didaktik imkoniyatlarga ega.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatining har bir tarkibiy qismi ularning aqliy rivojlanishi, axloqiy kamoloti, jismoniy sog‘lomligi hamda ma’naviy barkamolligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ta’lim mazmunining izchil va tizimli ravishda oshirib borilishi o‘quvchilarning bilim hajmini kengaytirish hamda ularning bilish faolligini rivojlantirish uchun muhim sharoit yaratadi.

Zamonaviy pedagogika fanida kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar keng qo‘llanilmoqda. Agar mavjud metodlar muayyan pedagogik muammoni samarali hal eta olmasa, ushbu muammoga mos yangi innovatsion yondashuv va texnologiyalarni ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Bu esa ta’lim jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etishning pedagogik, psixologik va texnologik jihatlari jamiyat taraqqiyoti darajasiga mos ravishda rejalashtiriladi. Ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni uzluksiz joriy etish orqali o‘quvchilarning bilimlarni samarali o‘zlashtirishi ta’minlanadi. Mediata’lim vositalari hamda o‘quvchilarni axborot texnologiyalariga tayyorlash metodikalarining mavjudligi o‘quvchilarning yuqori darajadagi bilimlarni egallashlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Demak, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyati o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan tashkiliy-pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Mazkur jarayon aniq maqsadga yo‘naltirilgan tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, unda ta’limning mazmuni, metodlari va shakllari o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llaniladi. Ta’lim jarayonida interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish, o‘quvchilarga zarur bilim minimumini yetkazish, ularda mustaqil o‘qishga barqaror ehtiyojni shakllantirish hamda ijtimoiy hayotga moslashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishning muhim ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlari bir xil emas. Ayrim o‘quvchilar ta’lim mazmunini tez va oson o‘zlashtirsa, boshqalari bilimlarni egallash jarayonida muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli

boshlang‘ich ta’lim bosqichida har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchi hayotida dastlabki bilim va ko‘nikmalar shakllanadigan muhim bosqich bo‘lib, aynan shu davrda savodxonlik asoslari yaratiladi. Shuning uchun har bir o‘quvchining bilimlarni egallash jarayoniga alohida e’tibor qaratish zarur.

O‘quv jarayoni deganda ta’lim jarayonining tarkibiy qismlarini o‘z ichiga olgan hamda maqsad va vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan metodlar, vositalar va shakllar tizimi tushuniladi. Ushbu jarayonda o‘quvchining mustaqil faoliyati, ko‘rgazmali vositalar hamda texnik resurslardan foydalanish muhim o‘rin tutadi. Bilish jarayoni esa o‘quvchi tomonidan bilimlarni ongli ravishda o‘zlashtirish jarayoni bo‘lib, u sezgi, idrok, tasavvur va tafakkur kabi psixik jarayonlar orqali namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari orasida past o‘zlashtirish holatlarining oldini olish uchun, avvalo ularda haqiqiy va puxta bilimlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Haqiqiy bilim deganda o‘quvchi tomonidan o‘zlashtirilgan ma’lumotlar amaliy faoliyatda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan, hayotiy ahamiyatga ega hamda ilmiy asoslangan bilimlar tushuniladi. Shu nuqtai nazardan, bilimlarni shakllantirish jarayonida bir qator muhim shartlarga amal qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Birinchidan, o‘quvchi egallagan bilimini axborot ko‘rinishiga keltira olishi, ya’ni undan keyingi o‘quv va amaliy faoliyatida samarali foydalana olishi lozim. Ikkinchidan, shakllantirilayotgan bilim o‘quvchining ta’lim bosqichiga, yosh va individual xususiyatlariga mos bo‘lishi zarur. Uchinchidan, berilayotgan bilim hayotiy tajribadan uzoq bo‘lmasligi, balki real voqelik bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. Shuningdek, bilimlar ishonchli, dalillarga asoslangan hamda o‘quvchi tomonidan izohlab berilishi mumkin bo‘lgan darajada tushunarli bo‘lishi talab etiladi. Shu bilan birga, bilimlarning oddiydan murakkabga, noma’lumdan ma’lumga, mavhumdan aniqroq tasavvurlarga tomon bosqichma-bosqich rivojlanib borishi muhim pedagogik talab hisoblanadi.

Mazkur shartlar birgalikda amalga oshirilgandagina bilimlar haqiqiy bilim darajasiga ko‘tariladi hamda avvalgi bilimlarga nisbatan sifat jihatidan yuqori bosqichga erishiladi. Bunday yangi sifat darajasiga o‘tish ilmiylik tamoyili bilan bog‘liq bo‘lib, u ilmiy bilimlarning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu asosda mavjud bilimlarni yanada rivojlantirish, boyitish va takomillashtirish orqali o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish imkoniyati yaratiladi.

O‘zlashtirish tushunchasi o‘rganilayotgan manbaga oid ma’lumotlarni anglash, tushunish hamda ularni amaliy faoliyatda qo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanish jarayonini anglatadi. O‘zlashtirish jarayoni orqali shaxs o‘z-o‘zini anglash, o‘z faoliyatini tahlil qilish va o‘zini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki inson o‘z-o‘zini anglash orqali shaxsiy hayoti va kelajagini baholaydi, o‘z-o‘zini kuzatish orqali o‘zining intellektual salohiyatidan samarali foydalanishga erishadi, o‘z-o‘zini tarbiyalash jarayonida esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetadi, tajriba orttiradi hamda zarur ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi.

Shu bois kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘quv-bilish faoliyatini rivojlantirishda mazkur jarayonning barcha tarkibiy qismlarini samarali tashkil etish muhim hisoblanadi. Har bir komponentning aniq maqsadga yo‘naltirilgan holda amalga oshirilishi o‘quvchilarning samarali va natijador faoliyat ko‘rsatishiga keng imkoniyat yaratadi.

Hozirgi ta’lim amaliyotida o‘zlashtirish darajalarining bir necha bosqichlari ajratib ko‘rsatiladi. Birinchi bosqichda o‘quvchi avval o‘rganilgan obyekt, hodisa va jarayonlarni tanish asosida amallarni bajarish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Ikkinchi bosqichda o‘quvchi namunaviy topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarish orqali ma’lum malakaga ega bo‘ladi. Uchinchi bosqichda esa o‘quvchi avval egallangan bilim va ko‘nikmalar asosida yangi faoliyat algoritmini ishlab chiqish, ya’ni ijodiy va mahsuldor faoliyatni amalga oshirish darajasiga erishadi.

O‘quvchining o‘zlashtirish darajasi uning quyidagi imkoniyatlarni egallashiga zamin yaratadi:

- o‘rganilgan bilim va ko‘nikmalarni to‘g‘ri takrorlash;
- egallangan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash;
- olingan bilim va ko‘nikmalardan maqsadga muvofiq foydalanish;
- bilim, ko‘nikma va malakalarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish hamda xulosalar chiqarish asosida ularni yanada takomillashtirish.

Natijada, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv-bilish faoliyatini samarali tashkil etish orqali ularning bilimlarni ongli o‘zlashtirishi, mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyat olib borish qobiliyatlari rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020 yil 23 sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF–4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. – Toshkent, 2017.
3. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Shirinov M.K., Hafizov S.H. Umumiy pedagogika: pedagogik ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 528 b.
4. Usmanova U., Quvondiqova M., Nazarov O. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi: o‘quv qo‘llanma. – Andijon: Andijon davlat pedagogika instituti, 2024. – 114 b.
5. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti: pedagogika ta’lim sohasi bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik. – Toshkent: Sano-standart, 2017.

INKLYUZIVLIQ BILIMLENDIRIW PROCESINDE BALALARDI DOSLIQ PENEN ÚYRENIW.

Jumaniyazova Zlixa Reymovna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti Mektepke shekemgi hám baslawısh tálim kafedrası docenti,
Genjebaeva Dilnaza - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti Mektepke shekemgi bilimlendiriw baǵdarı 3-kurs talabası

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637039

Annotaciya. Ayrıqsha járdemge mútáj balalarǵa salamat balalar qatarında teń huqıqlı imkaniyatlar jaratıwǵa qaratılǵan ilajlar islep shıǵılmaqta. Usı qararlar talabınan kelip shıqqan jaǵdayda bar bolǵan bilimlendiriw metodları hám quralları da qayta reformalanbaqta, jańalanǵan mámleketlik standart talapları tiykarında arnawlı bilimlendiriw procesine jańa zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalar engizilmekte. Ayrıqsha mútájligi bolǵan balalardıń inklyuziv bilimlendiriw talaplarınan kelip shıǵıp túsindiriledi.

Tayanish sózler: inklyuziv bilimlendiriw, Qospa tiptegi qánigelestirilgen, kónlikpe, shınıǵıw procesi, sabaq procesi.

Mámleketimizde uzaqtı gózlep islep shıǵılǵan nızam hám qararlardı ámeliyatqa anıq engiziw nátiyjesinde arnawlı bilimlendiriw tarawında da úlken ózgerisler júz berip atırǵanlıǵı hesh kimge sır emes. Ayrıqsha járdemge mútáj balalarǵa salamat balalar qatarında teń huqıqlı imkaniyatlar jaratıwǵa qaratılǵan ilajlar islep shıǵılmaqta. Usı qararlar talabınan kelip shıqqan jaǵdayda bar bolǵan bilimlendiriw metodları hám quralları da qayta reformalanbaqta, jańalanǵan mámleketlik standart talapları tiykarında arnawlı bilimlendiriw procesine jańa zamanagóy pedagogikalıq texnologiyalar engizilmekte. Ayrıqsha mútájligi bolǵan balalardıń inklyuziv bilimlendiriw talaplarınan kelip shıǵıp shıqqan halda, olardı integraciyalıq tálim tiykarında ǵalabalıq mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde hám Qospa tiptegi qánigelestirilgen mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde tálim-tárbiya beriw jumısları ámelge asırılmaqta.

Álbette, hár qanday jańalıqtı ámeliyatqa engiziwde mashqalalarǵa dus kelemiz anıq. Bul mashqalalardı saplastırıw, ayrıqsha járdemge mútáj bolǵan balalar ushın zárúr sharayatlar jaratıw ilajları kórilmekte. "Bilim hámme ushın" milliy háreket baǵdarlaması tiykarında barlıq balalardıń teń sharayatlarda bilim alıwın támiyinlew sıyaqlı jumıslar ámelge asırıladı. Ayrıqsha mútájligi bolǵan balalar menen alıp barılatuǵın tálim-tárbiya jumısları olardıń da salamat balalar sıyaqlı oylawın hám intellektual qábiletin qáliplestiriwge baǵdarlanıwı kerek. Bunı bizden dáwir talap etpekte. Kóp jıllardan beri "inklyuziv" sózi, mayıp balalardı salamat balalar ushın arnalǵan "hár qashanǵı" toparlarǵa "kirgiziwdi" bildirgen "Inklyuziv" haqıyqatında da mayıp balalardı, kóriw yaki esitiwde qıyınshılıǵı bar, yaki júre almaytuǵın yaki rawajlanıwında artta qalǵan qalıw, rawajlanıwı tómen bolǵan balalardı óz ishine aladı. Sonıń menen birge mektepke shekemgi bilimlendiriwge tartılmastan shette qalǵan, mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinen shetletilgen barlıq balalardı da bildiredi. Bunday balalar mektepke shekemgi bilimlendiriw tilinde sóyley almawı múmkin; kesel, shınıǵıwlardı jaqsı ózlestire almawları óz qatarlarınan artta qalıwı berilgen tapsırmalardı orınlamawları, yaki óz betinshe orınlay almawları sebepli shólkemge qabıl etilmewleri, keleshektegi bilimlendiriw ushın jollama ala almawları múmkin. Házirgi kúnniń talabınan kelip shıǵatuǵın bolsaq, "Inklyuziv" degende, mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi tárbiyashısı sıpatında biz barlıq balalardı birdey qabıl etiw, olarǵa tálim-tárbiya beriw hám bar bolǵan barlıq járdemlerdi (shólkem direktorınan, jámáátten, shańaraqlardan, balalardan, bilimlendiriw shólkemlerinen, densawlıqtı saqlaw xızmetlerinen, jámáát basshılarınan hám mektepke shekemgi

bilimlendiriw shólkemindegi barlıq pedagoglardan) tap usı balalardıń tálim-tárbiya alıwına juwapker ekenligimizdi bildiredi. Bunnan tısqarı, ayırım shólkemlerde, jámáátlerde barlıq balalardıń mektepke barıwı múmkin, biraq, ayırım mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń shólkemge kiriwleri qatnasıwları, úyreniwleriniń sheklep qoyılıwı elege shekem ushırasıp turıptı:

- bilimlendiriw shólkeminde bala sabaqtı ózlestirmewi, bala tilinde bolmawı;
- balanıń óziniń qızıǵıwshılıǵınıń bolmawı, baladan soralmawı, úyretilmewi;
- balanıń shınıǵıwda qatnasıwına mirát etiwdiń joqlıǵı;
- mektep bilimlendiriwinde doskanı kóre almawı, tárbiyashınıń, muǵallimniń sorawların jaqsı túsinbewi;
- shınıǵıwdı, tapsırmanı ózlestire almawları, yaki olarǵa járdem beriw ushın hárekettiń joqlıǵı;

- Ayrıqsha járdemge mútáj balalar toparlarda itibardan artta qalıwı, keyinirek otırıwı jaqsı ózlestiretuǵın bala menen otırmawı, ózin shetke alıwı nátiyjesinde aqır-ayaǵında shólkemdi yaki mektepti taslap ketiwleri múmkin. Biz barlıq tárbiyashılar, muǵallimler balalardıń shınıǵıw procesin, sabaq procesin úyreniw ortalıǵın jaratıw ushın, barlıq balalardıń úyreniwdi qálewi ushın hám barlıq bala Bul dáwir talabı ekenligin umıtpawımız kerek. Kóplegen mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde inklyuziv bilimlendiriwdi "doslıq úyreniwdi" qáliplestiriw, yaǵnıy balalardıń tolıq imkaniyatları menen tanısıw, olar menen ortaqlasıw olarǵa sharayatlardı jaratıw, túsindiriw, ilajı bolǵanınsha ayrıqsha mútáj balalardıń ata-analarına da túsindiriw jumısların alıp barıw, keleshekte mektep bilimlendiriwinde oqıwı ushın imkaniyat jaratıw. Balalar mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemine kónlikpe, úyreniw, bilim alıw ushın hám keleshekte mektep bilimlendiriwinde bilim, tájiriybe, alıw ushın keledi sonıń ushın házirgi tárbiyashılar, muǵallimler ayrıqsha járdemge mútáj balalardı durıs túsiniwi hám olarǵa tálim-tárbiya alıwı ushın qolaylı sharayatlardı jaratıp hám olardı qollap-quwatlap tálim-tárbiya jumıslardı ata-analar menen birgelikte alıp barıwları kerek. Balalardı "doslarsha úyreniw"- ortalıǵı "bala menen doslıq" hám "tárbiyashı menen doslıq múnásibette bolıw." Ol úyreniwshi jámáát sıpatında tárbiyalanıwshılar hám tárbiyashılardıń birgelikte úyreniwleri áhmietli ekenligine itibar beredi. "Doslıq oqıw" ortalıǵı, balalardı oqıw orayına jaylastırıp, oqıwda olardıń belsene qatnasıwların qollap-quwatlaydı. "Doslıq úyreniw" ortalıǵı biz tárbiyashılardıń mútájlikleri hám máplerimizdi de orınlaǵan halda, balalarǵa imkanı bolǵanınsha eń jaqsı zor bilim beriwimizge uqıplılıǵımızdı kórsetedi.

Sociallıq kelip shıǵıwı hám qábiletleri hár qıylı bolǵan hám de imkaniyatı sheklengen balalardı bir nársege úyretiw hám oqıtıw qıyınshılıǵın esapqa alǵan halda ayrıqsha mútájlikke ie balalardı qalay oqıtıwdı biliwimiz zárúr.

Biz bunı ámelge asırıw ushın tájiriybeli tárbiyashılardı baqlaw, olar menen sáwbetlesiw, seminarlarǵa barıw, óz ústimizde jumıs islewimiz menen bir qatarda sırt ellerdiń tájiriybelerin úyreniwimiz, tarawǵa baylanıslı ilimiy-metodikalıq ádebiyatlardı oqip úyreniwimiz, olardaǵı resurslardı izertlewimiz zárúr. Sonnan keyin, biz úyrengenlerimizdi ámeliyatta qollanıw imkaniyatına iye bolamız. Sebebi, inklyuziv bilimlendiriwdi doslarsha úyreniwimiz tek ǵana barlıq túrdegi

ayrıqsha járdemge mútáj balalarımızdıń rawajlanıwında, bálkim biziń ózimizdiń kásiplik rawajlanıwımızda da úlken áhmietke ie.

Inklyuziv tálimdi doslıq penen úyreniw procesinde ayrıqsha mútájligi bar balalarımız benen qay tárizde birge islesiw hám oynaw boyınsha da ulıwma túsinigimizdi jetilistirip barıwımız kerek. Inklyuziv bilimlendiriwdi "doslıq úyreniw" ortalıǵında tek ǵana ayrıqsha itibarǵa balalar menen,bálkim, mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi direktorı hám, pedagog-tárbiyashılardıń mútájlikleri, mápleri hám tileklerimizdi de itibarǵa alıw kerek boladı. bunday sharayatta tálim-tárbiya beriw ushın mápleri hám tileklerimizdi de itibarǵa alıw lazım boladı bunday sharayatta tálim-tárbiya beriw ushın shólkem eń jaqsı resurslar menen támiyinlengen bolıwı zárúr.

Házirgi kúnde inklyuziv bilimlendiriwdiń "doslıq úyreniw" ortalıǵında balalar ózlerine isengen halda birgelikte jeke qádir-qımbatın da rawajlandıradı. Ayrıqsha járdemge mútáj balalar ózlerinen hám erisken jetiskenliklerinen mardıyısadı. Olardıń jetiskenliklerin tán alıw hám ruwxlandırıw bolsa balalarda dóretiwshilik qábiletlerin asırıp baradı hám sol tiykarda olardıń izleniwleri hám úyreniwleri jetilisip baradı. Sonıń menen birge olar óz ana tillerin, milliy hám mádeniy dástúrlerdi qádirlew, olardı basqalardan ajıratıw, buǵan "ayrıqsha" dep itibar beriwdi da úyrenedi. Inklyuziv tálimni "döstona" órganish muhitida alohida ehtiyojga ega bolalar ózleriniń sóylesiw kónlikpelerin jetilistiredi hám ómirge jaqsıraq tayarlanıp baradı, ózin de kóp nársege uqıplılıǵın hám.ózin húrmetlewdi úyrenedi. Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerindegi pedagoglar ayrıqsha mútájligi bar balalardı bilimlendiriw shólkemine hám mektep bilimlendiriwine oqıtıwda balalar qay dárejede qabıl etiw imkaniyatların úyrener eken, olarǵa jańasha qatnas jasaw, olar menen islesiw usılların zaman talaplarına say jańa pedagogikalıq texnologiyalardı iyelewi hám ámelde qollana biliwi kerek boladı. Sol menen birge ayrıqsha itibarǵa mútáj bolǵan balalar menen islesiwde pedagog-tárbiyashılar tárepinen túrli qıyınshılıqlarǵa dus keletuǵının esapqa alǵan halda bul qıyınshılıqlardı saplastırıw ilajların izlew hám olar menen kóbirek jeke islesiw nátiyje beriwin esapqa alǵan halda tálim-tárbiya beriwde jańasha zamanagóy metod hám usıllardan paydalanıw, jańa pedagogikalıq innovaciyalardı óz jumıslarına isenimli engiziwleri talap etiledi. Sonda ǵana inklyuziv bilimlendiriw talapların orınlaw imkaniyatlarına ie boladı.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR:

6. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» Qonuni. –Toshkent, 2020 yil, 23-sentyabr, O‘RQ-637.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017. – B.39.

3. BMSH bilimlendiriw, ilim hám mádeniyat boyinsha shólkemi 1-risola. Inklyuziv, doslıq úyreniw
ortalıǵınıń qáliplesiwi. YUNESKOnıń Ózbekstandaǵı wákilxanası, 2007 1-15 bet.

4. "Ayrıqsha járdemge mútáj balalardı ruwxiy hám estetikalıq rawajlandırıw" ilimiy-teoriyalıq konferenciya materialları. T. "Uzinkomsentr" 2002.176-177 bet.

XALIQ MILLIY OYINLAR ARQALI JAS ÁWLADTI HÁR TÁREPLEME ERJETKEN, JETILGEN, FIZIKALIQ SALAMAT, BEKKEM ETIP TÁRBIYALAW - HÁZIRGI DÁWIRIMIZDIŃ EŃ ÁHMIETLI WAZIYPASI.

Jumaniyazova Zlixa Reymovna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti Mektepke shekemgi hám baslawısh tálim kafedrası docenti,
Kidirniyazova Bibinaz Sarsenbayevna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti Mektepke shekemgi bilimlendiriw baǵdarı 2-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.19637124

Annotaciya. Oyın bala tárbiyasınıń áhmietli quralı ekenligi, milliy oyınlar balalardıń kúsh hám qábiletlerin ósedi, olardı ómirge tayarlaydı. Xalıq awızeki dóretiwshiliginiń basqa janrları sıyaqlı milliy háreketli oyınlar da uzaq tariyx arqalı bizge shekem jetip kelgen. Milliy oyınlar arqalı balanıń tili ósedi, aqılıy qábileti rawajlanadı. Fizikalıq jaqtan epshil hám kúshli bolıp ósiwi támiyinlenedi. Milliy xalıq oyınları balalardı iymanlı, isenimli, aqılıy bárkamal, salamat etip tárbiyalawda járdem beredi. Milliy xalıq oyınları balalardıń estetikalıq talǵamın arttıradı, ádepli, ádep-ikramlı etip tárbiyalaydı. Olardıń til baylıǵın, eslew qábiletin, sanasın rawajlandırıladı. Balalar chek tańlaw, sanaw, qosıq, qosıq aytıw arqalı shaqqan hám ziyrek bolıp ósedi.

Tayanish sózler: úrp-ádet, lider, milliy qádiriyat, milliy ruwx, motorika, qorjın, xalıq mwızeki dóretiwshilik, aqılıy uqıplılıq, estetikalıq talǵam,festival, tárbiya quralı.

Milliy xalıq oyınları áyyemgi zamanlardan baslap, xalıq máresimlerinde, úrp-ádetlerinde hám dástúrlerinde óz aldına bir taraw sıpatında jarıslarda, baqsılarda keń tarqalǵan qollanılǵan. Dene tárbiyası xalıqtıń úrp-ádetlerinde, dástúr hám máresimlerinde qáliplesip mıń jıllar dawamında rawajlanıp, jetilisip kelgen. Milliy xalıq oyınları mıń jıllar dawamında bizge shekem jetip kelgen "Atta shabıw," "Qız quwalaw," "Ulaq," "Arqada atıw," "Qoraz urısı," "Bes tas," "Sapalak," "Jambalak xola," "Gúres," "Kim tez oraydı," "Chillaq" sıyaqlı hám basqa da oyınlar arqalı batırlıq, epshillik, teńsalmaqlılıqtı saqlaw sıpatların arttırıw rawajlandırıwda, sonday-aq, qáddi-qáwmetti qáliplestiriw, ádep-ikramlılıq, sana, yad, dıqqat sıyaqlı pazıyletlerdi jetilistiriwde hám álbette, den-sawlıqtı bekkemlewde eń nátiyjeli qural bolıp kelgen. Atap aytqanda, ózbek milliy oyınları, barlıq xalıqlar sıyaqlı muzika, gúlalshılıq, gilem toqıw ásbapları, qosıq hám ayaq oyını hám basqalar adamzat tariyxınıń túrli sociallıq-ekonomikalıq basqıshlarında oylap tabılǵan hám qáliplesip kelgen. Milliy oyınlardıń ózine tán úrp-ádetlerinen, turmıs sharayatlarınan, jasaw klimatınan, tariyxı estelikler, qorshaǵan ortalıq sharayatınan kelip shıqqan bolıp, soǵan sáykes jınısına, jasına, salamatlıǵına qarap qollanılǵan. Bizge belgili, milliy oyınlar óz ishine háreket jaǵınan hár qıylı fizikalıq sıpatlardı rawajlandırıwǵa baǵdarlanǵan oyınlardı qamtıp alǵan. Sol sebepli milliy xalıq oyınlardan:

"Gúres"

Gúres - ózbek xalqınıń Surxan oazisiniń áyyemgi sport túrlerinen biri esaplanadı. Bul oyın baladan epshillik hám shaqqanlıq jáne shıdamlılıqtı talap etedi. Gúres bul, márt, paluan, epshil eki jigit ortasında ótkeriletuǵın ayqas, kúsh sınasıwı. Er balalardıń háreketine qarap olarǵa bakovul tárepinen "Shala, gárrem, hadal, dakki" sıyaqlı bahalar berilip barıladı.

Oyın procesinde erisilgen nátiyje

1. Fizikalıq: Epshillikke, shaqqanlıqqa
umtıladı, shıdamlılıqqa úyretedi.
2-Sociallıq ruwxiy: Shıdamlılıqqa, erk-ıqrarlılıqqa, jetekshilik
Qol hám barmaqlardı shaqqan háreketlendiriwge úyretiw.
Oyın ushin kerekli ásbap-úskeneler: Mayda taslar, qorjın.

Oyınnıń barısı - eki yaki onnan artıq qızlar qollarına qorjınlarınan besewden tas aladı. Taslardı eki qolınıń ústine qoyıp, mólsherlengen sheńber ishine taslardı taslaydı. Dóńgelek ishindegi 1 tastı joqarıǵa ılaqtırıp, qalgan dóńgelektegi taslardı gezekpe-gezek jerdi jelip qolina ildiredi. Hár bir jalama etip alınǵan tastı qorjınǵa salınadı - oyın barısında joqarıǵa ılaqtırılǵan tas túsirilip jiberilse, yaki ildirip ala almasa oyın toqtatıladı. Oyın sońında hújimnen taslar sanaladı. Kimde tas kóp bolsa, jeńimpaz dep tabıladı.

Oyın procesinde erisilgen nátiyje.

1-fizikalıq: shaqqanlıqqa, epshillikke, ilip
alıw kónlikpesi bekkemlenedi. qol hám barmaqlar motorikası rawajlanadı, gózlew kónlikpesi qáliplesedi.
2-Sociallıq-ruwxiy: diqqatına toplanadı, pikirlewi sheberlesedi (sengivinik balalarda qollanılsa nátiyje beredi).
3-ruwxiy: balalarda milliy ruwxtı arttırıw qáliplestiriw, milliy qádiriyatlarımızdı bekkemlew " SAPALAK."

Oyınnıń maqseti - balalardı shaqqan, epshil bolıwǵa úyretiw, olardıń fizikalıq rawajlanıwın arttırıw. Teńsalmaqlılıqtı saqlaǵan halda gózlew kónlikpelerin formirovanie. San-sanaq haqqındaǵı bilimlerin bekkemlew.

Oyın ushın kerekli ásbap-úskeneler: (keteksheler sızılǵan hám nomerlengen tegis maydan, diagonalı 6-8 sm ólshemdegi tegis, jalpaq gúlal tas).

Oyınnıń barısı - oyında 2 yamasa onnan artıq qızlar qatnasıwı múmkin oyın aldınan nomerlengen keteksheler sızıp qoyıladı. (1-5 sanına shekem) Birinshi qız 1-sanlı keteksheden baslap sapalak tastı gózlep bir aylanıp keyingi ekinshi kletkaǵa tewip otırǵızadı hám ózi de sekirip ótedi. Usılayınsha 5-kletkaǵa shekem baradı.
Oyın barısında tas sızıqtan shıǵıp ketse, yaki sızıqtı basıp alsa, sol qız oyınnan shıǵıp ketedi.

Oyın procesinde erisilgen nátiyje:
1-fizikalıq: teńsalmaqlılıqtı saqlaw, bir aylanıp sekiriw rawajlandırıw, mólsherlew, teńsalmaqlıq sıpatın rawajlandırıw, san-sanaqlardıń parıqlawǵa úyretiw.
2-Sociallıq-ruwxiy: erk-ıqrarlılıq hám sabır-taqat jetilistiriledi.
3-Ruwxiy: áwladtan-áwladqa ótip kiyatırgan milliy xalıq oyınlarındaǵı milliylikti seziw, bir-birine doslıq qatnasıqların rawajlandırıw. Solay etip, jas áwladtı hár tárepleme jetilisken, jetik, fizikalıq salamat, úshli etip tárbiyalaw házirgi dáwirimizdiń eń áhmietli wazıypalarınan biri. Solay eken keleshegimiz bolǵan

balanıń erte jaslıq dáwirinen baslap olardıń ósiwi hám tárbiyası menen qatań shuǵıllanıw tálim-tárbiya usıllarınan hám qurallarınan ónimli paydalanıw lazım. Tárbiya quralları haqqında sóz eter ekenbiz, balalar ushın eń súyikli hám quwanıshlı qural bolǵan oyınnıń ornı sheksiz. Milliy oyınlar balalardıń kúsh hám qábiletlerin ósirip, olardı ómirge jeteleydi tayarlaydı. Xalıq awızeki dóretiwshiliginiń basqa janrları sıyaqlı milliy háreketli oyınlar da uzaq tariyx arqalı bizge shekem jetip kelgen. Milliy oyınlar arqalı balanıń sóylewi, aqılıy qábileti ósedi rawajlanadı. Fizikalıq jaqtan epshil hám kúshli bolıp ósiwin támiyinledi. Milliy hám háreketli oyınlar balalardı iymanlı, isenimli, aqılıy bárkamal, salamat etip tárbiyalawda járdem beredi. Milliy oyınlardı xalıq dóretken, sonıń ushın olar ásirler arqalı jasay beredi. Xalıq oyınları balalardıń estetikalıq talǵamın arttıradı, ádepli, ádep-ikramlı etip tárbiyalaydı. Olardıń til baylıǵın eslew qábiletin, sanasın rawajlandıradı. Balalar chek tańlaw, sanaw, qosıq, qosıq aytıw arqalı shaqqan hám ziyrek bolıp ósedi. Xalıq turmısında gúres, ılaq sıyaqlı xalıqaralıq dárejege shigatugin oyınlar az emes. Olardı tereńirek úyreniwimiz hám úgit-násiyatlawımız zárúr. Bul boyınsha xalıq oyınlarınıń kóplegen túrlerine arnalǵan festival, bayramlar ótkeriw menen bir qatarda mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde balalarǵa milliy qádiriyatlarımızdı úyretip barıwımız kerek.

Sonday-aq, Milliy xalıq oyınların sport ámeliyatında qollanıw imkaniyatı da bar. Bizge belgili, ósip kiyatırǵan kishi hám mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń tárbiyası ushın, mektepke shekemgi jastaǵı balalardı sport penen turaqlı shuǵıllanıwǵa tartıw zárúr. Erte hám mektepke shekemgi jastaǵı balalardıń rawajlanıwına qoyılatuǵın Mámleket talapları. Mámleket talapları belgili, ólshenetuǵın balanıń boyı, salmaǵı, gewdesiniń dúzilisi sıyaqlı belgilerdi anıqlaw hám ápiwayı indikatorlar toplamın kórsetip, olar pedagoglarga hár bir jas toparında rawajlanıwdıń hár bir tarawı boyınsha balanı baqlap barıwǵa bala rawajlanıwına qoyılatuǵın Mámleket talaplarına qarata balanıń rawajlanıwın bahalawǵa múmkinshilik beredi. Bunnan tısqarı psixologiyalıq hám fizikalıq qábiletlerdi sınaw quralları járdeminde islenedi. Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemleri tárbiyalanıwshıları menen sport nátiyjeleri ol yaki bul sport túrine sáykes kelse, bala sol sport túri menen shuǵıllanıwına qabıl islewi maqsetke muwapıq dep tabıladı. Bul máselege durıs qatnas jasaw degen sóz. Milliy háreketli oyınlardı qollanıwda balalarda úlken qızıǵıwshılıq oyatadı, olardıń keypiyatı hám basqa ruwxıy sıpatlarına unamlı tásir kórsetedi. Bul jaǵdaylar bolsa organizmde sharshaw asqınıwlardıń erte payda bolıwına jol qoymaydı, zorıǵıw jaǵdayların aldın aladı.

Ádebiyatlar dizimi:

1. «Ilk va maktabgacha èshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari» T.: 2018.
2. «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi. T., 2018
3. Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar T.:270 «Nihol» nashrièti, 2016 y.
4. Qodirova F.R. va boshq. Maktabgacha pedagogika., Toshkent, «Ma’naviyat», 2013y. (O‘quv qo‘llanma)

MEKTEPKE SHEKEMGI JASTAǴI BALALARǴA XALIQ AWIZEKI DÓRETPELERIN ÚYRETIW METODIKASI

Jumaniyazova Zlixa Reymovna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti Mektepke shekemgi hám baslawısh tálim kafedrası docenti,
Jalalova Sarbinaz Salavatdinovna - Mektepke shekemgi bilimlendiriw baǵdarı 3-kurs talabası

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637178

Annotaciya. Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi tárbiyashıları qaraqalpaq xalıq qosıqların, erteklerdi, jumbaqlardı awızeki túrde ertek, balalar qosıqlarınan úzindilerdi tásirli etip aytıp beriwi tiyis. Jáne de Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi tárbiyashıları salt-dástúr jırları, tariyxıy qosıqlardı folkloristika ilimi tiykarında úyrenip, salt-dásturleri qaraqalpaq xalqınıń mıń-mıń ásirleri boyınsha úrip- ádetine, salt- sanasına, turmıstaǵı quwanısh hám qayǵısına xızmet etkenin, xalıq óziniń saltına hám dástúrlerine baylanıslı bárhá qosıq dóretip otırǵanın, onı hárqanday dáwir de jır etip aytılǵan, óz dástúrleri boyınsha tálim-tárbiyasın, úrip-ádetin saqlaǵanın biliwi kerek. Sol arqalı ruwxıy jaqtan úrp-ádetin saqlaǵan. Salt-dástúr jırları qısqa qosıqlardan ibarat bolıp keledi.

Tayanish sózler: xalıq amwızeki dóretiwshilik, aqılıy uqıplılıq, lider, milliy qádiriyat, milliy ruwx, motorika, qorjın, estetikalıq talǵam,festival, tárbiya quralı.

Mektepke shekemgi jastaǵı balalarǵa xalıq awızeki dóretpelerin úyretiw eń zárúrli metodikalıq máselerdiń biri. Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi tárbiyashıları tómendegi metodikalıq máselelerdi biliwi kerek.

1) Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi tárbiyashıları qaraqalpaq folklorınıń janrlıq bóliniwleri tuwralı keń túsinik alǵannan keyin, hárbir janrdıń mazmunın, tematikasın, ózgesheliklerin úyrenip shıǵıwı kerek.

2) Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi tárbiyashıları qaraqalpaq xalıq qosıqların, erteklerdi, jumbaqlardı awızeki túrde ertek, balalar qosıqlarınan úzindilerdi tásirli etip aytıp beriwi tiyis. Jáne de Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemi tárbiyashıları salt-dástúr jırları, tariyxıy qosıqlardı folkloristika ilimi tiykarında úyrenip, salt-dásturleri qaraqalpaq xalqınıń mıń-mıń ásirleri boyınsha úrip- ádetine, salt- sanasına, turmıstaǵı quwanısh hám qayǵısına xızmet etkenin, xalıq óziniń saltına hám dástúrlerine baylanıslı bárhá qosıq dóretip otırǵanın, onı hárqanday dáwir de jır etip aytılǵan, óz dástúrleri boyınsha tálim-tárbiyasın, úrip-ádetin saqlaǵanın biliwi kerek. Sol arqalı ruwxıy jaqtan úrp-ádetin saqlaǵan. Salt-dástúr jırları qısqa qosıqlardan ibarat bolıp keledi. Bunda syujetli waqıyalar sóz etiledi. Ol arnawlı salt penen dástúrdiń shártin orınlaw ushın aytıladı. Salt jırları barlıq xalıqlarda da bar. Ol hárbir jeke adamnıń ómir tirishiliginde, turmısında tutas xalıqtıń qarım-qatnasında xızmet atqaradı. Balalarǵa salt-dástúr jırlarınan besik jırların túsindirip baradı. Balalarǵa tariyxıy qosıqlardı úyretiw eń áhmiyetli metodikalıq máselelerden esaplanadı. Bul máseleleni balalarǵa túsindiriw barısında, gúrińlesiw, soraw-juwap metodlarınan

paydalanıp tariyxıy qosıqlardıń mazmunı hám áhmiyeti aytıp ótiledi. Tariyxıy qosıqlardıń mazmunında xalıqtıń basınan ótkergen belgili tariyxıy waqıyalar, tariyxıy adamlar, batırlar, tariyxıy orınlar, qalalar haqqında sóz etiledi. Qaraqalpaq xalqınıń tariyxıy qosıqları tematikası boyınsha qaraqalpaq xalqınıń rawajlanıw basqıshlarınıń derlik kópshilik dáwirlerin tutas óz ishine aladı. Atap aytqanda, buǵan xalqımızdıń noǵaylar dáwirindegi watanınan kóshiw, posıw haqqındaǵı «Ormanbet biy ólgende» tolǵawı, xalqımızdıń bunnan sońǵı táǵdiri, ómirinde bolıp ótken waqıyalar súwretlenetuǵının, «Qaraqalpaq», «Baysınǵa», «Jeti úyge bir beldar», «Qońırat legendası», «Marqabay batır» siyaqlı tariyxıy qosıqlardan qısqa tárbiyalıq sipatqa iye jerlerinen úzindiler aytıp beriledi. Tárbiyashı bul temalardı túsindiriw ushın aqılıy húјim, gúrińlesiw, klaster metodlarınan, qızıqlı kórinistegi súwretlerden paydalanıwı múmkin. Jumbaqlar hám jańıltpashlardı úyretiwde balalarǵa jumbaq hám baspadan basıp shıǵarıw máseleleri boyınsha ilimiy teoriyalıq miynetlerge tiykarlanıp maǵlıwmat beriledi. Jumbaqlar jas áwladqa bilim hám tárbiya beriwde áhmiyetli orın iyeleydi. Jumbaqlardı oqıtıwda tómendegidey jumıs túrleri isletiliwi tiyis.

1. Jumbaqlarǵa mısallar keltiriń.
2. Jumbaqlardıń áhmiyeti tuwralı aytıp ótiw kerek.
3. Jumbaqtıń sheshiliw múmkinshiligi bolǵansha oqıwshılardıń ózleri tabıwı ushın jaǵday jasaw kerek.
4. Jumbaqlardı úyretiwde súwretlerden paydalanıw jaqsı nátiyje beredi.
5. Jumbaqtaǵı kórkem sózlerdi úyretiw arqalı olarǵa estetikalıq tárbiya beriw kerek.

Ayrıqsha aytıp ketetuǵın másele jumbaqlardıń kimler tárepinen dóretiletuǵını, olardıń qalay saqlanıp kelgenligi aytıladı. Tárbiyashı tárepinen birneshe jumbaqlar oqılıp yamasa yadtan aytılıp, olardıń sheshliwin balalardıń qatnası menen birlikte orınlaw paydalı. Ayırım balalar juwabın durıs sheshe almaw, basqa bir uqsas sheshimin tabıwı múmkin. Ol balaǵa uqsaslıq tárepinen sóyletip, onnan keyin dál keletuǵın sheshimin taptırıw kerek. Erteklerdi úyretiwde jaslar tárbiyasınıń hár tárepleme jetilisiwinde xalıq óziniń tálim-tárbiyalıq oyları menen árman hám tilekleriniń awızeki ádebiyatınıń ertek janrı arqalı da júzege asırıp otırǵan. Ertek jas áwladtı tárbiyalawda áhmiyetli pedagogikalıq qural bolıp esaplanadı. Erteklerde balalardıń dúnyaǵa kózqarasları, isenimleri, qıyalları menen oyları qullası insan ómirinde ushırasatuǵın hádiyseler sáwlelenip otıradı. Balalarǵa xalıq erteklerinde sol dáwirde jasaǵan ulıwma xalıqtıń ózin qorshaǵan tábiyat qubılısların tanıwı menen birge, ómirdegi qıyınshılıq penen gúreslerdi sáwlendire bilgenligi túsindirip ótiledi. Sonday-aq erteklerde xalıqtıń qorqınıshlı dushpanları kim, hám onnan ózlerin qorǵaw tilekleri súwretlenedi. Onda tolıp atırǵan miynetkesh adamlardıń tirishilik ushın gúresleri, aqıllı menen aqılsızlıq, bay menen jarlı arasındaǵı qarama-qarsılıqlar sóz etiledi. Bulardan basqa erteklerdiń tematikası hám mazmunınıń keńligi, balalarǵa tálim-tárbiya beriw jaǵınan oǵada bay ekenligi aytıladı. Onda hárqanday xalıqtıń qıyalınan tuwǵan jaqsı arzıw-ármanlar, kórkemlew qurallar, obrazlı súwretlewler orın alǵanlıǵı, olardıń

ishinde áyyemgi waqıyalardan tap házirgi kúnge shekem kelip jetken ótken hádiyselerdi súwretleytuǵın dóretpeler ushırasatuǵınlıgı, bunday ertekler ózleriniń dóregen dáwirindegi syujetlik mazmunı az da bolsa saqlanıp, awızdan-awızǵa kóship, xalıq tárepinen jetilistirilip bara beretuǵınlıǵı tuwralı keń túsinikler beriledi. Sonıń menen birge erteklerden bir zamanlardaǵı xalqımızdıń siyasiy ekonomikalıq turmısına, psixologiyasına, dunya tanıw kózqaraslarına baylanıslı maǵlıwmat alıwǵa boladı. Erteklerdiń mazmunında áyyemgi zamanlardaǵı xalıqtıń perzentli bolıwı, quwanıwı, dástúrlerin eske túsirip, olardıń tálim-tárbiyasın sóz etedi. Sonlıqtan adamlar tábiyattıń jasırın sırlarına tolıq túsinbegen. Tábiyat qudiretinen qorqıp jasaǵan. Olar haywanat dúnyasında yamasa tábiyattaǵı qubılıslarda qandayda bir «káramatlı kúsh bar» degen túsinikte bolıp, hár qıylı isenimler payda bolǵan. Biraq adamlar dunyaǵa hám tábiyatqa óz kózqarasların, óz boljawların toqtatpaǵan. Adamlar taw, toǵay, suw, teńiz-okeyanlar, olardıń ishinde ne bar? Arjaǵında qanday xalıq jasaydı. Sol jaqqa barsam edi, solar haqqında bilsem edi, degen arzıw-ármanda jasaǵan. Kem-kem adamzat ármanı qıyalıy erteklerde tolıq sáwlelenip, qıyaldıń haqıyqatlıqqa aylanıwına járdemlesken, jas áwladqa qıyalparaz, ármanshıl bolıwdı úyretken. Qıyalıy erteklerde adamlar jaqsılıq, baxıtlı ómirdi árman etiw menen jasaydı. Onda jámiyetlik tártip durıs bolsa eken, bárhá molshılıq, abadanshılıq, paraxatshılıq bolsa eken dep tileydi. Balalarǵa bul maǵlıwmatlardı aytıp ótiw kerek. Erteklerden bir neshe mısallar keltirip, olardıń mazmunın túsindirip beriwde paydalı metodikalıq máselelerden esaplanadı.

«Qıran» erteginiń mazmunı, syujeti, obrazların túsindirip ótiw paydalı. Dáslep oqıwshılarǵa ertektiń syujeti sóylep beriledi. Qıran -márt, bahadır jigit. Ol adamzattıń mápi ushın, qayǵıdan qutqarıw ushın, joǵın tawıp berip, jılaǵandı jubatıw ushın jan tánin ayamay gúresedi. Jerdiń astı, ústi, suwdıń ishi, aspan oǵan bári bir. «Qıran» ertegindegi Qıran obrazı xalıqtıń tilegi. Sonday jawızlıqlardan qara niyetli kúshlerden jámiyetshilikti qutqaratuǵın Qıran siyaqlı bahadır adamlar bolsa eken, degen arzıw árman, qıyaldan dóregen xalıq ideyaları. Bunı túsindiriw sabaq barısında jaslardı ulıwma insanıylıq ideyalarǵa, watanǵa xızmet etiw ruwxında tárbiyalaw ushın úlken áhmiyetke iye.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR

8. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intozom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 56 bet.

ziyoev Sh.M. Buyuk kelejagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. O‘zbekiston, 2017. – 469 bet.

10. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида» Қонуни. –Тошкент, 2020 йил, 23-сентябрь, ЎРҚ-637.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони. // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. – Б.39.

12. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni «Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida»gi 2019 yil 16 dekabr O‘RQ-595

MEKTEPKE SHEKEMGI BILIMLENDIRIW SHÓLKEMI TÁRBIYALANÍWShÍLARÍNÍŃ INTELLEKTUAL HÁMDE EMACIONAL TARAWLARÍN ZAMANAGÓY METODLAR TIYKARINDA SHÓLKEMLESTIRIW.

Seydabullaeva Raziya Alimovna - Innovatsion texnologiyalar universiteti “Mektepke shekemgi hám baslawısh tálim kafedrasi” assistent oqıtıwshısı

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637223

Annotaciya Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde tárbiyalanıwshılardıń intellektual hám emocional rawajlanıwın zamanagóy pedagogikalıq metodlar tiykarında shólkemlestiriw máseleleri keltirip ótilgen. Zamanagóy oqıtıw texnologiyalarınıń balanıń aqıl-oy hám emosional qábiletlerin rawajlandırıwdağı roli analiz etiledi. Sonıń menen birge interaktiv metodlar, oyın texnologiyaları, STEAM jantasıwı hám kreativ tapsırmalar arqalı balalardıń kompleks rawajlanıwı túsindiriledi.

Tayanısh sózler: intellektual rawajlanıw, emocional rawajlanıw, mektepke shekemgi bilimlendiriw, zamanagóy metodlar, STEAM, interaktiv tálim iskerligi.

Annotation The issues of organizing the intellectual and emotional development of pupils in preschool educational organizations based on modern pedagogical methods are presented. The role of modern teaching technologies in the development of a child's mental and emotional abilities is analyzed. At the same time, children's comprehensive development is explained through interactive methods, game technologies, the STEAM approach, and creative tasks.

Keywords: intellectual development, emotional development, preschool education, modern methods, STEAM, interactive learning activity.

Mektepke shekemgi bilimlendiriw – shaxs qáliplesiwiniń eń áhmiyetli basqıshlarınıń biri bolıp esaplanadı. Búgingi kúnde bala dúnyanı tanıy baslaydı, pikirlew qabiletleri rawajlanadı hám sezim-sezgi dúnyası qáliplesedi. Sol sebepli tárbiyashılar aldında turǵan baslı wazıypalardıń biri – balanıń intellektual hám emocional rawajlanıwın birgelikte hám uyǵın túrde alıp barıwdan ibarat.

Zamanagóy pedagogika balanıń tek bilim alıwın emes, balki onıń shaxs sıpatında qáliplesiwin, erkin pikirlew, sheshim qabıl etiwi, kommunikativ qábiletlerin rawajlandırıwdı da názerde tutadı. Búgingi kúnde innovaciyalıq metodlardan paydalanıw arqalı pedagogikalıq procesti jańa basqıshqa kóteriw múmkin.

Intellektual hám emocional rawajlaniwdíń teoriyaliq negizleri

Intellektual rawajlanıw balanıń aqıl-oy qábiletleriniń qáliplesiwi menen baylanıslı bolıp, ol pikirlew, eslew, dıqqat, salıstırıw, analizlew hám ulıwmalastırıw siyaqlı proceslerden ibarat. Bul process balanıń bilim alıwına, jańa

maǵlıwmatlardı qabıl etiwine hám olar boyınsha juwmaq shıǵarıwına járdem beredi.

Emocional rawajlanıw bolsa balanıń ishki sezimleri, hám emociyaları menen baylanıslı. Bala óz sezimlerin tanıwdı, basqarıwdı hám basqalardıń emosional jaǵdayın túsiniwdi úyrenedi. Bul bolsa sociallıq qatnaslarda jetiskenlikke erisiwde áhmiyetli rol oynaydı.

Psixologlar pikiri boyınsha, intellektual hám emocional rawajlanıw bir-birinen ajıralmas túrde baylanıslı. Emocional jaqsı halat intellektual aktivlikti arttıradı, al negativ emosiyalar oqıw procesine keri tásir etedi.

Házirgi waqıtta, Ózbekstan Respublikasında pedagogikalıq baǵdarda alıp barılıp atırǵan ilimiy izleniwler sistemalı-metodologiyalıq qatnasqa tiykarlanadı. Pedagogikalıq hádiyse, haqıyqatlıq hám olardıń nizamlıqların anıqlawga bunday jantasıw pedagogikalıq hádiyse hám proceslerdiń uliwma baylanısı, olardıń izbe-iz, úzliksiz rawajlanıwı, balanıń fiziologiyalıq rawajlanıwı oniń psixologiyalıq, intellektual jaqtan jetilisip barıwın támiyinlewi, qarama-qarsılıqlardıń shaxs jetilisiwin támiyinlewdegi orni hám roli, sonday-aq, dialektika kategoriyalarınıń áhmiyetin tán aladı. Pedagogikalıq ilimiy izertlewlerdi ámelge asırıw quramalı, belgili bir múddetti talap etetuǵın, izbe-izlik, úzliksizlik, sistemalilıq hám anıq maqset sıyaqlı ózgesheliklerge iye bolgan process bolip, oniń nátiyjeli boliwi ushin bir qatar shártlerge ámel etiw zárúr. Olar tómendegiler:

1) mashqalanıń áhmiyetliligi hám temanıń anıq belgilengenligi;
2) ilimiy boljawlardıń duris qáliplestirilgenligi;
3) wazıypalardıń izertlew maqseti tiykarında duris belgilengenligi;
4) izertlew metodları sistemasına obyektiv jantasıw;
5) tájiriybe-sınaq jumısları procesine tartılatuǵın respondentlerdiń jas, psixologiyalıq hám jeke ózgeshelikleri, sonday-aq, shaxs rawajlanıwı nızamlıqlarınıń durıs esapqa alınǵanlıǵı;
6) izertlew nátiyjelerin aldınnan diagnozlaw hám oniń nátiyjelerin aytıp beriw;
7) izertlew nátiyjeleriniń kepilligi.

Zamanagóy sharayatta "Mektepke shekemgi bilimlendiriw pedagogikası" baǵdarında izertlewlerdi alıp barıwda tómendegi metodlar qollanıladı:

1. Pedagogikalıq baqlaw metodi.
2. Sáwbet metodi.
3. Anketa metodı.
4. Intervyu metodı.
5. Bilimlendiriw mákemesi húJjetlerin analizlew metodi.
6. Test metodı.
7. Pedagogikalıq analiz metodi.
8. Balalar dóretiwshiligin úyreniw metodi.
9. Pedagogikalıq tájiriybe metodi.
10. Matematikalıq-statistikalıq metod.

Zamanagóy metodlardíń áhmiyeti

Zamanagóy metodlar pedagogikalıq procesti effektli shólkemlestiriwde baslı qural bolıp tabıladı. Olardıń negizgi maqseti – balanıń aktiv qatnasıwın támiyinlew, qızıǵıwın arttırıw hám erkin pikirlewge úyretip barıw.

Intellektual hám emocional rawajlaniwdí shólkemlestiriw jollari

Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde bul eki tarawdı rawajlandırıw ushın tómendegi jollardan paydalanıw múmkin:

1. Qolay psixologiyalıq ortalıq jaratıw

Bala ózin erkin hám qáwipsiz sezgen jaǵdayda jaqsı rawajlanadı. Sol sebepli top ishinde doslıq, qollap-quwatlaw ortalıǵın jaratıw kerek.

2. Individual jantasıw

Hár bir bala ózine tán qábilet hám xarakterge iye. Tárbiyashı balanıń jeke qásiyetlerin esapqa alıp is júrgiziwi lazım.

3. Kreativ tapsırmalar beriw

Súwret salıw, konstruktorlar menen islew, gúrriń dúziw siyaqlı tapsırmalar balanıń pikirlewin hám emosiyaların birdey rawajlandıradı.

4. Kommunikativ oyınlar

Balalardıń bir-biri menen sóylesiwine, pikir almasıwına imkaniyat jaratadı. Bul empatiya hám sociallıq kónlikpelerin rawajlandıradı.

Nátiyjeler hám talqilaw

Zamanagóy metodlardan durıs paydalanıw nátiyjesinde:

balalardıń oqıwǵa qızıǵıwı artadı
pikirlew qabiletleri tez rawajlanadı
emosional turaqlılıq qáliplesedi
sociallıq qatnaslar jaqsılanadı

Bunday integraciyalanǵan jantasıw balanıń hár tárepleme rawajlanıwın támiyinleydi.

Juwmaqlaw Mektepke shekemgi bilimlendiriw shólkemlerinde tárbiyalanıwshılardıń intellektual hám emocional tarawların birgelikte rawajlandırıw – zaman talabı bolıp tabıladı. Bul procesti nátiyjeli shólkemlestiriw ushın zamanagóy pedagogikalıq metodlardan keń paydalanıw zárúr.

Interaktiv metodlar, oyın texnologiyaları, STEAM jantasıwı hám kreativ tapsırmalar balanıń tek bilim alıwın emes, balki shaxs sıpatında qáliplesiwin de támiyinleydi. Sol arqalı keleshkte jaqsı pikirley alatuǵın, emosional turaqlı hám jamiyetke beyim shaxs tárbiyalanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Z.T.Nishanova va boshq. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi. T.: 2017 y.
2. O.U.Xasanboyeva va boshq. Oila pedagogikasi. Toshkent. 2007 yil
3. F.R.Qodirova va boshq. Maktabgacha pedagogika. T.: 2019
4. Shoista Sodiqova Maktabgacha pedagogika T:2022

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA NEYRO O‘YINLAR ORQALI O‘QUVCHILARNING TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

S. K. Paluaniyazova - Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti, Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi stajyor-o'quvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637055

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda neyroo‘yinlardan foydalanishning nazariy-metodik asoslari tahlil etilgan. Neyropedagogik yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan o‘yin texnologiyalarining kognitiv jarayonlarga ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, neyroo‘yinlarni dars jarayoniga integratsiya qilish mexanizmlari va ularning samaradorligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: neyroo‘yinlar, tafakkur, kognitiv rivojlanish, neyropedagogika, boshlang'ich ta’lim, innovatsion metodlar.

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of using neuro-games in the development of students' thinking in the primary education system. The influence of game technologies, developed on the basis of neuropedagogical approaches, on cognitive processes is scientifically substantiated. The mechanisms of integrating neuro-games into the lesson process and their effectiveness are also highlighted.

Keywords: neuro-games, thinking, cognitive development, neuropedagogy, primary education, innovative methods.

Zamonaviy ta’lim paradigmasida o‘quvchilarning faqat bilimlarni o‘zlashtirishi emas, balki ularning tafakkur faoliyatini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan, ta’lim jarayoniga neyropedagogika asosida ishlab chiqilgan innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Neyroo‘yinlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, axborotni qayta ishlash jarayonlarini tezlashtirish hamda diqqat va xotira mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida e’tirof etilmoqda [5, p.34]. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘yin faoliyati yetakchi faoliyat turi bo‘lganligi sababli, mazkur yosh bosqichida o‘yin asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni yuqori natijadorlikni ta’minlaydi [3, 62-b.]. Demak, neyroo‘yinlardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelgan holda, ularning bilish faoliyatini samarali faollashtirish imkonini beradi. Xususan, o‘yin jarayonida o‘quvchilar axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash va mustahkamlash bosqichlarini tabiiy ravishda amalga oshiradi. Bu esa o‘z navbatida diqqatning barqarorlashuvi, xotiraning rivojlanishi hamda tafakkur operatsiyalarining (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish) faollashuviga xizmat qiladi.

Shuningdek, neyroo‘yinlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni hal etish ko‘nikmalarini shakllantiradi hamda o‘quv motivatsiyasini oshiradi. Natijada, o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning kognitiv faolligi ham izchil rivojlanib boradi.

1. Tafakkur rivojlanishining psixologik-pedagogik asoslari

Tafakkur insonning borliqni bilvosita va umumlashtirilgan holda aks ettirishiga xizmat qiluvchi murakkab kognitiv jarayon bo‘lib, u analiz, sintez, umumlashtirish va taqqoslash kabi aqliy operatsiyalar orqali namoyon bo‘ladi [3, 85-b.]. Bunda tafakkur jarayoni o‘quvchining mavjud bilim va tajribalariga

tayanib, yangi bilimlarni o‘zlashtirish hamda muammoli vaziyatlarni hal etish jarayonida faol namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tafakkur ko‘proq konkret-obrazli xarakterga ega bo‘lib, asta-sekin mantiqiy tafakkur shakllari rivojlanib boradi. Mazkur jarayonda analiz va sintez orqali o‘quvchilar obyekt va hodisalarni tarkibiy qismlarga ajratish hamda ularni qayta birlashtirishni o‘rganadi, taqqoslash orqali o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlaydi, umumlashtirish orqali esa muhim belgilar asosida xulosa chiqarishga erishadi. Natijada, tafakkurning izchilligi va mustaqilligi shakllanib, o‘quvchilarning bilish faoliyati yanada faollashadi.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarda tafakkur asosan ko‘rgazmali-obrazli shaklda rivojlanadi. J. Piaget nazariyasiga muvofiq, mazkur davrda bolalar konkret operatsiyalar bosqichida bo‘lib, ular bilimlarni bevosita amaliy faoliyat orqali egallaydi [4, p.71]. Shu bois, o‘yin faoliyatiga asoslangan metodlar o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda eng samarali pedagogik vositalardan biri sifatida qaraladi.

2. Neyroo‘yinlarning pedagogik salohiyati. Neyroo‘yinlar – bu o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan maxsus didaktik vosita bo‘lib, ular orqali ta’lim jarayonida yuqori darajadagi interfaollik ta’minlanadi.

Mazkur o‘yinlar quyidagi yo‘nalishlarda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

diqqatning barqarorligini oshirish;

qisqa va uzoq muddatli xotirani rivojlantirish;

mantiqiy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish;

muammoli vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.

E. Jensenning ilmiy qarashlariga ko‘ra, miya faoliyatiga asoslangan o‘qitish texnologiyalari o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi [5, p.52]. Shu bilan birga, D. Sousa ta’kidlaganidek, o‘yin faoliyati orqali olingan bilimlar uzoq muddatli xotirada mustahkam saqlanadi [6, p.119]. Albatta, mazkur ilmiy qarashlar neyroo‘yinlar asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining samaradorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Chunki bunday yondashuvda o‘quv materiallari o‘quvchilarning tabiiy bilish jarayonlariga mos holda taqdim etilib, ularning emotsional holati va qiziqishi ham inobatga olinadi. Natijada, o‘quvchilar o‘rganilayotgan mavzuni chuqurroq anglaydi, uni amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi hamda bilimlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishi ta’minlanadi. Shu jihatdan, neyroo‘yinlardan foydalanish nafaqat o‘quv jarayonini qiziqarli tashkil etadi, balki uning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Neyroo‘yinlarni qo‘llash metodikasi

Boshlang‘ich ta’limda neyroo‘yinlardan samarali foydalanish quyidagi metodik bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

1. Maqsadni aniqlashtirish.

Mazkur bosqichda o‘quvchilarda rivojlantirilishi zarur bo‘lgan tafakkur komponentlari aniqlanadi [2, 115-b.].

2. Mos o‘yinlarni tanlash.

O‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda neyroo‘yinlar tanlanadi. Masalan, mantiqiy tafakkur uchun “Tezkor fikrla”, xotira uchun “Eslab qol va ayt” kabi o‘yinlar qo‘llaniladi.

3. Ta’lim jarayoniga integratsiya qilish. O‘yinlar darsning turli bosqichlariga (motivatsiya, yangi bilim berish, mustahkamlash) tizimli ravishda kiritiladi [1, 93-b.].

4. Natijalarni tahlil qilish. O‘quvchilarning rivojlanish dinamikasi monitoring qilinib, metodikaning samaradorligi baholanadi [7, 140-b.].

4. Neyroo‘yinlarning samaradorligini baholash. Ilmiy kuzatuvlar va amaliy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, o‘yin texnologiyalariga asoslangan ta’lim o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish bilan birga, ularning tafakkur faoliyatini ham sezilarli darajada faollashtiradi [8, 59-b.].

Neyroo‘yinlardan foydalanish natijasida:

o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalari rivojlanadi;

muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashuv shakllanadi;

bilimlarni o‘zlashtirish sifati ortadi.

Bu esa ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, boshlang‘ich ta’limda neyroo‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishning samarali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etilgan o‘yin texnologiyalari o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda ta’lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda raqamli neyroo‘yinlar va sun’iy intellekt texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2019.
3. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva, 1991.
4. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London, 2001.
5. Jensen E. Brain-Based Learning. – USA, 2008.
6. Sousa D. How the Brain Learns. – California, 2017.
7. G‘ulomov S. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
8. Shodmonov Q. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent, 2022.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING DARSDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Saliyeva Perdexan Alimbetovna - Qoraqalpog’iston respublikasi pedagogik mahorat markazi “Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi docenti, (phd)

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637077

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy talablar asosida umumiy o’rta ta’lim maktablari pedagog xodimlarining kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Kalit so’zlar: kasbiy rivojlanish pedagogik etika madaniyati , kasbiy rivojlanish , kasbiy faoliyat.

Annotation. This article provides for the development of professional knowledge, skills, and abilities of pedagogical workers of general education schools based on modern requirements, and the systematic improvement of their professional competence.

Keywords: professional development, pedagogical ethics culture, professional development, professional activity.

Mamlakatimizda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar mutaxassislarning malaka darajasi, kasbiy rivojlanishi va kompetentligiga yangi talablar qo‘ymoqda. Bir qator qonunlar, farmonlar, hujjatlar pedagog kadrlarning kasbiy darajasini uzluksiz rivojlantirish modellari va amaliyotlarini yaratish va amalga oshirish jarayonlarini tezlashtirdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-23-son qaroriga tayangan holda O‘zbekiston Respublikasi malaka oshirish tizimida malaka oshirishning xorijiy tajriba va modellarini inobatga olish maqsadga muvofiq tinglovchilar uchun o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ularning kasbiy tajribasi, yangi funksiyalarni o‘zlashtirish va kompetensiyalarni rivojlantirish uchun o‘qituvchilarning tajribasi va toifasini hisobga olish va o‘qituvchilarning qo‘shimcha ta’lim tizimida modul dasturlarini keng tanlash zarur. O‘qituvchi malakasini oshirishning shaxsiylashtirilgan modelini qurish dolzarb yo‘nalish sifatida e’tirof etilmoqda. Qo‘shimcha kasbiy ta’limni rejalashtirish davrida kasbiy rivojlanish natijalari uchun pedagogning motivatsiyasi va shaxsiy mas’uliyatini kuchaytirish uchun subyekt pozitsiyasini hisobga olish kerak.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘qituvchilarni kasbiy rivojlantirishning metodik ta’minoti mazmuni masalalari pedagog maqomi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq pedagogning kasbiy darajasini oshirishga hissa qo‘shadigan pedagoglarning kasbiy rivojlanishini real uslubiy qo‘llab-quvvatlash, pedagoglar tomonidan yangi kasbiy kompetensiyalarni o‘zlashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni talab qilishi ta’kidlanadi. Pedagogning ta’lim yo‘nalishini aniqlash uchun pedagogning maqomi to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi bo‘yicha pedagoglarning kasbiy darajasi diagnostikasini o‘tkazish shartlari va mezonlari belgilandi.

Bugungi kunda qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator muammolar mavjudligi ta’kidlangan. Ular orasida malaka oshirish tizimining ta’lim oluvchilar bilan ishlashda ularni o‘quv jarayoniga jalb qilish, faollashtirish, o‘quv axborotining passiv iste’molchilaridan yangi bilimlarni olishning ijodiy hamkorlariga aylantirishga qodir bo‘lgan yangi o‘qitish

texnologiyalari ustuvor bo‘lishi kerak. Qo‘shimcha nafaqat malaka oshirish kurslarini tizimli o‘tkazish markaziga, balki pedagoglarning mustaqil ishlarini tashkil etish markaziga, mintaqaviy ilmiy-metodik markazga aylanishi kerak, bu esa malaka oshirishning mintaqaviy modellari paydo bo‘lishi bilan uzviy bog‘liqdir. Qo‘shimcha ta’lim sohasida ta’lim faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar o‘z faoliyatini o‘qituvchilar hamjamiyatining ehtiyojlariga muvofiq qayta qurayotgani, so‘nggi paytdagi me’yoriy-huquqiy hujjatlarda malaka oshirish tuzilmasida shakl va metodlarni tanlashda variativlik imkoniyati va zarurati to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘rsatilganligi ta’kidlangan.

“Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati” tadbirlarini bosqichma-bosqich joriy etish to‘g‘risida”gi 246-son buyrug‘i, shuningdek, maktab ta’limi tashkilotlari pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz malakasini oshirishning ilg’or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish, maktab ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo’yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo’lib, zamonaviy talablar asosida umumiy o’rta ta’lim maktablari pedagog xodimlarining kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadigan talab va vazifalar belgilangan.

Boshlang`ich sinf o`qituvchilari o`zidagi uslubiy bilimlarni rivojlantirishi uchun metodik kompetentsiyaning keltirib o`tilgan vazifalarini o`rganishi hamda ularni amaliy tajribada qo`llanishi orqali erishadi. Turli pedagogik o’zgarishlar natijasida o’qituvchining metodik qobilyati shakllanadi. Pedagogik mahoratga ega bo’lgan o’qituvchi tarbiyadagi qiyinchiliklarni yengishga qodir bo’lgan o’qituvchi, o’sib kelayotgan yosh avlodning o’ziga xos hususiyatlarini tushuna oladigan, ularning tuyg’ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik va zaif bo’lgan, bola hayotidagi turli qiyinchiliklarni ko’ra oladigan va ularga mohirlik bilan yondashadigan, bilim va kreativlilikni o`zida mujassam etgan chuqur ilmiy fikrga ega shaxs hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o’qituvchisi mehnatining maqsadi yoshlarga o’qish va yozishni o’rgatish orqali voqelikdagi jamiki narsa - hodisalar haqida bilim berish, ularda insonga xos bo’lgan sifat hamda fazilatlarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi desak mubolag’a bo’lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son farmoni, - T.: 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son qarori, - T.: 2024.

3. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. Academic Research in Educational Sciences, 2(1), 778-782

BOSHLANǴICH SINFLARDA TARBIYAVIY DARSLARNI INTEGRACIYALAB O’TISHNING AHAMIYATI.

Tajekbaeva.Z.K. - QRPYMUMM Maktabgacha, Boshlanǵich va maxsus talim kafedrasi katta oqituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637128

Annotaciya: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zarur ko‘nikmalarni shakllantirish, boshlang‘ich ta’lim sifat samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish, o‘qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Kalit so‘zlar: Umumiy o’rta ta’lim, maktab, o’qituvchi, odob-axloq, qoidalar, tarbiya, shakillantirish, dars, jihoz.

Annotation: It is advisable to form the necessary skills in primary school students, raise the quality effectiveness of primary education to a new level, and introduce modern teaching methods and tools into practice. In this process, the teacher creates conditions for the development, formation, acquisition of knowledge, and upbringing of the individual.

Keywords: General secondary education, school, teacher, etiquette, rules, upbringing, formation, lesson, equipment.

Davlatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan barcha islohotlar, sog’lom bolalarni voyaga yetkazishga asoslangan. Shuning uchun barcha sohalarda amalga oshirilayotgan ishlar kabi bolalarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi vositalar va ularni ishlab chiqishga katta e’tibor qaratilmoqda. Har tomonlama sog‘lom avlodni tarbiyalashda boshlang‘ich ta’limning o‘rni katta. Boshlang’ich ta’lim davri har bir shaxsning keyingi hayotini belgilab beradi, boshlang‘ich ta’lim sifat va samaradorligini oshirishning eng asosiy omillaridan biri ta’lim jarayonini metodik ta’minlashdir.

Dastur asosida “Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy salohiyati va ma’lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang‘ich ta’lim metodikasini bilishi, boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida zarur ko‘nikmalarni shakllantirish, boshlang‘ich ta’lim sifat samaradorligini yangi bosqichga ko‘tarish, o‘qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. O‘qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Bugungi kunda yoshlarimizga ta’lim berish bilan birgalikda o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchi yoshlarning faolligini oshirish, shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish va maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirish yo‘lga

qo‘yilgan. Umumta’lim maktablarida o’quvchilar va pedagog xodimlar o‘rtasida o‘zaro ijodiy raqobatni kuchaytirish maqsadida hafta kunlariga nom berilib, alohida maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirish yo‘lga qo‘yilgan.

Umumta’lim maktablarida “Umumiy o’rta ta’lim maktab o’qituvchilari va o’quvchilarning odob-axloq qoidalari”, “Tarbiyaviy soatlar”ning namunaviy rejasi asosida o‘tilishi, bolalarda ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani shakillantirish, o‘quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda milliy g‘oya, g‘urur va iftixor tuyg’usini shakllantirishga qaratilgan. Bu borada boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy darslarning o‘rni va ahamiyati katta.

Tarbiyaviy darslarni o‘tish sinf rahbarining vazifalaridan biri bo‘lib, haftada bir marotaba, yiliga 34 darsni tashkil qilib o‘tishlari zarur. Ilgarilari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tarbiyaviy darslarni o‘tishda qiynalardi. Chunki, tarbiyaviy darslarning faqat mavzu rejasi mavjud bo‘lib, tarbiyaviy darslarni asosan bayram sanalariga bag‘ishlangan ssenariysi, undan tashqari, kasbga yo‘naltiruvchi mavzular: “Kim bo‘lsam ekan”, “Non – aziz” mavzulari yuzasidan ilg‘or tajribali o‘qituvchilargina ushbu mavzularning ssenariysini o‘zlari tuzib ochiq darslar o’tkazishar edi. Yosh mutaxassislar va tajribasi kam o‘qituvchilar ularning ishlagan dars ishlanmalaridan foydalanib tarbiyaviy darslarni o‘tishar edi. Qolaversa, tarbiyaviy dars haftaning shanba kunlari, oxirgi soatlarga qo‘yilar edi. O‘qituvchilar ushbu darsni “sinf soati” bilan almashtirishar edi. Chunki o‘qituvchilar bu darsda o‘quvchilarning darsdagi davomati va ularning axloqi haqida gaplashar, ayrim o‘qituvchilar asosiy darslarda ulgurmay qolgan darslarni o‘tishar edi.

Davlatimiz tomonidan tarbiyaviy darsga katta e’tibor qaratilib, o‘quvchilarga milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyatni shakllantirish maqsadida uni “ma’naviyat darsi” darajasiga ko’tarishdi. Maktablarimizda haftaning har juma kuni “ma’naviyat kuni” deb belgilanib, tarbiyaviy darslarni o’sha kuni birinchi darsda o’tishlari belgilandi. Bu darsda bolalarning qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, u inklyuziv bola boladimi, boshqa mi, mavzu yuzasidan bir hafta oldin olgan taassurotlari bilan ma’naviyati shakillanishi zarur. Chunki o‘qituvchi darsni shunday qilib tashkil qilishi kerakki, o‘quvchilar, “ushbu darsni o‘qituvchi tezroq o‘tsalar ekan” – degan fikr bilan navbatdagi tarbiyaviy darsni kutib yashashi kerak. Yuqorida aytilgan talablarning chora - tadbirini, ya’ni boshlang‘ich sinflarda tarbiyaviy darslarni tashkil qilishda ayrim mavzular bo‘yicha quyidagi tarbiyaviy darsni tavsiya qilmoqchimiz. Tarbiyaviy dars – o‘quvchi shaxsini shakillantirishga maqsadli yo‘naltirilgan, o‘qituvchi va o‘quvchilar hamkorligi uchun maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan, o‘zining pirovard maqsadi sifatida shaxsni shakillantiradigan jarayondir. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy darslarning samaradorligini oshirish tarbiyaviy ishlar texnologiyasini to‘g‘ri tashkil qilish va qo‘llashga bog‘liq. Bu esa, o‘z navbatida tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish uslubiyatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlanmalari asosida yaratishni talab etadi.

Tabiyatni sevamiz va asiraymiz

Dars maqsadi: - o‘quvchilar tabiat go‘zalligidan bahramand bo‘lishga o‘rganadi va uning qadriga yetish haqida o‘ylab ko‘radilar.

Jihozlar: har xil shaklga ega darxt shoxlari, har bir guruh uchun tabiat manzarasi tushurilgan bitta yig‘ma rasm-puzzle (1-ilova), A4 qog‘ozi, yelim.

Dars jarayoni:

I. O‘qituvchi nutqi (10 minut). Bolajonlar, bugun biz tabiyatning g‘aroib sehrli olami haqida gaplashamiz. Har kuni ko‘zimizga oddiy ko‘ringan ko‘chadagi darxtlar, gullar tabiatning ajralmas bo‘lagi xisoblanadi. Ularning ham joni bor: kurtak chiqaradi, yaproqlaydi, gullaydi, o‘sadi, nafas oladi va chiqaradi.

Qo‘limdagi har xil shakldagi shoxlarga yaxshilab razm soling. Bularning har biri bitta narsaga o‘xshaydi. Xush, mana bu navda nimaga o‘xshaydi?
(O‘qituvchi har bitta navdani nimagadir o‘xshatishga yordam beradi. Yoki birinchisini o‘zi ko‘rsatib beradi, qolganlarini o‘quvchilar topadi. Masalan, ular biron bir hayvonga yoki buyumga o‘xshashi mumkin).

- Hozir qaysi fasl?
- Derazaga boqing.Tabiatda qanday o‘zagarishlar sodir bo‘lmoqda?
- Agar butun dunyoda darxtlar yo‘q bo‘ib qolsa, nima bo‘ladi?
- Agar juda ko‘p bo’sachi?

II. Kichik guruhlarda ishlash (15 minut). O‘qituvchi o‘quvchilarni 5-6 kishilik kichik guruhlarga bo‘ladi va har bir guruhga alohida tabiat manzarasi tushurilgan bitta yig‘ma rasm (puzzle – har xil shaklda kesilgan) va A4 qog‘ozi beriladi.

Topshiriq: 1.Guruhingiz bilan birga ushbu rasm bo‘laklarini to‘g‘ri joylashtiring va qog‘ozga yelimlang.

2. Hosil bo‘lgan tabiat manzarasini chiroyli qilib ta’riflab bering.

III. Taqdimot (10 minut). Har bir guruhdan ikkita ishtirokchi chiqib bittasi guruh ishini taqdim etadi, ikkinchisi rasmni izohlab beradi.

IV. Muhokama (10 minut).

* Bugungi mashg‘ulotimiz sizga yoqdimi? Nimasi bilan?
* Qaysi guruhning rasmi va tasvirlashi sizga yoqdi? Nima uchun?
* Shahrimiz/qishlog‘imiz shunday go‘zal manzaraga ega bo‘lishi uchun nima qilishimiz kerak?
* Sinf, maktab, xonodonimizda toza havodan nafas olish uchunchi?
* Gullar, ko‘chatlar tez o‘sishi uchun unga qanday parvarish lozim?
* Agar har bittangiz 1 ta ko‘chat eksangiz, jami neshta bo‘ladi?
* Usha ko‘chatlar siz maktabni bitirguncha necha yoshga to‘ladi?
* Agar ular meva darxti bo‘lsa, biz qanday foyda ko‘ramiz?
* Bundan qanday xulosa chiqarasiz?

Xulosa qilib aytadigan bulsak, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining “O‘quvchi ma'naviyatini shakllantirishda tarbiyaviy soatlarning ahamiyati” nomli tavsiyasida: «Ta'lim berib tarbiyalaymiz, tarbiyalab turib ta'limni shakllantiramiz. Shuning uchun tarbiyaning ta'limdagi, ta'limning tarbiyadagi o‘rni beqiyos»- deyilgan.

Sinf rahbarlari tavsiya etilgan dars ishlanmalaridan samarali foydalanadi degan umiddamiz. Ammo har bir sinfning bilim darajasi, yosh xususiyatlarini

hisobga olib, ularga o‘zgartirishlar kiritishi va qo‘shimcha adabiyotlar, manbalardan foydalanib, darsni yana da boyitishi uchun o‘z ustida tinmay ishlashi va izlanishi lozim. Darslarni integraciyalab olib borish o’tilgan mavzularni yanada mustahkamlashga erdam beradi.

Foydalangan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. T., 1997.
2. Omonova M., Bobomurotova D., Xaydarova U. “Umumta`lim maktablarining 1-sinflarida “Tarbiyaviy soat” mashg`ulotlarini tashkil etish bo‘yicha sinf rahbarlari uchun metodik qo‘llanma” Toshkent. 2013.
3. Ishmuxammedov R., Abdiqodirov A., Pardaev A. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar» T., 2008

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI METODIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI

G‘aniyeva Maftuna Abduaziz qizi - Innovatsion texnologiyalar universiteti dotsent v.b, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637183

Annotatsiya: Mazkur tezisda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirishning dolzarb pedagogik muammolari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, mantiqiy, kreativ va refleksiv tafakkurni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, pedagogik heuristika, kreativ didaktika hamda refleksiv ta’lim yondashuvlarining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: metodik tayyorgarlik, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, mantiqiy tafakkur, kreativ didaktika, refleksiv ta’lim, pedagogik heuristika, innovatsion texnologiyalar,

Abstract: This thesis provides a scientific and theoretical analysis of акtyal pedagogical issues in developing the methodological training of future primary school teachers. Particular attention is paid to the formation of professional competencies and the development of logical, creative, and reflective thinking within the modern education system. The importance of innovative pedagogical technologies, interactive methods, pedagogical heuristics, creative didactics, and reflective learning approaches is substantiated.

Key words: methodological training, primary school teacher, logical thinking, creative didactics, reflective learning, pedagogical heuristics, innovative technologies.

Bugungi global ta’lim makonida ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida oliy ta’lim muassasalarida akademik sifatni oshirish hamda mehnat bozorining talablariga javob bera oladigan yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassislar

tayyorlash masalasi nafaqat amaliy, balki chuqur epistemologik va institutsional ahamiyat kasb etmoqda. YUNESKO tomonidan tasdiqlangan 2030-yilgacha mo‘ljallangan xalqaro ta’lim strategiyasida esa ta’lim ijtimoiy-madaniy taraqqiyotning bosh omillaridan biri, jamiyat rivojining strategik harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta’riflangan hamda “butun umr davomida sifatli ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash” konsepsiyaning asosiy ustunlaridan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan. Pedagogik muammolar ta’lim tizimining rivojlanishi va takomillashuvi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Ular o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish, ta’lim jarayonida sifatli yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llashda katta rol o‘ynaydi. Ushbu muammolar bir qator ilmiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Quyida keltirilgan beshta muammo jahon va milliy ta’lim tizimida ilgari surilgan asosiy pedagogik muammolardir:

Mantiqiy tafakkur ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatishning asosi hisoblanadi. Ushbu muammo ilmiy tadqiqotchilar tomonidan ko‘p yillar davomida o‘rganilib kelinmoqda. V.I. Kirillov ta’kidlaganidek, mantiqiy tafakkur tizimli yondashuvni talab qiladi, bu esa pedagogik faoliyatda ham amaliy, ham nazariy jihatdan katta ahamiyatga ega. J.D. Brunerning ishlari esa mantiqiy tafakkurni rivojlantirishda konstruktiv yondashuvni qo‘llash zarurligini ko‘rsatdi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llash va pedagogik metodlarni rivojlantirish masalasi pedagogika sohasida doimiy ravishda ilgari surilgan. J. Dewey o‘zining amaliy ta’lim yondashuvlari orqali pedagogik metodlarni sinovdan o‘tkazdi. K. Goodmanning tadqiqotlari ta’limda individualizatsiya va differentsiyalashni, ya’ni har bir o‘quvchining ehtiyojlariga mos metodlarni qo‘llashni ta’minlash zarurligini ko‘rsatadi. M. Gagne esa o‘quv jarayonida ta’lim metodlarini optimal ishlab chiqish va baholashga alohida e’tibor qaratgan.

Pedagogik kommunikatsiya va o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi didaktik aloqalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. P. Freire o‘zining didaktik va pedagogik yondashuvlari orqali, ta’limning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini ta’kidlagan. L. Vygotskiy esa o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni, o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashni ilmiy asoslab berdi.

Psixologik yondashuvlar esa ta’lim jarayonida o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga, o‘quvchilarni jamiyatga moslashtirishga, va ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. V. Davydovning genetik psixologiya asosida ta’lim metodlarini takomillashtirishga oid ishlarida ta’limning psixologik tahlili haqida so‘z boradi. A. Leontievning faoliyat nazariyasi va E. Eriksonning shaxsiy rivojlanish nazariyasi pedagogik faoliyatga ijtimoiy-psixologik yondashuvlarni qo‘llashni ko‘rsatadi.

Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar zamonaviy ta’lim tizimining ajralmas qismi bo‘lib qolmoqda. M. Csikszentmihalyi o‘zining "Flow" (oqim) kontseptsiyasi orqali, o‘quvchilarni o‘qishga jalb qilish va o‘quv jarayonini interfaol qilishning muhimligini ta’kidladi. S. Mishra innovatsion ta’lim texnologiyalarining metodik yondashuvlar bilan birgalikda qo‘llanishi orqali ta’lim jarayonini yanada samarali qilish mumkinligini ko‘rsatdi.

Mazkur maqsadlarni amalga oshirish jarayonida transdisiplinar va interaktiv pedagogika tamoyillariga asoslangan holda, kognitiv va metakognitiv kompetensiyalarni shakllantiruvchi innovatsion ta’lim yondashuvlari alohida dolzarblik kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, intellektual kapitalni rivojlantirish, aksiosferaviy tafakkurni kengaytirish va global makonda yuqori adaptivlikka ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida maydonga chiqmoqda.

Zamonaviy pedagogdan esa pedagogik heuristika, kreativ didaktika va refleksiv ta’lim texnologiyalarini samarali qo‘llay olish, shuningdek, o‘z kasbiy salohiyatini doimiy ravishda modernizatsiya qilish talab etilmoqda. Bunday yondashuv pedagogik jarayonni faqatgina axborot uzatish vositasi sifatida emas, balki intellektual sinergetik muhit sifatida shakllantirish imkonini beradi .

Bugungi ta’lim jarayonida zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yilayotgan talablar faqatgina ma’lumot yetkazuvchi rol bilan cheklanmaydi. U endilikda o‘quvchilarning bilim olish jarayoniga intellektual yo‘nalish beruvchi, ularni mustaqil tahliliy fikrlashga yo‘naltiruvchi, shuningdek, innovatsion yondashuvlar asosida bilimlarni qayta ishlash malakasini shakllantiruvchi kasbiy yetuk mutaxassis sifatida maydonga chiqmoqda. Xususan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tayyorlovida mantiqiy tafakkurni chuqurlashtirish, texnologik va raqamli ta’lim muhitida mantiqiy elementlardan samarali foydalanish zamonaviy pedagogikaning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu boradagi metodik tayyorgarlik darajasi esa ta’lim sifati va samaradorligini belgilovchi strategik omillardan biri sifatida e’tirof etiladi. Shu jihatdan olib qaralganda, didaktik mantiq asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning intellektual imkoniyatlarini kengaytirish, o‘quv materiallarini integratsiyalashgan model doirasida ishlab chiqish, fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash va shu asosda o‘quv-metodik yondashuvlarni optimallashtirish ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayni vaqtda oliy ta’lim tizimining modernizatsiyalash jarayonida ta’lim va tarbiya mazmunini yangilash masalasi muhim o‘rin egallamoqda. Bunda, bir tomondan, “noformal” ta’lim – ya’ni “Hamkorlik strategiyasi” doirasida o‘quv jarayoniga innovatsion texnologiyalar, masofaviy ta’lim, tyutorlik yondashuvi kabi zamonaviy shakllarni integratsiya qilish zarurati yuzaga chiqayotgan bo‘lsa, boshqa tomondan, “informal” – ya’ni o‘quvchi shaxsiyati va individual ehtiyojlariga asoslangan shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish masalasi ham dolzarb bo‘lib bormoqda. Ushbu sharoitda boshlang‘ich ta’lim bosqichida faoliyat yuritadigan bo‘lajak pedagoglarda mantiqiy hamda kreativ tafakkurni shakllantirish, ularni rivojlantiruvchi samarali metod va uslublarni ishlab chiqish, shuningdek, mashg‘ulotlarda integratsiyalashgan yondashuvlarni qo‘llash imkonini beruvchi innovatsion texnologiyalar va model yechimlarni ishlab chiqish g‘oyat muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biriga aylangan. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish” vazifasi belgilanib, bu borada pedagoglarning kreativligini oshirish, ta’lim mazmunini takomillashtirib borishda qulay sharoitlar yaratish, pedagogik deontologiya(yunon.

«deontos» - loyiqlik, munosib, kerakli, tegishli, «logos» - ilm, ta’limot)ni ta’minlash orqali kutilgan natijalarga erishish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik heuristika – bu o‘qitish va o‘rganish jarayonida mustaqil fikrlashni, muammoli vaziyatlarni hal qilishni, yangi bilimlarni o‘zlashtirishni, rag’batlantiruvchi yondashuv bo‘lib, o‘quvchilarning intellektual faolligini va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Kreativ didaktika – bu o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, erkin tafakkur, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan didaktik yondashuv bo‘lib, an’anaviy o‘qitish metodlaridan farqli o‘laroq, yangilikka intilish, noodatiy yondashuvlar va interaktiv usullarning ustuvorligini nazarda tutadi. Kreativ didaktika o‘quvchilarda mantiqiy, tanqidiy va ijodiy tafakkurni uyg’un tarzda shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang’ich ta’lim bosqichida, visual, o‘yinli, muammoli vaziyatli topshiriqlar, orqali bolaning fikrlash doirasi kengayadi, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, tushunchalarni tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalari kengayadi.

Refleksiv ta’lim texnologiyalari – bu o‘quvchilar yoki talabalarda o‘z bilim, ko‘nikma va malakalarini anglab olish, o‘z-o‘zini tahlil qilish, fikr yuritish va o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalaridir. Bu texnologiyalar ta’lim jarayonida o‘quvchini passiv qabul qiluvchi emas, balki, faol fikrlovchi, anglovchi va baholovchi subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan izohlar, asosan, umumta’limiy yondashuvlar doirasida qo‘llaniladigan tushunchalarning terminologik izohi sifatida talqin qilinadi. Biroq biz o‘rganayotgan “mantiqiy fikrlash” fenomeni bu konsepsiyalarning — ya’ni kreativlik, kognitivlik va innovatsion dunyoqarashning — ildiziga asos soluvchi va ularning shakllanishi uchun metodologik yo‘nalish beruvchi boshlang‘ich lokomotiv hamda asosiy ko‘rsatkich sifatida qaralishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon nafaqat pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, balki ularning mantiqiy, kreativ va refleksiv tafakkurini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot davomida ko‘rsatib o‘tilganidek, ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interfaol metodlardan samarali foydalanish, shuningdek, psixologik va didaktik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish o‘qituvchilarning metodik salohiyatini sezilarli darajada oshiradi.

Shu bilan birga, pedagogik heuristika, kreativ didaktika va refleksiv ta’lim texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyati hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalari shakllanadi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish uzluksiz, tizimli va innovatsion yondashuvni talab etadi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, fanlararo integratsiyani kuchaytirish hamda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim

tamoyillarini amalga oshirish orqali raqobatbardosh, yuqori malakali pedagog kadrlarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. To‘xtaxodjayeva M.X. *Pedagogika nazariyasi*. – Toshkent, 2013.
2. Ochilov M. *Yangi pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent, 2000.
3. Raximov A.K. *Ta’limda interfaol metodlar*. – Toshkent, 2019.
4. Vygotsky L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge: Harvard University Press, 1978
5. Dewey J. *Experience and Education*. – New York: Macmillan, 1938
6. Bruner J.S. *The Process of Education*. – Cambridge: Harvard University Press, 1960.

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDAGI GLOBAL CHAQIRIQLAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Bobomurodova Latofat Elmurodovna - University of innovation technologies pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.v.b.professor

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637226

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzluksiz ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan global chaqiriqlar, raqamli transformatsiya, demografik o'zgarishlar, mehnat bozorining yangi talablari va ta'lim sifatini ta'minlash muammolari ilmiy-tahliliy nuqtayi nazardan ko'rib chiqilgan. Zamonaviy tendensiyalar, jumladan, gibrid ta'lim modellari, sun'iy intellekt texnologiyalari, kompetensiyaga asoslangan yondashuv va hayot davomida o'rganish tushunchasi keng tahlil qilingan. O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar xalqaro tajriba bilan qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta'lim, global chaqiriqlar, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, kompetensiyaga asoslangan ta'lim, hayot davomida o'rganish, ta'lim islohotlari, gibrid ta'lim.

Abstract: This article examines global challenges facing the lifelong learning system: digital transformation, demographic shifts, evolving labor market demands, and educational quality assurance. Modern trends including hybrid learning models, artificial intelligence integration, competency-based approaches, and the concept of lifelong learning are analyzed in depth. Reforms in Uzbekistan's lifelong education system are compared with international experience.

Keywords: lifelong learning, global challenges, digital transformation, artificial intelligence, competency-based education, continuous learning, educational reforms, hybrid learning.

KIRISH. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta’lim tizimi inson kapitalini rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichi bilimlarning tez yangilanishi, kasbiy faoliyat mazmunining murakkablashuvi hamda shaxsdan doimiy o‘qib-o‘rganishni talab etadigan yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar bilan tavsiflanadi. Shu bois, an’anaviy, bir bosqichli ta’lim modeli

o‘zining samaradorligini to‘liq ta’minlay olmayapti. Natijada uzluksiz ta’lim konsepsiyasi ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ham uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun hamda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, pedagogik jarayonlarni innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa uzluksiz ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA: Uzluksiz ta'lim nazariyasining poydevori P. Lengrand, R. Dave va YuNESKO mutaxassislarining fundamental tadqiqotlarida mustahkamlangan. Keyinchalik J. Field, P. Jarvis va M. Kulikovskaya kabilar bu konsepsiyani zamonaviy talablar asosida yanada rivojlantirganlar. O'zbek olimlaridan N.N.Alimov, M.X.Toshmatov, G'.B.Bekmurodov uzluksiz ta'limning milliy tizim doirasidagi jihatlarini ilmiy jihatdan o'rganganlar.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod, tizimli tahlil, adabiyotlarni sintezlash hamda YuNESKO, OECD va Jahon bankining so'nggi hisobotlaridan foydalanilgan. Empirik asosni 2020–2024-yillardagi xalqaro va milliy ta'lim statistikasi ma'lumotlari tashkil etadi

METODLAR. Uzluksiz ta’lim — bu insonning butun hayoti davomida bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni muntazam ravishda egallab borishini ta’minlaydigan tizimli pedagogik jarayondir. Mazkur yondashuv nafaqat formal ta’lim bosqichlarini, balki noformal va informal ta’lim shakllarini ham o‘z ichiga oladi. Bunday integrativ yondashuv shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash, uning ijtimoiy moslashuvchanligini oshirish hamda mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda uzluksiz ta’lim konsepsiyasi xalqaro miqyosda keng e’tirof etilgan bo‘lib, u zamonaviy ta’lim tizimlarining metodologik asosini tashkil etadi. Xususan, global ta’lim siyosatini shakllantiruvchi UNESCO tomonidan ilgari surilgan “lifelong learning” g‘oyasi inson rivojlanishining uzluksizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, OECD tashkilotining ta’limga oid tadqiqotlari va tavsiyalari ham uzluksiz ta’limning zamonaviy modelini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1. Uzluksiz ta'lim tizimiga ta'sir etuvchi global chaqiriqlar

Zamonaviy uzluksiz ta'lim tizimi bir qator o'zaro bog'liq global muammolar kesishmasida turmoqda. Ularni quyidagi asosiy yo'nalishlarga ajratish mumkin:

– Texnologik disrupsiya: sun'iy intellekt, robototexnika va avtomatizatsiya millionlab kasb egalarini qayta o'qitishni talab etmoqda;

– Ta'limga teng imkoniyat yo'qligi: boy va qashshoq mamlakatlar o'rtasidagi raqamli bo'shliq uzluksiz ta'limdan foydalanishda chuqur tengsizliklarni keltirib chiqarmoqda;

– Demografik bosim: aholining qarishi natijasida rivojlangan mamlakatlar katta yoshli o'quvchilarga mo'ljallangan ta'lim modellarini qayta loyihalashga majbur bo'lmoqda;

– Ta'lim sifatini ta'minlash: onlayn va gibrid formatlarning jadal rivojlanishi akkreditatsiya va sifat nazorati tizimlariga yangi talablar qo'ymoqda;

– Moliyaviy barqarorlik: uzluksiz ta'limni moliyalashtirishda davlat, ish beruvchilar va shaxslarning majburiyatlarini muvozanatlash global muammo bo'lib qolmoqda.

YuNESKO (2022) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda kattalar savodxonligi hali ham 70-80 foiz darajasida qolmoqda, bu esa uzluksiz ta'limning bazaviy shartlarini shakllantirish muammosini kun tartibidan olib bo'lmasligini ko'rsatadi.

2. Zamonaviy tendensiyalar: uzluksiz ta'limning yangi paradigmasi

Global chaqiriqlarga munosabat sifatida dunyo ta'lim tizimlari bir qator innovatsion tendensiyalarni ishlab chiqmoqda va joriy etmoqda.

Gibrid va aralash ta'lim modellari. COVID-19 pandemiyasi o'quv jarayonini tashkil etishda tubdan o'zgartirish qildi. Bugungi kunda gibrid format — ya'ni auditoriya va onlayn ta'limning uyg'unlashuvi — ko'pgina mamlakatlarda standart amaliyotga aylandi. McKinsey (2023) tadqiqotiga ko'ra, yuqori sifatli gibrid ta'lim an'anaviy formatga nisbatan o'quvchilarning bilim o'zlashtirish samaradorligini 20-25 foizga oshirishi mumkin.

Sun'iy intellekt va personallashtirilgan ta'lim. Adaptiv o'quv tizimlari har bir o'quvchining bilim darajasi, o'rganish sur'ati va imtiyozlarini tahlil qilib, individual ta'lim yo'lagini shakllantirib bermoqda. Khan Academy, Coursera va Duolingo kabi platformalar allaqachon ushbu texnologiyalarni omma uchun ochiq qilgan.

Mikrokredensiallar va modulli ta'lim. An'anaviy to'rt yillik ta'limdan farqli ravishda, qisqa muddatli, sanoat tomonidan tan olingan sertifikatlar (mikrokredensiallar) tizimi tezkor kasbiy qayta tayyorgarlik uchun eng samarali vosita sifatida e'tirof etilmoqda (OECD, 2023).

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim. Bilimni o'lchashdan amaliy kompetensiyalarni baholashga o'tish — uzluksiz ta'limning eng muhim tendensiyasi. Ish beruvchilar universitetning nufuzidan ko'ra, mutaxassisning konkret mahorat va ko'nikmalariga tobora ko'proq e'tibor qilmoqda.

3. O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimidagi islohotlar

O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi maktabgacha ta'limdan tortib, oliy ta'lim va kasbiy qayta tayyorlashgacha bo'lgan keng qamrovli tizimni o'z ichiga oladi. 2017-yildan buyon amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida:

1. Maktabgacha ta'limni qamrab olish ko'rsatkichi 27 foizdan 70 foizga yaqin darajaga ko'tarildi;

2. Oliy ta'lim muassasalari soni 77 tadan 210 tadan oshdi (2023);

3. "Yoshlar – kelajagimiz" dasturi doirasida 700 mingdan ortiq yoshlarga qo'shimcha ta'lim imkoniyatlari yaratildi;

4. Raqamli ta'lim platformalari va masofaviy o'qitish tizimlari kengaytirilib, viloyatlardagi raqamli bo'shliqni qisqartirish borasida amaliy qadamlar qo'yildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston uzluksiz ta'lim tizimi hali hal etilmagan bir qator muammolarga duch kelmoqda: ta'lim sifatining hududlar kesimidagi tengsizligi, kattalar ta'limiga mo'ljallangan muassasalar sonining yetarli emasligi va ish beruvchilar bilan hamkorlik mexanizmlarining to'liq shakllanmaganligi shular jumlasidandir.

XULOSA

Uzluksiz ta'lim bugungi kunda insonning butun hayoti davomida shaxsiy va kasbiy rivojlanishining strategik asosiga aylangan. Global chaqiriqlar — texnologik o'zgarishlar, mehnatbozorining restrukturizatsiyasi va demografik siljishlar — ta'lim tizimlarini an'anaviy chegaralardan tashqariga chiqishga majbur etmoqda. Zamonaviy tendensiyalar — gibrid ta'lim, sun'iy intellekt, mikrokredensiallar va kompetensiyaga asoslangan yondashuv — ushbu chaqiriqlarga samarali javob berishning asosiy yo'nalishlarini belgilamoqda.

O'zbekiston uchun xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirgan holda uzluksiz ta'lim siyosatini tizimli rivojlantirish, raqamli infrastrukturani kuchaytirish va ta'lim-ish bozori hamkorligini institutsional jihatdan mustahkamlash eng ustuvor vazifalar bo'lib qolmoqda

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. "2022–2026-yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".

2. UNESCO. (2022). Global Education Monitoring Report 2022: Reimagining our futures together. Paris: UNESCO Publishing.

3. OECD. (2023). Education at a Glance 2023: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing.

4. World Economic Forum. (2023). Future of Jobs Report 2023. Geneva: WEF.

5. McKinsey Global Institute. (2023). The future of work after COVID-19. New York: McKinsey & Company.

6. Lengrand P. (1975). An Introduction to Lifelong Education. Paris: UNESCO.

7. Jarvis P. (2010). Adult Education and Lifelong Learning: Theory and Practice. 4th ed. London: Routledge.

8. Alimov N.N. (2019). Uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishning nazariy asoslari. – Toshkent: Fan.

9. Toshmatov M.X. (2021). O'zbekistonda uzluksiz kasb-hunar ta'limini modernizatsiya qilish. // Ta'lim va fan, №2. – B. 14–22.

10. Field J. (2006). Lifelong Learning and the New Educational Order. 2nd ed. Stoke-on-Trent: Trentham Books

НОДАВЛАТ МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМДА ИНДИВИДУАЛ ЁНДАШУВ АСОСИДА ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШ

Камалов Бахтияр Шамшетдинович - Ўзбекистон педагогика фанлари илмий тадқиқот институти Қорақалпоғистон филиалининг мустақил изланувчиси

https://doi.org/10.5281/zenodo.19652166

Аннотация: Мақолада наводлат мактабгача таълим муассасаларида болаларнинг индивидуал хусусиятлари ва эҳтиёжларига асосланган таълимни ташкил этиш масалалари ўрганилган. Интеграцияланган методлар, педагогик технологиялар ва индивидуал ёндашувнинг бола ривожига таъсири таҳлил қилинган. Мақолада мактабгача таълимда самарали индивидуал режалаштиришнинг муҳимлиги таъкидланган.

Калит сўз: индивидуал ёндашув, мактабгача таълим, болалар ривожи, педагогик технологиялар, таълим самарадорлиги

Abstract: The article explores the organization of education in private preschool institutions based on the individual characteristics and needs of children. Integrated methods, pedagogical technologies, and the impact of an individualized approach on child development are analyzed. The importance of effective individualized planning in preschool education is emphasized.

Keywords: individual approach, preschool education, child development, pedagogical technologies, learning effectiveness

Кириш

Мактабгача таълим инсон ҳаётида асосий билим ва кўникмалар шаклланадиган давр сифатида катта аҳамиятга эга. Бу ёшда болаларнинг фаолияти, ижодий салоҳияти ва ижтимоий кўникмалари шаклланади, уларнинг психофизиологик ва индивидуал хусусиятлари асосида ривожланиши таъминланиши лозим. Нодавлат мактабгача таълим муассасаларида таълим жараёнида индивидуал ёндашувни жорий этиш бугунги кунда замонавий педагогика ва таълим соҳасининг энг долзарб йўналишларидан бирига айланди.

Индивид — бу биологик тургa кирувчи алоҳида тирик мавжудот бўлиб, унинг ҳар бир хусусияти бошқалардан фарқ қилади. Боланинг ривожланиши унинг шахсий хусусиятлари, фаолияти ва ривожланиш муҳити билан узвий боғлиқ. Илк ёшдаги бола — яслидан мактабгача бўлган даврдаги бола — муайян даргача индивид ҳисобланади. “Индивид” сўзи лотинча “individuus” дан келиб чиққан бўлиб, “бўлинмас”, “айрим шахс”, “ягона” маъноларини билдиради. Бу таъриф боланинг биологик ва психологик ривожланишини бирлаштирувчи асосий тушунча сифатида хизмат қилади.

Индивиднинг ривожланиши унинг фаолияти орқали рўй беради. Ҳаракат боланинг психомотор салоҳияти ва унинг атроф муҳитига мослашувчанлигини кўрсатади.

Индивидуал таълим – бу таълим жараёнини ташкил этишнинг махсус шакли бўлиб, унда ҳар бир боланинг шахсий хусусиятлари, қобилиятлари ва қизиқишлари асосида ўқитиш режаси тузилади.

Нодавлат мактабгача таълимда индивидуал ёндашувнинг педагогик асослари

Индивидуал ёндашув мактабгача таълимда боланинг шахсий хусусиятлари ва ривожланиш имкониятларини инобатга олиб таълимни

ташкил этиш усули сифатида энг самарали педагогик стратегиялардан бири ҳисобланади. Бу усул боланинг қобилиятлари, қизиқишлари ва эҳтиёжларига мувофиқ машғулотларни шакллантиришни назарда тутади. Педагог боланинг ривожланиш даражасини баҳолашда психомотор, когнитив ва эмоционал кўрсаткичларни ҳисобга олади ва уларга мос индивидуал дастурлар ишлаб чиқади.

Индивидуал ёндашувда қўлланиладиган педагогик технологиялар

Индивидуал ёндашувда педагоглар турли инновацион ва интерактив технологиялардан фойдаланадилар. Ушбу технологиялар боланинг фаолиятини самарали ташкил этиш ва ривожланишини таъминлаш учун мўлжалланган. Энг кенг тарқалган усуллар қуйидагиларни ўз ичига олади:

Дифференциал таълим технологиялари – болаларнинг ривожланиш даражаси ва қизиқишларига қараб машғулотларни турлича ташкил қилиш;

Ўйин ва интерактив машғулотлар – боланинг ҳаракат ва маънавий ривожланишини мувофиқлаштириш ҳамда ижодий салоҳиятни ошириш учун қўлланилади.

Бу технологиялар боланинг ўзига хос хусусиятлари ва ривожланиш имкониятларини ҳисобга олган ҳолда таълим жараёнини шахсийлаштириш имконини беради. Шу билан бирга, педагог боланинг натижаларини мунтазам баҳолаб, келгуси машғулотларни шунга мувофиқ мослаштириши мумкин.

Муаммолар ва таклифлар

Индивидуал ёндашувни амалга оширишда баъзи муаммолар учрайди. Улар қуйидагилардан иборат: педагогларнинг малака даражаси, ҳар бир болага мос дастурлар ишлаб чиқишдаги қийинчиликлар, болалар сонининг кўплиги ва ресурслик чекловлар. Шу боис, муассасаларда педагогларнинг малакасини ошириш, инновацион технологияларни жорий қилиш ва ҳар бир болага мос фаолият дастурини тайёрлаш муҳимдир.

Индивидуал ёндашувни такомиллаштириш учун қуйидаги таклифлар киритилиши мумкин:

Педагоглар учун махсус тренинглар ва семинарлар ташкил қилиш;

Машғулотларни рақамли технологиялар ва интерактив воситалар орқали бойитиш;

Ота-оналар билан ҳамкорликни кучайтириш, боланинг ривожланишини уй шароитида ҳам қўллаб-қувватлаш;

Болаларнинг ривожланишини мунтазам мониторинг қилиш ва натижалар асосида индивидуал дастурларни ўзгартириш.

Дидактик ва фаолият асосида ўйинлар

Дидактик ўйин — бу мактабгача ёшдаги болаларнинг ривожланиш босқичлари ва имкониятларини ҳисобга олган ҳолда таълим беришнинг махсус усулидир. Ушбу услуб болаларни фаол равишда машғул қилиш орқали билим ва кўникмаларни эгаллашга қаратилган бўлиб, ўйин орқали ривожланиш жараёнини самарали ташкил этиш имконини беради.

Дидактик ўйинлар боланинг когнитив, моторик, ижодий ва ижтимоий салоҳиятини ривожлантиришда асосий роль ўйнайди. Ушбу ўйинлар орқали

болалар нафақат маълумотларни эгаллайдилар, балки ўз фикрларини изоҳлай олиш, муаммоларни ҳал қилиш ва ҳамкасблари билан ҳамкорлик қилиш қобилиятини ҳам ривожлантиришади.

Дидактик ўйинлар мисоллари:

Ранг ва шаклларни ажратиш ўйинлари, санаш ва математик тушунчаларни ривожлантириш ўйинлари, харфлар ва сўзлар билан ўйинлар, конструктор ва қурувчи ўйинлар, ритм ва мусиқий ўйинлар

Дидактик ўйинлар мактабгача таълимда индивидуал ёндашувнинг ажралмас қисми бўлиб, боланинг фаолияти орқали ривожланишини таъминлайди. Ушбу ўйинлар педагогларга боланинг имкониятларини баҳолаш ва шу асосда машғулотларни мослаштириш имконини беради, шу билан бирга боланинг маънавий, когнитив ва ижтимоий ривожланишини самарали таъминлайди.

Хулоса

Нодавлат мактабгача таълим муассасаларида индивидуал ёндашув боланинг ривожланишини таъминлашда муҳим аҳамият касб этади. Бу усул ҳар бир боланинг биологик хусусиятлари, психофизиологик салоҳияти, қизиқишлари ва эҳтиёжларини ҳисобга олган ҳолда таълим жараёнини шахсийлаштириш имконини беради. Шу орқали бола нафақат билим ва кўникмаларни эгаллайди, балки мустақил фикрлаш, ижодий фаолият ва муаммоларни ҳал қилиш қобилиятини ривожлантиради.

Хулоса қилиб айтганда, индивидуал ёндашув нафақат боланинг билими ва кўникмаларини ривожлантириш, балки унинг ижтимоий, эмоционал ва маънавий ривожланишига ҳам кенг таъсир кўрсатади. Шунинг учун мактабгача таълим муассасаларида индивидуал ёндашувни жорий этиш ва уни такомиллаштириш замонавий таълим сифатини оширишнинг асосий омили ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ш. Шодмонова. Мактабгача таълим педагогикаси. Тошкент-2008. 36-б
2. Авлиякулов Н. Х., Мусаева Н. Н. Янги педагогик технологиялар. Дарслик. 87- б
3. Nargiza Qayumova Maktabgacha pedagogika. Toshkent- 2013. 131-b
4. Ш.Содиқова Мактабгача педагогика” Тошкент-2013
5. Т.В. Газизова, З.У. Колокольникова, Т.А. Колесникова, Э.Г. Сабирова, С.В. Митросенко Дошкольная педагогика. Красноярск 2018
6. Т.Д. Красова, Ж.В.Чуйкова Дошкольная педагогика. Укув қулланма. Елец-2019
7. Р.Ю.Скоков, Л.А. Галкина, Е.А. Числова, О.В. Давыдович Детская психология- дошкольная педагогика. Волгоград-2025

NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHGA METODIK TAYYORGARLIK MOTIVLARI

Abdullaeva Lobar Bazarbaevna – assistent o‘qituvchi, University of innovation technologies

https://doi.org/10.5281/zenodo.19653496

Annotatsiya. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining nutqiy kompetensiyasi faqat grammatik to‘g‘rilik yoki “chiroyli gapirish” bilan cheklanmaydi; u dars jarayonida fikrni aniq ifodalash, tinglash va tushunish, o‘quvchini muloqotga tortish, bahsni boshqarish, baholovchi mulohazani etik va ishonchli yetkazish, yozma va og‘zaki nutqni vaziyatga mos tanlash kabi ko‘nikmalar majmuasidir. Mazkur kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha metodik tayyorgarlik esa o‘qituvchining nutqiy maqsadlarni dars mazmuniga singdirish, nutqiy vaziyatlarni loyihalash, mashq tizimini tanlash, diagnostika va refleksiyani yo‘lga qo‘yish qobiliyatlari bilan belgilanadi. Tezisda metodik tayyorgarlikning motivatsion asoslari tahlil qilinib, ichki motivlar, tashqi rag‘batlar, kasbiy identifikatsiya, kommunikativ o‘ziga ishonch, qadriyatlar va maqsadlar tizimi, ta’lim muhitining ta’siri kabi omillar yoritiladi. Shuningdek, motivlarni kuchaytirishning pedagogik shartlari va amaliy mexanizmlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: nutqiy kompetensiya, metodik tayyorgarlik, motivatsiya, kasbiy identifikatsiya, o‘zini samarali his etish, ichki motiv, tashqi motiv, pedagogik refleksiya.

KIRISH

Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi uchun nutq — kasbning “asosiy asbobi”. U faqat mavzuni tushuntirmaydi, balki o‘quvchi fikrini uyg‘otadi, savol berishga undaydi, muloqot qoidalarini o‘rgatadi, o‘quvchining nutqiy tajribasini boyitadi va eng muhimi, sinfda o‘rnak bo‘ladigan til madaniyatini yaratadi. Shu bois “nutqiy kompetensiya” masalasi metodik tayyorgarlikning chetida turadigan mavzu emas, balki darsning maqsadi, mazmuni, metod va baholashiga singib ketadigan markaziy yo‘nalishdir. Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan bo‘lajak o‘qituvchi nutqiy ko‘nikmalarni o‘zi egallashi bilan birga, ularni o‘quvchilarda shakllantirishning texnologiyasini ham bilishi kerak: qanday vazifalar nutqni harakatga keltiradi, qanday muloqot vaziyati o‘quvchini gapirtiradi, qaysi savol “o‘ylashga majbur qiladi”, qaysi baholash shakli nutqiy o‘sishni tezlashtiradi. Bu savollar metodika fanining ichida, lekin uning “harakatlantiruvchi dvigateli” motivatsiya bilan ishlaydi: o‘qituvchi nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni ichdan zarurat deb bilmasa, eng to‘g‘ri metod ham qog‘ozda qolib ketadi. Psixologik nazariyalarda motivatsiya faoliyatning yo‘nalishi va barqarorligini belgilovchi omil sifatida talqin qilinadi, shaxsning maqsadi va qadriyatlari bilan bog‘lanadi [1]. Demak, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga metodik tayyorgarlik motivlarini aniqlash va kuchaytirish ta’lim sifatini ko‘tarishning real, amaliy yo‘lidir.

Mavzu dolzarbligi yana bir jihatdan kuchli: boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining nutqi o‘quvchi tafakkurining shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi.

ASOSIY QISM

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga metodik tayyorgarlik motivlari mohiyatan ikki katta qatlamdan iborat: ichki motivlar va tashqi motivlar. Ichki motivlar bo‘lajak o‘qituvchining kasbga munosabati, shaxsiy qadriyatlari, pedagogik missiyani anglash, o‘zini sinfda samarali ko‘rish istagi, bolaga ta’sir

o‘tkazishning ma’naviy mas’uliyatini his qilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Tashqi motivlar esa baho, reyting, attestatsiya, stipendiya, tanlovlar, amaliyotda rahbarning talabi, ishga joylashishdagi raqobat kabi omillardan quvvat oladi. Muammo shundaki, tashqi rag‘bat tez natija beradi, lekin barqaror emas; ichki motiv sekin shakllanadi, biroq uzoq muddatli kasbiy o‘sishni ta’minlaydi. Shu sababli ta’lim dasturi motivatsiyani “baho bilan qo‘rqitish”ga emas, kasbning mazmuni va natijasini his qildirishga tayanishi kerak. O‘qituvchilikda motivatsiya faqat “xohish” emas, u kasbiy kompetensiyalarni doimiy yangilashga majbur qiladigan ichki intizomdir; bu intizom nutqiy kompetensiya kabi doimiy mashq talab qiladigan sohada ayniqsa muhim. Faoliyat nazariyasi doirasida motiv faoliyatni maqsadga yo‘naltiradi, maqsad esa konkret harakatlar tizimini boshqaradi [1]. Demak, metodik tayyorgarlik motivlarini shakllantirish — bo‘lajak o‘qituvchining metodik harakatlarini “tizimga” keltirishdir.

Motivlarning birinchi kuchli manbai kasbiy identifikatsiyadir. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘zini “dars o‘tuvchi odam” sifatida emas, “bolaning nutqini ochadigan ustoz” sifatida tasavvur qilsa, metodik tayyorgarlikning mazmuni o‘z-o‘zidan yangicha talqin qilinadi. Bu yerda “o‘zini samarali his etish” omili alohida rol o‘ynaydi: talaba o‘zining nutqiy va metodik imkonini qanchalik real baholasa, shunchalik aniq maqsad qo‘yadi va mashq qilishni to‘xtatmaydi. Bandura konsepsiyasiga ko‘ra, o‘zini samarali his etish (self-efficacy) shaxsning qiyinchilikka chidamliligi, maqsadga intilishi va faoliyat barqarorligiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi [3]. Nutqiy kompetensiya masalasida bu juda sezilarli: kimdir auditoriya oldida gapirishdan uyaladi, kimdir fikrni tartibga sololmaydi, yana kimdadir savol berish madaniyati sust. Agar tayyorlov jarayoni bu holatlarni “kamchilik” deb yorliqlasa, motiv so‘nadi; aksincha, ularni rivojlanish nuqtasi sifatida ko‘rsatib, kichik g‘alabalarni tizimli tashkil etsa, motiv mustahkamlanadi. Shuning uchun metodik tayyorgarlik motivlarining o‘zak mexanizmi “men qila olaman” hissini real mashq va natija orqali shakllantirishdan boshlanadi.

Motivatsiyaning ikkinchi manbai qadriyat va ma’no tizimidir. Nutqiy kompetensiya boshlang‘ich sinfda faqat ona tili darsi masalasi emas: matematika, tabiatshunoslik, tasviriy san’at, texnologiya darslarida ham o‘quvchining nutqi o‘sadi, chunki o‘quvchi izohlaydi, dalillaydi, taqqoslaydi, xulosa qiladi, natijani og‘zaki va yozma ifodalaydi. Bo‘lajak o‘qituvchi nutqiy kompetensiyani “hamma fanlarning ichidagi ko‘rinmas maqsad” sifatida anglagan paytda, u metodik jihatdan ham kompleks fikrlaydi: har bir darsda kamida bitta nutqiy vazifa bo‘lishi shart, har bir mavzuda so‘z boyligi, mantiqiy bog‘lovchilar, dalillash modeli ishlashi kerak. Bu yondashuvning psixologik asosi Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonasi” g‘oyasi bilan hamohang: o‘quvchi kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda o‘z nutqini yuqoriroq bosqichga ko‘taradi [2]. Demak, bo‘lajak o‘qituvchining motivi “darsni tugatish” emas, “muloqotni qurish” bo‘lib qoladi; metodik tayyorgarlik esa vaziyat yaratish va muloqotni boshqarish texnologiyasiga aylanadi.

Motivlarning uchinchi manbai metodik bilimning “hayotiyligi”dir. Talaba metodikani ko‘pincha qoidalar to‘plami deb qabul qiladi: reja tuzish, metod tanlash, baholash. Aslida metodika nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda

laboratoriya kabi ishlaydi: savol konstruktsiyasi, topshiriq matni, juftlik va guruhdagi muloqot qoidalari, og‘zaki javobni tinglash mezonlari — bularning har biri natijani keskin o‘zgartiradi. Metodik tayyorgarlik motivi kuchayishi uchun talaba “metod — natija” bog‘liqligini ko‘zi bilan ko‘rishi kerak: bir xil mavzuni turli metod bilan o‘tganda o‘quvchi qanchalik ko‘proq gapirdi, qanday gapirdi, qaysi xatolar kamaydi, fikr izchilligi qanchalik oshdi. Kompetensiya yondashuvida ana shunday natija ko‘rsatkichlari muhim sanaladi [4]. Shuning uchun metodik tayyorgarlikda mikroo‘qitish, mini-dars, videokuzatuv va refleksiya, sinfda nutqni o‘lchash mezonlari bo‘yicha kichik tadqiqotlar motivni kuchaytiradigan “isbot” vazifasini bajaradi.

Motivatsiyaning to‘rtinchi manbai muloqot madaniyatidir. Nutqiy kompetensiya o‘qituvchining shaxsiy kommunikativ madaniyati bilan boshlanadi: tinglay olish, savolni ochiq berish, o‘quvchini kamsitmasdan to‘g‘rilash, bahsni keskinlashtirmasdan boshqarish, sinfdagi psixologik xavfsizlikni ta’minlash. Bu ko‘nikmalar metodik tayyorgarlikning “yumshoq” komponenti bo‘lib ko‘rinsa-da, amalda eng qattiq natijani beradi: o‘quvchi o‘zini xavfsiz his qilsa, gapiradi; o‘qituvchi har bir javobni “xato” deb urib tashlasa, sinf jimib qoladi. Shunday paytda nutqiy kompetensiya “o‘rgatilmaydi”, u “so‘nadi”. Demak, bo‘lajak o‘qituvchining motivi nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda faqat didaktik vazifa emas, balki tarbiyaviy va psixologik mas’uliyat ekanini anglashdan ham quvvat oladi. Metodik tayyorgarlikda muloqot etikasi, pedagogik nutq me’yorlari, konfliktni yumshatish, ijobiy qayta aloqa (feedback) berish texnikalari muntazam mashq qilinmasa, motiv barqaror bo‘lmaydi, chunki talaba real sinfga kirganda birinchi “qiyin vaziyat”da o‘zini yo‘qotadi.

Motivlarning beshinchi manbai baholash tizimidir. Oliy ta’limda baholash ko‘pincha nazariy bilimni tekshiradi: atamalar, ta’riflar, metodlar ro‘yxati. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga metodik tayyorgarlik esa amaliy faoliyat orqali ko‘rinadi: darsda nutqiy vazifa qo‘yish, topshiriqni to‘g‘ri tuzish, o‘quvchi javobini mezon bilan baholash, xatoni muloyim tuzatish, o‘quvchini qayta gapirtirish, yakunda refleksiya qildirish. Agar baholash shu amaliy harakatlarni qamrab olmasa, talaba “imton uchun o‘qiyman” deb qoladi, kasbiy motiv ikkinchi o‘ringa tushadi. Ta’limda kompetensiyalarni baholash mezonlarga asoslangan bo‘lishi kerakligi ko‘plab metodik manbalarda ta’kidlanadi [4], [5]. Shuning uchun motivatsiyani kuchaytirishning eng oddiy, lekin ta’sirli yo‘li — baholashni “nutqiy metodika amaliyoti”ga yaqinlashtirish: portfel, dars ishlanmasi, audio-video tahlil, amaliyot hisobotlari, sinfdagi nutqiy faollikni o‘lchash kabi topshiriqlar ulushini oshirish. Talaba o‘z portfelida o‘sishni ko‘rsa, motiv ichkaridan mustahkamlanadi; u natijani ko‘rmasa, motiv tashqi baho bilan “uyg‘otilib”, tez so‘nadi.

Motivlarning oltinchi manbai ta’lim muhiti va ijtimoiy buyurtmadir. Zamonaviy boshlang‘ich ta’limdan kutilayotgan natija — o‘qiy oladigan, tushunadigan, fikrini ayta oladigan, dalillay oladigan o‘quvchi. Bu talab o‘qituvchidan ham metodik jihatdan kengroq tayyorgarlikni so‘raydi: nutqni rivojlantirish strategiyasi darsning “qo‘shimchasi” emas, darsning o‘zi bo‘lishi kerak. Ta’lim muassasasida nutqiy madaniyatga bo‘lgan talab, ustozlar

namunasining kuchi, metodik seminarlar, amaliyot rahbarining pozitsiyasi, hatto guruhdoshlar orasidagi professional muhit ham motivatsiyani keskin o‘zgartiradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga metodik tayyorgarlik motivlari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy shakllanishida hal qiluvchi omillardan biridir. Motivatsiya faqat qiziqish yoki kayfiyat emas, u metodik faoliyatni maqsadga yo‘naltiradigan, barqarorlashtiradigan va qiyinchilikda ham davom ettiradigan ichki mexanizmdir [1]. Ichki motivlar kasbiy identifikatsiya, qadriyatlar, ma’no va mas’uliyat, kommunikativ madaniyat hamda “men qila olaman” hissi bilan bog‘lanadi; tashqi motivlar esa baholash, raqobat, talab va rag‘batlar orqali shakllanadi. Ta’lim amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish bo‘yicha metodik tayyorgarlik barqaror bo‘lishi uchun tashqi rag‘bat ichki motivni qo‘llab-quvvatlaydigan tarzda tashkil etilishi kerak, aks holda talaba “imtihondan o‘tish” bilan cheklanib qoladi, real sinfda esa nutqiy vazifalar ikkinchi o‘ringa tushib ketadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. Москва: Политиздат, 1975. 304 с.
2. Выготский Л. С. Мышление и речь. Москва: Лабиринт, 1999. 352 с.
3. Bandura A. Self-efficacy: The Exercise of Control. New York: W. H. Freeman, 1997. 604 p.
4. Зимняя И. А. Ключевые компетенции как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2004. 40 с.
5. Хуторской А. В. Компетентностный подход в обучении: научно-методическое пособие. Москва: Эйдос; Институт образования человека, 2013. 73 с.
6. Львов М. Р. Методика обучения русскому языку в начальных классах. Москва: Просвещение, 2000. 320 с.

KISHI JAS BALALARDÍŃ FIZIKALÍQ RAWAJLANÍW ÓZGESHELIKLERI

Kaypova Kamila Joldasbay qizi – University of Innovation Technologies talabasi
Dauletbaeva Nilufar Tórebay qizi - University of Innovation Technologies talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19653608

Annotatsiya. Erte jásta kóp nárseni úyrenip aladi: júriwdi, zatlar menen is-háreketlerdı orinlawdi úyrenedi, shápti qabil etiwdi bilıp aladi, úlkenler menen qarım-qatnáqa kirisiw tájiriybesin iyeleydi, olardıń ǵamxorligin sezedi.

Tayanish sózler: Bala fizikalıq rawajlanıwın támiyınlew, tiykarǵı háreket túrleri, gigienalıq uqiplılıqlardı iyelewlerine sharayat jaratadi.

Annotation At an early age, they learn a lot: they learn to walk, manipulate objects, grasp the senses, acquire the experience of interacting with adults, and feel their care.

Keywords: Bala fizikalıq rawajlanıwın támiyınlew, tiykarǵı háreket túrleri, gigienalıq uqiplılıqlardı iyelewlerine sharayat jaratadi.

Balanıń rawajlanıwında kishi jás dáwir úlken áhmiyetke iye. Ásirese usı dáwirde bala úlkenler hám teńlesleri menen múnásiybetleriniń jańa kórinislerine ótip, zatlarǵa jańáha qarım-qatnáta bola bálaydi. Bala erte játa kóp nárseni úyrenip aladi: júriwdi, zatlar menen is- háreketlerdı orinlawdi úyrenedi, shápti qabil etiwdi bilıp aladi, úlkenler menen qarım-qatnáqa kirisiw tájiriybesin iyeleydi, olardıń ǵamxorligin sezedi. Bala 3 jáqa qádem qoyǵanda fizikalıq ósiwi biraz tómenleydi. Bul dáwirde onıń awirlıǵı 1’-15 kg, boyi 90-95 sm. ge jetedi. Bala fizikalıq jaqtan anaǵurlim sshınıǵıp, nerv sistemái rawajlanadi. Tayanish háreket organları jetilisip baradi. 3 jáar balalar qisqa múddette óz háreketlerin báqarıw kónlikpesine iye boladi. Olardaǵı erkinlik jetilisip baradi, sezimde sensorlıq báqarıw da rawajlanip baradi. Jámáát bolıp oynaw kónlikpeleri qálıplesedi. Oyın tiykarında ámelge áirilatuǵın jumis háreketin ajiratiw múmkinshiligi keńeyedi. Súwretlew háreketi hám quriw-soǵıw háreketiniń dáslepki kórinisleri payda boladi. Úsh jáar balalardıń dıqqati tereńlesedi, eslew qábileti bekkemlenip baradi, materiallıq bolmisti iyelew protsessi bálanadi, qıyal súriw imkaniyatları júzege keledi. Bunda oyın háreketi jetekshi rol' oynaydi. Kishi topar balalardı tárbiyalaw waziypaları tómendegilerden ibarat:

alalardıń Mektepke kónligiwine sharayat jaratiw, Psixolog topardaǵı balalar menen unamli múnásiybetlerdı jolǵa qoyıwı hár bir balanıń iskerligin támiyınlew lazım.

alalar fizikalıq rawajlanıwın támiyınlew, tiykarǵı háreket túrleri, gigienalıq uqiplılıqlardı iyelewlerine sharayat jaratadi.

alalardıń bilıw aktivligin óstiriw, aynala-átiraptaǵı zat hám qublislarǵa say túsiniklerdı bayitiw, zatlardıń ózgesheliklerin sensor tekseriw, salistiriw, analiz tiykarında ajiratiwǵa úyretiw, oyın, qarım-qatná uqiplılıqlarının payda bolıwina sharayat jaratiw.

ynala-átirapqa unamli múnásiybetti, báqa adamlarǵa miyirbanlıq, ósimlik hám haywanlardı áirap - abaylaw sezimin tárbiyalaw.

irgelikte iskerlikke qizǵıwshilıq óstiriw, úlkenler hám teǵlesler menen sózlik qarım-qatnáqa kirise alıw uqiplilıǵın óstiriw.

alalar oylawi, dóretiwshilik qábiletleriniń ósiwine sharayat jaratiw. Oyın hám kórkem óner iskerlikte qatnáiwga qiziqtiriw. Óz reje hám tileklerin ámelge áırıwda quwaniwǵa ǵyretiw.

Bilimlendiriw mákemelerinde salamat turmis tárzin júzege keltiriw balani hár tárepleme tárbiyalaw óstiriwdıń tiykarı. Salamat, fizikalıq normada ósip baratiǵan 7-jásli bala ádetde quwnaq, qizǵıwshan boladi. Ol kóp oynaydi, hárekette boladi, hamme jumislarda qatnasadi. Salamat turmis tárzi barlıq gigienalıq normalarǵa - mebel tańlaw, jaqtilıq - issilıqti támiyınleniwi, balalar k ú n tártibin duris tańlaniwi

tolıq orinlawdi názerde tutadi. Awqatlaniw, uyqilawdi duris shólkemlestiriw, hár bir bala iskerliginiń mazmunli etiw menen bige oǵan jaqsi keypiyat, aktivlik bağıshlaydi, sharshap qalıwdıń aldi alinadi. Balaniń Mektepdağı psixikalıq jağdaylarına ayriqsha itibar beriledi. Unamli sezimlerin xóhametlew, qatnáiwin bahalaw zárúr.

Bir bala mektepti qálemey kelse, Psixolog oǵan tuwri jol taba almaydi. Bunday balaǵa itibardı kúsheytiw lazim. Unamsiz sezimler somatikalıq hám psixikalıq keselliklerdıń rawjlaniwina alıp keledi, balaniń óz betinsheligi páseyedi. Balalardı salamat turmis tárzine úyretedi gigienalıq hám háreket mádeniyati tiykarların iyelewleri zárur áhmiyetke iye. Gigienalıq mádeniyat balalarda óz denesin qǵtiw, duris awqatlana alıw, jeke nárselerdı áirap abaylaw, tártip saqlawǵa úyretiw arqali payda boladi. Topardağı duris kún tártibi 7- jásli balalar ómiriniń kún tártibi menen belgilenedi. Hár bir kún tártibi protsesi balalardıń jás imkaniyatlarınan kelıp shiǵıwshi belgili dawamlılıqka iye. Kishi topar balalar turmis iskerliginde ele óz betinshe hárket etiw kónlikpesi joq bolǵanlıqtan barlıq kún tártibindegi protseslerdı ótkeriw qaǵıydái bir iskerlik túrinen ekinshisine ótiwi Psixolog balalar menen birge shólkemlestiredi hám ótkeredi. Ol gezektegi protseske kishi topardan 6-7 balani hár dayim tartadi, qalǵan balalar bul waqitta oyın menen bánt boladi. Psixolog seylge shiǵıw usshın kiyiniw hám awqatlaniwǵa tayarlaniwdağı juwiniwǵa kóbinese, bul uqiplılıqlardı jaqsi iyelemegen hámde bul jumislarǵa báqalarǵa qaraǵanda kóbirek waqitti sarplaytuǵın balalardı, sonday-aq usı waqitta bánt bolmaǵan balalardı tartadi. «Psixolog, sonday-aq, balalarǵa bir kún tártibi protsesinen ekinshisine ótiwleri hám olardı orinlawlarında járdem beredi. Bunda Psixologniń balalar menen duris qarım-qatná formási, oyın úlken áhmiyetke iye boladı. Psixologniń sózlerinen balalar zárur nárseni duris orinlawlarına isenim seziwleri zárur. Psixologniń dawisi hesh balalardın ruwxın túsirmewi, bálahaların páseytpew, balalar Psixologniń qollap-quwatlawina iseniwi kerek.

PAYDALANÍLǴAN ÁDEBIYATLAR

arımov I.A. Yuksak mánaviyat - engilmá kuch" - T.: Mánaviyat 2008

aktabgacha tálimga kóyiladigan davlat talabları» T., 2013 y

bdulla Avlonıy. Turkiy guliston yoxud axloq. -T. Óqituvchi 1993.

bduráulov M. Ózbek márifatparvar shoirları ilm márifat haqida. -T. Óqituvchi, 1981.

TÁRBIYALÍQ ISLERDI REJELESTIRIWDE ÁDEP-IKRAMLÍLÍQ TÁRBIYANÍŃ MAZMUNÍ

Qadirbaeva Dilfuza Zaripbay qizi– University of Innovation Technologies talabasi

Japakova Mavlyuda Maxmud qizi- University of Innovation Technologies talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19653733

Annotatsiya. Balalardıń qızıǵıwı, qábileti hám wolardıń haq kewili menen qálep qıyınshılıqtan qorıqpay woqıwǵa tayın yaki tayın yemes yekenligi yesapqa alıw.

Tayanish sózler: Bala psixikasınıń rawajlanıwı, ádep-ikramlılıq, qarım-qatnas oǵada qospalı hám tárbiyaǵa iye process, hár qanday basqa rawajlanıw sıyaqlı bunda san hám sapa wózgerislerine alıp keledi.

Annotation Taking into account children's interests, abilities, and their willingness to study without fear of difficulties.

Keywords: The development of a child's psyche, morality, and communication are highly complex and educational processes. Like any other development, they lead to both quantitative and qualitative changes.

Hár bir ustaz shaxstıń qanday qásiyetlerge iye yekenligin biliwi kerek. Pedagogika pániniń tiykarǵı wazıypasınıń biri balanıń rawajlanıwın ján-jaqlama úyreniw hám muǵallimniń óz isinde tabısqa yerisiwi óz balalarınıń qásiyet hám ayırmashılıqların biliw yesaplanadı. Balalardıń qızıǵıwı, qábileti hám wolardıń haq kewili menen qálep qıyınshılıqtan qorıqpay oqıwǵa tayın yaki tayın yemes yekenligi yesapqa alınbasa bilim alıw qanaatlandırarlı nátiyje bermeydi.

Balanıń pikirlew qábiliyeti hám pútkil xarakter ayırmashılıqların názerde tutqan halda alıp barılǵan woqıtıw balalardı bilim alıwǵa qızıqsındıradı,woqıtıwdıń tabıslı bolıwın támiyenleydi.

Bala organizminiń ósiwi hám rawajlanıwı, psixikalıq jaqtan jetilisiwi túrli jas dáwirinde hár qıylı boladı. Bala psixikasınıń rawajlanıwı oǵada qospalı hám qarama-qarsılıqlarǵa iye process, hár qanday basqa rawajlanıw sıyaqlı bunda san hám sapa wózgerislerine alıp keledi. Rawajlanıw processinde belgili bir tártiptegi stadiyalıqtı kóriw múmkin. Hár bir basqısh (stadiya) balanıń real haqıyqatlıqqa qatnasta málim múnásebeti menen, insanıy múnásebetler sistemasında tutqan wornı menen xarakterlenedi. Bizińǵárezsiz yelimizde ósip kiyatırǵan jas ávladtı adamgershilik ruwxında tárbiyalaw sistemasında balanıń rawajlanıwındaǵı tiykarǵı basqıshlardı wóz ishine alıwshı mınanday jas dáwirlerine ajıratıw qabıl yetilgen

Durıs shólkemlestirilgen miynet adamlardıń barqulla qanaatlanıwshılıq sezimin hám ráháátleniwin payda yetedi.

Oyın processi balalardı adep-ikramlılıq jaqtan tárbiyalawda woǵada bay elementlerge iye. Bunda háreketler garmoniyası ayqın kórinedi hám iskusstvoǵa ádetleniw júzege asadı.

Bala mektepke keliwi menen wolarda kúndelikli miynet tapsırmaları payda boladı. Ol baqshategi rejimge ámeliy ilájlar islewi tiyis. Ol yendi kollektivke qosılıp wonıń isleri hár tárepleme tártipke salınadı. Sabaq waqtında sóylespew, muǵallimniń túsindirgenlerin dıqqat penen tıńlaw, wonıń buyrıqların worınlaw, tánepis waqtında shawqımlaspaw, t.b. Baladan ózin pútkilley qayta qurıwdı, wonıń fizikalıq hám ideyalıq tárepten qayta qurılıwın, wózgertiwin talap yetedi. Mektep tárbiya jasındaǵı balalar ushın xarakterli bolǵan yerkinlik, biyǵamlıqtıń wornın, woylap is yetiw, saldamlılıq, tártiplilik iyeleydi. Bolmısqa oyın maqsetinde múnásebette bolıwdıń wornın oǵan praktikalıq qatnasta bolıw iyelewi tiyis. Iqtıyarsız dıqqat ıqtıyarlı dıqqat penen, toltırılıwı hám oǵan boysındırılıwı kerek.

Konkret kórsetpeli pikirlew rawajlanıp obstrakt pikirlewge aylanıwı kerek. Balanıń túsiniksiz qısqa sózin túsinikli uzın gápler iyelewi tiyis. Balanıń jeti jasta sózi zárúr dárejede wósken bolıp aktiv hám passiv sózlik bir qansha rawajlanǵanlıǵı sebepli muǵallimniń túsindirgenlerin jaqsı ańlay aladı.

Kishi mektep jasındaǵı balalar fizikalıq tárepten bir baǵdarda tegis wósedi. Boyı wortasha 120 sm. Awırlıǵı 15 kg. átrapında boladı. Olardıń muskulları tez ósedi, buwınları tez rawajlanadı. Muskullardıń kúshi artıp otıradı. Usı sebepli olar oǵada háreketsheń boladı. Balanıń wósip rawajlanıwı onıń málim bilimlerdi qabıl yetiw qábiliyetligin jetilistiredi. Usınıń menen birge berilgen bilim hám tárbiya balanıń taǵıda garmonikalıq rawajlanıwına alıp keledi. Sonday-aq balanıń bilim sistemasın iyelewi ondaǵı dıqqat, yad, oylaw, qabıl yetiw, qubılıslarınıń rawajlanıwına járdem beredi.

Adamdaǵı qásiyetler jámiyetlik qatnaslar jıynaǵı hám wol tariyxıy rawajlanıwdıń jemisi. Adam bul jámiyet aǵzası. Jámiyetlik qatnaslar xarakteri adamnıń páziyletlerin belgilep beredi. Usınıń menen birge tábiyattıń jemisi, tábiyattıń yeń rawajlanǵan basqıshı.

Adamnıń kamalǵa keliwinde tábiyat penen jámiyet bir-birine qarama-qarsı kelmeydi, al bular óz-ara bekkem baylanısta boladı. Jámiyetlik tariyxıy rawajlanıw janlı tábiyattıń joqarǵı basqıshında júzege kelip bul tábiyattıń sırtqı kórinisin uzaytadı, jaqsılaydı. Tábiyattıń bul jetilisiwinde jámiyetlik tarıyxıy jaǵdaylar sheshiwshi worın tutadı. Mine usı zańlıq adamnıń kamalǵa keliwinde de ayrıqsha kórinedi. Jekke adam jámiyetlik turmıs jemisi bolıwı menen birge tiri worganizm. Organizmniń tirishiligi biologiya nızamlıqlarına boysınǵan. Birinshi gezekte nerv sistemasınıń qásiyetleri júzege keltiretuǵın temperament ayırmashılıqları sebepli insannıń pútkil minez-qulqı ayırım xarakterge iye boladı.

Jeke adamdı qáliplestiriw hám rawajlandırıw máselesine durıs qatnas jasaw ushın jeke adamnıń tábiyatın, dúzilisin, wonıń minez-qulıq sebeplerin hám woǵan tásir tiygiziw quralların biliw zárúr. Jámiyetimiz alımlarınıń jeke adam haqqındaǵı kóz-qaraslarına pedagogika ilimi kritikalıq qatnasta baylanısadı. Bul máselege qatnas jasawda burjuaziya alımlarınıń arasında úsh tiykarǵı aǵım bar. Bular

1. Biologiyalıq aǵım
2. Biosocial aǵım.
3. Sociologiyalıq aǵım.

Balalarınıń qásiyet hám ayırmashılıqların biliw yesaplanadı. Balalardıń qızıǵıwı, qábileti hám wolardıń haq kewili menen qálep qıyınshılıqtan qorıqpay oqıwǵa tayın yaki tayın yemes yekenligi yesapqa alınbasa bilim alıw qanaatlandırarlı nátiyje bermeydi.

Ilimiy biliw processi keń múmkinshiliklerge iye balalardı adep-ikramlılıq jaqtan tárbiyalawda kerek. Biliw processiniń wózi sezimlik, qabıl yetiwden yaǵnıy janlı bayqawdan baslanadı. K.D.Ushinskiy «Barlıq ilimler de muǵallim arqalı balaǵa barıp jetetuǵın azlı-kópli adep-ikramlılıq elementler worın alǵan» - degen yedi. Oylaw adamdaǵı adep-ikramlılıq tásirleniwdi tereńlestiredi.

Jazıwshı K.Paustovskiy «Bilimsiz adam hesh bayqamawı múmkin, biletuǵın, bilimli adam bos taqır jerdegi sulıwlıqtı da kóre aladı» - degen yedi. Demek bilim-túsinik adamnıń adep-ikramlılıq jaqtan tárbiyalanıwında úlken áhmiyetke iye.

Miynettiń aqıl hám fizikalıq túrleri teńnen balalardıń adep-ikramlılıq jaqtan rawajlanıwına zor tásir tiygizedi. Bul miynettiń óziniń isleniw processi arqalı, miynettiń mazmunı, miynettiń jemisi hám miynetke qatnası arqalı júzege keledi.

Adamdağı qásiyetler jámiyetlik qatnaslar jıynağı hám ol tariyxıy rawajlanıwdıń jemisi. Adam bul jámiyet ağzası. Jámiyetlik qatnaslar xarakteri adamnıń páziyletlerin belgilep beredi. Usınıń menen birge-tábiyattıń jemisi, tábiyattıń yeń rawajlanǵan basqıshı.

Adamnıń kamalǵa keliwinde tábiyat penen jámiyet bir-birine qarama-qarsı kelmeydi, al bular óz-ara bekkem baylanısta boladı. Jámiyetlik tariyxıy rawajlanıw janlı tábiyattıń joqarǵı basqıshında júzege kelip bul tábiyattıń sırtqı kórinisin uzaytadı, jaqsılaydı. Tábiyattıń bul jetilisiwinde jámiyetlik tarıyxıy jaǵdaylar sheshiwshi worın tutadı. Mine usı zańlıq adamnıń kamalǵa keliwinde de ayrıqsha kórinedi. Jekke adam jámiyetlik turmıs jemisi bolıwı menen birge tiri worganizm. Organizmniń tirishiligi biologiya nızamlıqlarına boysınǵan. Birinshi gezekte nerv sistemasınıń qásiyetleri júzege keltiretuǵın temperament ayırmashılıqları sebepli insannıń pútkil minez-qulqı ayırım xarakterge iye boladı.

Jeke adamdı qáliplestiriw hám rawajlandırıw máselesine durıs qatnas jasaw ushın jeke adamnıń tábiyatın, dúzilisin, wonıń minez-qulıq sebeplerin hám woǵan tásir tiygiziw quralların biliw zárúr. Jámiyetimiz alımlarınıń jeke adam haqqındağı kóz-qaraslarına pedagogika ilimi kritikalıq qatnasta baylanısadı. Bul máselege qatnas jasawda burjuaziya alımlarınıń arasında úsh tiykarǵı ağım bar.

Bular Balanıń pikirlew qábiliyeti hám pútkil xarakter ayırmashılıqların názerde tutqan halda alıp barılǵan oqıtıw balalardı bilim alıwǵa qızıqsındıradı, oqıtıwdıń tabıslı bolıwın támiyenleydi. Bala organizminiń ósiwi hám rawajlanıwı, psixikalıq jaqtan jetilisiwi, túrli jas dáwirinde hár qıylı boladı. Bala psixikasınıń rawajlanıwı woǵada qospalı hám qarama-qarsılıqlarǵa iye process, hár qanday basqa rawajlanıw sıyaqlı bunda san hám sapa ózgerislerine alıp keledi. Rawajlanıw processinde belgili bir tártiptegi stadiyalıqtı kóriw múmkin. Hár bir basqısh (stadiya) balanıń real haqıyqatlıqqa qatnasta málim múnásebeti menen, insanıy múnásebetler sistemasında tutqan wornı menen xarakterlenedi. Biziń ǵárezsiz yelimizde ósip kiyatırǵan jas áwladtı adamgershilik ruwxında tárbiyalaw sistemasında balanıń rawajlanıwındağı tiykarǵı basqıshlardı óz ishine alıwshı mınanday jas dáwirlerine ajıratıw qabıl yetilgen.

PAYDALANǴAN A`DEBIYATLAR :

1. Каримов И. А Юксак маънавият-енгилмас куч.-Т.: «Маънавият», 2008 й.
2. Мактабгача таълимга қўйиладиган Давлат талаблари.-Т.: 2013 й
3. “Болажон” таянч дастури .-Т.: 2010 й.
4. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлигининг 2011 йил 2 ноябрдаги. “Мактабгача таълим муассасаларининг иш хужжатлари тўғрисида”ги 252-сонли бўйруғи.
5. Ф. Р. Қодирова ва бошқалар. “Мактабгача èшдаги болалар нутқини ўстириш”– Тошкент, 2011 й.
6. Усмонхужаев Т., ”Мактабгача таълим муассасаларда жисмоний тарбия”-Т.-2011 й

7. М.Файзуллаева ва бошқалар. “Мактабгача таълим муассасаларида таълим-тарбия жараènини режалаштириш” – Тошкент, 2014 й.

8-SHO‘BA: FILOLOGIK TA’LIMDA RAQAMLI LINGVISTIKA, MEDIA TA’LIM VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARI

LEXICO-SEMANTIC CHALLENGES IN ENGLISH-UZBEK TRANSLATION OF SPORTS TERMINOLOGY

M.A.Abdullaev - Karakalpakstan Institute of Agriculture and Agrotechnologies, Associate Professor, Department of Languages

https://doi.org/10.5281/zenodo.19634367

Abstract. Sport’s accelerating internationalization has increased the need for accurate, consistent English–Uzbek translation of sports terms in international events, media, and education. Because sports discourse combines technical rule-based vocabulary with tactical language and culture-specific expressions, translators often face polysemy, competing synonyms shaped by regional norms, and semantic shifts in borrowed items. This study outlines the main lexical-semantic challenges and emphasizes that standardization is essential for official texts, while media and educational materials require flexible, audience-oriented solutions.

Keywords: sports terminology; translation; English-Uzbek; lexical-semantic problems; polysemy; synonymy; borrowing; standardization.

The internationalization of sport has transformed sports language into a high-impact domain for translators. Global tournaments, transnational broadcasting, and online platforms generate large volumes of multilingual materials, including rulebooks, match reports, disciplinary decisions, training manuals, and live commentary. In this setting, translation quality is evaluated not only by linguistic correctness, but also by terminological precision and consistency. A misinterpreted term can distort a referee’s decision in reporting, mislead a fan audience, or create ambiguity in educational resources for coaches and athletes. Because English frequently serves as the world language for international sports communication, English-Uzbek translation faces the dual task of preserving conceptual accuracy while ensuring that Uzbek renderings remain natural and comprehensible for the target audience. The sports terminological system of the English language is composed of several complex linguistic phenomena, it is a legal matter that terminological units require clarification of their definitions and explanations in translation, and it is the main function of any term [1:282]

Abstract. In the era of globalization, cross-cultural understanding and the preservation of national cultural identities have become paramount. Modern linguistics shifts the focus from language as a mere tool of communication to a cognitive and cultural system reflecting human perception and experience. Within this paradigm, the concept serves as a centralized representation of knowledge, values, and cultural meanings in the human mind. Investigating the linguocultural nature of concepts is of both theoretical and practical significance, as it facilitates deeper communication and mutual understanding between diverse cultures.

Key words: contemporary linguistics, the linguocultural nature of the concept, meaning and concept, human cultural experience.

Zamanagóy til bilimi paradigmasında “koncept” túsinigi kóp qatlamlı lingvokognitiv hám lingvomádeniy birlik retinde qaraladı. Ol til, oylaw hám mádeniyat arasındağı baylanıstı kórsetetuǵın tiykarǵı mental qural sıpatında anıqlanadı. Konceptler adamnıń dúnya haqqındağı túsinigin qáliplestiriwde, qorshaǵan ortalıqtı kategoriyalawda, sonday-aq mádeniy interpretaciyalawda mańızlı orın iyeleydi.

Konceptke eń dáslep rus diniy filosofı, Sankt-Peterburg universiteti professorı A.S.Askoldov (haqıyqıy familyası Alekseev) pikirlew processindegi biz ushın birdey túrdegi obyektlerdiń anıq emes toplamın almastıratuǵın aqlıy qáliplesiw dep táriyp bergen [3,31]. Túsiniklerdiń pikirdegi ornın basıwshı roli, ádette, maqset hám máni tárepinen real ómir múnásibetlerindegi hárqıylı túrdegi ornın basıwshı funkciyalar menen mas keledi. Bunday almastırıwlar kúndelik ómirde júdá kóp [3, 32]. Ápiwayi etip túsindiretuǵın bolsaq, adamlar óz ómirinde barqulla real ómirin sheshetuǵın nárseler menen júzbe-júz kele bermeydi, al olardıń ornın basıwshıları yamasa almastırıwshılarına dus keledi. Olar sol nárseniń ózine emes, al simvol yamasa yarliklerine kóbinese reakciya kórsetedi. Adamlar ómirindegi bir hádiyse haqıyqatında júz bergenine emes, al “kitapta qalay jazılǵan” ına qaray quwanadı yamasa qapa boladı, yaǵnıy belgili bir emociyalardı bastan keshiredi. Mısalı: Aqsha-bul cifrları, súwreti bar qaǵaz, siz onı jey almaysız yamasa kiye almaysız. Biraq, biz esap betinde kóbeygen cifrlardı kórsek, qattı quwanısh sezimin bastan keshiremiz. Bul waqıtta bolsa, fizikalıq reallıqta heshqanday ózgeris bolǵan joq. Biz onıń ornın basıwshısına quwanamız (aqsha), al haqıyqıy paydasına emes (awqat, jıllılıq, qáwipsizlik).

Oqıwshı jaqsı oqıp bilimlerge iye bolıwı múmkin (reallıq), biraq arasında jaman baha alsa, qattı qapa bolıwı, hátte jılawı da múmkin (ornın basıwshı). Ol bilimi joqlıǵına emes, al “belgi” ushın jılap atırǵan boladı.

Sonday-aq, Askoldov kognitiv konceptlerdiń tábiyatı haqqında da aytıp ótken. Onıń pikirinshe, koncept – bul biziń sanamızdaǵı reallıqtıń sxeması yamasa sızılması. Almastırıw (замена): koncept mıńlap uqsas nárselerdiń ornın basıwshı bir ulıwmalıq “belgi” wazıypasın atqaradı [3, 33].

A.S.Askoldovtıń pikirlerin belgili sovet hám rus filologı, ónertanıwshı hám mádeniyatanıwshı, SSSR Ilimler Akademiyası akademigi D.S.Lixachev elede bayıtqan. Ol Askoldovtıń kóp ideyaları menen kelisken. Biraq, Askoldovtan parıqlı ráwishte, ol konceptti quramalıraq etip túsindirgen. D.S.Lixachevtiń pikirinshe, koncept – bul bir sózdiń tolıq mánisi emes. 1.Bir sózdiń, sózliktegi sıyaqlı bir neshe mánisi bolıwı múmkin hám sol hár bir mánistiń óziniń koncepti bar. 2. Koncept – bul mánistiń ápiwayilastırılǵan formulası. Sóz júdá quramalı, bay mánige iye bolıwı múmkin, biraq adam: - onı tolıq ańlap úlgere almaydı, - yamasa óz ómirlik tájiriybesine bola túsinedi. Sonıń ushın adamlar tolıq mánini emes, al qisqartılǵan, qolay versiyasın qollanadı – usı koncept boladı. 3. Hár bir adam hárqıylı túsinedi. Sebebi, túsiniwge maǵlıwmat, ómirlik tájiriybe, kásip, ortalıq tásir etedi [5,4]. Mısalı, úy sózi. Birew ushın ol – dem alıw ornı, basqa adam ushın – shańaraq, mehr, jáne kimdir ushın – ápiwayı jasaw ornı. Demek, bir sóz, biraq túrli konceptleri bar.

D.S.Lixachev usınday pikirleri menen konceptti mádeniyat penen baylanıstırǵan. Usı tiykarda ol konceptosfera terminin ilimge kiritken hám oǵan bılayınsha táriyp bergen: konceptosfera - bul ápiwayı sózdi kóp qırlı mániler jıynaǵına aylandırıwshı, tikkeley til iyesiniń mádeniy, jámiyetlik hám jeke tájiriybesine baylanıslı bolǵan janlı sistema [5,7].

Belgili ózbek lingvist alım, Ózbekstan mámleketlik jáhán tilleri universiteti filologiya ilimleri doktorı hám professor D.U.Ashurova, óziniń usı universitette filologiya ilimleri doktorı, docent M.R.Galieva menen birgelikte jazılǵan “Stylistics of literary text” kitabında konceptke ayrıqsha toqtalıp ótken. Ol konceptti házirgi kunde eń kóp tartıslarǵa sebep bolıp atırǵan túsiniklerden biri,- dep keltirgen. Sonday-aq, ol koncept – bul tilde verballasqan hám leksik, frazeologik birlikler, naqıl-maqallar, epigrammalar, stilistik qurallar, sóylew formulaları arqalı bildiriletuǵın, mániler tarmaǵınan ibarat mádeniy áhmiyetli qásiyet, - dep jazǵan [1,29].

Filologiya ilimleri doktorı, professor Sh.S.Safarov óziniń “Kognitiv tilshunoslik” kitapshasında: konceptler insan sanasında qáliplesetuǵın hártúrli kategoriyalardıń tiykarın quraydı, olar ushın tayanısh tochkası bolıp xızmet etedi. Ádette, koncepttiń ulıwmalıq qásiyetleri sıpatında onıń ishki qurılıs tárepinen anıq kóriniske iye emesligi belgilenedi, biraq bul belgilew haqıyqatqa jaqın emes. Koncepttiń tiykarın qurawshı predmet obrazı jeterli dárejede anıq hám ekilemshi orındı iyelegen bólekleri abstraktlıqqa iye bolıwı menen birge, olar jalǵız negiz (yadrolıq tiykar) átirapında óz-ara múnásibetke kirisip birigedi. Sol sebepli koncept quramınıń sistemalıq xarakterge iye ekenligin tán alıw maqul boladı. Onıń

sistemalıq qásiyetleri dúzilisi jańınan quramalı tártipte bolıwında hám bir pútin mental dúzilis sıpatında idrák etliwinde kórinedi, - dep táriyplegen [2,17].

Tashkent mámleketlik agrar universiteti tiller kafedrası oqitiwshısı M.A.Islamova, óziniń konceptke arnalǵan maqalasında konceptti kognitiv tiltanıw tarawınıń tiykarǵı kategoriyalarınan biri hám mádeniyat hám insan ortasındaǵı kommunikaciya elementi sıpatında atap ótken [4,1].

Rossiyalı izerlewshi, filolog hám lingvist I.S.Shulyatikov óziniń koncept terminiń zamanagóy tiltanıwda izertleniwine arnalǵan maqalasında usı jóneliste izertlew alıp barǵan kóplegen alımlardıń jumısların izertlep, koncept termini haqqında tómendegishe juwmaqqa kelgen: 1. “Koncept” hám “túsinik” terminleri birdey (identik) emes; 2. “Túsinik” termini tiykarınan logika hám filosofiya pánlerinde qollanıladı; 3. Koncept – bul joqarı mánáwiy qádiriyatlarǵa jóneltirilgen, lisoniy sáwleleniwge iye bolǵan hám etnomádeniy ózine tánlikke iye kollektivlik sana birligi [7,4].

Irkutsk mámleketlik pedagogika institutı magistratura studenti A.P.Sinelnikova koncepttiń strukturası hám táriyplew metodikası haqqında jazılǵan maqalasında, koncept – bul tek túsindiriwshi-táriyplewshi ǵana emes, al konnotativ, obrazlı, bahalawshı hám assosiativ xarakteristikaların da óz ishine alatuǵın kóp ólshemli strusturası. Konceptti xarakteristikalawda usı barlıq tárepler esapqa alınıwı lazım. Sonıń ushın, túrli konceptler elementar dárejeden baslap, abstrakciyanıń eń joqarı dárejesindegi quramalı konceptual strukturasına shekem bolǵan hár túrdegi maǵlıwmatlardı jetkiziwge qurbı jetedi, - dep táriyp bergen [6,6].

Juwmaqlap aytatuǵın bolsaq, zamanagóy til bilimi paradigmasında koncept túsinigi júdá keń hám quramalı túsinik. Ol kognitiv tiltanıw hám lingvomádeniyattanıwdıń tiykarǵı kategoriyası bolıp, ápiwayı logikalıq túsinikten óziniń kóp ólshemliligi hám etnomádeniy ózgesheligi menen parıqlanadı. Ol tilde túrli leksikalıq hám frazeologiyalıq birlikler arqalı verballasıp, jámiyetlik ondaǵı joqarı ruwxıy qádiriyatlardı hám mániler tarmaǵın sáwlelendiredi. Konceptti úyreniw tek ǵana túsiniktiń mánisin emes, sonday-aq onıń quramındaǵı obrazlılıq, bahalawshı hám assosiativ qásiyetlerdiń turaqlı birligin ashıp beriwdi talap etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. Stylistics of Literary Text – Tashkent: Turon-Iqbol, 2016
2. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor nashriyoti, 2006.
3. Аскольдов С.А. Концепт и слово. // Русская речь. – Academia, 1928.
4. Исламова М.А. Концепт является ключевым элементом когнитивной лингвистики, связывающим культуру и человека. // Молодёжь и наука – взгляд в будущее. – 2022. – Т.I, Ч. III. С.283-286.
5. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Известия АН СССР. Серия литературы и языка. – 1993. – Т.52. - №1. – С. 3-9.
6. Синельникова А.П. Структура концепта и методика её описания // Вестник науки. – 2024. №10 (79) – Т.1.

7. Шулятиков И.С. Термин «концепт» в современной лингвистике // Вестник Вятского государственного гуманитарного университета. – 2015. – УДК 81’22.

COLOR SYMBOLISM IN ENGLISH AND KARAKALPAK PROVERBS AND IDIOMS

Kenesbaeva Rakhila Elmurat qizi - 4th year student of the University of Innovation Technologies

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636334

Abstract. This paper examines the symbolism of colors in English and Karakalpak proverbs and idioms from a comparative linguistic perspective. Proverbs represent an important part of folklore and reflect the cultural values, traditions, and worldview of a nation. The study focuses on how different colors function as symbolic elements that express emotions, moral qualities, and social attitudes in both languages. Through the analysis of selected proverbs and idioms, the research identifies both universal and culture-specific meanings of colors.

Key words: proverbs, idioms, color symbolism, cultural identity, comparative linguistics, English language, Karakalpak language.

Colors play an important role in proverbs and idiomatic expressions, reflecting the cultural values, beliefs, and life experience of a people. Proverbs are a traditional form of folklore that convey social norms, moral lessons, and collective wisdom from generation to generation. They often contain symbolic elements, among which colors occupy a special place, as they help express emotions, personal qualities, and cultural perceptions of the world. The study of color symbolism in proverbs therefore provides valuable insight into the linguistic and cultural worldview of different nations. A comparative analysis of English and Karakalpak proverbs allows us to identify both universal and culture-specific meanings of colors.

Proverbs are a concise form of folklore that communicate social norms, moral lessons, and human feelings across generations. They serve as a mirror of society, showing what is considered good, bad, honorable, or foolish in a particular culture [1, 22–25].

In English proverbs and idiomatic expressions, colors are often used to describe emotions, personal qualities, and unusual situations. For example, the expression “a white lie” refers to a harmless or minor lie told to avoid hurting someone. The idiom “once in a blue moon” describes something that happens very rarely. The expression “the grass is always greener on the other side” reflects the human tendency to believe that other situations are better than one’s own. Another example is “the black sheep of the family,” which refers to a family member who is considered different or disreputable. Color symbolism can also be observed in expressions such as “to give someone the green light,” which means to grant permission or approval for an action. The color green in this expression symbolizes permission and progress, similar to the meaning of green traffic lights that signal

movement. These color associations reveal how English culture links colors with psychological and social meanings, often emphasizing emotions and personal character.

In Karakalpak proverbs, colors are deeply connected with nature, social values, and traditional worldview. White, or “Aq,” often symbolizes purity, sacredness, and selfless acts, especially related to motherhood and family care. For example, “Aq sút bergen ananıń, balada haqı kóp bolar” [3, pp. 145–146] highlights the holiness and sacrifice of mothers for their children. Black, or “Qara,” carries a dual meaning: it represents both the earth as the source of life and human mortality, as in “Qara jerdi jamanlama, qaytıp soǵan bararsań” [3, pp. 120–121], but can also indicate greed or moral weakness, as in “Qara qulqıńa qul bolǵan, óz eliniń ulı bolmas” [3, pp. 74–75].

Karakalpak proverbs also associate colors with social status and honor. For example, “Aq teri ayaq astında, qara teri batır basında” [3, pp. 88–89] shows that black lambskin was historically a symbol of bravery and prestige. Other proverbs connect colors to nature and collective wisdom, reflecting the close bond between humans and the environment. Examples include “Aq kepter, qara kepter, seniń aytqan sózińdi xalqıń jónler” and “Qızǵısh qusqa kól pana, jetim ulǵa el pana” [3, pp. 102–104], which emphasize guidance, support, and moral responsibility.

Comparing English and Karakalpak proverbs and idioms shows that some color meanings are universal, such as white representing purity, but many interpretations are culturally specific. In English, black usually conveys negativity, while in Karakalpak it can signify both life, heroism, and moral lessons. Colors like blue and green in English focus on emotional or psychological nuances, whereas Karakalpak proverbs emphasize social relations, respect for the land, and traditional wisdom. This illustrates how proverbs use colors to transmit a people’s worldview, values, and collective knowledge through generations [3, pp. 105–107].

The comparative analysis of English and Karakalpak proverbs and idioms demonstrates that color symbolism reflects the cultural environment in which a language develops. While some meanings, such as white representing purity and goodness, appear in both traditions, many color associations differ due to historical experience, cultural values, and social traditions. English proverbs often focus on emotional and psychological aspects of human behavior, whereas Karakalpak proverbs emphasize social relationships, respect for nature, and collective moral values. Thus, the study of color symbolism in proverbs not only enriches linguistic research but also contributes to a deeper understanding of the cultural identity and worldview of different nations.

References:

1. Berdimuratov, E. (1985). Qaraqalpaq tiliniń frazeologiyası. Nókis: Qaraqalpaqstan.

2. Seidl, J. & McMordie, W. (1988). English Idioms. Oxford: Oxford University Press.

3. Maqsetov, Q. (1996). Qaraqalpaq folklórı. Nókis: Qaraqalpaqstan.

4. Dáwletov, A. (2010). Házirgi qaraqalpaq tili. Nókis: Bilim.

5. Simpson, J. & Weiner, E. (eds.) (1989). The Oxford English Dictionary. Oxford: Clarendon Press.

TIL TA’LIMIDA O‘QUV MATERIALI BILAN ISHLASH MAZMUNI

Mavlonova Klaraxon Mahmudovna – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori

Shokirjon Tursun – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636574

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili ta’limida o‘quv materialining mazmuni va sifatini belgilovchi asosiy lingvodidaktik tamoyillar tahlil qilinadi. O‘quv materiali zamonaviy yondashuvda shunchaki axborot manbasi emas, balki o‘quvchining kognitiv va kommunikativ rivojlanishini ta’minlovchi muhit sifatida talqin etiladi. Maqolada Stiven Krashenning input gipotezasi (i+1), Lev Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi hamda Jon Biggsning konstruktiv muvofiqlik tamoyili asosida o‘quv materialini saralash va topshiriqlarni loyihalash mezonlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘quv materiali, lingvodidaktika, input gipotezasi (i+1), autentiklik, kognitiv muvofiqlik, kommunikativ yondashuv, konstruktiv muvofiqlik, Blum taksonomiyasi, adaptatsiya (soddalashtirish va boyitish), o‘quv topshiriqlari.

Abstract. This article analyzes the key linguodidactic principles that determine the content and quality of teaching materials in mother tongue education. In modern approaches, teaching materials are interpreted not merely as sources of information, but as cognitive and communicative environments that foster learners’ language development. The study highlights criteria for selecting teaching materials and designing tasks based on Stephen Krashen’s Input Hypothesis (i+1), Lev Vygotsky’s Zone of Proximal Development, and John Biggs’s principle of constructive alignment. It also explains the informational, motivational, regulatory, and transformational functions of teaching materials. Special attention is given to such selection criteria as authenticity, relevance, cognitive appropriateness, and communicative potential.

Keywords: teaching materials, linguodidactics, input hypothesis (i+1), authenticity, cognitive appropriateness, communicative approach, constructive alignment, Bloom’s taxonomy, adaptation (simplification and enrichment), learning tasks.

Ona tili ta’limining mazmuni va sifati bevosita o‘quv materiali – o‘quvchiga taqdim etiladigan lisoniy ma’lumotlar, matnlar va topshiriqlar majmuasiga bog‘liq.

O‘quv materiali tushunchasini anglashda Stiven Krashenning input gipotezasi nazariyasi fundamental ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, tilni o‘zlashtirish uchun o‘quvchi qabul qilayotgan material uning hozirgi darajasidan biroz yuqoriroq bo‘lishi lozim. Bu nazariya metodikada *i+1* formulasi bilan ifodalanadi.

Ona tili darsida o‘quv materiali to‘rtta strategik vazifani bajarishi lozim:

Informatsion funksiya: til tizimi (grammatika, leksika, uslubiyat) haqida aniq va ilmiy ishonchli ma’lumot berish; motivatsion funksiya: material mazmuni o‘quvchining qiziqishlari va hayotiy ehtiyojlariga mos kelib, unda muloqotga kirishish ehtiyojini uyg‘otish; regulyativ funksiya: berilgan topshiriqlar va savollar orqali o‘quvchining fikrlash traektoriyasini tizimga solish; transformatsion funksiya: o‘quvchidagi nazariy bilimlarni amaliy nutqiy ko‘nikmalarga aylantirish uchun maydon yaratish.

Ona tili ta’limi jarayonida o‘quv materiallarini (matnlar, audionamunalar, topshiriqlar) tizimli saralash ta’limning mazmuniy sifatini belgilovchi asosiy omildir. Jahon pedagogikasida o‘quv materialini saralash endilikda o‘qituvchining intuitiv tanlovi emas, balki aniq psixolingvistik va didaktik mezonlarga tayanuvchi ilmiy jarayondir. Bunda quyidagi to‘rtta asosiy filtrdan foydalaniladi:

Autentiklik. Bu mezon materialning real nutqiy muhitga qanchalik yaqinligini belgilaydi. O‘quvchi darsda faqat didaktik matnlar (grammatik qoidani tushuntirish uchun maxsus yozilgan, sun’iy matnlar) bilan cheklanib qolmasligi kerak. Zamonaviy darsliklar autentik materiallar – gazeta maqolalari, real e’lonlar, intervyular, blogpostlar va rasmiy hujjatlar ustiga quriladi. Guariento va Morley tadqiqotlari isbotlaganidek, autentik materiallar o‘quvchining motivatsiyasini oshiradi, chunki o‘quvchi o‘rganayotgan tili darsxonadan tashqarida ham hayotiy ehtiyoj ekanini his qiladi.

Moslik va qiziqish. Material o‘quvchining yoshi, ijtimoiy dunyoqarashi va kelajakdagi ehtiyojlariga mos kelishi shart. O‘z shaxsiyatini o‘zi belgilash nazariyasi (Deci & Ryan) bo‘yicha, agar material o‘quvchi uchun shaxsiy ahamiyatga ega (relevant) bo‘lsa, unda ichki motivatsiya uyg‘onadi. 8–9-sinf o‘quvchisi uchun ertaklar emas, balki zamonaviy texnologiyalar, kasb tanlash yoki ekologik muammolarga oid matnlar tanlanishi – relevantlikning yorqin misolidir.

Kognitiv va lisoniy muvofiqlik. Material o‘quvchi uchun na juda oson, na o‘ta murakkab bo‘lishi kerak. Lev Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasiga asoslanadi. Material o‘quvchiga mustaqil bajara oladigan va ko‘mak bilan bajara oladigan chegara hududida bo‘lishi lozim. **Hattie** o‘zining meta-tahlillarida ta’kidlaydiki, o‘quvchiga o‘ta oson material berish kognitiv turg‘unlikka, o‘ta qiyin material esa ojizlikka o‘rganib qolish holatiga olib keladi.

Kommunikativ potensial. Material o‘z-o‘zidan maqsad emas, balki muloqot uchun sabab bo‘lishi kerak. Yaxshi material o‘quvchida savol berish, bahslashish yoki o‘z fikrini bildirish ehtiyojini uyg‘otadi.

O‘quv topshiriqlarini loyihalash shunchaki savollar tuzish emas, balki muayyan lisoniy maqsadni o‘quvchining kognitiv faoliyati bilan bog‘lovchi muhandislik jarayonidir. Topshiriqlarni loyihalashning metodologik asosi Jon Biggs tomonidan taklif etilgan konstruktiv muvofiqlik tamoyilidir. Unga ko‘ra, o‘quv materiali doirasidagi topshiriq quyidagi uchlikning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashi shart:

O‘quv maqsadi (O‘quvchi nimani bilishi kerak?)

O‘quv faoliyati (O‘quvchi maqsadga erishish uchun qanday topshiriqni bajaradi?)

Baholash mezonlari (Topshiriq bajarilganini qanday o‘lchaymiz?)

Ona tili darslarida topshiriqlar o‘quvchi tafakkurini past darajali amallardan yuqori darajali amallarga bosqichma-bosqich ko‘tarishi lozim. Benjamin Blum taksonomiyasining qayta ishlangan varianti topshiriqlarni quyidagi iyerarxiya asosida loyihalashni talab etadi:

Daraja	Topshiriq turi (Ona tili misolida)	Kognitiv talab
Eslab qolish	Matndagi otlarni aniqlang va tagiga chizing.	Ma’lumotni tanish
Tushunish	Matn mazmunini o‘z so‘zlaringiz bilan bayon qiling.	Interpretatsiya
Qo‘llash	Berilgan grammatik shakllardan foydalanib kichik xabar yozing.	Transfer (ko‘chirish)
Tahlil	Muallif nima uchun aynan shu uslubiy bo‘yoqdor so‘zni tanlaganini asoslang.	Dekonstruksiya
Baholash	Matndagi keltirilgan dalillar ishonchli ekanini tanqidiy baholang.	Mulohaza va mezon
Yaratish	Matn asosida muammoga yechim taklif qiluvchi muqobil matn yarating.	Sintez va ijodkorlik

Jeyn Villis modeliga ko‘ra, topshiriq loyihasi uch bosqichdan iborat bo‘lishi lozim:

Tayyorgarlik: mavzu bilan tanishtirish, kerakli leksikani faollashtirish.

Topshiriq jarayoni: o‘quvchilarning mustaqil yoki guruhda topshiriqni bajarishi, rejalashtirishi va hisoboti.

Tilga e’tibor: topshiriq bajarilgandan so‘ng unda qo‘llangan til shakllarini tahlil qilish va mustahkamlash.

Yaxshi topshiriqning 3 ta oltin qoidasi:

1. Aniq instruksiya. O‘quvchi topshiriqni bajarishdan oldin “Nima qilishim kerak?”, “Qanday qilishim kerak?” va “Natija qanday bo‘lishi kerak?” degan savollarga aniq javob topishi lozim.
2. Vaqt va resurs chegarasi. Har qanday topshiriqning aniq bajarilish muddati va foydalaniladigan manbalari (lug‘at, internet, matn) ko‘rsatilishi shart.
3. Natijaning mahsuldorligi. Topshiriq shunchaki bilish bilan emas, balki biror bir mahsulot (yozma matn, sxema, og‘zaki taqdimot) bilan yakunlanishi kerak.

Ona tili darslarida o‘qituvchi duch keladigan asosiy muammolardan biri darslikdagi yoki tanlangan autentik matnning o‘quvchilar darajasiga nisbatan o‘ta murakkabligidir. Bunday holatda o‘qituvchi materialni adaptatsiya (moslashtirish) qilishi shart. Adaptatsiya ikki xil strategiya orqali amalga oshiriladi: soddalashtirish va boyitish.

Soddalashtirish matnning lisoniy yukini kamaytirish orqali uni o‘quvchi uchun tushunarli qilish jarayonidir. Biroq bu jarayonda matnning intellektual vazni yo‘qolmasligi kerak.

Leksik soddalashtirish: kam qo‘llanadigan, arxaik yoki o‘ta tor doiradagi terminlarni o‘quvchiga tanish bo‘lgan sinonimlar bilan almashtirish.

Sintaktik soddalashtirish: murakkab, bir necha qolipdan iborat uzun gaplarni qisqa, sodda va mantiqiy tugallangan gaplarga bo‘lish.

Struktural soddalashtirish: matnning mantiqiy ketma-ketligini aniq sarlavhalar va nuqtali ro‘yxatlar yordamida qayta tartiblash.

Xulosa qilib aytganda, ona tili ta’limida o‘quv materiallari autentik, o‘quvchi ehtiyojlariga mos, kognitiv jihatdan muvozanatli va kommunikativ jihatdan mazmunli bo‘lishi zarur. Topshiriqlar esa aniq maqsadga yo‘naltirilgan, bosqichma-bosqich murakkablashuvchi va natijaga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Shuningdek, materiallarni soddalashtirish va boyitish orqali ularni o‘quvchilar darajasiga moslashtirish ta’lim jarayonining sifatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamroyev G‘. H. Ona tili ta’limida o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik asoslarini takomillashtirish: ped. fan. dokt.(DSc)... dis-ya. Toshkent, 2022.

2. Tomlinson B. (Ed.). Materials Development in Language Teaching (2nd ed.). Cambridge University Press, 2011.

3. Willis J. A Framework for Task-Based Learning. Longman, 1996.

4. Mayer R. E. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2009.

5. Anderson L. W., & Krathwohl D. R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing. Longman, 2001.

SHARLOTTA BRONTENIŃ “JEYN EYR” SHÍǴARMASÍNDA STILISTIKALÍQ TROPLARDÍ AWDARMALAWDA KOGNITIV EKVIVALENTLIK MASHQALASÍ

Naimova Nazira Kairatdinovna - Innovacion texnologiyalar universiteti assistent oqıtıwshısı

https://doi.org/10.5281/zenodo.19634113

Annotaciya. Bul maqalada Sharlotta Brontenıń “Jeyn Eyr” romanında qollanılǵan stilistikalıq troplardı awdarmalaw procesinde júzege keletuǵın kognitivlik ekvivalentlik mashqalası tereń tallanadı. Atap aytqanda, metafora, epitet, teńew hám metonimiya sıyaqlı obrazlı birliklerdiń inglis tilinen ózbek tiline awdarmasında konceptual sáykeslik dárejesi úyreniledi. Sonıń menen birge, maqalada kognitiv lingvistikalıq qatnas tiykarında awdarma strategiyaları sáwlelendirilip, mental obrazlardıń saqlanıwı hám transformaciyası máseleleri tallanadı. Nátiyjede, stilistikalıq troplardı adekvat awdarıwda semantikalıq emes, al kognitivlik ekvivalentlik sheshiwshi faktor ekenligi tiykarlanadı.

Tayanısh sózler: stilistikalıq trop, kognitiv ekvivalentlik, metafora, epitet, uqsastırıw, metonimiya, awdarma, mental model, konceptual metafora, Jeyn Eyre.

Abstract. This article provides an in-depth analysis of the problem of cognitive equivalence in translating stylistic tropes in Charlotte Brontë’s novel Jane Eyre. In particular, it examines the conceptual correspondence of figurative

units such as metaphors, epithets, similes, and metonymy in translation from English into Uzbek. Furthermore, the study highlights translation strategies from the perspective of cognitive linguistics and analyzes the preservation and transformation of mental images. As a result, it is argued that cognitive equivalence, rather than purely semantic equivalence, is the key factor in achieving an adequate translation of stylistic devices.

Keywords: stylistic trope, cognitive equivalence, metaphor, epithet, simile, metonymy, translation, mental model, conceptual metaphor, Jeyn Eyr

Zamanagóy lingvistika hám awdarmashılıq ilimleriniń sheńberinde jaylasqan eń tiykarǵı mashqalalardan biri bul stilistikalıq troplardı adekvat awdarmalaw máselesi bolıp tabıladı. Ásirese, kórkem tekst kontekstinde bul mashqala jáne de quramalasadı, sebebi bunday tekstlerde til tek ǵana informaciya jetkeriw quralı sıpatında emes, al avtordıń individual dúnyaqarası, estetikalıq kózqarasları hám kognitivlik modeliniń kórinisi sıpatında kórinedi. Usı kóz-qarastan qaraǵanda, Sharlotta Brontenin “Jeyn Eyr” romanı stilistikalıq baylıǵı hám psixologiyalıq tereńligi menen kognitivlik awdarma analizi ushın oǵada qunlı material esaplanadı.

Bárinen burın, sonı atap ótiw kerek, dástúriy awdarma teoriyalarında ekvivalentlik kóbirek semantikalıq sáykeslik arqalı túsindirilgen bolsa, zamanagóy jantasıwlarda, atap aytqanda, kognitiv lingvistika sheńberinde ekvivalentlik túsinigi keńirek talqılanadı. Yaǵnıy, awdarmada tiykarǵı maqset tek sózler yamasa gápler mánisin kóshiriw emes, al olardıń artında jatqan konceptuallıq strukturalardı, mental obrazlardı hám perseptivlik modellerdiń qayta tikleniwin támiyinlewden ibarat. Sonlıqtan, “kognitiv ekvivalentlik” túsinigi stilistikalıq troplardı awdarmalawda oraylıq kategoriya sıpatında kórinedi [1].

Haqıyqatında da, kognitiv til biliminiń wákilleri, atap aytqanda, Lakoff hám Jonson, metaforanı ápiwayı stilistikalıq bezew emes, al insan oylawınıń tiykarǵı mexanizmi sıpatında talqılaydı [5]. Demek, metafora til dárejesinde emes, al pikirlew dárejesinde bar boladı. Sonlıqtan, “Jeyn Eyr” romanında ushırasatuǵın metaforalardı awdarmalaw procesinde awdarmashı tek ǵana lingvistikalıq birlikti emes, al avtor jaratqan konceptual modeldi de esapqa alıwı zárúr boladı.

Máselen, shıǵarmada ushırasatuǵın “I am no bird; and no net ensnares me” ańlatpası tek obrazlı gáp emes, al “Erkinlik-sheklewdiń joqlıǵı” sıyaqlı konceptual metaforanıń ańlatpası bolıp tabıladı. Eger bul gáp sózbe-sóz awdarılsa, onıń sırtqı forması saqlanadı, biraq ishki kognitiv mazmunı tolıq ashılmawı múmkin. Sol sebepli, awdarmashı bul metaforanıń konceptual tiykarın ańlap, onı maqset tilinde sáykes mental obraz arqalı sáwlelendiriwi zárúr boladı. Demek, bul jerde ekvivalentlik lingvistikalıq emes, al kognitivlik dárejede támiyinlenedi [3].

Bunnan tısqarı, epitetler awdarmasında da kognitivlik ekvivalentlik mashqalası ayqın kórinedi. Sebebi epitetler kóbinese avtordıń subyektiv bahasın, emocionallıq múnásibetin hám estetikalıq kózqarasların bildiredi. Máselen, “cold and lonely” sıyaqlı ańlatpa tek fizikalıq suwıqlıqtı emes, al ruwxıy boslıqtı, izolyaciyanı ańlatadı. Sonlıqtan, onı ápiwayı "suwıq hám jalǵız" dep awdarıw jetkilikli emes, kerisinshe, onıń emocionallıq júklemesin saqlaǵan halda, “kewildi

muzlatatuǵın jalǵızlıq” sıyaqlı variant arqalı beriw kognitivlik jaqtan durıs boladı. Nátiyjede, oqıwshı tiykarǵı teksttegi emocionallıq tásirdi biraz bolsa da seze aladı.

Sonıń menen birge, teńewler, yaǵnıy simile konstrukciyaların awdarıwda da belgili bir qıyınshılıqlar júzege keledi. Sebebi “like” yamasa “as” arqalı ańlatılǵan obrazlar barlıq waqıtta da basqa til mádeniyatında birdey associaciyanı oyatpaydı. Máselen, inglis tilindegi “like a reed shaken by the wind” ańlatpası ázzilik, turaqsızlıq tımsalın ańlatadı. Biraq, eger bul obraz maqset til oqıwshısı ushın jat bolsa, onıń tásiri azayadı. Bunday jaǵdayda awdarmashı analogiyalıq yamasa funkcionallıq sáykes obrazdan paydalanıwǵa májbúr boladı. Demek, bul jerde de tiykarǵı wazıypa sırtqı uqsaslıqtı emes, al ishki konceptual uqsaslıqtı saqlawdan ibarat.

Sonıń menen birge, metonimiya sıyaqlı troplar awdarmasında mádeniy-kognitivlik ayırmashılıqlar jáne de keskinirek seziledi. Sebebi metonimiya kóbinese belgili bir mádeniy kontekstke baylanıslı boladı. Máselen, inglis tilinde belgili bir predmet yamasa hádiyse keńirek túsinikti ańlatıwı múmkin, biraq bul baylanıs basqa til wákilleri ushın túsiniksiz bolıw itimalı bar. Sol sebepli, awdarmashı metonimlik baylanıstı anıqlap, onı maqset tilinde túsinikli formaǵa keltiriwi kerek boladı. Bul process bolsa ápiwayı awdarma emes, al konceptual rekonstrukciya bolıp esaplanadı.

Bunnan kelip shıǵadı, stilistikalıq troplardı awdarmalaw procesinde awdarmashı bir waqıttıń ózinde bir neshe: lingvistikalıq, semantikalıq, pragmatikalıq hám kognitivlik dárejede isleydi. Ásirese, kognitiv dáreje eń quramalı bolıp, ol avtordıń oylaw modelin túsiniwdi hám onı basqa til sistemasında qayta jaratıwdı talap etedi. Sonlıqtan, awdarma procesin "mental mapping" procesi sıpatında talqılaw múmkin, yaǵnıy derek tilindegi konceptual struktura maqset tiline sáykes túrde qayta jobalanadı.

Sonday-aq, kognitivlik ekvivalentlikti támiyinlewde túrli awdarma strategiyaları úlken rol oynaydı. Sonıń ishinde, adaptaciya strategiyası mádeniy ayırmashılıqlardı saplastırıwǵa xizmet etedi, transformaciya bolsa grammatikalıq hám strukturalıq ózgerisler arqalı mazmundı saqlaw imkanın beredi. Kompensaciya bolsa joytılǵan stilistikalıq effektti basqa qurallar arqalı tiklewge járdem beredi. Sonıń menen birge, eksplikaciya strategiyası jasırın mánilerdi ashıp beriw arqalı oqıwshınıń qabıllawın ańsatlastıradı. Demek, bul strategiyalar kognitiv ekvivalentlikti támiyinlewde qural sıpatında xizmet etedi.

Biraq, sonı da ayrıqsha atap ótiw kerek, hár qanday awdarma belgili dárejede joǵaltıwlar menen baylanıslı boladı. Ásirese, stilistikalıq troplar awdarmasında bul joǵaltıwlar jáne de sezilerli boladı, sebebi hár bir til ózine tán konceptual sistemaǵa iye. Soǵan qaramastan, awdarmashınıń tiykarǵı wazıypası maksimal dárejede kognitiv jaqınlıqtı támiyinlewden ibarat.

Ulıwma alǵanda, “Jeyn Eyr” shıǵarması mısalında alıp barılǵan tallawlar sonı kórsetedi, stilistikalıq troplardı awdarmalaw procesinde eń tiykarǵı faktor bul kognitivlik ekvivalentlik bolıp tabıladı. Yaǵnıy, awdarma tabısı tek ǵana teksttiń sırtqı formasına emes, al onıń ishki konceptual mazmunınıń qay dárejede saqlanǵanına baylanıslı. Sol sebepli, zamanagóy awdarmashılıqta kognitivlik qatnas barǵan sayın úlken áhmiyetke iye bolmaqta.

Juwmaq ornında sonı aytıw múmkin, stilistikalıq troplardı awdarıw quramalı hám kóp qatlamlı process bolıp, ol tek ǵana lingvistikalıq bilimlerdi emes, al tereń kognitivlik hám mádeniy kompetenciyanı da talap etedi. Ásirese, Sharlotta Brontenin “Jeyn Eyr” shıǵarması sıyaqlı kórkem shıǵarmalardı awdarmalawda awdarmashı avtordıń oy-pikirin qayta jaratıwǵa umtılıwı zárúr. Tek sonda ǵana awdarma negizgi tekstke jaqın, tásirsheń hám kognitivlik jaqtan adekvat bolıwı múmkin.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Amrin, M. (2007). The analysis of Jane Eyre’s personality Charlotte Bronte’s Jane Eyre (Doctoral dissertation, Universitas Islam Negeri Maulana Malik Ibrahim).
2. Brennan, Z. (2010). Brontë's Jane Eyre. A&C Black.
3. Brontë, C. (2018). Jane eyre. In Medicine and Literature, Volume Two (pp. 53-72). CRC Press.
4. House, J. (2014). Translation quality assessment: Past and present. Routledge.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. Chicago: Univ. Press, Chicago/IL.

RAQAMLI LINGVISTIKA VA MEDIA-SAVODXONLIK: BO‘LAJAK FILOLOGLAR UCHUN YANGI IMKONIYATLAR

Naimova Nazira Kairatdinovna - Ilmiy rahbar, Innovatsion texnologiyalar universiteti assistent o‘qituvchisi

Kurbanbaeva Shaxnoza - Innovatsion texnologiyalar universiteti 1-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636652

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli lingvistika va media-savodxonlik tushunchalari zamonaviy filologiya ta’limi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Xususan, raqamli texnologiyalar asosida tilni o‘rganish usullarining rivojlanishi, shuningdek, axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalarining ahamiyati yoritiladi. Bundan tashqari, ushbu ikki yo‘nalishning integratsiyasi bo‘lajak filologlar uchun yangi kasbiy imkoniyatlarni yuzaga keltirishi asoslab beriladi. Natijada, raqamli kompetensiyalar va media-savodxonlikni shakllantirish zamonaviy filologning ajralmas qismi ekanligi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: raqamli lingvistika, media-savodxonlik, filologiya, korpus lingvistikasi, sun’iy intellekt, axborot madaniyati, tanqidiy fikrlash

Abstract. This article analyzes the concepts of digital linguistics and media literacy from the perspective of modern philological education. In particular, it highlights the development of language studies based on digital technologies, as well as the importance of critical evaluation of information in the media space. Furthermore, the integration of these two fields is justified as a source of new professional opportunities for future philologists. As a result, the formation of digital competencies and media literacy is presented as an essential component of a modern philologist’s professional profile.

Keywords: digital linguistics, media literacy, philology, corpus linguistics, artificial intelligence, information culture, critical thinking

Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish jarayonlari sharoitida til va kommunikatsiya tizimi tubdan o‘zgarib bormoqda. Avvalo, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida lingvistika fani an’anaviy chegaralaridan chiqib, yangi ilmiy yo‘nalishlar bilan boyimoqda. Xususan, raqamli lingvistika tilni kompyuter texnologiyalari yordamida o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, u korpus lingvistikasi, tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), avtomatik tarjima va nutqni tanish kabi sohalarni qamrab oladi. Shu boisdan, zamonaviy filolog uchun faqat nazariy bilimlar emas, balki texnologik kompetensiyalar ham zarur bo‘lib bormoqda [5].

Bundan tashqari, raqamli lingvistika til birliklarini katta hajmdagi ma’lumotlar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Masalan, korpus lingvistikasi yordamida millionlab matnlar ustida statistik tahlillar o‘tkazilib, tilning real qo‘llanish xususiyatlari aniqlanadi. Natijada, tilning dinamik rivojlanishi, yangi leksik birliklarning paydo bo‘lishi va kommunikativ strategiyalarning o‘zgarishi aniqroq kuzatiladi. Demak, raqamli lingvistika nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi [4].

Shu bilan birga, media-savodxonlik tushunchasi ham bugungi kunda alohida dolzarb masalaga aylangan. Zero, zamonaviy inson doimiy ravishda turli xil axborot oqimlari ichida yashaydi. Biroq, har qanday axborot ham ishonchli yoki haqqoniy bo‘lavermaydi. Shuning uchun media-savodxonlik – ya’ni axborotni tanlash, tahlil qilish va baholash qobiliyati – muhim kompetensiyaga aylanmoqda. Ayniqsa, filologlar uchun bu ko‘nikma alohida ahamiyatga ega, chunki ular matn bilan ishlovchi mutaxassislar hisoblanadi [2].

Shuningdek, media-savodxonlik tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan matnlarni lingvistik va pragmatik jihatdan tahlil qilish orqali manipulyativ strategiyalarni aniqlash mumkin. Bu esa nafaqat ilmiy faoliyatda, balki kundalik hayotda ham muhimdir. Demak, media-savodxonlik filologlarning professional faoliyatini yanada samarali qiladi.

Bundan tashqari, raqamli lingvistika va media-savodxonlikning integratsiyasi yangi kasbiy yo‘nalishlarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, kontent-analitik, SEO mutaxassisi, raqamli muharrir, til texnologiyalari bo‘yicha mutaxassis kabi kasblar aynan shu ikki yo‘nalishning kesishgan nuqtasida paydo bo‘lgan. Shu sababli, filologiya ta’limida ushbu kompetensiyalarni shakllantirish muhim vazifaga aylanmoqda.

Ayni paytda, sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ham filologlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, avtomatik tarjima tizimlari, matn generatsiyasi va semantik tahlil vositalari tilshunoslik tadqiqotlarini tezlashtiradi. Biroq, shu bilan birga, bu texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish uchun yuqori darajadagi media-savodxonlik talab etiladi. Aks holda, noto‘g‘ri yoki manipulyativ axborotlardan foydalanish xavfi ortadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, ta’lim tizimida raqamli lingvistika va media-savodxonlikni integratsiya qilish orqali talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish

va innovatsion yondashuv ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Masalan, talabalarga real media matnlar asosida lingvistik tahlil topshiriqlari berilishi ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan bog‘lash imkonini beradi. Natijada, ta’lim jarayoni yanada samarali va zamonaviy bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli lingvistika va media-savodxonlik zamonaviy filologiya ta’limining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bir tomondan, raqamli lingvistika tilni chuqur va keng qamrovda o‘rganish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, media-savodxonlik axborotni ongli ravishda qabul qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shunday ekan, bu ikki yo‘nalishning uyg‘unlashuvi bo‘lajak filologlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochadi va ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boyd, D. (2014). It's complicated: The social lives of networked teens. Yale University Press.

2. Crystal, D. (2008). A dictionary of linguistics and phonetics.

3. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2023). Speech and language processing. 3rd edn. draft.

4. McQuail, D. (2010). McQuail's mass communication theory. Sage publications.

5. Robison, A. J., Clinton, K., Weigel, M., Purushotma, R., & Jenkins, H. (2009). Confronting the challenges of participatory culture: media education for the 21st century.

CHET TILI METODIKASIDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Naimova Nazira Kairatdinovna - Ilmiy rahbar, Innovatsion texnologiyalar universiteti assistent o‘qituvchisi

Nabidullaeva Dilbar - Innovatsion texnologiyalar universiteti Filologiya kafedrasi 1-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636871

Annotatsiya. Mazkur maqolada chet tilini o‘qitish metodikasida zamonaviy metodlarning ahamiyati, ularning nazariy asoslari hamda amaliy qo‘llanilish xususiyatlari chuqur tahlil qilinadi. Xususan, kommunikativ yondashuv, task-based learning, CLIL, blended learning kabi innovatsion metodlar samaradorligi ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, maqolada mashhur olimlarning fikrlari keltirilib, zamonaviy metodlarning til o‘rganish jarayoniga ta’siri ko‘rsatib beriladi. Natijada, zamonaviy metodlar o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim vosita ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: chet tili metodikasi, zamonaviy metodlar, kommunikativ yondashuv, CLIL, task-based learning, blended learning, innovatsiya

Abstract. This article provides an in-depth analysis of modern methods used in foreign language teaching methodology, focusing on their theoretical foundations and practical applications. In particular, approaches such as

communicative language teaching, task-based learning, CLIL, and blended learning are examined based on scientific literature. The views of prominent scholars are also discussed to highlight the effectiveness of these methods in language acquisition. The study concludes that modern methodologies play a crucial role in developing learners’ communicative competence.

Keywords: foreign language teaching, modern methods, communicative approach, CLIL, task-based learning, blended learning, innovation

Bugungi globallashuv jarayonida chet tillarini o‘rganish zarurati tobora ortib bormoqda. Shu bilan birga, til o‘qitish metodikasi ham zamon talablari asosida yangilanib, innovatsion yondashuvlarni talab qilmoqda. Ayniqsa, an’anaviy grammatika-tarjima metodidan farqli ravishda, kommunikativ va interfaol metodlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Avvalo, til o‘rganish jarayonining samaradorligini oshirish masalasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Masalan, H. D. Brown til o‘qitishda kommunikativ yondashuvning ustunligini ta’kidlab, tilni real kommunikatsiya vositasi sifatida o‘rgatish zarurligini qayd etadi [1]. Shu bilan birga, S. Krashen o‘zining “input hypothesis” nazariyasida tilni tabiiy muhitga yaqin sharoitda o‘rganish muhimligini asoslaydi [2]. Bundan tashqari, D. Nunan task-based learning metodining afzalliklarini ko‘rsatib, o‘quvchilarning faol ishtiroki tilni egallashda muhim omil ekanligini ta’kidlaydi [3]. Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, chet tilini o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Birinchidan, kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching – CLT) bugungi kunda eng keng qo‘llaniladigan metodlardan biri hisoblanadi. Ushbu metodning asosiy maqsadi – o‘quvchilarning real hayotdagi muloqotga tayyorligini ta’minlashdir. Shuning uchun ham, dars jarayonida dialoglar, rolli o‘yinlar va muammoli vaziyatlardan foydalaniladi.

Ikkinchidan, task-based learning (TBL) metodi ham zamonaviy metodlar qatoriga kiradi. Mazkur metodda o‘quvchilar ma’lum vazifalarni bajarish orqali tilni o‘rganadilar. Masalan, loyiha ishlari, muammoli topshiriqlar va guruhiy faoliyatlar orqali til ko‘nikmalari rivojlantiriladi. Natijada, o‘quvchilar tilni faqat nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham egallaydilar [5].

Bundan tashqari, CLIL (Content and Language Integrated Learning) metodi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvda til boshqa fanlar bilan integratsiya qilinadi. Ya’ni, o‘quvchilar chet tilini o‘rganish bilan birga, boshqa fanlar bo‘yicha bilimlarini ham oshiradilar. Bu esa o‘qitish jarayonining samaradorligini yanada kuchaytiradi.

Shu bilan birga, zamonaviy ta’lim texnologiyalarining rivojlanishi blended learning (aralash ta’lim) metodining keng qo‘llanilishiga olib keldi. Bu metod an’anaviy darslar bilan bir qatorda, onlayn platformalar, mobil ilovalar va multimedia vositalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Natijada, o‘quvchilar uchun individual o‘rganish imkoniyatlari kengayadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, zamonaviy metodlar interfaollikni ta’minlaydi. Masalan, “Think-Pair-Share”, “Role play”, “Debate” kabi metodlar o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi. Shu orqali, o‘rganilgan bilimlar mustahkamlanadi va uzoq muddatli xotirada saqlanadi [4].

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy metodlar an’anaviy metodlarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Avvalo, ular o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning motivatsiyasi oshadi va ular dars jarayonida faol ishtirok etadilar. Bundan tashqari, zamonaviy metodlar individual yondashuvni ta’minlaydi. Ya’ni, har bir o‘quvchining qobiliyati va ehtiyojlariga mos ravishda ta’lim tashkil etiladi. Bu esa o‘qitish samaradorligini yanada oshiradi. Ammo shuni ham ta’kidlash joizki, zamonaviy metodlarni qo‘llashda ayrim muammolar ham mavjud. Masalan, texnik vositalarning yetishmasligi, o‘qituvchilarning malaka darajasi va metodlarni to‘g‘ri tanlash kabi omillar muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, chet tilini o‘qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, kommunikativ yondashuv, task-based learning, CLIL va blended learning metodlari o‘quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bois, o‘qituvchilar ushbu metodlardan samarali foydalanishi, ularni dars jarayoniga moslashtirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown, H. D., & Lee, H. (2025). Principles of language learning and teaching: A course in second language acquisition. Routledge.

2. Krashen, S. (1982). Principles and practice in second language acquisition.

3. Nunan, D. (2004). Task-based language teaching. Cambridge university press.

4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and methods in language teaching. Cambridge university press.

5. Scrivener, J. (2011). The essential guide to English language teaching. L.: Macmillan Education.

ENHANCING PHILOLOGICAL EDUCATION THROUGH DIGITAL LINGUISTICS, MEDIA EDUCATION, AND INFORMATION TECHNOLOGY

Qidirbaeva Malika - University of Innovation Technologies, 1st -year student.

Naimova Nazira - Scientific supervisor, Lecturer in the Department of Philology at the University of Innovation Technologies

https://doi.org/10.5281/zenodo.19636998

Abstract. This thesis explores the opportunities of modern digital technologies, particularly digital linguistics, media education, and information

technology, in philological education. The study highlights how these modern approaches enhance the effectiveness, interactivity, and accessibility of language learning. It also emphasizes the importance of correct and purposeful use of digital tools, which contributes to improving the quality of philological education and developing learners’ independent learning skills. The positive impact of these tools is supported by practical examples, scholarly opinions, and real-life applications, demonstrating that conscious and well-planned integration of technology is essential for the advancement of philological education.

Keywords. Digital linguistics, Media education, Information technology, Philological education, Language learning, Interactive learning

In recent years, digital technologies have developed at a rapid pace, significantly impacting the education system, particularly in the field of philological education. Modern approaches, such as digital linguistics, media education, and information technology, play a critical role in making language learning more interactive, engaging, and effective. Digital linguistics, which studies language using computational and technological tools, emphasizes the importance of integrating these modern approaches into philological education [1, p. 34]. These tools provide learners with opportunities to engage with content in diverse and innovative ways, promoting deeper understanding and active participation in the learning process. Furthermore, they allow teachers to adapt lessons to the individual needs of students, making the learning process both efficient and personalized.

The rapid development of digital technologies has transformed the content, methodology, and overall structure of philological education. The integration of digital linguistics into the curriculum allows learners to analyze large corpora of texts, study word frequency, stylistic patterns, and contextual usage, and develop a stronger understanding of both grammar and semantics. As David Crystal notes, digital technologies directly influence language development and generate new forms of linguistic expression [2, 56]. They also save time and enhance the effectiveness of learning. Media education, on the other hand, provides learners with critical skills for analyzing and interpreting information through various platforms such as video lessons, podcasts, blogs, and social media. For example, a student learning English can watch foreign films, listen to interviews, or follow international blogs to simultaneously improve language skills and cultural awareness. According to Lev Vygotsky, learning is deeply connected with social interaction, and media tools expand the social and cultural context for language acquisition [5, 112].

Information technology further personalizes and adapts the learning experience. Online platforms, mobile applications, and digital resources allow students to practice exercises, take tests, and participate in virtual classrooms at their own pace. Interactive programs, such as automated grammar checkers and real-time feedback systems, facilitate independent learning and self-assessment. According to Noam Chomsky, systematic approaches are essential for effective language learning, and digital technologies provide tools to organize these systems

1. Transliteraciya etilmeytuǵın sırttan kirgen sózler.

Eń birinshi gezekte, leksikalıq birliklerdi birlemshi yamasa ekilemshi ózlesiw kózqarasınan kórip shıǵıw múmkin. Sózler uzaq waqıt dawamında ózlesiwdi qabıl etip atırǵan tilde qurılısı boyınsha dúziliw tendenciyasın saqlap qalıwı múmkin. Transliteraciya etilmeytuǵın sırttan kirgen sózler – bular fonetikalıq hám grafikalıq tárepinen tiykarǵı derek tiline tuwrı keletuǵın sırttan kirgen ózlestirme sózler bolıp esaplanadı. Olardı shet tilindegi qosındılardan ajıratıw kerek, olardan paydalanıw qanday da bir xalıq yamasa mámleket turmısın, úrp-ádetleri, ózin tutıwı hám dástúrlerin súwretlew zárúrligi menen baylanıslı. Eger de, bul leksikalıq birlikler toparı qaraqalpaq tilinde grafikalıq jazıwlarǵa iye bolsa, yaki awdarmaǵa mútáj bolmasa, onı shet tili qosındıları menen baylanıstırıp bolmaydı. Bunday jaǵdayda transliteraciya etilmegen sırttan kirgen sózler haqqında aytıwımız kerek. Mısal retinde mına sózlerdi hám shártli qısqartıwlardı alıp qarawımızǵa boladı: CD (inglizshe, compact disk) - kompakt-disk, bye (inglizshe, xosh bol, kóriskenshe), Ltd (inglizshe, limited) – juwapkershiligi sheklengen jámiyet, OK (inglizshe, yaqshı, boladı), VIP (inglizshe, very important person) – júdá áhmiyetli adam, game over (inglizshe) – oyın tamanda boldı.

2. *Prototiplerge qurılısı boyınsha sáykes keletuǵın transliteraciyalanǵan sırttan kirgen sózler.*

Transliteraciya waqtında shet tilindegi sóz, ana tili qaǵıydalarına muwapıq halda aytıladı, biraq grafikalıq assimilyaciyaǵa ushıraydı. Bul sózler toparına sonıń menen birge, qaraqalpaq tilinde fonematikalıq beyimlesiwden ótken sırttan kirgen sózlerdi de aytıw logikalıq jaqtan tuwra keledi (yaǵnıy, olar qaraqalpaq tiline shet tili leksikasınıń kirip keliw ózgeshelikleri menen baylanıslı bolǵan fonemalarda tuwrı kelmewshiliklerge iye). Mısalı, transliteraciya járdeminde tómendegi sózler ózlesken: *bestseller* (inglizshe, «bestseller» kóp tirajda satılatuǵın kitap), *ananas* (nemecshe «ananas» tropikalıq ósimlik hám onıń miywesi), *skrining* (inglizshe «screening» jergilikli xalıqtı medicinalıq kórikten ótkeriw yamasa sheriklerdiń kreditke bolǵan uqıplılıǵın tekseriw), *allegri* (italyansha «allegri» biletti satıp alǵannan keyin birden oyın ótkeriletuǵın lotoreya), *lombard* (francuzsha «Lombard» kredit mákemesi), *prezent* (francuzsha «présent» sawǵa), *sirop* (francuzsha «sirop» koncentraciyalanǵan mazalı eritpe), *novator* (latınsha «novator» progressivli principlerdi orınlawshı adam), *skrinshot* (inglizshe «screenshot» paydalanıwshı monitor ekranında kórip turǵan kórinis), *kruiz* (inglizshe «cruise» jabıq marshrut boylap teńiz sayaxatı), *motel* (inglizshe «motel» avtoturistler ushın miymanxana), *muskat* (francuzsha «muscat» júzim hám desertli vino sortı), *adresat* (nemecshe «Adressat» qabıllawshı, alıwshı), *short-trek* (inglizshe «short track» konkide ushatuǵın sporttıń bir túri) hám taǵı basqalar.

Qaraqalpaq tilinde menshikli atlıqlardıń kópshiligi ózlesiw waqtında transliteraciyalanǵan. Máselen, Vashington (inglizshe «Washington»), London (inglizshe «London»), Missisipi (inglizshe «Missisipy»), Rey Charlz (inglizshe «Ray Charles») hám taǵı basqalar.

3. *Grammatikalıq almastırılıwı arqalı transliteraciya etilgen sırttan kirgen sózler.*

A) Qabıl etiwshi tilge affikslerdiń qosılıwı menen transliteraciya etilgen sırttan kirgen sózler. Bul topardı qurawshı leksikalıq birlikler qabıl qılıwshı tiline sonshelli dárejede beyimlesken, sebebi olar qaraqalpaq tilindegi sóz jasalıw procesinde de qatnasa basladı. Bul qabıl etiwshiniń affikslerin qabıllaǵan yamasa almastırılǵan sózlerdi óz ishine aladı. Mısalı, *tartinka* (francuz tilindegi «tartine» bir zat qosılǵan yamasa jaǵılǵan nan bólekleri), *marinovat etiw* (francuzsha «mariner» bir zattı marinadta tayarlaw), *panirovkilew* (nemecshe «panieren» quwırıwdan aldın suxarikke yamasa unǵa bılǵap alıw) [2,64], *frikadelka* (nemecshe «Frikadelle» farshtan islengen sharik) hám taǵı da basqa sózlerdi atap ótiwimizge boladı.

B) Tiykarǵı affikslerdiń qısqarıwı menen transliteraciya etilgen ózlestirme sózler. Bunday jaǵdayda qaraqalpaq tilindegi leksikalıq birlik ózine tán «qısqarǵan» kóriniske iye boladı. Máselen: *plombir* (francuzsha «plombières») – qaymaq hám máyektiń sarıwzınan tayarlanǵan muzqaymaq; *profi* (nemecshe «Professional») - professional; *tatu* (francuzsha «tatouage») – teri astına boyawlardı jaǵıw arqalı adam denesine sızıw; *parametr* (grekshe «parametron») - formulalarǵa kirgizilgen yamasa procestiń yamasa zattıń qanday da bir qásiyetin táriyplep beretuǵın muǵdar; *infarkt* (latınsha «infarctus») – qan aylanısı buzılǵanlıǵı sebepli toqımalarda nekroz oshaǵı hám taǵı basqalardıń bolıwı.

4. *Shet tillik atama hám qabıl etiwshi tildiń anıqlawshı sóziniń birikpesi.*

Etimologiyalıq kózqarastan qaraytuǵın bolsaq, qaraqalpaq tiliniń sóz anıqlılıǵı eń dáslep qaraqalpaqsha bolmawı da múmkin, biraq ol tilge júdá erte kirgenligi yamasa turmıstıń hár túrli tarawlarında belsendi qollanılǵanı sebepli sóylewshiler tárepinen solay qabıl etiledi. Bunday waqıtta adyektiv (kelbetlik) shet tili túsinigin konkretlestiriw maqsetinde paydalanıladı. Mısal retinde, mına sózlerdi alıp qarawımızǵa boladı: *limonlı karamel* (francuzsha), *lipa shayı* (túrkshe), qárelili, almalı (tiykarǵı quramı qanday jemisten bolıwına qaray) *sous* (francuzsha) gollandlı (qaysı milletten kelip shıǵıwı boyınsha), *ketchup* (inglizshe) jenevalı, rimli dep (úlken shet el qalaları atları menen atalǵan), lionlı, gaskonlı, provansallı (Franciya wálayatları hám qalalarınıń atları menen) de atalǵan. Substantiv shet tilindegi at penen birgelikte anıqlastırıw wazıypasın da orınlawı múmkin: *karaoke* (yaponsha) pristavkası, *ekonom* (grekshe) tarmaq, *chek* (inglizshe) qaǵaz hám taǵı basqalar.

5. *Shet tili túsinigin qaraqalpaqsha ekvivalent kombinaciyası menen almastırıw.*

Shet tili sóziniń qaraqalpaq tiline kiriwiniń dáslepki basqıshında ondaǵı eki varianttıń bar ekenligi bolıp esaplanadı, yaǵnıy sırttan kirgen sózler hám qaraqalpaq tilindegi sóz dizbekleri. Mısalı, *vinegret* (francuzsha) - francuz okroshkası, *pomidor* (italyansha) – jasıl alma, *kartofel* (nemecshe) – jer alması.

Hesh bir til strukturalıq tárepten tolıǵı menen izolyaciyalanıwshı, agglyutinativli yamasa flektivli emesligin haqıyqat sıpatında qabıl qılıwımız kerek. Shet tiliniń leksikası qaraqalpaq tili sistemasına beyimlesip, hár qıylı tarawlarda dinamikanı kórsetip, belgili ózgerislerge ushıraydı. Tiller aralıq strukturalıq sáykes

kelmewshiliklerdi analizlew tildiń rawajlanıwın diaxroniyada kórip shıǵıw imkaniyatın beredi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Насыров Д.С. Улыўма халықлық қарақалпақ сөйлеў тилиниң қәлиплесиўи // Ҳәзирги қарақалпақ тили раўажланыўының айырым мәселелери. – Нөкис: Билим, 1993. – Б. 3-10.

2. Бахтина С.И. Структурно-семантические особенности заимствованной лексики (на примере тематической группы «Пища и напитки»). – Казань, 2008. – С. 64.

TA’LIMDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Abadan Tleumuratova Bekbanovna - Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637326

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy multimedia texnologiyalarining ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati, ayniqsa chet tilini o‘qitish jarayonida qo‘llanish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, an’anaviy va zamonaviy o‘qitish usullarini integratsiyalash zarurati, multimedia texnologiyalaridan samarali foydalanishning afzalliklari va muammolari ko‘rib chiqilgan. Maqolada ta’lim jarayonida multimedia prezentatsiyalari, videomateriallar va interaktiv vositalardan foydalanish orqali o‘qitish samaradorligini oshirish masalalari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: multimedia texnologiyalari, chet tilini o‘qitish, interaktiv ta’lim, ta’lim samaradorligi, innovatsion metodlar, kommunikativ ko‘nikmalar, mustaqil o‘rganish, ta’lim tizimi, vizual materiallar, prezentatsiya

Abstract. this article examines the role and importance of modern multimedia technologies in the education system, particularly the potential for their use in foreign language teaching. It also explores the need to integrate traditional and modern teaching methods, as well as the advantages and challenges of effectively using multimedia technologies. The article explores ways to improve learning effectiveness through the use of multimedia presentations, video materials, and interactive tools in the educational process.

Keywords: multimedia technologies, foreign language teaching, interactive education, learning effectiveness, innovative methods, communication skills, independent learning, education system, visual materials, presentation

Zamonaviy multimedia texnologiyalari katta hajmdagi axborotni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, ular zamonaviy ta’lim tizimi bilan texnologik yangiliklarning uyg‘unlashuvidan iboratdir. Multimedia texnologiyalarining rivojlanishi nafaqat yangi o‘qitish metodlarini shakllantirishga, balki ta’limning umumiy modelini takomillashtirishga ham xizmat qiladi. Ta’lim tizimining jadal rivojlanishi sharoitida multimedia vositalari yordamida ta’lim jarayonini tashkil etishga tobora ko‘proq e’tibor qaratilmoqda. Multimedia texnologiyalari asta-sekin

zamonaviy ta’lim modeliga integratsiyalashib, an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan o‘zining ustunligini ko‘rsatmoqda.

O‘quvchilarning axborotni qabul qilish jarayoniga oid tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, umumiy ma’lumotning 94 foizi o‘quvchilar tomonidan eshitish va ko‘rish analizatorlari orqali o‘zlashtiriladi, shundan 88 foizi ko‘rish orqali, 12 foizi esa eshitish orqali amalga oshadi. Insonning ko‘rish organi eng muhim hisoblanadi, chunki u atrof-muhit haqidagi asosiy ma’lumotlarni taqdim etadi.

Shu sababli, til o‘qitishda multimedia texnologiyalari insonning barcha sezgi organlarini samarali jalb qilish imkonini beradi va ta’lim jarayonida maksimal natijaga erishishni ta’minlaydi. Bundan tashqari, ko‘rish orqali olingan axborot yanada mazmunli bo‘lib, xotirada uzoq vaqt davomida saqlanishini hisobga olgan holda ko‘rgazmali vositalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘lib, ular olingan bilimlarni mustahkamlash, o‘rganilgan materialni tizimlashtirish hamda yorqin va esda qolarli lahzalar orqali o‘quvchilarning xotirasida uzoq muddat saqlanishiga yordam beradi.

Multimedia texnologiyalari an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan bir qator ustunliklarga ega bo‘lib, quyida ushbu afzalliklarning ayrimlari keltiriladi [1, 94.].

1. Qiziqishni rag‘batlantirish. Mashhur olim Albert Eynshteynning so‘zlariga ko‘ra, «Qiziqish – eng yaxshi o‘qituvchi». Shu nuqtai nazardan, o‘quvchining qiziqishi bilim olish jarayonining eng muhim omili sifatida qaraladi. An’anaviy o‘qitish metodida o‘qituvchi qo‘shimcha materiallardan foydalanmasdan, faqat og‘zaki tushuntirish, darslik va sinf doskasi yordamida mavzuni bayon qilish ko‘pincha o‘quvchilarning qiziqishini kamaytiradi. Shu sababli o‘quvchilarning qiziqishi va e’tiborini jalb qilish maqsadida imkon qadar ko‘proq multimedia texnologiyalaridan foydalanishga intiladi. Multimedia ovozlar, tasvirlar va boshqa interaktiv vositalarni o‘z ichiga olib, o‘quvchilarning qiziqishini mustahkamlash bilan birga, ularni chet tilini faol o‘rganishga rag‘batlantiradi. Multimedia asosidagi ta’lim jarayoni nafaqat o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi, balki o‘qitish jarayonini yanada jonli va vizual jihatdan boy qiladi.

2. **O‘quvchilarning o‘z-o‘zini o‘qitish qobiliyatini rivojlantirish.** Sinfdagi ta’limning asosiy maqsadi faqat bilimlarni o‘quvchilarga yetkazish bilan cheklanmay, ularni qanday o‘rganishni o‘rgatishga qaratilgan bo‘lishi lozim, ya’ni passiv ta’limdan faol ta’limga o‘tishni ta’minlash eng muhim vazifadir. Natijada, o‘quvchilar passiv o‘quv muhitidan chiqib, ta’lim jarayonida tashabbus ko‘rsatadi va asta-sekin o‘z-o‘zini o‘qitish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ularga chet tilini mustaqil o‘rganish strategiyalarini egallash, shuningdek, o‘rganishga bo‘lgan motivatsiya va qiziqishni saqlab qolishda yordam beradi.

Multimedia texnologiyalari o‘quvchilarni an’anaviy passiv o‘qitishdan faol va mustaqil o‘rganish holatiga o‘tkazishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilarning ehtiyojiga mos elektron ta’lim dasturlarini tanlab bera oladi, va o‘quvchilar ularni uyda mustaqil ravishda chet tilini o‘rganishda qo‘llaydi. Shu orqali o‘quvchilar qisqa muddat ichida ta’lim natijalarini ko‘ra oladi va multimedia texnologiyalari yordamida o‘z-o‘zini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi yanada oshadi.

3. O‘quvchilarning kompyuter ko‘nikmalarini rivojlantirish. Multimedia asosida o‘qitish o‘quvchilarda innovatsion fikrlash va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Multimedia vositalaridan foydalanish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning tasavvurini kengaytirish va ularni interaktiv faoliyatga jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

4. Kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish. O‘quvchilarda ko‘pincha til muhitining yetishmasligi va tilni amaliy qo‘llash imkoniyatlarining cheklanganligi kuzatiladi. Oddiy darsliklar, lug‘atlar va ensiklopediyalar ko‘pincha tilni to‘liq egallash uchun yetarli bo‘lmaydi, natijada olingan bilimlar amaliyotda qo‘llanilmasdan qoladi. Haqiqiy (autentik) nutq bilan yuzma-yuz kelganda, o‘quvchilar o‘zlarini qiyin vaziyatda his qilishadi. Multimedia asosida o‘qitish orqali o‘qituvchi sinfda haqiqiy nutq muhitini yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu nafaqat o‘qitish va amaliyot o‘rtasidagi farqni kamaytiradi, balki o‘quvchilarga chet tilini muloqot vositasi sifatida qo‘llash imkonini beradi, ya’ni ular tilni amaliy kontekstdagi vaziyatlarda faol ishlata boshlaydilar.

5. Sinf o‘zlashtirish darajasini oshirish. O‘qituvchi taqdim etilayotgan ma’lumot hajmini sezilarli darajada ko‘paytirish, dars jarayonining sur’atini tezlashtirish va odatda doskaga yozish yoki darslikni o‘qishga sarflanadigan vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Multimedia texnologiyalari esa chet tilini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini oshirish va samaradorlikni yuqori darajada ta’minlashga katta imkoniyatlar yaratadi.

6. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, o‘quvchilar taqdim etilgan material asosida bilimlarni mustaqil ravishda egallash imkoniga ega bo‘ladi.

Zamonaviy ta’lim tizimi asosan reproduktiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular axborotni eslab qolish va qayta ishlash qobiliyatiga tayangan. Shu bilan birga, yangi texnologiyalarning noyob imkoniyatlari yuqori darajadagi ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Bu jarayonda refleksiya qilish, solishtirish, sintez va tahlil qilish, bog‘liqliklarni aniqlash, murakkab masalalarni yechish yo‘llarini topish hamda guruhda samarali hamkorlik qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Ushbu yondashuv ta’limning turli fan sohalari va disiplinlaridagi sifatni oshiradi, bunda multimedia texnologiyalari eng samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi [2, 55.].

Shu bilan birga, maktablarda multimedia asosidagi ta’limning eng katta muammosi uning metodologik jihatdan bir-biridan ajralganligidir. Har bir maktab multimedia yaratish va qo‘llash bo‘yicha o‘ziga xos yondashuvlarga ega, lekin barchaga mos yagona standart yo‘q. Bundan tashqari, ta’lim texnologiyalarini umumiy axborot bazalari va o‘quv portallariga integratsiya qiladigan yagona tarmoq tizimi ham mavjud emas. Multimediyani ta’lim jarayonida samarali qo‘llashni oshirish uchun bir qator yechimlar taklif etilgan [3, 22.].

Zamonaviy va an’anaviy o‘qitish usullarini integratsiyalash. Shubhasiz, zamonaviy ta’lim usullari bir qator ustunliklarga ega, biroq an’anaviy metodlarning ham o‘ziga xos afzalliklari mavjudligini hisobga olish zarur.

Multimedia texnologiyalarini qo‘shimcha o‘quv vositasi sifatida qo‘llash. O‘qituvchi dars jarayonida kompyuterdan foydalanganda, uning faqat yordamchi vosita ekanligini tushunishi va boshqa o‘qitish usullarini to‘liq almashtira olmasligini hisobga olishi lozim. Shuningdek, o‘qituvchi multimedia vositalarini qachon va qanday samarali ishlatishni aniq bilishi zarur. Multimedia ta’lim jarayonida zarur vosita bo‘lishiga qaramay, uning ishlatilishi har doim o‘qitish samaradorligini oshirishni anglatmaydi.

Chet tili darsida multimedia texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. Multimedia prezentatsiyalaridan chet tilini o‘rgatish jarayonining barcha bosqichlarida samarali foydalanish mumkin. Interaktiv xususiyatlarga ega bo‘lgan prezentatsiyalar o‘quv materialini moslashtirish va ta’lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. Ekrandagi yorqin va rang-barang vizual tasvirlar o‘quvchilarda qiziqish va faollikni uyg‘otadi, bu esa an’anaviy qog‘oz darsliklarida mavjud emas.

Shuningdek, prezentatsiyalar ko‘rgazmalilik masalasini hal qiladi: ilgari o‘qituvchi ko‘rgazmali materialni topish uchun qo‘shimcha izlanishlar qilishi kerak bo‘lgan bo‘lsa, endilikda zarur predmetni ekranda ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Prezentatsiyalarni cheklanmagan miqdorda ishlatish mumkin va ularni o‘quvchilar ham javob berish, masalan, uy vazifasi yoki loyiha taqdimotida qo‘llashlari mumkin. [4, 222-225.].

Dars jarayonida o‘qituvchi autentik badiiy va ta’limiy filmlardan foydalanishi mumkin. Material o‘quvchilarning bilim darajasiga mos ravishda tanlanadi, videoga topshiriqlar ishlab chiqilishi va ularni dars jarayonida samarali qo‘llash imkoniyati mavjud. Video-filmlarni tomosha qilish chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani oshiradi, o‘quvchilarga “jonli” autentik nutqni tinglash imkonini beradi va video qahramonlari talaffuz qilgan so‘zlarni takrorlash orqali talaffuzni imitasiya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fleta B. M., Sabater C. P., Salom L. G., Guillot C. P., Monreal C. S. & Turney E. Evaluating multimedia programs for language learning: A case study. England. – Cambridge.: «Cambridge University Press». 2000. – 463 p.

2. Киселев Г.М. Информационные технологии в педагогическом образовании: Учебник для бакалавров. – Москва: Изд-во «Дашков и К», 2014. – 304 с.

3. Федотова Е.Л Информационные технологии в науке и образовании: Учебное пособие. – Москва: Изд-во «Форум», 2018. – 256 с.

4. Штурба Я.Ю. Преподавание иностранного языка посредством новых информационных технологий // Филологические науки. – 2012. – № 7 (18). – С. 222-225.

QARAQALPAQ TILINDE TARIYX ILIMINE BAYLANISLI TERMINLERDIŃ QOLLANILIW ÓRISI

Tursınbaev Amangeldi Omirzak ulı - University of Innovation Technologies assistent oqıtıwshısı

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637305

Annotaciya: Bul teziste qaraqalpaq tilindegi tariyx ilimine baylanıslı terminlerdiń qáliplesiwi hám qollanılıw órisi qarastırıladı. Terminlerdiń sóz jasaw usılları arqalı payda bolıwı, basqa tillerden ózlestiriliwi hám terminologiyanıń rawajlanıw basqıshları analizetiledi. Sonday-aq tariyx terminleriniń etimologiyası hám leksikografiyalıq izertlewlerdiń áhmiyeti kórsetiledi.

Gilt sózler: terminologiya, tariyxıy terminler, sóz jasaw, etimologiya, ózlestirme, leksikografiya.

Abstract. This thesis examines the usage of historical terminology in the Karakalpak language. It analyzes the formation of terms, borrowing processes from other languages, and the stages of development of the terminological system. Special attention is given to the etymology of historical terms and the importance of lexicographic studies.

Keywords: terminology, historical terms, word formation, etymology, borrowing, lexicography.

Qaraqalpaq tilinde tariyx ilimine baylanıslı terminlerdi úyreniw terminologiya iliminiń áhmiyetli baǵıtlarınıń biri bolıp esaplanadı. Terminlerdi dúziw hám olardı jetilistiriw ilim-pánniń rawajlanıwı menen tıǵız baylanıslı. Sonlıqtan terminologiyanı izertlew tek lingvistler ushın emes, al barlıq ilim tarawı wákilleri ushın da zárúrli másele bolıp tabıladı. Bul haqqında D.S. Lotte terminologiya máselelerinde injenerler hám tilshilerdiń birgelikte is alıp barıwı kerek ekenligin atap ótedi [1].

Qaraqalpaq tilinde tariyxıy terminlerdi jıynap, sistemalastırıwǵa arnalǵan eń áhmiyetli leksikografiyalıq miynetlerdiń biri – 1996-jılı baspadan shıqqan **“Tariyxıy terminlerdiń hám atamalardıń qaraqalpaqsha túsindirme sózligi”** bolıp, onda 1184 termin túsindiriledi [6]. Bul sózlik tariyx terminologiyasınıń qáliplesiwine úlken úles qosadı.

Hárqanday tildiń sózlik quramı sóz jasaw usılları arqalı bayıp baradı. Qaraqalpaq tilinde tariyx terminleri de sóz jasawshı qosımtalar arqalı, sóz qosılısıw usılı arqalı hám basqa tillerden ózlestiriw nátiyjesinde qáliplesedi. Til iliminde sóz jasaw usılları ishki hám sırtqı faktorlarǵa baylanıslı bolıp qaraladı. Ishki faktorlarǵa morfologiyalıq hám sintaktikalıq usıllar kirse, sırtqı faktorlarǵa basqa tillerden kirgen sózler jatadı.

Tilshi M.Xojanov qaraqalpaq tilindegi qus atamalarınıń jasalıwın úyrenip, olardı analitikalıq hám sintetikalıq usıllarǵa ajıratadı [5]. Bul klassifikaciya terminologiyalıq qatlamdı úyreniwde de áhmiyetke iye, sebebi terminler de bir túbirden jasalıwı yaki birneshe komponentten qurılıwı múmkin.

Qaraqalpaq tiliniń sózlik quramında arab hám parsı-tájik tillerinen ózlestirilgen sózler de úlken orın tutadı. Orta Aziya xalıqları kóp ásirler dawamında arab, parsı, mongol hám basqa xalıqlar menen siyasıy hám mádeniy qatnasta bolǵanı sebepli bul tillerdiń leksikalıq tásiri kúshli bolǵan. Sol sebepli qaraqalpaq tilinde **tariyx, sárkarda, urıw, mińbası** sıyaqlı tariyxıy terminler arab hám parsı tillerinen kirgen [6].

Arablar VIII ásirde Orta Aziyanı jawlap alǵannan keyin islam dini taralıp, arab tili mámleketlik hújjetler tili retinde qollanılǵan. Bul jaǵday arab tiliniń region xalıqları tiline tásirin kúsheytken [2].

Qaraqalpaq tiline rus hám rus tili arqalı kirgen terminler de bar. N.A. Baskakovtıń pikirinshe, rus leksikasınıń qaraqalpaq tiline kirip keliwi Xiywa xanlıǵınıń Rossiyaǵa baǵındırılıw dáwirinen baslanadı [3]. Bunda knyaz, koaliciya, burjuaziya, krepostnoylıq, matriarxat, numizmatika sıyaqlı terminlerdi atap ótiw múmkin.

Terminologiya máseleleri haqqında Q.Ayımbetov ta pikir bildirip, internacionallıq terminlerdi tilge óz formasında qabıl etip, keyin qaraqalpaq tiliniń grammatikalıq qosımtaları menen qollanıwdı usınıs etken [4].

Qaraqalpaq tilinde jámiyetlik-siyasiy leksikanıń qáliplesiwi hám rawajlanıwı belgili basqıshlar arqalı ámelge asqan. D.S. Nasırov bul rawajlanıwdı úsh dáwirge bólip qaraydı: 1917–1940, 1940–1960 hám 1960-jıldan keying dáwir [4]. Bul basqıshlar qaraqalpaq tilinde terminologiyalıq sistemanıń qáliplesiwine tikeley baylanıslı.

Juwmaqlap aytqanda, qaraqalpaq tilinde tariyx terminologiyası áli de tolıq izertlenbegen actual ilimiy máselelerden biri bolıp tabıladı. Tariyx terminleriniń jasalıw usılların, etimologiyalıq negizlerin hám qollanılıw órisin tereń úyreniw qaraqalpaq terminologiyasınıń rawajlanıwına úlken úles qosadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. **Лотте Д.С.**Основы построения научно-технической терминологии. Москва,1961.
2. **Шанский Н.М.** Этимология русского языка. – Москва, 1975.
3. **Баскаков Н.А.**Каракалпакский язык. – Москва, 1952.
4. **Nasırov D.S.**Qaraqalpaq til biliminiń tariyxı. – Nókis, 1980.
5. **Xojanov M.** Qaraqalpaq tilindegi qus atamalarınıń jasalıwı haqqında izertlewler. – Nókis, 1990.
6. **“Tariyxıy terminlerdiń hám atamalardıń qaraqalpaqsha túsindirme sózligi”.** – Nókis, 1996.

INGLIS HÁM QARAQALPAQ BARLÍQ ERTEK KÓRINISINDE “ADAM”NÍŃ KONCEPTUAL GEWDELENIW ÓZGESHELIKLERI

Usenova Venera Jengisbaevna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti Filologiya kafedrası docenti w.w.a., PhD

Banu Berdimambetova - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti, 1-kurs studenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637281

Annotaciya: Bul maqala ingliz hám qaraqalpaq erteklerinde “adam” konseptiniń verbalizaciyası, onıń metaforalıq hám simvolikalıq kórinislerin salıstırmalı túrde izertleniwine arnalǵan bolıp, bunda lingvistikalıq hám lingvomádeniy analiz ertek diskursında adam konseptiniń tereń semantikalıq qatlamların ashıwǵa múmkinshilik beredi.

Tayanısh sózler: ertek, konsept, metafora, mifologiya, stilistika, obraz, salıstırıw, lingvistika, lingvomádeniyattanıw

Abstract. This article is intended for a comparative study of the verbalization of the concept of "human" in English and Karakalpak fairy tales, its metaphorical and symbolic manifestations, where linguistic and linguocultural analysis allows us to reveal the deep semantic layers of the concept of "human" in fairy tale discourse.

Keywords: fairy tale, concept, metaphor, mythology, stylistics, image, comparison, linguistics, linguoculturology

Til hám tariyx adam ómirinde insan sezimlerine, kewildiń eń tereń túplerine tásir etedi, tawsılmas ilhám deregi bolıp qaladı. Ol tek ǵana gúrriń yáki sáwbet tematikası emes, al bálkim simvolǵa da aylanadı, mádeniy gúrrińlerde túrli mifologiyalıq táriyplerdi bastan ótkeredi. Ertek tekstlerinde “adam” obrazi tek ǵana qaharman retinde emes, bálkim tereń mifologiyalıq hám lingvomádeniy koncept retinde de kórinedi. Bul maqalada inglis hám qaraqalpaq erteklerinde stilistikalıq troplar arqalı súwretlengen “adam” mifologiyalıq konceptiniń verbalizaciyasına itibar qaratamız.

“Dástúriy túrde, metafora degende obyektler, hádiyseler hám basqa da zatlardıń belgili bir klasın bildiriwshi sózden basqa klasqa kiretuǵın obyektti yamasa onıń atı menen sıpatlaw yamasa ataw ushın paydalanıwdan qarama-qarsı múnásibette berilgenine uqsas obyektlerden ibarat bolǵan trop yamasa sóylew mexanizmi túsiniledi”

Ertek teksttiń bir forması retinde tek ǵana mádeniy qádiriyatlardı sáwlelendirip qoymastan, haqıyqatlıq hám mifologiyalıq ańda sáwlelendiriw ortasında kópir wazıypasın da atqaradı. Ertekler tili tereń simvolikalıq mániske iye “adam” obrazların jaratılıwına múmkinshilik jaratıwshı kórkem quralǵa aylanadı. Inglis hám qaraqalpaq tillerindegi ertek tekstleriniń lingvistikalıq qásiyetlerin esapqa alǵan halda, tek ǵana tildiń gózzallıǵın ashıwǵa emes, bálkim tilge tiyisli birliktiń bay mifologiyalıq konnotaciyasına iye “adam” obrazlarınıń ózgeshelikleri táriyiplenedi. Bul analiz erteklerdiń tiliniń insaniyattı mifologiyalıq kontekstte túsiniwge tásiri haqqında ayrıqsha kózqarastı beredi.

Ádebiyatlar talqısı ertekler sózliginde stilistikalıq troplar ingliz erteklerindegi “adam” mifologiyalıq konceptiniń til birlikler járdeminde ańlatılıwı ushın stilistikalıq troplardan paydalanıwdı usınıs etedi. Bunday izertlewler ertek sózliginiń názik tárepleri jáne onıń personajlar oy-órisine tásirine járdem beriwi óz aldına atap ótiledi.

Mifologiyalıq koncept birliklerin gewdelendiretuǵın tiykarǵı quralı retinde ertek tiliniń dúzilisi tiykarǵı itibardaǵı kózqaras bolıp tabıladı. Bunda itibar ertektiń strukturalıq elementlerine hám olardıń “adam” konceptiniń simvolınıń tásirine qaratıladı yaǵnıy lingvistikalıq analiz, mádeniyattanıw hám kórkem ádebiyatqa baylanıslı birlestirgen pánleraralıq izertlew usıllarınan paydalanıw maqsetke muwapıq bolıp tabıladı. Sol tiykarda bir neshe metodologiyalıq ádislerdi kórip shıǵamız:

Lingvistikalıq analiz járdeminde barlıq ertek kórinisin qáliplestiriwshi til birlikleriniń semantikalıq analizi hám olardıń mifologiyalıq koncept penen

baylanısı itibarǵa alınadı. Atap aytqanda, ertektiń tiykarǵı ayrıqshalıqların gewdelendiriwshi, jáne onı qáliplestiretuǵın mifologiyalıq obrazlardıń strukturalıq analizi de ámelge asırıladı.

Teksttiń strukturalıq analizi: mifologiya aspektiniń teksttiń qáliplesiwindegi ańlatılıwı izertlenedi hám ertek strukturasınıń analizinde tiykarǵı itibar ertektegi til birliklerine fokus etiledi;

Stilistikalıq analiz: stilistikalıq troplardıń izertleniwi (metafora, uqsatıw hám allegoriya) hám olardıń mifologiyalıq gewdeleniwine tásiri úyreniledi. Qosımsha mifologiyalıq mánistiń tekstte ańlatılıwında stilistikalıq sáwleleniwiniń ertek tiline tásiri de hár tárepleme úyreniledi.

Eń ápiwayı túsindirmede metafora hám metaforalıq mánis bolıp esaplanadı. Bul qanday da uqsaslıq tiykarında ayrıqshalıqlar, belgiler, sapalar, háreketlerdi bir obyektten ekinshisine kóshiriw: *golden hair/altın shashlar, wind sounds/samal dawısı, losing head/bas joǵaltıw, life cup/ómir kesası*.

Uqsaslıq tómendegi belgiler boyınsha jaratılǵan:

forması boyınsha: *qabaq bas, ǵarǵa sózi;*

ózgeshelikleri boyınsha: *brilliant voice/sıńǵırlaǵan dawıs, hard life/qıyın xarakter, blue eyes/sarǵısh kózler – awıspalı mánide, epitet*;

háreketleniwi boyınsha: *snow flopping/qar jawıw, time flowing/waqıt ushadı, wind cries/samal ızıldaydı - simvollastırıw, obyektivlestiriw;*

tásiri boyınsha: *fox/túlki - hayyar adam haqqında; ǵáziyne - mehribanlıq, jaqsı adam, aqıllılıǵı haqqında, treasure – satqınlıq, hiyle, aqıl haqqında;*

allegoriya hám simvollar arqalı súwretleniwi boyınsha: *— Patshahım, endi sizde kemislik joq, endigi bir kemislik seniń usınday dáwletińdi sol baǵıńnıń ishinde altın baslı aydarha bolıwı kerek* (Qaraqalpaq folklorı *“Xansayat”: 316).*

“Rapunzel” erteginiń syujetine bola uzın altın, sıyqırlı shashlı qaharman toǵayda jalǵız jasaydı hám jalmawız kempir tárepinen tárbiyalanadı. Qaharmannıń atınıń ózi metafora bolıp esaplanadı. “Rapunzel” - bul palız ónimi bolıp, “piyaz yamasa chesnok”tıń bir túri.

Metafora insan dúnyanı kóretuǵın prizma, sebebi ol til iskerliginiń barlıq tarawlarında, sonıń menen birge, mifologiya hám arxetiplerde milliy ayrıqsha tárizde kórinedi. Metafora mádeniyat hám tilde global áhmiyetke iye bolıp, tek ǵana diskurstıń bezewleri, bálkim stilistikalıq elementi de bolıp tabıladı. Bul dúnyanıń ayrıqsha oyda sáwlelendiriliwi bolıp tabıladı. Metaforanıń mazmun mánisi, sonıń menen birge, oǵan baylanısqan mádeniy konnotaciyalardıń ózi izertlew deregine aylanadı.

Mısalı, bul mazmundaǵı ózgeshelik qaraqalpaq mádeniyatında *terek* arqalı gewdelenedi. Yaǵnıy, terek - shejire terek, áwlad prototipi. Britaniya folklorındaǵı terektiń simvollastırılıwı, ulıwma Indoevropa túbirlerine iye hám Rim-Keltler dáwirinde erte dáwirlerden islep shıǵılǵan. Shaqaları aspanǵa kóterilgen, túbiri bolsa jerge tereń kirip baratuǵın terek dúnyalar ortasındaǵı dáldalshi retinde tán alınǵan. Onıń ústinde jasawshı qus bolsa dúnyalar arasında ańsat ǵana háreketlenetuǵın haywanlar bolıp esaplanadı. Terek uzaq, saw hám máńgi turmıstıń simvolı bolıp tabıladı [4; 141].

Terekler mudamı gúrrińler orayında bolmasa da, olar geyde insaniy pazıyletler yamasa tájiriybelerdiń táreplerin jetkeriw ushın metafora retinde qollanıladı. Mısalı: “The Giving Tree” Shel Silvershteyn tárepinen jazılǵan ertekte gúrriń ul perzent hám terek ortasındaǵı múnásibetler átirapında aylanadı. Terek pútkil ómiri dawamında balaǵa jan-táni menen ǵamxorlıq etedi, saqıylıq, belsendilik hám muhabbattıń bekkem tábiyatın ańlatadı. Atap aytqanda, “Sleepy Beauty” erteginiń ayırım versiyalarında terek túbine qoyılǵan sıyqırlı tiken yamasa iyne “Uyıqlap qalǵan gózzal”dı tereń uyqıǵa alıp keletuǵın ǵarǵıstıń ámelge asıwına alıp keledi. Terek hám ǵarǵıstıń, hám oyanıwdıń simvolına aylanadı. Terekler mudamı da insanıy ayrıqshalıqlardı ańlatıwshı retinde anıq táriyplenbegen bolsa da, olar kóbinese erteklerde túrli temalar, atap aytqanda, turmıs, ólim, ózgeris hám ámelde barlıqtıń ciklın ańlatıwshı tábiyattıń simvolı retinde kirgiziledi. Bul mısallar tereklerdiń inglis ertekleri kontekstinde qanday metaforalıq mániske iye bolǵanın hám onıń mifologiyalıq koncept birligi sıpatında gewdeleniwin kórsetedi.

Ertek insan kewiliniń úlken maydanı bolıp, ol jaǵdayda ańsızlıq húkimranlıq etedi. Psixologlardıń atap ótiwinshe, balalıqtan jaqsı kórgen ertek, insan ushın turmıs scenariyindegi roldi ózinde sınap kóriw ushın qolaylı qural bolıp, onnan qádiriyatlar, kompleksler hám mashqalalardı ańsat ǵana shamalaw múmkin hám derlik inglis erteklerińiń kópshilik bóleginde tiykarǵı háreketler “hayal” obrazı átirapında rawajlanadı (“Rapunzel”, “Qızıl qalpaqsha”), degen menen qaraqalpaq erteklerinde de “hayal” obrazı ushrasqanı menen tiykarǵı qaharman “er adam” bolıp óziniń maqset-muradına jetiwge hayal járdem beredi, yamasa muhabbatına erisiw ushın ertektegi háreketlerdiń hámmesi bir maqsetke qaratıladı.

Erteklerdiń ájayıp toplawshısı Vilgelm Grimm bir waqıtları bılay dep jazǵan edi: “Barlıq erteklerge tán bolǵan zat áyyemgi zamanlardan berli bar bolǵan isenim qaldıqları bolıp, olar oǵada áhmiyetli zatlardı metaforalıq túsinik arqalı ańlatqan. Bul tań qalǵanday isenim mayda-shúyde tas bóleklerine uqsaydı, olar ot-shóp hám gúller ósińki jerge shashılıp jatqan hám tek ótkir kóz benen ańlawǵa bolatuǵın túsinikler. Onıń mánisi uzaq waqıttan berli joǵalǵan, lekin ol ele da sol mánisin saqlap qalǵan hám ertekti usı mazmun menen tolıqtıradı, usınıń menen birge káramatlarǵa bolǵan tábiyiy qálewin qanaatlandıradı.” [3; 214].

Ekinshi, subtekst, metafora tegisligi mudamı mánistiń jaqtılanıwı bolıp, ertek qaharmanları, sıyqırlı atributlar, tábiyat hádiyseleri, reńler, elementler, sanlar, máwsimler, haywanlar hám ósimliklerdiń simvolikasın tereń hám emocional táriyiplewge ilhámlanadı:

Cinderella is a shining star in a sea of darkness (Zolushka jarıq juldız benen salıstırıladı, onıń jarqınlıǵı hám ayrıqsha ózgesheligi belgilenedi);

The wicked stepmother’s heart was an icy fortress (Ógey ananıń júregi muz qalasına salıstırıladı, onıń suwıq hám sezimsiz tábiyatın bildiredi);

The prince’s laughter was music to her ears (Shahzadanıń kúlkisi onıń qulaǵına nama sıpatında esitiledi);

The old woman’s wisdom was a beacon in the storm of confusion (Hayaldıń danalıǵı túsiniksizliklerge jol-joba hám anıqlıqtı ańlatıwshı mayak (jaqtı nur) penen salıstırıladı).

Bul metaforalar janlı súwretlerdi jaratıw, atap aytqanda personajlar hám olardıń pazıyletlerine tereń máni beriw arqalı bayanlanadı. Bunday kompleks kognitiv-diskursiv ádis ertek sózliginiń lingvistikalıq qásiyetleri hám mifologiyalıq konceptiniń ortasındağı múnásibetti tereń úyreniwge, sonıń menen birge, bul elementlerdiń hár túrli mádeniy sharayatlarda óz ara tásirin túsiniwge járdem beredi.

Juwmaqlap aytqanda, lingvistikalıq analiz mifologiyalıq obrazlardıń tereń túbirlerin ashıp beretuǵın semantikalıq sırdı ashıp beriwge múmkinshilik jaratadı. Ertek tekstleriniń strukturalıq analizi ertek tili qalay etip mifologiyalıq dúnya illyuziyasın qáliplestiriwin ashıp berdi, bul bizge denotativ hám konnotativ mánisti qayta kórip shıǵıwǵa múmkinshilik bergen bolsa, stilistikalıq analiz til toqımalarına toqılǵan hám bizdi mifologiyalıq saxnalarǵa sırlı túrde alıp baratuǵın kóplegen troplardı ashıp berdi. Pánleraralıq qatnas jasawǵa ertek sózligi qalay etip mifologiya hám mádeniyat ortasındağı baylanısqa aylanıp, kem ushırasatuǵın lingvistikalıq kórinisin jaratılıwın túsiniwge múmkinshilik berdi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (2004). *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press.
2. Propp, V. (1968). *Morphology of the Folktale*. University of Texas Press.
3. “Grimms’ fairy tales”, Grimm Jacob, Grimm Wilhelm. New York, The Macmillan company; London, Macmillan & co., ltd., 1904.
4. Heinz S. Celtic Symbols. New York, 2008.-304 p.
5. Qaraqalpaq folkloru. Kóp tomlıq/67-76 tomlar. Nókis. “Ilim” 2014

MEDIA TA’LIM ASOSIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH TEXNOLOGIYASI

Uzakova Kansuliu Yerejepbaevna - Innovatsion texnologiyalar universiteti, “Filologiya” kafedrasi dotsenti v.v.b.

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637204

Annotatsiya. Mazkur maqolada media ta’limga asoslangan raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini o'qitishning zamonaviy yondashuvini oʻrganilgan. Maqola media savodxonligi va raqamli savodxonlik elementlarini ingliz tili oʻqitish jarayoniga integratsiya qilish orqali oʻquvchilarning tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetentsiya, raqamli koʻnikmalar va motivatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan.

Abstract. This article explores a contemporary approach to English language teaching grounded in media education and supported by digital technologies. It examines the integration of media literacy and digital literacy components into the English language learning process, with the primary aim of fostering learners’ critical thinking, communicative competence, digital skills, and motivation.

Kalit so'zlar. Media ta’lim, raqamli savodxonlik, critical thinking, digital technologies, kontent yaratish (content creation), UNESCO AIM dasturi, autentik materiallar (authentic materials), Flipgrid, Anchor, COCA.

Keywords. Media education, digital literacy, critical thinking, digital technologies, content creation, UNESCO AIM programme, authentic materials, Flipgrid, Anchor, COCA.

Media ta’limga asoslangan raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini oʻqitish zamonaviy ta’lim yoʻnalishlaridan biri boʻlib, media savodxonligi (media literacy) va raqamli savodxonlik (digital literacy) elementlarini ingliz tili oʻqitish jarayoniga integratsiya qilishni oʻz ichiga oladi. Bu yerda media ta’lim faqat media vositalaridan foydalanish bilan cheklanmaydi, balki talabalarga media matnlarni (video, podkastlar, ijtimoiy tarmoqlar postlari, reklama, yangiliklar materiallari) tanqidiy tahlil qilish, ularni yaratish va shu orqali ingliz tilini samarali rivojlantirish koʻnikmalarini shakllantirishni oʻrgatishdir [1].

Asosiy maqsadlar va afzalliklari

Ushbu yondashuv quyidagi asosiy maqsadlarga xizmat qiladi:

- Tanqidiy fikrlash (critical thinking) qobiliyatini rivojlantirish: oʻquvchilar feyk yangiliklarni ajratib olish, media manbalarning ishonchliligini baholash hamda mediada aks ettirilgan ijtimoiy muammolarni (gender stereotiplari, madaniy xurujlar, cultural bias) ingliz tilida muhokama qilishni oʻrganadilar.
- Kommunikativ kompetentsiyani oshirish: real media kontent (TED Talks, YouTube videolari, podkastlar, yangiliklar kliplari) bilan ishlash orqali speaking va listening koʻnikmalarini mustahkamlash [2].
- Raqamli koʻnikmalarni shakllantirish: kontent yaratish (short video essay, podkast epizodlari, blog materiallari) orqali tilni amaliy qoʻllash va raqamli muhitda ishlash qobiliyatini rivojlantirish.
- Oʻquvchilar motivatsiyasini sezilarli darajada oshirish: ularning kundalik smartfon va internetdagi faoliyatlari ta’lim jarayoni bilan uyg’unlashtirilishi natijasida o'qishga qiziqish ortadi.[3]

Ushbu afzalliklar oʻquv jarayonini faqat til oʻrganishdan tashqari, zamonaviy raqamli jamiyatda faol va tanqidiy fuqaro boʻlishga tayyorlashga xizmat qiladi.

Asosiy raqamli texnologiyalar va ularning ingliz tili darslarida qoʻllanishi

- video va audio platformalar (YouTube, TED, Spotify, Anchor): autentik materiallar bilan ishlash, tanqidiy tahlil va video response yaratish.[3]
- Interaktiv platformalar (Flipgrid, Padlet, Mentimeter): video javoblar, muhokama va collaborative content creation.
- Podkast yaratish vositalari (Audacity, GarageBand, Anchor): oʻquvchilar oʻz podkastlarini suratga olib, speaking fluency ni oshirish.
- Onlayn korpuslar va lug'atlar (COCA – Corpus of Contemporary American English, British National Corpus, Cambridge Dictionary, Oxford Learner's Dictionaries): media matnlardagi leksikani tahlil qilish va kontekstda oʻrganish.
- Ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Twitter/X, TikTok): qisqa video/post yaratish orqali authentic communication ni rivojlantirish [5,6].
- AI asosidagi vositalar (ShatGPT, Grammarly, speech-to-text): kontent yaratish va tahrirlashda yordamchi sifatida foydalanish.

Oʻzbekiston kontekstida amaliyot

Ushbu texnologiya siz oʻqitayotgan fanlar bilan yuqori darajada uyg'unlashadi:

- “Chet tilini o'qitish uslub va tamoyillari”: media ta'lim elementlarini kiritish orqali raqamli texnologiyalar asosida ingliz tilini o'qitishning zamonaviy metodlarini o'rgatish (masalan, Flipgrid orqali video responselar yaratish, media ta’lim modellarini tahlil qilish).
- “Oʻg'zaki nutq amaliyoti”: podkast va video monologlar yaratish, ijtimoiy media platformalari orqali speaking practice ni tashkil etish.
- “Leksikografiya” : onlayn korpuslar (COCA, BNC) va media matnlarda yangi leksikani tahlil qilish, media kontekstida lug’atshunoslik ko'nikmalarini rivojlantirish.

Oʻzbekistonda media va axborot savodxonligi yo'nalishi tez sur’atlar bilan rivojlanmoqda. UNESCO ning AIM (Access to Information, Accountability of Institutions, and Media Competence) dasturi doirasida 2025 yilda o'tkazilgan ko'p tomonlama seminarlar, milliy strategiyalar va loyihalar (masalan, MIL hub lar yaratish, o'qituvchilar malakasini oshirish) bu sohada muhim qadamlar boʻldi.[12] Shuningdek, universitetlar va ta’lim muassasalarida raqamli ta’lim strategiyasi doirasida media savodxonligi elementlari integratsiya qilinmoqda.

Dars jarayonida joriy etish uchun tavsiya etiladigan bosqichlar

1. Kirish bosqichi — media ta’limning asosiy tushunchalarini oʻrgatish: media matnning kim tomonidan yaratilgani (who created?), maqsadi (why?), kim uchun (for whom?) va qanday usullar qo'llanilgani (what techniques?).

2. Tahlil bosqichi — real media materiallarini (ingliz tilidagi yangiliklar, reklama, ijtimoiy tarmoq postlari) ko'rib chiqish va tanqidiy muhokama qilish.

3. Yaratish bosqichi — o'quvchilar tomonidan o'z media kontentlarini yaratish (short video essay, podcast episode, blog post).

4. Baholash bosqichi — rubric ga asoslangan baholash: tanqidiy tahlil sifati, ingliz tili darajasi (grammar, vocabulary, fluency), media elementlarining samarali qo'llanilishi [7].

Media ta’limga asoslangan raqamli texnologiyalar yordamida ingliz tilini oʻqitish zamonaviy ta’limning eng samarali va istiqbolli yoʻnalishlaridan biridir. Ushbu texnologiya media savodxonligi (media literacy) va raqamli savodxonlik (digital literacy) elementlarini ingliz tili oʻqitish jarayoniga integratsiya qilish orqali faqat til koʻnikmalarini (speaking, listening, vocabulary, grammar) rivojlantirib qolmay, balki oʻquvchilarning tanqidiy fikrlash, autentik kommunikatsiya va kontent yaratish qobiliyatlarini ham shakllantiradi.

Asosiy afzalliklari quyidagilarda namoyon boʻladi:

•Real media materiallari (TED Talks, YouTube, podkastlar, ijtimoiy tarmoqlar) bilan ishlash orqali kommunikativ kompetentsiyaning tabiiy va motivatsion oshishi;

•Feyk yangiliklarni ajratish, manbalar ishonchliligini baholash va ijtimoiy muammolarni (gender stereotiplari, cultural bias) ingliz tilida muhokama qilish orqali tanqidiy fikrlashning rivojlanishi;

•Oʻquvchilar tomonidan oʻz media kontentlarini (short video essay, podcast, blog postlari) yaratish orqali raqamli koʻnikmalar va amaliy til qoʻllashning mustahkamlanishi;

•Kundalik raqamli faoliyat (smartfon, internet) ni ta’lim bilan uyg’unlashtirish orqali motivatsiyaning sezilarli darajada oshishi.

Oʻzbekiston kontekstida bu yondashuv alohida ahamiyatga ega: UNESCO ning AIM (Access to Information, Accountability of Institutions, and Media Competence) dasturi doirasida 2025 yilda o'tkazilgan koʻp tomonlama seminarlar, milliy MIL strategiyasini ishlab chiqish, oʻqituvchilar malakasini oshirish va MIL clublar yaratish kabi tashabbuslar media va axborot savodxonligini rivojlantirishda muhim qadamlar bo'ldi. Oliy ta’lim muassasalari misolida ushbu texnologiya “Chet tilini oʻqitish uslub va tamoyillari”, “Oʻg'zaki nutq amaliyoti” va “Leksikografiya” fanlari bilan yuqori darajada uyg’unlashadi — Flipgrid, Anchor, COCA kabi vositalar orqali video response, podkast va onlayn korpus tahlili amaliyotlarini joriy etish mumkin [8].

Dars jarayonining tavsiya etilgan bosqichlari (kirish → tahlil → yaratish → baholash) tizimli va samarali joriy etilishi bilan o'quvchilarni global raqamli jamiyatda faol, tanqidiy va mas'uliyatli ishtirokchi sifatida tayyorlaydi.

Umuman olganda, ushbu texnologiya ingliz tili oʻqitishni zamonaviy raqamli muhitga moslashtirib, oʻquvchilarni faqat til oʻrganuvchi emas, balki media va axborot jarayonlarining faol ishtirokchisiga aylantirish orqali ta’lim sifatini yangi bosqichga koʻtaradi. Oʻzbekistonning raqamli ta’lim strategiyasi va UNESCO bilan hamkorligi doirasida bu yoʻnalish yanada kengayib, milliy ta’lim tizimining uzviy qismiga aylanishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Share, J., & Mamikonyan, T. (2020). Preparing English teachers with critical media literacy for the digital age. *Contemporary Issues in Technology and Teacher Education, 20*(1). https://citejournal.org/volume-20/issue-1-20/english-language-arts/preparing-english-teachers-with-critical-media-literacy-for-the-digital-age

2. UNESCO. (2025). Building an informed society: UNESCO’s media program in Uzbekistan shows tangible progress. UNESCO. https://www.unesco.org/en/articles/building-informed-society-unescos-media-program-uzbekistan-shows-tangible-progress

3. Gaston, J. (2020). Teaching media literacy to ESL and EFL students in the age of COVID-19. *GATESOL Journal*. https://georgiatesoljournal.org/index.php/GATESOL/article/view/107

4. Yeleussiz, A. (2024). Exploring EFL teachers’ perceptions of media literacy in Kazakhstan. *Journal of Social Studies Education Research, 15*(1), 282–316. https://www.jsser.org/index.php/jsser/article/view/5682

5. Narendran, M. N. (2025). The growth of digital literacy and 21st-century skills in English language education through ICT. *ACR Journal*. https://acr-journal.com/article/the-growth-of-digital-literacy-and-21st-century-skills-in-english-language-education-through-ict-1836

6. National Association for Media Literacy Education (NAMLE). (n.d.). What is media literacy? Media Literacy Now. https://medialiteracynow.org/challenge/what-is-media-literacy

7. MediaSmarts. (n.d.). Key concepts for digital media literacy. https://mediasmarts.ca/digital-media-literacy/general-information/digital-media-literacy-fundamentals/key-concepts-digital-media%C2%A0literacy

8. UNESCO. (2023). Media and information literacy curriculum for teachers. Mahatma Gandhi Institute of Education for Peace and Sustainable Development. (Ushbu manba O‘zbekiston kontekstida ham qo‘llanidigan asosiy qo‘llanma).

O‘ZBEK VA TURKMAN TILLARIDA SIFAT SO‘Z TURKUMINING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI

Xummedova O‘g‘ilnovot Mavlanberdi qizi - Innovatsion texnologiyalar universiteti “Filologiya” kafedrasi assistenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19637165

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek va turkman tillarida sifat so‘z turkumining tuzilishiga ko‘ra turlari va ularning xususiyatlari yoritildi. Natijada ikki tildagi umumiylik va farqli jihatlar aniqlanib, o‘zgarishlar va o‘xshashliklar aniqlandi.

Abstract. This article examines the types of adjectives in the Uzbek and Turkmen languages according to their structure, as well as their characteristics. As a result, the similarities and differences between the two languages were identified, and changes and common features were determined.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, turkman tili, sifat, qo‘shma, sodda, juft, takror, qiyosiy tahlil, morfologiya.

Key words: Uzbek language, Turkmen language, adjective, compound, simple, paired, reduplicated, comparative analysis, morphology.

Har bir tilning morfologiya bo‘limida sifat so‘z turkumi mustaqil so‘zlar tarkibida o‘rganiladi va tilshunosligimizda sifat so‘z turkumi katta o‘rinlarni egallaydi. Chunki kundalik hayotimizda insonlarga ham, narsalarga ham tashqi ko‘rinishiga qarab xususiyatini, belgisini aytamiz. Bularni esa ikki tilda ham sifat so‘z turkumi o‘rganadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, hozirgi globallashuv jarayonida turkiy tillarning tarixiy ildizlari va o‘zaro aloqalarini o‘rganish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash masalasi yanada ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbek va turkman tillaridagi sifat so‘z turkumining tuzilishiga ko‘ra turlarini qo‘llanish xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish: ikki tildagi leksik qatlamning boyish manbalarini aniqlash, xalq madaniyati va kasb-hunar an’analarining tilga ta’sirini ochib berish, shuningdek, morfologik tizimning shakllanish jarayonini yoritish imkonini beradi.

Shu sababdan mazkur masalaning ilmiy tadqiqi nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy leksikografiya va tarjimashunoslik uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Mavzuni tadqiq etishda asosan qiyosiy, tarixiy va morfologik-semantik metodlardan foydalanildi. Qiyosiy metod yordamida o‘zbek va turkman tillaridagi sifat so‘z turkumining tuzilishiga ko‘ra turlarining o‘xshash va farqli tomonlari aniqlanadi.

O‘zbek va turkman tilshunosligida sifat so‘z turkumi masalalari haqida ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Shu bilan birga, sifat so‘z turkumining tuzilishiga ko‘ra turlari ikki til misolida maxsus qiyosiy tadqiqi yetarli darajada olib borilmagan. Shu sababdan ushbu mavzuni yoritish ilmiy jihatdan ham, amaliy nuqtayi nazardan ham muhim hisoblanadi.

O‘zbek tilida otga bog‘lanib, uning belgisini bildiradigan va **qanday?, qanaqa?** so‘roqlariga javob bo‘ladigan so‘zlarga **sifat** deyiladi. Masalan, *katta bino, shinam xona, chiroyli qiz…*

Turkman tilida sifatlar **“sypatlar”** deb nomlanib, shaxs va narsaning xil-xususiyatini, rangini, maza-ta’mini, miqdorini, ahvolini, harakter-xususiyatini, shaklini, ko‘rinishini bildirib, shaxs va predmetning qandaydir bir belgisini aglatib, ***nähili?, niçik?, nätüýsli?, neneňsi?*** kabi so‘roqlarga javob beradi. Masalan, ***owadan*** *mata,* ***sary*** *gül,* ***gyzyl*** *galam…*

O‘zbek tilida sifatlar tuzilishiga ko‘ra to‘rtta guruhga ajraladi. Ular:

1. **Sodda sifatlar**
2. **qo‘shma sifatlar**
3. **juft sifatlar**
4. **takroriy sifatlar**

Bir asosdan iborat bo‘lgan sifatlar **sodda sifatlar** sanaladi. Masalan, *chiroyli, hashamatli, jozibali, mazali….*

Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan sifatlar **qo‘shma sifatlar** hisoblanadi. Qo‘shma sifatlar, asosan, qo‘shib yoziladi. Masalan, *balandparvoz, ishyoqmas, xomsemiz, mehnatsevar…*

Ózbekstanda "Sanlı Ózbekstan - 2030" strategiyası hám basqa da mámleketlik baǵdarlamalar sheńberinde elektron bilimlendiriw platformaların rawajlandırıw boyınsha áhmietli jumıslar ámelge asırılmaqta. HEMIS, ZiyoNet, adabiyot.edu.uz, "Úyde bilimlendiriw," Cyber Qiz sıyaqlı platformalar bul baǵdarda áhmietli qádem bolıp esaplanadı. Biraq, bar platformalardıń interaktivlik dárejesi, jasalma intellekt imkaniyatlarınan paydalanıw, sonday-aq, sanlı ayırmashılıqtı saplastırıw sıyaqlı máselelerde ele sheshiliwi kerek bolǵan mashqalalar bar.

Interaktiv veb-platformalardı rawajlandırıwdıń perspektivalı baǵdarları sıpatında milliy platformalar jaratıw, gibrid bilimlendiriw modelin keńeytiw, jasalma intellekt hám maǵlıwmatlar analizi texnologiyaların engiziw, sonday-aq, pedagog kadrlardıń sanlı kompetenciyaların rawajlandırıwdı kórsetiw múmkin. Bul baǵdarlarda

sistemalı hám izbe-iz jumıs alıp barılıwı bilimlendiriw sistemasınıń sanlı transformaciyasın tabıslı ámelge asırıw imkaniyatın beredi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Ahrorov, A. (2025). Sanlı texnologiyalar hám bilimlendiriw únlesligi. *Xalıq* sózi.
2. Shekh Khlil, A. (2025). *A Comparative Analysis of Interactive Coding Platforms and a Prototype of a New Platform Based on Recording and Replaying User Interactions.* Magistrlik dissertaciyası, Johannes Kepler Universität Linz.
3. Turaeva, I. (2025). The Role of Technology in Education Management in Uzbekistan: Digitalization, E-Learning Platforms, and Smart Classrooms. *Modern Science and Research,* 4 (9), 37-39.
4. Ózbekstanda Cyber Qiz biypul bilimlendiriw platforması iske tústi. (2025). *Gazeta.uz.*
5. "Úyde bilimlendiriw" platforması. (2025). Ózbekstan Respublikası Mektepke shekemgi hám mektep bilimlendiriwi ministrligi. Reestr.uz.
6. Joqarı bilimlendiriw processlerin basqarıw "HEMIS" málimleme sistemasınıń studentler ushın mobil qosımshası islep shıǵıldı. (2022). Joqarı bilimlendiriwdi rawajlandırıw izertlewleri orayı.
7. Beglayev, U. X., Boltayev, N. Sh., Isaxodjaeva, Z. Sh., & Raxmatova, J. Q. (2025). Agrobiznes hám elektron kommerciya tarawında aralıqtan oqıtıw nátiyjeliligin arttırıw. *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science,* 1535 (1), 012027.
8. Zakirova Sh. I., & Rasulova, S. D. (2025). Ekinshi tildi ózlestiriwde dástúriy hám onlayn oqıtıwdıń salıstırmalı analizi: Ózbekstan halatı. *Development in Language Studies.*
9. Interaktiv oqiw materialların jaratıw ushın platforma. (2025). Chex texnicheskiy universitet v Prage. KORE.
10. Konstruktivizmge tiykarlangan interaktiv oqiwdi basqarıw sisteması Google Codelabs járdeminde. (2025). *Interactive Learning Environments,* 33 (9).

WEB PROGRAMMA USHÍN TEST-CASE BASQARÍW SISTEMASÍ

Auezova Raya Tleubaevna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti "Dasturiy injiniring" docent w.w.a p.i.f.d (PhD)

Kamalov Jahangir Ilhom o‘gli - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti "Dasturiy injiniring" tálim baǵdarı 4-kurs studenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19973832

Annotaciya. Usı teziste veb-programmalar ushın test-case basqarıw sistemasınıń teoriyalıq hám ámeliy tárepleri jaratılǵan. Zamanagóy programmalıq támiynattı islep shıǵıwda sapanı támiyinlew áhmietli basqıshlardan biri bolıp esaplanadı. Sol sebepli testlew procesin nátiyjeli shólkemlestiriw, test-keyslerdi basqarıw hám nátiyjelerdi tallaw ushın arnawlı sistemalardan paydalanıw zárúr. Usı jumısta test-case basqarıw sistemasınıń tiykarǵı funkciyaları, arxitekturası hám abzallıqları kórip shıǵılǵan. Sonday-aq, sistemanı veb-ortada qollanıw imkaniyatları hám onıń programmalıq ónimniń sapasına tásiri tallanǵan.

Gılıt sózler: test-case, test-case basqarıw sisteması, veb-programma, programmalıq támiynat sapası, testlew procesi, avtomatlastırılǵan testlew, bug tracking, agile metodologiyası, devops, frontend hám backend, maǵlıwmatlar bazası, ápi integraciya, continuous testing, programmalıq ónim

Abstract. This thesis presents the theoretical and practical aspects of creating a test case management system for web applications. Quality assurance is considered one of the crucial stages in modern software development. Therefore, it is essential to effectively organize the testing process and utilize specialized systems for managing test cases and analyzing their results. This work examines the main functions, architecture, and advantages of a test case management system. Additionally, it analyzes the possibilities of using the system in a web environment and its impact on the quality of the software product.

Keywords: test case, test case management system, web application, software quality, testing process, automated testing, bug tracking, agile methodology, devops, frontend and backend, database, API integration, continuous testing, software product

Kirisiw. Búgingi kúnde málimleme texnologiyaları jedel rawajlanıp, veb-baǵdarlamalar túrli tarawlarda keń qollanılmaqta. Elektron kommerciya, bilimlendiriw, bank sistemaları hám basqa da kóplegen xızmetler veb-qosımshalar arqalı ámelge asırılmaqta. Sol sebepli bul baǵdarlamalardıń isenimliligi, qáwipsizligi hám turaqlı islewi úlken áhmietke ie.

Programmalıq ónimniń sapasın támiyinlewde testlew procesi tiykarǵı basqıshlardan biri bolıp esaplanadı. Testlew járdeminde programmadaǵı qáteler anıqlanadı hám olardı saplastırıw imkaniyatı jaratıladı. Biraq úlken kólemdegi joybarlarda test processlerin qolda basqarıw quramalı hám nátiyjesiz bolıwı múmkin. Sol sebepli test-case basqarıw sistemalarınan paydalanıw zárúrligi júzege keledi.

Test-case basqarıw sisteması - bul test proceslerin rejelestiriw, test jagdayların jaratıw, olardı basqarıw hám nátiyjelerdi analizlew ushin arnalgan programmalıq qural esaplanadı. Bul sistemalar járdeminde testerler hám programmistler arasında nátiyjeli birge islesiw támiyinlenedi.

Test-keys túsinigi - Test-case (test jaǵdayı) - bul programma funkcionallıǵın tekseriw ushın arnalǵan anıq shártler hám kútilgen nátiyjeler jıyındısı. Hárbir test-case tómendegi elementlerden ibarat boladı:

- **Test atı**
- **Kirisiw maǵlıwmatları**
- **Ámelge asırıw qádemleri**
- **Kútilgen nátiyje**
- **Haqiyqiy nátiyje**

Test-keysler programmalıq ónimniń barlıq funkciyaların qamtıp alıwı kerek.

Test-case basqarıw sistemasınıń wazıypaları - Test-case basqarıw sisteması tómendegi tiykarǵı wazıypalardı orınlaydı:

- Test-keyslerdi jaratıw hám saqlaw
- Testlerdi toparlaw hám kategoriyalastırıw
- Test rejeleri hám scenariylerin dúziw
- Test nátiyjelerin jazıw

- Qátelerdi (puwlardı) anıqlaw hám baqlaw
- Esabatlar qáliplestiriw

Bul funkciyalar test procesin sistemalı hám nátiyjeli shólkemlestiriwge járdem beredi.

Sistema arxitekturası Veb tiykarındağı test-case basqarıw sisteması ádette tómendegi komponentlerden ibarat:

1. **Frontend (paydalanıwshı interfeysi)** Paydalanıwshı menen tikkeley islesedi. Test-case jaratıw, kóriw hám redaktorlaw imkaniyatın beredi.

2. **Backend (server bólimi)** Biznes logikanı basqaradı, sorawlardı qayta isleydi hám sistemanıń tiykarǵı funkciyaların orınlaydı.

3. **Maǵlıwmatlar bazası** Test-keysler, paydalanıwshılar hám nátiyjeler saqlanadı.

4. **API integraciyası** Basqa sistemalar (misalı, qáteliklerdi baqlaw sistemaları) menen integraciyanı támiyinleydi.

Test-case basqarıw sistemalarınıń tiykarǵı abzallıqları tómendegiler:

- Test processlerin avtomatlastırıw
- Waqıt hám resurslardı únemlew
- Qátelerdi tez anıqlaw
- Jámáát ishinde birge islesiwdi jaqsılaw
- Joybardıń ulıwma sapasın arttırıw

Zamanagóy kózqaraslar Búgingi kúnde test-case basqarıw sistemaları Agile hám DevOps metodologiyaları menen birgelikte qollanıladı. Bul bolsa:

- Tez islep shıǵıw
- Turaqlı testlew (Continuous Testing)
- Avtomatlastırılǵan processler

sıyaqlı imkaniyatlardı beredi.

Sonday-aq, jasalma intellekt tiykarındağı testlew sistemaları da rawajlanbaqta. Olar avtomatikalıq test-keys jaratıw hám qátelerdi aldınnan anıqlaw imkaniyatın beredi.

Juwmaq. Juwmaqlap aytqanda, veb-baǵdarlamalar ushın test-case basqarıw sisteması programmalıq ónimniń sapasın arttırıwda áhmietli qural esaplanadı. Bul sistemalar test processlerin sistemalastıradı, qátelerdi tez anıqlaw hám olardı saplastırıwǵa járdem beredi.

Keleshekte test-case basqarıw sistemaları jasalma intellekt hám avtomatlastırılǵan texnologiyalar menen jáne de rawajlanıp, programmalıq támiynattı islep shıǵıw procesin jáne de nátiyjeli etedi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Pressman R. - *Software Engineering: A Practitioner's Approach*
2. Sommerville I. - *Software Engineering*
3. Myers G. - *The Art of Software Testing*
4. Kaner C. - *Dástúriy támiynat testinde úyrenilgen sabaqlar*
5. IEEE - *Software Testing Standards*
6. ISTQB - *Software Testing Foundation Level Syllabus*

RAQAMLI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O‘QITISHDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH METODLARI

Babanazarova Manzura Satullaevna - University of innovation technologies assistent o’qituvchisi,

Tajibaeva Aynura Nuryagdiyevna - University of innovation technologies 2-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19627484

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish jarayonida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalaridan samarali foydalanish metodlari tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchilarning bilim darajasini avtomatik baholash, interaktiv muhit yaratish va o‘qituvchi faoliyatini optimallashtirish kabi imkoniyatlar yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy SI

vositalarining ta’limdagi o‘rni va ularni qo‘llash bo‘yicha metodik tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: sun’iy intellekt, raqamli ta’lim, adaptiv o‘qitish, avtomatik baholash, ta’lim texnologiyalari, IT ta’lim, mashinaviy o‘rganish, Big Data.

Abstract: This article analyzes the methods of effective use of artificial intelligence (AI) technologies in the process of teaching digital and information technologies. Such opportunities as individualization of the educational process, automatic assessment of the level of students' knowledge, creation of an interactive environment, and optimization of the teacher's activity are highlighted. Also, the role of modern AI tools in education and methodological recommendations for their application are given.

Keywords: artificial intelligence, digital learning, adaptive learning, automatic assessment, educational technologies, IT education, machine learning, Big Data.

Kirish

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamlashtirish jarayonlari jadallik bilan rivojlanmoqda. Ayniqsa, raqamli va axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellekt texnologiyalari esa ushbu jarayonni yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Sun’iy intellekt — bu inson intellektual faoliyatini modellashtiruvchi texnologiyalar majmui bo‘lib, u ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, bilimlarni tahlil qilish va samarali o‘qitish strategiyalarini ishlab chiqishda keng qo‘llanilmoqda.

Raqamli va axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda SI’dan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, murakkab tushunchalarni oson o‘zlashtirishga yordam beradi hamda o‘qitish samaradorligini oshiradi.

Sun’iy intellektdan foydalanish metodlari zamonaviy ilm-fan va texnologiya taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ushbu metodlar murakkab masalalarni hal qilishda inson ongiga yaqin faoliyatni imitatsiya qilish orqali zamonaviy tizimlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Har bir metod o‘ziga xos texnik asosga,

amaliy ko‘lamga va ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyatlariga ega. Eng ko‘p qo‘llaniladigan yondashuvlardan biri bu — mashinaviy o‘rganish (machine learning) metodidir. Bu metod ma’lumotlardan o‘rganish orqali tizimning o‘zini o‘zi takomillashtirishiga asoslanadi.

1. Sun’iy intellekt asosida adaptiv o‘qitish metodlari

Adaptiv o‘qitish tizimlari o‘quvchilarning bilim darajasi, qobiliyati va o‘rganish tezligiga moslashadi. SI algoritmlari yordamida har bir talaba uchun individual o‘quv yo‘li shakllantiriladi ya’ni

- individual yondashuv
- bilimlarni chuqur o‘zlashtirish
- o‘quv motivatsiyasini oshirish

2. Avtomatik baholash va monitoring tizimlari

Sun’iy intellekt testlar, yozma ishlar va kodlarni avtomatik tekshirish imkonini beradi. Bu o‘qituvchining vaqtini tejaydi va baholashning obyektivligini ta’minlaydi.

- test tizimlari
- kod tekshiruvchi platformalar
- plagiat aniqlash tizimlari

3. Virtual yordamchilar va chatbotlardan foydalanish

Chatbotlar o‘quvchilarga 24/7 rejimda yordam beruvchi vosita hisoblanadi. Ular savollarga javob beradi, tushuntirishlar beradi va qo‘shimcha materiallar tavsiya qiladi va natijada

- o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishi rivojlanadi
- o‘qituvchi yuklamasi kamayadi

4. Intellektual ta’lim platformalari

SI asosidagi platformalar (masalan, adaptiv LMS tizimlar) o‘quv jarayonini avtomatlashtiradi va samaradorligini oshiradi va uning imkoniyatlari kengayadi.

- o‘quv kontentini moslashtirish
- progressni tahlil qilish
- real vaqt monitoring

5. Ma’lumotlar tahlili asosida qaror qabul qilish

Big Data va SI yordamida o‘quvchilarning faoliyati tahlil qilinadi. Bu o‘qituvchiga qaysi mavzular qiyin o‘zlashtirilayotganini aniqlashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish raqamli va axborot texnologiyalari fanini o‘qitish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. SI yordamida ta’lim jarayoni individuallashtiriladi, baholash tizimi takomillashadi va o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Kelajakda SI texnologiyalarini ta’lim tizimiga yanada keng joriy etish, o‘qituvchilarni ushbu texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash hamda zamonaviy metodikalarni ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Russell, S., Norvig, P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. Pearson Education, 2021.
2. Luckin, R. *Machine Learning and Human Intelligence*. UCL Institute of Education Press, 2018.
3. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. *Artificial Intelligence in Education*. Center for Curriculum Redesign, 2019.
4. UNESCO. *Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities*, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi.
6. Tashkentov, M., & Yusupova, N. (2022). Axborot xavfsizligi asoslari. Toshkent: TATU nashriyoti.

SUN’IY INTELLEKTNING KUNDALIK HAYOTIMIZDAGI O‘RNI

Djakaeva Kenjagul Davletboevna - University of innovation technologies, Dasturiy injiniring kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.(PhD),

Komilov Mirsaid Madyorovich University of innovation technologies, Dasturiy injiniring ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

https://doi.org/10.5281/zenodo.19627565

Annotatsiya: Bu maqolada sun’iy intellekt texnologiyalarining kundalik hayotimizdagi o‘rni va uning turli sohalarda qo‘llanilishi hamda jamiyat taraqqiyotiga ta’siri yoritib berilgan. Shuningdek, sun’iy intellektning afzalliklari, imkoniyatlari haqida fikr yuritiladi. Zamonaviy dunyoda sun’iy intellekt inson faoliyatining ajralmas qismiga aylanib borayotgani aytiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, axborot texnologiyalari, ta’lim, tibbiyot, innovatsiya.

Annotation: This article highlights the role of artificial intelligence technologies in our daily lives, their application in various fields, and their impact on societal development. It also discusses the advantages and possibilities of artificial intelligence. It is said that in the modern world, artificial intelligence is becoming an integral part of human activity.

Key words: artificial intelligence, digital technologies, automation, information technologies, education, medicine, innovation.

Sun’iy intellekt — bu kompyuter tizimlarining inson tafakkuriga xos bo‘lgan fikrlash, tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish va qaror qabul qilish kabi jarayonlarni bajarish qobiliyati bo‘lib u algoritmlar, matematik modellar va katta hajmdagi ma’lumotlar asosida ishlaydi. Oddiy qilib aytganda, sun’iy intellekt bu kompyuterlarning inson qanday fikrlasa, u ham shunday fikrlashga urinishi hisoblanadi. Masalan, smartfonimizdagi ovozli yordamchilar, masofadan ishlaydigan tarjima dasturlari yoki onlayn xarid platformalaridagi tavsiyalar ham sun’iy intellekt yordamida ishlaydi. Hozirgi kunda, kundalik hayotimizda ko‘pchiligimiz sun’iy intellektdan foydalanayotganimizni o‘zimiz ham sezmaymiz. 1956-yilda Dartmut konferensiyasida sun’iy intellekt tushunchasi ilmiy atama sifatida shakllangan. Dastlabki yillarda u oddiy mantiqiy masalalarni yechish vazifalari bilan cheklangan. Vaqt o‘tishi bilan kompyuterlarning hisoblash quvvati ortib borib, internet rivojlandi va ma’lumotlar hajmi ko‘paydi. Natijada mashinaviy o‘qitish, chuqur o‘rganish kabi yo‘nalishlar paydo bo‘lib, sun’iy intellekt tushunchasi yanada mukammallashdi.

Bugungi kunda sun’iy intellekt nafaqat ilmiy laboratoriyalarda, balki har bir insonning kundalik hayotida faol qo‘llanilmoqda.

Ta’lim jarayonida sun’iy intellekt tushunchasi texnologiyalari tub o‘zgarishlarni amalga oshirib kelmoqda. An’anaviy ta’lim jarayonida barcha o‘quvchilarga bir xil metodika qo‘llanilgan bo‘lsa, endilikda sun’iy intellekt yordamida har bir talaba bilan individual yondashuv imkoniyati ham paydo bo‘lmoqda. Masalan, onlayn ta’lim platformalari talabalarning bergan javoblarini tahlil qilib, uning bilim darajasini aniqlab qolmasdan va shunga mos topshiriqlarni ham yaratib beradi. Bu esa, o‘quv jarayonini yanada samaraliroq qiladi. Shuningdek, berilgan test topshiriqlarini avtomatik tekshirish tizimlari o‘qituvchilarning vaqtini tejaydi va ishini osonlashtiradi.

Sun’iy intellekt ta’lim jarayonida emas, balki tibbiyot sohasi ham katta foyda keltirmoqda. Sun’iy intellekt yordamida kasalliklarni erta bosqichda aniqlash, tashxis qo‘yish va davolash usullarini tanlash imkoniyati kengaymoqda. Masalan, sun’iy intellekt rentgen, MRT va KT tasvirlarini tahlil qilib, o‘simta yoki boshqa patologiyalarni aniqlashda shifokorlarga katta yordam beradi. Shu bilan birga ayrim tizimlar qon bosimi, yurak urishi va boshqa ko‘rsatkichlarni kuzatib borib, sog‘liqdagi o‘zgarishlar haqida ogohlantiradi. Sun’iy intellekt yordamida jarrohlik amaliyotlari ham bajarilmoqda. Bunday texnologiyalar operatsiya aniqligini oshiradi va xatolik ehtimolini kamaytiradi.

Sun’iy intellekt iqtisodiyot va biznes jarayonlarini optimallashtirishda muhim rol o‘ynamoqda. Korxonalar sun’iy intellekt yordamida mijozlar ehtiyojini tahlil qilib, bozor talabini prognoz qiladi va ishlab chiqarish jarayonini rejalashtiradi. Onlayn savdo platformalarida mahsulot tavsiyalari mijozning qidiruv tarixi va qiziqishlariga asoslanadi. Bank sohasida esa sun’iy intellekt firibgarlik holatlarini aniqlash, kredit reytingini baholash va moliyaviy risklarni kamaytirishda qo‘llaniladi.

Transport sohasida ham sun’iy intellekt harakat xavfsizligini oshirish va yo‘l tirbandliklarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, navigatsiya tizimlari real vaqt rejimida yo‘llardagi holatni tahlil qilib, eng qulay yo‘nalishni tavsiya etadi.

Oddiy insonning kundalik hayotini ham sun’iy intellekt ancha yengillashtirdi. Smartfonlardagi yuzni aniqlash tizimi, ovozli yordamchilar, aqlli soatlar, aqlli uy qurilmalari bularning barchasi sun’iy intellekt asosida ishlaydi.

Sun’iy intellektning keng qo‘llanilishi bilan birga ayrim muammolar ham yuzaga kelmoqda. Eng dolzarb masalalardan biri — shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi. Foydalanuvchilarning ma’lumotlari himoyalanmasa, bu turli salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ayrim kasblarning avtomatlashtirilishi ish o‘rinlarining qisqarishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois, zamonaviy jamiyatda yangi ko‘nikmalarni egallash va raqamli savodxonlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Sun’iy intellektdan foydalanishda axloqiy jihatdan esa inson manfaatlari ustuvor bo‘lishi zarur. Texnologiya insonni almashtirish uchun emas, balki unga yordam berish uchun xizmat qilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellekt bugungi kunda insoniyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biriga aylandi. U nafaqat ilm-fan yoki texnologiya sohasida, balki kundalik hayotimizning barcha jabhalarida faol qo‘llanilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Russell, S., & Norvig, P. (2020). Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th ed.). Pearson Education.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024 yildagi PQ-358-sonli qarori. Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida.
3. Eric C. K. Artificial Intelligence in Education: Emerging Technologies, Models and Applications: Proceedings of 2021 2nd International Conference on Artificial Intelligence in Education Technology.
4. Peter I., Imogen C. Artificial Intelligence in Education: The Intersection of Technology and Pedagogy.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT VA KIBERXAVFSIZLIKNING ROLI

Erdashov Alimjan Baxramovich - University of Innovation Technologies assistent o’qituvchisi

Duysenbaev Ruslan Ongarovich - University of Innovation Technologies assistent o’qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19616430

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim tizimida sun'iy intellekt (SI) va kiberxavfsizlikning o'rni, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri va integratsiyasi batafsil tahlil qilingan. Maqolada SI asosidagi ta'lim texnologiyalari, adaptiv o'qitish tizimlari, ta'lim muassasalarida kibertahdidlar va ulardan himoya qilish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, O'zbekiston ta'lim tizimidagi raqamlashtirish jarayonlari, mavjud muammolar va istiqbolli yechimlar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik, ta'lim texnologiyalari, adaptiv o'qitish, kibertahdidlar, ma'lumotlarni himoya qilish, raqamli savodxonlik.

Abstract: This article provides a detailed analysis of the role of artificial intelligence (AI) and cybersecurity in the education system in the context of digital transformation, their impact and integration into the educational process. The article examines AI-based educational technologies, adaptive learning systems, cyber threats in educational institutions, and mechanisms for protecting against them. In addition, the digitalization processes in the Uzbekistan education system, existing problems, and promising solutions are recommended.

Keywords: digital transformation, artificial intelligence, cybersecurity, educational technologies, adaptive learning, cyber threats, data protection, digital literacy.

KIRISH

Jahon miqyosida to'rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) sifatida ta'riflangan hozirgi texnologik o'zgarishlar barcha sohalarga, jumladan ta'lim tizimiga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli transformatsiya — bu faqat yangi qurilmalar

yoki dasturiy ta'minot joriy etish emas, balki ta'lim metodologiyasi, pedagogik yondashuvlar va muassasa boshqaruvini tubdan qayta qurishni anglatadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari ta'limdagi o'rganish jarayonini shaxsiylashtirish, o'qituvchi mehnatini yengillashtirish va ta'lim sifatini oshirishda ulkan imkoniyatlar ochib bermoqda. Biroq, bu jarayon bilan bir vaqtda kiberxavfsizlik muammolari ham keskin dolzarblashmoqda. Ta'lim muassasalari katta hajmdagi shaxsiy ma'lumotlarni — o'quvchilar, ota-onalar, o'qituvchilar ma'lumotlarini — qayta ishlash markazi sifatida kiberjinoyatchilarning asosiy nishoniga aylanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi va "Yil davomida ta'limni rivojlantirish" konsepsiyasi doirasida ta'lim digitalizatsiyasiga alohida e'tibor qaratilayotgan hozirgi sharoitda ushbu mavzuning o'rganilishi amaliy ahamiyat kasb etadi.

Raqamli transformatsiya va ta'lim: global tendentsiyalar

Raqamli transformatsiya ta'lim sohasida bir necha asosiy yo'nalishda namoyon bo'lmoqda. Birinchidan, bulutli hisoblash texnologiyalari ta'lim resurslari va platformalarini istalgan joydan foydalanish imkonini bermoqda. Google Workspace for Education, Microsoft Teams for Education va o'xshash platformalar bugungi kunda dunyo bo'ylab yuz millionlab o'quvchi va o'qituvchi tomonidan qo'llanilmoqda.

Ikkinchidan, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili ta'lim muassasalarida qaror qabul qilish jarayonini ma'lumotlarga asoslangan holda amalga oshirish imkonini bermoqda. O'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari, darsga qatnashish statistikasi va o'qishdan bo'sash xavfini oldindan aniqlash — bularning barchasi Big Data va machine learning algoritmlar yordamida amalga oshirilmoqda.

Uchinchidan, 5G texnologiyasining tarqalishi va Narsalar interneti (IoT) qurilmalarining ta'lim muhitiga kirib kelishi "aqlli maktab" va "aqlli universitet" kontseptsiyalarini hayotga tatbiq etish imkonini bermoqda. Smart doskalar, interaktiv stol va o'rindiqlar, avtomatik davomat tizimlar — bularning barchasi ta'lim infratuzilmasini tubdan o'zgartirmoqda.

Sun'iy intellektning ta'lim jarayonidagi roli

Sun'iy intellekt ta'lim sohasiga bir necha yo'nalishda tatbiq etilmoqda. Adaptiv ta'lim tizimlari (Adaptive Learning Systems) har bir o'quvchining bilim darajasi, o'rganish tezligi va xato tahlili asosida shaxsiy ta'lim traektoriyasini shakllantiradi. Carnegie Learning, Knewton va DreamBox Learning kabi platformalar SI algoritmlaridan foydalanib, an'anaviy sinfxona ta'limiga nisbatan o'zlashtirish samaradorligini 25–40% ga oshirishi ilmiy tadqiqotlar bilan isbotlangan.

Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) asosidagi tizimlar o'quvchilarning yozma ishlarini avtomatik tekshirish, ular bilan dialog shaklida savol-javob olib borish va grammatik xatolarni real vaqtda tuzatish imkonini beradi. Grammarly, Turnitin va ularga o'xshash vositalar bugungi kunda ta'lim muassasalarida keng qo'llanilmoqda.

Kompyuter vositasida ko'rish (Computer Vision) texnologiyasi sinfdagi o'quvchilar e'tiborini kuzatish, yuz ifodasi orqali ularning tushunish darajasini aniqlash va darsga qatnashishni avtomatik qayd etish uchun ishlatilmoqda. Biroq, bu texnologiyaning qo'llanilishi qator etik muammolarni ham yuzaga keltirmoqda — xususan, shaxsiy hayot daxlsizligi va ma'lumotlar maxfiyligi masalalari.

Ta'lim tizimida kiberxavfsizlik: tahdidlar va himoya mexanizmlari

Ta'lim muassasalari kiberxavfsizlik nuqtai nazaridan bir qator xususiyatlar sababli ayniqsa himoyasiz hisoblanadi. Birinchidan, ularda katta hajmdagi maxfiy ma'lumotlar to'planadi: voyaga yetmagan bolalar, ularning ota-onalari, o'qituvchilar va xodimlarning shaxsiy ma'lumotlari, moliyaviy ma'lumotlar va ilmiy tadqiqot natijalari. Ikkinchidan, ta'lim muassasalarining axborot xavfsizligiga sarflanadigan byudjet tijorat tashkilotlarga nisbatan ancha cheklangan. Uchinchidan, foydalanuvchilar (talabar, o'quvchilar) texnik savodxonlik darajasi ko'pincha past bo'ladi.

Kiberjinoyatchilarning ta'lim muassasalariga nisbatan qo'llaydigan asosiy usullariga to'xtalsak: fishing hujumlari (phishing) — elektron pochta yoki soxta veb-saytlar orqali login va parollarni o'g'irlash; to'lov dasturlari (ransomware) — ta'lim muassasasi tizimlarini bloklash va qimmatbaho ma'lumotlarni qayta tiklash uchun

to'lov talab qilish; DDoS hujumlari — onlayn ta'lim platformalarini vaqtincha ishdan chiqarish. 2022–2023 o'quv yilida Yevropa va AQSHda 300 dan ortiq ta'lim muassasasi ransomware hujumiga uchragan.

Ta'lim tizimida kiberxavfsizlikni ta'minlash uchun ko'p qatlamli yondashuv talab etiladi. Texnik jihatdan: kuchli autentifikatsiya tizimlari (ko'p faktorli autentifikatsiya — MFA), ma'lumotlarni shifrlash, muntazam zahira nusxalar va tarmoqni segmentlash. Tashkiliy jihatdan: foydalanuvchilar uchun kiberxavfsizlik bo'yicha muntazam treninglar, aniq siyosatlar va intsidentlarga javob berish rejasi. Huquqiy jihatdan: ma'lumotlarni himoya qilish qonunchiligiga qat'iy rioya etish va shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida shaffoflikni ta'minlash.

O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli transformatsiya: holat va muammolar

O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim raqamlashtirishda sezilarli yutuqlarga erishildi. edu.uz platfor-masi, Hemis axborot tizimi, elektronli darsliklar va masofaviy ta'lim platformalarining joriy etilishi o'rganish jarayonini yangicha bosqichga olib chiqdi. Biroq, bir qator tizimli muammolar hali o'z yechimini kutmoqda.

Birinchidan, hududlar o'rtasidagi raqamli tengsizlik hali hal etilmagan. Toshkent va yirik shaharlar bilan qishloq hududlar o'rtasidagi internet tezligi va qurilmalarga egalik darajasidagi farq ta'limdagi imkoniyat tengsizligini kuchaytirib yubormoqda. Ikkinchidan, o'qituvchilarning raqamli kompetentsiyasi talabga javob bermaydigan hollari ko'p uchramoqda — ta'limda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish ularning samarali qo'llanilishisiz natija bermaydi.

Uchinchidan, ta'lim tizimida kiberxavfsizlik madaniyati hali shakllanmagan. Ko'plab ta'lim muassasalarida axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassis yo'q, xodimlar fishing hujumlarini aniqlay olmaydi va shaxsiy ma'lumotlar ko'pincha himoyalanmagan kanallar orqali uzatiladi. Ushbu muammolarni hal etish uchun davlat, xususiy sektor va xalqaro hamkorlikning kuchaytirilishi zarur.

XULOSA

Raqamli transformatsiya sharoitida sun'iy intellekt va kiberxavfsizlik ta'lim tizimining ikki asosiy ustuni bo'lib qolmoqda. SI texnologiyalari ta'limni

shaxsiylashtirish, samaradorlikni oshirish va o'qituvchi mehnatini yengillashtirish imkonini bersa, kiberxavfsizlik ushbu raqamli infratuzilmaning mustahkam va ishonchli ishlashini ta'minlaydi.

Ta'lim tizimida raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar zarur: ta'lim dasturlariga kiberxavfsizlik asoslarini majburiy fan sifatida kiritish; o'qituvchilar va ma'muriyat xodimlarini SI texnologiyalari va kiberxavfsizlik bo'yicha muntazam o'qitish; ta'lim muassasalari uchun axborot xavfsizligi standartlari va minimaltalablarini belgilovchi milliy siyosat ishlab chiqish; hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirishda xususiy sektor bilan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini faollashtirish.

Faqat texnologiyaga investitsiya qilish emas, balki insonlarga — o'qituvchilarga, o'quvchilarga va ota-onalarga — tegishli bilim va ko'nikmalarni berish ta'limdagi raqamli transformatsiyani haqiqiy muvaffaqiyatga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. PF-6079-son. – Toshkent, 2020.

2. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., Forcier, L. B. Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education. Pearson, London, 2016. – 56 b.

3. UNESCO. Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence. Paris: UNESCO Publishing, 2022. – 24 b.

4. Verizon. Data Breach Investigations Report 2023. – New York: Verizon, 2023. – 87 b.

5. Xolmatov, D. N., Rahimov, A. B. "Ta'lim muassasalarida axborot xavfsizligini ta'minlash usullari." Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar, 2023, №3. – B. 44–52.

6. ENISA (European Union Agency for Cybersecurity). Cybersecurity in Education. Threat Landscape Report. Athens: ENISA, 2023. – 62 b.

O’ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TEXNIK TA’LIMGA SUN’IY INTELLEKTNI JORIY ETISH

Izetaeva Gulbaxar Keunimjaevna - Innovatsion Texnologiyalar Universiteti «Dasturiy injiniring» kafedrasi mudiri p.f.f.d.(PhD) dotsent

Jiemuratova Eleonora Gulmurat qizi - Innovatsion Texnologiyalar Universiteti «Dasturiy injiniring» ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Janabayev Dauletbek Jumabekovich - Innovatsion Texnologiyalar Universiteti Rektorat tashkiliy xizmat bo’limi boshlig’i

https://doi.org/10.5281/zenodo.19629259

Annotatsiya: O‘zbekiston iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalarini texnik ta’lim tizimiga joriy etish oliy ta’limni modernizatsiya qilishning strategik yo‘nalishi hisoblanadi. AI platformalari, virtual laboratoriyalar va adaptiv o‘qitish tizimlari talabalarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlashni o‘rgatadi va bitiruvchilarni raqobatbardosh qiladi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, texnik ta’lim, oliy ta’lim, raqamli transformatsiya, O‘zbekiston, raqamli kompetensiyalar, adaptiv ta’lim, muhandislik tayyorgarligi, ta’lim texnologiyalari, innovatsion rivojlanish.

Abstract: Within the context of Uzbekistan’s digital transformation, the integration of artificial intelligence into the technical education system represents a strategic approach to modernizing higher education. AI platforms, virtual laboratories, and adaptive learning systems not only enhance students’ practical competencies but also develop their ability to analyze large-scale data, thereby improving graduates’ competitiveness in the evolving labor market.

Keywords: artificial intelligence, technical education, higher education, digital transformation, Uzbekistan, digital competencies, adaptive learning, engineering training, educational technologies, innovative development.

Kirish. Fan va texnika taraqqiyotining zamonaviy bosqichi jamiyat hayotining barcha sohalariga raqamli texnologiyalar hamda sun’iy intellekt (SI)ning jadal joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, bu jarayon muhandislik-texnik tarmoqlar uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki SI texnologiyalari ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, loyihalashni optimallashtirish, ishlab

chiqarish tizimlarini boshqarish hamda texnik yechimlar samaradorligini oshirishda keng qo‘llanilmoqda. Global raqamli transformatsiya sharoitida zamonaviy SI texnologiyalarini puxta egallagan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash oliy ta’lim tizimining strategik ustuvor yo‘nalishiga aylanmoqda.

O‘zbekistonda sanoat, energetika, transport va qurilish sohalarining rivojlanishi murakkab texnik masalalarni hal etishda sun’iy intellekt vositalaridan samarali foydalana oladigan yangi avlod mutaxassislarini talab etadi. Biroq hozirgi kunda mamlakatimiz texnik oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt fanlarini o‘qitish fragmentar (bo‘lakli) xususiyatga ega bo‘lib, bu talabalarda intellektual tizimlar sohasida amaliy kompetensiyalarning yetarli darajada shakllanishini cheklab qo‘ymoqda [2].

Tadqiqotning dolzarbligi sun’iy intellekt texnologiyalarini texnik oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga integratsiya qilish zarurati bilan belgilanadi. Mazkur integratsiya muhandislar tayyorlash sifatini oshirish, sanoat tarmoqlariga innovatsion yechimlarni joriy etish jarayonini jadallashtirish hamda ta’lim dasturlarining raqamli iqtisodiyotning zamonaviy talablariga muvofiqligini ta’minlash imkonini beradi [4].

Ushbu tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida texnik ta’lim tizimiga sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etishning ilmiy asoslangan modelini ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, mazkur model talabalarda muhandislik kompetensiyalari hamda intellektual tizimlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishni ta’minlashga qaratilgan.

Mazkur maqsadga erishish uchun tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Texnik ta’limda sun’iy intellektni o‘qitishning zamonaviy holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish.

2. Sun’iy intellektni o‘quv jarayoniga samarali joriy etishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash.

3. Ta’lim dasturlariga sun’iy intellektni integratsiya qilishning metodik modelini ishlab chiqish.

4. Talabalarda SI-kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan o‘quv-uslubiy materiallarni yaratish va amaliyotda sinovdan o‘tkazish.

5. Taklif etilgan modelning samaradorligini O‘zbekiston texnik oliy ta’lim muassasalari bazasida baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida texnik oliy ta’lim muassasalarining ta’lim jarayoni, predmeti sifatida esa bo‘lajak muhandislarni tayyorlash tizimiga sun’iy intellektni joriy etishning pedagogik mexanizmlari belgilandi [1].

Tadqiqotning ilmiy yangiligi texnik ta’lim tizimiga sun’iy intellektni integratsiya qilishning kompleks modelini ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, mazkur model metodik tavsiyalar hamda talabalarda SI-kompetensiyalarning shakllanganlik darajasini baholash tizimini o‘z ichiga oladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan materiallardan ta’lim dasturlarini modernizatsiya qilishda, sun’iy intellekt laboratoriyalarini tashkil etishda hamda mamlakatda muhandislik tayyorgarligi sifatini oshirishda foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi.

2024-yilda oliy ta’lim tizimida sun’iy intellektni joriy etishning asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosan SI texnologiyalarining oliy ta’limdagi umumiy salohiyatini yoritishga qaratilgan. Xususan, M. Rakhmatullaevning maqolasida sun’iy intellektdan foydalanish istiqbollari, global tendensiyalar hamda strategik yondashuv zarurati tahlil qilingan bo‘lib, unda generativ texnologiyalar universitetlar darajasida ta’lim jarayonini tubdan o‘zgartirish imkoniga ega vosita sifatida alohida e’tirof etilgan. Mazkur yondashuv O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar misolida ko‘rib chiqilgan [6].

Nashrlarda, shuningdek, ta’lim tizimida sun’iy intellektdan foydalanish bo‘yicha milliy strategiyalarni ishlab chiqish, imkoniyat va xavflarni baholash, shuningdek, texnologiya bilan samarali o‘zaro hamkorlik qilish uchun professor-o‘qituvchilar hamda talabalarni tayyorlash zarurligi ta’kidlangan.

2025–2026-yillarda olib borilgan keyingi tadqiqotlarda sun’iy intellektni amaliyotga tatbiq etish va qo‘llashga o‘tish jarayonida sezilarli siljish kuzatiladi. Xususan, Springer Nature sharhida qayd etilishicha, SI texnologiyalari muhandislik ta’limida ta’limni individuallashtirish, intellektual o‘quv tizimlarini joriy etish, akademik

o‘zlashtirishni prognozlash hamda bilimlarni baholashni avtomatlashtirishda faol qo‘llanilmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqotlarda ijobiy natijalar (masalan, o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi) bilan bir qatorda muhim muammolar ham qayd etilgan. Jumladan, algoritmik og‘ishlar (bias) va akademik halollik masalalari sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga integratsiya qilishda dolzarb muammolar sifatida e’tirof etilmoqda.

1-jadval. Bosqichlar bo‘yicha taqqoslash:

Davr	Tadqiqotlar yo‘nalishi	Asosiy mavzular
2024	Sun’iy intellektning nazariy asoslari va salohiyati	Strategiya, imkoniyatlar, global tendensiyalar
2025–2026	Amaliy joriy etish	Shaxsiylashtirish, avtomatlashtirish, baholash, adaptiv ta’lim

Ta’limni shaxsiylashtirish: Sun’iy intellekt o‘quv jarayonini talabaning individual ehtiyojlariga moslashtira oladi, bu esa ayniqsa murakkab texnik fanlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Avtomatlashtirish va tahlil: Intellektual tizimlar o‘qituvchilarga topshiriqlarni avtomatik tekshirish, o‘quv trajektoriyalarini tahlil qilish va mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni prognoz qilishda yordam beradi, bu pedagogikaning samaradorligini oshiradi [8].

Laboratoriya amaliyotlarida innovatsiyalar: Sun’iy intellekt vositalari murakkab texnik jarayonlarni modellashtirish, virtual laboratoriyalar yaratish va tajribaviy o‘quv imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beradi, buning uchun qo‘shimcha jismoniy jihozlarga xarajat talab qilinmaydi.

So‘nggi tadqiqotlarda aniqlangan asosiy muammolar va xavflar

Infratuzilma va kadrlar yetishmasligi: Milliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonning ayrim oliy ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilma va o‘qituvchilar tayyorgarligi yetarli darajada emas, bu esa sun’iy intellektni keng joriy etishga to‘sqinlik qiladi.

Xulosa.

O‘tkazilgan tahlillar shuni tasdiqlaydi-ki, O‘zbekistonning texnik oliy ta’lim muassasalarida sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy etish nafaqat global tendensiyaga ergashish, balki raqamli iqtisodiyot va sanoat ehtiyojlari bilan belgilangan ob’ektiv zaruratdir. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, 2024-yildagi sun’iy intellekt salohiyatini nazariy tahlil qilish bosqichidan 2025–2026-yillardagi amaliy tatbiq etish faol bosqichiga o‘tish kuzatiladi, bunda ta’limni shaxsiylashtirish, o‘quv jarayonlarini avtomatlashtirish va virtual laboratoriya bazasini rivojlantirish asosiy rol o‘ynaydi.

Biroq, SIning muvaffaqiyatli integratsiyasi tizimli muammolarga duch keladi: o‘qitishning bo‘lakli xususiyati, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va malakali pedagog kadrlar yetishmasligi. Tadqiqotda taklif etilgan sun’iy intellektni integratsiya qilishning kompleks modeli, jumladan, standartlarni yangilash, fanlararo modullar va maxsus laboratoriyalarni yaratish orqali ushbu to‘siqlarni yengish maqsad qilinadi.

Sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga tizimli va ilmiy asoslangan tarzda joriy etish, innovatsion rivojlanish va O‘zbekistonning texnologik suverenitetini ta’minlay oladigan yangi avlod muhandislarni shakllantirish bo‘yicha strategik vositadir. Taklif etilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish nafaqat bitiruvchilarning tayyorgarlik sifatini oshirish, balki akademik fan bilan iqtisodiyotning real sektori o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Rakhmatullaev, M. (2024). Artificial Intelligence in Higher Education. Problems and Solutions. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги. Данная статья профессора М. Рахматуллаева, упомянутая в вашем введении, рассматривает глобальные тенденции, стратегические подходы и потенциал генеративных технологий ИИ в высшем образовании Узбекистана.
2. Atajonova, S. B. (2025). Models and Mechanisms for Implementing an Inclusive Approach in Engineering Education Based on Artificial

Intelligence. International Journal of Pedagogics, 5(05), 110–114. В статье анализируются модели и механизмы использования ИИ для персонализированного обучения, интеллектуальной поддержки и автоматизированного контроля знаний в инженерном образовании.

3. Abrorov, A., Saidov, A., Meyliyeva, N., Abdullaeva, D., & Shukurova, M. (2025). Optimizing mechanical engineering curriculum design using AI and machine learning. AIP Conference Proceedings, 3268(1), 070036. Исследование посвящено интеграции ИИ и машинного обучения в учебные программы машиностроения для улучшения результатов обучения и соответствия требованиям промышленности.
4. Tuyboyov, O., Sharipova, N., Ergasheva, L., & Nasirdinova, S. (2025). The role and impact of AI-enhanced virtual laboratories in mechanical engineering education. AIP Conference Proceedings, 3268(1), 070019. Работа рассматривает влияние виртуальных лабораторий на базе ИИ на приобретение практических навыков студентами и персонализацию обучения.
5. Tuyboyov, O., Turdikulova, B., Davlatova, R., & Norov, S. (2025). The role of AI-driven intelligent tutoring systems in enhancing mechanical engineering education. AIP Conference Proceedings, 3268(1), 070038. Статья посвящена интеллектуальным обучающим системам, которые адаптируют учебные стратегии под индивидуальные стили обучения студентов.
6. Musaev, M., Rakhmatullaev, M., Normatov, S., Shukurov, K., & Abdullaeva, M. (2024). Integrated Intelligent System for Scientific and Educational Information Retrieval. ENVIRONMENT. TECHNOLOGIES. RESOURCES. Proceedings of the International Scientific and Practical Conference, 2, 156-160. В данной работе представлены результаты исследований по созданию интеллектуальных систем для поиска научно-образовательных ресурсов.

7. Djumanov, J., Sultanov, D., & Ruzimov, S. (2025). Creation of an Educational Platform that Develops the Core Competencies of Engineers. 2025 IEEE 26th International Conference of Young Professionals in Electron Devices and Materials (EDM), 2340-2344.Авторы представляют разработанную интеллектуальную образовательную платформу для формирования ключевых компетенций инженеров.
8. UNESCO-ICHEI. (2024). Analysis of Current Trends and Activities Related to the Integration of Artificial Intelligence into Higher Education in the CIS Republics
9. Tuyboyov, O. V., Lee, G. S., & Lee, G. Y. (2023). International Journal of Precision Engineering and Manufacturing-Green Technology, 10

SUN’IY INTELLEKTNI TA’LIM TIZIMIDA QO‘LLASHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI

Zaripov Olinjon Kuvandiq o‘g‘li, Innovatsion texnologiyalar universiteti Dasturiy injiniring kafedrasi, PhD, dotsent,

Omirbaeva Ariwxan - Innovatsion texnologiyalar Universiteti Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19629649

Annotatsiya: Maqolada raqamlashtirish sharoitida O‘zbekiston ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Sun’iy intellektning shaxsiyalashtirilgan ta’limni tashkil etish, avtomatik baholash va o‘qituvchi yukini kamaytirishdagi imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. O‘zbekiston sharoitida raqamli infratuzilma yetishmovchiligi, pedagoglarning raqamli savodxonligi pastligi, axborot xavfsizligi va etik muammolar kabi asosiy to‘siqlar ochib berilgan. Tadqiqot natijasida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, raqamlashtirish, ta’lim tizimi, shaxsiyalashtirilgan ta’lim, raqamli xavfsizlik, O‘zbekiston ta’limi.

Annotation: The article analyzes the current problems and development trends of using artificial intelligence technologies in the education system of Uzbekistan under digitalization conditions. The possibilities of artificial intelligence in organizing personalized learning, automated assessment and reducing the teacher’s workload are examined. The main obstacles such as insufficient digital infrastructure, low digital literacy of pedagogues, information security and ethical issues are revealed. As a result of the study, practical recommendations aimed at improving the quality of education have been developed.

Keywords: artificial intelligence, digitalization, education system, personalized learning, digital security, education in Uzbekistan.

KIRISH

Raqamlashtirish bugungi kunda ta’lim tizimining asosiy taraqqiyot omillaridan biriga aylandi. Sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari ta’lim jarayonini shaxsiyalashtirish, samaradorligini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekiston Respublikasida ta’limni raqamlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar, jumladan HEMIS tizimi va onlayn platformalarni joriy etish bu yo‘nalishda muayyan yutuqlarga erishilganini ko‘rsatmoqda. Biroq, sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga chuqur integratsiya qilishda bir qator zamonaviy muammolar mavjud.

Birinchi navbatda, raqamli infratuzilma yetishmovchiligi dolzarb muammo hisoblanadi. Ko‘pgina ta’lim muassasalarida, ayniqsa mintaqalarda yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy texnik jihozlar yetarli emas. Bu holat sun’iy intellekt asosidagi adaptiv o‘quv platformalari va generativ vositalardan to‘liq foydalanishni cheklaydi.

Ikkinchi muhim muammo — pedagog kadrlar va talabalar raqamli savodxonligi darajasi pastligidir. Ko‘plab o‘qituvchilar sun’iy intellekt vositalarini o‘quv jarayoniga qanday integratsiya qilishni yetarli darajada bilmaydilar yoki ularga nisbatan ishonchsizlik bildiradilar. Natijada, SI ning potensiali to‘liq ishga solinmayapti.

Uchinchi masala — raqamli xavfsizlik va etik muammolar. Sun’iy intellektdan foydalanishda shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, plagiat xavfi, SI tomonidan yaratilgan kontentning haqqoniyligi va axloqiy masalalar juda dolzarb bo‘lib qolmoqda. O‘zbekiston qonunchiligida bu yo‘nalishdagi tartibga solish hali to‘liq shakllanmagan.

Shu bilan birga, ijobiy tendensiyalar ham mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan tasdiqlangan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi”da SI asosidagi dasturiy mahsulotlar va xizmatlar hajmini 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish, hukumatning SI ga tayyorlik indeksida birinchi 50 talikka kirish kabi maqsadlar belgilangan. “Bir million sun’iy intellekt yetakchilari” milliy dasturi va xalqaro hamkorlikdagi loyihalar bu yo‘nalishda muhim qadamlar bo‘lmoqda. Dunyo tajribasida SI shaxsiyalashtirilgan ta’lim traektoriyalarini yaratish va o‘quvchilarning zaif jihatlarini tez aniqlashda yuqori samara berayotgani kuzatilmoqda.

Amaliy takliflar:

Ta’lim xodimlari uchun sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar bo‘yicha muntazam malaka oshirish kurslarini tashkil etish.

Ta’lim muassasalarida raqamli infratuzilmani rivojlantirish va bepul SI asosidagi o‘quv platformalarini keng joriy etish.

Sun’iy intellektdan ta’limda foydalanish bo‘yicha milliy etik kodeks va raqamli xavfsizlik standartlarini ishlab chiqish.

Mintaqaviy darajada SI ni ta’limda qo‘llash bo‘yicha pilot loyihalarni amalga oshirish va natijalarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, sun’iy intellektni ta’lim tizimiga muvaffaqiyatli integratsiya qilish ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Biroq bu jarayon infratuzilmani mustahkamlash, kadrlar tayyorlash va huquqiy-etik asoslarni takomillashtirishni talab etadi. Ushbu muammolarni hal etish orqali O‘zbekiston ta’lim tizimi raqamli jamiyat va raqamli iqtisodiyot talablariga to‘liq javob bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Multimedia texnologiyalaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish talabalar tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. U nafaqat o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, balki talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish kompetensiyalarini shakllantiradi. Shu bois, zamonaviy ta’lim tizimida multimedia texnologiyalarini keng joriy etish va ularni pedagogik jihatdan asoslangan holda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduqodirov A.A. **Ta’limda axborot texnologiyalari**. Toshkent: Fan, 2018.
2. Axmedov B.X. **Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat**. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Begimqulov U.Sh. **Pedagogik innovatsiyalar va ta’lim samaradorligi**. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. G‘ulomov S.S. **Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asoslari**. Toshkent: Universitet, 2017.

INTERNET KITOB DO‘KONI (E-COMMERCE) TIZIMINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA YARATISH

Auezova Raya Tleubaevna - Innovaciyalıq texnologiyalar universiteti “Dasturiy injiniring” kafedrası docent w.w.a p.i.f.d. (PhD)

Yusupbaev Sardorbek - “Dasturiy injiniring” tálim baǵdarı 4-kurs studenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.19630407

Annotatsiya: Mazkur tezisda internet kitob do‘koni (e-commerce) tizimini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yaratish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda web-ilovalar ishlab chiqishda qo‘llaniladigan frontend va backend texnologiyalar, ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari hamda to‘lov xizmatlari integratsiyasi tahlil qilinadi. Shuningdek, tizimning samaradorligi, kengayuvchanligi va xavfsizligini ta’minlovchi texnologik yechimlar ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Elektron tijorat, zamonaviy texnologiyalar, web-ilova, React, Django, REST API, ma’lumotlar bazasi, axborot xavfsizligi.

KIRISH

Raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida elektron tijorat tizimlari global iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylandi. Xususan, internet kitob do‘konlari foydalanuvchilarga qulay, tezkor va ishonchli xizmat ko‘rsatish imkonini yaratadi. Bunday tizimlarni samarali ishlab chiqish uchun zamonaviy dasturlash texnologiyalari va arxitektura yondashuvlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism

Internet kitob do‘koni tizimini yaratishda bir qator zamonaviy texnologiyalar qo‘llaniladi. Frontend qismi foydalanuvchi interfeysini tashkil etib, React kabi JavaScript kutubxonalari yordamida ishlab chiqiladi. Ushbu texnologiya yordamida dinamik va interaktiv foydalanuvchi muhiti yaratiladi.

Frontend texnologiyalari internet kitob do‘koni tizimining foydalanuvchi bilan bevosita aloqada bo‘ladigan qismi hisoblanadi. Ushbu qatlam foydalanuvchi interfeysini (UI) yaratish, foydalanuvchi tajribasini (UX) ta’minlash hamda tizim

bilan qulay ishlash imkoniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Frontend brauzerda ishlaydi va backend bilan **HTTP so‘rovlar orqali REST API** yordamida aloqa qiladi. Zamonaviy web-ilovalarni ishlab chiqishda keng qo‘llaniladigan frontend texnologiyalardan biri **React** kutubxonasi hisoblanadi. React komponentlarga asoslangan arxitekturaga ega bo‘lib, foydalanuvchi interfeysini kichik va qayta ishlatiladigan qismlarga ajratish imkonini beradi. Bu esa kodni boshqarishni osonlashtiradi va tizimni kengaytirishni soddalashtiradi.

Backend texnologiyalari internet kitob do‘koni tizimining asosiy funksional qismi bo‘lib, barcha biznes logikani amalga oshiradi va foydalanuvchi so‘rovlarini qayta ishlaydi. Ushbu qatlam server tomonida ishlaydi va frontend bilan o‘zaro aloqani **REST API** orqali ta’minlaydi. Backend tizimi foydalanuvchilarni ro‘yxatdan o‘tkazish va autentifikatsiya qilish, kitoblar katalogini boshqarish, buyurtmalarni qayta ishlash hamda to‘lov operatsiyalarini nazorat qilish kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Zamonaviy web-ilovalarni ishlab chiqishda keng qo‘llaniladigan backend texnologiyalar qatoriga **Django (Python) va Node.js (JavaScript)** kiradi. Django yuqori darajadagi xavfsizlik mexanizmlari, tez ishlab chiqish imkoniyati va mustahkam arxitekturasi bilan ajralib turadi. Node.js esa asinxron ishlash modeli orqali yuqori samaradorlikni ta’minlab, real vaqt tizimlarini yaratishda qulaylik yaratadi.



Rasm 1. REST API arxitekturasi va uning ishlash mexanizmi

Backend qismi ma’lumotlar bazasi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, PostgreSQL yoki MySQL kabi tizimlar orqali ma’lumotlarni saqlash va boshqarish amalga oshiriladi. Bundan tashqari, backend tizimida API xavfsizligini ta’minlash, so‘rovlarni optimallashtirish va tizim yuklamasini boshqarish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli zamonaviy backend texnologiyalaridan samarali foydalanish internet kitob do‘koni tizimining barqaror, tezkor va xavfsiz ishlashini ta’minlaydi. Backend qismi tizimning asosiy logikasini amalga oshiradi va server tomonida ma’lumotlarni qayta ishlaydi. Django yoki Node.js platformalari backendni ishlab chiqishda keng qo‘llanilib, ular REST API orqali frontend bilan o‘zaro aloqa qiladi. Ma’lumotlar bazasi sifatida PostgreSQL yoki MySQL tizimlaridan foydalaniladi. Bu tizimlar katta hajmdagi ma’lumotlarni ishonchli saqlash va tezkor qayta ishlash imkonini beradi. Tizimda foydalanuvchilar, kitoblar, buyurtmalar va to‘lovlar haqidagi ma’lumotlar strukturalashtirilgan holda saqlanadi. Elektron to‘lov tizimlari integratsiyasi ham muhim komponent hisoblanadi. Zamonaviy e-commerce tizimlarida Click, Payme yoki xalqaro Stripe kabi xizmatlar orqali onlayn to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Axborot xavfsizligini ta’minlash uchun HTTPS protokoli, parollarni hash algoritmlari orqali saqlash va autentifikatsiya mexanizmlari joriy etiladi. Bu esa foydalanuvchi ma’lumotlarini himoyalashga xizmat qiladi. Axborot xavfsizligi internet kitob do‘koni tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Elektron tijorat platformalarida foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlari, to‘lov rekvizitlari va buyurtmalar haqidagi axborotlar qayta ishlanadi va saqlanadi, shu sababli ularni himoyalash ustuvor vazifa hisoblanadi. Tizimda xavfsizlikni ta’minlash uchun HTTPS protokoli orqali ma’lumotlarni shifrlash, foydalanuvchi autentifikatsiyasi va avtorizatsiyasi mexanizmlarini joriy etish, parollarni zamonaviy xesh algoritmlari (masalan, bcrypt) yordamida saqlash talab etiladi. Bundan tashqari, SQL injection, XSS (Cross-Site Scripting) va CSRF kabi keng tarqalgan hujum turlariga qarshi himoya choralarini qo‘llash zarur. Tizimga kirishni nazorat qilish, foydalanuvchi faoliyatini monitoring qilish hamda zaxira nusxalarini yaratish orqali tizimning barqarorligi va ishonchliligi ta’minlanadi. Shu bilan birga,

xavfsizlik siyosatini muntazam yangilab borish va zamonaviy kiberxavfsizlik standartlariga rioya qilish elektron tijorat tizimining uzluksiz va xavfsiz ishlashini kafolatlaydi.

Xulosa

Mazkur tezis doirasida internet kitob do‘koni (e-commerce) tizimini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yaratishning muhim jihatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida frontend, backend va ma’lumotlar bazasi texnologiyalarining o‘zaro integratsiyasi tizimning samarali ishlashida asosiy omil ekanligi aniqlandi. Xususan, React asosidagi foydalanuvchi interfeysi qulay va interaktiv muhit yaratishga xizmat qilsa, Django yoki Node.js kabi backend texnologiyalari tizimning asosiy logikasini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, ma’lumotlar bazasini to‘g‘ri tashkil etish va elektron to‘lov tizimlarini integratsiya qilish orqali savdo jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyati yaratiladi. Axborot xavfsizligini ta’minlash, ya’ni foydalanuvchi ma’lumotlarini himoyalash, autentifikatsiya va shifrlash mexanizmlarini joriy etish tizimning ishonchliligini oshiradi.

Natijada, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan internet kitob do‘koni tizimi foydalanuvchilarga tezkor, qulay va xavfsiz xizmat ko‘rsatadi hamda elektron tijorat sohasining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kelgusida bunday tizimlarga sun’iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlari, chatbotlar va analitik modullarni joriy etish orqali ularning samaradorligini yanada oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov A.A. *Axborot texnologiyalari*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2020.

2. Xolmatov T.X. *Dasturlash asoslari va zamonaviy texnologiyalar*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.

3. Yuldashev B.S. *Elektron tijorat asoslari*. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

4. Laudon K.C., Laudon J.P. *Management Information Systems: Managing the Digital Firm*. — Pearson Education, 2020.

5. OWASP Foundation. *OWASP Top Ten Web Application Security Risks*. — 2021.

6. PostgreSQL Global Development Group. *PostgreSQL Documentation*. — 2023

7. Turayev A.K., Matyusupova S.O. **Elektron biznesni O‘zbekiston sharoitida rivojlantirish bosqichlari** // Ilmiy tadqiqot, 2025.

8. Pleskach V., Kryvolapov Y., Zelikovska O**.** Investigating E-Commerce Systems for Book Sales: From Theoretical Foundations to Software Development // CEUR Workshop Proceedings, 2024.

4-SHO‘BA: RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQANI IQTISODIY TARAFDAN RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI

ASOSIY KAPITALGA O‘ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR VA IQTISODIY O‘SISH O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK TAHLILI

Aydaniyazova Baxtigul Abilkasimovna *- University of innovation technologies Moliya va iqtisodiyot kafedrasi v.v.b docent*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19628812

Annotatsiya: Ushbu tezisda Qoraqalpog‘iston Respublikasida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning dinamikasi hamda ularning hududiy yalpi mahsulotga (YaIM) ta’siri ekonometrik usullar asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida ijobiy hamda statistik ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: investitsiya, YaIM, panel model, ekonometrika, hududiy rivojlanish

Abstract: In this thesis, the dynamics of assimilated investments in fixed capital in the Republic of Karakalpakstan and their impact on the gross regional product (GDP) were analyzed based on econometric methods. The research results showed that there is a positive and statistically significant relationship between investment and economic growth.

Key words: investment, GDP, panel model, econometrics, regional development

Kirish. So‘nggi o‘n yillikda O‘zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshib bordi va bu jarayon mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, 2017 yildan boshlab iqtisodiyotni liberallashtirish, valyuta bozorini erkinlashtirish va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar xorijiy investorlar faolligini keskin oshirdi[1].

Mavzuning dolzarbligi. So‘nggi yillarda hududiy iqtisodiy rivojlanishda asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.Xususan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida investitsiyalar hajmining sezilarli darajada o‘sishi iqtisodiy faollikning kengayishi bilan bog‘liqdir. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi investitsiyalar dinamikasini baholash hamda ularning hududiy yalpi mahsulotga (YaIM) ta’sirini ekonometrik usullar yordamida aniqlashdan iborat[2].

Hozirgi globallashuv sharoitida iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda investitsiyalar muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va infratuzilmani rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida so‘nggi yillarda investitsiya faoliyatining sezilarli darajada oshgani kuzatilmoqda. Bu esa hududiy iqtisodiy o‘sishning asosiy manbalaridan biri sifatida qaraladi. Shu sababli investitsiyalar va YaIM o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqur tahlil qilish dolzarb hisoblanadi[3].

Adabiyotlar sharhi. Iqtisodiy nazariyada investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy determinantlaridan biri sifatida keng o‘rganilgan. Xususan, Robert Solow tomonidan ishlab chiqilgan neoklassik o‘sish modeli investitsiyalarni kapital jamg‘arishning asosiy manbai sifatida talqin qiladi. Ushbu modelga ko‘ra, investitsiyalar hajmining oshishi kapital zaxirasini ko‘paytiradi va natijada ishlab chiqarish hajmi ortadi. Biroq, model uzoq muddatda kamayib boruvchi qaytish (diminishing returns) qonunini ham hisobga oladi. Keyingi rivojlanish bosqichida endogen o‘sish nazariyasi vakillari, jumladan Paul Romer va Robert Lucas Jr., investitsiyalarni nafaqat jismoniy kapital, balki inson kapitali va innovatsiyalar bilan bog‘liq holda tahlil qildilar. Ushbu yondashuvga ko‘ra, investitsiyalar texnologik taraqqiyot va bilimlar oshishi orqali iqtisodiy o‘sishga doimiy ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Empirik tadqiqotlarda investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi bog‘liqlik keng qo‘llaniladigan ekonometrik usullar yordamida baholangan. Masalan, Robert Barro va Xavier Sala-i-Martin o‘z tadqiqotlarida kross-mamlakatlar kesimida regressiya tahlilini qo‘llab, investitsiyalar darajasi va

iqtisodiy o‘sish o‘rtasida ijobiy va statistik ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini aniqlaganlar. Shuningdek, panel ma’lumotlar asosida olib borilgan tadqiqotlar investitsiyalarning hududiy iqtisodiy o‘sishga ta’sirini yanada aniqroq baholash imkonini beradi. Panel regressiya modellari (Fixed Effects va Random Effects) yordamida hududlar o‘rtasidagi o‘zgarmas farqlar nazorat qilinadi va natijalarning ishonchliligi oshiriladi. Bu yondashuv ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotini tahlil qilishda samarali hisoblanadi.

Ma’lumotlar va metodologiya. Tadqiqotda 2010–2025 yillar davomida Qoraqalpog‘iston Respublikasining tumanlari kesimida asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar ma’lumotlaridan foydalanildi[4].

1-jadval

	2010 y.	2011 y.	2012 y.	2013 y.	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.	2025 yil yanvar-dekabr *)
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	**496,4**	**950,3**	**1 242,1**	**2 415,0**	**3 990,6**	**6 021,2**	**3 778,3**	**2 822,0**	**6 757,8**	**8 750,6**	**7 089,8**	**8 110,7**	**10 254,0**	**12 959,2**	**20 567,7**	**27 010,1**
Nukus sh.	100,0	182,4	468,2	1 576,8	738,8	797,7	591,4	1 087,7	1 401,7	1 620,7	1 248,5	1 681,8	2 414,8	3 028,2	3 381,1	3 554,5
tumanlar:																
Amudaryo	25,0	37,3	110,0	103,1	56,6	72,7	86,9	90,3	134,5	210,8	317,1	449,2	540,6	382,9	597,0	884,5
Beruniy	19,8	34,1	56,8	44,1	48,2	77,8	109,5	93,0	281,2	249,2	383,6	425,4	449,9	350,0	567,4	1 557,3
Bo‘zatov	-	-	-	-	-	-	-	-	-	29,9	103,6	99,5	118,6	104,1	63,9	156,6
Qonao‘zak	7,3	11,1	9,8	12,5	32,1	82,7	70,6	55,9	278,0	208,0	198,4	308,8	1 881,2	2 818,8	6 528,9	2 636,1
Kegeyli	9,0	12,4	17,3	15,7	19,0	14,5	16,3	48,9	100,5	111,4	82,4	139,4	156,6	126,6	118,6	279,5
Qo‘ng‘irot	77,9	98,8	159,1	219,9	2 721,0	4 558,6	1 926,9	530,6	812,7	839,2	948,6	1 071,1	1 199,3	2 225,2	4 856,2	9 542,4
Qanliko‘l	4,0	6,1	9,8	14,5	14,9	11,3	22,0	46,9	73,8	358,4	68,4	158,5	168,0	167,9	245,1	443,7
Mo‘ynoq	28,6	23,3	21,2	50,4	102,1	127,0	555,6	382,4	703,8	1 567,2	1 329,3	1 449,5	998,7	1 211,7	1 754,8	3 606,2
Nukus	7,1	12,0	17,9	27,3	41,8	45,7	67,6	56,3	117,5	193,9	130,7	182,0	222,5	338,4	265,1	907,1
Taxiatosh	12,4	15,0	14,5	-	-	-	-	30,8	2 144,6	1 517,1	565,4	312,7	352,2	106,8	175,9	835,2
Taxtako‘pir	2,9	4,5	5,9	5,3	7,2	8,2	7,7	19,9	86,4	44,2	108,1	87,9	77,9	108,1	128,1	372,3
To‘rtko‘l	22,6	29,1	28,6	39,4	49,9	61,5	65,0	66,9	153,4	701,9	771,9	774,1	549,0	727,1	575,5	670,9
Xo‘jayli	18,3	38,9	48,9	65,3	67,8	67,7	116,4	75,5	124,3	278,0	125,7	238,2	310,0	319,6	296,9	281,0
Chimboy	12,9	14,4	18,2	23,4	22,3	24,6	24,1	33,3	108,0	167,3	167,0	207,4	255,7	294,2	432,3	596,6
Shumanay	3,9	9,6	9,2	7,5	14,0	12,0	13,2	48,9	64,6	229,3	131,4	90,8	125,0	122,6	138,8	166,2
Ellikqal‘a	16,2	26,0	41,2	41,0	47,6	59,0	104,2	142,0	158,2	407,5	409,7	434,4	434,0	527,0	442,1	520,0
Bo‘linmaydigan hajm	128,5	395,3	205,5	168,8	7,3	0,2	0,9	12,7	14,8	16,6	-	-	-	-	-	-

Manba: Ushbu malumotlar Qoraqalpog‘iston Respublikasida Prezidenti huziridagi Statistikaning rasmiy saytidan olingan.

Ma’lumotlar panel ko‘rinishda bo‘lib, vaqt va hudud kesimini o‘z ichiga oladi. Ekonometrik model quyidagicha ifodalanadi:

$$\ln GDP_{it} = \beta_0 + \beta_1 + lnI_{it} + \mu_i + \alpha_i + \varepsilon_{it}$$

Bu yerda: GDP_{it}- hududiy yalpi mahsulot; I_{it} −asosiy kapitalga investitsiyalar; μ_i −hududiy effect; α_i −vaqt effekti; ε_{it} −tasodifiy xatolik. Mazkur

model logarifmik shaklda baholanib, natijalarni elastiklik kórinishda talqin qilish imkonini beradi.

O‘zgaruvchi	Koeffitsient	p-value
ln(I)	0.52	0.000
Const	1.85	0.01
R^2	0.87	—

2-jadval. Panel regressiya natijalari (Fixed Effects)

Jadvalni talqin qilsak $\beta_1 = 0{,}52$ bu esa investitsiya 1% oshsa, YaIM 0,52%ga oshadi. Statistik ahamiyati $p < 0{,}05$ natiyja ishonchli.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2010–2025 yillar davomida investitsiyalar hajmi umumiy o‘sish tendensiyasiga ega. Xususan:

2010–2015 yillarda investitsiyalar tez sur’atlarda oshgan

2016–2017 yillarda qisqa muddatli pasayish kuzatilgan

2018 yildan boshlab barqaror o‘sish davom etgan

2023–2025 yillarda maksimal darajaga yetgan

Bu holat hududda olib borilgan iqtisodiy islohotlar, investitsiya muhitining yaxshilanishi va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarining natijasi sifatida izohlanadi. Ekonometrik tahlil natijalariga kura panel regressiya natijalari investitsiyalar va YaIM o‘rtasida ijobiy va statistik ahamiyatli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Asosiy natijalar quyidagicha bólib investitsiya koeffitsienti musbat va ahamiyatli, modelning izohlanish darajasi yuqori bólib va hududiy effektlar muhim rol o‘ynaydi. Natijalarga ko‘ra, investitsiyalar 1% oshganda, YaIM o‘rtacha 4%–6% foizga oshadi. Bu esa investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini bildiradi[5].

Muhokama. Olingan natijalar iqtisodiy nazariya va avvalgi empirik tadqiqotlar bilan mos keladi. Investitsiyalar iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi asosiy omillardan biri ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Shu bilan birga, hududlar kesimida investitsiya samaradorligining farqlanishi aniqlangan bo‘lib, bu infratuzilma darajasi, ishlab chiqarish salohiyati va mehnat resurslari bilan izohlanadi.

Xulosa va takliflar. O‘tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- Asosiy kapitalga investitsiyalar barqaror o‘sish tendensiyasiga ega
- Investitsiyalar va YaIM o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjud
- Hududiy farqlar investitsiya samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi

Qoraqalpog‘iston Respublikasida kam rivojlangan hududlarga investitsiyalarni yo‘naltirish va infratuzilmani rivojlantirish Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kuchaytirish chora tadbirlarin ishlab chiqish. Hududiy investitsiya siyosatini takomillashtirish. Investorlar infratuzilma rivojlangan hududlarga ko‘proq sarmoya kiritadi. Transport yo‘nalishlari energetika ta’minoti, suv resurslari va ekologiya va raqamli infratuzilmalanri rivojlandirish kerek.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investisiya faoliyati to‘g‘risida”gi 2019 yil 25 dekabrdagi O‘RQ-598-son Qonuni.

2. Investitsiya (2024). O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. 2024-yilgi Investitsiya dasturi yakunlari. — Toshkent, 2024.

3. To‘raqulov, S. va Qodirova, N. (2024). “O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning zamonaviy mexanizmlari.” Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali, №2: 45–52.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika agentligi rasmiy sayti ma’lumotlari (www.qr.stat)

5. Akhmedov, B. “Long-term Effects of FDI in Uzbekistan’s Economy.” Journal of Economic Studies, 2022.

MINTAQAVIY DEMOGRAFIK JARAYONLARNI O‘RGANISH MANBALARI VA ULARNING IQTISODIY BOSHQARUVDAGI AHAMIYATI

Esengeldiev Dauranbay Nietbaevich *University of innovation technologies Dasturiy injiniring kafedrasi dotsent v.v.b*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19629080

Annotatsiya: Ushbu tezisda mintaqaviy demografik jarayonlarni o‘rganish manbalari hamda ularning iqtisodiy boshqaruvdagi ahamiyati yoritiladi. Aholini ro‘yxatga olish, demografik hodisalarning joriy hisobi, namunaviy va maxsus tadqiqotlar, registrlar kabi ma’lumot manbalarining demografik tahlildagi o‘rni asoslab beriladi. Shuningdek, demografik koeffitsientlar tizimi orqali aholi holatini baholash, ishonchli demografik ma’lumotlarning hududiy iqtisodiy rejalashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyati yoritiladi. Tezisda demografik jarayonlarni chuqur o‘rganish mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim omil ekani ko‘rsatib beriladi.

Kalit sozlar: Demografiya, demografik jarayonlar, aholi soni, tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish, migratsiya, immigratsiya, ichki migratsiya, demografik koeffitsientlar, aholini ro‘yxatga olish, demografik tadqiqotlar, registrlar, mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy boshqaruv, hududiy rejalashtirish, mehnat resurslari.

Abstract: This thesis highlights the sources for studying regional demographic processes and their importance in economic management. It substantiates the role of data sources such as population censuses, current records of demographic events, sample and specialized surveys, and registers in demographic analysis.It also explains how the system of demographic coefficients is used to assess the population’s condition and emphasizes the importance of reliable demographic data in regional economic planning and decision-making. The thesis demonstrates that an in-depth study of demographic processes is a key factor in developing regional development strategies.

Keywords: demography, demographic processes, population size, birth rate, mortality, marriage, divorce, migration, immigration, internal migration, demographic coefficients, population census, demographic studies, registers, regional economy, economic management, territorial planning, labor resources.

Zamonaviy sharoitda aholi to‘g‘risidagi ishonchli ma’lumotlar mintaqaviy iqtisodiy rejalashtirish va boshqaruvning muhim asosi hisoblanadi. Aholini

ro‘yxatga olish, demografik hodisalarning joriy hisobi, namunaviy va maxsus demografik tadqiqotlar, shuningdek registrlar va aholi ro‘yxatlari demografik jarayonlarni o‘rganishda asosiy va to‘ldiruvchi manbalar sifatida xizmat qiladi. Ushbu manbalar orqali aholi soni, uning yosh va jinsiy tarkibi, migratsiya harakati hamda tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlari aniqlanadi[1].

Bugungi kunda aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlari kabi aholini ro‘yxatga olish, demografik hodisalarning joriy hisobi, namunaviy va maxsus demografik tadqiqotlar hamda registrlar va aholi ro‘yxatlari kabi to‘ldiruvchi manbalardan foydalaniladi. Demografik jarayon aholini ko‘chirish, uning soni va yosh, jinsiy tarkibiga ta’sir ko‘rsatadigan har qanday hodisaning vaqt va makonda rivojlanishini aks ettiruvchi hodisalar to‘plamidir. Demografik jarayonlar tarkibiga tug‘ilish o‘lim, nikoh, nikohni qurish (ajralish va beva qolish) hamda aholi migratsiyasi kabilar kiradi.

Ayrim demografik jarayonlar aholi ko‘rinishi va uning dinamikasi bilan bog‘liq bo‘ladi. Tug‘ilish, o‘lim, nikoh va nikohning tugashi aholining ko‘payish rejimini, migratsiya bilan birgalikda aholining ko‘proq yoki kamayishi va uning yosh-jinsiy tarkibidagi o‘zgarish yo‘nalishini asoslaydi. Tegishli hodisalar sonidan qat’iy nazar, tug‘ilish, nikoh va immigratsiya aholining ko‘rish va o‘sishini ta’minlashga yordam beradi. Aholining ko‘rish jarayonlari bir-biriga nisbatan demografik jarayonga aylanib, o‘zaro ta’sir qiladi. Aholi va ayrim guruhga yoki yosh guruhiga nisbatan davriylikni o‘lchaydi. Har bir demografik jarayon uchun demografik koeffitsientlar tizimi mavjud bo‘ladi[2].

Demografik jarayonlar haqidagi ma’lumotlar ishonchli bo‘lishi, ya’ni sodir bo‘layotgan voqealarning haqiqiy manzarasini to‘g‘ri aks ettirishi kerak. Demografik ma’lumotlarning ishonchliligi boshqaruv qarorlarining jiddiy salbiy oqibatlarini oldini olishga yordam beradi. Demografiyada tug‘ilish deganda ma’lum vaqt oralig‘ida tug‘ilish davriyligi va bosqichlari tushuniladi[2].

Hozirgacha tug‘ilish, o‘lim va migratsiya holati demografik jarayon va davlatning tarixiy nuqtai nazarini chuqurroq baholash uchun joylashtiriladi. Ushbu parametrlarning ta’siri kompozitsion tarzda namoyon bo‘ladi va iqtisodiy sohalarga

o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichlar davlatning demografik tuzilishini qanday o‘zgartirish holatlariini aholining yoshi va jinsi taqsimotidan baholash mumkin. Aholining yoshi va jinsi tuzilishining grafik tasviri tur deb nomlanadi[3].

Bugungi kunda dunyo bo‘ylab har qachongidan ham ko‘proq kishilar harakat qilmoqdalar. Shunga o‘xshab, aholining qarishi insoniyat yutuqlarining natijasi deb tadqiq qilinadi va unga moslashib boriladi. Demografik jarayonlarni ahamiyati shundaki, tanlovni mavjudligi, o‘zgarishlardan xabardor ekanlik va munosabatlar bilan cheklanmaganlik sharoitida yaxshi bo‘lib tushuniladi[4].

Demografik jarayon demografik o‘tish bosqichlariga asoslanadi (1-rasm).



1-rasm. Demografik o‘tish bosqichlari

Ushbu rasmga ko‘ra, demografik o‘tish bosqichlari bevosita tarkibiy unsurlari va ko‘rsatkichlariga asoslanadi. Demografik jarayon kishilar hayotidagi demografik voqealar ketma-ketligi va o‘zgarishi uchun muhim yo‘nalish bo‘lib hisoblanadi. Asosiy demografik jarayonlar tug‘ilish, o‘lim, nikoh va nikohni tugatish orqali demografik hodisalarning ketma-ket boshlanishi tufayli sodir bo‘ladi. U orqali

demografik tahlil amalga oshirilib, unda bir yoki bir nechta demografik jarayonlar qarab chiqiladi. Ba’zida demografik jarayon umumiy aholining ko‘payishi yoki tug‘ilish va o‘lim natijasida butun aholi sonining o‘zgarishi sifatida demografik hodisalarni aks ettiradi.

Demografik jarayonning asosiy xususiyatlari demografik jarayonning intensivligi bo‘lib, avloddagi demografik hodisalar o‘zgarishi bilan o‘lchanadi va ushbu holatlarni demografik jarayonning taqvimi qayd etadi.

Demografik jarayonlarni amalga oshirish shart-sharoitlari ular bilan bog‘liq tadqiqotlarni amalga oshirishga taqozo qiladi. Bu borada ko‘pgina yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, ba’zi tadqiqotlarda oilaviy demografik jarayonlarni ishdagi qashshoqlik bilan bog‘laydigan 30 ta tadqiqot va 86 ta tahlil muntazam ravishda ko‘rib chiqildi. Vaqt o‘tishi bilan o‘zaro ta’sir doirasi o‘zgarib tursa-da, demografik tendensiyalarning o‘zgarishi globallashuv jarayonlari bilan birga mavjud bo‘ladi[5].

Demografik jarayonlarni to‘g‘ri o‘rganish va ularning ishonchli manbalariga tayanish mintaqaviy iqtisodiy boshqaruvda muhim ahamiyatga ega. Demografik ko‘rsatkichlar asosida hududiy rejalashtirish, mehnat resurslarini joylashtirish va iqtisodiy siyosatni shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Щербаков А.И. Демография: учеб. пособие. / А.И.Щербаков, М.Г.Мдинарадзе, А.Д.Назаров, Е.А.Назарова; под общ. ред. д-ра экон. наук, профессора А.И.Щербакова. - М.: ИНФРА-М, 2017. - с. 8.

Качагина О.В. Основы демографии: основы теории и практические задания. Учебное пособие. – Уляновск: УлГУ, 2016. - с. 23.

Рыбкина М.В. Демография. Учебное пособие. – Уляновск: УлГТУ, 2021. - с. 25.

4. Антонова Н.Л. Демография: учеб.-метод. пособие. / Н.Л.Антонова; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2014. - с. 42.

5. Esengeldiev D.N. Mintaqa iqtisodiyotida demografik jarayonlarni tutgan o‘rni // “Mintaqada barqaror turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”

respublika miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari/ 29-30 Noyabr, 2024-yil Urganch, O‘zbekiston 243-246 betlar.

MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIDA DEMOGRAFIK JARAYONLARNING ROLI

Esengeldiev Dauranbay Nietbaevich *University of innovation technologies Dasturiy injiniring kafedrasi dotsent v.v.b*

Aydaniyazova Baxtigul Abilkasimovna *University of innovation technologies Moliya va iqtisodiyot kafedrasi dotsent v.v.b*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19629203

Annotatsiya: Ushbu tezisda mintaqa iqtisodiy rivojlanishida demografik jarayonlarning tutgan o‘rni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, demografik jarayonlarni samarali boshqarish orqali mintaqaning iqtisodiy salohiyatidan to‘liq foydalanish, bandlikni ta’minlash, migratsiyani tartibga solish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi. Tezisda demografik va iqtisodiy siyosat uyg‘unligining mintaqaviy rivojlanishdagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit sozlar: Demografiya, aholi soni, aholining qarishi, migratsiya, immigratsiya, ichki migratsiya, demografik jarayon.

Abstract: This thesis examines the role of demographic processes in regional economic development from both theoretical and practical perspectives. It also highlights ways to fully utilize a region’s economic potential through the effective management of demographic processes, ensuring employment, regulating migration, and achieving sustainable economic growth. The thesis emphasizes the importance of the alignment between demographic and economic policies in regional development.

Keywords: Demography, Population size, Population aging, Migration, Immigration, Internal migration, Demographic process.

Demografiya aholining soni, hududiy taqsimoti va tarkibi, ularning o‘zgarishi va uni sabab va oqibatlari, ijtimoiy-iqtisodiy omillarning o‘zaro bog‘liqligi va

tabiatdagi o‘zgarishlarni o‘rganuvchi fan va soha bo‘lib hisoblanadi. Demografiya – har qanday jarayonning ijtimoiy-tarixiy shartliligida aholining takror ishlab chiqarish qonuniyatlari haqidagi fandir. Demografiyaning asosiy muammolarini hal qilish uchun har qanday fan kabi yetarli ma’lumotlar zarur bo‘ladi. Aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlar birlamchi yoki dastlabki va nashrlar, maqolalar, monografiyalar va boshqalar ko‘rinishidagi tahliliy ish natijasini ifodalovchi ikkilamchi yoki o‘zgartirilgan kabi ma’lumot turlariga bo‘linadi[1].

Barcha o‘zgarishlar soni aholi va jamiyat rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Demografik hodisalarning rivojlanish qonuniyatlarini tasavvur qilish faqat demografik hodisalar haqida har tomonlama va ishonchli ma’lumotlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Bu esa demografik ma’lumotlarning hajmi va sifatiga hamda aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlar manbalariga qo‘yiladigan talablarni oldindan belgilab beradi.

Demografik jarayon - tug‘ilish va o‘lim natijasida umumiy aholining ko‘payishi yoki butun aholi sonining o‘zgarishidir. Shularga asosan, demografik jarayonlar - aholining geografik hududlarda tarqalishiga ta’sir qiluvchi aholi tarkibining o‘zgarishi bo‘lib hisoblanadi. Ushbu jarayonlarga tug‘ilish, o‘lim darajasi va migratsiya ko‘rsatkichlari kiradi. Tug‘ilish koeffitsienti - bir yil davomida aholining har 1000 kishiga to‘g‘ri keladigan tirik tug‘ilganlar soni bilan namoyon bo‘ladi[2].

Demografik jarayonlar - geografik hududlarda kishilarni tarqalishiga ta’sir qiluvchi aholi tarkibining o‘zgarishidir. Tug‘ilish ahol tarkibining belgilangan hajmiga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Kam rivojlangan mamlakatlarda tug‘ilish darajasi eng yuqori bo‘lsa-da, ularda urbanizatsiyalashgan hududlar esa eng past ko‘rsatkichga egaligi bilan ajralib turadi.

Aholining qarishi ma’lum aholining yosh tarkibidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan jarayon bo‘lib, aholi tarkibidagi keksa kishilar ulushining ortib borishini anglatadi. O‘lim darajasi ko‘rsatkichi - ma’lum bir yil davomida aholining har 1000 kishiga yiliga o‘lim sonidir. Tug‘ilishga o‘xshab, o‘lim darajasi ayrim

hududlarda eng yuqori, ammo texnologik jihatdan rivojlangan hududlarda past bo‘lishi mumkin.

Muayyan vaqt davomida aholi uchun tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlaridan foydalanish demografiya sohasidagi mutaxassislarga ushbu aholi uchun yosh tarkibi o‘zgarishlarini hisoblash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni aniqlash imkonini beradi. Yosh tarkibi o‘zgarishi - aholining bir nechta aniq belgilangan yoshlarni har biriga qancha kishi mos kelishini aniqlash bilan namoyon bo‘ladi.

Migratsiya yana bir demografik jarayon bo‘lib, u aholi tarkibiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Migratsiya ko‘rsatkichi kishilarni bir geografik hududdan boshqasiga harakatlanishi sifatida aniqlashga imkon beradi. Kishilarni bitta geografik joylashuvni tark etishga undaydigan holatlarni ilgari surish va kishilarni boshqa joyga jalb qilish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Uning tarkibida migratsiyaning ikki turi, immigratsiya va ichki migratsiya alohida ajratib o‘rganiladi.

Immigratsiya - kishilarning bir mamlakatdan boshqasiga o‘tishi bilan namoyon bo‘ladi. Bunga misol bo‘lib, ko‘pchilik kishilarning AQShdan Yevropa xalqlaridan millionlab kishilarning harakatini aniqlashga imkon beradi. Turli millat va madaniyatlarga ega bo‘lgan yevropaliklar AQShga imkoniyat izlab ko‘chib o‘tdilar. Ko‘pchilik o‘z vatandoshlari tashkil etilgan joyga joylashdilar. Bu italyan, nemis, irland va boshqalar bo‘lgan mahallalarga olib keldi.

Ichki migratsiya - millat ichida kishilarning bir hududdan ikkinchisiga o‘tishidir. Bu ma’lum mintaqalar va jamoalar aholisini o‘zgartiradi va millat aholisini o‘zgartirmaydi. Ushbu jarayonlar turli millat, madaniy kelib chiqishi va yoshidagi kishilarning geografik hududlarda taqsimlanishini aniqlaydi. Bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita hududdagi ish turlari, daromad va ta’lim darajasi, jinoyatchilik darajasi va boshqa qator madaniy omillarga ta’sir qiladi[3].

Demografik jarayon - avlodlarning tabiiy o‘zgarishini ta’minlaydigan, mehnat resurslarining umumiy aholining tarkibiy qismi sifatida shakllanishiga ta’sir qiluvchi va mamlakat, mintaqa va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ijtimoiy-iqtisodiy omillariga bog‘liq bo‘lgan tug‘ilish va o‘lim hodisalari majmuidir.

Demografik jarayonlar haqidagi ma’lumotlar ishonchli bo‘lishi, ya’ni sodir bo‘layotgan voqealar holatini aks ettirishi lozim. Demografik ma’lumotlarni ishonchliligi boshqaruv qarorlarining salbiy oqibatlarini oldini olishga imkon beradi. Aholi haqidagi axborot manbalariga qo‘yiladigan talab ularning faolligi va xilma-xilligidir[4].

Tafsilotlar demografik hodisalarning umumiy soni, tartibi, tuzilishi, mintaqaviy namoyon bo‘lish xususiyatlari va boshqalarni hisobga olish kabilarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, aholi to‘g‘risidagi ma’lumotlar manbalari demografik jarayonlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni vaqti-vaqti bilan emas, ya’ni tizimli ravishda ajratib olish imkonini berishi lozim. Shunda aholining rivojlanishi to‘g‘risida ishonchli va turli ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin bo‘ladi.

Demografik ma’lumotlar tabiati va hajmiga qo‘yilgan yuqori talablar aholi ma’lumotlari manbalari tizimining mavjudligini taqozo etadi. Demografik axborot tizimining turli va bir-birini to‘ldiruvchi tarkibiy qismlaridan foydalangan holda mamlakat yoki uning qismlarida demografik jarayonlar holati va tendensiyalarini yetarlicha to‘liq va sifatli tavsiflash mumkin[5].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Щербаков А.И. Демография: учеб. пособие. / А.И.Щербаков, М.Г.Мдинарадзе, А.Д.Назаров, Е.А.Назарова; под общ. ред. д-ра экон. наук, профессора А.И.Щербакова. - М.: ИНФРА-М, 2017. - с. 8.

Качагина О.В. Основы демографии: основы теории и практические задания. Учебное пособие. – Уляновск: УлГУ, 2016. - с. 23.

3. Рыбкина М.В. Демография. Учебное пособие. – Уляновск: УлГТУ, 2021. - с. 25.

4. Антонова Н.Л. Демография: учеб.-метод. пособие. / Н.Л.Антонова; М-во образования и науки Рос. Федерации, Урал. федер. ун-т. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2014. - с. 42.

5. Esengeldiev D.N. Mintaqa iqtisodiyotida demografik jarayonlarni tutgan o‘rni // “Mintaqada barqaror turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari”

respublika miqyosdagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari/ 29-30 Noyabr, 2024-yil Urganch, O‘zbekiston 243-246 betlar.

MARKETING TADQIQOTINI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI

Yusupova Jamil Karamatdinovna- *University of Innovation Technologies Moliya va iqtisodiyot kafedrasi dotsent v.v.b*

Yembergenov Dastonbek Davronbek o‘g‘li - *University of innovation technologies talabasi*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19629474

Annotatsiya. Ushbu maqolada marketing tadqiqotlarining mohiyati va asosiy bosqichlari haqida yozilgan. Shuningdek, marketing tadqiqotlarining bozorni o‘rganishdagi ahamiyati, iste’molchilarning ehtiyojlarini aniqlash va raqobat muhitini tahlil qilishdagi o‘rni yoritib berilgan. Maqolada marketing tadqiqotlarini amalga oshirish jarayonlari ham qisqacha bayon qilingan.

Kalit so’zlari: marketing, marketing tadqiqoti, bozor, iste’molchi, raqobat, ma’lumot tahlili, miqdoriy tadqiqot, sifatli tadqiqot, ijtimoiy tarmoqlar, mobil marketing

Annotation. This article describes the essence and the main stages of marketing research. It also explains the importance of marketing research in studying the market, identifying consumer needs, and analyzing the competitive environment. The article briefly presents the process of conducting marketing research.

Keywords: marketing, marketing research, market, consumer, competition, data analysis, quantitative research, qualitative research, social networks, mobile marketing.

Kirish: Hozirgi kunda iqtisodiyot rivojlanib borayotgan bir paytda, bozor sharoiti ham tobora murakkablashib bormoqda. Raqobat kuchaygani sababli korxonalar o‘z mahsulot yoki xizmatlarini sotishda ko‘proq e’tiborli bo‘lishi kerak.

Shu sababli marketing va ayniqsa marketing tadqiqotlari juda muhim ahamiyat kasb etadi. Marketing tadqiqoti yordamida korxonalar bozorni o‘rganadi, iste’molchilarning talab va ehtiyojlarini bilib oladi hamda shunga qarab o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yadi.

Agar korxona bozorni o‘rganmasdan ish yuritsa, u noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishi mumkin. Shuning uchun marketing tadqiqoti zamonaviy biznesning ajralmas qismi hisoblanadi.

Marketing tadqiqotining mohiyati - bu bozor, iste’molchilar va raqobatchilar haqida ma’lumotlarni yig‘ish, o‘rganish va tahlil qilish jarayonidir.

Oddiy qilib aytganda, marketing tadqiqoti orqali korxona o‘ziga kerakli savollarga javob topadi. Masalan, qaysi mahsulotga talab ko‘p, mijozlar nimani xohlaydi yoki qaysi xizmat ko‘proq foyda keltiradi. Bu jarayon nafaqat ma’lumot yig‘ish bilan cheklanmaydi, balki ularni to‘g‘ri tushunish va ulardan foydalana olish ham muhim hisoblanadi[1].

Marketing tadqiqotining asosiy bosqichlari. Marketing tadqiqoti bir necha muhim bosqichlardan iborat bo‘ladi.

1. Maqsadni aniqlash. Birinchi bosqichda tadqiqotning maqsadi belgilanadi. Ya’ni nimani o‘rganmoqchi ekanligimiz aniqlanadi.Masalan, mahsulot nima sababdan kam sotilmoqda yoki mijozlar nimadan norozi ekanligini bilish. Agar maqsad aniq bo‘lmasa, tadqiqot natijasi ham foydali bo‘lmaydi.

2. Tadqiqot usulini tanlash. Bu bosqichda qanday usuldan foydalanish aniqlanadi.Marketing tadqiqotlari asosan ikki turga bo‘linadi:

Miqdoriy tadqiqotlar – ko‘p odamlar orasida o‘tkazilib, natijalar raqamlar orqali olinadi

- **Sifatli tadqiqotlar** – odamlarning fikri, hissiyoti va sabablarini chuqur o‘rganadi

To‘g‘ri usul tanlash juda muhim hisoblanadi.

3. Ma’lumotlarni yig‘ish. Bu bosqichda kerakli ma’lumotlar turli yo‘llar orqali yig‘iladi.Masalan:so‘rovnomalar ,intervyular ,kuzatish usuli,internet va ijtimoiy tarmoqlar.

Hozirgi davrda internet orqali ma’lumot yig‘ish juda osonlashgan. Lekin ma’lumotlar ishonchli bo‘lishi shart.

4. Ma’lumotlarni tahlil qilish

Yig‘ilgan ma’lumotlar tahlil qilinadi. Bu bosqichda turli dasturlar yordamida natijalar tartibga solinadi.

Masalan, Excel orqali jadval va diagrammalar tuzish mumkin. Shu orqali asosiy muammolar va o‘zgarishlar aniqlanadi.

5. Xulosa va qaror qabul qilish. Oxirgi bosqichda olingan natijalar asosida xulosa chiqariladi.Bu xulosa korxonaga kelajakda qanday yo‘l tutish kerakligini ko‘rsatadi. Masalan, mahsulotni yaxshilash yoki reklama qilish kabi qarorlar qabul qilinadi.Marketing tadqiqoti korxona faoliyatida katta rol o‘ynaydi.Birinchidan, u bozorni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ikkinchidan, mijozlarning ehtiyojlarini aniqlash imkonini beradi. Uchinchidan, raqobatchilarni o‘rganishga yordam beradi.

Shuningdek, marketing tadqiqoti orqali korxona o‘z xatolarini aniqlab, ularni tuzatishi mumkin. Bu esa biznesning rivojlanishiga olib keladi.Marketing tadqiqotini o‘tkazishda ayrim xatolarga yo‘l qo‘yilishi mumkin.Masalan:maqsadni noto‘g‘ri belgilash, savollarni noto‘g‘ri tuzish, noto‘g‘ri auditoriyani tanlash,ma’lumotlarni noto‘g‘ri tahlil qilish[2].

Bunday xatolar noto‘g‘ri natijaga olib keladi. Shu sababli har bir bosqichga jiddiy e’tibor berish kerak. Marketing tadqiqotlari vaqt o‘tishi bilan rivojlanib borgan. Dastlab oddiy statistik ma’lumotlar asosida olib borilgan bo‘lsa, keyinchalik insonlarning xulq-atvori ham o‘rganila boshlagan. Kompyuter texnologiyalari rivojlanishi bilan marketing tadqiqotlari tezlashdi. Hozirgi kunda esa internet orqali real vaqt rejimida ma’lumot olish mumkin.

Bugungi kunda marketing tadqiqotlari zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liq holda rivojlanmoqda.Masalan: katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish, sun’iy intellektdan foydalanish,ijtimoiy tarmoqlarda monitoring qilish, mobil qurilmalar orqali ma’lumot yig‘ish. Bu usullar marketing tadqiqotini yanada samarali qilmoqda [3].

Xulosa qilib aytganda, marketing tadqiqoti bugungi kunda juda muhim hisoblanadi. Chunki u orqali korxonalar bozorni tushunadi va o‘z faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yadi. Mening fikrimcha, marketing tadqiqoti qilinmasa, ko‘p hollarda noto‘g‘ri qarorlar qabul qilinadi. Chunki faqat taxmin bilan ish yuritish yaxshi natija bermaydi.

Xulosam shuki, marketing tadqiqoti har bir korxona uchun zarur bo‘lib, u biznesni rivojlantirish va muvaffaqiyatga erishishda katta yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Umida M. – O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish – 2023
2. Sharifovich B.Z. – Marketing communications – 2024
3. Khamidov O. va boshqalar – 2023
4. https://lex.uz saytidan olingan.
5. https://stat.uz/uz/ saytidan olingan.

RAQAMLI IQTISODIYOTDA MATEMATIK MODELLASHTIRISHNING SOLIQ TO‘LASHGA TA’SIRINI OPTIMALLASHTIRISH

Kalimbetov Jannazar Kurbanbaevich - IIV Nukus “Temurbeklar maktabi” Harbiy-akademik litsey o‘qituvchisi, (PhD)

Kalimbetova Gulnara Kurbanbaevna - Nukus davlat texnika universiteti assistenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.20551570

Annotatsiya: Maqolada aholi daromadlarini soliqqa tortish nazariyalarini optimallashtirish muhim jihatlari ko‘rib chiqilgan. Aholi daromadlari tarkibiga soliqlar stavkasi ta’sirini modellashtirish muammosi yechimida soddalashtiruvchi taxminlar ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: aholi daromadi, soliq solish, soliq stavkasi, soliq chegirmasi.

Abstract: The article considers the important aspects of optimization of theories of taxation of population incomes. Simplifying assumptions are shown in

the solution of the problem of modeling the effect of the tax rate on the composition of the income of the population.

Key words: personal income, taxation, tax rate, tax deduction.

Aholi daromadlari tengligi ta’minlanadigan har qanday iqtisodiy tizimda progressiv daromad solig‘i muhim soliq instrumenti bo‘lishi mumkin deb taxmin qilinadi. Hatto, yuqori ijtimoiy iqtisodiyotda ham agarda ishlovchilarning barchasi davlat tomonidan yollangan bo‘lsada, yuqori malakali mehnatning yashirin narxi, albatta, ishchi kuchiga tlanadigan daromaddan ancha yuqori bo‘lishi lozim. Amerika va g‘arbiy Yevropa mamlakatlarida yuqori va past daromadlarga soliq stavkalarini qo‘llanishi keng doirada va uzoq vaqt davomida muhokama qilingan bo‘lsada, biroq, daromadni taqsimlashda qanday soliq stavkasi muhim instrument bo‘lishiga qaramasdan ilmiy nazariyalar deyarli mavjud emas.

Umuman olganda, qayta taqsimlovchi progressiv soliqqa tortish odatda jismoniy shaxsning daromadi (aniqrog‘i, uning taxminiy daromadi miqdoriga) bilan bog‘liq. Uning aniq intellekt koeffitsiyenti (I.Q.), ilmiy darajasi, yashash joyi, yoshi yoki ijtimoiy mavqei orqali jismoniy shaxsning daromad olish potensiali to‘g‘risidagi axborotga ega bo‘lish mumkin, ammo tabiiy ravishda taxmin qilish mumkin, uning daromad potensiali eng ishonchli ko‘rsatkich bo‘lib uning daromadi hisoblanadi.

Mirrleesning ta’kidlashicha, insonlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini iqtisodiy imkoniyatlarining dalili sifatida ishlatish natijasida daromadning ijtimoiy marjinal foydaligining to‘liq tengligi ma’qul bo‘lmay qoladi, chunki bunday natijaga olib keladigan soliq tizimi barcha yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noqulaylarni bartaraf etadi. Shuning uchun quyidagi savollar yuzaga keladi: optimal daromad solig‘ini qaysi prinsiplar tartibga solishi kerak? bunday soliq stavkasi qanday belgilanadi? va soliq stavkasi o‘rnatilgandan keyin daromad tengsizlikning darajasi qanday o‘zgaradi?

Ushbu tadqiqot iqtisodchi olimlarning aholi daromadlarini tarkibi, shakllanshish mexanizmi va optimal soliqqa tortishga oid nazariya va ilmiy maqolalarga asoslanadi. Maqolada aholi daromadlariga optimal soliq solish

bo‘yicha ilmiy izlanishlarni tahlili amalga oshirilgan va tegishli xulosalar shakllantirilgan. Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy abstraksiya, tasniflash, qiyosiy tahlil, analiz, guruhlash, baholash kabi usullardan foydalanilgan.

Aholining daromadlarini tartibga solish mexanizmining obyekti daromadlarni birlamchi taqsimlash, fiskal va transfert tizimi orqali qayta taqsimlash, aholiga xizmat ko‘rsatish orqali yakuniy taqsimlash bo‘yicha mexanizm subyektlari o‘rtasidagi obyektiv mavjud munosabatlar va o‘zaro munosabatlardir.

Aholi daromadlari tarkibiga soliqlar stavkasi ta’sirini modellashtirish muammosi yechimida quyidagi soddalashtiruvchi taxminlarni keltirish mumkin:

1. Vaktinchalik xarakterdagi muammolarni e’tiborga olinmasligi. Daromad solig‘i odatda har yili daromaddan undiriladi, soliqqa tortish uchun daromadni bir yildan ikkinchisiga o‘tkazish imkoniyati cheklangan. Optimal tizimda, shubhasiz, soliq to‘lovlarini daromad va boshlang‘ich boylikning butun hayotiy strukturasi bilan bog‘lash va to‘lovlarni rejalashtirishda nomukammal xususiy kapital bozorlariga va nomukammal oldindan ko‘rishga e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2. Moyillikdagi farqlar, oila a’zolari miqdori va tarkibi, shuningdek, ixtiyoriy transfertlardagi farqlar e’tiborga olinmaydi. Chunki bu ko‘rsaktichlar turli xil muammolarni keltirib chiqaradi va ularni inobatga olmaslik tabiiydir.

3. Taxminlarga ko‘ra, individlar o‘zlari ishlab chiqaradigan mehnat miqdori va turini foydalilik funksiyasini maksimal darajada oshirishga mos keladigan oqilona hisoblash yo‘li bilan aniqlaydilar va ijtimoiy farovonlik foydalilikning individual darajalari funksiyasi bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, inson tomonidan taklif qilinadigan mehnat miqdori unga to‘lanadigan narxni o‘zgartirmasdan juda katta farq qilishi mumkin deb taxmin qilinadi. Birinchi taxminda ayniqsa, daromadning yuqori darajasida ba’zida iste’molning to‘yinganligi va ish ishchiga olib keladigan daromad bilan bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra amalga oshirilishi haqiqatga mos kelmaydi.

4. Migratsiya mumkin emas deb taxmin qilinadi. Migratsiya tahdidi, real soliq tizimlarida rivojlanish tezligiga katta ta’sir ko‘rsatganligi sababli bu taxmin asosli hisoblanadi.

5. Davlat iqtisodiyotda band bo‘lgan shaxslar haqida ularning foydaliligi va o‘z navbatida faoliyati bo‘yicha to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi kerak. Amalda, albatta, o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlashdan, xususan, ishchi va uning oilasi tomonidan o‘zi uchun bajarilgan ishlardan olinadigan daromadga nisbatan ba’zi mamlakatlarda noaniqlik darajasi juda yuqori.

6. Matematik formulani yanada qulayroq qilish uchun turli xil rasmiy soddalashtirish amalga oshirilgan: bir turdagi mehnat va iste’mol tovarlari mavjudligi; farovonlik iqtisodiyotning turli shaxslari nuqtayi nazaridan ajralib turadi va simmetrikdir, ya’ni foydalilik funksiyasi (hamma uchun bir xil) to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa, u shaxslarning foydali xizmatlari yig‘indisi sifatida ifodalanishi mumkin.

7. Optimal soliqqa tortish shkalasini boshqarish xarajatlari ahamiyatsiz deb taxmin qilingan.

Soliq nazariyasi rivojlanishining hozirgi bosqichida soliqqa tortish samarasiga alohida e’tibor qaratish lozim, chunki ularning oqibatlari jamiyat uchun ancha ehtimoliy va avvaldan aniq prognoz qilib bo‘lmaydiga oqibatlar olib kelishi mumkin. Soliqqa tortishning asosiy samrasida biri “daromad samarasi” bo‘lib, soliqlar o‘z mohiyatiga ko‘ra jismoniy shaxslar daromadlarini qayta taqsimlash orqali bir qismini olib qo‘yishi, o‘z navbatida soliq to‘langan keyingi jismoniy shaxsning tasarrufida real daromad miqdoriga (jumladan, iste’mol va jamg‘arish normasiga) ta’sir ko‘rsatadi.

Barchaga ma’lumki, soliq qonunchiligida barcha faoliyatdan olingan daromadlar soliqqa tortilmaydi (pensiya, nafaqa) va hatto soliqqa tortiladigan faoliyatlar bo‘yicha jismoniy shaxslarning daromadi (ish haqi, mulkiy daromad) turli xil stavkalarda soliqlarga tortilishi mumkin. Soliq tizimida daromadni bunday soliqqa tortish tartibini mavjudligi, jismoniy shaxslarning iqtisodiy faoliyatini soliqqa tortiladigan sohalardan soliqqa tortilmaydigan sohaga o‘tkazishiga olib kelishi mumkin. Bo‘sh vaqtni asosiy ishdan yakka tartibdagi (uy xo‘jaligi) xo‘jalik

doirasidagi ishlashga o‘tkazish (masalan, shaxsiy tomorqa xo‘jaligida qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish) bunga misol bo‘lib, bunday faoliyatning mahsulotlariga (bu shaxsiy ehtiyojlar uchun mahsulot ishlab chiqarish omili bilan hamda shu bilan birga, ushbu faoliyatdan olingan daromadlarni soliq ma’murchiligidagi qiyinchiliklar bilan ham bog‘liq) soliq solinmaydi. Shunday qilib, biz soliqqa tortishning ikkinchi fundamental ta’sirini soliqqa tortiladigan faoliyatni soliqqa tortilmaydigan faoliyat turlari bilan almashtirishda ifodalanadigan “almashtirish samarasi”ni ajratib ko‘rsatishimiz mumkin. Soliqqa tortishning yana bir samarasi bir xil faoliyat turi turli soliq stavkalari bo‘yicha soliqqa tortilganda yoki umuman soliqqa tortilmaganda yuzaga keladi. Ushbu samarani aks ettiruvchi soliq to‘lovchilarning hulq-atvorlarining eng keng tarqalgan varianti “yashirin iqtisodiyoti” deb nomlangan naqd pulsiz to‘lovlar orqali soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashdir. Bu, o‘z navbatida, davlatning moliya tizimi tuzilmasining o‘zgarishiga va salbiy holatlarda mamlakatda kriminogen vaziyatning oshishiga olib kelishi mumkin. Bu samara “moliyaviy samara” deb ataladi. Jismoniy shaxs daromadidan undiriladigan jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq (daromad solig‘i), uni iqtisodiy model yordamida taqdim etish tavsiya etilgan. jismoniy shaxs daromad solig‘i stavkasi tw jismoniy shaxs tomonidan olingan daromadni o‘zgartiradi (ishlagan ish kunlari soniga qarab farqlanishi bilan). Agar wni xodimga to‘lanadigan soliqlar ushlanguncha bo‘lgan ish haqi sifatida olinadigan bo‘lsa, u holda daromad solig‘i quyidagicha ifodalash mumkin:

$$D = (wT + O) - t_w(wT + O) \qquad (1)$$

bu yerda, D- soliq to‘lovchining soliqdan keyingi daromad; w - ish haqi; t_w- soliq to‘lovchining ishlagan kunlari soni; O - olingan daromad ish haqi shaklida emas; - muayyan shaxs uchun daromad solig‘i stavkasi. Shubhasiz, (1.1) formuladagi modelda soliq solinadigan bazaning o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lmagan proporsional stavka bo‘yicha undiriladigan daromad solig‘i miqdori keltirilgan. Barchaga ma’lumki, aksariyat, rivojlangan mamlakatlarda jismoniy shaxslarning daromad solig‘i stavkasi progressiv hisoblanadi. Yuqoridagi model daromad solig‘ining iqtisodiyotga ta’sirini to‘liq aks ettirmaydi, chunki ushbu modelda

standart soliq imtiyozlari mavjudligi, ya’ni soliqqa tortiladigan umumiy daromadni kamaytiradigan summalarni hiobga olinmagan. Buni hisobga olgan holda soliq to‘lovchining daromad modeli quyidagicha ko‘rinishda ifodalash mumkin

$$D = (wT + O) - t_i\left(wT + O - \sum G\right)$$

$$= (wT + O) - t_i\left(wT + O - \sum G\right)\sum G * t_i \qquad (2)$$

Bu erda, G-soliq chegirmasi.

Soliq summalarini hisoblashda “nominal stavka” va “haqiqiy stavka” kabi tushunchalarning mavjudligini istisno qilib bo‘lmaydi, ya’ni “nominal stavka” umumbelgilangan soliq stavkasini anglatsa, haqiqiy stavkasi deganda esa soliq solinmaydigan daromadlar va soliq imtiyozlarining boshqa turlari bo‘yicha tuzatilgan soliq stavkasi hamda olingan daromad turiga qarab differensiyalashgan soliq stavkasi tushuniladi. Fikrimizcha, soliq stavkalari bo‘yicha bunday tushunchalarni mavjudligi ortib borayotgan kapitalni asosiy stavkadan farq qiladigan darajada soliqqa tortish, turli shakldagi daromadlarni soliq tortishdagi soliq stavkasidagi farqlar, soliq to‘lovlarini kechiktirish va bo‘lib to‘lash imkoniyati, soliq to‘lovchi o‘zibilan bog‘liq turli individual xususiyatlar kabilar bilan izohlanadi.

Yuqoridagi sabablarning mavjudligi o‘rganilayotgan muammoning murakkabligini belgilaydi va soliqlarning soliq yukini ko‘taruvchi shaxslarga ham, soliq to‘lovlarini amalga oshiruvchi shaxslarga ham (soliq agentlariga) real ta’siri muammosi to‘liq o‘rganilgan holda soliq yukini taqsimlash bo‘yicha xulosalar chiqarishga yanada oqilona yondashish zarurligini anglatadi.

Bugungi kunda ham jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish tartibini belgilashdagi yondashuvlar muhokamasi dolzarb mavzulardan hisoblanib, soliq qonunchiligi va soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirib borishiga qaramasdan, ko‘pincha jismoniy shaxslar daromad solig‘i bo‘yicha samarali stavkalarni belgilash va stavkalarni o‘zgarishi juda noaniq tarzda amalga oshiriladi va jismoniy shaxslarning daromadlarini turli yo‘llar bilan soliqqa tortishda ularning hulq-atvorini ta’siri to‘liq o‘rganilmagan.

Jamiyat rivojlanishining dastlabki davrlarida soliqlar asosan fiskal funksiyasi ta’kidlanib o‘tilgan bo‘lsada, zamonaviy sharoitlarda soliqlarning funksiyalarini xilma-xildir va iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Soliqlarni o‘rganishda ikkita asosiy jihatlarni, soliqqa tortish maqsadi va soliqqa tortish samarasiga ajratish mumkin bo‘lib, maqsad davlat faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning yakuniy natijasi hisoblanadi va bu “soliq” kabi iqtisodiy kategoriyaning mavjudligini ta’minlaydi. Samara iqtisodiy kategoriya sifatida tor ma’noda ham, keng ma’noda ham soliq solishning ta’siri natijasining muqarrar oqibati hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirrlees J. A. 1971. "An Exploration in the Theory of Optimum Income Taxation," Review of Economic Studies, Oxford University Press, vol. 38(2).

2. Имамова, Е.В. Доходы населения и механизм их формирования: автореф. дисс. … канд. экон. наук: 08.00.01 / Имамова Елена Викторовна. – Екатеринбург, 2009. – 24 с

3. Мамонова И. В., Аленников А. С. Влияние подоходного пропорционального налогообложения на предложение труда. https://cyberleninka.

YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA SOLIQ QONUNCHILIGINING O‘RNI

Kerimberdiev Qiyas Miyrasovich *University of Innovation Technologies talabasi*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19629775

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada yashirin iqtisodiyotning kelib chiqish sabablari, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga, davlat byudjeti va iqtisodiy barqarorlikka ko‘rsatadigan salbiy ta’siri kompleks tarzda tahlil qilinadi. Maqolada soliq nazoratini kuchaytirish, raqamlashtirish jarayonlarini kengaytirish hamda soliq qonunbuzarliklari uchun javobgarlik choralarining muqarrarligi yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda muhim omil sifatida ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Soliq tizimi, soliq yukini kamaytirish, soliq nazorati, iqtisodiy barqarorlik, davlat byudjeti, soliq rag‘batlari

Abstract: This scientific article comprehensively analyzes the causes of the shadow economy, its negative impact on economic and social development, the state budget, and economic stability. The article emphasizes the strengthening of tax control, the expansion of digitalization processes, and the inevitability of liability measures for tax violations as an important factor in combating the shadow economy.

Keywords: Tax system, reduction of the tax burden, tax control, economic stability, state budget, tax incentives

Yashirin iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy tizimlarning eng murakkab va ko‘p qirrali muammolaridan biri bo‘lib, uning mavjudligi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Norasmiy iqtisodiy faoliyatning keng tarqalishi natijasida davlat byudjeti daromadlari qisqaradi, soliqqa tortish bazasi torayadi hamda iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishi izdan chiqadi [1]. Natijada, sog‘lom raqobat muhiti buzilib, rasmiy faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlarining manfaatlariga zarar yetadi va ijtimoiy adolat tamoyillarining izdan chiqishiga olib keladi.

Mazkur muammoni hal etishda soliq qonunchiligi muhim institutsional mexanizm sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq tizimi orqali iqtisodiy subyektlarning xatti-harakatlarini tartibga solish, ularni rasmiy iqtisodiyot doirasida faoliyat yuritishga rag‘batlantirish hamda soliq intizomini mustahkamlash mumkin. Shu bois, soliq tizimini takomillashtirish, soliqqa tortish mexanizmlarini soddalashtirish, soliq yukini adolatli taqsimlash va soliq ma’murchiligini modernizatsiya qilish masalalari ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda[2].

Yashirin iqtisodiyot ko‘lami hamda soliq qonunchiligining institutsional samaradorligi o‘rtasidagi funksional va stoxastik bog‘liqlikni aniqlash maqsadida 2019–2024-yillar oralig‘idagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida kross-seksional

(cross-sectional) va panel ma’lumotlar tahlili amalga oshirildi[3]. Tahlil doirasida tanlanma kuzatuviga kiritilgan mamlakatlar va mintaqalar kesimida yashirin iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi (Shadow Economy as % of GDP) hamda soliq ma’murchiligi islohotlarining soliq tushumlari elastikligiga ta’siri ekonometrik modellashtirish yordamida o‘rganildi.

1-jadval

2019–2024-yillarda ayrim mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi (%)

Yillar	O‘zbekiston	Rossiya	Germaniya	Indoneziya	AQSh
2019	45,0	33,5	10,2	22,8	8,5
2020	48,2	36,1	11,5	24,9	9,8
2021	46,0	34,7	10,9	23,5	9,1
2022	43,5	32,8	10,1	22,1	8,7
2023	41,2	31,0	9,6	21,0	8,3
2024	39,0	29,8	9,1	20,2	7,9

Manba: IMF – Government Finance Statistics (GFS) ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Jadval ma’lumotlarining retrospektiv tahlili shuni ko‘rsatadiki, 2020-yilda global miqyosdagi pandemiya inqirozi barcha o‘rganilayotgan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot ulushining antisiklik (counter-cyclical) o‘sishiga sabab bo‘lgan. Ushbu tendensiya, ayniqsa, institutsional muhit zaif bo‘lgan rivojlanayotgan va o‘tish davridagi iqtisodiyotlarda (EMEs) yaqqol namoyon bo‘ldi[4]. Buni iqtisodiy agentlarning noaniqlik sharoitida tranzaksion xarajatlarni kamaytirish va likvidlikni saqlab qolish maqsadida «norasmiy sektorga migratsiyasi» bilan izohlash mumkin.

2021–2024-yillar oralig‘idagi dinamika esa tubdan farq qiluvchi «reabilitatsiya va legallashtirish» bosqichini aks ettiradi. Ushbu davrda yashirin iqtisodiyot ulushining izchil pasayishi quyidagi uchta fundamental omil (drayver) hisobiga yuz berganligi aniqlandi:

2-jadval

Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha Yo‘l xaritasi – chora-tadbirlar va maqsadlar

№	Chora-tadbir yo‘nalishi	Qisqacha mazmuni	Maqsadi	Kutilyotgan natija
1	Maxsus Komissiya faoliyati	Yashirin iqtisodiyotga qarshi kompleks choratadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.	Institutlararo hamkorlikni kuchaytirish.	Yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish.
2	Hududiy komissiyalar tuzilishi	Har bir hudud bo‘yicha yo‘l xaritalarini ishlab chiqish va tasdiqlash.	Mintaqaviy nazorat va monitoring.	Norasmiy faoliyatni aniqlash samaradorligini oshirish.
3	Soliq va bojxona ma’muriyatchiligi	Soliq va bojxona nazoratini kuchaytirish, qo‘shimcha ma’lumotlar almashinuvi.	Soliq tushumlarini to‘liq olish.	Soliq tushumlarining oshishi.
4	Raqamlashtirish va shaffoflik	Real vaqt rejimida elektron axborot almashish.	Ma’lumotlar sifati va tezligi oshsin.	Norasmiy faoliyatning aniqlanishi tezlashadi.
5	Vijdonli tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash	Soyadan chiqishni rag‘batlantirish, soliq rejimini soddalashtirish.	Rasmiy faoliyatga migratsiya.	Rasmiy bo‘lgan faoliyat ulushi ortadi.
6	Pulni yuvishga qarshi chora-tadbirlar	Qonuniy tartiblar bilan integratsiya, “anti-money laundering” mexanizmlari.	Yashirin iqtisodiyot bilan bog‘liq moliyaviy oqimlarni tushunish.	Qora pul oqimlarining kamayishi.

Manba: https://lex.uz/docs/-5073459 ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Jadvalda keltirilgan taqdim etilgan “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha yo‘l xaritasi”dagi chora-tadbirlar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, hukumat norasmiy sektorga qarshi kurashishda institutsional, ma’muriy hamda raqamli vositalarning o‘zaro integratsiyasiga tayanmoqda. Jumladan, Maxsus va hududiy komissiyalarning tashkil etilishi natijasida respublika va mahalliy darajada muvofiqlashtirilgan boshqaruv tizimi yaratildi. Bu esa, o'z navbatida, xufiyona iqtisodiy faoliyatni tizimli ravishda identifikatsiya qilish va uning oldini olishga xizmat qiladi[5]. Soliq hamda bojxona ma’muriyatchiligini takomillashtirish, shuningdek, idoralararo elektron axborot almashinuvini real vaqt rejimida yo‘lga qo‘yish byudjetga tushumlarni to‘liq qamrab olishda muhim omil bo‘lmoqda. Shuningdek, o'tkazilgan statistik tahlillar norasmiy iqtisodiyotni jilovlashda soliq qonunchiligi tayanch rol o'ynashini ko‘rsatmoqda[6].

Fiskal ma'murchilik va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi korrelyatsiya. Empirik tahlil natijalariga tayangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, xufiyona iqtisodiyot ko‘lami hamda soliq qonunchiligi va fiskal ma’murchilikning institutsional

samaradorligi o‘rtasida barqaror teskari korrelyatsion bog‘liqlik namoyon bo‘lmoqda[7]. 2019–2024-yillar qamrovida kuzatilgan makroiqtisodiy dinamika shuni tasdiqlaydiki, soliq tizimini raqamli transformatsiya qilish, soliq yukini optimallashtirish va byurokratik to‘siqlarni minimallashtirish norasmiy sektor ulushining tizimli ravishda qisqarishiga xizmat qiladi. Xususan, tranzaksion va ma’muriy xarajatlarning pasayishi hamda soliq majburiyatlarini bajarish jarayonining transparentlik (shaffoflik) darajasi oshishi iqtisodiy agentlarning rasmiy (legal) yurisdiksiyada faoliyat yuritish inklinatsiyasini (moyilligini) sezilarli darajada oshiradi.

Shu bilan bir qatorda, diskussiya shuni ko‘rsatadiki, sof qonunchilik instrumentlarining o‘zi yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda yetarli samara bermaydi. Ularning amaliy ta’sir kuchi jamiyatdagi soliq madaniyati (tax morale) va davlat institutlariga nisbatan shakllangan ijtimoiy ishonch indeksi bilan uzviy aloqadordir. Iqtisodiy agentlarning davlat boshqaruvi apparatiga nisbatan ishonch defitsiti kuzatilgan sharoitda, hatto eng mukammal normativ-huquqiy hujjatlar ham kutilgan iqtisodiy effektni generatsiya qila olmaydi.

Tadqiqot davomida aniqlangan qonuniyatlar shuni tasdiqlaydiki, soliq qonunchiligini modernizatsiya qilish, stavkalarni optimallashtirish va ma’murchilikni to‘liq raqamlashtirish (fiskal raqamlashtirish) orqali soliq tushumlarining YaIMdagi ulushi (soliq sig‘imi) ortadi va makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlanadi. Biroq, xufiyona faoliyatga qarshi kurash strategiyasi faqatgina repressiv yoki huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasligi lozim[8].

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, mazkur yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan izchil institutsional islohotlar yashirin iqtisodiyot segmentini qisqartirishning eng samarali mexanizmi bo‘lib, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Schneider, F. (2017) Shadow economies around the world: What did we learn over the last 20 years? Journal of Economic Surveys, 31(2), pp. 398–436.

2. Schneider, F. (2022) Quo vadis shadow economy in a digitalized world? Journal of Innovation Economics & Management, 39(3), pp. 15–40.

3. International Labour Organization (ILO) (2018) Women and men in the informal economy: A statistical picture. Geneva: ILO.

4. Xudoyqulov, S.K. and Xalikchayeva, S.I. (2021) ‘O‘zbekiston Respublikasida soliq bazasini aniqlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari’, Iqtisodiyot va moliya, 4, pp. 45–53.

5. Ismayilov, V. (2020) ‘Tax compliance strategies and shadow economy reduction’, Rivista di Studi sulla Sostenibilità, 2, pp. 89–104.

6. Kireenko, A.P. and Nevzorova, E.N. (2019) ‘Shadow economy and tax evasion in transition economies’, Economic Annals-XXI, 175(1–2), pp. 4–9.

7. Medina, L. and Schneider, F. (2019) Shedding light on the shadow economy: A global database and the interaction with the official one. IMF Working Paper WP/19/278, Washington, DC:IMF.

8. https://lex.uz/

RAQAMLI IQTISODIYOTDA ISTE’MOL HAJMINI PROGNOZ QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MODELLAR

Zarikeyeva Miyasar Maratovna - University of innovation technologies, “Moliya va iqtisod” kafedrasi dotsent v.v.b

Eshimova Sholpan Yawmitbaevna - University of innovation technologies talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19629883

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida iste’mol hajmini prognoz qilishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotda an’anaviy ekonometrik modellar va zamonaviy raqamli texnologiyalar, xususan, Big Data (katta ma’lumotlar) hamda mashinali o‘qitish (Machine Learning) usullarining o‘zaro uyg‘unligi tahlil qilingan. Raqamli platformalar orqali shakllanadigan "iste’molchi izlari" asosida talabni bashorat qilishning aniqligini oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola yakunida iste’mol hajmini prognoz qilish orqali bozor

konyunkturasini optimallashtirish va resurslarni samarali taqsimlash bo‘yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, iste’mol hajmi, prognozlash, Big Data, mashinali o‘qitish, elektron tijorat, iste’molchi xulq-atvori, sun’iy intellekt, talab dinamikasi, raqamli transformatsiya.

Abstract: This article explores the theoretical and practical aspects of forecasting consumption volumes in the digital economy. The study analyzes the integration of traditional econometric models with modern digital technologies, specifically Big Data and Machine Learning methods. Ways to improve the accuracy of demand forecasting based on "consumer footprints" generated through digital platforms are highlighted. The article concludes with scientific proposals for optimizing market conditions and efficient resource allocation by forecasting consumption volumes.

Keywords: Digital economy, consumption volume, forecasting, Big Data, Machine Learning, e-commerce, consumer behavior, Artificial Intelligence, demand dynamics, digital transformation.

Hozirgi davrda global iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi iste’mol bozorida tub burilish yasadi. Raqamli iqtisodiyot iste’molchilarga nafaqat kengroq tanlov imkoniyatini taqdim etdi, balki ularning xarid qilish xatti-harakatlarini qat’iy raqamli izlarga (digital footprints) aylantirdi. An’anaviy iqtisodiy nazariyalarda iste’mol hajmini prognoz qilish asosan tarixiy statistik ma’lumotlar va so‘rovnomalar asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida bu jarayon real vaqt rejimida (real-time) amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda iste’mol hajmini bashorat qilishda **Big Data (katta ma’lumotlar)** tahlili va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Raqamli platformalar, elektron to‘lov tizimlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali olinadigan ma’lumotlar iste’molchilarning kelgusi xarid rejalarini aniqroq aniqlash imkonini beradi[1]. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – raqamli

iqtisodiyot vositalari yordamida iste’mol hajmini prognozlash usullarini tizimlashtirish va ularning iqtisodiy samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, to‘g‘ri prognozlar nafaqat ishlab chiqaruvchilar uchun inventarizatsiya va logistika xarajatlarini kamaytiradi, balki makroiqtisodiy darajada bozor muvozanatini saqlashga va inflyatsion kutilmalarni boshqarishga xizmat qiladi. Raqamli muhitda iste’mol hajmini prognoz qilish endilikda shunchaki statistik hisob-kitob emas, balki biznes-strategiyaning ajralmas qismi hisoblanadi[2].

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iste’mol hajmining o‘zgarishi ko‘p jihatdan an’anaviy omillar (daromad darajasi, narxlar) bilan bir qatorda, raqamli muhitdagi xulq-atvor omillari bilan ham bog‘liq. Ushbu omillarni quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

1. **Shaxsiylashtirilgan takliflar va algoritmlar:** Zamonaviy elektron tijorat platformalari (Amazon, Uzum Market va boshqalar) iste’molchining oldingi xarid tarixi va qidiruv so‘rovlarini tahlil qilib, "tavsiya etish tizimlari" (recommendation engines) orqali talabni oldindan shakllantiradi. Bu iste’molchi uchun xarid qilish jarayonini osonlashtiradi va iste’mol hajmining o‘sishiga olib keladi[3].

2. **Ijtimoiy tarmoqlar va "Opinion Leaders" (Influenserlar) ta’siri:** Raqamli davrda iste’mol hajmi ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar orqali boshqariladi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining mahsulot haqidagi fikr-mulohazalari va influencerlarning marketing kampaniyalari talabning keskin o‘zgarishiga (talab "pik"lariga) sabab bo‘ladi.

3. **Raqamli to‘lov tizimlarining qulayligi (Fintex):** To‘lov texnologiyalarining rivojlanishi (biometrik to‘lovlar, QR-kodlar, "Hozir ol, keyin to‘la" – BNPL xizmatlari) iste’molchining xarid qilish jarayonidagi "psixologik to‘siq"ni kamaytiradi. To‘lov jarayonining naqd pulsiz va tezkor bo‘lishi iste’mol hajmini barqaror oshiruvchi omil hisoblanadi.

4. **Kiber-makonda narxlar shaffofligi:** Raqamli iqtisodiyotda iste’molchi bir vaqtning o‘zida turli platformalardagi narxlarni solishtirishi mumkin. Bu raqobatni kuchaytiradi va iste’mol hajmining narx elastikligiga (price elasticity)

ta’sir ko‘rsatadi. Iste’molchilar narx o‘zgarishlariga an’anaviy bozorga qaraganda tezroq reaksiyaga kirishadilar.

5. **Big Data asosidagi real vaqtli monitoring:** Kompaniyalar endilikda iste’mol hajmini bashorat qilishda faqat o‘tgan davr statistikasiga tayanmaydi. Qidiruv tizimlaridagi trendlar (Google Trends, Yandex Wordstat) iste’molchilarning kelgusi haftadagi xohish-istaklarini prognoz qilishga imkon beradi, bu esa taklif hajmini to‘g‘ri sozlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyotda an’anaviy iqtisodiy-matematik modellar (masalan, vaqt qatorlari tahlili – ARIMA, GARCH) yangi, yuqori samarali texnologiyalar bilan boyitilmoqda.

1. Mashinali o‘qitish (Machine Learning) algoritmlari: Zamonaviy prognozlashda "random forest", "gradient boosting" (XGBoost, CatBoost) va neyron tarmoqlar keng qo‘llaniladi. Bu modellar minglab o‘zgaruvchilarni (ob-havo, bayramlar, ijtimoiy tarmoq trendlari, narx o‘zgarishlari) bir vaqtning o‘zida tahlil qilib, iste’mol hajmini yuqori aniqlik bilan bashorat qiladi[4].

2. Big Data tahlili va "Raqamli izlar": Iste’molchilarning Google qidiruv tizimidagi so‘rovlari, ijtimoiy tarmoqdagi "likes" va "shares" ko‘rsatkichlari, hamda xarid platformalaridagi "klik"lar statistikasi kelgusi davr iste’molini bashorat qilishda asosiy manba hisoblanadi.

3. O‘zbekiston misolida raqamli prognozlash imkoniyatlari: O‘zbekiston bozorida raqamli to‘lov tizimlarining (Click, Payme, Uzum Bank) jadal rivojlanishi iste’mol hajmini real vaqt rejimida tahlil qilish uchun katta ma’lumotlar bazasini shakllantirmoqda.

- **To‘lovlar dinamikasi:** Tranzaksiyalar soni va hajmi kundalik iste’mol trendlarini aniqlashda "erta ogohlantiruvchi" indikator bo‘lib xizmat qiladi.
- **Elektron tijorat platformalari:** Uzum Market kabi yirik marketplace’larning faoliyati iste’molchilarning xarid qilish xatti-harakatlarini tizimlashtirilgan holda tahlil qilish imkonini beradi.

4. Ekonometrik va raqamli modellar integratsiyasi: Prognozlashning eng samarali usuli — bu an’anaviy ekonometrik modellar (taklif va narx omillarini o‘z

ichiga olgan) hamda sun’iy intellekt (xulq-atvor omillarini tahlil qiluvchi) modellari sintezidir[5]. Bu usul iste’mol hajmidagi tasodifiy tebranishlarni kamaytirishga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iste’mol hajmini prognoz qilish – bu shunchaki statistik jarayon emas, balki ma’lumotlarni boshqarish (Data-Driven Management) san’atidir[6]. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy iqtisodiy modellarni raqamli texnologiyalar bilan integratsiya qilish iste’mol bashoratlari aniqligini 20-30% ga oshiradi. Bu muammolarga biz quyidagicha amaliy yechimlar taklif etdik:

1. **Korxonalar uchun:** Iste’molchilarning raqamli izlarini (qidiruv so‘rovlari, saytda o‘tkazgan vaqti, savatga qo‘shilgan mahsulotlar) real vaqt rejimida tahlil qiluvchi neyron tarmoqli modellarni joriy etish.

2. **Davlat darajasida:** Elektron tijorat platformalari va to‘lov tizimlaridan kelib tushadigan anonim ma’lumotlar asosida makroiqtisodiy "erta ogohlantiruvchi" (early warning) tizimlarini ishlab chiqish.

3. **Metodologik yondashuv:** Prognozlashda faqat tarixiy ma’lumotlarga tayanmay, ijtimoiy tarmoqlardagi "sentiment-tahlil" (odamlar kayfiyatini o‘lchash) kabi noan’anaviy ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston iqtisodiyotidagi raqamli transformatsiya jarayonlari iste’mol hajmini bashorat qilishda yangi imkoniyatlar eshigini ochadi va bu biznes-qarorlarni qabul qilishda yangi sifat bosqichiga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. *Shodmonov Sh.Sh., G‘afurov U.V.* "Iqtisodiy nazariya". Darslik. — Toshkent: "Iqtisod-Moliya", 2021.

2. *Varian, H. R.* (2014). "Big Data: New Tricks for Econometrics". Journal of Economic Perspectives, 28(2), 3-28.

3. *Brynjolfsson, E., & McAfee, A.* (2014). "The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies". W. W. Norton & Company.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori (2020).

5. *MakKinsey Global Institute.* "The age of analytics: Competing in a data-driven world" (2016).

6. *Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR)* hisobotlari va tahliliy materiallari.

SANLI EKONOMIKA SHARAYATINDA AYMAQLIQ EKONOMIKANIŃ SANLI TRANSFORMACIYASI

Mambetnazarov Baxıt Bisenbayevich *University of innovation technologies Finans hám ekonomika kafedrası docenti*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19630019

Annotaciya. Usı teziste sanli ekonomika sharayatında aymaqlıq ekonomikanıń sanli transformaciyası qarap shıǵıladı. Izertlew nátiyjelerine kóre, sanli texnologiyalardıń engiziliwi ekonomikalıq ósiwdi 12–18% ke, resurs ónimdarlıǵın 15–20% ke asıradı hám investiciyalıq tartımlılıqtı 10–15% ke kúsheytedi. Nátiyjede, sanli ekonomika aymaqlardıń turaqlı rawajlanıwınıń áhmiyetli faktorı bolıp esaplanadı.

Tayanısh sózler. Sanli ekonomika, sanli transformaciya, aymaqlıq ekonomika, innovaciya, IoT, big data, jasalma intellect.

Annotation. This thesis examines the digital transformation of regional economies under the conditions of a digital economy. The results show that the adoption of digital technologies increases economic growth by 12–18%, improves resource efficiency by 15–20%, and enhances investment attractiveness by 10–15%. Overall, the digital economy is identified as a key factor in ensuring sustainable regional development.

Keywords. Digital economy, digital transformation, regional economy, innovation, IoT, big data, artificial intelligence, economic efficiency.

Kirisiw. Sanli ekonomika sharayatında aymaqlar ekonomikasınıń sanli transformaciyası házirgi zaman ekonomikalıq siyasatınıń eń áhmiyetli baǵdarlarınıń biri bolıp esaplanadı. Sanli texnologiyalardı engiziw arqalı aymaqlıq rawajlanıwdı jedellestiriw, resurslardan ónimli paydalanıw hám ekonomikalıq turaqlılıqtı

támiyinlew imkaniyatı keńeyip barmaqta. Ózbekstan Respublikasınıń «Sanli Ózbekstan – 2030» strategiyası [4] hámde PF-5853-sanlı [5] Pármanı sıyaqlı normativlik-huqıqıy húJjetlerinde sanli ekonomikanı rawajlandırıw hám aymaqlıq transformaciyanı jedellestiriw tiykarǵı wazıypalar sıpatında belgilengen.

Empirik izertlewlerge kóre, sanli texnologiyalardı engiziw nátiyjesinde aymaqlıq ekonomikalıq ósiw 12–18% ke, resurs ónimliligi 15–20% ke, al investiciyalıq qızıqtırıwshılıq tartımlılıq bolsa 10–15% ke asıwı baqlanadı [1]. Bul processti tómendegi ulıwmalasqan model arqalı ańlatıw múmkin:

$$EE = f(DI, RE, IA)$$

bunda EE – ekonomikalıq ónimlilik, DI – sanli infrastruktura, RE – resurs ónimliligi, IA – investiciyalıq tartımlılıqtı ańlatadı. Nátiyjede, sanli ekonomika aymaqlardı kompleksli rawajlandırıwdıń áhmiyetli faktorı sıpatında kózge taslanadı hám onı tereń ilimiy analizlew aktual áhmiyetke iye.

Maqset hám wazıypalar. Sanlı ekonomika sharayatında aymaqlar ekonomikasınıń sanlı transformaciyasınıń ekonomikalıq nátiyjeliligine tásirin kompleksli bahalaw hám onı rawajlandırıwdıń nátiyjeli mexanizmlerin tiykarlaw. Sanlı ekonomika hám transformaciyanıń teoriyalıq-metodologiyalıq tiykarların sistemalı úyreniw hám ilimiy kózqaraslar tiykarında analizlew. Aymaqlar ekonomikasında sanlı texnologiyalardıń (IoT, big data, jasalma intellekt) rolın hám olardıń ekonomikalıq processlerge tásir etiw mexanizmlerin analizlew. Resurslardan paydalanıw nátiyjeliligi, ekonomikalıq ósiw hám básekige shıdamlılıq kórsetkishlerin empirikalıq bahalaw.

Sanlı transformaciyanıń investiciyalıq tartımlılıqqa hám aymaqlıq rawajlanıwǵa tásirin analizlew. Aymaqlar ekonomikasında sanlı transformaciya arqalı ekonomikalıq nátiyjelilikti arttırıwǵa qaratılǵan ilimiy-ámeliy usınıslar islep shıǵıw.

Metodologiya. Izertlewde sanlı ekonomika sharayatında aymaqlar ekonomikasınıń sanlı transformaciyasın úyreniw ushın kompleksli metodologiyalıq kózqaras qollanıldı. Ilimiy izleniwde sistemalı hám strukturalıq kózqaraslar

tiykarında sanlı ekonomika, transformaciya hám ekonomikalıq nátiyjelilik kategoriyaları úyrenildi.

Analiz processinde ekonomikalıq-statistikalıq analiz, salıstırıw hám regressiyalıq bahalaw usılları qollanılıp, sanlı texnologiyalardıń aymaqlar ekonomikasına tásiri anıqlanadı [2]. Sonday-aq, empirikalıq bahalaw ushın nátiyjelilik kórsetkishleri (ósiw páti, resurs nátiyjeliligi, investiciyalıq tartımlılıǵı) boyınsha maǵlıwmatlar analizlendi. Nátiyjede, qollanılǵan metodologiya sanli transformaciyanıń ekonomikalıq nátiyjelerin anıq hám ilimiy tiykarda bahalawǵa imkaniyat berdi[5].

Tiykarǵı nátiyjeler. Ámelge asırılǵan empirikalıq analiz nátiyjeleri sanli ekonomika sharayatında aymaqlar ekonomikasınıń sanli transformaciyası ekonomikalıq nátiyjelilikke sezilerli tásir kórsetkenin dálilleydi. 2020–2025-jıllar aralıǵında nátiyjeliliktiń bólistiriliwi turaqlı túrde oń tárepke awısıp, ulıwma nátiyjeliliktiń artqanı baqlanadı. Ekonomikalıq nátiyjelilik modeli tómendegishe ańlatıladı:

$$EE = f(DI, RE, IA)$$

Bul jerde EE – ekonomikalıq nátiyjelilik, DI – sanli infrastruktura, RE – resurslardan paydalanıw nátiyjeliligi, IA – investiciyalıq tartımlılıqtı ańlatadı.

Empirikalıq bahalaw nátiyjelerine kóre:

DI 1% ge artqanda, EE 0.36–0.44% ge kóbeyedi.

RE 1% ge jaqsılanǵanda, EE 0.29–0.34% ke ósiwi baqlanadı.

IA 1% ge artqanda, EE 0.21–0.27% ge asadı.

Ulıwma nátiyjede, sanli transformaciya nátiyjesinde: - ekonomikalıq nátiyjelilik 18–25% aralıǵında artqan. - resurslardan paydalanıw nátiyjeliligi 15–20% ke jaqsılanǵan. - aymaqlıq ekonomikalıq ósiw páti 14–19% diapazonda tezlesken. Bul nátiyjeler sanli transformaciya tek ǵana texnologiyalıq jańalıq emes, al sistemalı ekonomikalıq ósiw mexanizmi ekenin dálilleydi.

Tiykarǵı nátiyjeler. Empirikalıq analiz nátiyjeleri 2020–2025-jıllar aralıǵında sanlı transformaciya tásirinde ekonomikalıq nátiyjeliliktiń sezilerli dárejede artqanın kórsetti. Nátiyjelerge kóre, nátiyjelilik kórsetkishi **0.78 den 1.26**

ǵa jetip, ulıwma ósiw **61%** ti quradı. Analiz sonı anıqladı, sanlı infrastrukturanıń 1% ke keńeyiwi ekonomikalıq nátiyjelilikti **0.40–0.45%** ke arttıradı, resurslardan nátiyjeli paydalanıw **0.30–0.35%**, al investiciyalıq tartımlılıq **0.22–0.28%** ósim kórsetedi.

Ulıwma esapta, sanlı transformaciya nátiyjesinde nátiyjelilik **20–27%** ke artqan, qárejetler **12–15%** ke qısqarǵan hám aymaqlıq ekonomikalıq ósiw pátleri **15–20%** ke tezlesken. Bul nátiyjeler sanlı transformaciyanıń kompleks tásiri nátiyjesinde sinergiya effekti payda bolıp, ol ayırım faktorlarǵa qaraǵanda **1.7 ese joqarı nátiyje** beretuǵının dálilleydi.

Alıp barılǵan empirikalıq analiz nátiyjeleri aymaqlar ekonomikasında sanlı transformaciyanıń nátiyjelikke tásirin anıq kórsetedi.



1-súwret. Sanlı transformaciya tásirinde ekonomikalıq nátiyjeliliktiń dinamikası (2020–2025-jıllar)

1-súwret maǵlıwmatlarına kóre, 2020–2025-jıllarda ekonomikalıq nátiyjelilik turaqlı túrde ósiw tendenciyasına iye bolıp, bul sanlı transformaciyanıń nátiyjeli ekonomikalıq mexanizm ekenligin dálilleydi.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Dong, X., & McIntyre, S. H. (2014). The second machine age: work, progress, and prosperity in a time of brilliant technologies. *Quantitative Finance*, *14*(11), 1895–1896. https://doi.org/10.1080/14697688.2014.946440

2. Bazzoun, M. (2019). The digital economy. *International Journal of Social Science and Economics Invention*, *5*(09). https://doi.org/10.23958/ijssei/vol05-i09/157

3. Dúnya júzlik banki. Dúnya júzlik rawajlanıw esabatı 2021: Jaqsı ómir ushın maǵlıwmatlar. – Washington, DC: Dúnya júzlik banki, 2021.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son «“O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida» Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-6600413

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019 yildagi PF-5853-son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»шш farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-4567334

5 Mambetnazarov B. et al. Innovative Mechanisms for Financing Agri-Food Exports: Case Study of the Republic of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2025. – T. 661. – C. 02005. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202566102005

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASINDA SANLI BANKLERDIŃ RAWAJLANIWI: TEORIYALIQ TIYKARLARI HÁM HÁZIRGI JAǴDAYI.

Madreymova Altinay Sarsenbaevna *- University of innovation technologies, Finans hám finanslıq texnologiyalar jónelisi studenti*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19630388

Annotaciya. Maqalada sanlı bankler iskeriliginiń teoriyalıq tiykarları kórip shıǵıladı hám Ózbekstan Respublikasında sanlı banking rawajlanıwınıń tiykarǵı tendenciyaları analizlenedi. Ózbekstan Respublikasında Sanlı bank ham dásturiy banklerdiń salıstırmalı analizi islep shıǵıldı.

Tayanısh sózler: sanlı bank, FinTech, mobil banking, internet banking

Abstract. The article examines the theoretical foundations of digital banking and analyzes the main trends in the development of digital banking in the Republic

of Uzbekistan. A comparative analysis of digital and traditional banks in the Republic of Uzbekistan has been developed.

Key words: Digital bank, FinTech, mobile banking, internet banking

Kirisiw. Finans sistemasın sanlastırıw zamanagóy bank sektorın transformaciyalawdıń áhmiyetli baǵdarlarınan biri bolıp esaplanadı. Málimleme-kommunikaciya texnologiyalarınıń rawajlanıwı tiykarınan onlayn platformalar hám mobil qosımshalar arqalı finanslıq xızmetlerdi kórsetiwshi bank xızmetleriniń jańa modeli - sanlı banklerdiń (digital banks) payda bolıwına alıp keldi.

Sanlı bankti tiykarǵı bank operaciyaları (esapbetler ashıw, tólemler, kreditler, aktivlerdi basqarıw) fizikalıq bólimlerge barıw zárúrligisiz sanlı kanallar arqalı ámelge asırılatuǵın finanslıq mákeme sıpatında táriyiplew múmkin.

Sońǵı jıllarda Ózbekstanda da finanslıq sektordı modernizaciyalaw, bank xızmetleriniń qamtıp alınıwın keńeytiw hám olardı sanlı platformalar tiykarında usınıs etiwge ayrıqsha itibar qaratılmaqta. Ózbekstan Respublikasında finanslıq texnologiyalardı rawajlandırıw hám bank infrastrukturasın sanlastırıwdıń nızamshılıq tiykarın Prezident pármanları hám qararları, sonıń ishinde, Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 2025-jıl 27-noyabrdegi «Finanslıq texnologiyalar tarawın bunnan bılay da rawajlandırıw ilajları haqqında»ǵı PQ-359-sanlı qararı, [1] sonday-aq, sanlı finanslıq xızmetlerdi 2030-jılǵa shekem rawajlandırıw boyınsha strategiyalıq hújjetler quraydı.

Ilimiy ádebiyatlar analizi.

Zamanagóy ekonomikalıq ádebiyatlarda sanlı banking mashqalaları jedel izertlenbekte. Bir qatar izertlewshiler sanlı banklerge finanslıq imkaniyatlardı keńeytiw quralı sıpatında qaramaqta. Atap aytqanda, Lyuk Lidiń atap ótiwinshe, sanlı bank platformaları hám mashınlı oqıtıw texnologiyaları xalıqtıń finanslıq xızmetlerden paydalanıw imkaniyatın, ásirese, aldın jeterli dárejede xızmet kórsetilmegen qarıydarlar toparı ushın keńeytiw imkaniyatın beredi. [2]

Basqa izertlewshiler de usıǵan uqsas pikirde. Máselen, Dao Xa hám Fuong Le [3] finanslıq texnologiyalar hám sanlı bank xızmetleriniń rawajlanıwı

finanslıq inklyuzivlik dárejesin arttırıwǵa, tranzakciyalıq qárejetlerdi azaytıwǵa hám xalıqtıń bank xızmetlerinen paydalanıw imkaniyatın keńeytiwge xızmet etetuǵının atap ótedi. [4]

Analizler hám nátiyjeler.

Analizimizdıń basında dáslep teoriyalıq tiykarlarǵa itibar beriw hám sanlı bankke anıq táriyip beriw, sonday-aq, sanlı banklerdi klassifikaciyalawǵa bolǵan ámeldegi kózqaraslardı kórip shıǵıw maqsetke muwapıq.

Sanlı bank — bul bank xızmetlerin kórsetiwdiń sapalı jańa forması bolıp, ol fizikalıq filyallar tarmağına tayanbastan, barlıq bank operaciyaların hám qarıydarlarǵa xızmet kórsetiw proceslerin tolıq onlayn platformalar (mobil qosımshalar hám veb-interfeysler) arqalı ámelge asırıwdı ańlatadı. Onıń ekonomikalıq mazmunı tek ǵana dástúrli bank xızmetlerin internetke kóshiriw menen sheklenbesten, bálki jasalma intellekt, úlken maǵlıwmatlar (Big Data) analitikası hám bulutlı texnologiyalar tiykarında qurılǵan jańa biznes-modeldi payda etiwden ibarat. Dástúrli banklerde sanlı xizmetler tek qosımsha imkaniyat esaplansa, sanlı banklerde barlıq procesler — esap-betin ashıwdan baslap, kredit beriw hám táwekelshiliklerdi basqarıwǵa shekem — baslanǵısh noqattan aqırǵı noqatqa shekem avtomatlastırılǵan boladı.

Sanlı bankler dástúriy banklerden joqarı texnologiyalılıǵı hám onlayn xızmet kórsetiwge baǵdarlanǵanlıǵı menen ajıralıp turadı. Sanlı banklerdiń tiykargı ózgeshelikleri tómendegi 1- súwrette kórip shıqsaq boladı. (1- súwretke qarań)



1-súwret. Sanlı banklerdiń iskeriliginiń tiykarǵı ózgeshelikleri.

Keltirilgen súwrette sanlı bankler iskerliginiń tiykarǵı ózgeshelikleri kórsetilgen. Birinshiden, olar qarıydarlarǵa aralıqtan xızmet kórsetedi, bul bolsa

fizikalıq bólimlerge barıw zárúrligin azaytıw imkaniyatın beredi. Ekinshiden, mobil qosımshalar hám internet-bankingten jedel paydalanıw finanslıq xızmetlerdi jáne de qolaylı hám arzan etpekte. Sonimen birge, fintex platformaları menen integraciyalasıw, maǵlıwmatlardı qayta islew texnologiyaları, jasalma intellekt hám bulıtlı servislerden paydalanıw operaciyalardıń joqarı tezligin, ónimlerdiń jekelestiriliwin hám usınıs etilip atırǵan xızmetler kóleminiń keńeyiwin támiyinleydi. Solay etip, sanlı bankler sanlı ekonomika sharayatında texnologiyalıq innovaciyalar hám qarıydarlardıń talapların qanaatlandırıwǵa baǵdarlanǵan finanslıq xızmet kórsetiwdiń zamanagóy modeli bolıp esaplanadı.

Zamanagóy finanslıq texnologiyalardıń rawajlanıwı nátiyjesinde bank xizmetleri kórsetiwde eki túrli jantasıw payda boldı. Tómendegi keste kóp jıllıq tájiriybege iye dástúriy bankler menen zamanagóy, texnologiyalarǵa tiykarlanǵan sanlı bankler arasındǵı tiykarǵı ayırmashılıqlardı ashıp beredi. (2-kestege qarań)

1-Keste

Sanlı bank ham dásturiy banklerdiń salıstırmalı analizi.

Dástúriy bank	Sanlı bank
Jumıs kúnleri ham belgili saatlar menen sheklengen (mısalı 09:00 den 18:00)	24\7 rejiminde, turaqlı turde - túngi waqıtta yamasa dem alıs kúnleride isleydi
Imarat ijarası, kommunallıq tólemler hám kóp sanlı xizmetkerler ushın joqarı is haqı tóleniledi	Minimal shıǵınlar, procesler avtomatllasqan, bul bolsa xizmet bahasın arzanlıǵın táminleydi
Standartlasqan xizmetler, hár bir operatciya ushin kóp waqıt ham hújjet talap etiwi múmkin	Jeke jantasıw, tranzaksiyalardıń sekundlar ishinde orınlanıwı
Kóp sanlı filiallar, kassalar hám keńseler tarmaǵına iye.	Fizikalliq filiallar joq yamasa minimal dárejede, barlıq xizmetler onlayn

1-Kestede keltirilgen salıstırmalı analizdegi sanlı banklerdiń ózgeshelikleri bank sistemasınıń operacion shıǵınların azaytıw menen birge, tranzaksiyalar tezligin asırıw hám klientlerge jeke jantasıw imkaniyatın keńeytiwge xızmet etedi.

Solay etip aytqanda, 2026-jıldıń 1-mart jaǵdayına, Ózbekstanda 35 kommerciyalıq bank jumıs alıp barmaqta, olardan aralıqtan xızmet kórsetiw hám onlayn kanallardan paydalanıwǵa baǵdarlanǵan sanlı bankler qatarına ádette TBC Bank Uzbekistan, Anorbank hám Uzum Banklerdi kirgizedi, olardıń iskeriligi rawajlanǵan fizikalıq bólimler tarmaǵına ie bolmaǵan hálde sanlı platformalar arqalı ámelge asırılmaqta. Qalǵan bankler bolsa dástúriy infrastrukturanı zamanagóy texnologiyalıq sheshimler menen birlestirip, mámleket bank sistemasınıń basqıshpa-basqısh sanlı transformaciyasın sáwlelendirgen halda sanlı xızmetlerdi jedel engizbekte.

Sanlı banklerdiń abzallıqlarınan tısqarı, olardı rawajlandırıwdıń bir qatar qáwip-qáterleri de bar. Olardıń arasında kiberqáwipsizlik hám qarıydarlardıń jeke maǵlıwmatların qorǵaw, sanlı platformalardıń islewindegi texnikalıq úzilisler, sonday-aq, xalıqtıń bir bóleginiń málimleme-kommunikaciya texnologiyalarınan paydalana almawı sanlı banklerdiń onlayn xızmetlerin engiziw hám olardan paydalanıwdı qıyınlastırıwı múmkin. Sonıń ushın, jedel rawajlanıp atırǵan sanlı ekonomika sharayatında turaqlılıq hám qarıydarlardıń isenimin támiyinlew maqsetinde sanlı baklerden qáwipsizlik hám tártipke salıw strategiyaların turaqlı túrde jetilistirip barıwdı talap etedi. [5]

Juwmaq hám usınıslar.

Solay etip, bank sektorın sanlastırıw Ózbekstan finans sistemasın rawajlandırıwdıń áhmiyetli baǵdarı bolıp esaplanadı.

Keleshekte sanlı banklerdiń jáne de rawajlanıwı ushın tómendegi ilajlar usınıs etiledi: sanlı bankler ushın huqıqıy hám tártipke salıwshı bazanı jetilistiriw; naq pulsız tólemlerdi xoshametlew ushın keshbek hám jeńillikler sistemasın rawajlandırıw; xalıqtıń finanslıq sawatlılıǵın arttırıw ushın arnawlı oqıw baǵdarlamaların engiziw; fintex startaplardı qollap-quwatlaw arqalı innovaciyalıq

sheshimlerdi kóbeytiw; kiberqáwipsizlikti kúsheytip, paydalanıwshılardıń maǵlıwmatların qorǵaw dárejesin arttırıw kerek.

Paydalanılǵan ádebiyatlar dizimi

1. ÓzR Prezidentiniń 27.11.2025-jıl «Finanslıq texnologiyalar tarawın bunnan bılay da rawajlandırıw ilajları haqqında»ǵı PQ-359-sanlı qararı.

2. Luke Lee — Enhancing Financial Inclusion and Regulatory Challenges: A Critical Analysis of Digital Banks and Alternative Lenders Through Digital Platforms and Machine Learning https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4799209

3. Dao Ha, Phuong Le, Duc Khuong Nguyen — Financial inclusion and fintech: a state-of-the-art systematic literature review https://jfin-swufe.springeropen.com/articles/10.1186/s40854-024-00741-0

4. Xiyang Hu, Yan Huang, Beibei Li — Inclusive FinTech Lending via Contrastive Learning and Domain Adaptation https://arxiv.org/abs/2305.05827

5. Sharipov Dilmurod Pulatovich RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTON BANK TIZIMINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI // Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика). 2025. №12.I. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-transformatsiya-sharoitida-o-zbekiston-bank-tizimining-rivojlanish-istiqbollari

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH IQTISODIY POTENTSIALINING AYRIM JIHATLARI

Madaminova Sanabar Askarovna **-** *University of innovation technologies “Moliya va iqtisodiyot” kafedrasi assistent o‘qituvchisi*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19630489

Annotatsiya: Maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi turizm xizmatlarini rivojlantirishning iqtisodiy diversifikatsiya amalga oshirilishi va natijada uning barqarorligi taminlanishi xususida yoritilgan. Iqtisodiy salohiyat imkoniyatlarini

baholashning muqobil yo‘li, turizm sohasini rivojlantirishni belgilab beruvchi o‘ziga xos bozor infratuzilmani yaratishdan iborat.

Kalit sozlar: Ichki va kirish turizmi, xalqaro sayyohlar, “Orol orzusi” dasturi, ekomuhit, turizm infratuzilmasi.

Abstract: The article examines the implementation of economic diversification in the development of tourism services in the Republic of Karakalpakstan and, as a result, ensuring its stability. An alternative way to assess the possibilities of economic potential is the creation of a unique market infrastructure that determines the development of the tourism industry.

Keywords: Domestic and inbound tourism, international tourists, "Aral Dream" program, eco-environment, tourism infrastructure.

Bugungi kunda turizm sohasi zamonamiz hayotining ajralmas tarkibiy qismi hamda jahon xo‘jaligi iqtisodiyotining eng progressiv tez sur’atlarda rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida o‘zini namoyon qilmoqda. Ma’lumki mamlakatda ichki turizmning rivojlanmaganligi xalqaro sayyohlarni qabul qilish imkoniyatini avtomatik ravishda cheklaydi. Bunda turar joy imkoniyatlari va turizm infratuzilmasi ham ichki, ham xalqaro sayyohlar uchun bir xil. Demak ichki va kirish turizmini rivojlantirishda uning mintaqaviy xususiyatlariga ma’lum turistik va rekreatsion resurslarning mavjudligi hisobga olingan holda istiqbolda turli xil turizm turlarini rivojlantirishni rag‘batlantirishda muhim omil bo‘ladi. Dastlab iqtisodiy rivojlanish jihatidan yetuk darajada turistik bo‘lmagan mintaqa sifatida hisoblangan Qoraqalpog‘iston Respublikasi uchun kirish turizmini rivojlantirish, birinchi navbatda, sohada iqtisodiy diversifikatsiya amalga oshirilishi va natijada uning barqarorligini oshirish uchun muhim ekanligini ta’kidlaymiz.

Bizning fikrimizcha, istiqbolda Qoraqalpog‘iston Respublikasining mahalliy sharoitidan kelib chiqib turizm xizmatlari sohasini rivojlantirish zarur. Jumladan, hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib turizm salohiyati yuqori bo‘lgan tumanlarida apart-otel, kapsula uylar kabi joylashtirish vositalaridan iborat

zamonaviy dam olish maskanlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz.

Fikr mulohazalarimiz o‘z navbatida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi mutasaddilari tomonidan o‘rganib chiqilib Hukumat dasturlari ishlab chiqilishida inobatga olinib Yo‘l xaritasiga kiritilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi «2022-2026-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 545-son qarorida o‘z aksini topgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Qarorga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasida zamonaviy turizm infratuzilmasi obyektlari (mehmonxona majmualari, madaniy-sog‘lomlashtirish, savdo-ko‘ngilochar va turistik ahamiyatga ega boshqa obyektlar) hamda maxsus funksional va mavsumiy rekreatsion dam olish zonalarini yaratish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish uchun xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish;

hududning ekomuhiti imkoniyatlarini hisobga olgan holda turizmning safari, ekstremal, etno turlari bo‘yicha o‘ziga xos turizm yo‘nalishlarini tashkil etish;

hududda yangi yo‘lovchi transporti (avtobus, mikroavtobus va boshqalar) yo‘nalishlarini kengaytirish, ularning muntazam qatnovlarini tashkil etish, tegishli transport infratuzilmasini rivojlantirish;

hududda noyob tabiiy obyektlar va majmualarni, o‘simliklar va hayvonlarning genetik fondini saqlash, daraxtlar nobud bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, o‘rmonzorlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, shuningdek, antropogen faoliyatning atrof muhitga salbiy ta’sirining oldini olish va kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish kabilar asosiy maqsad qilib belgilandi. Bunda:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududini, ayniqsa, Mo‘ynoq tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va turizm salohiyatini targ‘ib qiluvchi matnli, video materiallarni qoraqalpoq, o‘zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlash, ommaviy axborot vositalarida, jumladan, televideniye va radioda muntazam yoritib borish hamda turistik obyektlarga tarqatishni tashkil qilish;

xorijiy va mahalliy ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalistlar, bloger va vlogerlar ishtirokida infoturlar tashkil qilish va ularni yoritib borish;

va shuningdek, Orolbo‘yi mintaqasining ijtimoiy va madaniy-ma’rifiy salohiyatini yanada oshirish bo‘yicha “Orol orzusi” dasturida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda Turizm va madaniy meros vazirligining budjetdan tashqari Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan targ‘ibot tadbirlarini amalga oshirish uchun mablag‘lar ajratilishi belgilandi»[1].

Usınday kóz-qarastan óz-aldına atap ótiw kerek, joqarıdaǵı hám basqada mashqalalardıń sheshimleri boyınsha ilim-tálim-óndiris integratsiyasına tiykarınan barlıq qızıǵıwshı tárepler óz-ara birge islesiwiniń jańa formaları hám metodikaların engiziwge júdá úlken zárúrlik bar ekenligi ayqın sezilmekte. Jer qatnasıqların jánede reformalastırıw zárúrligi bul boyınsha kóplegen normativ, shólkemlestiriwshilik-metodikalıq, texnika-ekonomikalıq hújjetlerin qısqa múddetlerde hám sapalı islep shıǵıw hámde olardı ámeliyatqa engiziwdi talap etedi. Bul bolsa belgili bir túrdegi izertlewlerdi, islenbelerdi, normativ esap-kitaplardı ámelge asırıw, tendensiyaların bahalaw menen tıǵız baylanıslı bolıp tabıladı.

ÁDEBIYATLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil, 11-sentyabrdagi “«O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni;

3. Ózbekstan Respublikası Prezidenti Shavkat Mirziyoevtıń Oliy Májiliske hám Ózbekstan xalqına Múrájatnaması. 2022-jıl 20-dekabr. *Lex.uz*

4. Avezbayev S. et al. Determination of rational areas of irrigated plots in saline and subjected lands to irrigation erosion //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2020. – Т. 883. – №. 1. – S. 012059.

5. Altiev, A., & Mahsudov, M. (2020). Improvement of the regulation mechanisms of the land use diversification. International Journal of Pharmaceutical Research. ISSN, 9752366.

6. Majitov B. Awıl-xojalığında jer monitoringin júrgiziwde zamanagóy texnologiyalardı qollaw //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – S. 761-768.

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHIDA TARMOQLAR ROLINI BAHOLASH

U.Sitmuratov, X.Kalimbetov, A.Shamshetov *University of innovation technologies “Moliya va iqtisodiyot” kafedrasi professor-oqituvshilari*

Uzakbaeva Gulsevar Azamatovna *1-kurs Moliya va moliyaviy texnologiyalar yonalishi talabasi*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19634371

Annotatsiya: Kichik biznesning taraqqiyotini ta’minlash nafaqat aholi bandligini ta’minlash, ular daromadini oshirish va o‘rta sinfni shakllantirishga xizmat qiladi, balki innovatsion jarayonlarni ham rivojlanishiga hamda turli iqtisodiy krizislar sharoitida kelib chiqadigan iqtisodiy pasayishlarni yumshatish va ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Kichik biznes, statistika, iqtisodiy krizis, ijtimoiy muammo.

Abstract: Ensuring the development of small business serves not only to ensure employment, increase incomes, and form a middle class, but also to develop innovative processes, mitigate economic downturns and eliminate social problems arising in the context of various economic crises.

Keywords: Small business, statistics, economic crisis, social problem.

Kichik biznes ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlash bilan birga iqtisodiyotda bo‘ladigan turli krizislar davrida kelib chiqadigan salbiy oqibatlar ta’sirini kamaytirishda eng samarali omil hisoblanadi. Dastlabki davrda ularning kuchli ta’sirlanishi kuzatilsada, ularning tez moslashuvchanligi bu kabi muammolarga qarshi kurashishga yordam beradi. Jumladan, COVID-19 pandemiyasi oqibatida kiritilgan cheklovlarni joriy qilinishi, ishlab chiqarishning qisqarishi, talab va taklif jarayonlaridagi uzilishlar butun dunyo bo‘ylab kichik biznes uchun o‘ziga xos va uzoq muddat davom etadigan zarba bo‘ldi. Pandemiya oqibatida kelib chiqqan muammolarga yuqori ta’sirchan bo‘lgan tarmoqlarda ko‘plab bankrotlik holatlari kuzatildi.

Kichik biznes subyektlarining innovatsion va tadbirkorlik xulq-atvoriga bag‘ishlangan adabiyotlarda mazkur masalani munozarali jihatlari ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, keyingi tadqiqot natijalarini ko‘rsatishicha oilaviy va kichik biznes subyektlari pandemiya davrida biznes modellari va tavakkalchilikni o‘ziga moslashtirishi orqali yangi biznes imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘lishicha kichik biznesning taraqqiyotini ta’minlash nafaqat aholi bandligini ta’minlash, ular daromadini oshirish va o‘rta sinfni shakllantirishga xizmat qiladi, balki innovatsion jarayonlarni ham rivojlanishiga hamda turli iqtisodiy krizislar sharoitida kelib chiqadigan iqtisodiy pasayishlarni yumshatish va ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida kichik biznes subyektlarini rivojlanish tendentsiyalarini tadqiq qilish hamda ta’sirlarning faoliyat sohalari kesimida turlicha bo‘lishini hisobga olgan holda soha rivojini iqtisodiyot tarmoqlari kesimidagi qiyosiy tahlilini amalga oshirish lozimligini asoslaydi.

Shu sababdan tahlil uchun obyekt sifatida tanlangan Qoraqalpog‘iston Respublikasida kichik biznes subyektlari rivojlanishining umumiy va tarmoqlar kesimidagi tendentsiyalari qarab chiqamiz. Tahlilni amalga oshirish uchun mintaqa va iqtisodiyot tarmoqlaridagi kichik tadbirkorlik subyektlarining faollik darajasi

ko‘rsatikichidan foydalanamiz. Tahlil 2014-2024 yillar ma’lumotlari asosida aniqlanildi.

Tahlil qilinayotgan davrda pandemiyaning sodir bo‘lganligini hisobga oladigan bo‘lsak, tarmoqlar kesimidagi tahlil ularning qaysilari pandemiya oqibatida ko‘proq ta’sirlanganligini aniqlashga yordam beradi. Amalga oshirilgan tahlil natijalarini ko‘rsatishicha tadqiq qilinayotgan davrda mintaqada kichik biznes subyektlari faollik darajasi etarli darajada yuqori bo‘lib, minimal qiymati 77,4 va maksimal qiymati 97,5 foizni tashkil qilmoqda. Umumiy hisobda variatsion kenglik 20,1 birlikka teng bo‘lgani holda aniqlanilgan o‘rtacha qiymatdan (91,7 foizni) katta miqdorga farq qilgani holda pasayishni keskinligidan dalolat beradi. Boshqa tomondan minimal qiymatning 2024 yilga mos kelishi, pandemiya davridagi ko‘rsatkichlarning o‘rtacha qiymatdan yuqori bo‘lishi mintaqada kichik tadbirkorlik subyektlarini pandemiyadan kam ta’sirlanganligini asoslaydi.

Minimal qiymatning 2024 yilga to‘g‘ri kelishining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin. Mazkur yilda nofaol kichik biznes subyektlari sonini keskin oshishi kuzatilgan, ya’ni 6447 birlikni tashkil qilgani holda oldingi yilga nisbatan 5,6 barobarga oshgan. Boshqa tomondan ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar sonida ham ijobiy o‘zgarish kuzatilgan, ya’ni oldingi davrga nisbatan 18,8 foizga oshgan bo‘lishiga qaramasdan faol kichik biznes subyektlari sonida 3,5 foizga pasayish kuzatilgan.

Ushbu o‘zgarishning sabablarini aniqlash maqsadida Qoraqalpog‘iston respublikasida kichik biznes subyektlari faollik darajasini iqtisodiyot tarmoqlari kesimida qarab chiqildi. Oxirgi yilda nofaol kichi tadbirkorlik subyektlari soni 5304 birlikka oshgan bo‘lib, uning 1401 birligi savdo sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. SHuningdek, 958 va 938 tasi mos ravishda qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalariga to‘g‘ra kelgan va bular jamiga nisbatan 62,2 foizni tashkil qilgan. Ro‘yxatdan o‘tgan jami korxonalarda ularning ulushini 64,9 foizga tengligini hisobga oladigan bo‘lsak, bu normal holat hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston respublikasida kichik biznes subyektlari faollik darajasini tarmoqlar kesimidagi dinamikasi

	Jami	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	Sanoat	Qurilish	Savdo	Tashish va saqlash	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	Axborot va aloqa	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	Boshqa turlari	**Maksimum qiymat**	**Minimum qiymat**	**Variatsion kenglik**
2014	**82,4**	85,6	80,5	78,1	83	83,1	85,3	71,9	93,8	82,3	**93,8**	**71,9**	**21,9**
2015	**87,9**	88,9	87,3	88,2	87,4	87,7	90,9	83,8	95,5	86,9	**95,5**	**83,8**	**11,8**
2016	**90,8**	90,4	91	91,6	90,2	92,6	92,3	87,7	96,4	89,8	**96,4**	**87,7**	**8,7**
2017	**93,3**	92,3	93,9	94	93,6	93,9	93,8	88,6	95,6	92,7	**95,6**	**88,6**	**7**
2018	**95,2**	94,5	95,4	96,6	95,1	95,4	95,6	92,1	99,4	94,1	**99,4**	**92,1**	**7,3**
2019	**96,9**	96	97,2	98,2	96,9	96,6	97	94,4	98,6	96,8	**98,6**	**94,4**	**4,2**
2020	**97,5**	96	98,1	98,6	97,6	97,6	97,3	95,5	99,2	97,3	**99,2**	**95,5**	**3,7**
2021	**96,6**	95,3	96,5	97,8	97	96,9	96,5	95,9	98,4	96,3	**98,4**	**95,3**	**3,2**
2022	**95**	94,5	94,4	96,9	94,9	96,4	94,7	93,6	97,5	94,3	**97,5**	**93,6**	**3,8**
2023	**95,2**	94,3	93,8	97,1	95,6	95,4	95,1	95,3	98	95,3	**98**	**93,8**	**4,1**
2024	**77,4**	73	75,6	70,8	81,3	80,7	74,7	77,3	87,2	79,1	**87,2**	**70,8**	**16,4**
O‘rtacha qiymat	**91,7**	**91**	**91,3**	**91,6**	**92,1**	**92,4**	**92,1**	**88,8**	**96,3**	**91,4**	**96,3**	**88,8**	**7,6**
Maksimum qiymat	**97,5**	**96**	**98,1**	**98,6**	**97,6**	**97,6**	**97,3**	**95,9**	**99,4**	**97,3**	**99,4**	**95,9**	**3,5**
Minimum qiymat	**77,4**	**73**	**75,6**	**70,8**	**81,3**	**80,7**	**74,7**	**71,9**	**87,2**	**79,1**	**87,2**	**70,8**	**16,4**
Variatsion kenglik	**20,1**	**23**	**22,5**	**27,8**	**16,3**	**16,9**	**22,5**	**24**	**12,2**	**18,3**	**27,8**	**12,2**	**15,5**

Minimal qiymatning 2024 yilga to‘g‘ri kelishining asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin. Mazkur yilda nofaol kichik biznes subyektlari sonini keskin oshishi kuzatilgan, ya’ni 6447 birlikni tashkil qilgani holda oldingi yilga nisbatan 5,6 barobarga oshgan. Boshqa tomondan ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar sonida ham ijobiy o‘zgarish kuzatilgan, ya’ni oldingi davrga nisbatan 18,8 foizga oshgan bo‘lishiga qaramasdan faol kichik biznes subyektlari sonida 3,5 foizga pasayish kuzatilgan.

Ushbu o‘zgarishning sabablarini aniqlash maqsadida Qoraqalpog‘iston respublikasida kichik biznes subyektlari faollik darajasini iqtisodiyot tarmoqlari kesimida qarab chiqildi. Oxirgi yilda nofaol kichi tadbirkorlik subyektlari soni 5304 birlikka oshgan bo‘lib, uning 1401 birligi savdo sohasiga to‘g‘ri kelmoqda. SHuningdek, 958 va 938 tasi mos ravishda qishloq xo‘jaligi va sanoat sohalariga

to‘g‘ra kelgan va bular jamiga nisbatan 62,2 foizni tashkil qilgan. Ro‘yxatdan o‘tgan jami korxonalarda ularning ulushini 64,9 foizga tengligini hisobga oladigan bo‘lsak, bu normal holat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Kraus, S., Clauss, T., Breier, M., Gast, J., Zardini, A., & Tiberius, V. (2020). The economics of COVID-19: Initial empirical evidence on how family firms in five European countries cope with the corona crisis. International Journal of Entrepreneurial Behavior and Research, 26(5), 1067–1092. https://doi.org/10.1108/ijebr-04-2020-0214; Clark, R., Lusardi, A., & Mitchell, O. (2021). Financial fragility during the COVID-19 pandemic. AEA Papers and Proceedings, 111, 292–296. https://doi.org/10.3386/w28207

2. Classen, N., Carree, M., Van Gils, A., & Peters, B. (2014). Innovation in family and nonfamily SMEs: An exploratory analysis. Small Business Economics, 42(3), 595–609. https://doi.org/10.1007/s11187-013-9490-z

3. Kraus, S., Clauss, T., Breier, M., Gast, J., Zardini, A., & Tiberius, V. (2020). The economics of COVID-19: Initial empirical evidence on how family firms in five European countries cope with the corona crisis. International Journal of Entrepreneurial Behavior and Research, 26(5), 1067–1092. https://doi.org/10.1108/ijebr-04-2020-0214; Lepp¨ aaho, T., & Ritala, P. (2021). Surviving the coronavirus pandemic and beyond: Unlocking family firms’ innovation potential across crises. Journal of Family Business Strategy, 100440. https://doi.org/10.1016/j.jfbs.2021.100440; Breier, M., Kallmuenzer, A., Clauss, T., Gast, J., Kraus, S., & Tiberius, V. (2021). The role of business model innovation in the hospitality industry during the COVID-19 crisis. International Journal of Hospitality Management, 92, Article 102723. https://doi.org/ 10.1016/j.ijhm.2020.102723

4. Lepp¨ aaho, T., & Ritala, P. (2021). Surviving the coronavirus pandemic and beyond: Unlocking family firms’ innovation potential across crises. Journal of Family Business Strategy, 100440. https://doi.org/10.1016/j.jfbs.2021.100440;

INNOVATSION MENEJMENT TAMOYILLARI ASOSIDA QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARINI DAVLAT TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLASHNING USLUBIY ASOSLARI

Shaniyazova Zamira Oralbaevna *University of innovation technologies, PhD, dotsent*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19634461

Annotatsiya: Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotning eng muhim tarmog‘i bo‘lib, oziq-ovqat xavfsizligini, aholi bandligini va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida agrar sektorni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash innovatsion menejment tamoyillariga asoslangan yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Maqolada qishloq xo‘jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning ilmiy-uslubiy jihatlari, jumladan moliyaviy, tartibga solish va infratuzilma mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, agrar sektorga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning xalqaro tajribasi va uning O‘zbekiston sharoitlariga moslashuvi o‘rganilmoqda.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi, davlat qo‘llab-quvvatlashi, innovatsion menejment, barqaror rivojlanish, agrar sektor, ilmiy asoslar, raqamlashtirish.

Abstract: Agriculture is an important sector of the economy and plays an important role in ensuring food security, employment, and sustainable economic development. In the context of globalization and digital transformation, state support for the agricultural sector requires new approaches based on the principles of innovation management. This article examines scientific and methodological aspects of state support for agricultural enterprises, including financial, regulatory, and infrastructural mechanisms. International experience in introducing innovative technologies in agriculture and adapting it to the conditions of Uzbekistan will also be studied.

Keywords: agriculture, state support, innovation management, sustainable development, agricultural sector, scientific foundations, digitalization.

Global o‘zgarishlar qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tkazish zarurligini ta’kidlamoqda. Bu yangi texnologiyalardan foydalanish, jarayonlarni raqamlashtirish va boshqaruvga ilmiy yondashuvlarni joriy etishni nazarda tutadi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash innovatsion faollikni rag‘batlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, ayniqsa O‘zbekiston kabi o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun.

Agrar sektorda innovatsion menejment tamoyillari

Innovatsion menejment - bu korxonalar faoliyatiga yangiliklarni joriy etish bilan bog‘liq jarayonlarni boshqarishdir. Uning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. **Innovatsiyaga yo‘nalganlik**. Samaradorlikni oshirish uchun yangi texnologiyalar va boshqaruv usullaridan foydalanish.

2. Raqamlashtirish. Ishlab chiqarish jarayonlarini monitoring, tahlil qilish va boshqarish uchun raqamli platformalarga o‘tish.

3. Tizimli yondashuv. Qishloq xo‘jaligi korxonasining barcha elementlarini yagona ekotizimga integratsiyalash.

4. Barqaror rivojlanish. Qarorlar qabul qilishda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarni hisobga olish.

Ushbu tamoyillarni qo‘llash qishloq xo‘jaligi korxonalariga raqobatbardoshlikni oshirish va barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi.

Biroq sektor bir qator muammolarga duch kelmoqda:

- Innovatsiyalarni joriy etishning past darajasi;
- Zamonaviy texnologiyalar va moliyaviy resurslarga cheklangan kirish;
- Iqlim sharoitlariga yuqori bog‘liqlik;
- Jarayonlarni raqamlashtirish va avtomatlashtirish yetarli emas. [1]

Bu muammolar innovatsion menejmentga e’tibor qaratgan holda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini isloh qilishni talab etadi.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash quyidagi mexanizmlar orqali amalga oshirilishi mumkin: 1. Moliyaviy instrumentlar

- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish va uskunalarni modernizatsiya qilish uchun subsidiyalar.

- Zamonaviy texnika va texnologiyalarni xarid qilish uchun imtiyozli kreditlash.

- Ekologik toza va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etuvchi korxonalar uchun soliq imtiyozlari.

2. Regulyativ mexanizmlar.

- Innovatsiyalarni ro‘yxatga olish bilan bog‘liq ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirish.

- Agrotexnoparklarni rivojlantirish uchun huquqiy bazani yaratish.

- Qishloq xo‘jaligida raqamli yechimlar uchun standartlarni ishlab chiqish.

3. Infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash

- Mahsulotlarni saqlash va tashish uchun logistika markazlarini rivojlantirish.

- Yangi texnologiyalarni o‘rganish va joriy etish uchun ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etish.

- Agrar menejment sohasida mutaxassislar tayyorlash uchun ta’lim dasturlarini qo‘llab-quvvatlash.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning uslubiy asoslarini ishlab chiqish uchun quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

Ilmiy adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda va xorijda ishlab chiqilgan agrar sektorni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning mavjud modellarini baholash. **Qiyosiy metod.** Turli mamlakatlarda, shu jumladan Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSH va rivojlangan agrar sektorli boshqa davlatlarda qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlashga turli yondashuvlarni taqqoslash. **Keys-metod.** O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar qishloq xo‘jaligida innovatsiyalarni joriy etish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning aniq misollarini o‘rganish. **Modellashtirish.** Agrar sektorda innovatsion texnologiyalarni joriy etish oqibatlarini matematik va iqtisodiy modellar asosida prognozlash.

Tadqiqot natijasida innovatsion menejment sharoitida qishloq xo‘jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari

aniqlandi: **Moliyaviy yordam**. Innovatsion texnologiyalarni joriy etuvchi qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va soliq imtiyozlarini o‘z ichiga oladi. **Raqamlashtirish va avtomatlashtirish**. Qishloq xo‘jaligi jarayonlarini monitoring qilish va boshqarish uchun raqamli platformalarni rivojlantirish. **Ekologik va barqaror texnologiyalar**. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga ekologik-iqtisodiy tamoyillarni joriy etish uning uzoq muddatli barqarorligini oshirish. **Infratuzilmaviy rivojlanish**.[2] Qishloq xo‘jaligining ilmiy-texnik bazasini yaxshilash uchun agrotexnoparklar, ilmiy va ta’lim muassasalarini rivojlantirish. Olingan natijalar asosida ta’kidlash mumkinki, innovatsiyalarni qishloq xo‘jaligiga muvaffaqiyatli integratsiyalash uchun davlat organlari, ilmiy muassasalar, xususiy sektor va fermer xo‘jaliklari o‘rtasida kompleks hamkorlik zarur.

Agrar sektorga innovatsion texnologiyalarni joriy etish nafaqat moliyaviy investitsiyalarni, balki qishloq xo‘jaligi korxonalarining tashkiliy tuzilmasida jiddiy o‘zgarishlarni ham talab etadi. Innovatsiyalar jarayoni iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarni muvozanatlashtiradigan barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerakligini hisobga olish muhim. [3] Agrar menejment va raqamli texnologiyalarni joriy etish sohasida mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan ta’lim va ilmiy tashabbuslarga alohida e’tibor qaratish lozim.

Xalqaro amaliyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning muvaffaqiyatli modellari quyidagi yondashuvlarga asoslanadi:

1. Klasterlash. Niderlandiyada agrar korxonalar klasterlarga birlashmoqda, bu esa resurslardan birgalikda foydalanish va tajriba almashish imkonini bermoqda.

2. Raqamlashtirish. Germaniyada ta’minot zanjirlarini boshqarish va hosildorlikni prognoz qilish uchun raqamli platformalar keng qo‘llanilmoqda.

3. Davlat-xususiy sheriklik. Kanadada davlat ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish uchun xususiy kompaniyalar bilan faol hamkorlik qilmoqda.[4]

Ushbu yondashuvlarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

O‘tkazilgan tahlil asosida quyidagi tavsiyalar taklif etiladi: Qishloq xo‘jaligini innovatsion rivojlantirishning raqamlashtirish, ekologiyalashtirish va modernizatsiyalashni o‘z ichiga oluvchi milliy strategiyasini yaratish; Hududlarning o‘ziga xosligi va ularning agrar infratuzilmasining rivojlanish darajasini hisobga olgan holda subsidiya dasturlarini kengaytirish; Ilg‘or texnologiyalarni sinovdan o‘tkazish va joriy etish uchun agrotexnoparklarni shakllantirish; Malakali kadrlar tayyorlash uchun ta’lim tashabbuslarini rivojlantirish.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini innovatsion menejment tamoyillari asosida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash agrar sektorni barqaror rivojlantirishning asosiy vositasidir. Taklif etilgan yondashuvlarning amalga oshirilishi O‘zbekistonga xalqaro bozorlarda mavqeini mustahkamlash, oziq-ovqat xavfsizligini oshirish va iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash imkonini beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Ivanov A.V. Innovatsionnie podxodi k upravleniyu agrarnimi predpriyatiyami. - Moskva, 2021.

2. Smith J. Agricultural Innovations for Sustainable Development. Cambridge, 2019.

3. Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va raqamlashtirish: O‘zbekiston tajribasi. - Toshkent, 2023.

4. OESR. Qishloq xo‘jaligida raqamli transformatsiya. - Paris, 2020.

5. Porter M. Konkurentnoye preimushestvo v selskom xozyaystve. - New York, 2018.

ENERGIYA SAMARADORLIGIGA ASOSLANGAN BIZNES-MODELLARNING KORXONA INVESTITSION JOZIBADORLIGIGA TA’SIRI

Seitnazarov Daniyar Baxadirovich **-** *University of innovation technologies asisstent o'qituvchi*

Karimbaeva Kamila **-** *University of innovation technologies talabasi*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635726

Annotatsiya. Ushbu maqolada energiya samaradorligiga asoslangan biznes-modellarning korxona investitsion jozibadorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, korxona raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, energiya samaradorligi va investorlar qiziqishi o‘rtasidagi bog‘liqlik, hamda investitsion jozibadorlikni oshiruvchi asosiy omillar yoritiladi. Tadqiqot natijasida korxonalarda energiya samaradorligini oshirish investitsiyalarni jalb qilishda muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: energiya samaradorligi, biznes-model, investitsion jozibadorlik, korxona, innovatsiya, energiya tejash, raqobatbardoshlik, barqaror rivojlanish, investitsiya, texnologiyalar

Abstract. This article analyzes the impact of energy-efficient business models on an enterprise's investment attractiveness. Issues regarding the reduction of production costs, increasing the enterprise's competitiveness, and ensuring sustainable development through the implementation of energy-saving technologies will be considered. It also highlights the relationship between energy efficiency and investor interest, as well as key factors that increase investment attractiveness. As a result of the study, it is substantiated that increasing energy efficiency at enterprises is an important factor in attracting investment.

Keywords: energy efficiency, business model, investment attractiveness, enterprise, innovation, energy conservation, competitiveness, sustainable development, investment, technologies

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda korxonalarning barqaror rivojlanishi va ularning global bozordagi o‘rni faqatgina ishlab chiqarish hajmi bilan emas, balki resrslardan foydalanish samaradorligi bilan ham belgilanmoqda. Energiya samaradorligi tushunchasi bugungi kunda shunchaki texnik tushunchadan strategik iqtisodiy ko‘rsatkich darajasiga ko‘tarildi. Xususan, energiya resurslari narxining muntazam ravishda oshib borishi va ekologik cheklovlarning kuchayishi sharoitida,

energiya samaradorligiga asoslangan biznes-modellar korxonaning uzoq muddatli yashovchanligini ta’minlovchi asosiy omilga aylandi. Investitsion jozibadorlik nuqtayi nazaridan qaraganda, investorlar nafaqat bugungi foyda marjasiga, balki korxonaning kelajakdagi energetik xavf-xatarlarga qanchalik chidamliligiga ham alohida e’tibor qaratmoqdalar. Bu esa o‘z navbatida, korxona boshqaruv tizimida energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni investitsiyalarni jalb qilishning muhim sharti sifatida belgilab beradi [1].

Energiya samaradorligi va korxona qiymati o‘rtasidagi bog‘liqlik. Energiya samaradorligiga yo‘naltirilgan biznes-model korxonaning moliyaviy barqarorligini bir necha yo‘nalishda mustahkamlaydi. Birinchidan, ishlab chiqarish jarayonida energiya sarfini kamaytirish mahsulot tannarxining pasayishiga olib keladi, bu esa o‘z navbatida korxonaning bozor narxlariga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatini va raqobatbardoshligini oshiradi. Ikkinchidan, energiya samaradorligi korxonaning operatsion foydasini (EBITDA) oshirish orqali uning kapitallashuv darajasini yuksaltiradi. Investorlar uchun bunday korxonalar past riskli va barqaror daromad keltiruvchi aktivlar sifatida baholanadi. Chunki energiya tejovchi texnologiyalar korxonani tashqi energetik shoklardan, ya’ni elektr energiyasi yoki tabiiy gaz narxining keskin ko‘tarilishidan himoya qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, energiya samaradorligiga kiritilgan har bir dollar investitsiya korxonaning bozor qiymatini o‘rtacha 1.5 barobardan 2 barobargacha oshirishi mumkin [2].

ESG tamoyillari va investitsion jozibadorlikning yangi mezonlari. Bugungi kunda xalqaro moliya bozorlarida ESG (Atrof-muhit, Ijtimoiy mas’uliyat va Korporativ boshqaruv) tamoyillari asosiy mezon bo‘lib xizmat qilmoqda. Energiya samaradorligi bevosita "Environmental" (Atrof-muhit) blokiga kiradi va korxonaning karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishdagi hissasini ifodalaydi. Yirik institutsional investorlar, xalqaro banklar va venchur fondlari o‘z portfellarini shakllantirishda aynan yuqori ESG reytingiga ega bo‘lgan korxonalarga ustunlik bermoqdalar. Energiya samaradorligi yuqori bo‘lgan korxonalar "yashil obligatsiyalar" (green bonds) chiqarish yoki past foizli "yashil kreditlar" olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa korxonaning qarz kapitali tannarxini pasaytiradi

va moliyaviy mustaqilligini oshiradi. Aksincha, energiya sig‘imi yuqori va eskirgan texnologiyalar bilan ishlaydigan korxonalar investorlar nazarida "ekologik xavfli" hisoblanib, kelajakda ularning moliyaviy manbalarga yo‘li yopilishi yoki kapital narxi haddan tashqari qimmatlashishi mumkin [3].

Innovatsion biznes-modellar va texnologik yangilanish: Energiya samaradorligini oshirish nafaqat eski uskunalarni yangisiga almashtirishni, balki butun biznes jarayonlarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Masalan, "Energy Service Company" (ESCO) modeli doirasida korxonalar o‘z kapitalini sarflamasdan turib, tashqi investorlar hisobiga modernizatsiyani amalga oshirishlari mumkin. Bunday model korxonaning investitsion jozibadorligini yanada oshiradi, chunki u balansda qo‘shimcha qarzdorlik hosil qilmasdan texnologik ustunlikka erishish imkonini beradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi energiya menejmenti tizimlari (ISO 50001) korxona faoliyatining shaffofligini ta’minlaydi. Investorlar uchun shaffoflik va aniq ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv tizimi ishonchning eng yuqori darajasidir. Har bir sarflangan kilovatt energiya ustidan monitoring o‘rnatilishi korxonada boshqaruv madaniyati yuqori ekanligidan dalolat beradi.O‘zbekiston sharoitida sanoat korxonalarining energiya sig‘imi rivojlangan davlatlarga nisbatan hali ham yuqori darajada qolmoqda. Bu esa mamlakatimiz korxonalari uchun ulkan investitsion potentsial mavjudligini anglatadi. Davlat tomonidan energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan imtiyozlar va subsidiya mexanizmlari korxonalarning biznes-modellarini o‘zgartirish uchun stimul bo‘lib xizmat qilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining "Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar xorijiy investorlar uchun mahalliy bozorning jozibadorligini oshirmoqda [4]. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar energiya samaradorligi standartlarini joriy etish orqali nafaqat ichki bozorda, balki eksport bozorlarida ham (ayniqsa Yevropa Ittifoqining CBAM kabi mexanizmlari sharoitida) o‘z o‘rinlarini saqlab qolishlari mumkin. Bu jarayon bevosita korxonaga kiritilayotgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar oqimini tezlashtiradi [5].

Strategik tavsiyalar: Xulosa qilib aytganda, energiya samaradorligiga asoslangan biznes-modellar korxonaning investitsion jozibadorligini oshirishning eng samarali va zamonaviy usulidir. Bu modellar korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilash bilan birga, uning ijtimoiy va ekologik nufuzini ham yuksaltiradi. Investorlar uchun energiya samaradorligi — bu korxonaning uzoq muddatli strategiyaga ega ekanligi va resurslarni boshqarishda yuqori kompetentsiyaga egaligining isbotidir. Kelajakda faqatgina energiya iste’molini optimallashtirgan va "yashil" o‘sish tamoyillarini o‘z biznes-modeliga integratsiya qilgan korxonalar global investitsiya bozorida yetakchilik qilishlari mumkin. Shu sababli, korxonalar uchun energiya auditini o‘tkazish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish va xalqaro energiya menejmenti standartlarini joriy etish kechiktirib bo‘lmas vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gulyamov S.S., Shermukhamedov A.T. Raqamli iqtisodiyot va innovatsiontexnologiyalar: investitsion jozibadorlik omillari. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2022. – 312-b. (Mualliflar energiya samaradorligini investitsion jozibadorlikning asosiy drayveri sifatida tahlil qilganlar).

2. Porter M.E., van der Linde C. Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship. // Journal of Economic Perspectives. – 2021. – Vol. 9, No. 4. – P. 97-118. (Atrof-muhitni muhofaza qilish va raqobatbardoshlik o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha fundamental tadqiqot).

3. BlackRock Investment Institute. Sustainability as a New Standard for Investing. – New York: Global Insights Report, 2023. – P. 12-25. (Investitsiya bozoridagi ESG tamoyillarining o'rni haqida xalqaro hisobot).

4. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. "Yashil iqtisodiyot: muammolar va istiqbollar". Tahliliy sharh. – Toshkent, 2023. – 88-b.

5. Shodiyeva G.M. Korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirishda energiya tejovchi texnologiyalarning roli. // "Iqtisodiyot va ta'lim" ilmiy jurnali. – 2023. – №5. – 210-215-bb.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Ibragimova Saule *Innovatsion texnologiyalar universiteti “Moliya va iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti v.v.b*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19634536

Annotaciya: Mazkur teziste sun’iy intellekt asosida ta’lim tizimini rivojlantirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, AI texnologiyalarini joriy etish ta’lim samaradorligini 15–20% ga oshiradi, xarajatlarni 10–15% ga kamaytiradi hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytiradi. Natijada, sun’iy intellekt ta’lim tizimini modernizatsiya qilishning muhim omili sifatida baholanadi.

Tayanısh sózler: Sun’iy intellekt, ta’lim tizimi, moliyaviy mexanizmlar, raqamli ta’lim, innovatsiya, iqtisodiy samaradorlik, investitsiya, edtech, digital transformation.

Annotation: This thesis analyzes the financial and economic mechanisms for developing the education system based on artificial intelligence. The results show that the implementation of AI technologies increases educational efficiency by 15–20%, reduces costs by 10–15%, and enhances investment attractiveness. As a result, artificial intelligence is identified as a key factor in the modernization of the education system.

Keywords: Artificial intelligence, education system, financial mechanisms, digital education, innovation, economic efficiency, investment, edtech, digital transformation.

Kirish. Zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellekt texnologiyalaridan ta’lim tizimida foydalanish global ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylanmoqda. Ta’lim jarayonlarini avtomatlashtirish, individual o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish va resurslardan samarali foydalanish AI texnologiyalarining asosiy afzalliklari hisoblanadi[1].

Xalqaro tadqiqotlarga ko‘ra, sun’iy intellekt asosidagi ta’lim yechimlari o‘quv samaradorligini 15–20% ga oshiradi va operatsion xarajatlarni 10–15% ga

kamaytiradi. Bu esa ta’lim tizimining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’limni raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida belgilangan. Shu sababli sun’iy intellekt asosida ta’lim tizimini rivojlantirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy asosda tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi[4].

Maqsad va vazifalar: Sun’iy intellekt asosida ta’lim tizimini rivojlantirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini baholash va uning samaradorligini aniqlash. Sun’iy intellekt va raqamli ta’limning nazariy asoslarini tahlil qilish. Ta’lim tizimida AI texnologiyalarining iqtisodiy ta’sirini baholash. Moliyalashtirish manbalari va investitsion mexanizmlarni aniqlash. Ta’lim samaradorligi va xarajatlar optimallashtirilishini tahlil qilish. Sun’iy intellekt asosida ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish.

Metodologiya: Tadqiqotta sun’iy intellekt asosida ta’lim tizimini rivojlantirishning moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarini o‘rganish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Ilmiy izlanishda tizimli va funksional yondashuvlar asosida raqamli ta’lim hamda iqtisodiy samaradorlik kategoriyalari tahlil qilindi[3].

Tahlil jarayonida iqtisodiy-statistik usullar, taqqoslash va regressiya tahlili orqali AI texnologiyalarining ta’lim tizimiga ta’siri baholandi. Shuningdek, xarajat–samaradorlik (cost-benefit) yondashuvi asosida sun’iy intellektni joriy etish natijalari aniqlashtirildi.

Empirik baholashda ta’lim samaradorligi, xarajatlar qisqarishi va investitsion jozibadorlik ko‘rsatkichlari asos qilib olindi. Natijada qo‘llanilgan metodologiya sun’iy intellektning ta’lim tizimidagi moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini berdi.

Asosiy natijalar

Olib borilgan tahlil natijalari sun’iy intellekt asosida ta’lim tizimini rivojlantirish yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Empirik baholashga ko‘ra, AI texnologiyalarini joriy etish natijasida ta’lim samaradorligi

15–22% ga oshgan, operatsion xarajatlar **10–17%** ga kamaygan. Model asosida baholash quyidagicha ifodalanadi:

$$EE = f(AI, CE, IA)$$

bu yerda **EE** – ta’lim samaradorligi, **AI** – sun’iy intellekt texnologiyalari darajasi, **CE** – xarajatlar samaradorligi, **IA** – investitsiyaviy jozibadorlik.

Natijalarga ko‘ra, **AI 1%** ga oshganda samaradorlik **0.38–0.46%** ga ortadi, xarajatlar samaradorligi **0.30–0.34%**, investitsiya jozibadorligi esa **0.25–0.29%** ga oshadi.

Umumiy hisobda, AI joriy etilgan ta’lim muassasalarida: - samaradorlik **18–25%** ga oshgan. -xarajatlar **12–16%** ga qisqargan. - investitsion faollik **14–20%** ga kuchaygan.

Bu natijalar sun’iy intellekt ta’lim tizimida moliyaviy barqarorlikni ta’minlovchi va iqtisodiy rivojlanishni tezlashtiruvchi asosiy omil ekanligini tasdiqlaydi[2].

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari sun’iy intellekt asosida ta’lim tizimini rivojlantirish moliyaviy-iqtisodiy jihatdan yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. AI texnologiyalarini joriy etish ta’lim sifatini oshirish bilan birga xarajatlarni qisqartirib, resurslardan samarali foydalanishni ta’minlaydi.

Shuningdek, sun’iy intellekt ta’lim tizimining investitsion jozibadorligini kuchaytirib, uning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada, AI asosidagi ta’lim modeli zamonaviy iqtisodiyot sharoitida samarali va istiqbolli rivojlanish yo‘nalishi sifatida baholanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age. – New York: W.W. Norton & Company, 2014.

2. OECD. Artificial Intelligence in Education: Challenges and Opportunities. – Paris: OECD Publishing, 2021.

3. World Bank. World Development Report 2021: Data for Better Lives. – Washington, DC: World Bank, 2021.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi. – Toshkent, 2020.

5. UNESCO. Artificial Intelligence and Education: Guidance for Policy-makers. – Paris: UNESCO, 2022.

6. Mambetnazarov B. et al. Innovative Mechanisms for Financing Agri-Food Exports: Case Study of the Republic of Uzbekistan //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2025. – T. 661. – C. 02005. https://doi.org/10.1051/e3sconf/202566102005

TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ANIQLASH VA ULARNI BARTARAF ETISH YO’LLARI.

Ibragimova Saule *Innovatsion texnologiyalar universiteti “Moliya va iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti v.v.b*

Jienbaeva Nasiba Maxsetovna *Innovatsion texnologiyalar universiteti “Moliya va moliyaviy texnologiyalar” mutaxasisligi 4-kurs talabasi*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19634638

Annotaciya. Ushbu tezisda tijorat banklari faoliyatida yuzaga keladigan muammoli kreditlarning (NPL — non-performing loans) paydo bo‘lish sabablari, ularning bank barqarorligiga ta’siri va ushbu kreditlarni barvaqt aniqlash usullari tahlil qilingan. Muammoli aktivlar ulushini kamaytirishda xalqaro tajriba (skoring tizimlari, monitoring) va milliy bank tizimidagi mavjud holat qiyosiy o‘rganilgan. Tezisda kredit portfeli sifatini yaxshilash, garov mulki bilan ishlash samaradorligini oshirish va muammoli qarzdorlikni restrukturizatsiya qilish bo‘yicha amaliy taklif hamda tavsiyalar ilgari surilgan.

Tayanish so‘zlar: tijorat banklari, muammoli kreditlar (NPL), kredit riski, monitoring, restrukturizatsiya, bank likvidliligi, aktivlar sifati.

Annotation. This thesis analyzes the reasons for the emergence of non-performing loans (NPLs) in commercial banks, their impact on bank stability, and methods for early detection of these loans. International experience (scoring systems, monitoring) and the current state of the national banking system in reducing

the share of non-performing assets were comparatively studied. The dissertation presents practical proposals and recommendations for improving the quality of the loan portfolio, increasing the efficiency of collateral management, and restructuring problematic debt.

Keywords: commercial banks, non-performing loans (NPL), credit risk, monitoring, restructuring, bank liquidity, asset quality.

Kirish: Bank tizimining barqarorligi iqtisodiy rivojlanishning asosiy ustunlaridan biridir. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotidagi noaniqliklar va moliya bozoridagi raqobatning kuchayishi sharoitida tijorat banklari faoliyatida kredit tavakkalchiligini boshqarish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, tijorat banklari aktivlarining salmoqli qismini tashkil etuvchi kredit portfelida muammoli kreditlar (NPL — non-performing loans) ulushining ortishi bank likvidliligi va moliyaviy natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy bank tizimida kredit operatsiyalari bank aktivlarining 70-80 foizini va daromadlarining asosiy qismini tashkil etadi. Biroq, bank faoliyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u doimiy ravishda kredit tavakkalchiligi (risk) bilan bog‘liq. So‘nggi yillarda global iqtisodiy tebranishlar, inflyatsiya darajasining o‘zgarishi va xalqaro moliya bozorlaridagi beqarorlik natijasida banklar portfelida muammoli kreditlar (NPL — Non-Performing Loans) ulushi ortishi kuzatilmoqda.

O‘zbekiston bank tizimida ham transformatsiya jarayonlari jadal kechmoqda. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, banklar portfelidagi muammoli kreditlar ulushi bankning umumiy kapital yetarliligi va likvidliligiga bevosita bosim o‘tkazmoqda[2]. Muammoli kreditlar nafaqat bankning foydasini kamaytiradi, balki iqtisodiyotda "kredit multiplikatori" samarasini pasaytirib, investitsion faollikga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, muammoli kreditlarni shunchaki aniqlash emas, balki ularni dastlabki bosqichda prognoz qilish (Early Warning Systems) va samarali bartaraf etish mexanizmlarini joriy qilish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir[4].

Maqsad va vazifalar: Ushbu tezisning asosiy maqsadi tijorat banklarida muammoli kreditlarning (NPL) yuzaga kelish sabablarini tizimli tahlil qilish orqali ularni bartaraf etishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, buning uchun muammoli aktivlarning bank barqarorligiga ta’sirini nazariy asoslash, ularni dastlabgi aniqlashda zamonaviy skoring va monitoring tizimlarini tahlil qilish, xalqaro tajriba asosida kreditlarni restrukturizatsiya qilish hamda bank aktivlari sifatini sog‘lomlashtirish bo‘yicha aniq amaliy takliflar ishlab chiqish vazifalari belgilab olindi.

Metodologiya: Ushbu tezisda qo‘yilgan maqsad va vazifalarni hal etishda quyidagi ilmiy metodlaridan foydalanilgan:

1. Tizimli va mantiqiy tahlil: Muammoli kreditlar tushunchasi, ularning vujudga kelish sabablari va oqibatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik mantiqiy ketma-ketlikda o‘rganilgan.

2. Statistik va qiyosiy tahlil: O‘zbekiston tijorat banklarining oxirgi yillardagi kredit portfeli holati, NPL (muammoli kreditlar) ulushining o‘zgarish dinamikasi va bank aktivlari sifati raqamli ma’lumotlar asosida o‘zaro solishtirilgan.

3. Guruhlash va tasniflash: Kredit risklari va muammoli aktivlar kelib chiqish manbalariga ko‘ra (ichki va tashqi omillar) alohida guruhlarga ajratilgan holda o‘rganilgan.

4. Iqtisodiy-matematik usullar (Skoring): Kreditga layoqatlilikni baholashda zamonaviy skoring modellarining (masalan, logit-modellari) samaradorligi va ularning muammoli kreditlarni erta aniqlashdagi roli tahlil qilingan.

5. Induksiya va deduksiya: Ayrim banklardagi muammoli kreditlar bilan ishlash tajribasidan umumiy bank tizimi uchun xulosalar (induksiya) hamda umumiy nazariy qoidalardan aniq amaliy takliflar (deduksiya) chiqarishda foydalanilgan.

6. Xalqaro tajribani o‘rganish (Benchmarking): Rivojlangan davlatlar (AQSH, Yevropa, Janubiy Koreya) banklarining muammoli aktivlarni sog‘lomlashtirish va "zaharli aktivlar"dan xalos bo‘lish bo‘yicha tajribasi tahlil qilingan.

Asosiya natijalar: Mazkur tahlil natijasida tijorat banklarida muammoli kreditlarni (NPL) dastlabki bosqichda aniqlash uchun sun’iy intellekt va skoring modellariga asoslangan «dastlabki ogohlantirish tizimi» (Early Warning System) joriy etishning samaradorligi isbotlandi hamda muammoli aktivlarning yuzaga kelishi asosan garov qiymatini noto‘g‘ri baholash va pul oqimlarini (cash-flow) noto‘g‘ri prognoz qilish bilan bog‘liqligi aniqlandi. Shuningdek, xalqaro tajribadagi «Bad Bank» modeli va kreditlarni restrukturizatsiya qilishning mijoz biznes-modeliga moslashtirilgan usullari bank likvidliligini 15-20 foizga oshirish imkonini berishi asoslab berildi va muammoli qarzdorlikni bartaraf etishda sud-undiruv choralari bilan birga mijozning moliyaviy oqimlarini sog‘lomlashtirish strategiyasi eng maqbul yechim ekanligi aniqlandi.

Xulosa: O‘tkazilgan tahliliy natijalar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirish uchun nafaqat an’anaviy monitoring, balki sun’iy intellektga asoslangan ilk ogohlantirish tizimlarini (EWS) joriy etish strategik ahamiyatga ega. Bank aktivlari sifatini yaxshilashda muammoli qarzdorlikni shunchaki undirish emas, balki mijozning moliyaviy oqimlarini inobatga olgan holda restrukturizatsiya qilish va zaharli aktivlarni boshqarishning xalqaro modellarini tatbiq etish bank likvidliligi hamda barqarorligini ta’minlashning eng maqbul yo‘lidir[5].

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. "Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida"gi O‘RQ-580-son Qonuni. 2019-yil 5-noyabr.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2020-2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-5992-son Farmoni. 2020-yil 12-may.

3. International Financial Reporting Standard 9 (IFRS 9). "Financial Instruments" (Moliyaviy vositalar).

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlari va yillik hisobotlari. (cbu.uz rasmiy sayti ma'lumotlari).

5. Maxmudov R.H. Tijorat banklarida muammoli kreditlar bilan ishlash amaliyotidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. – 2024

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ XO’JALIGI YERLARIDAN FOYDALANISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI

Inyatov Almaz Reymbaevich *- Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, “Iqtisodiyot, turizm va biznesni boshqarish” kafedrasi professor v.b.;*

Seilbekov Berdiyar Baxievich *- University of innovation technologies "Moliya va iqtisodiyot" kafedrasi dotcenti*

Joldasbaeva Gulmiyra Azatbay qizi *- QDU 4-kurs talabasi;*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19633918

Annotatsiya: Ushbu maqolada global ekologik o‘zgarishlar sharoitida qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish tizimini tahlillar asosida monitoring va nazorat tizimidagi holatlar aniqlanib, sohaga oid takliflarni ilmiy asosda takomillashtirish va uni barqaror boshqarish mexanizmlari berilgan.

**Kalit so`zlar:** qishloq xo`jaligi, yer fondi, sug‘oriladigan yer, yaylov, dehqonchilik, fermer xo‘jaliklari, monitoring.

Abstract: This article identifies the state of the monitoring and control system based on the analysis of the system of efficient use of land resources in agriculture in the context of global environmental changes, and provides mechanisms for scientifically improving proposals in the field and its sustainable management.

Keywords: agriculture, land fund, irrigated land, pasture, farming, farms, monitoring.

Qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanish tizimi har qanday agrar mamlakat uchun strategik resurs sifatida qaraladi. Yer resurslarining holati, ulardan samarali va barqaror foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari davlatning oziq-

ovqat xavfsizligini ta’minlash, eksport salohiyatini oshirish hamda ekologik muvozanatni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida umumiy yer fondining taxminan 45 foizga yaqini qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer maydonlaridan iborat bo‘lib, ulardan eng asosiylari sug‘oriladigan yerlar, yaylovlar, dehqon va fermer xo‘jaliklariga biriktirilgan yerlardir. Mamlakatda agrar islohotlar boshlangan 1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, yer egalik va foydalanish shakllarida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Davlat mulkidagi yerlar ijaraga beriladigan resurs sifatida fermer xo‘jaliklariga taqdim etildi, natijada foydalanish samaradorligini oshirish, yerga bo‘lgan mas’uliyat hissasini kuchaytirish imkoniyati yuzaga keldi.

Biroq, so‘nggi yillarda olib borilgan monitoringlar va ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, mavjud yer resurslaridan foydalanish samaradorligi hali ham yetarli darajada emas. Sug‘oriladigan yerlarning muayyan qismi meliorativ holatining yomonlashuvi, suv resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish, sho‘rlanish darajasining ortib borishi, agrotexnik tadbirlarning yetarli darajada olib borilmasligi kabi muammolar mavjud. Ayniqsa, paxta va g‘alla yetishtirish tizimlarining uzoq yillar davomida monokultura tarzida yuritilishi yer unumdorligining kamayishiga olib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida 2020-yil 5-oktabrda qabul qilingan PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi [1] va 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston–2030” strategiyasi [2] asosida yer resurslaridan foydalanishda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan. Yer monitoringi, raqamli kadastr ma’lumotlari bazasi, sug‘orish tizimlarining avtomatlashtirilgan nazorati, suv tejamkor texnologiyalarning keng joriy qilinishi ushbu islohotlarning muhim yo‘nalishlaridandir.

O‘zbekiston Respublikasi agrar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qishloq xo‘jaligi yerlaridan oqilona, ekologik barqaror va yuqori iqtisodiy samara beradigan tarzda foydalanishni tashkil etish masalasi kun tartibida turibdi. Yerdan foydalanish tizimining samaradorligi nafaqat texnologik yangiliklarga, balki

boshqaruv, huquqiy asoslar va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlariga ham bevosita bog‘liq bo‘lib, bu borada ilmiy tadqiqotlarning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi yerlarining holati va ulardan foydalanish tuzilmasi oxirgi yillarda sezilarli o‘zgarishlarga duch kelmoqda. 2022-yil holatiga ko‘ra, mamlakat yer maydonining taxminan 58,48 foizi qishloq xo‘jaligi maqsadlariga ajratilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich tarixiy nuqtai nazardan (1992–2022 yillar oralig‘ida) o‘rtacha 60,79 foizni tashkil qilgan. Demak, so‘nggi yillarda bu ko‘rsatkich biroz pasaygan. 2021-yilda qishloq xo‘jaligi yerlarining umumiy maydoni 256 906 kvadrat kilometrni tashkil etgan bo‘lib, bu 2020-yilga nisbatan biroz ko‘payganini ko‘rsatadi [4].

Qishloq xo‘jaligi yerlarining tuzilmasida esa aralash ekinlar (asosan don va sabzavot) hamda doimiy yaylovlar asosiy o‘rinni egallaydi. So‘nggi yillarda agrar sektorning modernizatsiyasi va mahsulotlar diversifikatsiyasiga oid siyosat natijasida, 2016–2020 yillar oralig‘ida paxta va g‘alla kabi an’anaviy monokulturali ekin maydonlari qisqarib, intensiv bog‘dorchilik, sabzavotchilik, dukkakli va yog‘li ekinlar yetishtirish sezilarli darajada kengaydi. Xususan, sabzavot ekinlari 103 foiz, kartoshka 114 foiz, dukkaklilar 3,6 baravar, mevalar 107 foiz va uzumzorlar 106 foizga oshgan.

2023-yil holatiga ko‘ra, sabzavotlar ekilayotgan yer maydoni 245,1 ming gektarni tashkil etgan. Bu yerlarning 70,9 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 24,6 foizi esa fermer xo‘jaliklariga tegishli. Poliz ekinlari va kartoshka yetishtirilayotgan maydonlarda ham shunga o‘xshash taqsimot kuzatiladi. Bu esa dehqon va tomorqa xo‘jaliklarining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi beqiyos o‘rnini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillardagi agrar sohadagi asosiy tendensiyalardan biri bu diversifikatsiya, ya’ni mahsulotlar tarkibining kengayishi hisoblanadi. Paxta va g‘alla maydonlarining qisqarishi hisobiga sabzavot, meva-sabzavotchilik va serhosil bog‘lar maydoni kengaytirildi. Shu bilan birga, raqamlashtirish va texnologik innovatsiyalar ham rivojlanmoqda. Masalan, yer monitoringi sohasida dron

texnologiyasidan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu texnologiya orqali 10 gektar maydonni atigi 6 daqiqa ichida kuzatish imkoniyati mavjud.

Fermer va dehqon xo‘jaliklarining iqtisodiy salohiyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular umumiy agrar mahsulotning qariyb 60 foizini ishlab chiqaradi. Shunga qaramasdan, ular mamlakatdagi jami qishloq xo‘jaligi yerlarining atigi 5 foizidan foydalanadi, dehqon xo‘jaliklarining o‘rtacha yer maydoni esa 0,2 gektardan oshmaydi. Bu kichik yer maydonlarining yuqori samaradorlik bilan boshqarilayotganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, O‘zbekiston agrar sektori so‘nggi yillarda sezilarli tarkibiy o‘zgarishlarga duch kelmoqda. Yer resurslaridan foydalanishda diversifikatsiya, raqamlashtirish, hududiy unumdorlikka yo‘naltirilgan siyosat va kichik xo‘jaliklarning salohiyatini kengaytirish asosiy yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasining umumiy yer fondi 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra **44 892,4 ming gektarni** tashkil etadi. Yer fondi o‘z ichida bir nechta funksional toifalarga bo‘lingan bo‘lib, har bir toifaning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati farqlanadi. Quyida ularning har biri bo‘yicha izchil tahlil keltiriladi. Eng katta ulushga ega bo‘lgan bu toifa 26 132,2 ming gektarni yoki umumiy yer fondining **58,21 %** ini tashkil qiladi. Qishloq xo‘jaligi maqsadlariga xizmat qiluvchi ushbu yerlarning **4 226,2 ming gektari** (ya’ni umumiy yer fondining **9,41 %)** sug‘oriladigan hudud hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida suv resurslarining hal qiluvchi o‘ringa egaligini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

(01.01.2024 holatiga) (ming ga. hisobida)

J	Yer fondining toifalari	Umumiy yer maydon		Shu jumladan, sug‘oriladigan yerlar	
		Jami	%	Jami	%

1.	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan	26 132,2	58,21	4	9,41
2.	Aholi punktlarining yerlari	226,7	0,51	50,9	0,11
3.	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo`ljallangan	786,9	1,75	12,6	0,03
4.	Tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar	3 223,3	7,18	0,9	0,002
5.	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik	15,0	0,03		
6.	O‘rmon fondi yerlari	12 092,5	26,94	45,4	0,10
7.	Suv fondi yerlari	827,3	1,84	4,6	0,01
8.	Zahira yerlar	1 588,5	3,54	1,9	0,004
	Jami yerlar:	**44892,4**	**100,0**	**4**	**9,67**

O‘zbekiston Respublikasi yer fondining asosiy qismini, tabiiyki, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tashkil etadi (58,21 %). Biroq umumiy yer fondining atigi 9,67 foyzi (4 342,5 ming ga.) sug‘oriladigan yerlar hisoblanadi [4]. Bu holat mamlakatda suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, sug‘oriladigan yerlar maydonini barqarorlashtirish va yer resurslarini optimal boshqarish borasida dolzarb muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ekologik jihatdan muhim bo‘lgan o‘rmon va tabiatni muhofaza qilish yerlari umumiy yer fondining qariyb 34 foizini egallab, tabiiy resurslarni asrash borasidagi siyosatning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

2-jadval

O‘zbekistonda yerlarning tarkibiy tuzulishi haqida ma’lumot (ming.ga)

Yillar	Haydaladigan yerlar	Yaylovlar va pichanzorlar	Ko‘p yillik daraxtzorlar	Boshqa yerlar
2021	4022,9	21244,3	415,2	14797,3
2022	4016,1	21253,1	421,4	14779,8
2023	4028,5	21215,4	438,5	13555,1
2024	4028,6	21190,4	445,3	13573,8
2025	4028,5	21190,4	445,3	13573,9

2021–2025-yillar davomida O‘zbekistonda yer resurslarining tarkibiy tuzilishida nisbatan barqarorlik kuzatilgan bo‘lsa-da, ayrim toifa yerlarida muayyan

o‘zgarishlar ro‘y bergan. Jumladan, haydaladigan yerlar hajmi 2021-yilda 4 022,9 ming gektarni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich yillar davomida deyarli o‘zgarmagan va 2025-yilga kelib 4 028,5 ming gektarda barqarorlashgan. Bu holat haydalma yerlardan foydalanish hajmining maksimal darajada saqlanayotganini, yangi yerlar kiritishdan ko‘ra mavjud yerlarni samarali boshqarish va intensiv usullar bilan ishlab chiqarishni afzal ko‘rilayotganini anglatadi.

Umuman olganda, O‘zbekiston yer tuzilmasining 2021-2025-yillardagi tahlili shuni ko‘rsatadiki, agrar sektor barqarorligini saqlab qolgan holda bog‘dorchilik yo‘nalishida rivojlanish kuzatilmoqda. Ayniqsa, ko‘p yillik daraxtzorlar ulushining o‘sishi va boshqa yerlardagi kamayish shuni anglatadiki, yer resurslari iqtisodiy samaradorligi yuqori yo‘nalishlarga ko‘proq jalb qilinmoqda. Shu bilan birga, yaylov maydonlarining qisqarishi chorvachilik uchun xavfli signal bo‘lishi mumkin, bu esa kelgusida resurslarni muvozanatli boshqarishni yana-da dolzarb masalaga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmoni;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil, 11-sentyabrdagi “«O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni;

4. «O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi asosiy tendentsiya va ko‘rsatkichlari hamda prognozlari» statistik to‘plam. – T.: «O‘zbekiston» – 128 b.

5. O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ma’lumotlari/ https://kadastr.uz/uz/etirof-etish-reja-jadvali

6. Inyatov A.R. “Современное состояние земельных ресурсов нашей страны и пути их рационального использования” “Suv xo‘jaligini barqaror

rivojlantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati” Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnikaviy anjuman. «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства». 24-25 марта 2025 года.

7. Inyatov A., Ilyasov S. “Awıl xojalıǵı ekonomikasında diyxan xojalıqların rawajlandırıwdıń áhmiyetleri” «Byudjet dáramatlarin keńeytiw maqsetinde xizmetler tarawinda socialliq-ekonomikaliq ziyani kem bolǵan qosimsha dáramat dereklerin aniqlaw mashqalalari» atamasında respublikaliq ilimiy-ámeliy konferenciya, QMU, 21-22-may, 2025-jil.

ÓNDIRISLIK TARAWLARDI FINANSLIQ QOLLAP-QUWATLAWDA KOMMERCIYALIQ BANKLERDIŃ ROLI

Tursinbaev Yusup Koshkinbay uli *- University of innovation technologies talabasi*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19648028

Annotaciya. Bul maqalada óndiris tarmaqların finanslıq qollap-quwatlawda kommerciyalıq banklerdiń ornı ilimiy jaqtan analiz etiledi. Atap aytqanda, bank kreditleri, investiciyalıq jumıs hám finanslıq qurallar arqalı real sektordı rawajlandırıw mexanizmleri kórip shıǵıladı. Sonday-aq, óndiris nátiyjeliligin arttırıwda bank sistemasınıń áhmiyeti hám bar mashqalalar tallanıp, olardı saplastırıw boyınsha usınıslar beriledi.

Gilt sózler: kommerciyalıq bankler, óndiris tarmaqları, finanslıq qollap-quwatlaw, bank kreditleri, investiciyalar, real sektor, ekonomikalıq rawajlanıw.

Annotation. This article analyzes the role of commercial banks in financially supporting industrial sectors from a scientific perspective. It examines mechanisms for developing the real sector through bank lending, investment activities, and financial instruments. Additionally, the importance of the banking system in improving production efficiency is highlighted, existing challenges are analyzed, and recommendations for their solution are proposed.

Keywords: commercial banks, industrial sectors, financial support, bank lending, investments, real sector, economic development

Zamanagóy ekonomika sharayatında óndiris tarmaqların turaqlı rawajlandırıw mámlekettiń ekonomikalıq ósiwiniń tiykarǵı faktorlarınan biri esaplanadı. Ásirese, real sektordıń rawajlanıwı sanaat óndirisiniń kóleminiń artıwı, jańa jumıs orınlarınıń jaratılıwı hám eksport potencialınıń kúsheyiwine tikkeley tásir kórsetedi. Usı kózqarastan, óndiris tarmaqların finanslıq qollap-quwatlaw máselesi úlken áhmyiyetke iye. Bul processte kommerciyalıq bankler áhmiyetli finanslıq institut sıpatında qatnasıp, ekonomikalıq resurslardı nátiyjeli bólistiriw hám investiciyalıq processlerdi xoshametlewde jetekshi rol atqaradı.

Kommerciyalıq bankler tárepinen usınılıp atırǵan kreditler, investiciyalar hám basqa da finanslıq xızmetler óndiris subektleriniń finanslıq turaqlılıǵın támiyinlewge xızmet etedi. Atap aytqanda, uzaq múddetli kreditlew mexanizmleri óndiris quwatlıqların keńeytiw, zamanagóy texnologiyalardı engiziw hám innovaciyalıq jumıstı rawajlandırıw imkaniyatın jaratadı. Sonıń menen birge, bankler tárepinen ámelge asırılıp atırǵan risklerdi bahalaw, monitoring hám qadaǵalaw sistemaları finanslıq resurslardan aqılǵa uǵras paydalanıwdı támiyinleydi.

Óndiris tarmaqların finanslıq qollap-quwatlawda kommerciyalıq banklerdiń roli zamanagóy ekonomikalıq sistemanıń ajıralmas bólegi esaplanadı. Sońǵı jılları kóplegen mámleketlerde, atap aytqanda, rawajlanıp atırǵan ekonomikalarda bank sektorınıń real sektor menen integraciyası kúsheyip barmaqta. Statistikalıq maǵlıwmatlarǵa qaraǵanda, dúnya kóleminde óndiris tarmaqlarına baǵdarlanǵan bank kreditleri ulıwma kredit portfeliniń ortasha 30-40 procentin quraydı. Bul bolsa banklerdiń sanaat hám óndiristi rawajlandırıwda áhmiyetli finanslıq derek ekenligin tastıyıqlaydı. Ózbekstan mısalında da kommerciyalıq banklerdiń óndiris tarmaqların qarjılandırıwdaǵı roli sezilerli dárejede artıp barmaqta. Keyingi jıllarda mámlekette bank kreditleriniń kólemi turaqlı ósiw tendenciyasın kórsetpekte. Sonıń ishinde, Oraylıq bank maǵlıwmatlarına bola, 2023-2024-jıllarda ekonomikaǵa ajıratılǵan kreditlerdiń kólemi 20-25 procentke artqan bolıp, onıń áhmiyetli bólegi sanaat hám óndiris tarawlarına baǵdarlanǵan. Ásirese, kishi hám orta biznes subektlerine ajıratılǵan kreditler óndiris tarmaqlarınıń keńeyiwine xızmet etpekte.

Kommerciyalıq bankler tárepinen óndiris tarmaqların qollap-quwatlawdıń tiykarǵı mexanizmlerinen biri bul kreditlew esaplanadı. Kreditlew arqalı kárxanalar aylanıs qarjıların tolıqtırıw, tiykarǵı qurallardı jańalaw hám jańa óndiris quwatlıqların jaratıw imkaniyatına iye boladı. Statistikalıq maǵlıwmatlarǵa bola, sanaat kárxanalarınıń derlik 60 procenti óz jumısın keńeytiwde bank kreditlerinen paydalanadı. Bul kórsetkish bank kreditleriniń óndiris procesindegi áhmiyetli ornın jáne bir márte tastıyıqlaydı. Bunnan tısqarı, kommerciyalıq bankler investiciyalıq xizmet arqalı da óndiris tarmaqlarınıń rawajlanıwına úles qospaqta. Bankler tárepinen ámelge asırılıp atırǵan investiciyalıq joybarlar, atap aytqanda, infrastruktura, energetika hám sanaat tarawlarındaǵı iri joybarlardı qarjılandırıw arqalı ekonomikalıq ósiwdi támiyinleydi. Jáhán tájiriybesinde bankler arqalı qarjılandırılatuǵın investiciyalıq joybarlardıń 70 procentke shamalası óndiris hám infrastruktura tarawlarına tuwra keledi.

Óndiris nátiyjeliligin arttırıwda banklerdiń zamanagóy finanslıq instrumentlerden paydalanıwı da úlken áhmiyetke iye. Lizing, faktoring, forfeyting sıyaqlı finanslıq xızmetler kárxanalarǵa óz jumısın jáne de nátiyjeli shólkemlestiriw imkaniyatın beredi. Máselen, lizing operaciyaları arqalı kárxanalar úlken muǵdardaǵı baslanǵısh investiciyasız zamanagóy texnika hám úskenelerge iye bolıwı múmkin.

Statistikalıq maǵlıwmatlarǵa bola, rawajlanǵan mámleketlerde óndiris úskeneleriniń derlik 25-30 procenti lizing tiykarında qarjılandırıladı. Sonıń menen birge, kommerciyalıq banklerdiń óndiris tarmaqların qarjılandırıwdaǵı jumısında ayırım mashqalalar da bar. Atap aytqanda, kredit resurslarınıń joqarı procent stavkaları, girew támiynatına qoyılatuǵın qatań talaplar jáne uzaq múddetli kreditlerdiń jetispewshiligi óndiris subektleriniń finanslıq imkaniyatların shekleydi. Izertlewler sonı kórsetedi, kishi biznes subektleriniń derlik 40 procenti kredit alıwda girew támiynatı mashqalasına dus keledi. Bunnan tısqarı, bank sistemasında risklerdi basqarıw dárejesiniń jeterli emesligi de óndiris tarmaqlarına ajıratılıp atırǵan kreditlerdiń nátiyjeliligine unamsız tásir kórsetiwi múmkin. Sol sebepli, kommerciyalıq bankler tárepinen kredit portfelin diversifikaciyalaw, zamanagóy

riskti bahalaw sistemaların engiziw hám sanlı bank xızmetlerin rawajlandırıw áhmiyetli wazıypa esaplanadı.

Ulıwma alǵanda, statistikalıq hám analitikalıq maǵlıwmatlar sonı kórsetedi, kommerciyalıq bankler óndiris tarmaqların finanslıq qollap-quwatlawda sheshiwshi rol atqaradı. Olardıń kreditlew, investiciya hám finanslıq xızmetler arqalı real sektordı rawajlandırıwǵa qosıp atırǵan úlesi ekonomikalıq ósiwdiń áhmiyetli faktorlarınan biri sıpatında kózge taslanbaqta. Sonıń menen birge, bar mashqalalardı saplastırıw arqalı bank sistemasınıń nátiyjeliligin jáne de arttırıw múmkin.

Joqarıdaǵı tallawlar sonı kórsetedi, kommerciyalıq bankler óndiris tarmaqların finanslıq qollap-quwatlawda áhmiyetli hám sheshiwshi orın iyeleydi. Olar tárepinen usınılıp atırǵan kreditler, investiciyalar hám zamanagóy finanslıq xızmetler real sektordıń turaqlı rawajlanıwın támiyinlewge xızmet etedi. Ásirese, óndiris quwatlıqların keńeytiw, texnologiyalıq jańalanıwlardı ámelge asırıw hám jańa jumıs orınların jaratıwda bank qarjılandırıwı tiykarǵı faktorlardan biri bolıp esaplanadı.

Tallawlar nátiyjesinde anıqlanıwınsha, kommerciyalıq banklerdiń jumısı óndiris nátiyjeliligin arttırıw menen tikkeley baylanıslı bolıp, ekonomikalıq ósiw pátlerin tezlestiriwde áhmiyetli rol oynaydı. Sonıń menen birge, bank kreditleriniń kólemi hám olardan paydalanıw nátiyjeliligi real sektor rawajlanıw dárejesine sezilerli tásir kórsetedi. Statistikalıq maǵlıwmatlar da bankler hám óndiris tarmaqları arasında úzliksiz baylanıslılıq bar ekenligin tastıyıqlaydı. Biraq, bul processte ayırım mashqalalar da bar bolıp, olardıń arasında kredit procent stavkalarınıń joqarılıǵı, girew támiynatı talaplarınıń quramalılıǵı hám uzaq múddetli qarjılandırıw imkaniyatlarınıń sheklengenligi ayrıqsha orın iyeleydi. Bul mashqalalar óndiris subektleriniń finanslıq resurslardan tolıq hám nátiyjeli paydalanıwına tosqınlıq etpekte. Usı múnásibet penen kommerciyalıq banklerdiń jumısın jáne de jetilistiriw, kreditlew shártlerin ápiwayılastırıw, uzaq múddetli finanslıq resurslardı keńeytiw hám zamanagóy finanslıq instrumentlerden paydalanıwdı rawajlandırıw zárúr esaplanadı. Sonday-aq, mámleket hám bank sisteması arasındaǵı birge islesiwdi

kúsheytiw arqalı óndiris tarmaqların qollap-quwatlaw mexanizmlerin jáne de nátiyjeli shólkemlestiriw múmkin.

Juwmaqlap aytqanda, kommerciyalıq bankler óndiris tarmaqlarınıń turaqlı rawajlanıwında strategiyalıq áhmiyetke iye bolıp, olardıń nátiyjeli jumısı mámlekettiń ekonomikalıq rawajlanıwınıń áhmiyetli faktorı sıpatında kórinedi.

Ádebiyatlar

1. Ózbekstan Respublikası Oraylıq banki. Jıllıq esabatlar (2022-2024). - Tashkent.

2. Karimov I. A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Ózbekiston sharoitida uni bartaraf etish yollari va choralari." - Tashkent: Ózbekstan, 2009.

3. Mishkin, F. S. “The Economics of Money, Banking and Financial Markets”. — New York: Pearson Education, 2021

4. Rose, P. S., Hudgins, S. C. “Bank Management and Financial Services”. — New York: McGraw-Hill Education, 2019

TURLI MAMLAKATLARDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH DASTURLARIDA BOSHQARILISH USULLARI

Yusupova J.K *- University of innovation technologies Moliya va iqtisodiyot kafedrasi dotsent v.v.b*

Batirbayeva D.M, Abdullayeva M.K, Saburova Sh.SH, Saburova G.B. *- University of innovation technologies Iqtisodiyot yo’nalishi talabalari*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635012

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamlashtirish jarayoni tarixi, mamlakatlarda raqamlashtirishga oid statitistik iqtisodiyot, texnologik tartiblar, atom energetikasi, resurs, tsikl, transformatsiya.

Kalit so’zlar: raqamli iqtisodiyot, texnologik tartiblar, atom energetikasi, resurs, tsikl, transformatsiya.

Annotation. This article cites the history of the digitization process, statistic data on digitization in countries.

Keywords: digital economy, technological procedures, atomic energy, resource, cycle, transformation.

Raqamli yozuvlarning yuridik ahamiyati kabi infratuzilmaning rivojlanishi, ekotizim va platformadan foydalanuvchi talabini hisobga olish usullarini ta’kidlash muhimdir.

Raqamli iqtisodiyot bu – tarmoqlar va faoliyat sohasi axborot kommunikatsiya tarmogini joriy etishni ta’minlaydigan, raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyatdir. Shuningdek, biznesjarayonlarni raqamli makonga o‘tkazish bi-lan bir qatorda, uni rivojlantirishning beshta asosiy vazifasini aniqlash taklif etilgan:

1) tadbirkorlik subyektlari uchun barqaror raqamli ekotizimni shakllantirish;

2) iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida raqamli jarayonlarni joriy etishni rag‘batlantirish;

3) meyoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish;

4) risklar (tavakkalchilik)ni boshqarish;

5) jarayonlarning raqamli transformatsiyasi hisobiga davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish.

Raqamli iqtisodiyotda, hayotning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarning to‘liq kirib borish holatini ko‘rib chiqish qabul qilingan. Butun jarayon sivilizatsiya rivojlanishining yagona bosqichi bo‘lgan AKT va telekommunikatsiya, mikroelektronikaning rivojlanishidagi taraqqiyot tufay-lidir.

Mutaxassislarning fikricha, raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2023 yildagi 44,6 foizga nisbatan 2030 yilga borib 76,1 foizga yaqinlashadi. Raqamli iqtisodiyotning mashhur ko‘rsatkichi asosan iste’molchiga mo‘ljallangan “Internet”ning rivojlanishi bilan tushuntiriladi. Tahlillarga ko‘ra 2030 yilga kelib, Internet sanoati o‘z qamrovini sezilarli darajada oshiradi va dunyo bo‘ylab sanoat iqtisodiyotini raqamlashtirish va ma’lumotlarni qayta ishlashning yuqori darajasini namoyish etadi.

Raqamli inqilob G‘arbda bundan 10-20 yil oldin bong urgan edi: u yerda biznes yangi aloqa vositalarini birinchilardan bo‘lib faol o‘zlashtirdi, hamma narsani

raqamlashtirdi va rasmiy tarzda elektron imzoni qonuniy ro‘y-xatdan o‘tkazdi, nafaqat biznes hamjamiyati doirasida balki davlatda ham raqamli aloqalar o‘rnatildi va davlat idoralari esa asta-sekin o‘z axborot tizimlarini birlashtirdilar.

Texnologik tartiblar

Ushbu nazariyaning asoschilari rus olimi N.D. Kondratyev va avstriyalik olim J. Shumpeterlardir. 1920-yillarda aynan rus olimi N.D. Kondratyev o‘zgaruvchan ko‘tarilishlarning davriy sikllari va taxminan 50-55 yil davom etadigan jahon iqtisodiyotining pasayishi deb ataladigan iqtisodiyotning rivojlanishida uzoq muddatli tebranishlarning mavjudligini empirik jihatdan isbotladi.

Ushbu nazariyaning asosiy xulosasi jamiyat hayotida texnologik jarayonlarning hal qiluvchi roli edi. Oqibatda ushbu nazariya **“uzun to‘lqinlar nazariyasi”** deb nomlandi. Kondratyevning uzun to‘lqinlar nazariyasiga asos-lanib, avstriyalik olim Y. Shumpeter barcha iqtisodiy tizimga tebranish beruvchi yangiliklarning impulslarini keltirib chiqardi.

XX asrning 70-80 yillarida Glazyev Sergey Yuryevich “texnologik tartiblar” nazariyasini faol rivojlantirguniga qadar taxminan 30 yil da-vomida Kondratyev va Shumpeterning ta’limoti e’tiborsiz qoldi.

S.Y. Glazyev va D.S. Lvovning “Ilmiy-texnik taraqqiyotni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlari” maqolasida keltirgan ta’rifiga ko‘ra, **texnologik tartib bu** – bir turdagi texnologik zanjirlar bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va takroriy butunliklarni shakllantiradigan iqtisodiyotning texnologik tarkibida ajratilgan texnologik agregatlar guruhidir.

Har bir bunday tuzilish ma’lum jamoat turi iste’molini qondiradigan yakuniy mahsulotlar to‘plamini chiqarish va ularni qayta ishlashning barcha bosqichlari, birlamchi resurslar va qazib olishni o‘z ichiga oluvchi to‘liq makroishlab chiqarish sikli amalga oshiriladigan doirada o‘zi bilan bir butun hamda barqaror ta’limni ifodalaydi. Oddiy so‘zlar bilan aytganda, “texnologik tartib” atamasi ostida bir xil ilmiy-texnik darajadagi texnologiyalar va ishlab chiqarish majmui tushuniladi.

Bir texnologik tartibdan boshqasiga o‘tishning yanada mukammal xususiyati ishlab chiqarish apparatining o‘zgarishi bo‘ldi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, ba’zi

sohalarda emas, balki barcha sohalarda yuqori texnologiyalarni rivojlanti-rish ustuvor hisoblanadi. Har bir texnologik tuzilma va uning asosini tash-kil etuvchi yetakchi texnologiyalarning o‘ziga xosligi bor. Umumiy qabul qi-lingan nuqtai-nazarga ko‘ra, hozirda biz hayot yo‘lining oltinchi texnologik bosqichidamiz. Texnologik tartiblarning barcha asosiy muddati va davrlari sxematik tarzda 2.1-rasmda keltirilgan.

Birinchi texnologik tartib (1770-1830 yy.).

S.Y. Glazyevning fikriga ko‘ra, birinchi sanoat texnologik tartibi 1770 yilda boshlangan suv energiyasidan foydalanish shuningdek, to‘qima-chilik sanoatida yangi texnologiyalarga asoslangan qo‘l mehnatidan mexanik ishlov berishga o‘tish bilan tavsiflanadi.

Qishloq xo‘jaligi va to‘qimachilik sanoatida — yigiruv mashinasi, suv tegirmonlari, chugunni eritish, temirni qayta ishlash va boshqalar kabi yangi texnologiyalar paydo bo‘la boshladi. Natijada to‘qimachilik sanoatining ma-shinalashtirishga o‘tishi sodir bo‘ldi, bu mashinasozlik mahsulotlariga ta-labning oshishiga olib keldi.

Yog‘och mahsulotlarni temir bilan almashtirish tendensiyasi boshlandi, bu esa shunga mos ravishda metallga ishlov berishda texnologik siljishlarga olib keldi. 1830 yildan boshlab tez o‘sish bosqichi tugaydi, uning sabablari ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlari va 1825 hamda 1837 yillardagi birja bozoridagi vahima edi. Birinchi texnologik liderlar Buyuk Britaniya va Belgiya bo‘lishdi.

Ikkinchi texnologik tartib (1830-1880 yy.).

Taxminan XIX asrning 20 yillari o‘rtalarida bug‘ va ko‘mir energiya-sidan foydalanishga asoslangan yangi texnologik tartibning shaklla-nishi kuzatiladi. Bu davrda lokomobil, par mashinasi, par dvigatellari yaratildi. Ushbu kashfiyotlar temiryo‘l transporti, paroxod qurilishi va butun ishlab chiqarish mexanizatsiyasining rivojlanishi uchun qattiq turtki berdi.

Qishloq xo‘jaligida bug‘ energiyasidan foydalanuvchi, o‘z navbatida meh-nat unumdorligini sezilarli darajada oshirish va qo‘l mehnatining qisqa-rishiga hissa qo‘shuvchi bug‘ tegirmonlari hamda boshqa ixtirolar paydo bo‘l-di.

Transport aloqalarining rivojlanishi natijasida xalqaro savdoning intensivligi va ahamiyati keskin o‘sdi. Tez o‘sish bosqichining oxiri ikkinchi texnologik tartibini 1873-1879 yillardagi uzoq depressiya natijasida 1880 yil deb hisoblash qabul qilindi. Ushbu texnologik rivojlanish davrining yetakchilari AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya bo‘lishdi.

Uchinchi texnologik tartib (1880-1930 yy.).

Uchinchi texnologik tartibning boshlanishi XIX asrning 80 yilla-rini o‘z ichiga olib, elektroenergiya, elektrotexnika va radio-texnika sano-ati, shuningdek, og‘ir sanoatdan keng foydalanishga asoslanadi. Og‘ir sanoat-ning rivojlanishi bilan po‘lat asosiy tarkibiy materialga aylandi. Shu-ningdek, izma-iz kimyo sanoati ham rivojlandi.

Xuddi shu davrda telegraf, radioaloqa, ichki yonish dvigateli va odamlar hayotining sifatini tubdan o‘zgartirgan boshqa yangiliklar ixtiro qilindi. 1930 yilda buyuk depressiya davri va mos ravishda uchinchi texnologik tartib-ning tugashi sifatida tarixga kirdi. O‘sha davrning texnologik yetakchilari AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya kabi davlatlar bo‘ldi.

To‘rtinchi texnologik tartib (1930-1970 yy.).

To‘rtinchi sanoat texnologik tartibi avtomobil va aviatsiya sanoati, shu-ningdek, neftni qayta ishlash sanoatining rivojlanishiga, muvofiq ravish-da uglevodorod energiyasi, ichki yonuv dvigatellarini keng qo‘llashga asoslan-gan.

Shuningdek, atom energetikasi rivojlana boshladi. Ushbu texnologik tartib innovatsiyalarni, ya’ni, traktorlar, turli xil elektr tortish mexanizm-lari va boshqalarni faol qo‘llash natijasida qishloq xo‘jaligining ishlab chiqaruvchanligini sezilarli darajada oshirdi. Xomashyoni qayta ishlash uchun kichik o‘lchamli mexanizmlar, suv nasoslari, maishiy texnika (changyutgichlar, telefonlar, kir yuvish mashinalari, idish yuvgich mashinalar, elektr ustara-lar, musiqa asboblari va boshqa)larning keng tarqalishi tufayli aholining hayot sifati tez takomillashtirildi. Tez o‘sish bosqichining tugashiga 1973 yildagi neft inqirozi, shuningdek, Bretton-Vuds pul tizimining inqirozi sabab bo‘ldi. To‘rtinchi sanoat texnologik tartibi

yetakchilari SSSR, AQSH, Yaponiya, shuningdek, G‘arbiy Yevropa davlatlari bo‘ldi.

Beshinchi texnologik tartib (1970-2010 yy.).

1970 yilga kelib, ko‘plab rivojlangan G‘arb mamlakatlarida to‘rtinchi texnologik tartib rivojlanish cho‘qqisiga yeta boshladi. Aynan shu davr mik-roelektronika, informatika, elektron va atom energetikasi, nanotexnologiya, genetik injeneriya sohasidagi yutuqlarga asoslangan beshinchi sanoat texno-logik tartibining boshlanishini o‘z ichiga oladi. Ushbu beshinchi texnologik tartibda, dasturiy ta’minot va umuman AKT sohasida to‘liq mikrokompyu-ter ixtirosi hamda u bilan bog‘liq ulkan taraqqiyot yuz berdi.

Bugungi kunda oddiy fuqaroning hayotini video va audio uskunalar, uyali telefon-smartfonlar hamda Internetsiz tasavvur qilishning iloji yo‘q. Beshinchi texnologik tartib ixtirolari asosida iqtisodiyotning globallashuviga imkoniyat yaratildi, chunki mahsulot va kapitalning harakatlanish tezligi sezilarli darajada oshdi. Sun’iy yo‘ldosh aloqasidan uzoq konlarda, qishloq xo‘jaligi yerlarida texnologik jarayonlarni masofadan boshqarish, shuningdek, dengiz, havo va quruqlik transportining harakatlarini kuzatish uchun foydalanishga imkon yaratildi. 2008 yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining boshlanishi beshinchi texnologik tuzilmaning tugashini anglatadi.

Texnologik yetakchilar sifatida AQSH, Yaponiya, shuningdek, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari oldinga chiqdilar.

Oltinchi texnologik tartib (2010 yildan hozirgi kungacha).

2000 yillarning boshidan asosiy yo‘nalishlari biotexnologiya, sun’iy intellekt tizimlari, global axborot tarmoqlari, jumladan, “raqamli iqtisodiyot» bo‘lgan oltinchi texnologik tartibning elementlari paydo bo‘la boshladi. Bugungi kunga kelib, oltinchi texnologik tartib rivojlanishning shakllanish bosqichidan chiqmoqda. Glazyevning bashoratiga ko‘ra, bugun biz oltinchi sanoat tartibini emas, balki birinchi postindustrial texnologik tartibni ham o‘zlashtirish arafasida turibmiz, chunki nanotexnologiyalar: nanobionika, nanomateriallar, genetik injeneriya va boshqalar allaqachon asosiy sohalar hisoblanadi.

Yaponiya, AQSH, Germaniya, Shvetsiya, Kanada, Janubiy Koreya, Avstriya kabi mamlakatlar texnologik portlashning yetakchilari hisoblanadi. Texnologik tuzilmalarni batafsil o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, jamiyatning rivojla-nishi texnologik tuzilmalarni bosqichma-bosqich o‘zgartirishning izchil yo‘lidan boradi, chunki yuqorida aytib o‘tilgan texnologik tuzilmalarning har biri turli bosqichlardan o‘tgan va umumiy iqtisodiy o‘sishga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. С.С.Гулямов, Р.Х. Аюпов. Рақамли иқтисодиёт ва электрон тижорат асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: ТМИ: 2020 й. – 512 б.

2. Макаров А.Ю., Макаров А.А. Цифровая экономика. Технология меняет менежмент. Практика внедрения и результат.: учебник /А.Ю.Макаров, А.А. Макаров. — М: СОЛОН-Пресс, 2021. — 160 с.

3. Abdullayev, M., Saidahror, G., & Ayupov, R. (2020). Рақамли иқтисодиёт - кадрлар тайёрлашнинг долзарб йўналишлари. Архив научных исследований, 1(23).

4. Begalov B.A., Mamadaliyev O.T., Abdusalomova N.B. Issues for Reforming the National Statistical System in the Country: In Case of Republic of Uzbekistan. Asian Journal of Technology & Management Research (AJTMR) ISSN: 2249 –0892 Special Issue–03, Mar -2023.

5. *www.mitc.uz* – Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлигининг расмий веб-сайти.

MEHNAT BOZORIDA ISHSIZLIKNI BARTARAF ETISH YO’LLARI

Yusupova Jamil Karamatdinovna *- University of Innovation Technologies Moliya va iqtisodiyot kafedrasi dotsent v.v.b*

Allambergenova Iroda *- University of Innovation Technologies talabasi*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19634876

Annotatsiya. Ushbu maqolada ishsizlik muammosi, uning kelib chiqish sabablari hamda jamiyat va iqtisodiyotga ta’siri tahlil qilinadi. Ishsizlikning asosiy

turlari, jumladan, friksion, strukturaviy va siklik ishsizlik ko‘rib chiqilib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, maqolada ishsizlik darajasini kamaytirish yo‘llari, davlat siyosati va mehnat bozorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ishsizlikni kamaytirish uchun ta’lim tizimini takomillashtirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so’zlar: ishsizlik, bandlik, mehnat bozori, kasb-hunar, tadbirkorlik, davlat siyosati.

Annotation.This article analyzes the problem of unemployment, its main causes, and its impact on society and the economy. The main types of unemployment, including frictional, structural, and cyclical unemployment, are examined, and their specific characteristics are explained. The article also discusses ways to reduce unemployment, government policies, and measures aimed at developing the labor market. According to the findings, improving the education system, creating new job opportunities, and supporting entrepreneurship play an important role in reducing unemployment.

Keywords: unemployment, employment, labor market, vocational skills, entrepreneurship, government policy.

Ishsizlik bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlari uchun dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri hisoblanadi. U nafaqat iqtisodiy o‘sish sur’atlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, balki aholi turmush darajasi va ijtimoiy barqarorlikka ham bevosita ta’sir qiladi. Shu bois ishsizlik sabablarini o‘rganish va uni kamaytirish yo‘llarini izlash har bir jamiyat uchun muhim vazifa sanaladi.

Ishsizlik - mehnatga layoqatli va ishlashga tayyor bo‘lgan aholining iqtisodiy faol bo‘la turib, o‘ziga mos ish topa olmasligi bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir. Bu holat mehnat resurslaridan to‘liq foydalanilmayotganini ko‘rsatadi hamda mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta’sir etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Ishsizlikning quyidagi turlari mavjud. Friktsion (oraliq) ishsizlik, tarkibiy ishsizlik, mavsumiy ishsizlik, tsiklik ishsizlik, yashirin ishsizlik turlari mavjud.

Friktsion ishsizlik - ishchilarning o‘z xohishi bilan ish joyini o‘zgartirishi yoki yaxshiroq ish izlash jarayonida yuzaga keladigan vaqtinchalik holatdir. Tarkibiy ishsizlik - iqtisodiyotdagi texnologik o‘zgarishlar yoki tarmoqlar rivoji natijasida ayrim kasblarga bo‘lgan talabning kamayishi bilan bog‘liq.Mavsumiy ishsizlik - qishloq xo‘jaligi, turizm yoki qurilish kabi sohalarda ish hajmining fasllarga qarab o‘zgarishi natijasida yuzaga keladi.Siklik ishsizlik - iqtisodiy inqiroz yoki pasayish davrida ishlab chiqarish hajmi qisqarishi natijasida yuzaga keladi. Yashirin ishsizlik - ishchilar rasmiy ravishda band bo‘lsa-da, amalda to‘liq ish bilan ta’minlanmagan holatdir.

Ishsizlik darajasi 2020–2025-yillar oralig‘ida ishsizlik darajasi quyidagicha kuzatilgan: 2020-yilda — 10,5%, 2021-yilda — 9,4%, 2022-yilda — 8,9%, 2023-yilda — 8,1%, 2024-yilda — 5,8%, 2025-yilda — 5,1% Ko‘rinib turibdiki, har yili ishsizlik darajasi pasayib, ijobiy tomonga o‘zgarib bormoqda. Ishsizlik muammosini o‘rganish va tahlil qilishning iqtisodiy oqibatlari: yalpi ichki mahsulot hajmining qisqarishi, ishlab chiqarish salohiyatining to‘liq ishlatilmasligi va davlat byudjetiga tushumlarning kamayishi.Ijtimoiy oqibatlari: aholi daromadlarining pasayishi, kambag‘allikning ortishi, jinoyatchilikning ko‘payishi va ijtimoiy tengsizlikning kuchayishi. Ishsizlikning tabiiy darajasi iqtisodiyotda doimo mavjud bo‘ladigan friktsion va tarkibiy ishsizlikdan iborat bo‘lib, ma’lum darajada iqtisodiyot uchun normal hisoblanadi.Bandlikni ta’minlash esa iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi, aholining xarid qobiliyatini oshiradi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Ishsizlikni kamaytirish uchun kasb-hunarga o‘qitish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega va quyidagilarni tashkil etadi:kasbiy qayta tayyorlash talab yuqori bo‘lgan sohalar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash kreditlar, soliq imtiyozlari va subsidiyalar berish, investitsiyalarni jalb qilish yangi ish o‘rinlari yaratish, o‘zini o‘zi band qilishni rivojlantirish hunarmandchilik va xizmat ko‘rsatish sohalarini kengaytirish, mehnat migratsiyasini tartibga solish xorijda ishlovchi fuqarolarni himoya qilish. Ishsizlikni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat tomonidan

kambag‘al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o‘rgatish hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

– kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini takomillashtirish;

– mehnat bozori ehtiyojlariga mos o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

– ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarni, ayniqsa nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash;

– xususiy sektor bilan hamkorlikni rivojlantirish va grantlar ajratish.

Xulosa qilib aytganda, ishsizlik jamiyat va iqtisodiyot rivojiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi muhim muammolardan biridir. U nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarning pasayishiga, balki aholi farovonligi va ijtimoiy barqarorlikning izdan chiqishiga ham olib keladi. Shu sababli ishsizlikni kamaytirish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Ishsizlikka qarshi kurashish uchun zamonaviy kasb-hunarlarni o‘rgatish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va mehnat bozorini samarali boshqarish orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish mumkin.

Umuman olganda, ishsizlik muammosini hal etish jamiyatning har tomonlama taraqqiyoti va insonlarning munosib hayot kechirishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik (to'ldirilgan va qayta ishlangan nashri). O’lmasov A, Vahobov A. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteiti.-T.: «Iqtisod - Moliya», 2014. - 424 b.

2. Sh.Shodmonov Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik.. -Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 388 b.(1-qism)

3. Sh. Shodmonov Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. -Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2022, 346 b (2-qism)

http://www.stat.uz, www.lex.uz, www.gazeta.uz

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Сеитназаров Данияр Бахадирович *- University of Innovation Technologies, ассистент преподавателя*

Калмуратова Альбина *- студентка University of Innovation Technologies.*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635539

Аннотация. В данной работе рассматриваются вопросы обеспечения экономической безопасности Узбекистана в условиях стремительного развития технологий искусственного интеллекта. Анализируются ключевые направления влияния искусственного интеллекта на национальную экономику, включая повышение производительности, трансформацию рынка труда, цифровизацию отраслей и усиление конкурентоспособности страны. Особое внимание уделяется потенциальным рискам, связанным с автоматизацией, киберугрозами и технологической зависимостью. Рассматриваются меры государственной политики, направленные на минимизацию угроз и эффективное использование возможностей искусственного интеллекта для устойчивого экономического развития. В результате обосновывается необходимость формирования комплексной стратегии экономической безопасности с учетом современных цифровых вызовов.

Ключевые слова: экономическая безопасность, искусственный интеллект, цифровая экономика, Узбекистан, инновации, автоматизация, рынок труда, кибербезопасность, государственная политика, технологическое развитие, устойчивое развитие

Введение: Современных условиях стремительного технологического прогресса искусственный интеллект (ИИ) становится одним из ключевых факторов трансформации мировой экономики. Для Узбекистана, находящегося на этапе активных реформ и модернизации, вопросы

экономической безопасности приобретают особую актуальность. Внедрение ИИ открывает новые возможности для устойчивого развития, однако одновременно порождает и ряд рисков, требующих внимательного анализа и эффективного управления. Экономическая безопасность государства представляет собой состояние защищённости национальной экономики от внутренних и внешних угроз, обеспечивающее устойчивый рост, социальную стабильность и повышение уровня жизни населения. Для Узбекистана важными элементами экономической безопасности являются диверсификация экономики, развитие промышленности, привлечение инвестиций и внедрение инновационных технологий.

Искусственный интеллект становится важным инструментом повышения эффективности экономических процессов. В Узбекистане ИИ постепенно внедряется в такие сферы, как банковский сектор, сельское хозяйство, промышленность и государственное управление.

В финансовой сфере ИИ используется для анализа рисков, предотвращения мошенничества и оптимизации кредитной политики. В сельском хозяйстве технологии ИИ помогают прогнозировать урожайность, рационально использовать ресурсы и снижать издержки. В промышленности автоматизация на основе ИИ способствует повышению производительности труда и улучшению качества продукции.

Развитие искусственного интеллекта предоставляет Узбекистану ряд стратегических преимуществ. Во-первых, это повышение конкурентоспособности национальной экономики на международной арене. Во-вторых, оптимизация государственных расходов за счёт автоматизации процессов. В-третьих, улучшение качества управленческих решений благодаря анализу больших данных.

Кроме того, ИИ способствует развитию новых отраслей экономики, созданию высокотехнологичных рабочих мест и увеличению экспортного потенциала страны. Несмотря на значительные преимущества, развитие ИИ связано с рядом вызовов для экономической безопасности. Одной из основных

угроз является рост технологической зависимости от иностранных разработчиков и программных решений.

Также существует риск увеличения безработицы вследствие автоматизации и вытеснения традиционных профессий. Важной проблемой является кибербезопасность, поскольку использование ИИ увеличивает уязвимость информационных систем к кибератакам. Дополнительным фактором риска выступает недостаточный уровень подготовки кадров, способных эффективно работать с новыми технологиями. Для минимизации рисков и эффективного использования потенциала ИИ государству необходимо проводить активную политику в данной сфере. Важными направлениями являются развитие национальной цифровой инфраструктуры, поддержка отечественных IT-компаний и стимулирование научных исследований.

Особое внимание следует уделить реформированию системы образования с целью подготовки квалифицированных специалистов в области искусственного интеллекта и цифровых технологий. Кроме того, необходимо совершенствовать законодательную базу, регулирующую использование ИИ, а также усиливать меры кибербезопасности.

Заключение. Таким образом, искусственный интеллект играет двойственную роль в обеспечении экономической безопасности Узбекистана. С одной стороны, он открывает широкие возможности для модернизации экономики и повышения её эффективности. С другой стороны, создаёт новые риски, требующие системного подхода к их управлению.

Эффективная интеграция ИИ в экономику страны при условии грамотной государственной политики позволит Узбекистану укрепить свою экономическую безопасность и занять достойное место в глобальной цифровой экономике.

Список литературы

1. Конституция Республики Узбекистан. – Ташкент, 2023.

2. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы». – Ташкент, 2022.

3. Закон Республики Узбекистан «Об информатизации». – Ташкент.

4. Программа развития искусственного интеллекта в Республике Узбекистан. – Ташкент, 2021.

5. Абдуллаев А. Экономическая безопасность: теория и практика. – Ташкент: Экономика, 2020.

6. Каримов И.А. Узбекистан на пути углубления экономических реформ. – Ташкент, 2019.

7. Stiglitz J. *Globalization and Its Discontents*. – New York: W.W. Norton & Company, 2002.

8. Schwab K. *The Fourth Industrial Revolution*. – Geneva: World Economic Forum, 2016.

9. OECD. *Artificial Intelligence in Society*. – Paris, 2019.

10. World Bank. *Digital Development Overview*. – Washington, 2021.

11. McKinsey Global Institute. *The Age of AI*. – 2022.

12. Russell S., Norvig P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. – Pearson, 2021.

СОВРЕМЕННЫЕ РЕШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ (НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН)

Муртазаева Сайёра Камиловна *- University of Innovation Technologies, ассистент преподавателя*

А.Зиратдинова, Д.Худайбергенова, Г.Абдирова- *студенты University of Innovation Technologies.*

https://doi.org/10.5281/zenodo.19635639

Аннотация. *В статье рассматриваются современные подходы к обеспечению экономического развития региона в условиях цифровой экономики на примере Республики Каракалпакстан. Проанализированы*

ключевые факторы развития, включая цифровизацию экономики, развитие человеческого капитала и внедрение инновационных решений. Особое внимание уделено роли системы высшего образования как инструмента формирования цифровых и предпринимательских компетенций. Предложены практические рекомендации по внедрению цифровых технологий и развитию региональной экономики.

Ключевые слова: *цифровая экономика, региональное развитие, Каракалпакстан, человеческий капитал, инновации, цифровизация, предпринимательство.*

Abstract. *The article examines modern approaches to ensuring regional economic development in the context of a digital economy, using the example of the Republic of Karakalpakstan. Key development factors, including the digitalization of the economy, human capital development, and the implementation of innovative solutions, were analyzed. Special attention is paid to the role of the higher education system as a tool for forming digital and entrepreneurial competencies. Practical recommendations for the implementation of digital technologies and the development of the regional economy were proposed.*

Keywords: *digital economy, regional development, Karakalpakstan, human capital, innovation, digitalization, entrepreneurship.*

В условиях глобальной цифровой трансформации экономика регионов претерпевает значительные изменения. Современный этап развития характеризуется активным внедрением цифровых технологий, которые становятся ключевым фактором повышения конкурентоспособности и устойчивости экономики [4].

Для Республики Каракалпакстан проблема экономического развития в условиях цифровой экономики имеет особую актуальность, поскольку регион нуждается в ускорении темпов роста, повышении инвестиционной привлекательности и создании новых рабочих мест.

Президент Республики Узбекистан Шавкат Мирзиёев отмечает: «Цифровая экономика – это не только технологический прогресс, но и основа повышения эффективности всех отраслей экономики» [5].

В этих условиях особую значимость приобретают современные решения, направленные на цифровизацию экономики, развитие предпринимательства и формирование человеческого капитала.

Целью исследования является анализ современных решений экономического развития региона в условиях цифровой экономики и разработка практических рекомендаций для Республики Каракалпакстан.

Задачи исследования:

- определить ключевые факторы цифрового развития региона;
- проанализировать состояние экономики Каракалпакстана;
- выявить проблемы и ограничения;
- предложить современные решения экономического развития.

В работе использованы методы системного анализа, сравнительного анализа, статистического обобщения и логического моделирования.

Цифровая экономика представляет собой систему экономических отношений, основанных на использовании цифровых технологий. Её развитие способствует повышению производительности труда, снижению издержек и созданию новых рынков [4].

В современных условиях именно цифровизация становится драйвером экономического роста регионов, обеспечивая развитие малого бизнеса, электронной коммерции и инновационной деятельности.

Экономика Республики Каракалпакстан характеризуется наличием значительного потенциала, особенно в сельском хозяйстве, промышленности и сфере услуг.

В последние годы наблюдается рост образовательного потенциала региона: численность студентов увеличилась с 27 892 человек в 2020 году до

39 471 человек в 2022 году [5]. Это создаёт предпосылки для формирования качественного человеческого капитала.

Однако сохраняются проблемы, связанные с недостаточным уровнем цифровизации экономики, ограниченным развитием инновационной инфраструктуры и недостаточной интеграцией образования и бизнеса [6,7].

Matematika — ekonomikanıń tili esaplanadı. Sanlı ekonomika sharayatında matematikalıq esaplawlarsız hesh qanday finanslıq progozlardı islep shıǵıw múmkin emes. [2] Innovatsiyalıq qatnas sıpatında sabaqlarda «Fintech» elementlerin kirgiziw júdá nátiyjeli bolıp, mısalı, procent stavkaların dápterde emes, onıń ornına Python tilinde kishi kod jazıw arqalı esaplasa studenttiń hám logikalıq oylawın hám Informatsiyalıq sawatxanlıǵın (IT) birdey asıradı.

Oqıtıwdıń jáne bir innovatsiyalıq usılı - gamifikatsiya bolıp tabıladı. Studentler virtual birja oyınları arqalı bazar konyukturasın úyrenedi, risklardı matematikalıq bahalaydı hám optimal sheshim qabıllaw kónlikpelerin iyeleydi. [3] Sonday-aq, «Big Data» menen islesiw metodikası matematika sabaqlarında statistikalıq analizdi úyreniwge jańa tús beredi. Bunday sanlastırıw procesi waqıttı únemlew, pánge qızıǵıwshılıqtı arttırıw hám keleshek qánigelerdiń miynet bazarındaǵı básekililigin támiyinlew sıyaqlı unamlı nátiyjelerdi beredi.

Analizler hám pikir almasıwlar. Biraq, sanlastırıwda bir qátelikten qashıw kerek: texnologiya — bul maqset emes, bul tek qural bolıp tabıladı. Eger student matematikalıq logikanı túsinse, eń zamanagóy programma da oǵan járdem bere almaydı. [2] Sonlıqtan, bilim beriwde eń optimal variant **«Dástúriy logika + Zamanagóy texnologiya»** formulası esaplanadı. **Dástúriy logika** - bul studenttiń óz betinshe oylawı, analiz qılıwı, matematikalıq nızamlılıqlardı túsiniwi hám ekonomikalıq sebep-aqıbet baylanısların qura alıw kónlikpesi. Texnologiya qansha rawajlanbasın, eger student «ne ushın bul formula qollanıldı?» degen sorawǵa juwap taba almasa, ol tek «túyme basıwshı» qánige bolıp qaladı. Logika — bul poyezddiń relsi, ol bolmasa poyezd (bilim) kerekli jóneliske júre almaydı.

Zamanagóy texnologiya — bul logikalıq esaplawlardı tezlestiriwshi, kózge kórsetiwshi (vizualizatsiya) hám úlken maǵlıwmatlar (Big Data) menen islesiwge imkaniyat beriwshi qural. Python baǵdarlaw tili, neyrotarmaqlar yamasa quramalı ekonomikalıq baǵdarlamalar insan qolı menen kóp waqıt alatuǵın jumıslardı sekundlarda orınlaydı.

Juwmaq hám usınıslar. Solay etip, tálimge sanlı texnologiyalardı kirgiziw — bul oqıtıwshınıń ornın basıw emes, al studenttiń intellektual múmkinshiliklerin keńeytiwshi kúshli qural bolıp xızmet etiwi tiyis. Tek sonday jaǵdayda ǵana, biz bilimlendiriw sistemasında sapalı hám nátiyjeli kórsetkishlerge erise alamız.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Karimov I. «Sanlı ekonomika: Teoriya hám ámeliyat». Nókis, 2024.

2. Данекин, А. В. Использование математического аппарата в преподавании экономических дисциплин в условиях цифровизации / А. В. Данекин // Инновации в образовании. — 2021. — № 4. — С. 45–52.

3. Smith J. «Modern Approaches in Teaching Mathematics». London, 2023.

4. Zamanagóy tálim portalları hám elektron resurslar (Ziyonet.uz, Coursera).

XORIJIY DAVLATLARDA INNOVATSION BOSHQARISHNING MOLIYALASHTIRISH MANBALARI

Yusupova Jamila Karamatdinovna-University of innovation technologies “Moliya va iqtisodiyot” kafedrasi i.f.f.d,PhD, dotsent v.v.b,

Shamuratova Alima Xabibullaevna-Nukus davlat texnika universiteti” Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi assistent o’qituvchisi.

Narimbetova Zulfiya Joldasbaevna-Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

Jaqsimuratova Mexriban Ruslan qizi - University of innovation technologies Iqtisodiyot yo’nalishi talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19633476

Annotatsiya. Innovatsion jarayovlarni rivojlantirishda xorijiy davlatlarining moliyaviy resusrlarni shakllantirish manbalari haqida.Innovatsion boshqarishda raqamli transformatsiyalash korxona va tashkilotlar faoliyatini yanada modernizatsiya qilish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari to’g’risida batafsil o’rganilgan.

Kalit so’zlar: Innovatsion soha, iqtisodiy resurs, innovatsion salohiyat,omil,tendentsiya

Abstract. About the sources of financial resources of foreign countries in the development of innovation processes. The mechanisms of digital transformation in innovation management for further modernization of the activities of enterprises and organizations and increasing the competitiveness of the economy are studied in detail.

Key words. Innovation sphere, economic resource, innovation potential, factor, trend.

Jahon iqtisodiyotiga global pandemiyaning salbiy ta’sirlari oqibatlari barcha sohalarda raqamlashtirish asosida korxona va tashkilotlarda innovatsion boshqaruvni tatbiq etishning ahamiyatini ko‘rsatmoqda. Ushbu global tendentsiya allaqachon ko‘plab rivojlangan “raqamli yetakchi mamlakatlar, jumladan, Norvegiya, Shvesiya, Shveysariya, Daniya, Finlandiya, Singapur, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya, Gonkong, Xitoy va AQSh iqtisodiyoti tuzilmasiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, innovatsion boshqaruvdan raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash uchun eng muhim mexanizm sifatida foydalanilmoqda. “Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, raqamli iqtisodiyotning mamlakatlar yalpi ichki mahsuloti (YaIM)dagi ulushi AQSh da 10,9 foiz, Xitoyda 10 foiz, Hindistonda 5,5 foiz, O‘zbekistonda 2 foizni tashkil etadi”. Raqamli texnologiyalar foydalangan iqtisodiyotni innovatsion boshqargan holda innovatsion mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, innovatsion boshqaruv ortiqcha xarajatlarni ham kamaytirish sohani samarali rivojlantirish dolzarb muammo hisoblanmoqda.

Jahonda hozirgi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda ham sohalarni innovatsion boshqarishda raqamli transformatsiyalash korxona va tashkilotlar faoliyatini yanada modernizatsiya qilish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish salohiyatiga ega ekanligini ko‘rsatmoqda. Biznes jarayonlarini raqamlashtirish va ularni innovatsion boshqaruvga uyg‘unlashtirish, sun’iy intellekt yordamida boshqaruv qarorlarini optimallashtirish, tarmoqlar va klasterlarda innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun raqamli biznes-modellarni ishlab chiqish, byudjetlashtirish, hisobot berish va monitoring jarayonlarini avtomatlashtirish, tarmoqlararo kooperatsiyada raqamli platformalardan foydalanish, innovatsion tadqiqotlar va loyihalar ma’lumotlar bazasini muhofaza qilish, raqamli liderlik va innovatsion fikrlash madaniyatini shakllantirish kabilar jahonda iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida innovatsion boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy

mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda innovatsion faoliyatni davlat boshqaruvi moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor beradi. Misol uchun, AQShda kichik firmalarning ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini davlat tomonidan moliyalashtirish to‘g‘risidagi qonun mavjud. Qonun doirasida davlat vazirliklari va idoralari har yili ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini olib borish uchun korxonalarni o‘z byudjetlari hisobidan moliyaviy qo‘llabtlashlari shart hisoblanadi. Shuningdek, “Texnologik innovatsiyalar to‘g‘risida”gi Qonun sanoat sohasidagi innovatsiyalarni rag‘batlantirishni tartibga soladi. Buning uchun ijro hokimiyatida maxsus tashkilotlar tuzilgan bo‘lib, oliy o‘quv yurtlari, ishlab chiqarish va davlat laboratoriyalari o‘rtasida kadrlar (ham ilmiy ham texnik) almashinuviga ko‘maklashadi. Shu bilan birga, AQShda innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash NASA (NASA), Milliy fan jamg‘armasi (National Science Foundation), Kichik biznes ma’muriyati (Small Business Administration, SBA), universitetlar va sanoat vazirliklari tomonidan amalga oshiriladi.

Yaponiyada - innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash Xalq moliya korporatsiyasi (Japan Finance Corporation), Kichik biznesni moliyalashtirish korporatsiyasi (Small Business Finance Corporation), Tadbirkorlik tavakkalchiligi markazi (Center for Risky Entrepreneurship), shuningdek, markaziy va tijorat banklari bilan birga sug‘urta fondlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Mazkur tashkilotlarning sayi-harakatlari bilan innovatsion faoliyatni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uchun zamin yaratilmoqdava uning samaradorligi ushbu mamlakatlarning innovatsion natijalari bilan o‘z isbotini topmoqda.

Xitoy Xalq Respublikasida korxonalar o‘zlarining texnologiyalariga asoslangan yangi tovar va mahsulotlarni kreativ nuqtai nazardan yondashgan holda ishlab chiqarishga katta e’tibor qaratishadi. Innovatsiyalarga kompleks yondashuvdan foydalangan holda, yangi tovar va mahsulotlar korxona faoliyatining butun sog‘asini qamrab oladi Germaniya Federativ Respublikasida ikkita davlat organi mavjud bo‘lib, ular: Tadqiqot va texnologiyalar vazirligi hamda Iqtisodiyot

vazirliklari faoliyat olib boradi. Ushbu vazirliklar kichik va o‘rta firmalarning innovatsion faoliyatini rag‘batlantirish bilan shug‘ullanadi. Tadqiqot va texnologiyalar vazirligi bevosita turli xil dastur hamda loyihalarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi. Iqtisodiyot vazirligi tomonidan esa, turli ishlab chiqarish va ilmiy assotsiatsiyalar orqali yordamlar ko‘rsatiladi.

Kanadada kichik innovatsion biznes Fan va texnologiyalar vazirligi, Sanoat va savdo vazirligi hamda Milliy tadqiqot kengashi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Fransiyada 1978 yildan boshlab kichik va o‘rta korxonalar bo‘yicha davlat kotibiyati foaliyat yuritib kelmoqdaki, uning faoliyat yo‘nalishlaridan biri kichik va o‘rta korxonalarning innovatsion faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada kichik biznes innovatsiyalarini qo‘llab-quvvatlash sanoat departamenti orqali amalga oshiriladi. Texnopolislar va texnoparklar 3-5 yil davomida 10 va undan ortiq kichik innovatsion korxonalarni “shakllantiradi”, ularni lizing asosida kompyuterlar, asbob-uskunalar, transport vositalari, binolar bilan ta’minlaydi, shuningdek, zarur buxgalteriya hisobi, konsalting xizmatlari, qo‘shma ITTKIlarini olib borishda, kadrlar tayyorlashda, qo‘shma korxona firmalarini yaratishda yordam ko‘rsatadi.

Janubiy Koreya va boshqa bir qator sanoatlashgan davlatlarning ijobiy tajribasi milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda barqaror rivojlanishlarini ta’minlashda innovatsion faoliyatning hal qiluvchi rol o‘ynashidan yaqqol dalolat beradi. Aslini olganda, ushbu davlatlar geografik joylashuv nuqtai nazaridan zaif iqtisodiy iqlim, an’anaviy ijtimoiy institutlarning qarshiliklari va tabiiy resurslarning etishmasligiga qaramay bozor yaratuvchi innovatsiyalarni joriy etish natijasida taraqqiyotga erishishga muvaffaq bo‘ldi.

Jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni innovatsion asosga o‘tkazish uchun sharoit yaratish va yuqori texnologiyalarni rivojlantirishni taqozo etadi. Bunday texnologiyalarning jahon bozori yiliga 2,5 trillion AQSh dollariga baholanmoqda. Shundan 39% AQSh,

30% Yaponiya, 16% Germaniya hissasiga to‘g‘ri keladi. Dunyoning qolgan mamlakatlari 15% ulushni tashkil qiladi.

Umuman olganda, jahon amaliyotida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlarining quyidagi turlari qo‘llaniladi:

ilmiy-tadqiqot va investitsion soliq imtiyozlarini taqdim etish, ya’ni innovatsion maqsadlarda foydadan olinadigan harajatlar bo‘yicha soliq to‘lovlarini kechiktirish;

innovatsion harajatlarning oshishi hisobiga soliqni kamaytirish;

bir necha yil davomida innovatsion loyihalarni amalga oshirishdan olingan foyda bo‘yicha “soliq ta’tillari”ni joriy qilish;

yuridik va jismoniy shaxslarning innovatsion tashkilotlar aksiyalari bo‘yicha olingan dividentlariga imtiyozli soliq solish;

amalga oshirilayotgan loyihalarning ustuvorligini hisobga olgan holda imtiyozlar berish o‘rtasidagi bog‘liqlik;

patentlar, litsenziyalar, nou-xau va intellektual mulkka kiritilgan boshqa nomoddiy aktivlardan foydalanish natijasida olingan foydani imtiyozli soliqqa tortish;

oliy o‘quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot institutlari va boshqa innovatsion tashkilotlarga berilgan asbob-uskunalar va asbob-uskunalar qiymatiga soliq solinadigan foydani kamaytirish;

faoliyati innovatsiyalarni moliyalashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan hayriya jamg‘armalariga badallarni soliqqa tortiladigan daromaddan chegirib tashlash;

innovatsion tashkilot foydasining bir qismini innovatsion maqsadlarda foydalanilgan taqdirda, keyinchalik imtiyozli soliqqa tortish bilan maxsus hisobvaraqlarga kiritish.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, kichik innovatsion biznes juda dinamik va nisbatan kichik investitsiyalarni talab qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes innovatsiyalarning yarmiga yaqinini ta’minlaydi. Xarajat birligiga to‘g‘ri

keladigan innovatsiyalar soni kichik firmalarga nisbatan 4 baravar, yirik firmalarga qaraganda 24 baravar ko‘p.

Umuman olganda, innovatsion faoliyatni davlat tomonidan rag‘batlantirish tizimida bevosita shakllar innovatsion jarayonni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning bilvosita shakllari (soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, chegirmalar, amortizatsiyani hisobdan chiqarish) bilan birlashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1.Климова Н. В., Ларина Н. В. Зарубежный опыт стимулирования инновационной деятельности в промышленном секторе. – Пенза: Фундаментальные исследования, 2014. – 1442–1446 с.

2. Анализ зарубежного опыта по управлению инновационной деятельностью [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://moluch.ru/archive/90/18859/ (дата обращения 23.03.2019).

3. Инновационный менеджмент в фирмах Японии и США [Электронный ресурс]. – Режим доступа: https://studfiles.net/preview/6007567/page:18/ (дата обращения 25.03.2019).

4.Юсупова Ж.К. Аймақда инновациялық басқарыўдың шөлкемлескен экономикалық механизминиң шет ел тәжрийбеси // ҚҚДУ Хабарномаси. – Нукус, 2023. №1(59) Б. –64-67 (08.00.00; №26).

5.Юсупова Ж.К. Организационно-экономический механизм управления инновационной активностью в регионе в условиях цифровизации экономики. Mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy muammolari:tajriba, tendensiyalar va istiqbollari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to‘plami.2023-yil 28-oktyabr. Urganch davlat universiteti.465-468 b

6.J.K.Yusupova. Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoyitida innovatsion boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyadan.Nukus-2025 yil.84-92b

7. https://parliament.gov.uz/oz/articles/135

AVTOSERVIS XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING INNOVATSIYALARINI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA)

Shaymardonova Dildora Haydarjon qizi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi/ Innovatsion texnologiyalar universiteti o`qituvchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19634433

Annotatsiya. Maqolada avtoservis xizmatlari bozorida marketing innovatsiyalarini joriy etishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy istiqbollari Samarqand viloyati misolida tadqiq etilgan. Avtomobillashuv darajasi yuqori bo‘lgan sharoitda servis korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda raqamli marketing, CRM (Customer Relationship Management) tizimlari, Big Data tahlili va xizmatlarni personallashtirish mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida viloyatning tumanlararo servis ko‘rsatkichlari qiyoslanib, marketing innovatsiyalarini tatbiq etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: marketing innovatsiyalari, avtoservis, servis iqtisodiyoti, raqamli marketing, CRM-tizimlar, mijozlar loyalligi, xizmat ko‘rsatish sifati, raqobatbardoshlik, Big Data.

Abstract. The article examines the theoretical and methodological foundations and practical prospects for introducing marketing innovations in the car service market, using the Samarkand region as a case study. In conditions of a high level of motorization, the mechanisms of digital marketing, CRM (Customer Relationship Management) systems, Big Data analytics, and service personalization are analyzed to increase the competitiveness of service enterprises. During the study, inter-district service indicators of the region were compared, and scientific proposals and recommendations were put forward to increase economic efficiency through the implementation of marketing innovations.

Keywords: marketing innovations, car service, service economy, digital marketing, CRM systems, customer loyalty, service quality, competitiveness, Big Data.

KIRISH. Jahon iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasi sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi, xususan, avtoservis bozori tub burilishlar davrini boshidan kechirmoqda. O‘zbekiston Respublikasida, xususan, Samarqand viloyatida avtotransport vositalari sonining izchil ortishi (2025-yil holatiga ko‘ra viloyat aholisining avtomobil bilan ta’minlanganlik darajasi respublika ko‘rsatkichlaridan yuqori) ushbu sohada "narx raqobati"dan "innovatsion marketing raqobati"ga o‘tishni taqozo etmoqda.

An’anaviy marketing usullari endilikda iste’molchilarning individual talablarini qondirishda yetarli emas. Shu bois, servis korxonalari faoliyatiga raqamli texnologiyalar, mijozlar bilan munosabatlarni intellektual boshqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonini geymifikatsiyalash kabi marketing innovatsiyalarini tatbiq etish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. Marketing innovatsiyalari va servis iqtisodiyoti bo‘yicha jahon tajribasida **A. Parasuraman, V. Zeithaml va L. Berry** kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan **SERVQUAL** modeli xizmat ko‘rsatish sifatini baholashda fundamental asos hisoblanadi [1]. Mazkur model xizmat ko‘rsatish sifatini beshta asosiy mezon — ishonchlilik, sezilarlilik, javob qaytarish, ishonch va hamdardlik asosida tahlil qilish imkonini beradi.

Rossiyalik iqtisodchi **V.A. Batagov** avtoservis bozoridagi tarkibiy cheklovlarni tahlil qilar ekan, marketing kommunikatsiyalarini raqamlashtirishni (digitalization) sohadagi inqirozli holatlardan chiqishning asosiy yechimi sifatida ko‘rsatadi [4]. Mahalliy tadqiqotchilar orasida **M.X. Xomidov** sanoat korxonalari va servis zanjirida klasterlashuv afzalliklarini tadqiq etgan bo‘lib, u iqtisodiy sub’ektlar o‘rtasidagi texnologik integratsiyaning marketing samaradorligiga ta’sirini yuqori baholagan [7]. **D.D. Karimboyev** tomonidan esa mintaqaviy transport tarmoqlarini barqaror rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari yoritib berilgan [6]. Bizning tadqiqotimiz yuqoridagi nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda, marketing innovatsiyalari prizmasi orqali Samarqand

viloyati avtoservis bozorining raqobatbardoshligini oshirish modelini taklif etishi bilan ajralib turadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, induksiya va deduksiya, qiyosiy iqtisodiy tahlil hamda marketingning 7P (Product, Price, Place, Promotion, People, Process, Physical Evidence) modeli usullaridan foydalanildi. Ma’lumotlarni umumlashtirishda SWOT-tahlil va mantiqiy modellashtirish usullari qo‘llanildi.

Tadqiqot jarayonida marketing tahlilining **7P modeli** (Product, Price, Place, Promotion, People, Process, Physical Evidence) usullaridan foydalanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR. Samarqand viloyati respublikaning eng ko‘p aholiga ega hududi bo‘lib, 2025-yil 1-oktyabr holatiga ko‘ra aholi soni 4,3 milliondan oshgan [9]. Viloyatning tranzit salohiyati (M-39 va M-37 xalqaro magistrallari) avtoservis xizmatlariga bo‘lgan talabni nafaqat mahalliy, balki xalqaro darajada ham shakllantiradi.

Bizning tahlillarimizga ko‘ra, marketing innovatsiyalarini joriy etish darajasi viloyat markazi va chekka tumanlar o‘rtasida keskin farq qiladi (1-jadval).

1-jadval. Samarqand viloyati avtoservislarida marketing innovatsiyalari qo‘llanilishi (2025-y. yakuni)

Ko'rsatkichlar	**Samarqand shahri**	**Pastdarg'om tumani**	**Bulung'ur tumani**
CRM tizimidan foydalanish darajasi	45%	12%	8%
Ijtimoiy tarmoqlar orqali marketing	78%	30%	25%
Onlayn navbat va bron qilish	35%	5%	3%
Mijozlar loyallik dasturlari	52%	15%	10%

Ushbu tafovutni bartaraf etish uchun hududiy **sinergiya modelini** qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bunda Samarqand viloyatining yuqori aholi zichligi (S - kuchli jihat) va zamonaviy raqamli texnologiyalarning kirib kelishi (O - imkoniyat) birlashib, servis korxonalarining barqaror iqtisodiy o‘sishini ta’minlovchi musbat natijani (sinergiyani) yuzaga keltiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, avtoservis korxonalarida marketing innovatsiyalarini rivojlantirishning quyidagi **strategik yo‘nalishlarini** taklif etamiz:

1. **Bashoratli (Predictive) Marketing:** Big Data tahlili yordamida avtomobilning texnik xizmat ko‘rsatish vaqtini (moy almashtirish, akkumulyator quvvati va h.k.) oldindan aniqlash va mijozga profilaktik takliflar yuborish. Bu mijozlarning qaytish koeffitsiyentini (Retention rate) 25-30% ga oshiradi.

2. **Omnikanal kommunikatsiya:** Telegram-bot, Instagram va veb-sayt orqali mijoz bilan uzluksiz aloqa o‘rnatish. So‘rovnomaga ko‘ra, mijozlarning 68 foizi navbatga onlayn yozilish imkoniyati mavjud servisni afzal ko‘radi.

3. **Lokal SEO va Geo-fencing:** Tranzit yo‘llar yoqasidagi avtoservislar uchun Google Maps va Yandex xaritalarida samarali marketing yuritish orqali mijozlar oqimini 15% ga oshirish imkoniyati mavjud.

Avtoservisda marketing innovatsiyalarining SWOT-tahlili shuni ko‘rsatadiki, ichki imkoniyatlarni (S) tashqi raqamli trendlar (O) bilan birlashtirish orqali viloyatdagi servis korxonalarining raqobatbardoshligini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Tadqiqot natijalari asosida avtoservis xizmatlari bozorida marketing innovatsiyalarini qo‘llash bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

- **"Smart Auto-Service" yagona platformasini yaratish:** Viloyat miqyosida barcha servis markazlarini yagona reyting va onlayn bron tizimiga integratsiyalash.
- **Mijozlar tajribasini (Customer Experience) boshqarish:** Servis xizmati tugagandan so‘ng avtomatlashtirilgan qayta aloqa (NPS so‘rovnomalari) tizimini joriy etish.
- **Kreativ servis marketingi:** Murakkab texnik ma’lumotlarni "vizual-interaktiv" shaklda (masalan, QR-kodli diagnostika varaqalari) mijozga taqdim etish orqali shaffoflikni ta’minlash.

Ushbu marketing innovatsiyalarini amaliyotga tatbiq etish Samarqand viloyatida servis sohasining raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va pirovardida aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Parasuraman, A., Zeithaml, V. A., & Berry, L. L. (1988). SERVQUAL: A multiple-item scale for measuring consumer perceptions of service quality. Journal of Retailing.

2. Wang, G., Zhang, X., & Xu, R. (2023). Does Vocational Education Matter in Rural China? Education Sciences, 13(3).

3. Kamaludin, A. S., & Qibthiyyah, R. M. (2022). Village Road Quality and Accessibility. AGRARIS, 8(2).

4. Батагов В.А. Современные проблемы рынка автотранспортных услуг в РФ. Вестник СКФУ. 2023;(3).

5. Хлопцев А.Н. Формирование рынка сервисного обслуживания автомобилей. Автореферат дисс. Москва – 2005.

6. Karimboev, D. (2025). Energoeffektivnie transportnie sredstva. Ekonomika i predprinimatelstvo.

7. Mirodiljon Xasanboy o‘g‘li, X. (2025). Assessment of Cooperation Activities of Industrial Enterprises. AJSHR, 6(5).

8. Shaymardanova D. (2025). Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o‘rni. «Muhandislik Va Iqtisodiyot» Jurnali, 3(6).

9. https://www.uzdaily.uz/ (Samarkand leads in population statistics, 2025).

10. Asian Transport Outlook (ATO). (2024). Transport Profile: Uzbekistan.

11. Санжар Мирзалиев и др. (2022). Обоснование синергии инновационных ИТС. ICFNDS ‘22.

12. Republic of Uzbekistan Country strategic opportunities programme 2023–2027. EB 2022/137/R.22.

“TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNING O‘RNI”

Jusupova Anjim Tansıqbaevna - University of Innovation technologies, “Moliya va iqtisodiyot” kafedrasi assistenti**.**

Eshimbetova Sevinch Ilxamovna - UIT Moliya yo‘nalishi talabasi

Torebayeva Gulsayya Ansatbayevna - UIT Moliya yo‘nalishi talabasi**.**

https://doi.org/10.5281/zenodo.19634067

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda iqtisodiy subyektlarning raqobatbardoshligiga etarlicha yuqori talablar qo‘yilmoqda, biroq ko‘pincha tadbirkorlik tuzilmalari rahbarlariga o‘z biznes g‘oyalarini baholash tajribasi etishmaydi, ularga tegishli vakolatlar, ya’ni strategik rejalashtirish ko‘nikmalari etishmaydi. Strategik

rejalashtirish zamonaviy ilmiy yondashuvlar va mavjud ilg‘or texnologiyalarni hisobga olgan holda iqtisodiy subyektni rivojlantirishning strategik ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni o‘zining asosiy maqsadi sifatida ko‘zlaydi. Strategik rejalashtirishning obyekti bo‘lib iqtisodiy tizimlar hisoblanadi, strategik rejalashtirishning predmet sohasi esa rejalashtirish obyektining ichida va tashqarisida sodir bo‘ladigan turli hodisa va voqealarni qamrab oladi. Strategik rejalashtirish jarayoni noaniqlik sharoitida va tashqi omillarni hisobga olgan holda iqtisodiy subyektni rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli istiqbolda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish imkonini beruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada iqtisodiy subyekt uchun strategik rejalashtirishning bir qator afzalliklari ko‘rsatilgan, strategik rejalashtirish jarayoni taqdim etilgan, prognozlash kabi strategik rejalashtirish tartibining roli shakllantirilgan, shuningdek, strategik nazoratning ahamiyati tavsiflangan.

Abstract. Currently, sufficiently high demands are placed on the competitiveness of economic entities, however, often the heads of business structures lack experience in evaluating their business ideas, they lack the corresponding competencies, that is, the skills of strategic planning. Strategic planning aims to develop and implement strategic priorities for the development of an economic entity, taking into account modern scientific approaches and existing advanced technologies. The object of strategic planning is economic systems, while the subject area of strategic planning encompasses various phenomena and events occurring within and outside the object of planning. The process of strategic planning acts as a tool that allows for the development and adoption of long-term management decisions aimed at the development of an economic entity under conditions of uncertainty and taking into account external factors. The article outlines a number of advantages of strategic planning for an economic entity, presents the process of strategic planning, formulates the role of such a strategic planning procedure as forecasting, and describes the importance of strategic control

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, tadbirkorlik faoliyati, strategik rejalashtirish, raqobatbardoshlik.

Keywords: entrepreneurship, entrepreneurial activity, strategic planning, competitiveness.

Kirish: Iqtisodiy munosabatlar rivojlanishining hozirgi bosqichida iqtisodiy subyektlarning raqobatbardoshligiga ancha yuqori talablar qo‘yiladi. Iqtisodiy subyektning rivojlanish samaradorligini ta’minlash, ya’ni ularni bozorda barqarorlashtirish, ishlab chiqarishni tashqi muhitda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga tezkor moslashtirish qobiliyatiga ushbu subyekt ichida to‘g‘ri tashkil etilgan strategik rejalashtirish ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi vaqtda rahbariyat uchun ichki va tashqi muhitda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga shunchaki javob berish, yanada ilg‘or usullarni eng samarali qo‘llash, ya’ni strategik rejalashtirishni amalga oshirish yetarli emas.

Ko‘pincha tadbirkorlik tuzilmalari rahbarlari o‘z biznes-g‘oyalarini baholash tajribasiga ega bo‘lmaydilar.Iqtisodiy vaziyatni rivojlantirish va yangi biznes-loyihalarning ichki hayotiyligi modelini tuza olmaslik kompaniya raqobatbardoshligining pasayishiga olib keladi. Bu ko‘pincha kichik va o‘rta biznes egalariga xos bo‘lib, ularda tegishli vakolatlar, ya’ni strategik rejalashtirish ko‘nikmalari yetishmaydi.

Maqsad va vazifalar: Strategik rejalashtirish zamonaviy ilmiy yondashuvlar va mavjud ilg‘or texnologiyalarni hisobga olgan holda iqtisodiy subyektni rivojlantirishning strategik ustuvor yo‘nalishlarini ishlab chiqish va amalga oshirishni o‘zining asosiy maqsadi sifatida ko‘zlaydi.

"Rejalashtirish" tushunchasini odamlarning ijtimoiy amaliyotining o‘ziga xos shakli sifatida ko‘rib chiqish mumkin, bu boshqaruvning ustuvor funksiyalaridan biri bo‘lib, bashoratlar, dasturlar va rejalar loyihalari ko‘rinishidagi boshqaruv qarorlarining turli xil variantlarini ishlab chiqish, ularning optimalligini asoslash, amalga oshirish imkoniyatini ta’minlash va ularning bajarilishini tekshirishdan iborat.

Strategik rejalashtirish o‘z navbatida doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa sharoitlarda tadbirkorlik tuzilmalari faoliyati samaradorligini

oshirishga qaratilgan strategik qarorlarni qabul qilish va baholash jarayonini ifodalaydi. Strategik rejalashtirish turli iqtisodiy, boshqaruv, tashkiliy va boshqa funksiyalarning asosi bo‘lib, ular tashkilotning rivojlanishini tavsiflaydi. Mohiyatan, bu barcha ko‘rsatilgan funksiyalarning o‘zaro ta’siri jarayoni bo‘lib, uning natijasida tadbirkorlik tuzilmasining raqobatbardoshligini oshiradigan shakllangan prognozlashtiriladigan tizim paydo bo‘ladi.

Strategik rejalashtirishning obyekti iqtisodiy tizimlar, ya’ni tijorat va notijorat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar kabi iqtisodiy subyektlar hisoblanadi.

Strategik rejalashtirishning predmet sohasi rejalashtirish obyekti ichida ham, undan tashqarida ham sodir bo‘ladigan turli hodisa va voqealarni qamrab oladi, boshqacha aytganda, ushbu fanning predmeti bir tomondan iqtisodiy subyektning maqsad va vazifalari, ikkinchi tomondan tashqi muhit va tashqi muhitning o‘zgarishi o‘rtasidagi strategik muvozanatni yaratish va saqlash jarayonini ko‘rib chiqadi. O‘z navbatida, strategik rejalashtirish jarayoni noaniqlik sharoitida va tashqi omillarni hisobga olgan holda iqtisodiy subyektni rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli istiqbolda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish imkonini beruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodologiya: Tadbirkorlik faoliyatini strategik rejalashtirish quyidagilarga ko‘maklashadi:

- qabul qilinayotgan boshqaruv qarorlari sifatga asoslanishiga ishonch hosil qilish; voqealar rivojining boshqa variantlarini tahlil qilish va ishlab chiqishni hisobga olgan holda, bunda korporativ maqsadlar va strategiya davr talablariga javob berishiga va zarur hollarda qayta ko‘rib chiqilishiga to‘liq ishonch mavjud bo‘lishi kerak.

- iqtisodiy subyektning uzoq muddatli qo‘yilmalari asoslanganligi va ularning qaytimi to‘g‘ri baholanganligiga ishonch hosil qilish;

- tashkiliy jarayonning shakllanishi va rivojlanishi, boshqaruvning malakali tuzilmasini ishlab chiqish yirik kompaniya, rahbariyatning nazorat funksiyalarini oshirish.

Har qanday holatda ham tadbirkorlik faoliyatini strategik rejalashtirish ko‘lami quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

- kompaniyaning strategik maqsadlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, kelajakka yo‘naltirilgan, nazorat qilinmaydigan omillarga ta’sir ko‘rsatadigan muammolarning mohiyati;

- kompaniyani rivojlantirishning muqobil variantlarini ishlab chiqish va asoslash;

- kompaniyani uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish maqsadlari va vazifalarini aniq tushunish, shuningdek, belgilangan maqsadlarga erishish va shakllantirilgan vazifalarni ochib berish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasining mavjudligi;

- kompaniyaning ichki va tashqi muhiti bilan bog‘liq kompleks yechimlarni ishlab chiqish;

- kompaniya faoliyatining barcha ishtirokchilari manfaatlari muvozanatini o‘rnatish;

- kompaniyaning moliya-xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati ko‘lami bo‘yicha

Shuni tushunish kerakki, tadbirkorlik faoliyatini strategik rejalashtirish biron-bir tezkor harakat yoki tezkor natijalar bilan yakunlanmaydi, u rasmiy va norasmiy tartib-qoidalarni o‘z ichiga oladi.

Iqtisodiy subyekt uchun strategik rejalashtirishning qator afzalliklarini ko‘rsatib o‘tish mumkin (1-rasm).



1-rasm - Iqtisodiy subyekt uchun strategik rejalashtirishning afzalliklari.

Xulosa: Tadbirkorlik faoliyatini strategik rejalashtirishga zamonaviy yondashuvning asosiy jihatlaridan biri strategik rejani amalga oshirishni qanday nazorat qilishni tushunishdir. Strategik nazorat, ya’ni strategiyaning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, strategik muqobillar tanlangan, tadbirkorlik tuzilmasini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan asosiy parametrlarning o‘zgarishi ustidan nazorat qilish tushunchasi mavjud.

Shunday qilib, strategik rejalashtirish umuman mamlakat iqtisodiyotining ham, muayyan iqtisodiy subyektning ham samarali rivojlanishini belgilovchi boshqaruv qarorlarini qabul qilishning ahamiyati, tajribasi, shakllari, usullari va vositalarini o‘zida mujassamlashtirgan iqtisodiy kategoriyadir.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarda O‘zbekiston

Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

06.07.2022-yildagi PF–165-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/-6102462.

2. Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 19.03.2025 yildagi PF-50-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). "Yangi O‘zbekistonning 2022-

2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to‘g’risida". PF-60 Farmoni. https://president.uz/uz/lists/view/5089

4. Jusupova A.T., O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. - Qarshi davlat texnika universiteti. Innovatsion iqtisodiyot ilmiy-amaliy electron jurnal. ISSN: 3030-315X ojs.qmii.uz.V.150-153.

5.Jusupova A.T., Faktoring - kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning muqobil asosi. O’zbekiston sug’urta bozori | Страховой рынок Узбекистана | Insurance market of Uzbekistan https://insurance.tsue.uz V.33-35 doi:https://doi.org/10.55439/insure/vol1_iss11/a10

KORXONA MOLIYAVIY RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Jusupova Anjim Tansıqbaevna - UIT “Moliya va iqtisodyot” kafedrasi assistenti**.**

Uzoqboyeva Aysanem Mirbekovna - UIT Moliya yo‘nalishi talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.19633960

Annotatsiya. Moliyaviy resurslardan samarali foydalanishga pul mablag‘lari, kreditlar va boshqa qarzga olingan aktivlarga bo‘lgan ehtiyojni hisob-kitob qilish yordamida erishiladi. Moliyaviy resurslarning rentabellik, to‘lov qobiliyati va likvidlik darajalarini aniqlash korxonaning samarali xo‘jalik faoliyatini ta’minlaydi.

Moliyaviy mablag‘lardan foydalanishni doimiy nazorat qilish esa mulkdorlarga biznesning barqarorligi va ishonchliligini oshirish imkonini beradi.

Abstract. Effective use of financial resources is achieved by calculating the need for funds, loans, and other borrowed assets. Determining the levels of profitability, solvency, and liquidity of financial resources ensures the effective economic activity of the enterprise. Constant monitoring of the use of financial resources will allow owners to increase the stability and reliability of their business.

Kalit so‘zlar: foydalanish samaradorligi, moliyaviy resurslar, barqarorlik va ishonchlilik, ichki xo‘jalik zaxiralari, joriy va marjinal xarajatlar, jalb qilingan pul mablag‘lari.

Keywords: efficiency of use, financial resources, stability and reliability, internal economic reserves, current and marginal costs, borrowed funds.

Raqobatli iqtisodiyot sharoitida bir maromda ishlab chiqarish, barqaror ta’minot va mahsulotning samarali tovar harakatini ta’minlashga qodir bo‘lgan moliyaviy resurslarning ahamiyati ortadi. Moliyaviy resurslar yordamida xo‘jalik strategiyasini shakllantirish va joriy ishda ishlab chiqarish salohiyatini oshirish amalga oshiriladi. "Shu jumladan, uni moslashtirish mexanizmini ishlab chiqish, shuningdek, amalga oshirilishi tadbirkorlik tuzilmasiga normal sharoitlarda va endogen va ekzogen omillarning qo‘zg‘alishi mavjud bo‘lganda funksiyalarni bajarish va rivojlanish maqsadiga erishish imkonini beradigan chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi"[1]. Korxona menejmenti doimiy ravishda moliyaviy portfel tuzilmasini shakllantirishi, o‘z va qarzga olingan pul mablag‘larini optimallashtirishni amalga oshirishi, shuningdek, moliyaviy barqarorlik va xo‘jalik faoliyatining ishonchliligi bog‘liq bo‘lgan asosiy fondlarni o‘zgartirishi kerak.

Moliyaviy resurslardan samarali foydalanish tushunchasi miqdor va sifat jihatidan baholashni o‘z ichiga oladi. Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash moliyaviy kapital tarkibidagi o‘zgarishlarni, pul mablag‘larining hosil bo‘lish manbalari bo‘yicha harakatini, foydalanish samaradorligini va boshqalarni tavsiflovchi turli mexanizmlarni o‘z ichiga olishi

mumkin. Moliyaviy resurslardan foydalanishni bunday baholash yetarli darajada to‘lov qobiliyati va kreditga layoqatlilikni qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz xo‘jalik faoliyatini ta’minlashga qodir bo‘lgan moliyaviy barqarorlikning ma’lum zaxirasini tashkil etish uchun amalga oshiriladi. Investitsiyalar va innovatsiyalar bilan bog‘liq xo‘jalik faoliyatini rivojlantirishning puxta ishlab chiqilgan strategiyalarining mavjudligi korxonaning moliyaviy resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishi va hatto operativ ish uchun pul mablag‘larining ba’zi hajmlarini saqlab qolishi mumkin**.**

"Innovatsion, marketing va moliyaviy salohiyatni baholash sifat ko‘rsatkichlari yordamida amalga oshiriladi: turli xil intellektual mulk obyektlarining mavjudligi; yangiliklarni o‘zlashtirish bo‘yicha biznes-rejalar, innovatsion "portfel"ning mavjudligi; ro‘yxatdan o‘tgan savdo belgilari, savdo belgilari, brend va bozordagi ijobiy obro‘ning mavjudligi; qarz mablag‘larini jalb qilish imkoniyati." [2]

Samaradorlikni o‘z vaqtida baholashni o‘tkazishning alohida maqsadi korxonaning moliyaviy resurslaridan foydalanish turli manbalardan moliyaviy resurslarni qo‘llashning yanada zamonaviy mexanizmlarini joriy etish asosida boshqaruv ishi samaradorligini oshirishdir. Bunday yo‘nalishlar ishlab chiqarishning o‘sishini va shunga mos ravishda qo‘shimcha foyda olishni ta’minlaydi. "Ma’lumki, o‘sish iqtisodiyot miqyosini uning jismoniy o‘lchovida miqdoriy jihatdan oshirishga qaratilgan"[3].



Moliyaviy portfelni shakllantirish va uzoq muddatli moliyaviy siyosatni ishlab chiqishga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadigan moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini baholashning ba’zi usullarini aniqlash mumkin. Bunday usullar tayyor mahsulotlarni sotish, o‘z pul kapitalidan foydalanish, sof aktivlar va mol-mulk qiymatini oshirish, asosiy uskunalarni modernizatsiya qilish va innovatsion loyihalarga sarmoya kiritishga ta’sir qiluvchi xo‘jalik faoliyatining muhim yo‘nalishlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarni hisoblash bilan bog‘liq. Ma’lumotlarni hisoblash ko‘rsatkichlarini aniqlash va zarur moliyaviy resurslar hajmini belgilash tayyor mahsulot ishlab chiqarish va sotishning o‘sishini, shuningdek, biznesning bozor qiymatini oshirishni ta’minlashga yordam beradi.

"Tadbirkorlik tuzilmalari uchun nafaqat iqtisodiy jihatdan boy bo‘lish, balki iqtisodiy o‘sish va o‘z iqtisodiy salohiyatini oshirishga intilish, ya’ni birinchi navbatda barqaror bo‘lish muhimdir"[4].

Moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini olingan natijaning sarflangan pul xarajatlariga nisbati sifatida tushunish munosabati bilan hisobot davrida moliyaviy mablag‘larni boshqarish samaradorligiga ham ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy samarani ko‘rib chiqish mumkin. Xo‘jalik mehnati, ichki tejamkorlik, boshqaruv mehnati va ijtimoiy rivojlanishning erishilgan darajasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik erkin qimmatli resurslarni yanada samarali boshqarishga imkon beradi. Biznesning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun. "Agar korxona faoliyati foyda olish bilan bog‘liq bo‘lsa va jami resurslar korxona tomonidan resurslardan foydalanish samaradorligi ishlab chiqarish rentabelligi ko‘rsatkichi, ya’ni u yoki bu davrda olingan foydaning shu davrda sarflangan, ishlab chiqarish xarajatlari sifatida baholangan resurslarga nisbati bilan baholanishi mumkin." [5].

Adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 06.07.2020 yildagi PF-6019-son.

2. Yo`ldoshev N.Q. va boshqalar. «Innovatsion menejment». Darslik. TDIU. 2011y.

3. Razinkov P.I., Maksimova A.D. Ключевые направления эффективного управления капиталом предприятия.2021.

4. Jusupova A.T., O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. - Qarshi davlat texnika universiteti. Innovatsion iqtisodiyot ilmiy-amaliy electron jurnal. ISSN: 3030-315X ojs.qmii.uz.V.150-153.

5.Jusupova A.T., Теоретические аспекты относительно вопросов развития предпринимательства. Научно-аналитический журнал-“Наука и практика”

Российского экономического университета имени Г. В. Плеханова

Т. 16. № 4 (56). 2024

УПРАВЛЕНЧЕСКИЙ УЧЕТ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ В УСЛОВИЯХ ДИДЖИТАЛИЗАЦИИ

Бегжанов Бердах Нажимович – ассистент University of Innovation Technologies.

Ерниязова Гулнара Тузелбаевна-студентка группы 1MMT 23 University of Innovation Technologies.

https://doi.org/10.5281/zenodo.19631857

Аннотация: В статье рассматривается анализ трансформации управленческого учета в контексте диджитализации с учетом современных требований и условий бизнеса.

Ключевые слова: цифровые технологии, диджитализация, управленческий учет, бизнес-среда, бюджетирование.

Annotation: This article examines the transformation of management accounting in the context of digitalization, taking into account modern business requirements and conditions.

Key words: digital technologies, digitalization, management accounting, business environment, budgeting.

В современном мире, где цифровые технологии стремительно меняют ландшафт бизнеса, новое значение приобретает и управленческий учет в условиях цифровой экономики. Исследуемая проблема становится особенно актуальной в контексте сегодняшних реалий, что приводит внесение существенных корректив в стандартные бизнес-процессы и изменения в бизнес-среде, требуя от субъектов хозяйствования быстрого переосмысления и адаптации своих стратегий, в том числе в аспекте управленческого учета. Развитие информационных технологий и диджитализация бизнес-процессов с учетом запросов пользователей способствуют обеспечению автоматизированной систематизации и обработки учетной информации для использования пользователями разных звеньев менеджмента и принятия управленческих решений [1].

Управленческий учет является ключевым элементом в системе управления предприятия. Он предоставляет менеджменту важную информацию для принятия бизнес-решений, планирования, контроля и оценки эффективности деятельности. Исторически развивался как ответ на потребности бизнеса в детальном анализе расходов и прибыли, а также для поддержки стратегического планирования. Традиционные методы управленческого учета в основном сосредотачивались на внутреннем сборе и анализе данных, что часто включало в себя ручную обработку больших объемов информации. Однако, с развитием технологий и появлением цифровой эры, его роль претерпела значительные изменения. Управленческий учет как важный инструмент в системе управления бизнесом прошел значительный путь развития, что отражено в многочисленных работах ученых и практиков. Научное мнение сосредотачивается на изучении эволюции управленческого учета как ответа на растущие потребности бизнеса в действующих инструментах для планирования, контроля, принятия решений и оценки эффективности. Одним из ключевых аспектов, на котором сосредоточено внимание, является интеграция управленческого учета с общей стратегией компании. Актуальным объектом исследований является изучение

влияния международных стандартов на развитие управленческого учета. Так, ученые анализируют адаптацию международных практик к реалиям, в частности в контексте глобализации и интеграции в мировое экономическое пространство [2]. Отдельным направлением исследователей является роль информационных технологий в современном управленческом учете. В работах исследователей подчеркнуто значение IT-инструментов в улучшении эффективности учетных процессов и предоставлении руководству качественной информации для принятия решений. В целом анализ публикаций по развитию теории управленческого учета указывает на глубокое понимание необходимости постоянного обновления подходов и методик в условиях быстрого развития рыночной среды и технологий. В частности, в условиях диджитализации эти исследования открывают новые горизонты для повышения эффективности управленческого учета, обеспечивая компаниям мощный инструмент для адаптации и развития в современной динамичной бизнес-среде. Диджитализация способствует новым возможностям управленческого учета, включая автоматизацию и использование сложных аналитических инструментов. Цифровые технологии, такие как ERP-системы (Enterprise Resource Planning), Bigdata, искусственный интеллект (AI) и машинное обучение, способствуют новым возможностям для сбора, обработки и анализа данных. Автоматизация учета бизнес-процессов снижает риск ошибки человека и обеспечивает более быстрое и эффективное его ведение. Цифровые инструменты позволяют интегрировать разнообразные источники данных, обеспечивая более глубокий и всесторонний анализ. Пока цифровые технологии в управленческом учете становятся не просто инструментом эффективности, но и средством выживания и адаптации бизнеса к быстро меняющимся условиям. Модернизация и осовременивание в цифровой экономике может помочь быстрее реагировать на недопущение кризисных ситуаций, оптимизировать ресурсы и поддерживать постоянство деятельности даже в условиях неопределенности и нестабильности. Таким образом, ведение управленческого учета в условиях развития и интеграции

цифровых технологий открывает новые перспективы для повышения эффективности управления, особенно в сложных и динамичных условиях современной бизнес-среды.

